1. Самосознание с профессиональной точки зрения (выявление собственных качеств, положительных и слабых сторон для взаимного обмена идеями в общении) и развитие на этой основе программы самовоспитания через взаимный обмен идеями. В этом месте целесообразно оценивать свою личность по следующим направлениям, анализировать опыт, уместно со студентами, анализировать опыт ощущений, полученных в общении с людьми, анализировать текущий уровень предшествующего общения в общении с людей, общение для анализа своих идеальных представлений о себе, для анализа представлений о том, как другие (учащиеся, учителя) оценивают ваши коммуникативные способности.

2. Работа на основе специализированных упражнений на развитие основных черт уверенности в себе.

3. Проведение различных общественных работ со студентами и людьми, при которых формируется опыт обмена идеями (лекции, беседы).

4. Создать систему ситуаций, формирующих опыт преодоления негативных настроений в общении и развивающих сердечность.

Исходя из коренных изменений в сфере образования и обучения Узбекистана, реализации цели и достижения гарантированного результата в образовании в настоящее время, совместной деятельности как учителя, так и ученика и поставленной ими цели, остается зависимым от выбранного содержания, метода, формы, инструмента. Но есть важнейший инструмент реализации этих целей, обеспечивающий качество и эффективность образовательного процесса. Это этика общения.

Формирование этики общения у современной молодежи с учетом ее возрастных особенностей имеет важное значение для ее становления как зрелых профессионалов в будущем.





# BO'LAJAK O'QITUVCHILARNING KOMMUNIKATIV-NUTQ MADANIYATINI RIVOJLANTIRISHDAGI TALABLAR VA IMKONIYATLAR

***Hamid Maxmudovich Sodiqov -*** *dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada pedagogik kadrlarni tayyorlashda ta'lim mazmuniga pedagogik faoliyatning sifatini oshirish maqsadida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatini samarali rivojlantirishni ta'minlovchi bilim va ko'nikmalar kengroq kiritilishi maqsadga muvofiqligi, bundan tashqari intellektual, axloqiy va ma'naviy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qilishi, shuningdek, bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirish uchun qo'yiladigan talablar va imkoniyatlar to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статъе в селях повышения качества педагогической деятелности при подготовке педагогических кадров селесообразно включат знания и умения, обеспечивающие эффективное развитие коммуникативной и речевой културы будущих учителей, а также служащие развитию интеллектуалных, нравственных и духовных качеств, а также для развития коммуникативной и речевой културы будущих педагогов представлены мнения о потребностях и возможностях.*

***Abstract:*** *In this article, in order to improve the quality of pedagogical activity in the preparation of teaching staff, it is advisable to include knowledge and skills that ensure the effective development of the communicative and speech culture of future teachers, as well as those that serve to develop intellectual, moral and spiritual qualities, as well as to develop the communicative and speech culture of future teachers views on needs and opportunities are presented.*

***Kalit so'zlar:*** *nutq, madaniyat, til, norma, talaffuz, usul, o'qituvchi, bilim, ko'nikma, malaka, kommunikatsiya, pedagogik tashxis.*

***Ключевые слова:*** *реч, културъа, язык, норма, произношение, метод, учител, знание, умение, компетентност, общение, педагогическая диагностика.*

***Keywords:*** *speech, culture, language, norm, pronunciation, method, teacher, knowledge, skill, competence, communication, pedagogical diagnostics.*

Jamiyatda yoshlarning mukammal, yetuk inson bo'lib shakllanishida aqliy qobiliyat va nutqiy malakalar katta o'rin tutadi. Shuning uchun yetuk kadrlarni yetkazishga asos bo'lib xizmat qiladigan bir qancha farmon va qarorlar chiqarilmoqda. Jumladan: O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 27-iyuldagi Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida PQ – 3151-son Qarori,[1] 2018-yil 5-iyundagi Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risidagi PQ-3775-son Qarorlarida[2] o'z aksini topganligini aytib o'tish mumkin.

O'quvchilar nutqining yetarli darajada shakllanishi uning atrof-muhit bilan yanada yaqinroq tanishishga xizmat qiladi. Tor ma'noda olib qaralganda nutq – til normalarini egallamoq, ya'ni talaffuz, urg'u, so'z ishlatishni, gap tuzish qonunlarini yaxshi bilmoq, shuningdek, tilning tasviriy vositalaridan har xil sharoitlarga mos va maqsadga muvofiq foydalana olish, ifodali o'qish madaniyatini egallash deb aytish maqsadga muvofiqdir.

Bunda, til vositalarining ahamiyati shaxs uchun eng dolzarb bo'lib, tilning shakli va funksiyalarini (amaldagi metodikalarda ifodalangan, ammo yetarlicha amalga oshirilmaganligicha qolayotgan) birligida anglash kerak. Xalqning madaniy-tarixiy tajribasi tilda aks etib, olam manzarasini anglashda, undan foydalanishda til muhim rol

1 Oliy ma'lumotli mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishda iqtisodiyot sohalari va tarmoqlarining ishtirokini yanada kengaytirish chora-tadbirlari to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ – 3151-son Qarori. 2017-yil 27- iyul

2 Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining PQ-3775-son Qarori.2018-yil 5-iyun

o'ynaydi.

Afsuski, nutq madaniyatini o'rgatishning usullari va vositalari doimo o'zini yetarli darajada oqlamayotganligini ta'kidlash lozim. Nutq madaniyati masalalari bilan shug'ullanuvchi ko'pgina mutaxassislar monologik fikr bildirishning qurilishidagi bog'liqlik toifasining alohida rolini yetarlicha baholamaydilar. Bunda zamonaviy tadqiqot ishlari amaliyoti aynan kommunikativ ta'sir samarasini ta'minlanishiga ishonch hosil qildiradi[3].

Bo'lajak o'qituvchilarda kommunikativ–nutq madaniyatini rivojlantirish jarayonida ularga nutq madaniyatini egallash darajasiga yuqori talablarni qo'yadi.

Avvalo, nutq madaniyati ostida, nutqning to'g'riligi nazarda tutiladi, bu esa so'zlovchilar va yozuvchilar tomonidan "namuna" va "ideal" yoki umumqabul qilingan odatlar sifatida qabul qilinuvchi zamonaviy adabiy til me'yorlariga rioya etish hisoblanadi.

Bo'lajak o'qituvchini tayyorlashda yakuniy maqsadni amalga oshirish nuqtayi nazaridan, pedagogika sohasida bilimlar va tajribalar sintezi sifatida talqin etiladigan, bo'lajak o'qituvchining kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirish to'g'risida fikr yuritish maqsadga muvofiq.

Kommunikativ-nutq madaniyatining rivojlanishi jarayonini psixolog tadqiqotchilardan L.S.Vigotskiy o'rgatishni muhitga moslashtirish orqali ko'nikma va malakalarni egallash, saqlash jarayoni sifatida tushunganlar. Keyinchalik o'rgatishni yoki shakllantirishni – mashq qilish ta'sirida individ xulqining ilg'or o'sib boruvchi o'zgarishi sifatida yanada keng talqin eta boshlagan[4].

Rus psixologlari mazkur jarayonni individning umumiy bilish faoliyatiga kiritganlar. Bu mazmunda kommunikativ-nutq madaniyatini shakllantirish perseptiv, fikrlash va amaliy harakatlarning rivojlanishini nazarda tutadigan murakkab faoliyat sifatida qaralgan. Hozirgi vaqtda psixologlar mazkur jarayon aqliy faoliyatning usullari tizimini o'zlashtirish bilan belgilanishini tasdiqlaydilar.

Nutq kommunikatsiyasining pedagogik funksiyasi bo'lajak o'qituvchilarning konstruktiv – rejalashtirish ko'nikmasi, tashkiliy, kommunikativ-o'rgatuvchi, tarbiyaviy, gnostik kabi ko'nikma va malakalarini rivojlantirishga birinchi darajali ta'sir ko'rsatadi.

Malaka sifatida kommunikativ o'rgatish funksiyasi o'qituvchi va o'quvchilar o'rtasidagi to'g'ri o'zaro munosabatlarni o'rnatishni nazarda tutadi. Xorij olimlaridan Delamare Le Deist Winterton J.Que's que c'e competence,[5]L.R Humes The Future of Competency-based Learning IMS Global Consortium[6] nomli ishlarida ham tashkiliy funksiya o'quvchilarning kommunikativ-o'qitish faoliyatlarini tashkil etishni ko'zda tutadi deya ta'kidlab o'tganlarini aytish mumkin. Tarbiyaviy funksiya o'quvchilarning g'oyaviy-siyosiy, aqliy va axloqiy tarbiyalarini amalga oshirishga yo'naltirilgan. Gnostik (tadqiqotchilik) funksiya nutqiy materialni tahlil qilish va baholash malakasini egallashni ko'zda tutadi deb aytish mumkin.

Pedagogik faoliyatning muvaffaqiyati bevosita bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatiga bog'liq. Pedagogika oliy ta'lim muassasasining vazifasi – pedagogik faoliyatning ma'lum sohasida o'z kasbining roli va ijtimoiy ahamiyatini tushunuvchi yuqori malakali mutaxassislarni tayyorlash hisoblanadi. Pedagogik malakaning asosiy belgisi hozirgi vaqtda o'qituvchi bayon etadigan fanini bilishi bilan birgalikda o'rgatishni bilish, bilimga qiziqishni uyg'otish, shaxsning ma'lum sifatlarini, xarakteri va axloqiy sifatlarini shakllantirish hamdir. O'qituvchiga mazkur talab pedagogik faoliyatning o'z mohiyatidan kelib chiqadi, boshqa insonning shaxsini shakllantirishga yo'naltirilgan sanoqsiz namunaviy hamda o'ziga xos vazifalarni yechishni ko'zda tutadi[7].

O'qituvchining kasbiy mahorati mazkur masalalarni muvaffaqiyatli hal etishda ifodalanadi. Tajribalarning ko'rsatishicha, yosh o'qituvchini nutq muloqoti nazariyasi bilan qurollantirishning o'zi uning pedagogik mahorati muammolarini hal etmaydi. Pedagogik mahoratni u faqatgina metodik nazariya o'qituvchi ishlashi kerak bo'lgan sharoitlarda muvaffaqiyatli qo'llanganidagina hosil qiladi. Bunda amaliy vazifalarni hal etish uchun ijodiy-metodik nazariyalardan foydalanish maqsadga muvofiq.

Metodik bilimlar bo'lajak o'qituvchi faoliyatiga ma'lum yo'nalganlikni baxsh etadi va uning oldida insonparvarlik vazifalarini ijodiy hal etish imkoniyatlarini ochadi. Pedagogika fanlari sohasidagi insonparvarlik yo'nalishi pedagogik mahoratning ma'lum usullarini to'g'ri tushunishni ko'zda tutib, u ijtimoiy munosabatlarni insonparvarlashtirish, mos mafkura va ma'naviyatni shakllantirishga yo'naltirilgan maxsus, psixologik-pedagogik va metodik bilimlar hamda o'tmish madaniy merosini mazkur o'qitish usulini qo'llash bo'yicha ongli integratsiyalangan foydalanishga asoslanadi. Oliy ta'lim muassasasida o'quv jarayonining kasbiy-pedagogik yo'nalganligi va maxsus qurilmasi aynan shundan iborat

3 Маҳмудов Н. Ўқитувчи нутқи маданияти.– Тошкент: Ўзбекистон Миллий кутубхонаси, 2009 й

4 Халиков А.А. Олий таълим муассасаларида бўлажак ўқитувчилар педагогик маҳоратини ривожлантириш. Монография. – Тошкент: Иқтисод Молия, 2015 й

5 Delamare Le Deist F., Winterton J.Que's que c'e competence // Human Resource Development International. – 2005y. March. – Vol. 8. –No. 1. – P. 32–36

6 Humes L.R. The Future of Competency-based Learning IMS Global Consortium // Series on Learning Impact.2013. – P 6

7 Машарипова У. Развитие коммуникативно-речевой компетентности учащихся общеобразовательной // Наука и мир. – Волгоград, 2015. –№11





bo'ladi, bu esa pedagogika va metodika singari sof pedagogik fanlar qatorida lingvistik o'quv fanlarini chuqur o'rganishni talab etadi.

Bunda talabalarda kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirish nafaqat til tizimini bilish va til materialini egallaganlik (nutqni), balki nutqiy muloqotning ijtimoiy me'yorlari, nutqiy xulq qoidalariga rioya etishni ham qamrab olgan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga asoslanishini ta'kidlash zarur[8].

Kasbiy tayyorgarlikka bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatining rivojlanganliligi yuqori darajasiga ko'ra faoliyatning yuqori natijalarini olishga imkon beruvchi bilim, ko'nikma va malakalarni kiritish zarur. Pedagogni "o'qituvchi-o'quvchi" tizimida samarali o'zaro munosabatga tayyorlash muammosi milliy ta'lim tizimining, jumladan, maktabning ham insonparvarlik pedagogikasiga o'tishi bilan dolzarb bo'lib qoldi. Shu tufayli, pedagogik kadrlarni tayyorlashda ta'lim mazmuniga pedagogik faoliyatning sifatini oshirish maqsadida bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatini samarali rivojlantirishni ta'minlovchi bilim va ko'nikmalar kengroq kiritilishi maqsadga muvofiq.

Bundan tashqari, kommunikativ-nutq madaniyati intellektual, axloqiy va ma'naviy sifatlarni rivojlantirishga xizmat qiladi. Jamiyatdagi o'zgarishlar o'z ortidan ta'limda, maktabdagi o'zgarishlarga olib keldi. Bundan, zamonaviy maktabda o'zgaruvchan sharoitlarda tezda harakat qiluvchi, shaxsiy imkoniyatlarini amalga oshirish uchun o'z kuchlarini ishga sola oladigan, o'zgargan sharoitlarda zarur bo'lgan yangi bilim, ko'nikmalarni, faoliyat usullarini egallashga tayyor o'qituvchi zarurligi kelib chiqadi[9].

Bugungi kunda pedagogik jarayonga kasbiy faoliyatning o'ziga xosligini inobatga olib, bo'lajak mutaxassisni muloqotga o'rgatishni ko'zda tutadigan mazmunni kiritishsiz pedagogik jarayonni ilmiy anglash va qurish vazifalarini hal etib bo'lmaydi. Zamonaviy jamiyatga oddiy mutaxassis emas, balki "madaniy inson", bilimlar, his-tuyg'ular, muloqot, ijodiy harakatlar madaniyatini integratsiyalovchi professional kerak. Kommunikativ rivojlanishning kamchiliklari esa mutaxassisning kasbiy va shaxsiy o'sishiga to'sqinlik qiladi.

Zamonaviy o'qituvchining tayyorgarligi boshqa talablar qatorida o'quv-tarbiyaviy-jarayonni samarali boshqarish qobiliyatini ko'zda tutadi. Bu tabiiyki, muloqotning nazariy asoslarini bilishni, o'quvchilar bilan aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash ko'nikmalarini, nutq savodxonligini rivojlantirishni, shuningdek, kommunikativ faoliyatda doimiy o'z-o'zini dolzarbligini ko'zlaydi.

Pedagogik tashxislash o'qituvchining o'z fani, uni o'zlashtirish psixologiyasi, uni o'qitish metodikasi va aniq kommunikativ munosabatlarni chuqur bilishiga tayanadi. O'qitish va tarbiyalash birligi prinsipini amalga oshirish yana bir muhim pedagogik funksiyani – tarbiyalash funksiyasini bajarish, ya'ni kommunikativ nutq faoliyati davomida talabalarning g'oyaviy-siyosiy, aqliy va axloqiy tarbiyalarini amalga oshirish bilan bog'liqdir.

Pedagogik vazifalarni hal etish jarayonida o'qituvchiga quyidagi imkoniyatlardan foydalangan holdagi ish turlarini bajarishiga to'g'ri keladi:

- aniq muloqot sharoitlarini o'rganish;
- nutqiy faoliyat davomida ehtimoldagi qiyinchiliklarning metodik tahlili va tashxisi;
- kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirish uchun mashg'ulot maqsadlarini loyihalash va uning rejasini tuzish;
- talabalar bilan va talabalar o'rtasida kommunikativ o'zaro munosabatlarni o'rnatish, mashg'ulot rejasini amalga oshirish jarayonida ularning kommunikativ faoliyatlariga tuzatishlar kiritish;
- o'z kompetentligi samaradorligini tahlil qilish va baholash;
- o'qitish, tarbiyalash va kommunikativ madaniyatni rivojlantirish birligi prinsipini amalga oshirish.

Muloqot qilishni bilish murakkab pedagogik xatti-harakatni ifodalaydi va ta'sir etishning kerakli usullarini topish ko'nikmasi bilangina cheklanmaydi, balki alohida psixologik tuzilishga ega bo'ladi. Uning o'qituvchi faoliyatidagi asosiy komponentlari kerakli munosabatlarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, o'zining nutqiy tajribasidan foydalanish, uni o'quvchilarning nutq madaniyatlari va umumiy rivojlanish darajalariga nisbatan moslashtirish, o'quvchilarning nutq faoliyatlarini rag'batlantirish va uni boshqarish bilan o'quvchilarning nutqiy faoliyatlari va xulqlari birligini ta'minlash kabi kommunikativ funksiyalar hisoblanadi.

Xulosa o'rnida aytish mumkinki, kommunikativ-nutq madaniyatini rivojlantirish nafaqat til tizimini bilish va til materialini egallaganlik (nutqni), balki nutqiy muloqotning ijtimoiy me'yorlari, nutqiy xulq qoidalariga rioya etishni ham qamrab olgan kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga asoslanishini ta'kidlaydi. Bo'lajak o'qituvchilarning kommunikativ-nutq madaniyatining rivojlanganliligi pedagogik faoliyatning yuqori natijalarini egallash imkonini beruvchi bilim, ko'nikma va malakalarni nazarda tutadi.

8 Sodiqov Kh. Developing Communicative and Speech Culture and Communicative Competence of Future Teachers. //Eastern Europen Scientific Journal. Germany. 2018. 3-сон

9 Содиқов Ҳ.М. Бўлажак ўқитувчининг «коммуникатив-нутқ маданияти» тушунчасининг моҳияти ва унинг назарий модели. //ТДПУ Илмий ахборотлари. Илмий журнал. – Тошкент, 2019. 1-сон

# TEXNOLOGIYA DARSLARIDA KOMPYUTER TEXNOLOGIYALARI O'QUV JARAYONI SIFATINI OSHIRISH VOSITASI SIFATIDA

***Farxod Sanaqulovich To'rabekov** - p.f.n., dotsent, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti*

***Annotatsiya:** Maqolada umumta'lim maktablari o'quv jarayonida, xususan, texnologiya darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish xususiyatlari, AKTning o'quv jarayoni sifatini oshirish vositasi sifatida o'rni bayon qilingan.*

***Аннотация:** В статье описаны особенности использования компьютерных технологий в образовательном процессе общеобразовательных школ, в частности, на уроках технологии, роль ИКТ как средства повышения качества образовательного процесса.*

***Abstract:** The article describes the features of using computer technologies in the educational process of general education schools, in particular, in technology lessons, the role of ICT as a means of improving the quality of the educational process.*

***Kalit so'zlar:** umumta'lim maktablari, o'quvchi, axborot-kommunikatsiya texnologiyalari, kompyuter, ta'lim sifati.*

***Ключевые слова:** общеобразовательная школа, учащийся, информационно-коммуникационные технологии, компьютер, качество образования.*

***Keywords:** general education schools, student, information and communication technologies, computer, quality of education.*

Jamiyat rivojlanishining zamonaviy bosqichi ta'lim sohasida tubdan yangi ustuvorliklarni shakllantirish bilan tavsiflanadi, ulardan eng muhimi ta'lim sifatini oshirishdir. Oliy ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ta'lim siyosatining asosiy maqsadlaridan biri sifatida oliy ta'lim sifatini oshirish uchun sharoit yaratishni belgilaydi. Ta'limni modernizatsiya qilishning ustuvor yo'nalishlaridan biri – bu bir qator muhim vazifalarni o'z ichiga olgan o'quv jarayonini axborotlashtirishdir:

* ta'lim muassasalarini kompyuter texnikasi va aloqa vositalari bilan ta'minlash;
* maktablarni elektron o'quv vositalari bilan ta'minlash;
* maktab ma'muriyatini boshqarish faoliyatini raqamlashtirish;
* maktablarning o'quv jarayoniga axborot texnologiyalarini joriy etish;
* ta'lim jarayonida AKTdan foydalanish bo'yicha o'qituvchilarni tayyorlash va malakasini oshirish.

Keyingi yillarda mamlakatimizdagi umumta'lim maktablari kompyuter uskunalari va internetga ulangan ixtisoslashtirilgan dasturiy ta'minot bilan jihozlandi. Umumta'lim fanlari o'qituvchilari uchun tuman va viloyat miqyosida malaka oshirish doirasida kompyuter o'quv kurslari tashkil etildi.

Zamonaviy umumta'lim maktablarida fanlar bo'yicha elektron darsliklar, elektron ensiklopediyalar, virtual laboratoriyalar, simulyatorlar, test qo'llanmalari va boshqalarning bo'lishi zaruriy holatdir.

Yuqoridagi shartlarning mavjudligi o'quv jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga o'tkazishga imkon beradi, chunki sinfda (yangi materialni tushuntirish, bilimlarni mustahkamlash, nazorat qilish) va o'quv jarayonini tashkil qilish, darsdan tashqari vaqtda o'tkazib yuborilgan materialni ishlash, darslarga tayyorgarlik, qarzlarni topshirish uchun o'qituvchining ish tizimini takomillashtirishda yangi imkoniyatlar paydo bo'ladi[1].

Texnologiya o'qituvchilarini tayyorlashni takomillashtirish, ularni axborot ta'lim muhitida rivojlantirish, AKTning ta'lim sifatini oshirishdagi roli kabi muammolar bo'yicha U.N.Nishonaliyev, A.R.Xodjabayev, N.Sh. Shodiyev, N.A.Muslimov, X.I.Ibragimov, E.I.Ro'ziyev, O'.Q.Tolipov, N.Sayidahmedov, D.Ergashev, Sh.S.Sharipov, O.Abduquddusov, E.T.Choriyev, O.To'raqulov, J.Hamidov,

1 To'raqulov O. "Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish". / ped. fanlari doktori dissert. – T., 2017.



PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

A.Jo'rayev, U.Jumanazarov, O.Qo'ysinovlar va boshqa ko'plab vatanimiz olimlar tomonidan ilmiy-tadqiqot ishlari olib borilgan[2].

Maqolaning metodologiyasi ilmiy va tobora ommalashib borayotgan manbalarni tahlil qilishdan boshlab, texnologiya o'qituvchilarini kasbiy faoliyati, texnologik salohiyati, o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyalaridan foydalanish ahamiyati va rolini tahlil qiladi.

Texnologiya darslarining sifatini oshirishda kompyuter texnologiyalari tarkibini tahlil qilish usullari, ta'lim sifatini oshirish bo'yicha ishchi dasturlar va qo'llanmalar, zamonaviy veb-vositalardan foydalanish bo'yicha ilmiy umumlashtirish, ushbu tadqiqot muammosi bo'yicha bo'lajak texnologiya o'qituvchilari bilan suhbatlar usullari ham qo'llanildi.

Maktablarda kompyuterlar sonining ko'payishi bilan ularning ta'lim, shu jumladan, texnologiya samaradorligini oshirishning samarali vositasi sifatidagi roli ortadi. Kompyuterdan foydalanish o'qitishning intellektual darajasini oshirishga imkon beradi va amaliy vazifalarni hal qilishni osonlashtiradi. U texnologik, dizayn, iqtisodiy, ekologik muammolarni hal qilishga yordam beradigan, materialni yanada vizual, seziladigan shaklda taqdim etadigan axborot tizimi sifatida ishlatilishi mumkin. U ijodiy loyihalarni ishlab chiqish uchun ma'lumot manbai bo'lib xizmat qiladi, shuningdek, o'quvchilar tomonidan bilim va ko'nikmalarni o'zlashtirilishini tezkor nazorat qiladi, materialni idrok etishga tayyorligi har xil bo'lgan o'quvchilarni o'qitishga tabaqalashtirilgan yondashuvni ta'minlaydi.

Yuqoridagi afzalliklar o'quvchilarni rag'batlantirish muammosini samarali hal qilishga imkon beradi, chunki rangli illyustratsiyalar va turli xil multimedia obyektlari (ovoz, video) va boshqalardan foydalangan holda darslar hatto eng befarq o'quvchining ham e'tiborini tortadi[3].

O'qituvchining muvaffaqiyatli ishlashining ko'rsatkichlaridan biri uning zamon bilan hamnafas bo'lish qobiliyatidir, ya'ni o'z ishida bugungi kunda axborot texnologiyalarini o'z ichiga olgan zamonaviy o'qitish usullari va vositalaridan foydalanish. Texnologiya o'qituvchisi kompyuter savodxonligi asoslarini bilishi, hozirda eng keng tarqalgan Windows operatsion tizimi haqida tasavvurga ega bo'lishi kerak.

Axborot va telekommunikatsiya texnologiyalaridan foydalanmasdan zamonaviy darsni o'tkazish mumkin emas. Har kuni o'qituvchilarning onlayn hamjamiyati yangi nomlar bilan to'ldirilmoqda, tarmoqda yangi ta'lim resurslari paydo bo'ladi, maktablarga yangi dasturiy vositalar keladi. O'qituvchi, tabiiyki, bu jarayonlardan uzoqlasha olmaydi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini (AKT) joriy etish har bir o'qituvchi tomonidan o'z fani doirasida uslubiy materialni ko'paytirish yo'lidan borishini anglatadi. Texnologiya darslarida kompyuter texnologiyalaridan foydalanish endi kelajak masalasi emas, balki hozirgi kun masalasidir. Kompyuter o'qituvchiga o'qitish usullari va mazmunini belgilamaydi, u o'quv dasturlariga yetarlicha va samarali kiritilgan bo'lib, o'quv faoliyatini to'liq tashkil etishni ta'minlaydi. Muayyan o'quvchi uchun sinfda va darsdan tashqari mashg'ulotlarda kompyuterlardan foydalanish noyob axborot muhitini yaratishi va shaxsiy ta'lim trayektoriyasi bo'ylab muvaffaqiyatli rivojlanishiga hissa qo'shishi mumkin.

Ba'zi manbalarda "kompyuter texnologiyalari" iborasi mavjud. Biroq sinfda AKTdan foydalanadigan o'qituvchi pedagogik texnologiyalar har qanday o'quv jarayonining markazida ekanligini unutmasligi kerak. Axborot ta'lim resurslari ularning o'rnini bosmasligi, balki samaraliroq bo'lishiga yordam berishi kerak. Ular o'quv jarayoni yanada samaraliroq bo'lishi uchun o'qituvchilarning mehnat xarajatlarini optimallashtirish lozim. Axborot texnologiyalari o'qituvchini yengillashtirish va unga individual va eng ijodiy ishlarga e'tibor qaratishga yordam berish uchun mo'ljallangan, ya'ni faol o'quvchilarning qiyin savollariga javob berish va aksincha, eng zaiflarni "qo'zg'ashga", "tortib olishga" harakat qilish. Multimedia vositalari o'qitishning boshqa texnik vositalari bilan taqqoslaganda ko'rgazmalilik tamoyilining eng yaxshi bajarilishini ta'minlashga imkon beradi va amaliy mashg'ulotlarda bilim va ko'nikmalarni

2 Sharipov Sh.S., Koysinov A.A., Taxirov O'.A., Texnologiya darsligi. – T., 2021.

3 Sarsenbayeva R.M. O'quv mashg'ulotlarini tahlil qilish metodikasi. – T., 2016 yil

Parmonov A. Kompetensiyaviy yondashuv yordamida o'quvchilar fazoviy tasavvurini rivojlantirish. – T., 2020 yil

mustahkamlashga katta hissa qo'shadi. Bundan tashqari, multimediyaga darsning o'yin shakllarini samarali qo'llab-quvvatlash, "o'quvchi-kompyuter" faol muloqotini ta'minlash vazifasi yuklangan[4].

Birinchi bosqich – darslarni kompyuterda qo'llab-quvvatlash. Bu yerda kompyuterdan faqat o'qituvchi dars materiallarini vizualizatsiya qilish vositasi sifatida foydalanadi. Sinfda ishlash uchun o'qituvchi va o'quvchilar Microsoft Office dasturiy ta'minot to'plamida ishlashlari kifoya. Darsda, qoida tariqasida, o'qituvchilar yoki o'quvchilarning chiqishlari kompyuter, proyektor, ovozli karnaylar, interaktiv doska yordamida mashq qilinadi. Ko'pincha Microsoft PowerPoint taqdimotlar uchun multimedia taqdimoti yaratiladigan dasturiy ta'minot sifatida ishlatiladi, kamroq holatda Macromedia Flash kabi dastur ishlatiladi.

Ko'pincha taqdimotlar chiziqli xarakterga ega, bu oddiy hodisa, chunki ko'pchilik nutqlar material taqdimotining chiziqli xususiyatini anglatadi. Taqdimotga qarab, o'qituvchi yoki o'quvchi o'z taqdimotiga matn yoki grafik parchalar, animatsiya, videolar, shuningdek, musiqiy yoki ovozli hamrohlikni kiritishi mumkin. Taqdimot darsda qo'yilgan vazifalarni optimal tarzda hal qiladigan tarzda tuzilishi mumkin.

Taqdimot o'qituvchiga nafaqat ma'ruza o'qish, balki o'quvchilar bilan suhbatlashish, mavzu bo'yicha savollar berish va shu bilan o'quvchilarni boshqa fanlar bo'yicha ilgari olgan bilimlarini yangilashga, taxminlar qilishga majbur qilish imkonini beradi, olingan ma'lumotlarni tahlil qilish, taqqoslash, umumlashtirish, xulosa chiqarish qobiliyatlarini, shu bilan birga o'quvchilarning tafakkurini rivojlantiradi, ularning bilim faoliyatini faollashtiradi. Suhbat o'quvchilarni faollashtiradi, ularning xotirasi va nutqini rivojlantiradi, o'quvchilar bilimini ochiq qiladi, katta tarbiyaviy kuchga ega bo'lib, yaxshi diagnostika vositasidir.

Birgalikda ta'sir qilish bilan (ko'rish va eshitish orqali) o'rganilgan materialning ulushi samarali bo'ladi va agar o'quvchi o'quv jarayonida faol harakatlarda ishtirok etsa, unda o'rganilganlarning ulushi 75 % bo'lishi mumkin.

Media taqdimotlari har qanday ma'lumotni idrok etish uchun mo'ljallangan. Bitta slaydda har bir toifadagi odamlar uchun eng esda qolarli ma'lumotlar bo'lishi mumkin.

Har bir darsda barcha o'quvchilar texnologiyaga qiziqishi muhim. Shunda ularning ko'pchiligi fanga bo'lgan dastlabki qiziqishlarini fanga chuqur va doimiy qiziqishga aylantiradi. Sinfda o'rganishning turli xil ko'ngilochar shakllari faoliyatning ijobiy hissiy fonini yaratadi, qiyin va hatto yengib bo'lmaydigan deb hisoblangan vazifalarni bajarishga imkon beradi. Yuqorida sanab o'tilgan barcha o'qitish shakllari taqdimotda aks ettirilgan AKT yordamida amalga oshirilishi mumkin.

Ikkinchi bosqich – texnologiya darslarini kompyuterda qo'llab-quvvatlash. Ushbu bosqichda o'qituvchining kompyuterdan dars materiallarini taqdim etish yoki tasvirlashning samarali vositasi sifatida foydalanishidan tashqari, kompyuter o'quvchilar tomonidan ilgari o'rganilgan materialni takrorlash vositasi sifatida ishlatilishi mumkin. Masalan, mashina yoki tikuv mashinasi, materiallarning xususiyatlari, tanlov dekorativ pardozlash usullari, tematik ijodiy ish uchun mehnat obyektini tanlashda yordam beradi. Bu yerda kompyuterga o'quvchilar bilimini joriy nazorat qilish ishonib topshirilishi mumkin, masalan, o'quvchiga ma'lum bir mashinada ishlashga ruxsat berish uchun. O'quvchilarga kompyuter bilan ishlashga ruxsat berilganligi sababli, o'qituvchi o'quvchilarning kompyuter uskunalari bilan xavfsiz ishlashini tashkil etish qoidalarini bilishi va ularga rioya qilishi kerak va kompyuter bilan jihozlangan ish joyi shunga mos ravishda tashkil etilishi kerak.

Uchinchi bosqich – mashg'ulotlarda zamonaviy kompyuter dasturlaridan foydalanish bosqichi. Ushbu bosqichning o'ziga xos xususiyati o'qituvchi rahbarligida kompyuterda ishlaydigan barcha o'quvchilar bilan texnologiya darslarini o'tkazishdir.

Masalan, xo'jalik iqtisodiyotiga oid darslar oilaviy budjet tuziladigan Microsoft Excel elektron jadval muharriri yordamida samaraliroq bo'ladi. Bunday darslar informatika sinflarida o'tkaziladi. Xuddi shu narsani o'quvchilarning loyiha faoliyatini tashkil

4 To'raqulov O. "Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish". / ped. fanlari doktori dissert. – T., 2017.
Sarsenbayeva R.M. O'quv mashg'ulotlarini tahlil qilish metodikasi. – T., 2016 yil
Sharipov Sh.S., Koysinov A.A., Taxirov O'.A., Texnologiya darsligi. – T., 2021.





etish haqida ham aytish mumkin, bu yerda ular kompyuterdan loyihani tayyorlash uchun asosiy ma'lumotlarni olishadi. Loyihalarning kompyuter bankini yaratish mumkin bo'ladi: mehnat obyektlari to'g'risidagi ma'lumotlar va allaqachon tugallangan loyihalar namunalari. Bu o'quvchilarning loyihaviy faoliyatini optimallashtiradi. Texnologiya darslarida turli xil elektron ma'lumotnomalar, ensiklopediyalar, dasturlardan foydalanishning roli katta. Internet resurslari va xizmatlaridan foydalanish o'qituvchilar va o'quvchilarning barcha faoliyat turlarida imkoniyatlarini sezilarli darajada kengaytiradi.

"Texnologiya" ta'lim sohasining ko'plab mavzularining nazariy qismini o'rganish qo'shimcha ma'lumotlarni izlashni o'z ichiga oladi. 5-sinfdan boshlab o'quvchilar qo'shimcha, ko'ngilochar ma'lumotlarni qidirish uchun topshiriqlar oladilar. Masalan: sendvichlarning turlari va ushbu nomlarning kelib chiqish tarixi haqida ma'lumot topish, birinchi tikuv mashinalari va ularning ixtirochilari haqida ma'lumot topish, 6-sinfda – turli xil donlar va ularni yetishtirish an'analari, foydalanish, ular bilan bog'liq marosimlar haqida ma'lumot topish, ko'ylaklarning paydo bo'lishi va tarqalishi tarixi, dunyoning ko'plab xalqlarining milliy kiyimlari va boshqalar.

Qidiruv jarayonida AKT vositalari yordamida o'quv materiallari bilan mustaqil ishlash ko'nikmalari va malakalari shakllantiriladi: kutubxonada, kitobda, lug'atda, ma'lumotnomada, kompyuter ma'lumotlar bazasida, elektron hujjatda, Internetda qidiruv tizimlaridan foydalangan holda ma'lumot qidirish.

Axborotni uzatish, saqlash va qayta ishlash uchun keng vositalarga ega Microsoft Office to'plami o'quvchilarning muloqot qobiliyatlarini rivojlantirish imkonini beradi. Agar 5, 6-sinflarda Word protsessori, Paint va Kalkulator ishlatilsa, 7-11-sinflarda boshqa dasturlardan foydalaniladi: Excel, PowerPoint, Adobe PhotoShop, FrontPage, Publisher. Ushbu turdagi ishlar bilan fikrlarni yozma ravishda ifodalash, ma'lumotlarni grafik, diagramma, chizma shaklida taqdim etish, xulosa yozish, hisobot yozish, matnni qog'ozga oqilona joylashtirish, elektron hujjat matnini to'g'ri formatlash, tinglovchilarning qiziqishini uyg'otish, aniq, tez, mazmunli o'qish mumkin[5].

Darsda topilgan va qayta ishlangan ma'lumotlarni tinglash, ko'rish, tahlil qilish, taqqoslash va baholash kerak. O'quvchilar fikr, ma'lumot almashishlari, bir-birlariga va o'qituvchiga savollar berishlari mumkin. Shu bilan birga, o'quvchilar notiqlik, munozaralarda qatnashish, aloqalarni o'rnatish va qo'llab-quvvatlash, hamkorlik qilish va jamoada ishlash ko'nikmalariga ega bo'ladilar, bu turli nuqtayi nazarlarni hisobga olishni, ularning asoslarini tahlil qilish qobiliyatini o'z ichiga oladi. Nostandart darslar bunga hissa qo'shishi mumkin. Bunday darslarda o'quvchilarning muloqoti diqqat bilan tinglash, imo-ishoralarning ma'nosini tushunish, yuz ifodalarini, intonatsiyani to'g'ri idrok etish, imo-ishoralar bilan ma'lumot yetkazish, ko'z bilan aloqa qilish, to'g'ri aloqa pozitsiyasini tanlash, qiziqarli muloqot mavzusini tanlash, to'g'ri ohangni o'rnatish qobiliyatini shakllantiradi.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari zamonaviy ta'limni, birinchi navbatda, individuallashtirish yo'nalishida rivojlantirish uchun keng imkoniyatlar yaratadi, o'qituvchi va o'quvchilarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarish uchun sharoit yaratadi.

AKTdan foydalanish bizning davrimizda yanada dolzarbdir, chunki maktablarda, qoida tariqasida, kerakli to'plamlar yo'q yoki diagrammalar, jadvallar, rasmlar, fotosuratlar, reproduksiyalar eskirgan. Darsni tayyorlash va o'tkazish uchun ilgari o'qituvchi didaktik va uslubiy materiallarni, qo'shimcha adabiyotlarni izlashga va doska tayyorlashga ko'p vaqt sarflashi kerak edi. Bu juda noqulay. Xatcho'plar bilan eng rang-barang kitob, materialni tushuntirish paytida o'quvchilarga reproduksiyalarni namoyish qilish uchun amaliy, laboratoriya ishlari uchun ajratilgan qimmatli vaqtni 20 % ga qisqartirdi (bu taxminan 20 daqiqa).

Darsda AKTdan foydalanish joyi. Istalgan vaqtda: boshida, o'rtada yoki oxirida ish natijalarini umumlashtirishda, ya'ni siz ma'ruza, hikoya, amaliy vazifani bajarish uchun texnikani namoyish qilishingiz mumkin. Trening effekti iloji boricha katta bo'lishi uchun tasvirlarni ekranga oziqlantirish ketma-ketligi

5 Parmonov A. Kompetensiyaviy yondashuv yordamida o'quvchilar fazoviy tasavvurini rivojlantirish. – T., 2020 yil
Карпушина Т.А., учитель технологии. Инновационные подходы в обучении образовательной области "Технология" http://festival. 1september.ru/authors/100-390-240/

haqida batafsil o'ylash kifoya.

O'quvchilarning mustaqil ijodiy ishlarini tashkil etish sohasida AKT innovatsion texnologiyalarni, shu jumladan, darsdan tashqari ishlarni qo'llab-quvvatlash vositasi sifatida jiddiy rol o'ynaydi. Avvalo, ular loyiha uslubi, mustaqil ta'lim, tadqiqot va o'yin faoliyati uchun asos bo'ladi. Bugungi kunda maktablar bolalarning ijodiy salohiyatini ro'yobga chiqarishga, ularning bilim faolligini faollashtirishga, fan, madaniyat va ijtimoiy hayotning zamonaviy muammolariga yo'naltirishga hissa qo'shadigan axborot texnologiyalariga asoslangan fanlararo loyihalarni ommaviy ravishda amalga oshirmoqda.

Axborot texnologiyalari o'quvchilarning o'yin faoliyatini tashkil qilishda keng qo'llaniladi. AKT masofaviy ta'limni tashkil etish uchun asos bo'lib xizmat qilmoqda.

Axborot-kommunikatsiya texnologiyalari o'quvchilar bilimini nazorat qilish tizimini o'zgartirishda jiddiy rol o'ynaydi. AKTga asoslangan yangi bilimlarni boshqarish tizimlari (test dasturlari "MyTest X", "Rich Test", "PowerPoint" punktidagi testlar va boshqalar) samaradorlik, muntazamlik bilan ajralib turadi, farqlash uchun keng imkoniyatlar yaratadi, natijalarni umumlashtirish va to'plash o'quvchining shaxsiy dinamikasini baholashga imkon beradi.

Bundan tashqari, ular sizga nazorat va o'qitish tartib-qoidalarini birlashtirishga imkon beradi. Yana bir muhim nuqta diqqatni tashqi baholashdan o'quvchining o'zini o'zi baholash va o'zini o'zi boshqarishga o'tkazish imkoniyati bilan bog'liq. AKTga asoslangan bilimlarni boshqarish tizimi o'qituvchi uchun ham, o'quvchi uchun ham psixologik jihatdan qulayroqdir. O'quvchi uchun bu asosan stresssiz, chunki u individual rejimda, kompyuter bilan yolg'iz ishlash imkoniyatini yaratadi, bu esa o'qituvchi bilan bevosita o'zaro muloqot qilish bilan bog'liq tashvish omilini sezilarli darajada yo'q qiladi. Va u o'qituvchini odatdagi ishdan qutqaradi, shu bilan uning kuchini tejaydi va ijodiy faoliyat uchun vaqtni kengaytiradi.

AKT kompetensiyasini shakllantirishda an'anaviy yondashuvlar muvaffaqiyatli qo'llanilmoqda: og'zaki o'qitish usullari – hikoya, tushuntirish, ma'ruza, suhbat, darslik va kitob bilan ishlash; vizual usullar – kuzatish, illustrasiya, ko'rgazmali qurollarni namoyish qilish, taqdimotlar; amaliy usullar – og'zaki va yozma mashqlar, amaliy kompyuter ishi. Ta'limga shaxsga yo'naltirilgan yondashuv doirasida zamonaviy jamiyat uchun zarur bo'lgan tanqidiy va ijodiy fikrlash, ko'nikmalarning yetarlicha muvaffaqiyatli shakllanishini ta'minlaydigan loyiha usuli, ko'p bosqichli o'qitish va o'quvchilar portfoliosi alohida rol o'ynaydi[6].

Shunday qilib, AKT kompetensiyasi maktab miqyosidagi ko'nikma bo'lib, uning shakllanishi barcha darslarda, shu jumladan texnologiya darslarida ham bo'lishi kerak. O'quv jarayoniga AKTni joriy etish asosan tadqiqot va loyihalash texnologiyalari bilan bog'liq bo'lgan o'qitish texnologiyasining mutlaqo yangi metodologiyasini ishlab chiqishni talab qiladi. Shu bilan birga, o'qituvchi o'quvchi bir vaqtning o'zida o'zini ifoda etishi va o'rgatishi mumkin bo'lgan axborot-ta'lim muhitini shakllantirishi kerak.

6 To'raqulov O. "Axborotlashtirilgan ta'lim muhitida kichik mutaxassislar tayyorlashning ilmiy-metodik ta'minotini takomillashtirish". / ped. fanlari doktori dissert. – T., 2017.
Parmonov A. Kompetensiyaviy yondashuv yordamida o'quvchilar fazoviy tasavvurini rivojlantirish. – T., 2020 yil
Sharipov Sh.S., Koysinov A.A., Taxirov O'.A., Texnologiya darsligi. – T., 2021.





# RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR ASOSIDA O'QUVCHILARNING HUNARMANDCHILIK KOMPETENSIYALARINI RIVOJLANTIRISH DIDAKTIK IMKONIYATLARI

**Sadulla Ubaydullayev** - *dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti*
**Maxmatmurod Shomirzayev** - *dotsent, Termiz davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola umumiy o'rta ta'lim maktablari o'quvchilarining kompetensiyalarini raqamli texnologiyalar asosida rivojlantirishda didaktik imkoniyatlarini ochib berishga bag'ishlangan.*

***Аннотация:*** *Статья посвящена открытию дидактических возможностей развития компетенций учащихся общеобразовательных школ на основе цифровых технологий.*

***Abstract:*** *This article is dedicated to revealing the didactic potential of secondary school students in the development of competencies on the basis of digital technologies.*

***Kalit so'zlar:*** *texnologiya, transformatsiya, raqamli texnologiyalar, audio-vizual, axborot texnologiyalari, dadaktik vositalar, hunarmandchilik.*

***Ключевые слова:*** *технологии, трансформация, цифровые технологии, аудиовизуальные средства, информационные технологии, дидактические инструменты, ремесла.*

***Keywords:*** *technology, transformation, digital technology, audio-visual, information technology, didactic tools, crafts.*

Jahonda ta'lim tizimini transformatsiyalash, raqamli texnologiyalar (RT)ni ishlab chiqish va o'qitish jarayonida qo'llash, fanlarning metodik ta'minotini takomillashtirish, o'quvchilarning fanga oid kompetensiyalarini rivojlantirish, darslarda animatsion, audio-vizual vositalarni hamda axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qo'llash bo'yicha tadqiqot ishlari olib borilmoqda[1]. Ushbu tadqiqotlarda fanlarni o'qitishda RTni eng so'nggi pedagogik qonuniyatlar asosida ishlab chiqib, o'quvchilarda o'ziga ishonch, fanga qiziqish, mehnatsevarlik, o'zgalar mehnatini qadrlash, zamonaviy bilim olish, hunar egallashga bo'lgan qiziqish, mustaqil kasb tanlash, kreativlik xislatlarini rivojlantirishda muhim o'rin egallaydi. Bu esa texnologiya fanini o'qitishda elektron axborot ta'lim muhitida foydalanish bo'yicha metodik tizimni yaratishni taqozo etmoqda.

Texnologiya fani umumiy o'rta ta'lim maktablarining o'quv rejasida amaliy fanlar blokidagi fan hisoblanadi. Haftalik umumiy yuklamasi 12 soatni tashkil etadi. 1-4-sinflarda haftasiga 1 soatdan, 5-7-sinflarda 2 soatdan, 8-9-sinflarda 1 soatdan mashg'ulotlar tashkil etadi. Umumiy o'rta ta'lim maktablarida texnologiya fani boshlang'ich ta'lim yo'nalishida umumlashgan holda, 5-9-sinflarda "Texnologiya va dizayn", "Servis xizmati" yo'nalishlarida o'qitiladi[2]. Ma'lumki, texnologiya fanini o'zlashtirish uchun o'quv dasturida belgilangan barcha mavzularning negizida xalq hunarmandchiligi texnologiyalari elementlari mavjud.

O'zbekiston Respublikasida ta'lim uzluksizligi va uzviyligi, o'quvchi shaxsi va qiziqishlari ustuvorligidan kelib chiqib, ularning yosh xususiyatlariga mos ravishda tayanch kompetensiyalar shakllantiriladi.

Texnologiya fanining xalq hunarmandchiligi texnologiyasi bo'limi 8-sinf texnologiya va dizayn yo'nalishida 9 soat, servis xizmati yo'nalishiga 12 soat, 9-sinf texnologiya va dizayn yo'nalishiga ham, servis yo'nalishlariga ham bir xil, ya'ni 8 soatdan o'quv reja bo'yicha ajratilgan. Eng muhimi shundaki, 1-9-sinflardagi har bir mavzu negizida xalq hunarmandchiligining elementlari mavjudligi o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishdagi o'rni muhim ekanligini ko'rsatadi[3]. Texnologiya fani mashg'ulotlarini o'quvchilarga o'qitish jarayonida hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarni rivojlantirishda raqamli texnologiyalarni qo'llash o'quvchilarga katta

1 Qodirov B.E. Elektron axborot ta'lim muhitida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. Dis. … p.f.f.d. (PhD) – Termiz.: 2021. – 143 b.
2 Shomirzayev M.X. Maktab texnologiya ta'limida milliy hunarmandchilikning spektral-variativ komponentlarini fanlararo takomillashtirish. Pedagogika fanlari bo'yicha doktorlik (DSc) diss. - Toshkent, 2021. – 219 b.
3 Qodirov B.E. Elektron axborot ta'lim muhitida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. Dis. … p.f.f.d. (PhD) – Termiz.: 2021. – 143 b.

imkoniyatlar beradi.

Ta’limning qaysi bosqichida o‘qitilishidan qat’i nazar, har qanday fanning muhim vazifalaridan biri – ayni fan bo‘yicha bilimlar tizimini shakllantirish jarayonini ta’minlash. Bilimlar tuzilmasining mantiqiy-genetik tahlili asosida bilimlar tizimida quyidagi asosiy elementlar ajratiladi: ilmiy dalil, tushunchalar, qonunlar, nazariyalar, nazariy bilimlarning amaliy qo‘llanilishi, olamning ilmiy manzarasi. Qayd etilgan bilimlarning tuzilmaviy birliklari barcha tabiiy va ijtimoiy fanlar uchun umumiy hisoblanadi. Bu esa, fanlardan elektron qo‘llanmalarni ishlab chiqish va amaliyotda qo‘llash kerakligini ko‘rsatmoqda. Elektron qo‘llanmalar rang-barangligi, ko‘rgazmaligi va ko‘rsatmaligi, animatsiyalarga, audio-vizual vositalarga boyligi bilan o‘quvchilarni o‘ziga tortadi.

Elektron qo‘llanmalarni yaratishning dasturiy vositalari: elektron o‘quv qo‘llanmalarni yaratish vositalarining maqsadi va bajaradigan funksiyalari, texnik ta’minotga bo‘lgan talablar, qo‘llash xususiyatlarini o‘z ichiga olgan kompleks mezonlar bo‘yicha guruhlarga ajratish mumkin. Bu mezonlarga mos ravishda elektron qo‘llanmalarni yaratish vositalarini quyidagicha sinflarga ajratish mumkin: an’anaviy dasturlash tillari; umumiy maqsadlarga mo‘ljallangan instrumental vositalar; multimedia vositalari; gipermatn va gipermedia vositalari.

Texnologiya fanini o‘qitish jarayonida o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirishda RTni yaratish o‘quv faoliyatining quyidagi turlarida qo‘llash mumkin: yangi nazariy materiallarni o‘rganish va bayon etishda; nazariy va amaliy mashg‘ulotlarni tashkil etishda; o‘rganilgan o‘quv materialini mustahkamlash, nazorat qilish va tekshirishda; o‘quvchilarning mustaqil ishlarida; ochiq darslar, telekonferensiyalar, audiokonferensiyalar, namunaviy mashg‘ulotlarni o‘tkazishda; amaliy mashg‘ulotlarda.

Axborot asrida ta’lim oluvchilarning mustaqil bilim olish va amaliy faoliyat ko‘nikmalarini shakllantirish asosiy vazifalardan biri hisoblanadi. Pedagoglar o‘quvchilarga bilim berish jarayonining asosiy maqsadi nafaqat bilimlarni o‘zlashtirish, balki o‘quvchilarning bilish qobiliyatlarini rivojlantirish va ijodiy salohiyatini orttirishdan iborat. Ta’limda shaxsiy natijalarga erishish, ta’lim oluvchilarning ta’limga moslashish resurslarini rivojlantirish shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim jarayonini amalga oshirishni, har bir o‘quvchi uchun alohida ta’lim dasturlari hamda yo‘l xaritalarini tuzishni talab etadi[4] bu esa raqamli texnologiyalar asosida o‘quvchilarning hunarmandchilik kompetensiyalarini rivojlantirishning didaktik imkoniyatlarini o‘rganish dolzarbligini belgilaydi.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta’lim o‘z mohiyatiga ko‘ra, ta’lim jarayoni barcha ishtirokchilarining to‘laqonli rivojlanishlarini ko‘zda tutadi. Bu ta’limni loyihalashtirilayotganda, albatta, ma’lum bir ta’lim oluvchining shaxsini emas, avvalo, kelgusidagi kasb tanlash faoliyati bilan bog‘liq, o‘qish maqsadlaridan kelib chiqqan holda yondashishni nazarda tutadi[5].

Olib borilgan psixologik-pedagogik va didaktik tadqiqotlarda o‘qitish metodikasida AKTni qo‘llab amalga oshirish zarurligini, ta’lim berishda ta’lim oluvchilar qiziqishlari, imkoniyatlari va qobiliyatlari hisobga olish, ularning erkin fikr bildirishi va topshiriqlarni bajarishda kreativ yondashish, mavzuga oid ma’lumotlarning yangi manbalarini egallash, jarayon va obyektlarni kompyuter vositasida modellashtirishdan foydalanish, o‘qitishni individuallashtirish hamda boshqalarni ta’minlaydi.

Psixologik-pedagogik adabiyotlarda ta’kidlanishicha, turli xil maktab muhitidan farqli, har bir o‘quvchining individual imkoniyatlari, qiziqishlari subyektiv tajribasi, o‘qish va real hayotda to‘plagan bilimlarini inobatga olib, amalga oshirilgan ta’lim jarayoni samaraliroq hisoblanadi.

O‘quvchilarning hunarmandchilikka oid kompetensiyalarini RTda rivojlantirish axborot-o‘quv faoliyatining mutlaqo yangi metodi.

D.Mamatovning fikricha, «elektron axborot-ta’lim muhiti» tushunchasini aniq bir maqsadga yo‘naltirilgan o‘quv jarayonini ta’minlovchi dasturiy, axborot-texnik, o‘quv-metodik tizimlar majmui[6].

RTda o‘quvchilarning hunarmandchilik kompetensiyalari quyidagi tipologik belgilarga ko‘ra tavsiflanadi:

har qanday ta’lim tizimidagi RT ilmiylik, tizimlilik, izchillilik va murakkab tuzilmali obyekt bo‘lib hisoblanadi; RTning aniq bir maqsadga yo‘nalganlik va tizimlilikka erishish, tarbiyalanuvchining ta’lim-tarbiyaviy maqsadlarini o‘zida mujassamlashtiradi; RT ta’lim-tarbiya ishlarining samaradorligiga ta’sir ko‘rsatuvchi omil bo‘lishi bilan birga uning hunarmandchilikka oid qobiliyatlarini rivojlantirish vositasi ham.

Shu bilan bir qatorda, RTni ta’riflashda

4 Mamatov D.N. Elektron axborot-ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. PhD dok.dis. –Toshkent, 2017. – 150 b.

5 Mukumova F.X. Thinking motives that encourage students to be creative.In Proceedings of TECHMIND-2021,3rd Global Congress on Contemporary Sciences & Advancements, organized by E-Cjnference Globe on April 6th -7th, 2021.

6 Mamatov D.N. Elektron axborot-ta’lim muhitida kasbiy ta’lim jarayonlarini pedagogik loyihalashtirish. PhD dok.dis. –Toshkent, 2017. – 150 b.





bir qancha uzaro farq qiluvchi qarashlar mavjud, jumladan:

shaxs bilan ta’lim muhitining subyekt sifatida uzviy bog‘langan axborot, texnik, o‘quv-metodik ta’minotning tashkillashtirilgan majmuasi; elektron axborot tashuvchilar, virtual kutubxonalar, taqsimlangan ma’lumot bazalari, o‘quv-metodik majmualarini mujassamlashtiruvchi kompyuter, AKT integratsiyasi asosida qurilgan yagona axborot-ta’lim muhiti hisoblanadi[7].

RTni ishlab chiqishda va uni boshqarishda tizimli yondashuvni joriy qilish talab etiladi. Ushbu yondashuvning dastlabki bosqichida zamonaviy ta’lim mazmuniga mos ravishda ta’lim muassasasi RTni qo‘llashning maqsadi belgilanadi[8]. Pedagogik faoliyatda ta’lim maqsadi tizimlashtiruvchi vazifani bajaradi. Aynan belgilangan maqsad ta’lim mazmuni, maqsadi, tashkiliy shakllarini tanlash uchun asos bo‘lib xizmat qiladi. Zamonaviy ta’limning maqsadi DTSlari talablariga mos ravishda shakllantiriladigan bilim, ko‘nikma va malakalar tizimidan tarkib topib, u tegishli ta’lim standartlarida o‘z aksini topadi[9].

Bundan tashqari, pedagogikaning zamonaviy talablariga ko‘ra, o‘quvchi shaxsi pedagogik jarayon obyektigina bo‘lib qolmasdan, balki uning subyektiga ham aylanib bormoqda. Bunday holatlarda o‘quvchi mustaqil ta’limining ahamiyati ortadi va mustaqil ta’lim olishni rejalashtirish, Internet, ilmiy hamda o‘quv axborotlaridan foydalana olish, elektron axborot-ta’lim resurslari ustida ishlash, zamonaviy axborot texnologiyalari vositalari orqali taqdim etilgan mavzularni o‘zlashtirish, elektron darslik bilan ishlash ko‘nikma va malakalarni shakllantirish talab etiladi[10].

RT quyidagi uchta asosiy vazifani bajaradi:

tashqi muhit subyektlariga zamonaviy axborot texnologiyalari yordamida ta’lim muassasasining RT to‘g‘risida tasavvur hosil kilishga yordamlashish; ta’lim muassasasi xodimlarining o‘zaro hamkorligini oshirish va o‘zaro elektron axborot-ta’lim resurslari almashishi muhitini yuzaga keltirish; ta’lim muassasasida RT vositasida samarali axborot almashinuvini tashkil etish va boshqarish[11].

RT asosida umumiy o‘rta ta’lim maktablarini o‘quvchilarning hunarmandchilik kompetensiyalarini rivojlantirish maqsadini belgilash to‘rtta jarayonning davriy ketma-ketligini e’tiborga olgan holda amalga oshiriladi (1-rasm).




1-rasm. RT asosida o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid kompetensiyalarini rivojlantirishning davrlari.

Umumiy o‘rta ta’lim tizimida RTni qo‘llashning maqsadi o‘quvchilarga hunarmandchilik kompetensiyalarni shakllantirish va ular orqali ijodiy qobiliyatlarini takomillashtirish bilan bevosita bog‘liq holda ishlab chiqiladi. O‘z navbatida o‘quvchilarda hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarni shakllantirish o‘quvchilarda ongli ravishda o‘zlari qiziqqan kasb-hunarni tanlashga va keyingi mehnat faoliyati davomida doimiy ravishda o‘z-o‘zini rivojlantirib borishiga qaratilgan sifatlarni tarkib toptirishga alohida e’tibor qaratiladi.

Shu o‘rinda, umumiy o‘rta ta’lim maktablarida RT asosida elektron muhitni tashkil etish hunarmandchilikka oid kompetensiyalarni shakllantirish, ta’lim jarayonlarini axborotlashtirishni tashkil etish va boshqarish pedagogik ta’limning RTini qo‘llashni, integrallashgan axborot-ta’lim resurslarini yaratish ta’lim sifatini oshiruvchi

7 Shomirzayev M.X., Karimov I.I. Texnologiya fanini o‘qitishda innovatsion pedagogik texnologiyalar. O‘quv qo‘llanma. –Toshkent: Universitet, 2020. -192 b.

8 Qo‘ysinov O.A. “Improving the methodologies of raising the effectiveness of continuous education on the basis of ensuring content consistency” // «Actual Problems Of Modern Science, Education And Training» Electronic Journal. July, 2021-7/1. ISSN 2181-9750. KHOREZMSCIENCE.UZ

9 Qodirov B.E. “Development of basic Competencies of students in crafts in technology lessons” // Yeuropean Journal of Research and Reflection in Educational Sciences Vol. 8 No. 4, 2020, Part ISSN 2056–5852

10 Qodirov B.E. The role of e–learning environments in developing students' basic craft skills// International Vritual Conference On Innovative Thoughts, Research Ideasand Inventions in Sciences Hosted from Newyork, comJanuary 20 th 2021. – P. 469-470

11 Qodirov B.E. Elektron axborot ta’lim muhitida o‘quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi. Dis. … p.f.f.d. (PhD) – Termiz.: 2021. – 143 b.

omil sifatida tadqiq etishni taqozo etadi[12].

Yuqorida yuritilgan fikrlardan shunday xulosa chiqarish mumkinki, darslardagi konstruktorlik-texnologik faoliyat produktiv (ijodiy) va reproduktiv (bilish-ijrochilik) faoliyatlarini bir-biriga qo'shish yo'li bilan amalga oshirilishi, ya'ni o'quvchilar texnikaviy model yoki asbobni ishlab chiqishi yoki takomillashtirilishi mumkin ekan. Texnologiya fanidan darslarini tashkil etishda ko'rgazmali metodlarni qo'llash yuqori samara berishi ilmiy tadqiqot ishlarida aniqlangan bo'lib, ayniqsa, u ish-harakat faoliyatini virtual tarzda namoyish qilish natijasida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarining ijobiy ta'sir ko'rsatadi.

# INKLYUZIV TA'LIMNING ZAMONAVIY TENDENSIYALARI

***Mavjuda Ashurovna Tilakova -*** *p.f.f.d. (PhD), Jizzax viloyati pedagoglarni yangi metodikalarga o'rgatish milliy markazi*

***Annotatsiya:*** *Maqolada inklyuziv ta'limdagi pedagogik yangiliklar maxsus ta'lim mutaxassislari kasbiy faoliyati O'zbekiston Respublikasida inklyuziv ta'lim tizimining joriy etilish masalalari, ta'lim muassasalarining bozor faolligini va boshqaruv samaradorligini oshirish, inklyuziv ta'limni rivojlanish jarayonlari, pedagogik faoliyat bo'yicha tadqiqotlarida faoliyat samaradorligini rivojlantirish kabi masalalarga to'xtalib o'tilgan.*

***Аннотация:*** *В статье педагогические инновации в специальном образовании, профессиональная деятельность специалистов специального образования, вопросы внедрения системы инклюзивного образования в Республике Узбекистан, повышения рыночной активности и эффективности управления образовательными учреждениями, процессы развития инклюзивного образования, вопросы педагогической деятельности, такие как так как развитие эффективности деятельности затрагивалось в их исследованиях.*

***Abstract:*** *In the article, pedagogical innovations in special education, the professional activity of special education specialists, issues of the introduction of the inclusive education system in the Republic of Uzbekistan, increasing the market activity and management efficiency of educational institutions, inclusive education development processes, pedagogical activities issues such as the development of activity efficiency have been touched upon in their studies.*

***Kalit so'zlar:*** *konsepsiya, Nizom, oligofrenopsixologiya, inklyuziv ta'lim, tendensiya, psixologik xizmat, ta'lim jarayoni, ko'nikma, malaka, usul, faoliyat, korreksiya, kompensatsiya, reabilitatsiya, imkoniyati cheklangan shaxsning faoliyati pedagogik yordam berish yo'llari, inklyuziv ta'lim tendensiyasi.*

***Ключевые слова:*** *концепция понятие, Устав, олигофренопсихология, инклюзивное образование, тенденция, психологическая служба, образовательный процесс, умение, квалификация, метод, деятельность, коррекция, компенсация, реабилитация, деятельность инвалида способы педагогической помощи, тенденция инклюзивного образования.*

***Keywords:*** *concept, regulation, oligofrenopsychology, inclusive education, trend, psychological service, educational process, skills, qualifications, method, activity, correction, compensation, reabillation, activities of a person with disabilities ways of pedagogical assistance, trend of inclusive education.*

Jahon tendensiyalari sari. Bugungi kunda yangi raqamli ta'lim platformasini yaratish, infratuzilmada zamonaviy bo'linmalar tashkil etish bo'yicha innovatsion yechimlar qabul qilmoqda. Har bir mamlakat xalq ta'limi tizimining taraqqiyoti shu mamlakatda ishlab chiqarish kuchlarining, ishlab chiqarish munosabatlarining rivojiga va jamiyat taraqqiyotiga bog'liq bo'ladi.

Mamlakatimiz istiqlolga erishgandan keyin xalq maorifini rivojlantirish masalalariga, yetuk mutaxassis kadrlar tayyorlashga katta e'tibor berildi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning BMT Inson huquqlari bo'yicha kengashi 46-sessiyasidagi nutqida strategik yo'nalishlar, jumladan, Nogironlar huquqlari to'g'risidagi Konvensiya ya'ni ratifikatsiya qilish masalasiga alohida e'tibor qaratdi. Ma'lumki, inklyuziv ta'limda maxsus ta'lim ehtiyojidagi bolalar barcha

12 *Shomirzayev M.X. Texnologiya fanini o'qitish jarayonida interfaol metodlardan xalq hunarmandchiligida foydalanish imkoniyatlari /Ta'lim-tarbiya kontekstida fanlararo sinxron va asinxron bog'lanishlar. Ilmiy-uslubiy maqolalar to'plami. – T.: Noshirlik yog'dusi, 2019. - B.130-136.*





bolalar bilan birga ma'lum maqsadda turli qobiliyatlarga muvofiq guruhlashtiriladi. Maxsus ta'lim aqliy, jismoniy tashqi ko'rinishga muvofiq amalga oshirilsa, inklyuziv ta'lim bolaning qobiliyati va imkoniyatlariga ko'ra belgilanadi[1]. Maxsus ta'lim o'qitishning maxsus va alternativ dasturlari orqali o'qitilsa, inklyuziv ta'lim bolaga yo'naltirilgan va moslashtirilgan, yo'riqnomali, barchaga mo'ljallangan o'quv dasturi asosida o'qitiladi. Inklyuziv ta'limning o'ziga xos muhim jihati shundaki, bolalar va o'qituvchi bir-birlaridan o'rganishadi hamda muammolarni birgalikda hal etishadi.

Bu ta'lim bir tomonlama bo'lmasligi kerak. Imkoniyati cheklangan bolada o'ziga bo'lgan ishonchni oshirish, ko'nikma va qobiliyatini rivojlantirish, yoshligidan o'rganishni rag'batlantirishda oila ishtiroki muhim. Inklyuziv ta'lim jarayonida ota-onalar bilan ishlash ham muhim. Ta'kidlash joizki, alohida ehtiyojli ota-onalarga ularning farzandlari jamiyatning bir bo'lagi bo'lish huquqiga ega ekanini tushuntirish, bu ishonchni ularning ongiga yetkazish kerak. Mamlakatimiz ta'lim tizimida bu masalaga alohida e'tibor qaratiladi. 2020-yil oktyabrda qabul qilingan Prezidentimizning alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risidagi qarori bunga misol bo'la oladi.

Maxsus ta'lim tizimi deganda jismoniy va ruhiy kamchiliklarga ega bo'lgan bolalarga (ko'zi ojiz, kar-soqov, aqli zaif, tayanch harakali apparatida nuqsoni bo'lgan, nutq nuqsoni bo'lgan bolalar) aniq maqsadni ko'zlab «korreksiya», «kompensatsiya», «reabilitatsiya» ishlarini amalga oshiradigan maxsus ta'lim muassasalari: ko'zi ojiz bolalar uchun, eshitishida nuqsoni bo'lgan bolalar uchun, aqli zaif bolalar uchun maktab-internatlar tushuniladi.

Bizningcha, istiqbolda O'zbekistonda inklyuziv ta'limni rivojlantirish bilan bog'liq islohotlar doirasida quyidagi vazifalar alohida o'rin egallaydi[2]:

– aholiga inklyuziv va integratsiyalashgan ta'lim tizimi haqida ma'lumot berishni kengaytirish;

– inklyuziv ta'limning huquqiy asoslarini ochib berish;

– bu yo'nalish oldida turgan muammolarni o'rganish va ularni hal etish yo'llarini izlab topish;

– mazkur ta'limni qo'llab-quvvatlashning asoslarini o'rganish;

– inklyuziv ta'lim tizimini joriy qilish tamoyillarini tahlil qilish;

– ushbu tizimni amaliyotga joriy qilish borasidagi nazariy, amaliy va huquqiy ahvolni o'rganish;

– inklyuziv o'quv muasasalarining maqsad va vazifalarini belgilash;

– o'qituvchining ish faoliyati va maqsadi bilan tanishish;

– inklyuziv ta'lim muassasalarining xodimlari vazifalari bilan tanishish;

– mutaxassislarning ota-onalar bilan hamkorligini yo'lga qo'yganlik darajasini aniqlash;

– inklyuziv ta'lim muassasalarida olib borilayotgan islohotlarni o'rganish;

– mazkur o'quvga jalb qilish bosqichlarini, amaliyotga joriy etish yo'llarini o'rganish, ish tajribalarini tahlil qilish.

Inklyuziv ta'lim o'quvchilarni jamiyatdan ajratib qo'ymaydi. Ular olgan ko'nikmalarini umumlashtirish imkoniga ega bo'lishadi.

Oila – bolalar bog'chasi – maktab – kasb-hunar maktabi – oliy ta'lim – ish bilan ta'minlash tizimi kelajakda ota-onalarga imkoniyati cheklangan o'quvchilarni umumta'lim muassasalari va oliy o'quv yurtlariga bemalol, xavfsiramasdan olib kelishlari uchun zamin yaratadi.

2020-2025 yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ko'rsatiladigan ta'lim xizmatlari sifatini yaxshilash bo'yicha quyidagi vazifalar belgilandi[3]:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar ta'lim oladigan ta'lim muassasalari

binolariga qo'yiladigan talablarni ishlab chiqish va tasdiqlash;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar o'qitiladigan ta'lim muassasalarini zarur adabiyotlar, metodik qo'llanmalar, turli kasblarga o'qitish uchun uskuna va jihozlar bilan tminlashga qaratilgan chora-tadbirlarni amalga oshirish;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni o'qitish uchun inklyuziv ta'lim tizimini tashkil etish, umumta'lim muassasalarini maxsus moslamalar (ko'tarish qurilmasi, pandus, tutqich va boshqalar), shuningdek, tegishli kadrlar (maxsus pedagog, bolalarni ruhiy-

1 *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "Ta'lim-tarbiya tizimini yanada takomillashtirishga oid qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PQ-4884-son Qarori.*

2 *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 6-noyabrdagi "O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PF 6108-son Farmoni.*

3 *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 25-yanvardagi "Xalq ta'limi sohasidagi ilmiy-tadqiqot faoliyatini qo'llab quvvatlash hamda uzluksiz kasbiy rivojlantirish tizimini joriy qilish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ?4963-son Qarori.*

pedagogik kuzatish bo'yicha mutaxassislar) bilan ta'minlash;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning moslashishi va integratsiyasi uchun maktab-internatlarni bosqichma-bosqich maxsus jihozlar bilan ta'minlash va boshqalar.

Qaror bilan umumiy o'rta ta'lim tashkilotlarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga inklyuziv ta'limni tashkil etish tartibi to'g'risidagi nizom tasdiqlanib, unda quyidagilar belgilangan:

inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun maktablarda inklyuziv ta'lim va boshlang'ich tayanch korreksion sinflar faoliyatini yo'lga qo'yish hamda o'quv-tarbiya jarayonini tashkil etish tartibi;

o'quvchilarni inklyuziv ta'lim sinflariga va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarga qabul qilish tartibi;

inklyuziv ta'lim sinflari va boshlang'ich tayanch korreksion sinflarda ta'lim sifatini nazorat qilish va boshqarish chora-tadbirlari.

Shuningdek quyidagilar tasdiqlandi:

jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan bolalar uchun davlat ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

sanatoriy turidagi ixtisoslashtirilgan davlat ta'lim muassasalari to'g'risidagi nizom;

jismoniy, aqliy, sensor yoki ruhiy nuqsonlari bo'lgan, shuningdek, uzoq vaqt davolanishga muhtoj bo'lgan bolalarga uyda yakka tartibda ta'lim berish tartibi to'g'risidagi nizom.

Bundan tashqari qaror bilan alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalar uchun ixtisoslashtirilgan ta'lim muassasalarida kasbga o'qitish kurslarini tashkil etish chora-tadbirlari belgilandi. Hujjat qonun hujjatlari ma'lumotlari milliy bazasida e'lon qilingan va 2021-yil 13-oktyabrda kuchga kirdi.

XXI asr umumiy o'rta ta'lim maktablarining oldiga o'z bitiruvchilariga jadal sur'atlar bilan rivojlanib borayotgan davr uchun zarur bo'lgan mustahkam hamda tizimli bilim asoslarini berishi, shuningdek, ona Vataniga muhabbat va sodiqlik, dunyo xalqlari va elatlariga hurmatda bo'lish kabi insonparvarlik g'oyalarini mujassamlovchi milliy istiqlol ruhini singdirishi, ijtimoiy hayot uchun zarur bo'lgan ko'nikma va malakalar (o'z-o'zini boshqara olish, murakkab vaziyatlar va stressli holatlardan chiqib keta olish, kommunikatsiya (muloqot)ga kirisha olish va bilan qurollantirish kabi muhim masalalarni hal qilish muammolarini qo'ymoqda.

Ushbu maqsadda olib borilayotgan islohotlar uzluksiz ta'limning ajralmas qismi bo'lgan maxsus ta'lim tizimini ham bevosita qamrab oladi. Alohida yordamga muhtoj bo'lgan bolalarning birlamchi va uning oqibatida yuzaga keluvchi ikkilamchi muammolari ular uchun tashkil qilinuvchi ta'lim-tarbiya jarayonining mazmuniga o'zgacha yondashish lozimligini talab qiladi.

Istiqlol davriga qadar nogiron bolalar ta'lim-tarbiyasi yopiq mavzu hisoblanib, ular asosan "o'qitiladigan" va «o'qitilmaydigan»lar toifasiga tabaqalashtirilar edi.

O'zbekiston Konstitutsiyasiga asoslangan holda fuqarolarning millatidan, dinidan, jinsidan, ijtimoiy ahvolidan qat'iy nazar, ta'lim olishga huquqiyligi tamoyili qaror topgan. Nogironlarni ijtimoiy-huquqiy himoya qilishni davlat o'z burchi deb biladi.

O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishgandan boshlab nogiron bolalarga maxsus ta'lim-tarbiya jarayonini takomillashtirish, yangi milliylik va o'z-o'zini anglash ruhida tarbiyalash, o'qitish, yangi darsliklar, o'quv qo'llanmalari tayyorlasliga katta e'tibor bermoqda, bundan tashqari nogironlarni himoya qilish bo'yicha bir qancha buyruqlar va qarorlar tayyorlangan. Xalqimizning, shu jumladan, nogironlar va nogiron bolalar, ularning jismoniy, aqliy, psixik rivojlanishini yaxshilash, hayotga moslashtirish yo'llarini ishlab chiqish ko'rsatilgan[4].

Nogironlikning oldini olish va nogironlarni tibbiy-ijtimoiy reabilitatsiya qilish yuzasidan Vazirlar mahkamasining 1995-yil 11-noyabrda qabul qilingan 433-sonli «O'zbekiston Respublikasining nogironlarni reabilitatsiya qilish bo'yicha 1996-2000-yillarga mo'ljallangan davlat dasturi», 2000-2005-yilga mo'ljallangan davlat dasturi qabul qilingan va qator tadbirlar ishlab chiqilgan. Eng avvalo, nogironlikning oldini olish, nogironlarni tibbiy va ijtimoiy reabilitatsiya qilish, ularning ruhiyatini yaxshilash va sog'lomlashtirish nogironlikni ilk bor aniqlash, saralash, maxsus ta'lim-tarbiya berish va korreksion-pedagogik ishlar orqali korreksiyalash, kasbga yo'naltirish, hayotga moslashtirish, jismoniy tarbiyalash, nogironlar bilan ishlash uchun kadrlar tayyorlash masalalariga oid qonun va buyruqlar mayjuddir.

Ko'rinib turibdiki, nogiron, alohida yordamga muhtoj bolalar ham zamon talabiga javob beradigan ilmiy bilimlarning elementar

4 O'zbekiston Respublikasining «Bola huquqlarining kafolatlari to'g'risidagi Qonuni». // – Toshkent, 2008.





asoslarini egallashi, hayotda o'z o'rnini topa olishlari haqida davlatimiz mustaqillikning dastlabki yillaridayoq g'amxo'rlik qila boshlagan. O'zbekiston Respublikasida barcha maxsus ta'lim-tarbiya muassasalari davlat ixtiyorida ekanligi, bu tashkilotlarni davlat mablag' bilan taminlashi nazarda tutiladi. Maxsus ta'lim-tarbiya muassasalarining faoliyati davlat tomonidan boshqarilib boriladi. Shu kabi tadbirlar maxsus ta'lim ustidan davlatning siyosatini amalga oshirish, o'quv reja va dasturlarining yagona bo'lishini ta'minlash imkoniyatini beradi. Nogiron bolalarning barcha turlari uchun maxsus maktab, maktab-internatlar, sog'lomlashtirish sanatoriyalarida ta'limning bepul ekanligini takidlash mumkin. Shuni aytish zarurki, maxsus ta'lim tizimining o'ziga xos bo'lgan tomoni – uch vazirlik: Xalq ta'limi vazirligi, Sog'liqni saqlash vazirligi, Ijtimoiy ta'minot vazirligi tasarrufida ekanligidir[5].

Mamlakatda imkoniyati cheklangan bolalarga reabilitatsion ko'mak berayotgan bir nechta «Imkon» tashkiloti markazlari faoliyat yuritadi. Toshkentda bo'lib o'tgan YNESKOning kichik yoshdagi bolalarni tarbiyalash va ta'lim berishga bag'ishlangan ikkinchi butunjahon konferensiyasida "Imkon" tashkiloti ishtirok etmoqda.

«Imkon» - bu ko'p tarmoqli ixtisoslashtirilgan maktabgacha ta'lim tashkiloti bo'lib, ta'lim olish va ijtimoiylashuvga ehtiyoji yuqori bo'lgan bolalar uchun reabilitatsiya markazi hisoblanadi. U 2021-yili 26-noyabrda tashkil topgan.

Markazda psixologik, korreksion-pedagogik yordam, zamonaviy mashqlar jihozlari va fizioterapiya muolajalari tufayli bolalar ijtimoiy sohadagi moslashuv, turli darajadagi mayda motorikasini rivojlantirish, nutq buzilishini to'g'rilash kabi nuqsonlar ustida ishlanadi.

O'zbekistonning yangi taraqiyoti bosqichida mamlakatimizda bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlar mustahkam manaviy-axloqiy qadriyatlar negizida amalga oshirilayapdi. Bu esa yoshlarning yuksak fazilatlarni shakllantirishda, shu bilan birga, ularning ma'naviy dunyoqarashini kengaytirishda ta'limning o'rni va roli muhim ahamiyatga ega ekanligini ko'rsatadi.

Hayotning murakkab sinovlariga bolaligidayoq uchrayotgan nogiron farzandlarimizga g'amxo'rlik qilishimiz lozimligi isbot talab etmaydigan haqiqatdir. Ana shu haqiqatni amalga oshirish yo'lida ko'plab loyihalar ishlab chiqilmoqda va u hayotga izchillik bilan tatbiq etilmoqda. Ana shunday dastur-loyihalardan biri inklyuziv ta'lim loyihasi bo'lib u ijtimoiy tashabbuslarni qo'llab-quvvatlash jamg'armasi, O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi hamda Shvesariya konfederatsiyasi O'zbekistondagi elchixonasi hamkorligida amalga oshirilmoqda. Inklyuziv yoki integratsiyalashgan ta'lim tushunchasi maxsus e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning umumta'lim maktablarida bilim olishlarini nazarda tutadi. Imkoniyati cheklangan bolalarga e'tibor berishning bir jihatlarida nozik ruhiyatiga uning nogironligi o'laroq salbiy ta'sir o'tkazilishiga yo'l qo'ymaslik, uning boshqa bolalar bilan bir qatorda ta'lim olishi uchun barcha kerakli imkoniyat va sharoitlarni yaratib berish omillarini ishlab chiqishdan iboratdir. Inklyuziv ta'limni joriy qilish barobarida nogiron degan tushunchaning inkor etilishi va har bir bola teng huquqli ekanini imkoniyati cheklangan bolalar va ularning ota-onalari bilishlari zarurdir. Bugungi kunda mamlakatimizda imkoniyati cheklangan bolalar ta'lim-tarbiyasi va ularning ijtimoiy hayotga moslashuviga qulay sharoitlar yaratib berilmoqda. Ularni jamiyatga integratsiya qilish, avvalo imkon qadar salomatligini tiklash maqsadida «Imkoniyati cheklangan bolalar uchun umumiy ta'lim loyihasi» asosida ish yuritib kelinmoqda.

Bu borada Respublikamizda amalga oshirilayotgan bir qator ishlar alohida tahsinga sazovordir. Xususan, 2020-yil 13-oktyabrda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora tadbirlari to'g'risida»gi PQ-4360-sonli qarori respublika bo'yicha rivojlanishida nuqsoni bo'lgan bolalarning inklyuziv ta'lim-tarbiya olishi uchun bir qator afzalliklar yaratib berishga xizmat qilmoqda.

O'zbekistonda inklyuziv ta'limni takomillashtirish jarayoni bosqichli tizimga ega. Prezidentimizning "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim-tarbiya berish tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq 2020-2025-yillarda xalq ta'limi tizimida inklyuziv ta'limni rivojlantirish konsepsiyasi ushbu bosqichning asosiy bo'g'ini hisoblanadi. O'zbekistonda inklyuziv ta'lim tizimini rivojlantirishda imkoniyati cheklangan o'quvchilar bilan bog'liq vaziyatlar bo'yicha o'tkazilgan tahlillarga muvofiq, imkoniyati cheklangan bolalarga ko'maklashish bo'yicha

5 O'zbekiston Respublikasining 2020-yil 15-oktyabrdagi "Nogironligi bo'lgan shaxslarning huquqlari to'g'risida"gi O'RQ-641-son Qonuni.

strategik vazifalar belgilanishi va ularning amaliy ijrosi bilan bog'liq qo'shimcha choralar doimiy tartibda belgilab borilishi qayd etilgan. Ta'lim sohasida o'tkazilayotgan joriy islohotlarning tarkibiy qismi hisoblangan inklyuziv ta'lim islohotini jadallashtirish, o'qish jarayonida, ko'pincha, har bir bolaning o'quv ehtiyojlarini qoniqtirishga yo'naltirishni taqozo etadi. Inklyuziv ta'lim tizimi integratsiyalashgan o'quv tizimidan o'zining mazmun-mohiyati, maqsadi, vazifalari va harakat dasturi bilan farqlanadi.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan ilk kunidanoq Respublika Hukumati yosh avlodning sog'lig'i, ta'lim hamda tarbiyasi masalalariga jiddiy ahamiyat berib kelmoqda. Ushbu ishlarning amaliy yechimi bevosita uzluksiz ta'lim tizimi bo'g'ini bo'lgan maktab bilan bog'liq. Ta'limimiz diqqat markazida erkin, ongli, o'z va dunyo mamlakatlari milliy va madaniy qadriyatlariga hurmatda bo'lgan barkamol shaxsni tarbiyalash turadi.

Hozirgi kunda maxsus ta'lim tizimiga "anomal", "nuqsonli", "aqli zaif" kabi atamalar o'rniga "alohida e'tiborga muhtoj", "aqliy rivojlanishida muammosi bo'lgan", "rivojlanishida chetga chiqishlari mavjud" atamalari kirib keldi. Bu hol bunday bolalarning reabilitatsiya, korreksiya, ijtimoiy hayotga moslashuvlari va integratsiyalashuv (uyg'unlashuv)lari masalalariga bo'lgan munosabatlarning o'zgarishiga olib keldi. Asta-sekinlik bilan dunyoga yuz tutgan ta'lim tizimida ham yangi yo'nalish ishlari boshlab yuborildi. Maxsus ta'lim tizimiga muqobil bo'lgan yangi yo'nalish maktablari – inklyuziv maktablari shakllana boshladi. 1996-yildan e'tiboran kirib kelgan va 2000-yildan e'tiboran xalqaro tashkilotlar bilan hamkorlikda turli Loyihalar asosida tashkil etib kelinayotgan inklyuziv ta'lim muassasalari dastlab muvaffaqiyatlarga erishishiga qaramay, mazkur qo'llab-quvvatlashlar yakunlangach, maktablarda qator depsinishlar yuzaga kelmoqda. Shu sababli ham inklyuziv ta'limning me'yoriy-huquqiy va nazariy asoslarini puxta o'rganish va u orqali inklyuziv ta'limning samarali tizimiga o'tish xalq ta'limi tizimida dolzarb masala sanaladi.

Inklyuziv ta'lim – fran. Inclusif – qamrab olaman, lotincha Include - kiritaman, qo'shaman degan mnolarni anglatadi. Umuman olganda inklyuziv ta'lim jismoniy va intellektual, ijtimoiy, hissiy va lingvistik kelib chiqishidan, shuningdek, irqidan, rangidan qat'iy nazar, har bir shaxsga umumta'lim muassasalarida o'qish imkoniyati beriladigan ta'lim shaklidir.

Ko'p hollarda inklyuziv va integratsion tushunchalari bir xil ma'noda ishlatiladi. Bu ikkala tushuncha o'rtasidagi tafovut yanada tushunarliroq bayon etilgan bo'lib, quyidagicha ta'kidlanadi:

Integratsiyalashgan ta'limda bolaga muammo sifatida qaraladi. Bola standart talablarni bajarishi kerak. Aks holda ikkinchi yilga qoldiriladi yoki maktabni tark etishiga to'g'ri keladi.

Inklyuziv ta'limda esa ta'limni bolalarga moslashtirish muammosini o'rganadi. Ya'ni bolani emas, ta'lim mazmunini o'zgartirishni taqozo qiladi. Bola o'z imkoniyati darajasida o'ziga xos yondashuv asosidagi ta'lim mazmunini egallashi nazarda tutiladi.

Inklyuziv ta'limning maqsadi — aholining barcha qatlamlari uchun ta'limni qo'llab-quvvatlash, jumladan, nogironligi bo'lgan o'quvchilar va ularni ta'limidagi to'siqlarni bartaraf etishga alohida e'tibor berishdir.

Inklyuziv ta'limning vazifalari – alohida ta'lim ehtiyojlariga ega bo'lgan bolalarni sinfdagi boshqa bolalar kabi qabul qilish turli vazifalar qo'yilgan bo'lsa-da, ularni bir-xil faoliyatga kiritish o'quvchilarni ta'limning jamoaviy shakllariga va guruhli muammolarni hal qilishga jalb etish, jamoaviy ishtirok etishning boshqa strategiyalaridan foydalanish - o'yinlar, qo'shma loyihalar, laboratoriya ishlari va boshqalar.

Inklyuziv ta'lim – rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalarni umumta'lim jarayoniga olib kirish ma'nosida qo'llanib, integratsiyadan farqli ravishda, rivojlanishida muammolari bo'lgan bolalar barcha sog'lom bolalar bilan birgalikda ta'lim olsalarda, o'z imkoniyatlari doirasidagi bilim, ko'nikma va malakalar bilan qurollanadilar. Barcha bolalarning hamkorlikdagi ta'limi ikki tomonlama ijobiy xislatlarga ega. Agar, ushbu jarayon orqali alohida e'tiborga muhtoj bo'lgan bolalarning o'z oilalari, mahalladoshlari bilan birga o'sib ulg'ayishlari ta'minlansa, sog'lom bolalarning rivojlanishlarida muammolari bo'lgan bolalarning imkoniyatlarini ko'rib, ular ham nuqsonli emas, balki o'zgacha rivojlanishga ega bo'lgan bolalar ekanliklarini anglashlari sodir bo'ladi. Shu sababli ham bunday ta'limning g'oyasi - «Inklyuziv maktablardan – inklyuziv jamiyat sari» shiori asosiga qurilgan.

Nogironligi bo'lgan shaxslarga yaratilayotgan huquqiy-me'yoriy hujjatlar mohiyati shundan iborat-ki, inklyuziv ta'lim asosida erta yosh davrlarida nogironligi bo'lgan shaxslarni ijtimoiy hayotga qo'shish





va ularni sog'lom shaxslar qatorida ijtimoiy hayotda ishtirok etishini ta'minlashdir[6].

Barcha toifadagi bolalarni qamrab olgan holda umumiy ta'lim tizimida o'quvchilarni o'qitish va ularning tengligini ta'minlash orqali nogironligi bo'lgan bolalar kelajakda ijtimoiy hayotda o'z o'rnilarini topishlari mumkindir.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 638-son qarori asosidagi inklyuziv ta'limning maqsadi va vazifalari, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 2021-yil 12-oktabrdagi 638-son "Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarga ta'lim berishga oid normativ-huquqiy hujjatlarni tasdiqlash to'g'risida"gi qaror asosida inklyuziv ta'limni targ'ib va tashkil etish tartibi belgilanadi.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 638-son qarori asosidagi inklyuziv ta'limning maqsadi alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar uchun maktabda maxsus vosita va metodlarni qo'llash orqali maxsus pedagoglarni jalb etgan holda to'siqsiz moslashtirilgan ta'lim muhitini yaratish, ularning jamiyatga samarali moslashuvi hamda to'laqonli uyg'unlashuviga xizmat qiladigan sifatli umumiy o'rta ta'lim berishni ta'minlashdan iborat.

O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Maxkamasining 638-son qarori asosidagi inklyuziv ta'limning vazifalari:

1. Rivojlanishning turli imkoniyatlariga ega bo'lgan o'quvchilar uchun har qanday kamsitilishni istisno qiladigan, barcha bolalarga teng munosabatda bo'lishni ta'minlaydigan yagona moslashtirilgan ijtimoiy muhitni yaratish;
2. Jamoatchilik hamda ta'lim jarayonining barcha ishtirokchilarida alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quvchilar muammolariga nisbatan bag'rikenglik munosabatini shakllantirish;
3. Ta'lim jarayonida sog'lom bolalar bilan bir qatorda alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarning aqliy va ijtimoiy salohiyatlarini rivojlantirish;
4. Barcha o'quvchilar uchun davlat ta'lim standartlariga muvofiq umumiy o'rta ta'lim dasturlarini o'zlashtirish uchun imkoniyat yaratish;
5. O'quvchilarning har tomonlama rivojlanishi, emotsional-irodaviy sohasi, bilish faoliyatini faollashtirish, ijtimoiy ko'nikma va salohiyatini shakllantirish uchun shart-sharoitlar yaratish;
6. Alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan bolalarni tarbiyalayotgan oilalarga maslahat yordami berish hamda ota-onalarni farzandlariga ta'lim-tarbiya berish, pedagogik texnologiyalar, ta'lim-tarbiya metod va vositalarini qo'llash sohasida xabardorlik darajasini oshirish, ularni psixologik-pedagogik jihatdan qo'llab-quvvatlash.

Iklyuziv ta'limning barcha uchun turli imkoniyatlari mavjud, masalan:

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quchilar uchun ijtimoiy va umumiy rivojlanishlari uchun optimal shart-sharoitlar yaratib beradi;

sog'lom o'quvchilar uchun cheklovlarni yengish tajribasi, salomatlikni qadrlash, dangasalik yengishga yordam beradi;

maktab uchun imkoniyatlari - maktab yangi qadriyatlarga ega bo'ladi, shuningdek, yangi jihozlar va yangi ta'lim texnologiyalar bilan ta'minlanadi;

jamiyat uchun imkoniyatlari - fuqarolik erkinliklari, teng huquqlilik ta'minlanadi va inson qadr-qimmati yuksaltiriladi;

alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quchilarning ota-onalari uchun imkoniyatlari - alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan o'quchilar hududiy maktabga borish oqibatida oilada qolish mumkin bo'ladi, shu bilan birgalikda ota-onalar farzandlari uchun ta'lim shaklini tanlash huquqiga ega bo'ladilar.

Inklyuziv ta'limni yaxshi darajada va samarali tashkil etish uchun biz maxsus ta'lim muassasalari va nogironligi bo'lgan bolalar haqida barcha ma'lumotlarga ega bo'lishimiz kerak bo'ladi. Inklyuziv ta'limni muvaffaqiyatli targ'ib etish uchun ba'zi qoidalarga amal qilgan holda moslashuvchan muhitni yaratish juda muhim hisoblanadi. Aynan shu qoidalar sifatli ta'lim garovidir .

6 *Bola huquqlari to'g'risida Konvensiya. Xalqaro YuNISEF tashkiloti. – Toshkent, 1992. – 48 b.*

# O'QUVCHILARGA YASHIL IQTISODIYOTNI EKOSAYOHAT ORQALI RIVOJLANTIRISH

***Shokir Baxtiyorovich Ochilov** - p.f.b.f.d. (Ph.D), dotsent, Navoiy davlat pedagogika instituti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada o'quvchilarga yashil iqtisodiyotni rivojlantirishda tabiat qo'ynida qizil kitobga kiritilgan noyob o'simliklarni parvarish qilayotgan qo'riqxonalar, zamonaviy texnologiyalar asosida tomchilatib sug'orilayotgan intensiv bog'lar, issiqxonalarda parvarish qilinayotgan fermalarga ekosayohatlarni tashkil qilish va o'tkazish metodlari tahlil qilingan.*

***Аннотация:** В рамках развития зеленой экономики в данной статье анализируются методы организации и проведения экотуров в заказники по уходу за редкими растениями, занесенными в Красную книгу, интенсивные сады с капельным орошением на основе современных технологий, хозяйства по уходу за для теплиц.*

***Abstract:** In this article, students analyzed the methods of organizing and conducting eco-tours to green farming surrounded by nature, to reserves for the care of rare plants listed in the Red Book, intensive gardens with drip irrigation based on modern technologiyes, and farms located in greenhouses.*

***Kalit so'zlar:** yashil iqtisodiyot, sinfdan tashqari ishlar, ekosayohat, kompetensiya, fotosentez, tomchilatib sug'orish, daraxtlar, o'simliklar, qizil kitob, sabzavotlar, Quyosh nuri, Plank doimiysi, korbonat angidrid, kislorod, hujayralar, reaksiya.*

***Ключевые слова:** зеленая экономика, внешкольная деятельность, экотуризм, компетентность, фотосинтез, капельное орошение, деревья, растения, красная книга, овощи, солнечный свет, постоянная Планка, углекислый газ, кислород, клетки, реакция.*

***Keywords:** green economy, extracurricular activitiyes, ecotourism, competence, photosynthesis, drip irrigation, trees, plants, red book, vegetables, sunlight, Planck's constant, carbon dioxide, oxygen, cells, reaction.*

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda umumiy o'rta ta'lim maktablarining barcha sinf o'quvchilari o'z ixtiyorlari bilan maktab o'quv dasturidan tashqari qo'shimcha fanlar, san'at turlari, sog'lomlashtirish maskanlari, badiiy hunarmandchilik va boshqa kasb-hunar, sport turlarini o'rganadilar. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-sonli "2030-yilgacha O'zbekiston Respublikasining "Yashil" iqtisodiyotga o'tishiga qaratilgan islohotlar samaradorligini oshirish bo'yicha chora-tadbirlar to'g'risi"da qarorining 11-bandida.

"Yashil" iqtisodiyot sohasidagi ustuvor yo'nalishlar bo'yicha fundamental va amaliy tadqiqotlarni olib borish;

iqtisodiyot tarmoqlarida "yashil" texnologiyalar, xususan, resurs tejovchi, chiqindisiz ishlab chiqarish, chiqindilarni qayta ishlash imkoniyatini beruvchi texnologiyalarni va xavfsiz kimyoviy moddalarni qo'llashga o'tish hamda qayta tiklanuvchi energiya texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini o'rganish va ularni amaliyotga tatbiq etish[1];

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-sonli "Ma'naviy-ma'rifiy ishlar tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risi" da qarori 2 -"b" bandining ilmiy-tadqiqot yo'nalishida:

- ma'naviy-ma'rifiy ishlarni amalga oshirishning samarali va ta'sirchan targ'ibot texnologiyalari hamda usullarini ishlab chiqish;
- ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarni tashkil etishga doir xorijiy tajribani o'rganish, shuningdek, bugungi mafkuraviy jarayonlarni ilmiy-amaliy jihatdan atroflicha tahlil qilish va baholash;
- maktabgacha ta'lim, umumiy o'rta, o'rta maxsus va oliy ta'lim tizimi, mahalla va boshqa tuzilmalar kesimida ma'naviy-ma'rifiy va tarbiyaviy ishlarning monitoringini olib borish, aniqlangan muammolarni hal etish bo'yicha ilmiy asoslangan tarbiya texnologiyalari, taklif va tavsiyalar ishlab chiqish bo'yicha oliy ta'lim muassaslari, ilmiy tadqiqot institutlarida o'quvchilarni fundamental bilimlarini boyitish bilan bir qatorda ularni kasb-hunarga yo'naltirishga qaratilgan ilmiy tadqiqot ishlari olib borilmoqda[2].

Bugungi kunda yoshlar siyosatini

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 2-dekabrdagi PQ-436-son qarori. Lex.uz

2 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 26-martdagi PQ-5040-son qarori. Lex.uz





takomillashtirish, intellektual rivojlangan yosh avlodni tarbiyalash, ta'lim sifati va uni baholashning xalqaro standartlarini joriy etish orqali tubdan yaxshilash, sinfdan tashqari o'qitish tizimini rivojlantirish bo'yicha ustuvor vazifalar belgilab berildi. Bunda sinfdan tashqari mashg'ulotlarda o'quvchi va o'smirlarning yakka tartibdagi ehtiyojlarini qondirish, ularning bo'sh vaqtini va dam olishini tashkil etish maqsadida madaniy-estetik, ilmiy, texnikaviy, sog'lomlashtirish, sport, ekosayyohlik, ekomarafon va boshqa yo'nalishlarda sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'z faoliyatini olib borilmoqda[3].

Sinfdan tashqari mashg'ulotlar o'z faoliyatini, tezkor va shiddat bilan rivojlanib borayotgan jamiyat, fan-texnika va ishlab chiqarishning yangicha talablariga mos ravishda, uzoqni ko'zlagan holda, o'quvchilarga milliy ta'lim tizimi asosida nazariy bilim, ko'nikma, malaka va hayotiy ko'nikmalar (kompetensiyalar)ni shakllantiribgina qolmay, balki mazkur kompetensiyalarni amaliyotda qo'llay olish, undan kelajakda shaxsiy, kasbiy va ijtimoiy faoliyatida muvafaqqiyatli bo'lishi uchun zarur bo'lgan layoqatlar, qobiliyatlar, hayotiy malaka va ko'nikmalarni shakllantiradi[4].

Sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ekosayohatni tashkil qilish va o'tkazish katta ahamiyatga ega. Bunda o'quvchilarning darsda olgan bilimlarini mustahkamlash, chuqurlashtirish, mustaqil ishlash, ijodiy tafakkur qilish, qobiliyatlarini hamda amaliy ko'nikma va malaka (kompetensiya)larini rivojlantirish umumiy holda texnologiya faniga bo'lgan qiziqishlarini oshirish bilan birga tabiatga nisbatan mas'ullik hissini oshirish imkoniyatlar paydo bo'ladi.

Umumta'lim maktablarining yuqori sinf o'quvchilarini tabiat bag'riga, mamlakatimizda keng rivojlanayotgan intensiv bog'larga, yopiq inshoat (issiqxona) larda parvarish qilinayotgan meva, sabzavotlarni, tabiatda qizil kitobga kiritilgan noyob o'simliklar hamda bugungi kundagi eng sermahsul manzarali va mevali daraxtlarni parvarish qilayotgan maskanlar (qo'riqxona)larga ekosayohatlar tashkil qilish muhim ahamiyat kasb etmoqda.

Maktabda ekologik kompetensiyalarni o'quvchining yoshi, psixofiziologik xususiyatlarini hisobga olgan holda har bir o'quv predmetini o'qitish jarayonida shakllantirilib boriladi. Texnologiya fanini Science (Tabiiy fanlar) fizika, biologiya, kimyo, geografiya fanlari bilan uzviy fanlararo bog'langan holda o'qitish samaradorligini oshiradi. Chunki biosfera qatlamidagi barcha jarayon va hodisalar ushbu fanlar bilan bog'liqlik jarayonlari mavjud. STEAM ta'lim texnologiyasi asosida tashkil etilgan dars mashg'ulotlari o'quvchilarda fanga bo'lgan qiziqishlarini balki kundalik faoliyatida vijudga keladigan ekologik kompetensiyalarni rivojlantirishga katta samara beradi.

Fanlararo bog'lanish keng qo'llaniladigan mavzulardan biri "Fotosintez" mavzusidir. Mavzuda barcha o'simliklar dunyosining yashashi uchun zarur bo'lgan jarayon bayon qilingan. Bu jarayonni tushuntirish uchun kimyoviy reaksiyalar, fizika kursidagi yorug'lik kvantlari va ularning o'simliklarga ta'siri ko'rsatiladi. O'quvchilarga fanlararo bog'lanishda "Fotosintez" mavzusini fizika, biologiya va kimyo fan o'qituvchilari bilan birgalikda o'quvchilar ekosayohatni tashkil qilish maqsadga muvofiqdir.

O'quvchilarga ekosayohat davomida olib boriladigan tashkiliy tadbirlar FSMU ta'lim texnologiyalari asosida tashkil qilindi.

FSMU ta'lim texnologiyasi — munozarali masalalarni hal etishda, bahs-munozaralar o'tkazishda yoki o'quv-seminarlarda o'z fikrini himoya qilishga, erkin fikrlash va o'z fikrini boshqalarga o'tkazishga, ochiq holda bahslashishga shu bilan ekosayohat vaqtida egallagan bilimlarini tahlil etishga, qay darajada egallaganini baholash va bahslashish madaniyatini o'rgatadi.

O'quvchilarga ekosayohatga chiqishdan oldin quyidagi topshiriqlarni uyga vazifa sifatida beriladi.

Nima sababdan nafas olamiz?

Kislorod odam, hayvon va o'simliklarning (kechasi) nafas olishini ta'minlaydimi?

Kishi organizmiga kislorod yetarli bo'lmay qolsa qanday holatga tushib qolishi mumkin?

Qon orqali kislorod tananing barcha hujayralariga borishi va ulardan karbonat angidrid gazini siqib chiqarishini bilasizmi?

O'simliklar quyosh nuri ta'sirida fotosintez yo'li bilan kislorod ishlab chiqaradimi?

Nima uchun biz o'simliklarni "Kislorod fabrikasi" deymiz?

O'simliklar dunyosi tirik organizmlar uchun foydali mahsulot ekanligini bilasizmi?

Biz o'simliklar dunyosini saqlab qolishimiz

3 Achilov Sh.B. Technologiyes for the development of student environmental competence in extracurricular activitiyes // Jilin Daxue Xuebao / Journal of Jilin University, — China. 2021. -P. 633-645.

4 Turdiyev N.Sh., Asadov Y.M., Akbarova S.N. Umumiy o'rta ta'lim tizimida o'quvchilarda kompetensiyalarni shakllantirishga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari. T:, Niso Poligraf, –2017. –168 b.

uchun nima qilishimiz kerak?[5]

O'quvchilar tabiat qo'yniga sayohatga chiqishda ushbu savollarga fizika, biologiya va kimyo o'qituvchilari quyidagi ma'lumotlarni tushuntirish lozim.

Fizika o'qituvchisi: Yerda Quyosh nuri ta'sirida sodir bo'ladigan hodisalardan biri fotosintezdir. Quyoshdan chiqib sayyoramizga keluvchi umumiy nurlanishdan faqat yarmi Yer yuziga yetib keladi. To'lqin uzunligiga ko'ra, undan faqat 1/8 qismi fotosintez bo'lishi uchun yaroqlidir. Bu nurlarning 0,4% qismi (umumiy energiyaning taxminan 1%) o'simliklar tomonidan foydalaniladi. Yerdagi hayot, aynan mana shu 1% energiyaga bog'liqdir. Demak yorug'lik ham energiyaga ega ekan. Tajribalar shuni ko'rsatadiki, yorug'likning energiyasi uning rangiga bog'liq ekan. Yorug'lik rangi uning chastotasi bilan belgilanadi. Yorug'lik energiyasining chastotasiga bog'liqlik formulasini nemis olimi M. Plank topgan. W=hv Bunda v-yorug'lik nuri chastotasi, $h=6{,}62 \cdot 10^{-34}$ J•c ga teng bo'lib, Plank doimiysi tushuntiriladi[6].

Kimyo o'qituvchisi: Fotosintez – organik birikmalarda yutilgan yorug'lik energiyasining kimyoviy energiyaga aylanish jarayonidir.

Fotosintez jarayonida karbonat angidrid gazi xlorofil ishtirokida suv bilan ta'sirlashadi. Bunda glyukoza va kislorod ajralib chiqadi: $6CO_2+6N_2O \rightarrow C_6N_{12}O_6+6O_2$ va buning mohiyati atroflicha bayon etiladi.

Yorug'lik kvantlarining ta'sirida o'simliklarda uglerod hosil bo'lishi va kislorod ajralishini birinchi bosqichi quyidagicha bo'ladi:

$CO_2+2H_2O+Nh\nu \rightarrow [Ch_2O]+O_2+H_2O$

Bu reaksiya natijasida hayot uchun foydali bo'lgan eng muhim kislorod ajralib chiqadi. O'simliklar uglerod atomlaridan iborat zanjirni ildizlar yordamida yerdan oladigan boshqa elementlarning atomlarini qo'shib olib, inson va hayvonlar uchun oziq bo'lmish oqsil, yog', uglerod molekulalarini hosil qiladi.

Biologiya o'qituvchisi: Yer yuzidagi o'simliklar har yili fotosintez yo'li bilan 450 mlrd. tonnaga yaqin organik moddalar hosil qiladi. 1 gektar o'rmon har yili 3 t kislorod ishlab havoga chiqaradi.

Fotosintez organik moddalar hosil qilib, atmosferani karbonat angidrid ($CO_2$) gazidan tozalaydi va kislorod ($O_2$) bilan boyitadi. Ana shu bilan fotosintez hodisasi sayyoramizda hayotning mavjud bo'lishi uchun asosiy zarur shart-sharoitlarni yaratadi.

Texnologiya o'qituvchisi: Bugungi kunda O'rta Osiyoda suv taqchilligi sezilarli darajada bilinmoqda. Aholi sinining ochib borishi kundalik ehtiyojlarni ko'payishiga sabab bo'ladi. Shu maqsadda mamlakatimizda o'simliklarni, mevali va manzarali daraxtlarni tomchilatib, gidroponika usulida sug'orish mexanizmlari jadal rivojlanmoqda. Kundalik faoliyatimizda qo'llab kelayotgan tomchilatib sug'orish mexanizmini umumta'lim maktablarida tushuntirish maqsadga muvofiqdir.

Shuning uchun, texnologiya fanini fanlararo aloqadorlikda o'qitish samaradorligi yuqori bo'ladi. Chunki, tomchilatib sug'rishda suvning oziqaviy qiymatini oshirishda kimyoviy moddalarning chegaraviy dozasini tushuntirish muhimdir. Bu esa, o'simlik tomonidan kerakli miqdorda tezda so'rilishi, uning o'sishi va rivojlanishiga zarar yetkazmasdan rivojlanishiga yordam berishi tushuntiriladi.

An'anaviy sug'orish bilan solishtirganda, tomchilardan foydalanganda, tuproqning tabiiy tuzilishi buzilmaydi. Kuchli quyosh nurlari bilan o'simliklar nobud bo'lmaydi, bu barglarga tomchilar tushganda kuzatiladi.

Avtomatlashtirilgan tomchilatib sug'orish tizimi bilan sug'orish insonning minimal aralashuvi bilan amalga oshiriladi. Suv tuproqqa faqat ildiz tizimi yotadigan joylarda kiradi, u har bir o'simlik uchun bir tekis va doimiy ravishda zarur bo'lgan miqdorda yetkazib berilishi tushuntiriladi[7].

O'quvchilar ekosayohat davomida o'qituvchilar tomonidan berilgan savol-javoblarga faol qatnashib, yaxshi qatnashgan o'quvchilar baholanib boriladi.

O'qituvchi: nima sababdan organizmga energiya kerak?

O'quvchilar: turli ko'rinishdagi ishlarni bajarish, moddalarni kimyoviy ravishda sintez qilish, to'qimalarni ishlashi va tiklanishi uchun, nerv impulslari o'tishi va h.k.

O'qituvchi: tirik organizmlarning faoliyatiga zarur bo'lgan energiya manbai nimada?

O'quvchilar: organizmning faoliyati uchun zarur bo'lgan energiya sifatida ozuqa moddalari-organik molekulalar bo'lib, ularda atomlar orasidagi bog'lanishlarda kimyoviy energiya saqlanadi. Atomlar orasidagi bog'lanish uzilganda energiya ajralishi mumkin.

O'qituvchi: nima sababdan quyosh narlari o'simliklarning bargiga ko'proq tushadi?

5 Turdiqulov E.O., Musayeva M.E., Norboyev A.G', Ochilov Sh.B., O'quvchilarga ijtimoiy ekologiyadan ta'lim berish texnologiyalari // Metodik qo'llanma. –T:, O'zPFITI, –2014. –160 b.

6 Ochilov Sh.B. Fizika ta'limida ekologik kompetensiyani takomillashtirish // O'quv qo'llanma. –N:, "Aziz kitobxon", -2021. -176 b.

7 Eshniyozov O.E., Bobomirzayev P.X., Bobokulov Z.R., Ochilov Sh.B. «Qishloq xo'jaligi ishlarini tashkil etish texnologiyasi» fanidan amaliy mashg'ulotlar va laboratoriya ishlari// –O'quv qo'llanma. –S:, SamDU, 2021. –252 b.





O'quvchilar: o'simliklar bargining yuza qismi qanchi katta bo'lsa, shuncha ko'p yorug'lik nuri tushadi?

O'qituvchi: nima sababdan barg po'sti shaffof bo'ladi?

O'quvchilar: barg po'sti yorug'likni tutib qolmasligi uchun.

O'qituvchi: nima uchun ayrim barg etining hujayralari siyrak, ayrimlari zich joylashgan bo'ladi?

O'quvchilar: Hujayralar yorug'likni maksimal darajada ushlab qolishi kerak, lekin fotosintez uchun zarur bo'lgan gazga yetarli darajada bo'sh joy qolishi kerak.

O'qituvchi: tinch holatda dam olayotgan kishi bir minutda necha ml kislorodni iste'mol qiladi?

O'quvchilar: tinch holatda dam olayotgan kishi bir minutda 250 ml, sutkasiga 360 l kislorodni iste'mol qiladi.

O'qituvchi: Qon orqali kislorod tananing barcha hujayralariga borishi bilasizmi?

O'quvchilar: Nafas olinganda havoning tarkibidagi kislorod o'pka orqali qonga o'tib, qizil qon tanachalariga qo'shilib ketadi, bu tanachalar qon aylanish jarayonida kislorodni to'qima va hujayralarga olib keladi. Agar kishi organizmida kislorod yetarli bo'lmay qolsa, nafas olish, markaziy asab, yurak-qon tomirlari tizimining faoliyati buziladi, kishi falaj bo'lib qolishi mumkin.

O'qituvchi: kishi organizmiga kislorod juda kerakli mahsulot ekan, buning uchun nima qilishimiz kerak?

O'quvchilar: tabiatda atmosfera havosini ifloslantiruvchi manbalarni kamaytirish, ko'proq mevali va manzarali daraxtlarni ekish, ularni parvarishlash, tabiatga bo'lgan mas'ullik hissini oshirish lozim.

Yashil iqtisodiyotni ekosayohat orqali rivojlantirishda STEAM ta'lim muhitida fanlararo yondashuv asosida o'quvchilarda bir tup daraxt niholi va o'simliklarning foydali tamonlarini ilmiy tarafdan tushuntirdi. Respublika iqlim sharoitini hisobga olgan holda, tuproqlarning fizik, ximik xususiyatlari o'rganib, namlikni saqlash uchun ariqlar bo'yiga, uy atrofida mevali va manzarali daraxtlarni ekish, ko'paytirish, parvarish qilish, va tabiatga bo'lgan mas'ullik hissini oshiradi. Sho'r yerlarga va shamol yo'llariga chidamli bo'lgan manzarali daraxtlarni ekish zarurligi ilmiy asosda tushuntiriladi.

O'quvchilarga atmosferada karbonad angidrid ($SO_2$) gazining oshib ketishini oldini oluvchi asosiy manba, bu mevali va manzarali daraxtlar va o'simliklar ekanligi tushuntiriladi. Ular $SO_2$ gazini yutib kislorod (O) ni chiqarishini yaxshi biladi. Mevali va manzarali daraxtlar konveksiya (shamollar) orqali olib keladigan zaharli bakteriyalar, har xil gaz va changlarni ushlab qolishi haqida tushunchalarga ega bo'ladilar. Bundan tashqari, o'quvchilar atrof-muhitga befarq bo'lmaslik, atmosfera havosiga salbiy ta'sir ko'rsatmaydigan zamonaviy ekologik toza texnika vositalaridan foydalanish kompetentligi rivojlanadi.

# INTERFAOL USULLARDAN FOYDALANIB BO'LAJAK MUHANDIS-ENERGETIKLARNI INNOVATSION FAOLIYATGA TAYYORLASH

**_Olimjon Usubovich Otamirzayev_** - *dotsent, Namangan muhandislik-qurilish instituti*
**_Dilnoza Nematillayevna Zokirova_** - *katta o'qituvchi, Namangan muhandislik-qurilish instituti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada bo'lajak muhandis-energetiklarning innovatsion faoliyatga tayyorlashda foydalaniladigan interfaol usullar, ularni o'quv jarayonida qo'llash bo'yicha takliflar keltirilgan. Shu bilan birga interfaol usullardan ta'lim jarayonida foydalanishda vujudga keladigan muammolar va ularni oldini olish bo'yicha tavsiyalar berilgan.*

***Аннотация:*** *В статье приведены интерактивные методы, применяемые при подготовке будущих энергетиков к инновационной деятельности и рекомендации по их применению в учебном процессе. На ряду с этим приведена проблемы, возникающие при использовании интерактивных методов в учебном процессе и рекомендации по их предотвращению.*

***Abstract:*** *The article presents interactive methods used in the preparation of future power engineers for innovative activities and recommendations for their use in the educational process. Along with this, the problems that arise when using interactive methods in the educational process and recommendations for their prevention are given.*

***Kalit so'zlar:*** *muhandis-energetik, kasbiy mahorat, interfaol usullar, muammolar, "Bumerang" metodi, "Domino" metodi, "Keys-stadi" metodi, kompetentli yondashuv, innovatsion faoliyat, mustaqil fikrlash.*

***Ключевые слова:*** *инженер-энергетик, профессиональные навыки, интерактивные методы, проблемы, метод «Бумеранг», метод «Домино», метод «Кейс», компетентный подход, инновационная деятельность, самостоятельное мышление.*

***Keywords:*** *energy engineer, professional skills, interactive methods, problems, Boomerang method, Domino method, Case method, competent approach, innovative activity, independent thinking.*

Hozirgi zamonda iqtisodiyot jarayoni globallashayotgan vaziyatda O'zbekiston Respublikasi iqtisodiyotining barcha tarmoqlarini intensiv ravishda keng ko'lamda investitsiyalarni jalb etish asosida rivojlantirish asosiy dolzarb vazifa hisoblanadi. Ushbu sharoitda yuqori texnologiyalarga ega bo'layotgan ishlab chiqarish korxonalariga mukammal kasbiy kvalifikatsiyali mutaxassislarni tayyorlash ta'lim tizimining asosiy burchidir. Bunday mutaxassislarni tayyorlash oliy ta'lim muassasalari professor-o'qituvchilarning malakasiga, zamonaviy bilimga egaligiga va yuqori zamonaviy pedagogik texnologiyalarni ishlata bilishiga bog'liq bo'lib qoldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasi oliy ta'limni rivojlantirishning strategik maqsadlari, ustuvor yo'nalishlari, vazifalari, o'rta va uzoq muddatli istiqboldagi bosqichlarini belgilaydi hamda sohaga oid dasturlar va kompleks chora-tadbirlarni ishlab chiqish uchun asos bo'ladi[1].

Inson kapitali — insonning bilimlar, amaliy ko'nikmalar va ijodiy qobiliyatlari, shaxsning ta'lim va ishlab chiqarish faoliyati sohasidagi muammolarni qo'yilishi va vazifalarni bajarish qobiliyati, insonning axloqiy qadriyatlari, uning madaniyati, shu jumladan innovatsion madaniyat majmuidir.

Sanoatlashgan jamiyat rivoji muhandis-energetiklarni nafaqat malaka xususiyatlari, balki butunlay yangi kompetentliklarni egallashini ham ko'zda tutadi. Shuning uchun, oxirgi vaqtlarda oliy ta'lim mazmunini kompetentli yondashuv asosida modernizatsiyalash amalga oshirilmoqda, uning maqsadi shaxsning kasbiy kompetentligini shakllantirishdan iborat.

Kompetentli yondashuv favqulodda murakkab vazifalarni hal qilish uchun foydalaniladi, u oliy ta'lim sifatini baholash va ko'pgina boshlang'ich parametrlarga ega modellarni yaratishni talab qilishi bilan bog'liq.

Kompetentli yondashuvi ta'lim jarayoni texnologikligini nazarda tutadi. Ta'lim maqsadlariga erishishning texnologik usulida bitiruvchi "mahsulot" sifatida namoyon bo'ladi,

1 *Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 8 октябрдаги «Ўзбекистон Республикаси олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепцияси тўғрисида»ги ПФ-5847-сон фармони*





uning sifati ta'lim sifati bilan aniqlanadi. Sifat mezonlarini tizimlashtirish va parametrlash asosida ushbu yondashuv texnologiyalarni malakali muhandislarni tayyorlashga ta'sirini baholash imkonini beradi[2].

Ta'limda kompetentli yondashuv zamonaviy mutaxassisni tayyorlashning maqsadi va vazifalariga mos keladi. Bunday yondashuv oliy ta'lim bitiruvchisi uchun kelajakda zarur bo'lgan shaxsning universal (umummadaniy) va maxsus (malakaviy) sifatlarini talab qiladi.

Kasbiy mahoratni shakllantirish jarayonida oliy ta'lim va oliy ta'limdan keyingi ta'lim bosqichlarini ajratish mumkin. Oliy ta'lim bosqichida mutaxassislarni kasbiy shakllanishi ularning bilish faoliyati va kasbiy tayyorgarligini shakllanganligini rivojlantirish orqali ta'minlanadi. Oliy ta'limdan keyingi bosqich mustaqil kasbiy faoliyat davomida, mutaxassisning kasbiy mahorati professionallikning eng yuqori darajasiga ko'tarilganligi bilan tavsiflanadi, oliy ta'lim muassasasidagi jadal kasbiy tayyorgarlik, bilish faoliyati buning uchun asos bo'ladi[3].

Innovatsion faoliyatga tayyorlik motivlar, bilim va ko'nikmalar, xulq-atvor normalari bilan mustahkamlangan insonning qadriyat yo'nalishini aks ettiradi, yangi g'oyalar va ularni amaliyotga tadbiq etishga ko'nikuvchanlikni ta'minlaydi.

Shundan kelib chiqib, bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorligi deganda biz shaxsning individual-psixologik xususiyatlari, innovatsiya sohasidagi o'zaro bog'liq kasbiy va maxsus bilim va ko'nikmalarning majmuini tushunamiz, ular yangicha usulda ta'lim olish va faoliyat yuritish, ushbu faoliyat turiga mos aniq kompetentliklarni ko'zda tutadi.

Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda ularni mustaqil ishlash ko'nikmalarini va amaliy kompetentligini shakllantirish katta ahamiyat kasb etadi.

Oliy ta'lim tizimida bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda, asosiy qilinadigan ishlardan biri, bu talabalarni mustaqil izlanish va o'rganishga undashdir. O'qitishning mustaqil o'rganishga undovchi usuli juda samarali bo'lib, bunda talabalarni barcha ma'lumotlarni o'zlari mustaqil tarzda o'qib o'rganishlari talab etiladi, o'qituvchilar talabalar topshiriqlarni bajara olishlari uchun mavzu bo'yicha keng qamrovli ma'ruzalar va maslahatlar berib boradilar.

Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashning yana bir usuli bu interfaol metodlardan foydalanishdir. "Venn diagrammasi", "Bumerang", "Kubik", "Keys-stadi", "BBB" va boshqa shunga o'xshash interfaol metodlar talabalarni ijodiy qobiliyatini o'stirishga, o'zaro hamkorlikda ishlashga, mustaqil fikrlashlarini rivojlanishiga olib keladi.

Misol uchun, Domino metodi - fikriy jarayonlarni mos tushunchalar ketma – ketligida to'g'ri taqdim etib, biror bir shaklni hosil qilishdir. Bu usul talabalarni ijodiy va aqliy qobiliyatini o'stirishga, o'zaro hamkorlikda ishlashga, nafosat tarbiyasini rivojlanishiga olib keladi[4].

Bo'lajak mutaxassislarni innovatsion faoliyatga tayyorlashda o'quv jarayonida foydalanish uchun yana bir samarali usul sifatida "Keys-stadi" metodini tavsiya etish mumkin. "Keys-stadi" metodida ochiq axborotlardan yoki aniq voqea-hodisadan vaziyat sifatida tahlil uchun foydalanish mumkin. Bunda o'qituvchi talabani vaziyatni mavjud ma'lumotlardan foydalangan holda samarali yechimlarni topishga yo'naltiradi.

"Keys-stadi" metodini qo'llash bilan talabalarda mustaqil o'rganish va fikrlash ko'nikmasini rivojlantiradi. Ushbu metodni biror fanning barcha mavzulari uchun qo'llashning imkoni bo'lmaydi, chunki har bir mavzu bo'yicha bir nechta yechimga ega bo'lgan muammoni topish va bu muammoni yechish uchun talabalarda yetarli bilim bo'lishini ta'minlash talab etiladi. Shuning uchun, "Keys-stadi" metodini ma'ruza mashg'ulotlarida mavzu bo'yicha nazariy bilimlar berilgandan so'ng, amaliy mashg'ulotlarda qo'llash maqsadga muvofiq bo'ladi[5].

Xuddi shunday interfaol metodlardan yana biri bu "Bumerang" metodidir. Bunda bir mashg'ulot davomida o'quv materialini chuqur va yaxlit holatda o'rganish, ijodiy tushunib yetish, erkin egallashga yo'naltirilgan.

"Bumerang" metodi tanqidiy fikrlash va mantiqni shakllantirishga imkoniyat yaratadi hamda g'oya va fikrlarni yozma va og'zaki shakllarda bayon qilish ko'nikmalarini rivojlantiradi. Mazkur metod tarbiyaviy xarakterdagi qator vazifalarni amalga oshirish imkonini beradi, ya'ni kelajakda jamoa bilan ishlash mahorati, muomilalik, xushfe'llik, o'zgalar fikriga hurmat, rahbarlik sifatlarini shakllantirish, ishga ijodiy yondashish, o'z faoliyatini samarali bo'lishiga qiziqish, o'zini xolis baholash kabilar[6].

2 *Otamirzayev O.U., Zokirova D.N. Methodology of using connecting elements of science in the organization of independent work of the science of hydroelectric power stations //Web of Scientist: International Scientific Research Journal. – 2022. – T. 3. – №. 3. – C. 654-661.*

3 *Каюмова Н.А. Олий таълим муассасалари талабаларини илмий тадқиқот ишига йўналтириш муаммолари ва уларнинг ечимлари //Современное образование (Узбекистан). – 2018. – №. 11. – С. 7-13.*

4 *Umarov Q.B., Otamirzayev O.U., Zokirova D.N. Talabalarga mustaqil o'rganishga undovchi ta'lim berishda vujudga keladigan muammolar va ularni oldini olish yo'llari. Uzluksiz ta'lim. Maxsus son, 7-11 бетлар.*

5 *Отамирзаев О.У., Вахобова С.К. «Назарий электротехника» фанидан «Уч фазали ўзгарувчан ток занжирлари» мавзусини ўқитишда кейс-стади методидан фойдаланиш. //"Замонавий таълим" ("Современное образование") илмий-амалий оммабоп журнали (Узбекистон).–2018. №. 5.*

6 *Отамирзаев О.У., Зокирова Д. Н. «Электр ёритиш» фанини ўқитишда «Бумеранг» методидан фойдаланиш //Современное образование (Узбекистан). – 2019. – №. 3 (76). – С.*

“Bumerang” metodidan asosan amaliy mashg‘ulotlarda foydalanish tavsiya etiladi, bu metoddan foydalanishda quyidagi muammolar vujudga keladi:

aksariyat guruhlarda talabalar soni 20-30 nafarni tashkil etadi, bunda 4 yoki 5 ta kichik guruhga ajratilganda bir nechta talaba ortiqcha bo‘lib qoladi, masalan guruhda 20 nafar talaba bo‘lsa 4 nafar talaba ortiqcha bo‘lib qoladi;

darsning 3-bosqichida bilimi pastroq bo‘lgan talaba boshqalarga o‘ziga tegishli bo‘lgan mavzuni yaxshi tushuntirib bera olmaydi, natijada ushbu mavzu yaxshi o‘zlashtirilmay qolishi mumkin bo‘ladi;

dars davomida talabalar o‘ziga tegishli mavzuni bir-birlariga tushuntirib berayotgan paytda boshqa guruh talabalariga xalaqit beradi.

Bu va shunga o‘xshash muammolarni oldini olishni quyidagi yo‘llarni keltirish mumkin:

kichik guruhga ajratilganda ortiqcha bo‘lib qolgan talabalarni, masalan talabalar soni 18 nafar bo‘lsa, 4 nafardan 4 ta kichik guruhga bo‘linadi, qolgan 2 nafar talabalarni esa nazoratchi-ekspert etib tayinlaydi, ularning vazifasi o‘qituvchi bilan birgalikda kichik guruhlar faoliyatini nazorat qilish, kerak bo‘lsa mavzuni tushuntirishda talabalarga yordam berish va baholab borishdan iborat bo‘ladi;

darsning 3-bosqichida bilimi pastroq bo‘lgan talaba boshqalarga o‘ziga tegishli bo‘lgan mavzuni yaxshi tushuntirib bera olmasa, o‘qituvchi o‘sha mavzuni tegishli kichik guruhda to‘la yoritib berish maqsadida nazoratchi-ekspert guruhidagi talabalarni jalb etadi. Shuning uchun o‘qituvchi nazoratchi-ekspert guruhiga eng iqtidorli, bilimi yuqori bo‘lgan talabalarni tanlashi kerak bo‘ladi;

dars davomida talabalar o‘ziga tegishli mavzuni bir-birlariga tushuntirib berayotgan paytda boshqa guruh talabalariga xalaqit bermasliklari uchun imkon darajada kattaroq auditoriyani tanlash va kichik guruhlarni bir-biridan uzoqroq o‘tqazish kerak bo‘ladi[7].

Bo‘lajak muhandis-energetiklarning innovatsion faoliyatga tayyorlashda mustaqil o‘rganishga undovchi dars yoki interfaol metodlar orqali olib borilganda darsning samaradorligi ortadi, chunki bunda har bir talaba o‘zi mustaqil ravishda ishlashga majbur bo‘ladi va shunga yarasha tayyorgarlik ko‘radi hamda ular o‘zlarini o‘zlari baholaydilar. Shuning uchun, dars davomida birorta talaba ham chetda qolmaydi, talabalarni o‘zlariga bo‘lgan ishonchi, fanga va o‘zlari tanlagan kasbga qiziqishi ortadi, shu bilan birga talabalarning o‘zlashtirish ko‘rsatkichlari sezilarli darajada ortadi.

Talabaning doimo o‘z ustida ishlashi, mustaqil fikrlashi, olgan bilimlarini amalda qo‘llashi – uning aqliy faoliyatga ehtiyojini rivojlantiradi va talabalarni vaqtdan unumli foydalanishga o‘rgatadi. Bu bilan bo‘lajak muhandis-energetiklarning mustaqil o‘quv faoliyatlarini, ilmiy tadqiqot ishlarini rivojlantirish, shular asosida oliy ta’lim tizimida raqobatbardosh mutaxassislar tayyorlash sifatini oshirishga erishish mumkin bo‘ladi.

Oliy ta’lim muassasalaridagi ta’lim jarayonida foydalaniladigan ko‘nikmalar, insonparvarlik dunyoqarashini shakllantiradi. Tanqidiy munosabatda nostandart mustaqil fikrlashning rivojlanishi analiz, sintez, xulosalar vositasida ta’limda faol, interfaol texnologiyalar, munozara to‘garaklarini, axborot vebinarlari, forumlar, videokonferensiyalardan foydalanilganda yuzaga keladi. Axborot manbalari (ilmiy kutubxona, internet, elektron o‘quv nashrlari) bilan mustaqil ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirish mustaqil fikrlashni shakllantiradi va talabalarning bilish faoliyatini rivojlantiradi.

Talabalarning ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirish ta’lim jarayonida tizimli-mantiqiy sxemalar, mental yo‘l xaritasi, modernizatsiya bo‘yicha ijodiy loyihalarni yaratish yoki yangisini yaratish (sintetik ko‘nikmalar) asosida amalga oshiriladi. Ushbu mezonlar o‘quv-bilish, ijodkorlik, ilmiy-tadqiqot faoliyati natijalarini baholash va tahlil qilish asosida talabalarning refleksivligini rivojlanishini ta’minlaydi. Bu yuqori darajadagi maqsadlarga erishishda o‘z-o‘zini rivojlantirish, takomillashtirish uchun asos bo‘ladi.

Bo‘lajak muhandislarni innovatsion faoliyatga tayyorligining umumiy ko‘rsatkichi shaxsning ijodiy faoliyatida namoyon bo‘ladi. Qo‘shimcha ko‘rsatkichlar - qaror qabul qilish, axborot bilan ishlash qobiliyati, shaxs refleksivligi va kasbiy o‘z-o‘zini takomillashtirish va rivojlantirish hisoblanadi. Integratsiya tamoyiliga javob beradigan mezonlar va yetarlilik, mutaxassisning innovatsion faoliyatga tayyorligini ko‘rsatadi.

Shunday qilib, bo‘lajak muhandislarni innovatsion faoliyatga tayyorligining ko‘rsatilgan mezonlari, ko‘rsatkichlari va darajalari ilmiy tadqiqotlarda umumiy qabul qilingan yondashuvlarga asoslanadi va shaxs shakllanishining asosiy qonuniyatlarni aks ettiradi. Shu munosabat bilan, xulosa qilish mumkinki, kompetentli mutaxassisni tayyorlash maxsus tashkil etilgan pedagogik jarayonda innovatsion didaktik texnologiyalar, zamonaviy pedagogik vositalar, metodlar va ta’lim jarayonini tashkil etish shakllariga tayangan holda amalga oshirilishi kerak.

37-41.

7 Отамирзаев О.У. и др. Проблемы и методы их устранения при применении метода «Бумеранг» в процессе преподавания электротехники //Научное знание современности. – 2021. – №. 6. – С. 14-17.





# TALABALAR MUSTAQIL TA’LIMI: TARIXI, TAVSIFI, TADRIJI

**Xurshida Olimjonovna Pardayeva** - katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqola talabalar mustaqil ta’limining tarixi, tavsifi, tadriji masalalarini o‘rganishga bag‘ishlangan bo‘lib, mustaqil ta’lim insonni o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘lidagi eng samarali maqsadli harakat ekanligi yoritilgan. Shu bilan birga pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim tizimida talabaning mustaqil fikrlashini shakllantirish va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish orqali nafaqat talabaning o‘zini mustaqil ishlashga o‘rgatish, shu bilan birga bo‘lajak pedagog mutaxassisni ham o‘zining faoliyati jarayonida o‘z ta’lim oluvchilariga mustaqil ishlash yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib berish masalalari o‘rganilgan.*

***Аннотация:*** *Данная статья посвящена изучению вопросов истории, описанию и эволюсии самостоятельного обучения студентов, а также подчеркивается, что самостоятельное обучение является наиболее эффективным целенаправленным усилием к самосовершенствованию человека. В то же время были изучены, как в системе высшего образования в области педагогики путем внедрения самостоятельного образования, направленного на формирование и развитие самостоятельного мышления студента, не только обучение студента самостоятельной работе, но и обучение будущего педагога руководству своими учениками применению спмостоятельной работы.*

***Abstract:*** *This article is devoted to the study of issues of history, description and evolution of self-study of students, and also emphasizes that self-study is the most effective purposeful effort towards self-improvement of a person. At the same time, it was studied how in the system of higher education in the field of pedagogy through the introduction of independent education aimed at the formation and development of independent thinking of the student, not only teaching the student to work independently, but also teaching the future teacher to guide his students in the application of independent work.*

***Kalit so‘zlar:*** *mustaqil ta’lim, samarali harakat, aqliy mehnat, tarbiya usuli, ta’lim usuli, ta’limga interatsion yondashuvlar.*

***Ключевые слова:*** *самостоятельное обучение, эффективное действие, умственная работа, воспитательный метод, образовательный метод, интеграционные подходы к обучению.*

***Keywords:*** *independent learning, effective action, mental work, educational method, educational method, integration approaches to learning.*

Insoniyat tarixidan ma’lumki, ibtidoiy davrdan boshlab to bugungi kungacha inson nimagadir erishishi uchun intilgan, kurashgan, mehnat qilgan va mehnati samarasiga erishgan. Jismoniy mehnat tadriji aqliy mehnat rivojiga turtki bo‘lgan. Aqliy mehnat natijasi o‘laroq bugun biz insonning intellektual salohiyati darajasi bildiruvchi intellektual mehnat deb ataydigan mehnat turi yaratildi-ki, u butun dunyo taraqqiyot yo‘lini belgiladi. Hatto jismoniy qo‘l mehnatni yengillashtiruvchi aqlli mashinalar ishlab chiqildi. Butun olamni intellektual aql bilan boshqarish yo‘lga qo‘yildi. Bunday taraqqiyotning zamirida, tabiiyki, insonning o‘zi ustida, qiziqishlari bo‘yicha mustaqil ishlashi turadi. Mustaqil ta’lim insonni o‘z-o‘zini takomillashtirish yo‘lidagi eng samarali maqsadli harakatdir. Qadim zamonlardan aqliy mehnat bilan shug‘ullanuvchilar ta’limning barcha turlarini, shu bilan birga mustaqil ta’limni ham uyg‘unlikda qo‘llashni ma’qul ko‘radilar.

“Inson — tarbiya predmetidir”[1], - deb yozgan edi Rossiya ilmiy pedagogikasining asoschisi K.D.Ushinskiy. Ha, haqiqatdan ham inson yaralibdiki, u tarbiyalanadi, unga ta’lim beriladi. Ustoz yo‘llanma beradi, ko‘rsatma beradi, shogird uni amalga oshiradi. Ana shunday tarbiya usuli, ta’lim usuli tarbiyalanuvchini mustaqil ishlashga o‘rgatish demakdir.

Jahonning barcha yetuk mamlakatlarining barcha turdagi ta’lim sohasida mustaqil ta’lim joriy qilingan. Respublikamizda ta’lim tizimini isloh qilish natijasida uzluksiz ta’lim tizimining har bir bosqichida ta’lim oluvchilarning mustaqil ishlash malakalarini shakllantirish va amalga oshirish muhim qilib belgilab qo‘yildi. Pedagogika yo‘nalishidagi oliy ta’lim tizimida talabaning mustaqil fikrlashini shakllantirish

1 Ушинский К.Д. Человек как предмет воспитания. Опыт педагогической антропологии. Том I. Часть физиологическая. http://dugward.ru/library/pedagog/ushinskiy_chelovek1.html#fizi

va rivojlantirishga yo‘naltirilgan ta’limni joriy etish orqali nafaqat talabaning o‘zini mustaqil ishlashga o‘rgatadi, shu bilan birga bo‘lajak pedagog mutaxassisni ham o‘zining faoliyati jarayonida o‘z ta’lim oluvchilariga mustaqil ishlash yo‘l-yo‘riqlarini ko‘rsatib beradi.

Bu jarayon ilg‘or mamlakatlar fuqarolari uchun odatiy ko‘nikmaga aylangan zaruriyat bo‘lsa, mustaqil ta’limni amalga oshirishni rejalashtirayotgan hududlar uchun bir muncha murakkab bo‘lishi tabiiy.

XXI asr jahon ta’lim tizimida yuzaga kelgan mustaqil ta’lim olish zaruriyati nafaqat butun jamiyat uchun, balki har bir shaxs uchun ham ta’lim fenomeniga aylandi. Tadqiqotchi M.B.Balikaeva “Talabalar kasbiy tayyorgarligini shakllantirish uchun xorijda mustaqil ta’limni tashkil etish shakllari” deb nomlangan maqolasida Germaniya, AQSh, Britaniya va boshqa mamlakatlar oliy o‘quv yurtlarida talabalar mustaqil ta’limini tashkil etishning shakllari xususida so‘z yuritar ekan, xorij ta’lim tizimi misolida bo‘lg‘usi mutaxassislarning kasbiy tayyorgarligiga ijobiy ta’sir qiladigan mustaqil ta’limni tashkil etishning prinsiplari va vazifalarini tahlil etadi.

Tadqiqotchi M.B.Balikaeva Rossiya va xorij talabalar mustaqil ta’limi tizimida “zamonaviy interatsion yondashuvlar va uni tashkil qilishda ba’zi o‘xshashlik jihatlari bor. Ikkala holatda ham bu jarayon talabalar ta’limining sifati va ularning kasbiy tayyorgarligini oshirishni rejalashtirish, tashkil qilish va boshqarishning dolzarb, kompleks muammolarini namoyon qiladi. Mustaqil ta’lim asosida ta’lim va tadqiqot (ayniqsa, Germaniyada), integratsiya, ta’limning auditoriyadagi va auditoriyadan tashqaridagi shakllarining uyg‘unligi, oliy ta’lim tizimining uzviyligi va uzluksizligi tamoyillari, yotadi”, - deb baho beradi[2].

Agar tadqiqotchi tahlilga jalb etgan talabalar mustaqil ta’limi amalga oshirilayotgan oliy o‘quv yurtlariga e’tiborni qaratsak, ular Boloniya deklaratsiyasiga qo‘shilgan va talabalarning ikki bosqichli ta’limi asosida faoliyat yuritishadi. “Boloniya jarayoni, - deb ta’riflaydi Belgiyada korporativ ijtimoiy mas’uliyat va barqaror rivojlanish bo‘yicha mutaxassis, “NewLinks Global” konsaltingi hamkori, “Buyuk kelajak” kengashi eksperti Malika Sharipova, O‘zbekiston oliy ta’lim tizimida Boloniya jarayonining maqsadlarini amalga oshirishga doir o‘z fikrlarini UzAnalytics.com tahliliy saytiga bayon etar ekan, - Yevropa mamlakatlari orasida oliy ta’limni uyg‘unlashtirish jarayonidir. Bu tushunish oson bo‘lgan va o‘xshash darajalar (malakalar) tizimini yaratishini, ta’limning kredit tizimiga o‘tishini, ta’limning sifatini ta’minlashda erkin akademik harakatlanishni va Yevropadagi ta’lim hamkorligini o‘z ichiga oladi. Qisqa qilib aytganda, bu Yevropa mamlakatlarining oliy ta’lim tizimlarini uyg‘unlashtirish, har bir kishi uchun teng ravishda ta’limni ta’minlash, intellektual, madaniy, ijtimoiy, ilmiy va texnologik salohiyatni shakllantirish va mustahkamlash, ta’lim sifatini takomillashtirish jarayonidir”[3].

Boloniya deklaratsiyasida ko‘zda tutilgan “Talabalar, o‘qituvchilar va tadqiqotchilarning erkin harakatini (mobilligini) samarali amalga oshirishga shart-sharoitlar yaratish: talabalarni ta’lim olish imkoniyatlarini yaxshilash va amaliy mashg‘ulotlar bilan ta’minlash; o‘qituvchilar, tadqiqotchilar va ma’muriy xodimlar uchun esa natijalarni tan olish va boshqa universitetlarda tadqiqot, o‘qitish va amaliyotga sarflangan vaqtni hisobga olinish imkoniyatini yaratish” ni nazarda tutgan ikki bosqichi – bakalavriat va magistraturada talabada o‘zining ilmiy qiziqishlarini to‘g‘ri aniqlash va unga ijodiy yondashishni shakllantirish orqali ilmiy ijod mustaqilligini rivojlantirish, zamonaviy fan yo‘nalishlarini mustaqil fikrlaydigan, ilmiy loyihalar yaratadigan, ilmiy maktablar yarata oladigan kadrlar bilan ta’minlash masalalarini jahon pedagogikasining yetuk nazariyotchilari ham nazariy, ham amaliy ko‘rsatib berdilar.

Ta’lim olishning birinchi bosqichida o‘quv vaqtining uchdan ikki qismini aniq rejalashtirilgan va nazorat qilinadigan mustaqil ish tashkil etadi. Talabalar bu bosqichda tadqiqot ishlarini bajarish uchun kerak bo‘ladigan ko‘plab malakalarni o‘zlashtiradilar. Yuqori kurslarda ta’lim jarayonini tashkil etish tizimi o‘zgaradi. Ko‘pgina xorijiy universitetlarda ta’lim an’anaviy ta’limdan farqli tadqiqot loyihasi shakli olib boriladi. Bunda loyiha muallifi mavjud muammoni fanlararo mustaqil hal qilishni ko‘zda tutadi.

Talabalarni ilmiy tadqiqotga jalb etish ta’lim olishning ikkinchi bosqichida amalga oshiriladi. Germaniya oliy o‘quv yurtlarida ilmiy-tadqiqot ishlarini bajarish oliy ta’limdan keyin mustaqil ta’limni davom ettirishga mo‘ljallangan talabalar ta’limining asosini tashkil etadi[4].

Shunday qilib, xorijiy oliy ta’lim tizimida ikki bosqichda amalga oshiriladigan talabalar mustaqil ta’limini tashkil etish konsepsiyasi yuzaga keldi. Shu ikki bosqichni to‘ldiradigan, va rejalashtirilgan ilmiy-ijodiy faoliyatni nihoyasiga yetkazadigan uchinchi bosqich - aspirantura yoki doktorantura bosqichidir.

2 Баликаева М.Б. Формы организации самообразования студентов за рубежом для формирования профессиональной мобильности. // Вестник Кемеровского госцдарственного университета. 2015. https://cyberleninka.ru/article/n/formy-organizatsii-samoobrazovaniya-studentov-za-rubezhom-dlya-formirovaniya-professionalnoy-mobilnosti

3 Шарипова М. Болония жараёни нима? https://www.uzanalytics.com/jamiyat/bujuk-kelazhak-jekspertlari-bilan-su-ba/4173/

4 Баликаева М.Б. Формы организации самообразования студентов за рубежом для формирования профессиональной мобильности. // Вестник Кемеровского госцдарственного университета. 2015. https://cyberleninka.ru/article/n/formy-organizatsii-samoobrazovaniya-studentov-za-rubezhom-dlya-formirovaniya-professionalnoy-mobilnosti





AQSh va Germaniya oliy o‘quv yurtlarida seminar darslarga har qanday to‘liq tayyorlanish to‘rt soatdan kam bo‘lmagan vaqtda eng yangi nashr etilgan adabiyotlardan samarali va ijodiy foydalanib yaratilgan mo‘jaz tadqiqotga taqqoslash mumkin. Bunday seminar darslar har haftada hech bo‘lmaganda 4 ta fandan bo‘lishini ko‘rsatib o‘tish talabalar nafaqat qanchalar band bo‘lishini, balki faol va ijodiy ishlashlarini anglatadi. Bunday tayyorgarlik sifatini tadqiqotchi Balikaeva M.B. rossiyalik talabalarning “ojizgina” kurs ishini yozishdagi ilmiy ish bilan taqqoslash mumkin deb yozadi. Savol tug‘ilishi tabiiy: O‘zbekistonlik talabalarchi?

Tabiiyki, bunday mustaqil ish ko‘lami auditoriyada o‘tiladigan darslar qisqarishini taqoza etadi. AQSh va Germaniyaning yetuk oliy o‘quv yurtlarida student 5 kunlik o‘quv haftasida har kuni 2 ta auditoriya darsida qatnashadi, bu haftalik 48-60 soatlik yuklamaning 16-26 soat auditoriyada o‘tiladigan ma’ruza va seminarlarga to‘g‘ri keladi (bu haftada 8-13 juftlik degani, bizdagi darslar haftasiga 6 kun 3 paradan 18 para 36 soat, demak).

G.Dmitriyevning “Amerika universiteti anatomiyasi” kitobi Amerika universitetlaridan birida olib borgan pedagogik faoliyati natijasi kuzatuvlari natijasi bo‘lib yaratildi. Pedagogning “Xorij oliy ta’lim muassasalarida talabalar mustaqil ta’limini faollashtirishda nafaqat ularning shaxsiy faolligi, oliy ta’lim tizimida amaliyotdan o‘tgan talabalar ishlarini nazorat qiladigan integratsion tizim ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bularga quyidagilar kiradi: nafaqat talabalar bilimini, balki ularning uy vazifalarini muntazam nazorat qilish, nazoratlar yakuni imtihon baholarida aks etishi, imtihon topshirish uchun o‘qituvchi tomonidan tavsiya etilgan ko‘plab manbalar (darsliklar, o‘quv qo‘llanmalar, ilmiy nashrlar va h.k.), shu bilan birga talabalar o‘rtasidagi sog‘lom raqobat ham talabalar mustaqil ish faoliyatini faollashtirishga sabab bo‘ladi”, - degan fikrlari muhim ahamiyatga ega”[5].

Shu o‘rinda mustaqil ta’lim va mustaqil ish tushunchalariga oydinlik kirgizish lozim. Bugun sir emaski, zamonaviy yuqori malakali mutaxassisning shakllanishi, ijtimoiy faol shaxsning takomil topishi uchun mustaqil ta’lim muhim ahamiyatga ega. Shaxs takomilida muhim ahamiyatga ega e’tirof etilgan zamonaviy ta’lim paradigmasi mustaqil ta’limning uch turini taklif etadi: oliy o‘quv muassasidagi mustaqil ta’lim, oliy o‘quv muassasidan tashqaridagi mustaqil ta’lim va masofaviy ta’lim.

Mustaqil ta’lim keng pedagogik tushuncha bo‘lib, shaxsning ma’naviy, ruhiy, psixologik tayyorgarligi samarasi natijasida, bizningcha, inson o‘z xohish-istagi, qiziqishidan kelib chiqib kasb tanlaydi, imkoniyatidan kelib chiqib ta’lim shaklini tanlaydi. Xorijiy ta’lim muassasalarining aksari mustaqil ta’lim va masofaviy ta’limni integratsion qo‘llaydi. Bunda o‘rganiladigan fanlar ta’lim oluvchi tomonidan tanlanadi.

Mustaqil ish mustaqil ta’limning eng asosiy komponenti bo‘lib, fan o‘qituvchisi tomonidan talaba bajarishi shart bo‘lgan topshiriqlar, savollar, testlar majmuidir. Aynan o‘qituvchi rahbarligida amalga oshiriladigan mustaqil ish bilim olishga, ko‘nikma hosil qilishga va malaka shakllanishiga ijobiy ta’sir qiladigan samarali o‘quv jarayoni hisoblanadi. Mustaqil o‘qish va uni ta’lim tizimida nazorat qilish mustaqil ta’limning asosiy omili hisoblanadi. Mustaqil bilim olish uchun birinchi navbatda talabada mustaqil ishlashga, erkin, ijodiy, eng muhimi, mustaqil fikrlashga bo‘lgan ehtiyojni shakllantirish lozim[6].

Mustaqil ish ta’limning oflayn shaklida ham, onlayn shaklida ham faol amalga oshiriladi.

Shu ma’noda “o‘zimizning ta’lim tizimimizda ta’lim jarayoniga mustaqil ta’limni joriy qilish amaliyoti masalalari qanday amalga oshirilyapti?” degan savol tug‘ilishi, tabiiy. Xo‘sh, bizda mustaqil deb nomlangan ta’limning qanday shakllari mavjud?

Talabalar mustaqil ishi 1997-yil qabul qilingan va yangi tahrirdan o‘tkazilgan, 2020-yil 23-sentabrda 637-son bilan tasdiqlangan O‘zbekiston Respublikasi “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonuni” asosida ishlab chiqilgan oliy ta’lim standartlari talablarini to‘liq bajarilishini, kredit-modul ta’lim sifatini ta’minlaydigan talabalar ta’lim faoliyatining asosiy turlaridan biridir.

Talabaning mustaqil ishi aniq bir fandan o‘quv rejasida va fan dasturida belgilangan bilim, ko‘nikma va malakaning ma’lum bir qismini talaba tomonidan fan o‘qituvchisi maslahati va tavsiyalari asosida auditoriya va auditoriyadan tashqarida o‘zlashtirilishiga yo‘naltirilgan tizimli faoliyatdir. Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirish O‘zbekistonning mustaqillikka erishuvi jamiyatning barcha sohasiga ijobiy yangilanishlarni olib kirdi. Iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy sohalarda inson omili birinchi darajaga ko‘tarildi. Shu bilan birga ta’lim sohasiga ham yangicha yondashuvlar

5 Дмитриев Г.Д .Анатомия американского университета. М., 2010. 224 с.

6 Рахимов О.Д., Отакулов У.Х., Рахимова Д.О. Образовательный форсайт качества и результативности самостоятельного образования. // Вестник науки и образования. 2021. https://cyberleninka.ru/article/n/obrazovatelnyy-forsayt-kachestva-i-rezultativnosti-samostoyatelnogo-obrazovaniya

shakllandi, ta’limning yangi tamoyillari shakllandi. Ta’lim sohasida faoliyat olib borayotgan mutaxassislar jahon ta’lim tizimida mavjud ilg‘or ta’lim metodlariga murojaat qila boshlashdi. Ta’lim oluvchilar ta’lim beruvchilar qatorida ta’lim ishtirokchisiga aylanishdi. Tabiiy-ki bu jarayon milliy ta’lim tizimi barcha bosqichlariga ijobiy ta’sir qilmay qolmadi. Milliy ta’lim tizimining maktabgacha ta’lim tizimiga alohida e’tibor, ta’limning uzluksizligi va uzviyligi shakl va mazmunida o‘z ahamiyatiga ega bo‘ldi, bu esa keyingi bosqichlarning sifat ko‘rsatkichida o‘z aksini topdi. O‘zbekiston ta’lim jarayonida kechayotgan bunday islohotlar 1997-yilda qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi” Qonunini qaytadan ko‘rib chiqishga zaruriyat tug‘dirdi. O‘zgartirishlar bilan qabul qilingan O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun” 2020-yil 23-sentabrda 637-son bilan tasdiqlandi.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun” ining 15-moddasida ta’lim olish shakllarining 4 turi belgilangan. Aynan to‘rtinchi turi “oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish” deb belgilangan.

Qonunning “Ta’lim to‘g‘risidagi hujjat” deb nomlangan 40-moddasida shu qonunning 15-moddasi ijrosi sifatida “Davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjat oilada ta’lim olgan yoki mustaqil ta’lim olgan hamda akkreditatsiya qilingan davlat ta’lim muassasalarining tegishli o‘quv dasturlari bo‘yicha eksternat tartibida yakuniy va davlat attestatsiyasidan o‘tgan shaxslarga ham beriladi” deya ko‘rsatilgan.

O‘zbekiston Respublikasining “Ta’lim to‘g‘risidagi Qonun”ining 18-moddasi “Oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish” deb nomlangan bo‘lib, unda quyidagi masalalar belgilangan:

Davlat oilada ta’lim olishga va mustaqil ta’lim olishga ko‘maklashadi. Bolalarning oilada ta’lim olishi va mustaqil ta’lim olish uslubiy va maslahat yordami ko‘rsatilgan holda tegishli o‘quv dasturlari bo‘yicha amalga oshiriladi.

Oilada ta’lim olish va mustaqil ta’lim olish tartibi, shuningdek ta’lim oluvchilarning toifalari ta’lim sohasidagi vakolatli davlat boshqaruvi organlari tomonidan belgilanadi.

Oilada ta’lim olish bolalar, oila, davlat va jamiyat manfaatlarini hisobga olgan holda davlat ta’lim muassasasi hamda ta’lim oluvchilarning ota-onasi yoki boshqa qonuniy vakillari o‘rtasidagi shartnoma asosida amalga oshiriladi.

Mustaqil ta’lim olish yakka tartibda amalga oshiriladi hamda ta’lim oluvchilarni kasbiy, intellektual, ma’naviy va madaniy rivojlantirishga xizmat qiladi.

Oilada ta’lim olgan va mustaqil ta’lim olgan shaxslarga davlat tomonidan tasdiqlangan namunadagi ta’lim to‘g‘risidagi hujjatni berish davlat ta’lim muassasalarining tasdiqlangan o‘quv dasturiga muvofiq eksternat tartibida amalga oshiriladi[7].

O‘zbekiston ta’lim tizimida mustaqil ta’limga bo‘lgan qiziqish XXI asr bo‘sag‘asida ancha faollashdi. Ayniqsa, Toshkentdagi Vestminster xalqaro universiteti o‘qituvchilari respublika oliy ta’lim tizimida faoliyat olib borayotgan o‘qituvchilar uchun mustaqil ta’limni amalga oshirish metodlari bo‘yicha o‘quv seminarlari tashkil etdilar, shu jumladan 2007-yilda Jizzax dpavlat pedagogika institutida ham.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentning 2019-yil 8-oktabrdagi Farmoni bilan tasdiqlangan «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasi»ga ko‘ra, mamlakatdagi OTMlarning 85 foizi 2030 yilgacha bosqichma-bosqich kredit-modul tizimiga o‘tishi rejalashtirilgan. Masalan, 2020-2021-o‘quv yilining o‘zida mamlakatimizdagi 33dan ortiq yirik OTMlar ECTS kredit-modul tizimiga o‘tdi. 2021-2022-o‘quv yilida respublikaning aksariyat oliy o‘quv muassasalari ta’limning kredit-modul tizimiga o‘tdilar.

2020-2021 o‘quv yilida Jizzax davlat pedagogika instituti ECTS kredit-modul tizimini birinchilar qatorida qo‘lladi. Birinchi yili ZOOM platformasida, 2021-2022 o‘quv yilida HEMIS platformasida ta’lim amalga oshirildi. ZOOM platformasi pandemiya sharoitida onlayn ta’lim shakli uchun bo‘lgan bo‘lsa, HEMIS platformasi ta’lim ma’lumotlar platformasi hisoblanadi. Nafaqat auditoriya mashg‘ulotlari, talabalar davomoti, ularni baholash, balki mustaqil ishlarni qabul qilish, tekshirish va baholash ham HEMIS platformasida olib boriladi.

Ko‘rsatib o‘tish joiz, O‘zbekiston ta’lim tizimida ham mustaqil ta’limni amalga oshirish borasida bir qator me’yoriy hujjatlar qabul qilingan hamda unda belgilangan talablarni amalga oshirish borasida amaliy ishlar amalga oshirilmoqda. Ta’lim shakli, bosqichi va yo‘nalishidan qat’iy nazar ta’limning mazmuni keskin o‘zgarmagani holda amaldagi o‘quv rejalarida fanlar bo‘yicha umumiy soatlar miqdori deyarli saqlanib, mustaqil ta’lim soatlari miqdorini bosqichma-bosqich kupaytirish xisobiga auditoriya mashg‘ulotlariga ajratilgan o‘quv soatlari miqdorining tobora kamaytirib borilishida ko‘zga tashlanmoqda. Hatto HEMIS platformasida “Mustaqil ishni bajarish” bo‘limi ochilgan, mustaqil ish mavzulari yuklangan, unga ajratilgan soatlar va ballar ko‘rsatilgan. Birinchi va ikkinchi kurslarning auditoriya

7 Ўзбекистон Республикасининг 2020 йил 23 сентябрда 637-сон билан тасдиқланган “Таълим тўғрисидаги Қонун”b/ https://lex.uz/docs/5013007





soatlari va mustaqil ishni bajarishga ajratilgan soatlar soni 50/50 ni tashkil etadi. Ammo mustaqil ishni bajarishga ajratilgan ballar joriy nazorat va oraliq nazorat ballari hisobiga kiritilgan. Shu jarayonning o‘zi mustaqil ishni bajarish, uning reyting nazoratini olib borish va unga ajratilgan kreditga aniqlik kiritish zaruriyatini ko‘rsatadi. Bu “mustaqil ishni bajarish”ning talabalarga bog‘liq tashkilish jihatlari. Bu masalaning tashkiliy jihatlari to‘g‘ri tashkil etilgansagina, uning mazmuniga talab qo‘yish mumkin.

Talabalar tomonidan “Mustaqil ishni bajarish”ning ko‘rsatib o‘tish lozim bo‘lgan bir jihati bor. Bu – fanga ajratilgan mustaqil ish soatining o‘qituvchi o‘quv yuklamasiga kirmaganligi. Misol uchun: fan bo‘yicha 30 soat auditoriya soatini o‘qituvchi talab darajasida o‘tishi mumkin, ammo 30 soatlik mustaqil ishni 15 ta mavzu desak va uni 25 ta talaba soniga ko‘paytirsak, bu 375 ta ish degani. Shuncha ishni tekshirishga o‘qituvchiga qancha vaqt kerak va u samara beradimi?

Yoki 1 talaba misolida fanlardan topshiriladigan mustaqil ishlar ko‘lamini olaylik. Shunchalar ko‘p topshiriqlar bilan talabaning bilimga bo‘lgan shijoatini so‘ndirib qo‘ymaymizmi?

“Talabalar mustaqil ishini tashkil etish” metodik ishlanmasining muallifi olima Z.J.Pardaeva “Talabalar bilim va malakalarini tekshirish, hamda baholashdagi eng muhim muammo – bu vaqt muammosidir. Talabalar mustaqil ishini qanday qabul qilish va baholash kerak? Bundagi asosiy masala o‘qituvchining moddiy manfaati bilan bog‘liq. Har bir fan bo‘yicha mustaqil ishga aniq soatlar ajratilgan va ular joriy nazoratning ma’lum foizini belgilaydi, deb ko‘rsatilsa-da, mustaqil ishga ajratilgan soatlar o‘qituvchining o‘quv yuklamasiga kirmaydi”[8], - deya ta’rif beradi.

Xuddi shunday munosabatni 2021-yilda Jizzaz davlat pedagogika instituti tomonidan tayyorlangan “Talaba va magistrantlarning mustaqil ishini tashkil etish va nazorat qilish bo‘yicha yo‘riqnoma”da ham uchratish mumkin: “Talabalar tomonidan mustaqil ravishda o‘zlashtiriladigan bilim va ko‘nikmalarning kursdan-kursga murakkablashib, kengayib borishini hisobga olgan holda ularning tashabbuskorligi va rolini oshirib borish zarur. Shunda mustaqil ta’limga ko‘nikma boshlagan talaba faqat o‘qituvchi tomonidan belgilab berilgan ishlarni bajaribgina qolmay, o‘zining ehtiyoji, qiziqishi va qobiliyatiga qarab, o‘zi zarur deb hisoblagan qo‘shimcha bilimlarni ham mustaqil ravishda tanlab o‘zlashtirishga o‘rganib boradi. Ma’lumki talabaning mustaqil ishi auditoriya soatiga kirmaganligi sababli ko‘pincha talabalar va professor-o‘qituvchilar nazaridan chetda qolmoqda”[9].

Biologiya yo‘nalishida ta’lim olayotgan talabalar mustaqil ishlarini bajarish ijtimoiy-gumanitar va aniq fanlar yo‘nalishidan ba’zi bir jihatlari bilan farq qiladi. Ushbu yo‘nalishda mustaqil ishlar quyidagi shakllarda bajariladi: ilmiy-metodik manba bilan ishlash, topshiriqni laboratoriya sharoitida bajarish, kuzatuvlarni dala amaliyotida o‘tkazish. Shulardan mustaqil ishning ilmiy-metodik manba bilan ishlash shaklini o‘qituvchining tavsiyasiga ko‘ra amalga oshirsa, qolgan ikki shakli -topshiriqni laboratoriya sharoitida bajarish, kuzatuvlarni dala amaliyotida o‘tkazish albatta o‘qituvchi nazoratida amalga oshirishi kerak.

Talaba mustaqil ishining asosiy maqsadi o‘qituvchining rahbarligi va nazorati ostida talabada muayyan o‘quv ishlarini mustaqil ravishda bajarish uchun zarur bo‘lgan bilim va ko‘nikmalarni shakllantirish va rivojlantirishdan iborat ekan, har bir talabaga uning shaxsiy imkoniyatlari, qobiliyati va bilim darajasiga muvofiq bo‘lgan topshiriq va vazifa belgilanadi. Talabalarga mustaqil ishni bajarishda raqamlashtirishning keng imkoniyatlari tushuntiriladi, shu bilan birga ular virtual kutubxonalar fondi manbalaridan onlayn foydalanishlari o‘qituvchi yordamida amalga oshiriladi.

Talabalar mustaqil ishini baholash me’yorlari oldindan ishlab chiqilishi va talabalarga taqdim etilgan bo‘lishi, ish sifatini va baholash shaffofligini ta’minlaydi.

Bundan kelib chiqadigan ma’no shuki, biz kredit-modul tizimiga o‘tdikmi, uning maqsad va vazifalarini bugungi kun ta’lim talab va ehtiyojidan kelib chiqib amalda samarali qo‘llayotgan davlatlar ta’lim jarayoni misolida qo‘llasak maqsadga muvofiq bo‘ladi.

Rivojlangan davlatlar safidan o‘rin olishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ygan O‘zbekiston oliy ta’lim sohasida ta’limning ilg‘or texnologiyalarini joriy etish va shu orqali ta’lim mazmunini jahon andozalari darajasiga olib chiqishda kredit-modul ta’lim tizimi talablarini bajarishda, imkoniyatlaridan foydalanishda, talabalarning ta’lim olishga kreativ yondashishida mustaqil ta’limni va uning negizida mustaqil ishlash, fikrlash, to‘g‘ri xulosaga kelish va samarali natijaga erishish har tomonlama yetuk, bilimdon, o‘zining mustaqil qarashlariga ega jahon andozalariga mos raqobatbardosh mutaxassisni tayyorlash zamonaviy kredit-modul ta’lim paradigmasiga asoslangan o‘zbek mustaqil ta’limining asosiy prinsipidir.

8 Пардаева З.Ж. Организация самостоятельной работы студентов. – Т., Фан. 2007.- с. 108.
9 Талаба ва магистрантларнинг мустақил ишини ташкил этиш ва назорат қилиш бўйича йўриқнома. Жиззах, ЖизДПИ, 2021. – 2 б.

# O'QITUVCHINING DIDAKTIK KOMPETENTLIGINI MODELLASHTIRISHNING NAZARIY ASOSLARI

*Zebo Toshbo'lovna G'iyosova - katta o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada oliy ta'lim muassasalarida tayyorlanadigan bo'lajak o'qituvchilarning didaktik kompetentligi tuzilmasini modellashtirishning nazariy asoslari bayon etilgan. Didaktik kompetentlikning tuzilmasi komponentlari mazmuni aniqlashtirilgan bo'lajak o'qituvchilarni kasbiy faoliyatga tayyorlashdagi o'rni va ahamiyati, o'qituvchining didaktik kompetentligini rivojlantirish mexanizmlari kabi masalalar yoritib berilgan.*

***Аннотации:*** *В статъе описаны теоретические основы моделирования структуры дидактической компетентности будущих учителей, обучающихся в педагогических вузах. Уточнено содержание и виды компонентов структуры дидактической компетентности, их и значение в подготовке будущих учителей к профессионалной деятелности, рассмотрены механизмы развития дидактической компетентности учителя.*

***Abstract:*** *The article describes the theoretical foundations for modeling the structure of didactic competence of future teachers, which are prepared in higher educational institutions. The content of the components of the structure of didactic competence is clarified, issues such as the role and importance of preparing future teachers for professional activities, mechanisms for the development of didactic competence of the teacher are highlighted.*

***Kalit so'zlar:*** *mustaqil ta'lim, pedagogik modellar, didaktik kompetentlik, o'z-o'zini tahlil qilish, o'z-o'zini baholash, shaxsiy sifatlar, kasbiy faoliyat, ijodiy pedagogik faoliyat.*

***Ключевые слова:*** *самостоятелное образование, педагогические модели, дидактическая компетентност, самоанализ, самооценка, личностные качества, профессионалная деятелност, творческая педагогическая деятелност.*

***Keywords:*** *independent education, pedagogical models, didactic competence, self-analysis, self-evaluation, personal qualities, professional activity, creative pedagogical activity.*

Ta'lim tizimini modernizatsiyalash, oliy ta'lim tizimida yuzaga keladigan o'zgarishlar ta'lim muassasasi xodimlarining kasbiy kompetentligini rivojlantirish uchun zaruriyat tug'diradi. Hozirgi vaqtda oliy ta'limning davlat ta'lim standartlari joriy etilib, bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash sifatini oshirishga qaratilgan ta'lim mazmuni va texnologiyasiga innovatsiyalar keng joriy etilmoqda.

Zamonaviy ijtimoiy-iqtisodiy sharoitlarda kasbiy o'zini o'zi boshqarish jarayonida shaxsning kasbiy rivojlanishining eng to'liq psixologik shakllari, kasbiy kompetentlikning rivojlanish xususiyatlari E.F.Zeer tomonidan o'rganilgan[1]. U kasbiy kompetentlikni kasbiy faoliyat tuzilmasining asosiy tarkibiy qismlaridan biri sifatida baholaydi. Shuningdek, shaxsning yo'naltirilganligi, professional jihatdan muhim fazilatlari, professional jihatdan muhim psixofizologik xususiyatlarini ifodalaydi. T.M.Sorokinaning tadqiqotlarida o'qituvchining kasbiy kompetentligi pedagogik faoliyatni amalga oshirish uchun nazariy va amaliy tayyorgarligining birligi sifatida talqin etiladi. Uning yondashuviga ko'ra o'qituvchilik kompetensiyasi o'qituvchining pedagogik faoliyatining asosi bo'lgan professionallikning bosqichlaridan biri hisoblanadi[2]. V.N.Vvedenskiyning fikricha, "kasbiy kompetensiya" tushunchasi tarkibining kengligi, "professionallik", "malaka", "kasbiy malakalar" kabi keng tarqalgan tushunchalarni birlashtiradigan integral xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ya'ni, bo'lajak o'qituvchi o'z ko'nikmalarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda qobiliyatliligi, tayyorgarligi, o'z faoliyatining samaradorligi va sifatini yaxshilash nazarda tutiladi, bu esa "kompetentlik"dir. Kompetentlik – bu shaxsiy xususiyatga ega va malakali professional yoki funksional xususiyatlar majmuasidir[3]. M.I.Lukyanova o'qituvchining psixologik-pedagogik salohiyati asosida pedagogik faoliyat uchun yuqori darajadagi professional tayyorgarlik va o'quv jarayonida talabalar bilan samarali o'zaro munosabatlarga ega bo'lgan shaxsning o'ziga

1 Ғиёсова З.Т. Бўлажак ўқитувчининг дидактик компетентлиги мохияти "Янги Ўзбекистон: Инновация, фан ва таълим" мавзусидаги республика 50-кўп тармоқли илмий масофавий онлайн конференция материаллари тўплами, 31 март 2023 йил. - Тошкент: «Tadqiqot», 2023. - 46 б.

2 Зеер Э.Ф. Психология профессионалного образования.-М.:Академия», 2013.

3 Сорокина Т.М. Развитие профессионалной компетенции будущего учителя средствами интегрированного учебного содержания. // Началная школа. – 2004. – №2. – С. 110-114.



PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

xos xususiyatlarini tushuntiradi. Psixologik va pedagogik kompetensiya tarkibiy qismi sifatida u psixologik va pedagogik yo'nalishlarning bloklarini ko'rib chiqadi[4].

Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, malakalarning egallanishini emas, balki har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetentlik mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasida "Xalqaro standartlar asosida yuqori malakali, kreativ va tizimli fikrlaydigan, mustaqil qaror qabul qila oladigan kadrlar tayyorlash" kabi ustuvor vazifalar bilan belgilab qo'yilgan[5].

Oliy ta'limning asosiy vazifasi o'z-o'zini rivojlantirish, o'z-o'zini tarbiyalash, innovatsiyalarga qobiliyatli mutaxassis shaxsini shakllantirishdir. Pedagogika oliy ta'lim muassasalarida o'quv jarayoni ta'lim tizimining ajralmas qismi bo'lib, unda o'qituvchi va talabaning birgalikdagi faoliyati talaba shaxsida aniq bilim va sifatlarni shakllantirishga yo'naltirilgan bo'lishi kerak. O'quv jarayoni samaradorligi esa, ko'p jihatdan o'qituvchilarning didaktik xatti-harakatlarining to'g'riligi va natijadorligiga bog'liq bo'lib, turli kasb va ixtisoslik darajasidagi mutaxassislarni tayyorlash uchun ta'lim tizimiga ijtimoiy buyurtma berishdan iborat. Bu esa, o'z navbatida etalon obrazlar tasvirini ifodalovchi professional modellar shaklida talqin etiladi.

Modelning komponentini tavsiflashda, davlat ta'lim standartlarida batafsil ishlab chiqilgan malaka talablaridan tashqari, ko'pgina olimlar quyidagi xarakteristikadan foydalanadilar: maxsus, intellektual, ijtimoiy kompetentlik; intellektual tashabbus; o'zini o'zi tashkil etish; o'zini o'zi boshqarish va boshqalar.

Turli xil pedagogik modellar orasidan biz o'qituvchining kasbiy mahoratining faqat ikkita modelini: N.V.Groxolskaya va A.D.Lashukalar tomonidan tavsiya etilgan modellarni tanladik. Ular o'qituvchining kasbiy faoliyati va kasbiy tayyorgarligini modellashtirishda ikki xil diametral yondashuvni namoyish etadilar. N.V.Groxolskayaning fikriga ko'ra, o'qituvchining kasbiy kompetentligining mazmuni quyidagi kompetentlardan iborat: maxsus, metodik tayyorgarlik, psixologik-pedagogik, ijtimoiy-psixologik kompetentlik, o'z-o'zini takomillashtirish[6].

Bizning nuqtayi nazarimizcha, o'qituvchining "kasbiy kompetentligi" tushunchasini mazmunli to'ldirishning asosiy tarkibiy qismi didaktik kompetentlikdir.

O'qituvchi modelini takomillashtirishning asosiy mexanizmi sifatida shaxsiy va kompetentli-faoliyatli jihatlarda qarab chiqish turli xil kasbiy va pedagogik modellar (B.S.Gershunskiy-ishchi va bitiruvchining prognostik modeli, A.D.Moskovchenko — mutaxassis modeli, V.V.Shapkin — o'qituvchi modeli, N.F.Talizina, K.A.Smirnova, A.P.Sopikova — mutaxassis va ta'lim mazmuni modeli) mavjudligini aniqlashga imkon berdi. Ushbu modellarning hech biri o'tgan yillar mobaynida oliy ta'limga qo'yilgan talablarni to'liq qamrab olmagan[7].

Xorijda (ayniqsa, keyingi o'ttiz yil ichida) ko'plab ishlar mutaxassisning bo'lajak kasbiy faoliyati to'g'risida vizual va yetarli tasavvurga ega bo'lish, hamda uning tegishli tayyorgarligiga mos samarali texnologiyalarini loyihalash uchun foydalaniladigan turli xil modellarga bag'ishlangan. Ilmiy tadqiqotlarda modellarning ko'lami juda keng va ko'p qirrali. Masalan, A.Uemov modellarni tasniflab, ularning 37 ta mantiqiy turini keltirgan. Modellarning xilma-xilligi esa, uning umumiy ta'rifi mavjud emasligining sabablaridan biri bo'lib hisoblanadi. Yana bir sabab shundaki, modellashtirish juda murakkab jarayon va eng muhimi doimiy ravishda rivojlanishda[8].

So'nggi yillarda pedagogikada "kasbiy malaka", "tayanch kompetensiya" tushunchalari asosida "mutaxassis modeli" tushunchasining mohiyatini ochib berish va aniqlashtirish uchun bir qator urinishlar mavjud. Ta'limda turli xil maqsadlar va turli darajalarda qo'llaniladigan modellar ishlab chiqilgan, ya'ni: ta'limiy modellar, o'qitish modellari shuningdek, mutaxassis modellari va ta'lim oluvchi modellari. O'qitish modeli o'quv jarayonida qo'llaniladigan didaktik asos

4 Лукянова М.И. Психолого-педагогическая компетентност учителя. // Педагогика. 2001. №10.С 56-61.

5 Ўзбекистон Республикаси Президентининг "Олий таълим тизимини 2030 йилгача ривожлантириш концепциясини тасдиклаш" тўғрисида 08.10.2019 йилдаги ПФ-5847-сон Фармони. Lex.uz.

6 Грохолская Н.В. Диагностика и развитие профессионалной компетентности инженерно-педагогических работников (Психологический аспект). – Ташкент, 1994. – 20 с.

7 Тархан Л.З. Введение в профессию инженера-педагога швейного профиля. Учебное пособие. Симферопол: Крымское учебно-педагогическое государственное издателство, 2006. – 172 с.

8 Гузеев В.В. Планирование результатов образования и образователная технология. – М.: Народное образование, 2001. – 240 с.

va pedagogik texnikadan iborat majmua sifatida qaraladi[9].

Biz ko'rib chiqayotgan mutaxassis, ya'ni pedagogik oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisining didaktik kompetentligi modeli asosiy tushunchalardan biri sifatida ishtirok etadi.

"Didaktik kompetentlik" tushunchasi ikkita, ya'ni "didaktika" va "kompetentlik" tushunchalardan iborat. Ushbu tushunchalarning mohiyati to'g'risida alohida-alohida qarashlar mavjud, ammo amalda biz "didaktik kompetentlik" tushunchasining mazmunli tarkibini topa olmadik. M.P.Endzin va S.N.Gorichevalar esa o'qituvchining didaktik kompetentligini rivojlantirishni ijtimoiylashtirilgan shaklda ko'rib chiqanlar[10].

O'qituvchi faoliyatidagi didaktik komponent, bir tomondan, talabalarga o'z fanlarini o'rgatish qobiliyatini, boshqa tomondan, mustaqil ta'lim olish faoliyatiga ehtiyoj va qobiliyatni o'z ichiga oladi. O'qituvchining didaktik kompetentligi quyidagi kompetensiyalarning sintezini o'z ichiga oladi: bilim (psixologik-pedagogik, ijtimoiy); ko'nikmalar (kasbiy-pedagogik, maxsus, mustaqil ta'lim olish); ijodiy pedagogik faoliyat (o'qituvchi o'z o'qitish texnologiyasini loyihalash o'quv-tarbiya jarayoni mazmunini konstruksiyalash, yuzaga keladigan qiyinchiliklar va muammolarni hal etish uchun zarur bo'ladigan faoliyat usullari ko'rinishida ishlaydigan faoliyatli holat); pedagogik muammolarni mustaqil va mobil hal qilish usullari; g'oyalarni generatsiyalash; mustaqil ta'lim olishga yordam beradigan nostandart fikrlash.

Qayd etilganlarni e'tiborga olgan holda didaktik kompetentlik uchun quyidagi ishchi ta'rif qabul qilindi:

Didaktik kompetentlik – bu shaxsning (o'qituvchining) ta'limiy faoliyat sohasidagi vakolatlari va funksiyalari doirasini belgilaydi, bilim, ko'nikma va malakalarni o'zlashtirish, tajribani shakllantirish qonuniyatlarini ochib beradigan integral sifatlar bo'lib ta'lim mazmuni, hajmi va tuzilishini aniqlaydi, o'qitish metodlari va tashkiliy shakllarini takomillashtiradi, o'quv jarayoni orqali ta'lim oluvchiga ta'sir ko'rsatib zamonaviy o'qituvchini shaklllantiradi.

Didaktik kompetentlikning psixologik asosi — bu shaxsning o'z vakolatlarini, kasbiy funksiyalarining harakatchanligini doimiy ravishda oshirishga tayyorligi. Bu yerda oliy ta'lim muasasalarida malakali o'qituvchini tayyorlash haqida fikr yuritmoqdamiz. Didaktik kompetentlik o'qituvchi tayyorlashning maqsadi va natijasi sifatida bo'lajak o'qituvchi (talabalar) bilan ustoz-shogird o'zaro munosabatlariga kirishishga asos bo'ladi.

Kasbiy tayyorgarlik modelini eng umumiydan xususiy ko'nikmalarga qarab shakllantirish tavsiya etiladi. Juda keng tarqalgan ko'nikma — bu faktlar va hodisalarni nazariy tahlil qilish qobiliyati bilan bog'liq bo'lgan pedagogik fikrlash va harakat qilish ko'nikmasidir. Umumiy va xususiy ko'nikmalarning asosini intuitiv, empirik va nazariy darajalarda yuzaga kelishi mumkin bo'lgan aniqlikdan mavhumlikka o'tish jarayoni tashkil etadi. Nazariy tayyorgarlikning namoyon bo'lish shakli nazariy faoliyat bo'lib, u pedagogik fikrlashning umumlashtirilgan qobiliyatida namoyon bo'ladi, bu o'qituvchining analitik, tasavvur qilish, proyektiv, refleksiv qobiliyatiga ega ekanligini anglatadi.

Bizning fikrimizcha, o'qituvchi modeli kasbiy-pedagogik xususiyatlarni o'z ichiga olishi kerak, uning asosini faoliyatli yondashuv va modulli o'qitish tamoyiliga muvofiq tashkil etilgan o'quv jarayoni tashkil etadi.

O'qituvchi modelini yaratishda biz shaxs sifatlarini ikki guruhga ajratamiz: umumlashtirilgan, ya'ni har qanday oliy ta'lim muassasasi bitiruvchisi uchun rivojlanishi bir xil darajada muhim va aniq bir kasbdagi mutaxassislarga xos xususiyati bo'lgan maxsus sifatlar.

Shaxs xususiyatlarini tanlashning asosi bo'lib quyidagi qoidalar hisoblanadi: kasbiy o'zini o'zi rivojlantirish, o'zini o'zi takomillashtirish, o'zini o'zi anglashning motivatsion, intellektual, mazmunli, instrumental va boshqa tarkibiy qismlarini yaratish; asosiy bilimlar tizimini kasbiy kommunikatsiya va axborotni qayta ishlash ko'nikmalarini shakllantirish.

Modellashtirishni amalga oshirishning asosini esa didaktik faoliyatning barcha tarkibiy elementlarini ajratib olishni, oliy ta'lim tizimi uchun ahamiyatini aniqlashni va ular o'rtasidagi munosabatlarni o'rnatishni nazarda tutadigan bo'lajak o'qituvchini tayyorlash modelini ishlab chiqish (yuqori malakali o'qituvchilarni tayyorlashni ta'minlash uchun mutaxassis tomonidan hal qilinishi kerak bo'lgan namunaviy kasbiy vazifalarni aniqlash, ular asosida pedagogik faoliyatni majmuaviy qamrab oladigan o'quv jarayoni maqsadlari va

9 *Seliverstova E.N. Didakticheskaya kontseptsiya razvivayushchei funktsii obucheniya [Didactic Concept of Developing Learning Function]. Author's abstract. Diss. Dr. Sci. (Education). (In Russ.)*

10 *Горычева С.Н., Эндзин М.П. Развитие дидактической компетентности учителя. Учебное пособие. – Великий Новгород: МОУ ПКС «Институт образования, маркетинга и кадровых ресурсов», 2006. – 145 с.*





vazifalarini ishlab chiqish; ushbu vazifalarning o'qitish mazmunidagi o'rnini aniqlash; har bir vazifani ko'rib chiqishda o'qitishning maqbul shakllari va usullarini tanlash) tashkil etadi.

Demak, bo'lajak o'qituvchini didaktik faoliyatga tayyorlashning nazariy modelining asosiy kompetentlari bo'lib quyidagilar hisoblanadi: didaktik kompetentlik (bo'lajak mutaxassisning nazariy bilimlari va amaliy tayyorgarligi kombinatsiyasi, uning kasbiy va pedagogik faoliyatning barcha turlarini amalga oshirish qobiliyati); kommunikatsion tayyorlik (dunyoda keng tarqalgan xorijiy tillardan kamida bittasini egallash; kompyuter texnikasi va axborot vositalaridan, shu jumladan, telekommunikatsiya tarmoqlaridan foydalanish qobiliyati; muloqot psixologiyasi va axloq qoidalarini bilish; jamoani boshqarish ko'nikmalariga ega bo'lish); kasbiy masalalarni hal qilishda ijodiy yondashuvga rivojlangan qobiliyat (nostandart sharoit va vaziyatlarda harakat qilish, muammolarni, vazifalarni tahlil qilish, harakatlar rejasini ishlab chiqish qobiliyati; rejani amalga oshirishga tayyorlik va uni amalga oshirish uchun javobgarlik); kasbga ongli, ijobiy munosabat, doimiy shaxsiy va kasbiy takomillashtirishga intilish; o'qitish, rivojlantirish va tarbiyalash metodlariga ega bo'lish; kasbiy faoliyat sohasida fan va texnika rivojlanishining tendensiyasi va asosiy yo'nalishlarini tushunish.

O'qituvchining kasbiy faoliyati - faoliyatning tuzilmasi sifatida qabul qilinadi. Shuning uchun har xil turdagi kasbiy faoliyatni tahlil qilish bir xil kompetentlar (didaktik, loyihali, texnologik, boshqaruv, tashkiliy, tadqiqotchilik) mavjudligini ko'rsatdi. Ular har qanday faoliyatning funksional tuzilishini ifodalaydi. Faoliyatni o'rganish obyekti sifatida ma'lum bir mutaxassislik asosini tashkil etadigan ta'lim sohasi va uning qism obyektlari olinadi.

O'qituvchi ilmiy-pedagogik ma'lumotlar va o'quv materiallarini tahlil qilish, tanlash va tuzish, talabalarning bilim olishda uchraydigan qiyinchiliklarini tashxislash, muammoli vaziyatlarni loyihalash va yaratish, o'qitishning strategik va taktik maqsadlarini, o'quv muvaffaqiyatini ta'minlaydigan sifatlar va ko'nikmalarni shakllantirish imkoniyatiga ega bo'lishi kerak. Bularni amalga oshirish o'qituvchidan o'z bilim va ko'nikmalari, tajribasini mohirona talabalarga yetkazish, mantiqiy fikrlash, mulohaza yuritish, isbotlash qobiliyatini talab qiladi. Yuqorida aytilganlarning barchasi bitta sintetik sifatga – didaktikaga birlashtirilishi mumkin[11].

O'qituvchining didaktik kompetentligi funksiyalarining mazmunini tahlil qilib, biz didaktik kompetentligi tuzilmasini ikkita komponent: shaxsiy va kasbiy didaktik shaklida ifodalanishi mumkin degan xulosaga keldik.

Bo'lajak o'qituvchining didaktik kompetentligining shaxsiy kompetenti kasbiy faoliyatni muvaffaqiyatli amalga oshirish uchun zarur bo'lgan o'qituvchi sifatlarini anglatadi, ular pedagogikada kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan shaxsiy sifatlar, ya'ni shaxsning intellektual, emotsional va ijtimoiy jihatlarining xususiyatlari sifatida belgilanadi, bu pedagogik faoliyat natijalariga, uning malakasiga sezilarli ta'sir qiladi va o'qituvchining individual uslubini belgilaydi.

O'qituvchi faoliyatining individual uslubi kasbiy ahamiyatga ega bo'lgan sifatlar bilan emas, balki ularning kombinatsiyalarining xilma-xilligi bilan belgilanadi. Zamonaviy fan pedagogik sifatlarga, ularning o'qituvchi faoliyatining muvaffaqiyatiga ta'siriga oid savollarga aniq javob bera olmaydi. Bu masala bo'yicha turli xil qarashlar mavjud[12]. Biz o'qituvchining asosiy pedagogik sifatlari qatoriga psixofiziologik va kasbiy fazilatlarni kiritdik (1-rasmga qarang).




11 *Горычева С.Н., Эндзин М.П. Развитие дидактической компетентности учителя. Учебное пособие. – Великий Новгород: МОУ ПКС «Институт образования, маркетинга и кадровых ресурсов», 2006. – 145 с.*

12 *Тархан Л.З. Введение в профессию инженера-педагога швейного профиля. Учебное пособие. Симферопол: Крымское учебно-педагогическое государственное издателство, 2006. – 172 с.*

1-rasm. O‘qituvchi shaxsining asosiy xarakteristikasi.

Kasbiy-didaktikkomponento‘qituvchining kasbiy ta’lim muammolarini hal qilish uchun o‘z faoliyatida innovatsion texnologiyalardan foydalanish qobiliyatini anglatuvchi axborot-qidiruv, didaktik-texnologik va jarayonli-faoliyatli kompetensiyalar majmuasini o‘z ichiga oladi.

Axborot-qidiruv — bu egallanishi kerak bo‘lgan bilim, ko‘nikma va qobiliyatlarning kombinatsiyasi bo‘lgan turli xil shakl va ko‘rinishlardagi ma’lumotlar bilan bog‘liq bo‘lgan kompetensiyalarni (kasbiy faoliyatda o‘quv va pedagogik ma’lumotlardan foydalanish, ularga bo‘lgan ehtiyojni aniqlash, zaruriy o‘quv, pedagogik, me’yoriy ma’lumotlarni topish; tanqidiy tahlil qilish va ma’lumotni baholash) o‘z ichiga oladi.

Didaktik-texnologik komponent quyidagi bilim va ko‘nikmalarni o‘z ichiga oladi: o‘qitishning nazariy asoslarini amalga oshirishning metodologik shartlarini bilish; kasbiy tayyorgarlikning tashkiliy va pedagogik asoslari, asosiy qonunlari va qoidalari; o‘qituvchilarni kasbiy tayyorlashning mazmuni va tamoyillari; maxsus va kasbiy-pedagogik tayyorgarlikning shakllari va usullari; oliy ta’limning me’yoriy-huquqiy hujjatlari va boshqalar.

Jarayonli-faoliyatli komponent quyidagilarni o‘z ichiga oladi: pedagogik faoliyatni amalga oshirish metodlari, usullari va uslublari bilan bog‘liq (o‘quv fanlari mashg‘ulotlarini didaktik vazifalariga dekompozitsiyalash ko‘nikmasi; faoliyatga yo‘naltirilgan o‘qitish metodlarini amalga oshirish; didaktik ko‘rsatmani o‘qitish metodikasiga aylantirish; aniq dars uchun o‘qitishning texnologik ko‘rsatmasini ishlab chiqish; majmuaviy o‘quv-uslubiy hujjatlarni ishlab chiqish; o‘quv jarayoni va kasbiy-pedagogik faoliyat samaradorligini tahlil qilish.

O‘qituvchida didaktik komponentlikni shakllantirishning psixologik-pedagogik modeli quyidagi komponentlarni o‘z ichiga olishi kerak: o‘quv kompetensiyalarining tarkibi va tuzilishini aniqlash; ta’lim sub’ektining kasbiy jihatdan shartlangan shaxsiy tarkibini shakllantirish; kompetensiyalarni shakllantirishga qaratilgan ta’lim jarayoni mazmunini loyihalash (ta’lim maydonining maqsadli, didaktik, amaliy-pedagogik, metodik komponentlari).

Ushbu ko‘rib chiqilayotgan yondashuvlar kontekstida biz o‘qituvchining didaktik kompetentligining tuzilishi va tarkibini aniqladik (2-rasmga qarang).

Yuqori malakali o‘qituvchining faoliyati juda xilma-xil bo‘lib, ular o‘z faoliyatining turli tomonlarini oldindan ko‘rish, bashorat qilish va rejalashtirish zarurati bilan bog‘liq. Umuman olganda, bu ijodiy jarayon, ya’ni uning o‘ziga xos qonuniyatlari va texnologiyasi mavjud bo‘lib, bu bilan pedagogika oliygohlarini bitirayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarni tanishtirish lozim.




2-rasm. O‘qituvchi didaktik kompetentligining tarkibi va tuzilmasi.

Shunday qilib, o‘qituvchining didaktik kompetentligi muayyan kasbiy sohada amalga oshiriladigan didaktik faoliyati bilan belgilanadi va bitiruvchilarning kasbiy tayyorgarligi sifatini sezilarli darajada oshiradi; ularning kasbiy harakatchanligi va mehnat bozorida raqobat bardoshligini rivojlantirishga xizmat qiladi. Ushbu muammoni hal qilish ta’lim muassasalariga nafaqat kasbiy talablarga muvofiq ishlarni bajarishga, balki, o‘z malakasini oshirish subyekti sifatida ham harakat qilishga qodir bo‘lgan mutaxassislarni yanada maqsadli tayyorlash imkonini beradi.





# BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARIDA ILMIY DUNYOQARASHNI FANLARARO SHAKLLANTIRISH METODIKASINING MOHIYATI

***Niyoxon Shavkatjon qizi Toshpulatova** - o‘qituvchi, Termiz davlat pedagogka instituti*

***Annotatsiya:** Mazkur maqolada boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’limni takomillashtirish jarayoni, o‘quvchilar iqtidori, qobiliyati va qiziqishlarini aniqlashga yo‘naltirilgan metodik tizimi, integrativ xossalari, o‘quvchilarning tabiatshunoslik va matematika fanlaridan o‘zlashtirgan bilim, ko‘nikma va malaka masalalari bayon qilingan.*

***Аннотация:** В данной статье рассмотрен процесс совершенствования интегрированного обучения в начальных классах, методическая система, направленная на определение талантов, способностей и интересов учащихся, интегративных свойств, вопросы знаний, умений и квалификаций, приобретаемых учащимися в области естественных и математических наук.*

***Abstract:** This article describes the process of improving integrated education in elementary grades, the methodical system aimed at determining students' talents, abilities, and interests, integrative properties, and issues of knowledge, skills, and qualifications acquired by students in science and mathematics. done*

***Kalit so‘zlar:** matematika, sinfdan tashqari ishlar, masalalar, hazil masalalar, ko‘p yechimli masalalar, ilmiy dunyoqarash.*

***Ключевые слова:** математика, внеклассная работа, задачи, забавные задачи, задачи с несколькими решениями, научное мировоззрение.*

***Keywords:** mathematics, extracurricular activities, problems, funny problems, multiple-solution problems, scientific outlook.*

Boshlang‘ich ta’lim tizimini takomillashtirish - kichik yoshdagi o‘quvchilarga ta’lim-tarbiya berishning sifat jihatidan yangi konsepsiyalarini amaliyotga joriy etilishini talab qilmoqda. Eng muhim ustuvor yo‘nalish sifatida boshlang‘ich sinf oluvchilarida bilim, ko‘nikma, malaka va kompetensiyalarini yangicha yondashuvlar asosida shakllantirish, ularning o‘rganish istaklari, talablarini inobatga olgan holda o‘quv fanlarini unifikatsiyalash, xorijiy tillarini erta o‘rganish, axborot va axborot texnologiyalarini kafolatlangan tarzda o‘zlashtirish, ta’lim oluvchilarning individualligini qo‘llab-quvvatlash va rivojlantirish, ularning jismoniy va ruhiy salomatligini himoya qilish va mustahkamlashdan iboratdir.

Maktab ta’limining asosiy vazifalaridan biri-bu o‘quvchilarda dunyoga yaxlit, o‘zaro aloqador bo‘lgan birlik sifatida qarashni, uning global muammolari hamda bu muammolar yechimini ko‘ra va tushuna bilishni shakllantirishdan iborat. Ta’lim mazmunida inson va uning dunyoga bo‘lgan munosabati: inson va tabiat, inson va jamiyat, inson va inson, inson va texnika, tabiat-inson-texnika-atrof-muhit muammosi tobora markaziy o‘rin egallamoqda. Aniq va tabiiy fanlar ta’lim mazmuni inson va tabiat aloqadorligi atrofidagi muammolarni o‘rganuvchi turli o‘quv fanlariga oid bilimlar uzviyligi va integratsiyasini aks ettirmog‘i lozim. Bu esa o‘quv jaryonida fanlarga oid bilimlarni sifat jihatdan yangi o‘zgarishlarga olib keladi. Bu bilimlar o‘ziga xos sintez, aniq va tabiiy fanlarga oid bilimlar va insonparvar yo‘nalishlar majmui sifatida namoyon bo‘ladi[1].

Boshlang‘ich sinflarda tabiatshunoslikni matematika fanlari bilan fanlararo bog‘lab o‘qitishda o‘quvchilar tafakkurini rivojlantirish bilimlarning yuqori sifatini ta’minlaydi, darslarda psixologik qulayliklarning o‘ziga xos qirralari singdiriladi, shuningdek, o‘quv-me’yoriy hujjatlarni fanlar integratsiyasi asosida takomillashtirishda o‘quvchilar faoliyatini samarali tashkil qilishga yo‘naltirilgan o‘quv mashg‘ulotlari taqdim etiladi.

Boshlang‘ich sinflarda integratsiyalashgan ta’limni takomillashtirishda tabiatshunoslikni matematika fanlari bilan fanlararo bog‘lab o‘quvchilarning ilmiy dunyo qarashini rivojlantirish hozirgi zamon nuqtai nazardan muhim bo‘lib, yangi ijtimoiy talablar asosida yanada dolzarblik kasb etadi. Bugungi kunda fan rivoji va ishlab chiqarishdagi ulkan o‘zgarishlar tufayli kelib chiqayotgan talablar maktab ta’limi oldiga yangi vazifalarni qo‘ymoqda.

O‘quv jarayonida fanlararo aloqadorlikning amalga oshirilishi ta’lim sifatiga kuchli ta’sir ko‘rsatib, ta’limni modernizatsiyalash, innovatsion o‘qitish imkoniyatlarini kengaytirish

1 Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo‘latova M.I. Boshlang‘ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish T.: OOO “Jahon - Print”, 2011.15-b.

imkonini beradi. Fanlararo aloqadorlik ta'minlangan holda, darsni tashkil qila olgan o'qituvchi o'quvchilarda o'zining faniga bo'lgan qiziqishini oshiribgina qolmasdan, mazkur fanni o'zlashtirishga yordam beradi[2].

Dars mazmuni, uni o'tish metodikasi va to'g'ri tashkil etilganligiga qarab o'quvchining shu darsga qiziqishi, qobiliyatlari oshib boradi. Yangilikka intilish, o'z nuqtai nazarini himoya qilishdagi qat'iylik va dadillik, mustaqillik va tanqidiy qarash kabi xislatlar o'quvchi shaxsini bilimga, o'qishga qiziquvchan qilib tarbiyalashda fanlararo aloqadorlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Darhaqiqat, bo'lajak o'qituvchining integrativ yondashuv asosidagi kasbiy pedagogik faoliyati "o'qituvchi - o'quvchi" o'zaro aloqasi negizida olib boriladi va aynan shu jarayonda ta'limiy, tarbiyaviy, rivojlantiruvchi maqsadlar amalga oshiriladi.

Dunyo miqyosida jamiyatni axborotlashtirish, texnologiyalarning shiddat bilan o'zgarishi, zamonaviy kasb egalarining o'ziga xos psixologik xususiyatlari, yosh avlodni tarbiyalash va o'qitish uchun bir qator talablarni belgilaydi[3]. Zamonaviy maktab bitiruvchisi yangi texnika va texnologiyaga oid madaniyatni egallabgina qolmay, balki uni rivojlantira oladigan, salohiyati jihatdan mukammal, tashabbuskor va ijodiy fikrlaydigan inson bo'lishi lozim. Ta'limdagi ustuvorliklar hozirda ma'lum bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalar tarkibini shakllantirishdan o'quvchilarning intellektual va o'quv-ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga o'tdi[4].

Har bir fan doirasida o'quv-ijodiy faoliyatni tashkil etish orqali ijodiy qobiliyatni rivojlantirish vazifalarini hal qilish kerak. Maktabda o'quvchi ijodiy qobiliyatini shakllantirishga bo'lgan ehtiyoj o'quv ijodiy faoliyat uchun zamonaviy texnologiyalarni, ushbu jarayonning shakllari, uslublari va vositalarini ishlab chiqishni, tegishli didaktik va o'quv-metodik ta'minotni, o'quv-ijodiy vazifalar majmuasini yaratish dolzarbligini taqozo etadi. 2030-yilgacha belgilangan xalqaro ta'lim konsepsiyasida "Butun hayot davomida sifatli ta'lim olishga imkoniyat yaratish" dolzarb vazifa sifatida belgilangan.

Bu borada O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 9-iyuldagi "Matematika ta'limi va fanlarini yanada rivojlantirishni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, shuningdek, O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasining V.I.Romanovskiy nomidagi Matematika instituti faoliyatini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-4387-son qarori, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 7-maydagi "Matematika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora tadbirlari to'g'risida" PQ-4708-son qaroriga hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu o'quv qo'llanma muayyan darajada xizmat qiladi.

O'qituvchi-maktabdagi asosiy shaxs, - deb ta'kidlanadi, uning pedagogik mahorati darajasiga qarab, pedagogik mahorat, ma'lumki, san'at darajasigacha olib borilgan o'quv-tarbiyaviy tizimdir. Bu borada pedagogik mahorat darajasi deganda, o'qituvchining o'z ustida tinmay ishlashi va o'z-o'zini tarbiyalashdagi yutuqlari, doimo izlanishda bo'lib, pedagogik kasb mahoratini kamolotga yetkazish va albatta, o'quvchilar bilim ko'nikma va malakalarining chuqurligi hamda sifatliligi, ularning tarbiyasi tushuniladi. Bularning hammasi o'quv-tarbiya jarayoni material texnik ta'minlanganligidan va ishchi o'rinlarni takomillashtirish darajasining o'sganligidan darak beradi[5].

O'quv materialining asosini darslik va rejalashtirish tashkil etganligidan, o'qituvchi uning tarkibiga o'qitish shartlarini bilgan holda o'zgartirish va to'ldirish kiritadi. Metod-bu maqsadga erishish demakdir. O'qitishning muhim tomonlaridan biri bu-o'quvchi va o'qituvchi faoliyatining o'zaro uzviyligidan dalolat beradi.

Boshlang'ich maktabdagi har bir fan bu-integratsiyalangan kurs, mazmun jihatdan ular tabiiy fanlar bilan uzviy bog'liq, bu kichik maktab o'quvchilari uchun tushunarli bo'lgan atrof-muhit haqidagi bilimlarni o'zlashtirishni ta'minlaydi. Bu yoshdagi o'quvchilarda tabiatni o'rganishga bo'lgan faqat emotsional joziba emas, bilim olish motivlari bilan ham bog'liq. O'quvchilarning bu xususiyatini hisobga olib, qiziqishlarini quvvatlash uchun bilim olishga bo'lgan ehtiyojlarini yangi mazmun bilan to'ldirib turishni talab etadi. Bu o'quvchilarga hayotdagi o'zaro aloqalarni ochib berishga hamda tabiatdagi turli-tumanliksiz inson yashay olmasligini tushunib yetishga yordam beradi[6].

Ta'lim integratsiyasi-fanlararo aloqaning yuqori darajasi, bir butun integrallashgan bilimlarni yaratishga imkon beruvchi vosita. Integratsiya tushunchasiga berilayotgan ta'riflar turlicha. Ushbu ta'limning umumiylik tomoni-integratsiya bu atrofimizdagi borliqqa yaxlit qarashga erishishdan iborat.

Shunday qilib, har qanday metod uni qo'llashdan ko'zlangan maqsadni, amalga oshirishni talab qiladi. Bu vositalar faoliyat obyekti to'g'risidagi predmetli yoki aqliy bilimlar, qo'yilgan maqsadga, albatta, erishishidan iborat bo'lishi mumkin. Bularning hammasi har qanday metodga nisbatan maqsadga muvofiq, lekin o'qitish metodi uchun yetarli emas[7]. Metod strukturasiga o'qitish usullari kiradi. Lekin metod mazkur usullar majmuidan iborat emas. Usul o'qituvchi yoki o'quvchi aqliy yoki amaliy ishining alohida jarayonlari bo'lib, ular mazkur metodda tavsiya etilgan materialni o'zlashtirish shaklini to'ldiradi. Masalan, o'qituvchi eslab qolish usulini beradi. Usul metoddan ajraladi, o'zining bilimlarini o'zlashtirishdagi va ko'nikmalar hamda malakalarni shakllantirishdagi ahamiyatini yo'qotadi.

O'quvchining ijodiy faoliyatini boyitishda o'qish samarasining o'suvchanlik sababi ularning yo'nalishi faoliyati bilan bir xil. Maktabda tushunchalar, mulohazalar va xulosalar (muayyan bir fikrga kelish) orasidagi rasman mantiqiy bog'liqlikni o'rganishga o'zini tabiiy-ilmiy izlanishlar jarayonida namoyon etuvchi, dialektik mantiq orqali o'rganiladigan bog'liqlik ham qo'shiladi. Bu yangi bilish va mantiqiy bilimlar rasman mantiqiy bilimlardan ayri holda emas, balki ular bilan birgalikda rivojlanadi[8].

O'quvchi tomonidan fikrlashning dialektik metodini egallashi uchun u yoki bu o'quv materialini rasmiy-mantiqiy yoki dialektik mantiq talablari, bilishning ilmiy nazariyasi rolini zaruriy ma'lumotlarni o'rganishda aniqlovchi, asosiy komponent tarzida kuchaytirish, o'quvchini o'qish, o'rganish faoliyatida ichki mantiqni kuchaytirish, ilmning hayot bilan nazariy va amaliy bilishning harakatlanuvchi kuchlar bilan obyektiv bog'liqligini tushunishga yordam beradi.

Faqat ushbu sharoitdagina o'quvchi tomonidan matematikaning barcha spetsifik xususiyatlarini o'rganishni tizimli va aniq maqsadga yo'naltirish mumkin (bular matematik tushuncha va uning xususiyatlarining aniq, real obrazligini matematika va mantiqning organik o'xshashligi mosligi). Shunday qilib, nazorat natijasini solishtirish, uning zaruriyligi, ya'ni o'quvchida mantiqiy isbotlarga ehtiyojini ijodiy tarbiyalashda, unga matematikaning deduktiv tuzilishi zaruriyligini tushunishga yordam beradi[9].

Mamlakatimizda ta'lim sohasida olib borilayotgan islohotlar ta'lim tizimini to'liq axborotlashtirishni, o'qitish mazmunini qayta ko'rib chiqish, o'quv fanlarini integratsiyalash, o'qitishda innovatsion-pedagogik texnologiyalardan samarali foydalanish asosida tashkil etishni taqozo etmoqda. Bu o'z navbatida ta'lim muassasasida yagona axborot ta'lim muhitini shakllantirish, axborotlar bazasini yaratish va undan samarali foydalanishni taqozo etadi[10].

Ushbu qo'llanmada asosan boshlang'ich sinf o'quvchilariga matematik tushuncha terminini mustaqil o'rgatish uchun matematika fanini tabiatshunoslik fanlari bilan o'zaro aloqadorlikda o'rganishni maqsad qilib oldik. Xususan, tushunchaga oid yuqorgi fikrlarimiz dalili sifatida boshlang'ich ta'lim fanlari integratsiyasi orqali misol keltiriladi.

Har qanday tushuncha nom, mazmun va hajmga ega bo'ladi. Obyektning barcha muhim xossalari to'plami tushunchaning mazmunini tashkil qiladi. Masalan, daraxtlar tushunchasining mazmuniga misol sifatida tana va shoxlari yog'ochlangan ko'p yillik o'simlik, o'zidan kislorod ajratib, havoni tozalashi kabi xossalar kiradi.

Demak, tushuncha hajmi bitta tushuncha bilan nomlanishi mumkin bo'lgan obyektlar to'plami ham ekan. Tushuncha mazmuni uning hajmini aniqlaydi va aksincha. Agar biror tushuncha hajmi ikkinchi tushuncha hajmiga kirsa, ikkinchi tushuncha birinchi tushunchaga nisbatan umumiy, birinchi tushuncha ikkinchisiga nisbatan xususiy deyiladi. Masalan, yuqorgi misoldan daraxtlarning turga ajralishi tushunchaga nisbatan umumiy: manzarali va mevali daraxtlar. Tushunchaga nisbatan xususiylik sifatida nok, gilos, olma va yong'oq mevali daraxtning shakliga qarab turga ajralishida misol bo'la oladi[11].

Bugungi kunning talabi fanlarni o'zaro bog'lab o'rganishdan iborat. Ta'lim islohotlaridan yagona maqsad ham o'quvchini charchatmaslik, qiziqishini oshirishdir. Zero, bir o'quvchi matematikaga tushunmasligi mumkin, biroq tabiatshunoslik va boshqa fanlar uning sevimli fani bo'lishi kabi holat natijasida o'quvchingizning qalbiga yo'l topa olishingiz sizning yutug'ingizdir, deb hisoblaymiz.

Boshlang'ich sinflarda ilmiy dunyoqarashni fanlararo shakllantirishda o'quvchilarning psixologik xususiyatlari, didaktik tamoyillar (ilmiylik, uzviylik, izchillik, tushunarlilik, nazariya va amaliyot birligi) asosida hamda o'qituvchi pedagogik mahoratiga bog'liqligi ko'rsatilgan holda, integratsion bilimlarning samaradorligi ta'minlanadi.

*2 Ahmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. -Tashkent, 2020. - 161b.*

*3 Ahmedova N.M. Integrativ yondashuv asosida bo'lajak o'qituvchilarning kasbiy tayyorgarligini takomillashtirish: pedagogika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi. -Tashkent, 2020. – 96-b.*

*4 Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. Diss.ped. fan.dok.-Toshkent, 2006.-263 b.*

*5 Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish tamoyillari. // "Ta'limda innovatsiyalar: Strategiya, nazariya va amaliyot". Xalqaro ilmiy maqolalar to'plami 1-qism. Samarqand: SamDU, 2018.- B. 179-181.*

*6 Abdullayeva B.S., Sadikova A.V., Toshpo'latova M.I. Boshlang'ich sinflarda matematikadan sinfdan tashqari ishlarni tashkil etish T.: OOO "Jahon - Print", 2011.18-b.*

*7 Saloxitdinova N.M. Boshlang'ich sinf matematika fanlaridan olinadigan nazorat ishlari va xalqaro baholash dasturlari o'rtasidagi uzviylikni taminlash (boshlang'ich sinf matematika fani misolida). // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi ISSN:2181-0427 12-son. - B.15-19.*

*8 Abdullayeva B.S. Fanlararo aloqadorlikning metodologik-didaktik asoslari. Diss.ped. fan.dok.-Toshkent, 2006.-112 b.*

*9 Saloxitdinova N.M. Boshlang'ich sinf matematika fanlaridan olinadigan nazorat ishlari va xalqaro baholash dasturlari o'rtasidagi uzviylikni taminlash (boshlang'ich sinf matematika fani misolida). // Namangan davlat universiteti ilmiy axborotnomasi ISSN:2181-0427 12-son. - B.15-19.*

*10 Суравегина И.Т., Захлебный А.Н. Экологическое образование школьников во внеклассной работе. Пособия для учителей. -М.,1984.- 60 с.*

*11 Norbo'tayev X.B. Boshlang'ich sinf tabiatshunoslik darslarini innovatsion pedagogik texnologiyalar asosida tashkil etish tamoyillari. // "Ta'limda innovatsiyalar: Strategiya, nazariya va amaliyot". Xalqaro ilmiy maqolalar to'plami 1-qism. Samarqand: SamDU, 2018.- B. 179-181.*



PEDAGOGIKA, PSIXOLOGIYA VA INNOVATSION TA'LIM

# MAKTABGACHA VA BOSHLANG‘ICH SINF O‘QUVCHILARI JISMONIY MADANIYATIDA CHET EL TAJRIBALARDAN FOYDALANISH

**Furkat Kuldashevich Axmedov** - *professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti*
**Siroj Furqat o‘g‘li Kuldashev** - *o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada maktabgacha yoshdagi bolalar va boshlang‘ich sinf o‘quvchilar jismoniy madaniyatining umumiy muammolari va ularni hal etishda rivojlangan mamlakatlarning (Rossiya Federatsiyasi, Xitoy, Yaponiya, Finlandiya) zamonaviy tajribalaridan foydalanishga oid ma’lumotlar hamda ilmiy asoslangan taklif va tavsiyalar berilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлена информация об общих проблемах физической культуры дошкольников и младших школьников и использовании современного опыта развитых стран (Российской Федерации, Китая, Японии, Финляндии) в их решении, а также научно обоснованные предложения и рекомендации*

***Abstract:*** *This article provides information on common problems of physical culture of preschool children and primary school students and the use of modern experiences of developed countries (Russian Federation, China, Japan, Finland) in solving them, as well as scientifically based suggestions and recommendations.*

***Kalit so‘zlar:*** *jismoniy madaniyat, sport, sport musoboqalari, jismoniy tarbiya va sport ta’limi, sport inshootlari, sport jihozlari, jismoniy tarbiya va sport tizimi, kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi.*

***Ключевые слова:*** *физическая культура, спорт, спортивная деятельность, спортивные соревнования, физкультурно-спортивная подготовка, спортивные сооружения, спортивный инвентарь, система физического воспитания и спорта, физическое воспитание детей младшего школьного возраста.*

***Keywords:*** *physical culture, sports, sports activities, sports competitions, physical education and sports training, sports facilities, sports equipment, physical education and sports system, physical education of children of junior school age.*

Ta’lim va tarbiya tizimining tarkibiy qismi bo‘lgan jismoniy madaniyat ta’limi jamiyat a’zolarining har tomonlama barkamolligini va faolligini ta’minlashda o‘ziga hos ahamiyatga ega. Buni inobatga olgan holda, mamlakatimizda fuqorolar jismoniy madaniyatini oshirishga alohida e’tibor qaratilmoqda. Bu borada O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qator farmon va qarorlarini ko‘rsatib o‘tish mumkin.

Jumladan: O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-yanvardagi “O‘zbekiston Respublikasida jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-5924-son farmoni[1], 2020-yil 30-oktabrdagi “Sog‘lom turmush tarzini keng tadbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6099-farmonlari qabul qilingan farmon va qarorlarning asosiy maqsadi etib, mamlakatda yuksak madaniyatga ega bo‘lgan har tomonlama yetuk hamda jismonan sog‘lom insonni shakllantirish, aholining jismoniy tarbiya va sport sohasidagi malaka va bilimlarini orttirish, kundalik turmush tarziga jismoniy madaniyatni singdirishga qaratilgan ustuvor yo‘nalishlarini belgilash, iqtidorli sportchilarni tanlab olish jarayoniga innovatsion shakllar va usullarni joriy etish belgilangan. Farmonga ko‘ra, ta’lim tizimining barcha bo‘g‘inlarida sport inshootlarini ko‘paytirish, o‘quvchi va talabalar orasida muntazam ravishda turli sport musoboqalarini tashkil etish va o‘tkazishni takomillashtirish orqali jismoniy madaniyatni ommalashtirish masalasi qo‘yilgan[2]. Bu o‘z-o‘zidan ta’lim tizimi jismoniy madaniyatini takomillashtirishning huquqiy asoslarini va imkoniyatlarini oshganligidan shuningdek soha mutasaddilariga nisbatan talablarning murakkablashganligidan dalolat beradi. Qabul qilingan huquqiy-me’yoriy hujjatlarning mazmunidan ko‘rinib turibdiki, mamlakatimizda barcha sohalardagi kabi jismoniy madaniyatda ham demokratik yondoshuv va umuminsoniy qadriyatlarga asoslangan g‘oyalar ilgari surilgan. Jismoniy madaniyatni fuqorolar turmush tarziga singdirib borishda ta’lim tizimi muhim ahamiyat kasb etadi. Ayniqsa, bu borada boshlang‘ich sinflarda jismoniy tarbiya va sportni o‘qitishga alohida e’tibor qaratish orqali o‘quvchilar jismoniy madaniyatini oshirish zarur hisoblanadi.

1 https://lex.uz/ru/docs/-4711327
2 https://lex.uz/docs/-5077667





Jismoniy madaniyat tarixiga oid ma’lumotlarga murojaat qilinganda ba’zi davrlarda undan noto‘g‘ri maqsadlar yo‘lida ham foydalanganlar. Masalan: quldorlik davrida qullarning ustidan hukmronlikni kuchaytirish yoki hukmronlik qilib turish maqsadida, quldorlargina maxsus jismoniy mashqlar bilan mukammal shug‘ullanganlar. Shuningdek ba’zi davrlarda agressiv xususiyatga ega davlatlar, yoki ayrim jamiyatlar boshqalar ustidan hukmron bo‘lish, bosqinchilik qilish maqsadida harbiylashtirilgan jismoniy tarbiya tizimini joriy etganlar. Aslida jismoniy madaniyatning jamiyatdagi maqsadi faqat insonparvarlikka qaratilgan. Muommoga qaratilgan masalalarga murojaat qilish asnosida, avvalombor jismoniy madaniyat tushunchasiga ta’rif berishni lozim topdik.

Mutaxassislar (L.P.Matveev, Ashmarin, O.Y.Masalova, S.D.Neverchuk, R. Abdumalikov, K.Maxkamjonov, X.Rafiyev, T.S.Usmonxo‘jayev, A.Abdullayev v.b) tomonidan berilgan ta’riflar, sohaga oid mavjud lug‘atlar va ensiklopediyalardagi ma’lumotlarga tayandik va quyidagi xulosaga kelindi. Jismoniy madaniyat umumiy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanib, u jismoniy tarbiya, sport, sport faoliyati, sport musoboqalari, jismoniy tarbiya va sport ta’limi uning vositalari, metodlari, sport inshootlari, sport jihozlari jismoniy tarbiya va sport tizimi kabi sohaga oid barcha tushunchalar faoliyat turlarini qamrab oladi[3]. Shuning uchun ham biz mazkur masala yuzasidan olib boradigan fikr mulohazalarimizni boshlang‘ich sinf o‘quvchilari jismoniy madaniyatini rivojlantirish muomolariga qaratdik. Fuqorolar jismoniy madaniyatini oshirish ta’lim tizimining quyi qismidan boshlanadi. Jamiyatda aholi jismoniy madaniyatini rivojlanganlik darajasi quyidagi ko‘rsatgichlar asosida belgilanadi:

- sport inshootlarining, sog‘lomlashtiruvchi jismoniy madaniyatga xizmat ko‘rsatuvchi qurilishlarning aholi jismoniy madaniyati uchun yaratilgan sharoitlarning mavjudligi va ularning holati.
- aholi turmush tarziga jismoniy tarbiya va sportning singdirilganlik darajasi. (aholi barcha qatlamining kundalik hayotida mustaqil va ixtiyoriy ravishda muntazam jismoniy tarbiya va sport bilan shug‘ullanishlari)
- jamiyat a’zolarining sportdagi erishilgan natijalari.
- sohaning maxsus ma’lumotga ega bo‘lgan mutaxassislar bilan ta’minlanganlig darajasi.
- jismoniy tarbiya va sport sohadagi ilmiy, uslubiy ishlarning olib borilishi va ularning natijalari v.b.[4]

Butun dunyoda bolalar va yoshlar o‘z mamlakatlarining amaldagi ta’lim tizimida o‘qiydi, tarbiyalanadi belgilangan bosqichlarni bosib o‘tadi va voyaga yetadi. Bizning mamlakatimizda ham zamonaviy talablar asosidagi ta’lim tizimi yo‘lga qo‘yilgan va bolalar va yoshlarni to‘liq qamrab olgan. Bu tizim o‘z ichiga maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy talim bosqichlarini qamrab oladi. Har bir ta’lim tizimi bosqichi jismoniy madaniyati o‘ziga xos vazifalarni amalga oshiradi.

Jismoniy tarbiyaning maqsadi, odamni bolalik davridan boshlab jismoniy kamolotini shakllantirish, salomatligini mustahkamlash, va ishchanlik qobiliyatini oshirishdan iborat.

Jismoniy madaniyatning maqsadi, jamiyatda sohaga oid barcha yo‘nalishlarni jamiyat taraqqiyoti bilan birgalikda, ya’ni nafaqat shaxs tarbiyasini, balkim yuqorida keltirilgan sohaga oid barcha yo‘nalishlarni ( jismoniy madaniyatni rivojlanganlik darajasini belgilovchi ko‘rsatgichlarini ) birgalikda rivojlantirib borishdan iborat.

Ta’lim tizimida jismoniy madaniyatning maqsad vazifalarini o‘rganishda ba’zi mamlakatlarning bosh bo‘g‘ini bo‘lgan maktabgacha va boshlang‘ich sinflar jismoniy tarbiyasi tajribalari o‘rganildi, jumladan: Rossiya Federatsiyasida maktabgacha va boshlang‘ich sinflar jismoniy madaniyati quyidagi maqsad vazifalarni amalga oshiradi:

-maktabgacha va kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy madaniyatiga qaratiladigan asosiy jihatlar quyidagilardan iborat:

-bolalarni jismoniy mashqlarga va sog‘lom turmush tarziga ijobiy va

faol yondoshuvini shakllantirish;

-jismoniy madaniyatga ongli ravishda

3 Масалова О.Ю. Теория и методика физической культуры:учебник. Ростов н/ Д:Феникс. 2018. 572 с.
4 Axmedov F.K. Jismoniy tarbiya va sport nazariyasi. Darslik. T:. 2021. 317 bet.

qiziqishi va sog'lom turmush tarziga ijobiy yondoshuvini shakllantirish;

-dastlabki harakat ko'nikmalarini, harakatlar koordinatsiyasini, qaddi-qomatini to'g'ri tutishni, turli sport o'yinlari va musoboqalarida ishtirok etishga intilish, ularni tashkilotchisi bo'lish va belgilangan tartib-qoidalarga amal qilish odatlarini shakllantirish.

-jismoniy mashqlar va turli o'yinlar jarayonida xavfsizlik qoidalariga amal qilishga doir dastlabki tushunchalarni shakllantirish.

Xitoy xalq respublikasida jismoniy tarbiya tizimida maktabgacha yoshdagi bolalarni maktabga tayyorlashda quyidagilarga asosiy e'tibor qaratilgan:

- yosh xususiyatiga ko'ra jismoniy rivojlanishning asosiy bosqichi bo'lgan davrga tayyorlash;
- bolaning ijtimoiy sifatlarini shakllantirish (qat'iyatlilik, to'g'riso'zlik, javobgarlik hissi, haqiqatgo'ylik, o'zaro hamkorlik qilish v.b)
- jismoniy mashqlar bilan shug'ullanishga qiziqishini va faol turmush tarzini kechirishni shakllantirish;
- zaruriy harakat malakalarini rivojlantirish va xavfsizlik qoidalariga rioya qilish bo'yicha dastlabki tushunchalarni berish.

Yaponiyada jismoniy tarbiya tizimida kichik maktab yoshidagi bolalar jismoniy tarbiyasi quyidagi vazifalarni bajarishini zarur deb hisoblaydi:

- zaruriy harakatlarni rivojlantirish;
- aqliy rivojlantirish;
- atrof-muhitga va odamlarga to'g'ri munosabatni shakllantirish;
- tartib qoidalarga qa'tiy amal qilishga o'rgatish;

Finlandiyada maktabgacha yoshdagilar jismoniy tarbiyasining asosiy vazifasi:

- bolalarni asosiy va zaruriy harakat malaka, ko'nikmalariga moslashtirish, takomillashtirish;
- bolalarni jismoniy mashqlarga bo'lgan qizikishlarini oshirish;
- bolalarda jismoniy tarbiya va sportga ongli yondoshuvini shakllantirishdan iborat[5]

Xulosa. Mamlakatimizda ham maktabgacha va boshlang'ich ta'lim yoshidagi bolalarning jismoniy madaniyatining o'ziga xos maqsad vazifalari mavjud bo'lsada, bu tizimni yanada takomillashtirishga qaratilgan zamonaviy aniq maqsad vazifalarini belgilab olish zarurati mavjud. Chunki mamlakatimizda ta'lim tizimi tubdan isloh etilishi natijasida maktabgacha yoshdagi bolalar ta'lim tarbiyasiga qo'yilayotgan talablar ham yangicha bo'lishini taqozo etmoqda. Albatta takomillashtirilgan zamonaviy jismoniy madaniyatni joriy etishda shu davrgacha orttirilgan tajribalar asosida shakllantirilishi va rivojlantirilishi zarur.

Ta'lim tizimi jismoniy madaniyatining keyingi bosqichlarida ham o'ziga xos maqsad vazifalari belgilab berilgan bo'lib, jismoniy tarbiya uzluksiz ravishda amalga oshiriladi. Jismoniy madaniyatning ta'lim tizimidagi o'rni va vazifalari va uning ahamiyatini nakadar muhimligini anglagan holda mavjud ta'lim tizimi davomida jamiyatda har tomonlama barkamol shaxsni tarbiyalash maqsad qilib olingan. Shunday ekan jismoniy madaniyatni ushbu tizimning ajralmas tarkibiy qismi sifatida qarash va uni muntazam ravishda takomillashtirib borish zarur. Ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari jismoniy madaniyatiga alohida bir muommo sifatida qarash va uning uzviyligini ta'minlash orqali ta'lim–tarbiyada ko'zlangan maqsadga erishish mumkin. Bu borada maktabgacha va boshlang'ich ta'lim o'quvchilari jismoniy madaniyatiga alohida e'tibor qaratish va doimiy ravishda rivojlangan mamlakatlar tajribalariga asoslangan zamonaviy talablar bilan boyitib borish zarur. Ta'limning dastlabki poydevori maktabgacha va boshlang'ich ta'limdan qo'yiladi. Kishilarda jismoniy madaniyat ta'limi ham aynan shu davrda shakllantiriladi va butun umr davomida takomillashib borish asnosida sog'lom turmush tarzi kechirishni asosiy tomonlarini ta'minlaydi.

5 Гурьев С.В. Теория и методика физического воспитания с практикумом (детей дошкольного и младшегошкольного возроста ) учебник: Москва. 2020 г. 211 стр.





# 15-16 YOSH BOKSCHILARNING MAXSUS KUCH TAYYORGARLIGINI HARAKATLI O'YINLAR ORQALI RIVOJLANTIRISH

***Xamidulla Abdullayevich Meliyev*** - *p.f.n., professor, Jizzax davlat pedagogika universiteti*
***Shodibek Shuxratovich Murotov*** - *magistr, O'zbekiston-Finlandiya pedagogika instituti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada 15-16 yosh bokschilarning maxsus kuch tayyorgarligini harakatli o'yinlar orqali rivojlantirish oid vosita va dasturlar yoritilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье описаны средства и программы развития специальной силовой подготовки боксеров 15-16 лет посредством подвижных игр.*

***Abstract:*** *This article describes tools and programs related to the development of special strength training of 15-16-years old boxers through action games.*

***Kalit so'zlar:*** *boks mashg'uloti, 15-16 yosh, milliy va zamonaviy harakatli o'yinlar, maxsus-kuch tayyorgarligi, jismoniy sifat.*

***Ключевые слова:*** *боксерская подготовка, 15-16 лет, национальные и современные подвижные игры, спецподготовка, физические качества.*

***Keywords:*** *boxing training, 15-16 years old, national and modern action games, special forces training, physical quality.*

Bugungi kunda, jismoniy tarbiya va sport dunyo hamjamiyatining eng ustuvor yo'nalishlaridan biriga aylandi. Jahonda bolalar-o'smirlar sporti nazariyasi va amaliyotida o'smir sportchilarni saralash, o'quv-mashg'ulotlarni rejalashtirish, psixologik, jismoniy, texnik-taktik va funksional tayyorgarlikda qo'llaniladigan vosita va usullarni amaliyotga tatbiq etish yuzasidan ko'plab ilmiy-tadqiqot ishlari o'tkazilgan. Sport natijalarining jadal o'sishi mazkur sohada zamon talablariga javob beradigan o'quv-mashg'ulotlarni tashkillashtirishning optimal tizimini izlab topish talabini qo'ymoqda[1,2].

Mamlakatimiz mustaqillikni qo'lga kiritgan dastlabki kunlardanoq, jismoniy tarbiya va sportga alohida e'tibor qaratilmoqda. Shu o'rinda bolalar sportining o'rni ham beqiyosdir. Davlatimiz tomonidan berilayotgan e'tibor millat genofondini sog'lomlashtirish, yoshlarimizni jismoniy tarbiya va sport turlariga jalb qilish, ularning kelajakda mamlakatimiz sharafini jahon arenalarida munosib himoya qilishga qodir sportchilar bo'lib yetishishini ta'minlamoqda. Olimpiya o'yinlarida O'zbekiston milliy terma jamoasi 207 ta jamoalar orasida 21-o'rinni, bokschilarimiz jamoasi esa faxrli 1-o'rinni egallaganligi yuqoridagi fikr-mulohazalarning tasdig'idir.

O'smir sportchilarning harakat tayyorgarligini rivojlantirishda shug'ulla-nuvchilarning yosh xususiyatlarini inobatga olgan holda o'quv-mashg'ulotlarni zamon talablari asosida tashkillashtirish bolalar va o'smirlar sporti nazariyasi va amaliyotining respublika va xalqaro miqyosdagi dolzarb muammolaridan biri hisoblanadi. 15-16 yoshli bokschilarning harakat tayyorgarligida qo'llaniladigan harakatli o'yinlar tabaqalashtirilib, o'yin yuklamalari shiddati va hajmi me'yorlari aniqlandi hamda o'quv-mashg'ulotlar jarayoniga tatbiq etish metodikasi ishlab chiqildi. Metodikaning samaradorligi pedagogik tajriba yo'li orqali asoslab berildi. Sportchilarning tayyorgarlik darajasini baholashda zamonaviy axborot-kommunikatsion texnologiyalardan foydalanish ilmiy-uslubiy jihatdan muhim ahamiyatga ega[3].

Mavzuga oid adabiyotlarning sharhi. Ushbu tadqiqot mavzusi bo'yicha E.Z.Usmonova, S.Tojiboyev, E.G'.G'oziyev, A.Jabborovlar bolalarning o'quv motivlarini

1 Abdurasulova G. "Yosh bokschilarning jismoniy tayyorgarlik dinamikasi" "Universiada-2013" sport o'yinlariga talabalarni tayyorlash muammolari. I qism.Toshkent 2013 y. 135-136 bet.

2 Abduxamidov R.N., Tajibayev S.S., "Yosh bokschilarning jismoniy rivojlanishi dinamikasi" [boks misolida] "Mustaqillik yillarida sportning rivojlanish tarixi". Respublika ilmiy-nazariy anjuman materiallari. [12-dekabr 2013-yil].

3 Xalmuxamedov R.D., Tajibayev S.S., Abduhamidov R.N., "Bokschilarning jismoniy sifatlarini rivojlantirishda harakatli o'yinlarni tabaqalashtirilishi" "Universiada-2013" sport o'yinlariga talabalarni tayyorlash muammolari. II qism.Toshkent 2013 y. 98-99 bet.

| | | | | | | | |
|---|---|---|---|---|---|---|---|
| 7. | Polga yotgan holda tayanib, qo'llarni bukib-yozish [marta] | 16±1,85<br>17±1,97 | 11,62<br>11,58 | 15,8±1,91<br>19±1,21 | 12,15<br>6,36 | 0,69<br>6,02 | >0,4<br><0,001 |
| 8. | Polga yotgan holda tayanib qo'llarni bukib-yozish 5 ta [s] | 4,91±0,48<br>4,66±0,32 | 9,77<br>6,86 | 4,94±0,27<br>4,30±0,28 | 5,51<br>6,51 | 0,49<br>3,78 | >0,4<br><0,001 |
| 9. | Qo'llarga tayanib ko'krak oldida qarsak chalish [marta] | 4,5±0,61<br>5,15±0,88 | 13,55<br>17,28 | 4,4±0,61<br>5,35±0,60 | 13,63<br>11,21 | 0,52<br>1,25 | >0,4<br>>0,1 |
| 10. | Tik turgan holatdan oldinga egilish [sm] | 2,75±0,44<br>3,42±0,57 | 16<br>16,95 | 2,60±0,40<br>6±0,82 | 15,32<br>13,66 | 1,38<br>11,5 | >0,05<br><0,001 |
| 11. | 800 m ga yugurish [m] | 4,12±0,37<br>3,79±0,41 | 8,98<br>10,81 | 4,19±0,42<br>3,51±0,28 | 10,02<br>7,97 | 0,63<br>3,21 | >0,4<br><0,01 |

Eslatma: suratda tajribadan oldingi natijalar; maxrajda tajribadan keyingi natijalar berilgan.

NG bokschilari 4x10 m. masofaga mokisimon yugurish nazorat testi bo'yicha qayd etgan ko'rsatkichlari variatsiya koeffitsiyenti [V=16,21%]ga, pedagogik tajribadan so'ng 18,49% ga salbiy tomonga o'zgargan. Ushbu ko'rsatkichlar TGda [V=14,52%] dan [V=11,88%] ga yaxshilangan.

Turgan joyida qo'lni ishlatmasdan uzunlikka sakrash nazorat testi natijalari TG bokschilarida NGda shug'ullanuvchilar natijalariga solishtirilganda 7 sm.ga ya'ni 5,6% ga yuqori bo'ldi [P<0,01].

"To'ldirma to'pni irg'itish" nazorat mashqi natijalari NG bokschilarida pedagogik tajribadan oldin 5,50±1,08 m., TG bokschilarida 5,51±1,02 m.ni tashkil etdi [r>0,05]. Tajriba natijalariga ko'ra, to'ldirma to'pni irg'itish nazorat mashqi bo'yicha TG bokschilari NGda shug'ullanuvchi tengdoshlariga nisbatan to'pni 0,73 sm.ga uzoqroq irg'itishgan, yillik o'sish 13% ga teng bo'ldi.

Yosh bokschilarning texnik harakatlarni bajarish ko'nikmalarini tatbiq etilgan harakatli o'yinlarning shakllantirishda harakatatli o'yinlarning samaradorligini aniqlash yuzasidan o'tkazilgan tadqiqotlarning natijalari 5-jadvalda keltirilgan.

O'tkazilgan tadqiqotlarning barcha bo'limlari yuzasidan olingan materiallarni tahlil qila turib, quyidagi xulosalar shakllandi:

1. Maxsus ilmiy-uslubiy adabiyotlar tahlili shuni e'tirof etishga asos bo'la oladiki, 15-16 yoshli bokschilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida harakatli o'yinlarning maqsadli qo'llanilishi ularning harakat tayyorgarligini rivojlantirish muammosini hal etishga imkon yaratib o'smir sportchilarning bazaviy texnikasini oqilona shakllantirishga yordam beradi.

2. Boshlang'ich tayyorgarlik bosqichida shug'ullanuvchi 15-16 yoshli bokschilarning sport to'garaklarini tashlab ketish sabablari va sport bilan shug'ullanishga bo'lgan motivatsiyasi aniqlandi; Unga ko'ra "sport turini tanlashda adashish", "og'ir jismoniy yuklamalar", "mashg'ulotlar bilan shug'ullanishga motivatsiyaning [qiziqishning] mavjud emasligi", "o'yin mashg'ulotlarining kamligi", "bir xildagi usullar", "qarindoshlari hamda yaqinlarining boks sport turi yuzasidan yetarlicha tushunchaga ega emasligi" va boshqalar sabab bo'lar ekan. Anketa so'rovi shuni ko'rsatdiki, bugungi kunda yosh bokschilarning o'quv-mashg'ulot jarayonida harakatli o'yinlarga asossiz kam e'tibor qaratiladi.





# ARXITEKTURADA YAPON DIZAYNI VA G'ARB MODERNIZMNI SINTEZ QILISHGA INTILGAN KENZO TANGE

**Sindorkul Ravshanovich Xalikov -** *Arxitektura f.b.f.d., (PhD) dotsent,Jizzax politexnika instituti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada yapon me'mori Le Korbusierning izdoshi, Yaponiyadagi birinchi zamonaviy me'morlardan biri, urushdan keyingi yapon shaharlarini qayta qurishda o'z hissasini qo'shibgina qolmay, o'tgan asrning eng nufuzli va mashhur arxitektori sifatida tanilgan Kenzo Tange haqida, uning zamonaviy arxitekturaga yapon dizayni va g'arb modernizmni sintez qilishga intilganligi va laboratoriyasida arxitektura ta'limi fan va dizayni uchrashadigan nuqtaga e'tibor qaratgan holda jiddiy tahlil va tajribalar bilan birinchi o'ringa olib chiqanligi bayon etilgan.*

***Аннотация:*** *Эта статья о Кензо Танге, последователе японского архитектора Ле Корбюзье, одном из первых современных архитекторов в Японии, который не только способствовал реконструкции японских городов после войны, но и известен как самый влиятельный и известный архитектор прошлого века, его вклад в современную архитектуру в Японии, что он стремился синтезировать дизайн и западный модернизм, и что архитектурное образование в его лаборатории было выдвинуто на первый план строгим анализом и экспериментированием, сосредоточенным на пересечении науки и дизайн.*

***Abstract:*** *This article is about Kenzo Tange, the successor of the Japanese architect Le Corbusier, the name of the first modern architect in Japan, who not only facilitated the reconstruction of Japanese cities after the war, but also known as the most influential and famous architect of the past, his contribution to modern architecture and Japan, which strives to synthesize design and western modernism, and architectural design in its own laboratory, was developed on the first plan by strict analysis and experimentation, focused on research and design.*

***Kalit so'zlar:*** *uslub, modernizm, san'at, dizayn, zamonaviy arxitektura, bino, me'morchilik.*

***Ключевые слова:*** *стиль, модернизм, искусство, дизайн, современная архитектура, здание, архитектура.*

***Keywords:*** *style, modernism, art, design, contemporary architecture, building, architecture.*

Tange o'rta maktabda o'qish uchun 1930-yilda Xirosimaga ko'chib o'tdi. Aynan shu yerda u birinchi marta shveytsariyalik modernist Le Korbusierning asarlari bilan tanishdi. Xorijiy san'at jurnalidan Sovetlar saroyi chizmalarini topishi uni me'mor bo'lishga ilhomlantirdi. Garchi u o'rta maktabni tomomlagan bo'lsa-da, Tangening matematika va fizika fanlaridan past natijalarga erishgani, nufuzli oliy o'quv yurtlariga o'qishga kirish uchun va u bu fanlarda kirish imtihonlarini topshirish uchun ikki yil vaqt sarfladi, shu vaqt ichida g'arb falsafasi haqida ko'p o'qidi. Tange armiyaga jalb qilishdan qochish uchun Nihon universitetining san'at fakultetining kino yo'nalishiga o'qishga kirdi.

1935-yilda Tange Tokio universitetining arxitektura bo'limida o'qishni boshladi. U Xideto Kishida va Shozo Uchida qo'l ostida tahsil oldi. Uning bitiruv loyihasi Tokiodagi Hibiya bog'ida joylashgan bo'lib o'n yetti gektar (42 akr) maydonni egalladi[1].

Universitetni tugatgach, Tange Kunio Maekava ofisida me'mor bo'lib ishlay boshladi. Ish paytida u Manchuriyaga sayohat qildi, arxitektura dizayni tanlovida qatnashdi va qaytib kelganida yaponiyaliklar tomonidan bosib olingan Jeholni ko'zdan kechirdi.

Kenzo Tange karerasining boshlanishi umuman Yaponiya arxitekturasi uchun og'ir davrga to'g'ri keldi. Jahon miqyosidagi keskin vaziyat mamlakat siyosatida bir qator o'zgarishlarga olib keldi. Avvalo, qurilish sur'ati sekinlashdi. Buyurtmalar juda kam edi, ikkinchi jahon urushi boshlanganda u Maekavani tark etib, Tokio universitetiga aspiranturaga o'qishga kirdi. Unda shahar dizayniga qiziqish uyg'ondi va faqat universitet kutubxonasidagi manbalarga tayangan holda, yunon va rim bozorlarini o'rganishga kirishdi. 1942-yilda Tange Buyuk Sharqiy Osiyo Co-Prosperity Sphere memorial zali dizayni uchun tanlovda qatnashdi va birinchi mukofotga sazovor bo'ldi; bu loyiha, Shinto ziyoratgohi me'morchiligi

1 Stewart, Dennis B (2002). The Making of a Modern Japanese Architecture: From the Founders to Shinohara and Isozaki. New York, United States (1987), p. 171

va Rimdagi Kapitolin tepaligidagi plazaning uyg'unligi edi. Dizayn loyihasi amalga oshmadi[2]. 1946-yilda Tange universitetning dotsenti bo'ldi va Tange laboratoriyasini ochdi. 1963-yilda u shaharsozlik kafedrasi professori lavozimiga ko'tarildi. Uning shogirdlari Sachio Otani, Kisho Kurokava, Arata Isozaki, Xajime Yatsuka va Fumixiko Maki edi[3].

Tangening shaharshunoslikka bo'lgan qiziqishi uni urushdan keyingi qayta qurish ishlarini boshqarishga turtki bo'ldi. 1946-yilning yozida u urushda yetkazilgan zararni tiklash bo'yicha kengashda, urushdan zarar ko'rgan ba'zi shaharlar, Xirosima va Maebashi loyiha rejalarini taqdim etdi[4]. Uning Xirosimaning Kanon shahridagi aeroporti loyihasi qabul qilindi va qurildi. 1949-yilda hokimiyat Xirosima tinchlik yodgorligini qayta qurish to'g'risidagi qonunni qabul qildi, bu esa shaharga maxsus grant yordamini olish imkonini berdi va 1949-yil avgust oyida Xirosima tinchlik memorial bog'i loyihasi uchun xalqaro tanlov e'lon qilindi.

Xirosima Tinchlik markazi va bog'i shaharni tinchlikka intilishini ramzi bo'lib qoldi. Arxitektura nuqtai nazaridan, Tinchlik markazi an'anaviy madaniyatni chuqur tushunishni anglatibgina qolmay shu bilan birga Yaponiyada zamonaviy uslubni rivojlanishga ko'rsatma bo'lib xizmat qildi. Le Korbusier binolari qadimgi yapon prototipini eslatib turadi. Zamonaviy arxitekturani an'anaviy simvolizm bilan sintez qilishi Tange faoliyatining birinchi bosqichini o'z ichiga oladi. 1950-yillar davomida Tange turli xil fuqarolik loyihalarini loyihalash bilan shug'ullangan: shahar hokimiyatlari, kutubxonalar, auditoriyalar, sport markazlari. Ularning eng diqqatga sazovor binolaridan biri u o'zining tug'ilgan shahri Imabari uchun 1959-yilda qurib bitkazilgan shahar hokimiyati majmuasi bo'ldi.

Tange tadqiqotlari va shaharsozlikga bo'lgan qiziqishi uning faoliyati davomida muntazam davom etdi. 1959-yilda tugatgan doktorlik dissertatsiyasi "Katta shahardagi fazoviy tuzilma" deb nomlangan bo'lib, shahar tuzilmasida insonlarning erkin harakatlanishi talqin etilgan edi. Uning "Tokio 1960 uchun rejasi" bu muammolarga Tange jamoasining mantiqiy javobi bo'lib, o'sish va o'zgarishlarga imkon beradigan shahar tuzilishining tabiati haqida o'ylangan. Uning Tokio rejasi butun dunyo bo'ylab katta e'tiborga sazovor bo'ldi, chunki u ko'priklar, sun'iy orollar, suzuvchi avtoturargohlar va mega tuzilmalardan foydalangan holda shaharning rivojlanishini ko'rfaz bo'ylab kengaytirishga oid yangi konsepsiyalari ishlab chiqdi.

1953-yilda Tange va arxitektura jurnalisti va tanqidchisi Noboru Kavazoe Ise ziyoratgohini rekonstruksiya qilishda ishtirok etishga taklif qilindi. Ziyoratgoh har 20 yilda bir marta rekonstruksiya qilingan va 1953-yilda bu 59-takrorlangan[5]. 1965-yilda Tange va Kavazoe "Yapon me'morchiligi prototipi" kitobini nashr etdi.

Sikoku orolidagi Kagava prefekturasi hukumat zali 1958-yilda qurib bitkazildi. Uning ifodali qurilishini Nara shahridagi To'dai-jidaga o'xshash qilib qurilgan[6]. Balandlikdagi ustunlar faqat vertikal yuklarni ko'tarardi, shuning uchun Tange ularni yupqa qilib loyihaladi va yuzalarni maksimal darajada kengaytirdi. Zal uning eng yaxshi loyihalaridan biri deb atalgan bo'lsa-da[7], qurilish paytida u an'analarga juda ko'p tayanganligi uchun tanqidga uchradi.

Tangening 1951-yilda loyihalashtirilgan va 1953-yilda qurib bitkazilgan uyi Xirosima Tinchlik muzeyi kabi yerdan ko'tarilgan o'xshash skelet tuzilishidan foydalanadi; ammo, u yog'och va qog'ozdan foydalanadigan an'anaviy yapon dizayni bilan birlashtirilgan. Uy an'anaviy yapon tatami moduliga asoslangan bo'lib, eng katta xonalar moslashuvchanlikka ega bo'lib, ularni "fusuma toymasin" eshiklari bilan uchta kichikroq xonaga ajratish mumkin[8].

Fasad ritmik naqsh bilan yaratilgan; u ikki turdagi jabha dizaynini ("a" va "b") o'z ichiga oladi. Uy ikki qavatli tom bilan qoplangan. Kazuo Shinoharaning 1954-yildagi Kugayamadagi uyi po'latdan qurilgan va jabhada oddiyroq ritmga ega bo'lsa-da, uning dizayni bo'yicha juda o'xshashdir[9].

Kurashiki shahridagi qal'aga o'xshash shahar hokimiyati 1958-yilda loyihalashtirilgan

2 Reynolds, Jonathan McKean (2001). Maekawa Kunio and the Emergence of Japanese Modernist Architecture. London, United Kingdom. (2001), p. 126
3 Pritzker arxitektura mukofoti. Nyu-York, Amerika Qo'shma Shtatlari: Hyatt jamg'armasi.1987. 2010-yil 7-yanvar
4 Diefendorf, Jeffry M; Hein, Carola; Yorifusa, Ishida, eds. (2003). Rebuilding Urban Japan After 1945. Hampshire, United Kingdom (2003), p. 29
5 Diefendorf, Jeffry M; Hein, Carola; Yorifusa, Ishida, eds. (2003). Rebuilding Urban Japan After 1945. Hampshire, United Kingdom (2003), p. 197
6 Stewart, Dennis B (2002). The Making of a Modern Japanese Architecture: From the Founders to Shinohara and Isozaki. New York, United States (1987), p. 207
7 Docomomo Japan: The 100 Selections". The Japan Architect. Japan: The Japan Architect Company (57). Spring 2005. p. 100
8 Kultermann, Udo (1970). Kenzo Tange. London, United Kingdom: Pall Mall Press (1970), p. 28
9 Stewart, Dennis B (2002). The Making of a Modern Japanese Architecture: From the Founders to Shinohara and Isozaki. New York, United States Stewart (1987), p. 197





va 1960-yilda qurib bitkazilgan. U qurilganda eski shahar markazining chetida joylashgan bo'lib, uni shaharning yangi hududlari bilan bog'lagan. Kurashiki o'zining eski Machiya uslubidagi uylari bilan sayyohlik joyi sifatida tanilgan[10].

Yoyogi milliy gimnaziyasi Yaponiyaning Shibuya shahridagi Yoyogi bog'ida joylashgan, osma tomi bilan mashhur bo'lgan yopiq arena. U Kenzo Tange tomonidan ishlab chiqilgan va 1961 va 1964-yillar oralig'ida 1964-yilgi yozgi Olimpiya o'yinlarida suzish va sho'ng'ish musobaqalarini o'tkazish uchun qurilgan. Tange o'z dizaynini 1961-yilda boshlagan va rejalar 1963-yil yanvar oyida Ta'lim vazirligi tomonidan tasdiqlangan. Binoda to'xtash joyini optimallashtirish va kiruvchi va chiquvchi odamlarni qulay o'tishini ta'minlashga kata ahamiyat qaratgan.

Rimdagi Kolizeyning siluetidan ilhomlangan tomlar ikkita ustunga osilgan teriga ega. Tange G'arb g'oyalarini qabul qildi va ularni yapon talablariga javob beradigan tarzda moslashtirdi.

Gimnaziya taxminan 16000 kishiga mo'ljallangan, kichikroq bino esa bo'lib o'tayotgan tadbirlarga qarab 5300 kishini sig'dira oladi. U qurilgan vaqtda gimnaziya dunyodagi eng katta osma tomga ega edi. Ikkita temir-beton ustunlar po'lat plitalar biriktirilgan oldindan kuchlanishli po'lat to'rni qo'llab-quvvatlaydi. Ushbu po'lat to'rning pastki ankrajlari og'ir beton tayanch tizimi bo'lib, binoning ichki va tashqi qismida aniq egri chiziq hosil qiladi. Ichki makonda bu konstruktiv langar tribuna o'rindiqlarini qo'llab-quvvatlash uchun ishlatiladi. Tomning umumiy egriligi binoni kuchli shamollarning zararli ta'siridan himoya qilishga yordam beradi. Tange dizayn uchun Pritsker mukofotiga sazovor bo'ldi; aynan gimnaziya "XX asrning eng go'zal binolari qatorida" deb ta'riflangan[11].

1965-yilda kuchli zilziladan keyin Makedoniyaning o'sha paytdagi Yugoslaviya Respublikasining bir qismi bo'lgan poytaxt Skopye shahrini rekonstruksiya qilish rejasini Tange arxitektura jamoasi qo'lga kiritdi. Loyiha xalqaro miqyosdagi ta'siri tufayli muhim edi, biroq Tange uchun bu shahar uchun namuna bo'ldi, zamonaviy arxitektura tamoyillarini amalga oshirish uchun qayta qurish. Yapon arxitektori birinchi marta xalqaro tashkilot tomonidan shahar qurilishida ishtirok etish uchun taklif qilindi[12].

1960-yillarning o'rtalaridan boshlab Tange keng xalqaro e'tibor va komissiyalar tomonidan qabul qilindi. Uning Urbanists and Architects Team (URTEC) deb nomlangan firmasi Yugoslaviyaning Skopye shahrini rekonstruksiya qilishning bosh rejasini (1965) taqdim etdi. Zilzilada vayron bo'lganidan so'ng va Afrika, Yaqin Sharq va Yevropa, shuningdek, Yaponiyadagi shaharlar va mintaqalar uchun muhim rejalashtirish ishlarini olib bordi. Tangening keyingi muhim me'moriy asarlari qatoriga Tokio markazidagi "Akasaka" mehmonxonasi (1982) kiradi, uning alyuminiy va shishadan yasalgan yaltiroq terisi ochiq beton estetikasidan hal qiluvchi burilish yasagan. 1986-yilda Tange, xuddi 1952-yilda bo'lgani kabi, yana Tokio shahar hokimiyati majmuasini loyihalash bo'yicha tanlovda g'olib chiqdi. Uning eng yaxshi ishlari, zamonaviy dizaynda ta'sirchan shakllarni taqdim etadi. Shuningdek, u Otsu Prince mehmonxonasida, Tokiodagi Birlashgan Millatlar Tashkilotining universitetida va Parijdagi Italiya maydonida (1991-yilda tugatilgan) ish boshladi. Uning faoliyatining Amerika misoli 1990-yilda qurib bitkazilgan Chikagoda (Illinoys shtati) Amerika Tibbiyot Assotsiatsiyasi shtab-kvartirasi binosidir.

1948-yilda professorlik lavozimini egallaganidan keyin Tokio universitetida olib boriladigan "Tange laboratoriyasi" (Tange kenkyushitsu)da bo'lib o'tdi. Laboratoriyada nazariy loyihalar va Tangening o'zining keng ko'lamli komissiyalari joylashgan edi. Talabalarga tushunchalarni o'zlari talqin qilish va o'qituvchining ishida duch keladigan dizayn va qurilish muammolariga hissa qo'shish imkoniyati berildi. 1950-yillarning oxirida Tange laboratoriyasi Kurokava Kisho, Maki Fumixiko va boshqalarni o'z ichiga olgan Metabolistlar guruhining shakllanishiga asos solgan. Shu bilan birga, estetik va tarixiy muammolar, xususan, zamonaviy Yaponiyadan oldingi tashvishlarni hal qiluvchi ahamiyatga ega bo'lib qoldi. Natijada paydo bo'lgan pedagogik makon ilm-fan, dizayn, muhandislik va estetikaning gibridi bo'lib, spekulyatsiyaga ham, amalga oshirishga ham teng ahamiyat

10 Kultermann, Udo (1970). Kenzo Tange. London, United Kingdom: Pall Mall Press (1970), p. 92
11 "Announcement: Kenzo Tange, 1987 Laureate". The Pritzker Architecture Prize. New York, United States: The Hyatt Foundation. 18 March 1987. Retrieved 9 November 2013.
12 Zhongije Lin (2010). Kenzo Tange and the Metabolist Movement. Routledge. p. 168.

berdi.

Ushbu yondashuvning markaziy ilmiy ustuni demografik tahlil edi. Ijtimoiy ma'lumotlarni shaklda ko'rsatish Laboratoriyaning eng ko'zga ko'ringan loyihalari, jumladan, 1960-yildagi Tokio ko'rfazi loyihasi, MIT Boston bandargohi loyihasi va 1970-yil Osaka Jahon ko'rgazmasidagi pavilyonlarning asosiy tarkibiy qismiga aylandi. Ma'lumotlarga biriktirilgan bo'lsa-da, talabalarga dinamik o'zgaruvchan shahar doirasidagi arxitekturani tushunish vazifasi yuklatildi. Shaharning ko'p qirrali xususiyatlarini tushunish uchun Tange laboratoriyasi arxitekturani ommaviy axborot vositalari va intizomiy yondashuvlarning kengaytirilgan qatoriga joylashtirish uchun bir qator strategiyalarni ishlab chiqdi. Biologiya va ijtimoiy fanlardan olingan analogiyalardan foydalangan holda, ushbu kengaytirilgan asboblar to'plami hisobotlar, grafiklar, jadvallar, diagrammalar, yangiliklar hisobotlarini o'z ichiga oladi va ommabop auditoriyaga ishni taqdim etishga alohida urg'u beradi.

Pedagogik tajriba sifatida Tange laboratoriyasi yapon me'morchiligiga keng ta'sir ko'rsatdi. Tangening ilmiy analogik tafakkurini tadbiq qilgan va uni to'liq dizayn falsafasi sifatida kengaytirgan metabolizmchilarning merosidir. Guruhning biologiyaga bo'lgan ishtiyoqi, ommaviy axborot vositalaridan innovatsion foydalanishi va 1970-yillar davomida demografik tahlilga doimiy sodiqligi Yaponiyadan tashqaridagi me'morlar avlodlariga ham ta'sir ko'rsatdi.

U zamonaviy arxitekturagacha bo'lgan yapon dizayni va g'arbiy modernizmni sintez qilishga intilgani kabi, Tangening pedagogik hissasi ham sintez hisoblanar edi. Tange laboratoriyasida arxitektura ta'limi fan va dizayn uchrashadigan nuqtaga e'tibor qaratib, talabalarni ushbu aloqani jiddiy tahlil va tajribalar bilan birinchi o'ringa olib chiqishga undadi. Arxitektura amaliyotidan tashqari, Kenzo Tange Massachusets texnologiya institutida mehmon professori, shuningdek Garvard, Yel, Prinston, Vashington universiteti, Illinoys texnologiya instituti, Berklidagi Kaliforniya universitetlarda o'qituvchi bo'lgan.

Kenzo Tange so'ngi kunlarigacha ishladi. 1986-yilda u Yangi Tokio meriyasi majmuasini qayta loyihalashtirdi. U 1990-yillarning o'rtalarida nafaqaga chiqdi va Yaponiya bo'ylab loyihalarda ishladi. 2005-yil 22-martda 91 yoshida vafot etdi.

# BO'LAJAK «TEXNOLOGIYA» FANI O'QITUVCHILARINI TAYYORLASH VA TARBIYALASH QOBILIYATINI BAHOLASH

***Mubinaxon Xakimjon qizi Ikramova*** - *p.f.f.d. (PhD), Qo'qon davlat pedagogika instituti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bo'lajak «Texnologiya» fani o'qituvchilarini tayyorlash va tarbiyalash qobiliyatini baholashga oid ilmiy qarashlar keltirib o'tilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье представлены научные взгляды на оценку способностей к подготовке и воспитанию будущих учителей «Технологии».*

***Abstract:*** *In this article, scientific views on the assessment of the ability to train and educate future teachers of "Texnology" are presented.*

***Kalit so'zlar:*** *texnologiya, muammo, kompetensiya, dolzarb, o'qituvchi, tarbiyalash, qobiliyat, baholash.*

***Ключевые слова:*** *технология, проблема, компетенция, текущий, учитель, обучение, способность, оценка.*

***Keywords:*** *texnology, problem, somretense, surrent, teasher, training, ability, assessment.*

Bo'lajak «Texnologiya» fani o'qituvchilarini tayyorlash va tarbiyalash qobiliyatini baholash muammosi bo'yisha tadqiqotning asosiy maqsadi-talabalarning so'rovnoma natijalarida





kasbiy kompetensiyalarining rivojlanganlik darajalarini o'rganishdan iborat[1]. Bu kasbiy kompetensiyalarni rivojlantirishda hozirgi kunning dolzarb talablaridan biridir. Chunki hozirgi kunda oliy ta'lim muassasalarida qo'llanilayotgan Blum taksonomiyasi asosidagi kredit-modul tizimi asosida o'qish va diplom olish ushun talabalar har bir fandan kredit yig'ishlari zarur. Kredit yig'ish jarayonida esa talabalardan 50% atrofida mustaqil ish talab qilinadi. Bu tabiiyki, talabalar o'z ustlarida ishlashlarini talab qiladi. Zamon o'zgarishi bilan ta'lim tizimidagi raqamli texnologiya bilan bog'liq bo'lgan o'zgarishlar raqamlashtirilgan ta'lim muhitida talabalardan faqatgina fan o'qituvchisi tomonidan beriladigan materiallar bilan cheklanib qolmasdan, sillabuslarda berilayotgan qo'shimcha adabiyotlardan mustaqil ish mavzulari bo'yisha tayyorgarlik ko'rishlarini talab qiladi. Tabiiyki, bu talabalardan-bo'lajak o'qituvchilardan o'sib – rivojlanib borayotgan bozor iqtisodiyoti davrida raqobatbardosh kadrlar bo'lib yetishishlarini talab qiladi.

Ushbu maqsadga erishish ushun biz quyidagi vazifalarni hal qildik:

- adabiyotlarni tahlil qilish va bo'lajak texnologiya fani o'qituvchining kasbiy faoliyatining funksional to'liqligini aniqlash;
- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchining kasbiy faoliyatda kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish va tarbiyalash qobiliyati bo'yisha statistik tadqiqotlar o'tkazildi;
- tadqiqot natijalarini sharhlandi;
- bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini baholashda mezonlarga asoslangan yondashuv asosida tadqiqot natijalarini umumlashtirildi[2].

Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarini tayyorlashda mustaqil ta'limda amalga oshiriladigan ta'lim shakli, balki o'z-o'zini tarbiyalash shakli ilmiy, ommabop ilmiy, o'quv va boshqa adabiyotlarni o'rganish sifatida taqdim etiladigan vositadir. Shunday qilib, o'z-o'zini tarbiyalash yo'li bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilari kasbiy ta'limi ushun maqsadli faoliyatni ta'minlaydi[3].

Yuqorida aytilganlarga asoslanib, kasbiy o'zini-o'zi tarbiyalash — bu bo'lgusi texnologiya fani o'qituvchisining o'z kasbida o'zini namoyon etishga bo'lgan motivatsiyasiga asoslangan va shaxs tomonidan ta'minlangan va professional o'zini-o'zi boshqarish asosida qo'llab-quvvatlanadigan doimiy yo'naltirilgan jarayondir. Individual o'zini o'zi boshqarish deganda biz insonning turli vaziyatlarda, shu jumladan ekstremal vaziyatlarda o'zini yo'qotmaslik qobiliyatini tushunamiz[4].

Biz bo'lajak texnologiya fani o'qituvchisining kasbiy kompetensiyasini raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan samarali foydalanish qobiliyati nuqtayi nazaridan "mezonlarga asoslangan yondashuv" asosida baholadik, bu quyidagi prinsiplar bilan tavsiflanadi: tizimli shaxsiy, faol-antropologik, madaniy-etnopedagogik. Ushbu tamoyillar ta'lim tashkilotining barcha xususiyatlarining o'rnini hisobga olgan holda mezonlarning mazmunini belgilaydi. Bizning fikrimizcha, ushbu yondashuv raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan samarali foydalanish qobiliyatini baholash mezonlari ro'yxatini obyektiv aniqlashga imkon beradi[5].

Tadqiqotning asosiy konseptual qoidalari Qo'qon davlat pedagogika instituti, Jizzax davlat pedagogika universiteti, Termiz davlat pedagogika institutlarida bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlanganligini aniqlash tahlil qilish orqali sinovdan o'tkazildi. Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarining rivojlanganligini aniqlash baholash jarayonining asosiy maqsadi kasbiy pedagogik faoliyatda raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan samarali foydalanish qobiliyatini baholash mezonlari asosida aniqlashdir. Baholash mezoni raqamlashtirilgan ta'lim resurslari orqali yondashuvning raqamli vositalar to'plami bilan amalga oshiriladi.

Raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan foydalanish asosida kasbiy kompetensiyalarning rivojlanganligini mezonlariga asoslangan baholash quyidagi muammolarni hal qiladi: u baholashni obyektiv va shaffof qiladi, bo'lajak o'qituvchiga o'z darajasi shegaralarini baholash imkonini beradi va obyektiv va qo'llab-quvvatlovshi fikr-mulohazalarni beradi. Mezon

1 Qodirov B.E. Elektron axborot ta'lim muhitida o'quvchilarning hunarmandchilikka oid tayanch kompetensiyalarini rivojlantirish metodikasi – Toshkent, 2021.

2 Tohirov O'.O. va boshqalar. Texnologiya 8-sinf o'quvchilari uchun darslik. – T.: Ilm Ziyo, 2019. –155 b.

3 Тхопжевский Д.А. Mehnat ta'limi metodikasi. – Toshkent: O'qituvchi, 1987. – 428 b.

4 Qo'ysinov O.A. Kompetentlikning mohiyati va mantiqiy jihatdan tahlili pedagogik kategoriya sifatida. Nizomiy nomidagi TDPU. Zamonaviy uzluksiz ta'lim muammolari: innovatsiya va istiqbollar. Xalqaro ilmiy konferensiya. 27 aprel. 2018 yil. 10 bet

5 Хутопской А.В. Компететнтностный подход в обучении. Научно–методическое пособие. Издателство Института облазования человека, 2013. – 73 с.

yondashuvida baholashning obyektivligi amaliyot bilan tasdiqlanadi. 1-jadvalda yosh mutaxassislarning tahlili va bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlash amaliyoti keltirilgan[6].

1-jadval

Oliy ta'lim muassasalarida raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan foydalanishda mezonlarga asoslangan yondashuv tamoyillarini amalga oshirishning qiyosiy tavsiflari

| | | |
|---|---|---|
| Raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan foydalanish muhitida mezonlarga asoslangan yondashuv tamoyillarining mazmuni | Bo'lajak texnologiya fani o'qituvchilarining kasbiy kompetensiyalarini rivojlantirish shakllari | Ichki motivasiya va tashqi omillar ta'siri natijasida kasbiy faoliyat natijadorligi |
| Tizim-shaxsiyat prinsipi. Ta'lim jarayonini loyihalash, tashkil etish va amalga oshirish | Bo'lajak o'qituvchilarning fan yuzasidan qobiliyatlari, amaliyotlari | O'quv jarayonida talabalarning ta'lim samaradorligini oshirishda qo'llaniladigan dasturiy ta'minotning yaratilishi |
| Faoliyat (ta'lim jarayonida talabaning bilimlarni o'zlashtirish faoliyati) tamoyili. O'qituvchining kasbiy faoliyatida bilimning amaliy va mavhum nazariy darajalarini va dunyoga munosabatini bog'laydigan tadqiqot, o'zgartirish va amaliy faoliyat shaklida namoyon bo'lishi. | Musobaqalar, Konferensiyalar | Ishtirok etish: kasbiy mahorat tanlovlari, konferensiyalarda nutq so'zlash; ijodiy pedagogik guruhlar, ilmiy loyihalar, uzluksiz ta'lim kurslari va qayta tayyorlash kurslari, mahorat darslarida ishtirok etish va h.k. |
| Madaniyat-etnopedagogik tamoyil. Bo'lajak «Texnologiya» fani o'qituvchisining kasbiy rivojlanishi va uni ijodiy shaxs sifatida shakllantirish shaklida raqamli transformatsiya muhitida raqamli madaniyatning namoyon bo'lishi, etnik muhitning ta'lim imkoniyatlaridan maksimal darajada foydalanish qobiliyatining namoyon bo'lishi. | Loyiha faoliyati | Oliy ma'lumotli insonlar sonini oshirish, raqobatbardosh kadrlarni yetishtirish maqsadida oliy ta'lim muassasalariga bo'lgan ehtiyojni hisobga olgan holda, o'z-o'zini tarbiyalash ushun texnologik qobiliyati va professional dizayn faoliyatining mavjudligi |

Shunday qilib, raqamlashtirilgan ta'lim resurslaridan foydalanish muhitida mezonlarga asoslangan yondashuvdan foydalanish texnologik ta'lim amaliyotini boshqarish sohasida texnologik mexanizmlarni asoslash, yaratish va amalga oshirish imkonini beradi[7].

6 Qo'ysinov O.A. Kompetentli yondashuv asosida bo'lajak kasb ta'limi o'qituvchilarining kasbiy-pedagogik ijodkorligini rivojlantirish. "Mehnat va kasb ta'limi bakalavriat yo'nalishlarida texnik fanlarni o'qitishning dolzarb muammolari" mavzusidagi respublika ilmiy-texnik anjuman materiallari. NamDU. 2019. 28 b

7 Muslimov N.A., Qodirov X.Sh. "Bo'lajak professional o'qituvchilarning kasbiy kompetensiyasini rivojlantirish". Обпазование чепез всю жизн: неппепйвное обпазование в интепесаҳ устачивого пазвития. (2015): 349 b





# СОВРЕМЕННЫЕ ТРЕБОВАНИЯ ПРОФЕССИОНАЛЬНОЙ ПОДГОТОВКИ УЧИТЕЛЕЙ МУЗЫКИ В ШКОЛЕ

**Мукаддас Рискуловна Муминова** - *преподаватель, Джизакский государственный педагогический университет*

***Аннотация:*** *Основной задачей статьи является определение актуальных вопросов музыкальной культуры Узбекистана, изучение современных тенденций и роли музыкального искусства в воспитании молодёжи, тяготение к философско-традиционному содержанию, экспериментирование в музыке. Поиск новых средств музыкальной выразительности и композиционных решений, обмен научной информацией в области композиции, музыковедении, искусства бастакоров, а также истории, теории и практики музыкального искусства. В рамках данной статьи осуществлена попытка исследования вокальных сочинений в творчестве композиторов Узбекистана.*

***Annotatsiya:*** *Maqolaning asosiy vazifalari O'zbekiston musiqiy madaniyatining dolzarb masalalarini, yoshlarni tarbiyalashdagi zamonaviy tendentsiyalar va musiqiy san'atning, falsafiy va an'anaviy tarkibini aniqlash, musiqa darslarni tajriba bilan o'tkazish jarayonlari aks ettirilgan.*

***Abstract:*** *The main objectives of the article is to determine the current issues of the musical culture of Uzbekistan, the study of modern trends and the role of musical art in the education of youth, a philosophical and traditional content, experimentation with the poetic text formation. Search for new means of musical expressiveness and composite decisions, exchange of scientific information in the field of composition, music general, art of bastackers, as well as history, theories and practices of musical art. Within the framework of this article, an attempt was made to study music of composers of Uzbekistan.*

***Ключевые слова:*** *Школа, анализ, философско-традиционное содержание, драматургия, экспериментирование, творческое мышление, молодёжь, формирование.*

***Kalit so'zlar:*** *maktab, tahlil, falsafiy va an'anaviy tarkib, dramaturgiya, tajriba, ijodiy fikrlash, ijodiy fikrlash, yoshlar, shakllantirish.*

***Keywords:*** *school, analysis, philosophical and traditional content, dramaturgy, experimentation, oriental melody, creative thinking, youth, formation.*

С самых первых дней своей независимости Республики Узбекистан Первый президент Узбекистана И.Каримов подчёркивал важность проблем воспитания и образования, и говорил что «Человек, который призван учить, воспитывать других, прежде всего сам должен быть всесторонне развитым человеком. Требования времени таковы, что профессорам и учителям надо, не ограничиваясь обретёнными ими знаниями, тщательно и настойчиво изучать опыт других государств, постичь его суть и затем уже давать уроки своим студентам[1].

Личность музыканта-педагога воспитывается всем тем, что его окружает и с чем он сталкивается в жизни: влиянием среды, семьи, общественных организаций, воздействием педагогов различных дисциплин и профессиональной практикой.

Задача деятельности учителя музыки состоит в том, чтобы ввести ученика в мир искусства, разбудить его творческие способности, вооружить техникой исполнения на каком-либо инструменте, личными словами научить понимать мир искусства и владеть им.

Музыкально-педагогическая деятельность имеет особую структуру, обусловленную, с одной стороны, спецификой музыкального образования, с другой стороны, подчинением общим закономерностям теории деятельности. Специфика музыкально-педагогической деятельности заключается в том, что она решает педагогические задачи средствами музыкального искусства, представляя собой глубокую взаимосвязь педагогики и музыки, а также связана с художественно-творческим началом. Из этого следует, что данная деятельность подразумевает владение широким комплексом как общепедагогических, так и специальных

1 Каримов И.А. Высоко квалифицированных специалисты-стимул прогресса-Т,1995. с-23

способностей.

Музыкально-педагогическая деятельность сочетает в себе педагогическую, хормейстерскую, музыковедческую, музыкально-исполнительскую исследовательскую работу, основанную на умении самостоятельно обобщать и систематизировать полученные знания.

Комплектность, полиструктурность модели учителя музыки подчеркивали в своих исследованиях Б.В.Асафьев, О.А.Апраксина, Л.Г.Арчажникова, Д.Б.Кабалевский, Г.М.Цыпин, Л.Майковская, К.Мухамеджанов. Д.Раджабова, Ф.Халилов и другие[2].

Многопрофильность является особенностью деятельности учителя музыки. Как известно, урок музыки и анализ прослушанного, вопросы историко-теоретического цикла, сольфеджио и т.д. Учитель музыки должен обладать глубокими «объемными» знаниями, широким диапозонам музыкальных специальностей.

Стержнем, определяющим все формы и виды работы учителя-профессионала, является направленность на осуществление задач музыкально-эстетического воспитания средствами музыкально-педагогической деятельности.

При этом в ходе наблюдений ряда исследований (Л.Г.Арчажниковой, Г.М.Цыплина, И.П.Кулясова и др), а также нашей практической деятельности была установлена роль зависимости между процессами развития педагогических и специальных способностей. Во-первых, данная зависимость устанавливается лишь в случае педагогической направленности личности. Во-вторых, отсутствие педагогической направленности и собственно педагогических способностей приводит к тому, что музыкальные способности развиваются не в русле нацеленности на формирование музыкально- педагогического мастерства, а абстрактно.

Акцентируя внимание на требованиях и профессиональной подготовке, следует отметить, что существующая в настоящее время система индивидуальной специальной подготовки учителя музыки (основной инструмент, дирижирование, вокальное пение и др.) сложилась во многом под влиянием аналогичных консерваторских классов. Но, если целью исполнительских факультетов консерваторий является подготовка студента к деятельности не только преподавателя, но и исполнителя, (солиста, концертмейстера), то цель музыкально-педагогических направлений – подготовка учителя музыки для общеобразовательной школы, Поэтому для учителя музыки в школе владение инструментом (или дирижёрской техникой) – лишь одно из средств успеха его будущей деятельности, средство важное, но не единственное.

Если проанализировать урок музыки, составными компонентами которого являются хоровое пение, музыкальная грамота, слушания музыки и вся в не классная работа, то станет ясно, что-исполнительское мастерство является важной частью комплексной подготовки к осуществлению своей профессиональной деятельности в условиях общеобразовательной школы.

Развитие исполнительских качеств в отрыве от педагогических не может рассматриваться как положительное явление. Исполнительская культура учителя должна отвечать, прежде всего, задачам его разносторонней деятельности в школе, как в рамках уроков музыки, так и при проведении разного рода внеклассных занятий и мероприятий.

Исполнительские умения являются одним из важных компонентов будущей многогранной деятельности учителя музыки в школе, который должен грамотно, свободно, ярко и образно представить произведения детской аудитории. Чтобы научить детей и подростков воспринимать, переживать и усваивать высокохудожественную музыку, учитель должен всесторонне овладеть профессиональными традициями исполнительства, реалистической передачей авторского замысла и идейного содержания произведения.

Говоря об исполнительском мастерстве, мы сталкиваемся с проблемой квалификации музыканта исполнительского профиля, с проблемой квалификации учителя музыки. Сама система подготовки учителя музыки для общеобразовательных школ значительно отличается от подготовки музыканта-исполнителя, что выражается, прежде всего, в разной в направленности учебного процесса различных музыкальных в учебных заведениях – таких, как консерватория и музыкально-

2 Янов-Яновская « Говорят музыканты Узбекистана: двадцать лет спустя…» (Музыкальная академия) 2004№с 62.





педагогические направления, где имеются различия в содержании каждого предмета и в различном характере связей между приобретением знаний, умений и навыков во время учебы и применением их в практической деятельности.

Музыкант, окончивший учебное заведение исполнительского профиля, в своей деятельности исполнителя или педагога пользуется все той же системой методов и приемов, полученных им во время учебы.

Деятельность же учителя музыки общеобразовательной школы имеет, прежде всего, психолого-педагогическую направленность, а полученные им знания, навыки и умения трансформируется в соответствии с целями и задачами, стоящими перед музыкальным воспитанием учащегося в общеобразовательной школе. Большое внимание музыке, в частности инструментальной, уделял Алишер Навои. Так, в трактате «Мажелис ун нафоис» («Собрание утонченных») поэт пишет о выдающихся музыкантах, играющих на нескольких инструментах, а одну из глав трактата «Махбуб ул кулуб» (« Возлюбленный сердец») посвящает вопросам вокального и инструментального исполнительства. Музыкальные инструменты рассматриваются здесь с точки зрения их эмоционального воздействия на слушателя[3]

Если для музыканта исполнительского профиля исполнительская интер- претация произведения составляет основную цель, то для учителя музыки художественно яркие, разнообразные по содержанию, форме и стилю произведения ( узбекской народной, профессиональной и композиторской, а также зарубежной и русской музыки), то эти материалы направлены для целенаправленного музыкально-эстетического воспитания учащегося в школе, для воспитания его музыкального восприятия, художественного вкуса, идеала, научить, любить и видеть жизнь, слышать ее в музыке и др. Это является основной целью учителя музыки в общеобразовательной школе.

В формировании музыканта педагогического профиля исполнительские умения являются не самоцелью, а лишь одним из компонентов в комплексной подготовке, где знания, полученные в процессе изучения психолого-педагогических и историко-теоретических дисциплин, используется для широких теоретических обобщений, смелых и логических сопоставлений, яркой и содержательной словесной интерпретации, практически необходимой в работе с детьми.

Инструментальная подготовка учителя музыки имеет огромное значение и свою специфику.

Специфика исполнительской деятельности учителя заключается в следующем: исполнительская деятельность учителя должна быть тесно связана со школой, а репертуар, которым он владеет, должен дополнять и расширять рамки программы уроков музыки.

Степень овладения инструментально-исполнительскими навыками определяется прочностью усвоения знаний и умений и способностью применения их на практике. Основными показателями в данной области являются следующие профессиональные умения и навыки: артистизим, музыкально-художественный вкус, владение процессом исполнения, чувство целого, материализация художественного образа, сформированность и обработанность различных видов техники. Сюда же следует отнести и качества, связанные с самостоятельностью и осознанностью в работе, навыки чтения с листа, транспонирования, аккомпанемента, ансамблевой игры. Таким образом, музыкально-педагогическая деятельность, формирующаяся в инструментальном классе, трактуется как комплекс профессиональных умений и навыков, таких, как эмоциональное исполнение музыкальных произведений (в виде аннотаций). Более подробное рассмотрение специфики учебного процесса в инструментальном классе способствует конкретизации требований, предъявляемых к исполнительской подготовке учителя музыки.

Несмотря на все увеличивающуюся роль технических средств обучения имеет, как уже было сказано, владение инструментом является важнейшим звеном музыкально-педагогической подготовки будущего учителя музыки общеобразовательной школы.

3 Алишер Навои Соч.Т. IX. Тошкент. 1970. С.27-29 Баймухамедова. Н. Навои о музыке//История и современность. Проблемы музыкальной култургой народов Узбекистана, Туркмении и Тажикистана М.192
С 279-385

| Tests | Measurement Unit | Reliability Coefficient | Objectivity | Value of Calculate T | | Sign |
|---|---|---|---|---|---|---|
| | | | | Reliability | Objectivity | |
| Numbered Circles | Second | 0.99 | 0.90 | 12.6 | 5.05 | S |
| Throw the balls into wall and receptors | Degree | 0.83 | 0.90 | 3.64 | 5.5 | |
| Value of tabulate (T) is (2.45) at the significance level (0.05) and freedom degree (7) | | | | | | |

The validity of the content of the tests have been obtained through presentation to the experts and that is through the logical judgment on the existence of the property or attribute or ability to investigate as if it was proposed method of measurement actually measured or not. The stability and objective tests as set out in schedule (2) the value of calculated (T) for the two tests is greater than tabulated value (2.45) at the level of significance (0.05) and the degree of freedom (7) which indicates that it enjoys a high degree of stability and objectivity

1-4 Specific Exercises

Table (3) Show the number of weeks and the specific exercises and times

| Exercises Weeks | Time of single exercises | Time of paired exercises | Time of group exercises | Full exercises time | Intensity | The number of units at week |
|---|---|---|---|---|---|---|
| First | 20 m | 30m | 40m | 90m | Fast performance | Three times at week |
| Second | 20m | 30m | 40m | 90m | | |
| Third | 25m | 35m | 45m | 105m | | |
| Fourth | 25m | 35m | 45m | 105m | | |
| Fifth | 30m | 40m | 50m | 120m | | |
| Sixth | 30m | 40m | 50m | 120m | | |
| Seventh | 35m | 45m | 55m | 135m | | |
| Eighth | 35m | 45m | 55m | 135m | | |

1-5 Statistical:

- Percentage %, Chi-squared Test, Spearman Coefficient, Median.
- Interquartile deviation. Coefficient of Variation. Wilcoxon Test.
- Mann Whitney Test

2. Results & Discussion

The results of MC tests point to there is a development in MC for both group (control and experimental) as shown in table (4, 5, and 6). The improvement that occurs for control group because of effect of original program which prepared by the coach, in addition, the players were very regular in training, this reason lead to MC development. The results also have shown there is improvement for experimental group which are better than control group because of the effect of specific exercises which placed with training program by the coach, these exercises contributed to develop of MC for players.

Specific exercises were regular between intensity and enough rest, they characterized by variety, delight and excitement, and for this reason the players felt with rush to training. The specific exercises are also helping to develop of motor capacities, player has indicated that coordination is connected with a lot of physical features such as, speed, agility, balance and accuracy, the relation among coordination and speed seems with motor performance requirements of the temporal, also the agility, balance, and accuracy are displayed with requirements of the movement of the formalities and spatial.

3. Conclusions. The researchers found that specific exercises had good effect to develop of MC of experimental group for basketball players with ages (15-16) year, and training program which follow up by coach had positive impact to develop of MC of control group, also, the advantage was more for experimental group in develop of MC for junior basketball players.





# MUSIQA SAN'ATI HAMDA MUSIQIY NAZARIY FANLARDA INTERTEKSTUALLIKNING O'RNI VA AHAMIYATI

***Munojat Mashraf qizi Axrorova*** *- o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada musiqa san'atida intertekstuallik nazariyasining namoyon bo'lishi, shuningdek uning imkoniyatlarini musiqiy nazariy va amaliy fanlar kesimida aniqlash, hamda tahlil qilish xususida so'z yuritilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается о проявлении теории интертекстуальности в музыкальном искусстве, а также о выявлении и анализе ее возможностей в области музыкально-теоретических и прикладных наук.*

***Abstract:*** *This article talks about the manifestation of the theory of intertextuality in the art of music, as well as the identification and analysis of its possibilities in the field of musical theoretical and applied sciences.*

***Kalit so'zlar:*** *intertekstuallik, kompozitorlik, matn, janr, iqtibos, monodiya, ko'povozlilik, musiqa.*

***Ключевые слова:*** *интертекстуальность, композиция, текст, жанр, цитата, монодия, полифония, музыка.*

***Keywords:*** *intertextuality, composition, text, genre, quotation, monodia, polyphony, music.*

Musiqa san'ati hamda musiqaga oid bir qator sohalar musiqashunos olimlar va tadqiqotchilar tomonidan uzoq yillar davomida o'rganib kelinmoqda. Shu kabi izlanishlar qatorida intertekstuallik nazariyasi musiqa sohasiga, shuningdek musiqiy fanlarga ta'sirini tahlil qilish va o'rganish hali keng ko'lamda amalga oshirilmaganligini guvohi bo'lishimiz mumkin.

Intertekstualizm nazariyasi, asrlar tubida ildiz otgan polistilistika nazariyasi shuningdek, o'rta asrlar sxolastikasi (diniy dunyoqarashni nazariy asoslashga intiluvchi diniy falsafa) va Yevropa romantizmi davri falsafasi bilan bevosita bog'liqdir[1]. "Intertekstuallik" hodisasi uchun qadimgi madaniyat (Suqrot, Aflotun) asosida o'z an'analarini olib boruvchi, matnning yashirin ma'nosi, ya'ni kinoyaning metodologik tarixi muhim ahamiyatga ega hisoblanadi.

Intertekstuallik sohasi bir qator tushunchalar va hodisalar qamrab olgan bo'lib, ular orasida iqtiboslar alohida ajralib turadi. Matnda ishlatilgan iqtiboslarning vazifalari ikkita asosiy maqsad shaklida umumlashtirilishi mumkin, ya'ni: matnga ma'lum bir qiyofa berish yoki qahramon obrazini yaratish. Iqtibos har doim ham aniq keltirilmaydi, u yashirin, noma'lum yoki avtomatik ravishda berilishi mumkin. Bu madaniy kodlarning, formulalarning aksi sifatida, madaniy ma'nolarning cheksiz chuqurligini ko'rsatadigan hayolning erkin tasviriy vositalaridir va bunda ong osti, xotira, tarixiy ong kabi tushunchalar kuchga kiradi[2].

Musiqa san'ati, musiqiy nazariy fanlar, shuningdek o'zbek kompozitorlari ijodini intertekst nazariyasi asosida tahlil qilish, yangicha imkoniyatlarni yaratishga yordam beradi. XX asr oxirlari musiqa san'atida ham ushbu nazariya o'z ahamiyatini topa boshladi: dastlab musiqiy drama janrida, so'ngra bir qator operalar – "Layli va Majnun", "Farhod va Shirin" kabilarni misol keltirib o'tish mumkin[3]. Bu borada taniqli musiqashunos M.Aranovskiyning yangi "Musiqiy matn: tuzilish va xususiyatlar" nomli monografiyasini "tekst muammosi musiqa ilmi uchun an'anaviy emas – u ko'proq lingvistika, adabiyotshunoslik sohalari uchun xosdir, uning dolzarbligi esa tobora kuchayib bormoqda» kabi fikr bilan boshlab bergan[4].

Intertekstuallik nazariyasi adabiyot va

1 Воротынцева Л.А. Явление интертекстуальности в музыкальном искусстве. М., 2008, 33-бет
2 Морева Е.А. Интертекстуальность в практике музыкальной композиции. М., 2016, 41-бет
3 Янов-Яновская. Н.С. Теория интертекста в ее проекции на восточную музыку. Ташкент, 2019, 3-бет
4 Арановский М.Г. Музыкальный текст: структура и свойства. М., 2008, 5-бет

koʻplab sanʼat janrlarning nazariy va amaliy muammolariga javob sifatida vujudga kelgan.

“Zamonaviy sheʼriyat nafaqat intertekst muammosiga markaziy oʻrin ajratib qolmay, adabiyotda tarixiy evolyutsiya jarayonining boshlanishi sifatida sheʼriy matnning tuzilish taʼrifini ham matnlararo asosda joylashtirib, intertekstual tamoyilni madaniy davrlar boshlanishida muhim boʻgʻin sifatida belgilab berdi”[5].

Intertekstuallik tamoyili turli darajalarda namoyon boʻladi. Shu qatorda janr tushunchasi ham katta ahamiyatga ega. M.M.Baxtin: «Janr har doim bir xil emas; bir vaqtning oʻzida ham eski va ham yangi boʻlishi mumkin. U turli bosqichlarda va har bir alohida asarda jonlanib, yangilanadi. Janr hozirda yashaydi, lekin har doim oʻtmishini va boshlanishini esda saqlaydi. Shuning uchun ham janr uzluksiz rivojlanish birligini taʼminlashga qodir tushunchadir» kabi fikrni keltirib oʻtadi[6].

Bu kabi muammolar anʼanaviy sharq musiqasida ham oʻz tasdigʻini topa boshladi. Sharq musiqasi oʻzining kanonikligi bilan intertekstuallikni aks etadi. Bu borada qiziqarli kuzatishlar musiqashunos A.Azimovaning ishlarida keltirilgan. U musiqiy tilda universallik va individuallik muammolarini ilgari surib, muvaffaqiyatli uchlik tizimini taklif etadi, yaʼni bular anʼana - formula - ichki aloqalari muhim hisoblangan matndir[7].

Odatda biz yangi kompozitorlik janrlarining shakllanishiga, maʼlum janrning oʻzlashtirilish jarayoni sifatida qaraymiz. Intertekst nazariyasi ushbu jarayonni yanada aniqroq talqin qilishga imkon yaratib, uning dialogik asosiga eʼtibor qaratadi. Bu jarayon - ikki madaniyat va matnning ijodiy suhbati sifatida tushunishga imkon beradigan va u har ikkala urf-odatlarni aks ettirgan (oʻzga-oʻzlashtirilgan va oʻzining-mahalliy) kompozitorlik dialogidir. Kompozitor, asarni yaratishda bir tomondan, ham anʼanaviy Yevropa janrlari asosini, ham oʻz madaniyatining musiqiy va poetik anʼanalar yigʻindilaridan foydalanadi. Bu xususiyatlarning aks ettirilishi esa, aynan asarda intertekstuallikni vujudga keltiradi.

Intertekstual munosabatlar turli xildagi qatlamlar va tasviriy butunlik darajalarida aks etadi, bularga: syujetli-obrazlilik, kompozitsion-strukturaviylik, musiqiy til kabilarni misol keltirib oʻtish mumkin. Intertekst “janrli-uslub gʻoyasi” (M.Aranovskiy atamasi) sifatida oʻzini aniq namoyon qiladi. Ikki xil musiqiy tizimning (Yevropa polifoniyasi - Sharq monodiyasi) oʻzaro munosabatida dastlab janrli uslub aks ettiriladi. Intertekst sifatida tasviriy organizmning turli darajalari (obraz, sujet, matn fragmenti, metr, ritm, intonatsiya, sanʼatning boshqa turlar bilan aloqalar) ham namoyish etilishi mumkin[8].

Intertekstuallik ikki anʼanaga — monodiklik va koʻpovozlikka asoslanadi. Oʻzida yangi janrlarni oʻzlashtirgan, bir biriga qarama-qarshi boʻlgan ikki yoʻnalish haqida aytib oʻtish joiz: “oʻzimiz”ning uslubdan “oʻzga” uslub tomon va aksincha – “oʻzga” uslubidan “oʻzimiz”nikiga.

Intertekst nazariyasi, yuqorida aytib oʻtganimizdek, har xil darajadagi badiiy matnlarning oʻzaro aloqasini nazarda tutadi: uslub, janr, til va boshqalar shular jumlasidandir. Bu tizimlar monodiya va koʻp ovozlilik dialoglarining oʻzaro taʼsiridir.

Albatta, milliy kompozitorlik sanʼatining yaratilishi va shakllanishining boshlangʻich jarayoni bosqichma-bosqich, asta-sekin yangi musiqiy oʻlchamlarni oʻzlashtira boshladi. Avvalo, yangi makon koordinata — vertikalning, mato chuqurligining ahamiyati kengayib, faktura va garmoniyada intonatsion oʻziga xos xususiyatlar paydo boʻla boshladi[9]. Keyingi bosqichda ular musiqiy vaqtni oʻzgaruvchan, baʼzan ziddiyatli hissiy-obrazli siljishlarga toʻyingan voqea-hodisalar sifatida qabul qilishni oʻz ijodida qoʻllay boshlashdi (sonata dramaturgiyasining oʻzlashtirishi). Va nihoyat, maʼlum bir ijodiy kamolotga erishgandan soʻng, kompozitorlar oʻzlashtirilgan fazoviy parametrlarda (polifonik toʻqima) uzoq muddatli vaqt oraligʻini tiklashga muvaffaq boʻldi[10].

Aytish mumkinki, aynan intertekst Sharq va Yevropa janrlari oʻrtasida teng

5 Дъячкова Л. Проблемы интертекста в художественной системе музыкального произведения. //Интерпретация музыкального произвединия в контексте кульътури// М., 2004. 42-бет

6 Лобанова М. Музыкальный жанр и стиль. М., 2004, 163-бет

7 Азимова А.Н. Традиционный музыкальный язык узбекского, каракалпакского и уйгурского народа. Т., 2008. 81-бет

8 Дьячкова Л. Проблемы интертекста в художественной системе музыкального произведения. //Интерпретация музыкального произведения в контексте культуры// М., 2012. 18-бет.

9 Michael L. Klein. Intertextuality in Western Art Music. Indiana University Press. 2005, 96-bet

10 Zengin M. An Introduction to intertextuality as a literary theory. Journal of Social sciences. 2016, 312-bet





huquqli dialog sifatida paydo boʻladi. Sharq va Yevropa janrlari dialogi birlashtirilib, ikki janrga oid kompozisiyalar yaratila boshlandi, bularga maqom-simfoniya, maqom-konsert, simfoniya-gʻazal, opera-dostan va boshqalarni misol keltirib oʻtish mumkin. Bu kabi asarlarda ikkala janrning ham har tomonlama rivojlanish jarayoni kuzatiladi. Odatdagi sifat oʻlchovida (meditatsiya, falsafiy konsentratsiya) va yangi vertikal hajmlilikka ega boʻlgan ushbu jarayon “makom simfoniyasi”ni yorqin namoyish etadi. Aynan shu turdagi kompozitorlik ijodi doirasida anʼanaviy monodik janrlarning individuallashuvi, moslashuvi yuz beradi. Bir qator oʻzbek kompozitorlari Sayfi Jalil, Botir Umidjonov, Bahrullo Lutfullayev, Mustafo Bafoyev kabi ijodkorlar Mutal Burxanov uslubiga tayanib ijod qilishgan yaʼni, ularning asarlarida milliylik ruhining kuchliligi sezilib turadi. Kompozitorlar Toʻlqin Qurbonov, Mirsodiq Tojiyev, Mirxalil Maxmudov, Nuriddin G'iyosovlar esa Ikrom Akbarovning uslubiga tayanishdi, ularning asarlarida asosan anʼanaviy Yevropa shakllari ustunlik qilganligini guvohi boʻlishimiz mumkin. Hatto ijodiy faoliyatlarida ham birinchidan vokal janrlarining ustunligi, keyin esa instrumental va simfonik janrlarga eʼtibor qaratilganligini guvohi boʻlamiz.

Xulosa sifatida shuni taʼkidlab oʻtish mumkinki, musiqa sanʼatida kompozitorlik ijodiyotining boyligi, asosan intertekstual yoʻnalishlarning xilma-xilligi va kengligi bilan chambarchas bogʻliq va aynan ushbu nazariyaning musiqiy fanlar kesimida oʻrganish sohaning yangi qirralarini ochishga katta xizmat qiladi. Shu jumladan, oʻzbek musiqa sanʼati ham bundan mustasno emas. Ikki xil badiiy tizim, Sharq monodiyasi va yevropa koʻpovozligining birlashuvi intertekstuallikni yuzaga keltirib yarim asrdan koʻproq vaqt davomida oʻzbek kompozitorlik ijodi, turli xil obyektlarni oʻz ichiga olgan keng intertekstual olamni qamrab oldi. Intertekstual tamoyilga murojaat qilish, oʻzbek kompozitorlik ijodining ichki hilma-xilligi, janrli-uslub shakllarining boyligi, syujetlari, obrazli-maʼnoviy jihatlarini yanada yorqinroq aks etishga yordam berdi.

# INSON TARAQQIYOTI VA BARQAROR RIVOJLANISH: BOGʻLIQLIK VA MUAMMOLAR

***Baxti Murodovna Ochilova*** - *proffesor, Jizzax davlat pedagogika unversiteti*
***Iskandar Botir oʻgʻli Amanov*** - *talaba, Jizzax davlat pedagogika unversiteti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanishning oʻzaro aloqadorligi, barqaror rivojlanishda qashshoqlikni bartaraf etish masalalarini oʻrganishga bagʻishlangan.*

***Аннотация:*** *Данная статья посвящена изучению взаимосвязи человеческого развития и устойчивого развития, а также ликвидации бедности в устойчивом развитии.*

***Abstract:*** *This article is devoted to the study of the relationship between human development and sustainable development, as well as the elimination of poverty in sustainable development.*

***Kalit soʻzlar:*** *inson rivojlanishi, inson tarakkiyoti indeksi, salomatlik va uzoq umr koʻrish, barqaror rivojlanish, ijtimoiy taraqqiyot, qashshokning barcha shakllariga barham berish.*

***Ключевые слова:*** *человеческое развитие, индекс человеческого развития, здоровье и долголетие, устойчивое развитие, социальное развитие, искоренение всех форм бедности.*

***Keywords:*** *human development, human development index, health and longevity, sustainable development, social development, eradication of all forms of poverty.*

Jahonda insonni barqaror rivojlantirishni taʼminlash tendensiyalarini aniqlash, uni milliy va halqaro miqyosda baholash, nazorat qilish tizimini yaratish dunyo hamjamiyati uchun kelajak istiqbolini belgilovchi hayotiy zaruriyat sifatida baholanmoqda. Bu esa turli yondashuvlarni rivojlanishiga sabab boʻlmoqda. Yondashuvlar turlicha boʻlishiga qaramasdan, eng asosiysi - ijtimoiy iqtisodiyotning strategiyasini ishlab chiqish muhim vazifa boʻlib qolmoqda. Mazkur strategiya ijtimoiy muammolar – ish bilan bandlikni oshirish, kambagʻallik darajasini kamaytirish, taʼlim sifati va darajasini oshirish kabi mexanizmlarni yaratishni nazariy va amaliy jihatdan dolzarbligini koʻrsatmoqda.

Shu nuqtai nazardan ham dunyoning yetakchi tashkilotlari hamda olimlar tomonidan inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanish strategik maqsadlarini amalga oshirish, aholi turmush darajasi va turmush sifatini ko'tarishga oid tadqiqotlar katta ahamiyat kasb etmoqda.

Iqtisodchi tadqiqotchilar A.Smit va E.Kelly fikriga ko'ra "Kelajakdagi iqtisodiy va strategik ustunlik mehnat bozorda eng yaxshi hamda iqtidorli shaxslarni jalb qila oladigan, rivojlantiradigan va saqlab qola oladigan tashkilotlar bilan bo'ladi"[1]. Inson uchun munosib shart-sharoit yaratish, huquqlarini kafolatlash, qobiliyatlarini ro'yobga chiqaraish kabi umuminsoniy g'oyalar Birlashgan Millatlar Tashkiloti Rivojlanish dasturining ekspertlar guruhlari tomonidan birlashtirilib, inson taraqqiyotiga konseptual yondashuvni shakllanishiga zamin bo'ldi. Rivojlanishning umumiy nazariyasiga ular tomonidan tub jihatdan yangicha yondashuv birinchi marta Birlashgan Millatlar Tashkilotining 1990-yilgi "Inson taraqqiyoti" to'g'risidagi global ma'ruzasida o'z ifodasini topgan inson taraqqiyotining nazariy-konseptual asosini yaratilgan. Bu haqda taniqli fransuz iqtisodchisi, Nobel mukofotining laureati M.Alle "demokratik va insonparvar jamiyatda oliy maqsad va diqqat markazi davlat emas, balki insondir"[2].

Binobarin, BMT Bosh Assambleyasi tomonidan 1948-yilda qabul qilingan Inson huquqlari umumjaxon deklaratsiyasining 25-moddasida quyidagilar qayd qilingan: "Har bir inson o'zining hamda oilasining salomatligi va farovonligini ta'minlash uchun zarur bo'lgan turmush darajasiga ega bo'lish, jumladan kiyim-kechak, oziq-ovqat, tibbiy xizmat va zarur ijtimoiy xizmatga ega bo'lishga hamda ishsizlik, kasallik, nogironlik, bevalik, qarilik yoki 230 unga bog'liq bo'lmagan sharoitlarga ko'ra tirikchilik uchun mablag' bo'lmay qolgan boshqa hollarda ta'minlanish huquqiga ega"[3].

BMT rivojlanish dasturining ta'rificha: "Insonni rivojlantirish – odamlarni kengroq tanlash imkoniyati bilan ta'minlash jarayonidir. Bunday tanlov cheksiz bo'lishi va vaqt o'tishi bilan o'zgarishi prinsipial axamiyatga egadir. Biroq rivojlanishning barcha darajalarida uzoq va sog'lom xayot kechirish, bilimlarni egallash va munosib turmush kechirish uchun zarur bo'lgan resurslardan foydalanish imkoniyatlari insonni rivojlantirishning asosiy moxiyatidir. Agar insonda bunday asosiy tanlov bo'lmasa, u boshqa imkoniyatlardan ham foydalana olmaydi"[4]. Mazkur ta'rifdan kelib chiqilsa, inson taraqqiyoti nafaqat iqtisodiy o'sishni anglatadi balki bu "odamlarning imkoniyatlarini kengaytirish jarayoni" bo'lib bu imkoniyatlar: uzoq va sog'lom hayot kechirish, bilim olish, munosib turmush darajasidan bahramand bo'lish kabilardir.

Inson taraqqiyoti konsepsiyasi ilk marotaba 1990-yilda Birlashgan millatlar tashkilotining taraqqiyot dasturining inson taraqqiyotiga bag'ishlangan ma'ruzasida keng tahlil qilindi. Unga ko'ra, taraqqiyotning asosiy maqsadi insonlarni keng qamrovli tanlash imkoniyati bilan ta'minlashga qaratilgan bo'lishi lozim. Odamlarning sifatli ta'lim olishga erishishi, teng ravishda munosib ish o'rniga va salomatligini asrash uchun yetarli daromadga ega bo'lishi hamda malakali tibbiy xizmatdan foydalana olishi inson taraqqiyotining qay darajadaligini belgilab beradigan mezonlar hisoblanadi. Ushbu konsepsiyani vujudga kelishiga hind iqtisodchisi, 1998-yilgi Nobel mukofoti laureati Amartya Kumar Sen va insonni rivojlantirish ma'ruzasining asochisi, "Iqtisodiy rejalashtirish strategiyasi", "Insonni rivojlantirish to'g'risida mulohazalar", "Rivojlantirish maqsadlarida hamkorlik uchun yangi asoslar" asarlarining muallifi Mahbub ul-Haq katta hissa qo'shishdi. Mahbub ul-Haqning ta'kidlashicha, "Insonni rivojlantirish konsepsiyasi bugungi kunda eng yaxlit rivojlanish modeli hisoblanadi. U iqtisodiy o'sish, ijtimoiy investitsiyalar, odamlar imkoniyatlarini kengaytirish, asosiy ehtiyojlarni qondirish va ijtimoiy himoya tizimini tashkil etish, siyosiy va madaniy erkinliklar hamda inson hayoti barcha boshqa sohalarini qamrab oladigan rivojlanishning barcha masalalarini mujassamlashtirgan. U tor ma'nodagi texnokratik yoki haddan tashqari falsafiy konsepsiya emas. U hayotni aks ettiradi"[5].

Inson taraqqiyoti konsepsiyasini dunyo miqyosida qo'llashning butun davri davomida muayyan mamlakatdagi inson taraqqiyoti darajasini ifodalovchi va ularni boshqa davlatlardagi holat bilan taqqoslashga imkon beruvchi ko'rsatkichlar ishlab chiqilgan. Asosiy ko'rsatkich sifatida "Inson taraqqiyoti indeksi" (Human Development Index – HDI) qabul qilingan. Bunga ko'ra:

salomatlik va uzoq umr ko'rish (umr

1 Добрынин А.И, Дялатов С.А., Сыренова Е.Д. "Человеческий капитал в транзитивной экономики" – СПб.:Наука. 1999 – С.23.
2 Алле М. Экономика как наука / Пер. с франц. - М .: Наука для общества, РГГУ, 1995. - С . 15.
3 Inson huquqlari bo'yicha xalqaro shartnomalar. – T.: Adolat, 2004. – B.35.
4 ПРООН. Доклад о человеческом развитии за 1990 г. //http: //www.undp.org
5 Qarang: Inson taraqqiyoti. T.: Iqtisodiyot,2016. – B.137.





davomiyligi);

ta'lim sifati va darajasi (ta'lim olish davomiyligi);

munosib va farovon hayot kechirish darajasi (aholi jon boshiga yalpi milliy

daromad) muhim o'lchovlar hisoblanadi.

Bundan tashqari, muayyan mamlakatda inson taraqqiyoti darajasini o'lchashda va davlatlararo taqqoslashda "Tengsizlikni hisobga olgan holda inson taraqqiyoti indeksi" (Inequality-adjusted Human Development Index – IHDI), "Gender rivojlanishi indeksi" (Gender Development Index – GDI)hamda "Gender tengsizligi indeksi" (Gender InequalityIndex-GII) kabi ko'rsatkichlar ham qo'llaniladi[6].

| Inson taraqqiyoti guruhi | Inson taraqqiyoti darajasi | Umr ko'rish davomiyligi, yil | Tayanch ta'lim-ning o'rtacha davri, yil | Ta'limning davomiyligi, yil | Aholi jon boshiga to'g'ri keladigan YaMD ($) |
|---|---|---|---|---|---|
| Juda yuqori inson taraqqiyoti | 0,890 | 80,2 | 11,7 | 16,3 | 40046 |
| Yuqori inson taraqqiyoti | 0,735 | 74,5 | 8,1 | 13,4 | 13231 |
| O'rtacha inson taraqqiyoti | 0,614 | 67,9 | 5,5 | 11,7 | 5960 |
| Kichik inson taraqqiyoti | 0,493 | 59,4 | 4,2 | 9,0 | 2904 |

"O'zbekiston Respublikasini 2030-yilga qadar ijtimoiy-iqtisodiy kompleks rivojlantirish konsepsiyasi" loyihasida mamlakat Inson kamoloti (taraqqiyoti) indeksi reytingini 105-o'rindan (2018-yilgi hisobot bo'yicha) 40-o'ringa ko'tarish prognoz qilinmoqda. BMT Taraqqiyot dasturining 2019-yil dekabr oyida e'lon qilingan hisobotida O'zbekiston ushbu indeks reytingida 108-o'rinni egalladi. Bu degani, yaqin 10 yilda respublika mazkur reytingda 108-o'rindan 40-o'ringa, ya'ni 68 pog'onaga ko'tarilishi kerak[7].

O'zbekistonda insonni rivojlantirish milliy maqsadlariga erishishning tashkiliy-huquqiy, iqtisodiy va ijtimoiy asoslarini yaratish choralari ko'rildi. Milliy maqsadlarning yo'nalishlari bo'yicha 800 dan ortiq qonunlar va normativ-huquqiy hujjatlar qabul qilindi. Mamlakat parlamenti tomonidan 100 dan ortiq xalqaro shartnomalar, shu jumladan BMTning inson huquqlari va erkinliklariga oid oltita hujjati ratifikatsiya qilindi. Harakatlar strategiyasi doirasida o'tgan davr mobaynida davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi. "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimida yordamga muhtoj ayollar, yoshlar va nogironligi bo'lgan shaxslar bo'yicha alohida ma'lumotlar bazasi yaratildi, jumladan "Temir daftar", "Yoshlar daftari" va "Ayollar daftari"ni "Ijtimoiy himoya yagona reestri" bilan integratsiya qilish vazifalari belgilandi. 2022-yil 28-yanvarda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022-2026-yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi farmonida inson qadrini yuksaltirish va erkin fuqarolik jamiyatini yanada rivojlantirish orqali xalqparvar davlat barpo etish; milliy iqtisodiyotni rivojlantirish, uning o'sish sur'atlarini zamon talablari darajasida ta'minlash; adolatli ijtimoiy siyosat yuritish, inson kapitalini rivojlantirish; ma'naviy taraqqiyotni ta'minlash, ushbu sohani tubdan isloh etish va yangi bosqichga olib chiqish kabi vazifalar belgilandi.

Barqaror rivojlanish vazifalari inson taraqqiyoti konsepsiyasi bilan hamohangdir. Birlashgan Millatlar Tashkiloti 2015-yilda 2030-yilga kadar amalga oshirishga muljallangan "Barkaror rivojlanish maksadlari" dasturi (BRM) kelajakdagi xalqaro hamkorlik uchun maqsadlar majmuasi hisoblanadi. Yangi maqsadlar va yangi vazifalar kompleks va ajralmas xarakterga ega bo'lib, uning markazida barqaror rivojlanishning uch tamoyili – iqtisodiy o'sish, ijtimoiy taraqqiyot va atrof-muhit muhofazasini chambarchas bog'lovchi va barchani, ayniqsa ayollar, bolalar, yoshlar va kelajak avlodningfarovonligini ta'minlashga qaratilgan 17 ta barqaror rivojlanish maqsadlari va ularga biriktirilgan 169 ta vazifa mavjud. 1-maqsad "O'ta qashshoqlikka barham berish", 2-maqsad "Ochlikka barham berish", 3-maqsad "Sog'lik va farovonlik", 4-maqsad "Sifatli ta'lim", 5-maqsad "Gender tengligi", 6-maqsad "Toza suv va sanitariya", 7-maqsad "Arzon va toza energiya", 8-maqsad "Munosib ish o'rinlari va iqtisodiy o'sish", 9-maqsad "Sanoatlashtirish, innovatsiya va infratuzilma", 10-maqsad "Tengsizlikni kamaytirish", 11-maqsad "Barqaror shaharlar va aholi yashash joylari" 12-maqsad "Mas'uliyatli iste'mol va ishlab chiqarish", 13-maqsad "Iqlim o'zgarishiga qarshi kurashish", 14-maqsad "Dengiz ekotizimlarini asrash",15-maqsad "Dengiz ekotizimlarini asrash", 16-maqsad "Tinchlik,

6 https://www.uzanalytics.com/jamiyat/6363/)
7 https://www.uzanalytics.com/jamiyat/6363/).

adolat va samarali boshqaruv", 17-maqsad "Barqaror rivojlanish yoʻlida hamkorlik"dir.

1-maqsadning mohiyati 2030-yilgacha qashshokning barcha shakllariga barham berishdan iborat. Nima uchun bu muhim hisoblanadi? Qashshoqlik barqaror rivojlanish yoʻlidagi global muammodir. Inson qashshoq boʻlsa bugun va ertangi kunga ishonchi boʻlmaydi, real dunyodagi voqealarni toʻliq anlamaydi, ilmu tafakkur, mehnat, salohiyat bilan dunyoni boshqarashi mumkinligini tushunmaydi, jamiyat rivojlanishidagi daxldorlik yuzaga kelmaydi. Shuning uchun jahonda qashshoqlikni tugatish, inson kapitali va ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish istiqbollarini yaxshilash ijtimoiy siyosat darajasiga koʻtarilgan. BMT taʼrifiga koʻra, qashshoqlik – insonning hayot kechirishi uchun zarur boʻlgan daromad va resurslar yetishmasligi, bundan tashqari, ochlik va toʻyib ovqatlanmaslik, sogʻliqni saqlash, ta'lim yoki boshqa asosiy xizmatlardan foydalanishda cheklovlarning mavjudligi, turar joyning yoʻqligi, xavfli tabiiy va texnogen muhitda hamda ijtimoiy tengsizlik sharoitida yashashiga nisbatan aytiladi (BMTning "Ijtimoiy himoya borasida yuqori darajadagi Butunjahon sammiti"dan). Baʼzi mutaxassislar tomonidan yaxshi uy-joy etishmasligi, ta'lim olish imkoniyati yoʻqligi yoki tibbiy yordamga ega boʻlmaslik ham qashshoqlik holati sifatida qaraladi.

Dunyoda 836 million kishi hanuzgacha oʻta qashshoqlikda yashab kelmoqda. Janubiy Osiyo va Sahroi Kabirdan janubgacha boʻlgan Afrika mamlakatlari aholisining aksar qismi bir kunda 1,90 AQSh dollaridan kam mablagʻ oladi. Bu kishilar dunyo boʻyicha oʻta qashshoqlikda kun kechirayotgan jami odamlarning 70 foizini tashkil etadi. Daromadi oʻrtachadan kam boʻlgan mamlakatlar, jumladan, Hindiston, Indoneziya, Xitoy, Nigeriya aholisi soni nochorlik chegarasi ortida yashayotgan barcha kishilarning taxminan yarmiga teng. Biroq ushbu holat rivojlangan mamlakatlarga ham aloqador. Hozirgi kunda jahonning eng badavlat mamlakatlarida 30 milliondan ziyod bola nochorlik chegarasi ortida yashamoqda. Qashshoqlik (kambagallik) darajasi Jaxon Bankining xisob kitobi boʻicha qashshoq davlatlarda va rivojlangan mamlakatlarda turlicha oʻlchanadi. Shuni ham qayd etish kerakki vaqt oʻtishi bilan bu chegara ham oʻzgarib boradi. Mazkur bankning hisob-kitoblari boʻyicha kambagʻallikning oʻrta chegarasi 3,2 dollar, oʻrta va yuqori chegarasi 5,5 va 21,7 dollar daromadlarga ega davlatlar belgilangan. Bunday tabaqalanish shu davlatlar aholisining farovonlik darajasiga bogʻliq. Jahon banki "kambagʻallikning xalqaro koʻrsatkichi" tushunchasini toʻldiradigan daromadlar boʻyicha kambagʻallik tasnifini kiritdi. Bu holda asosiy yondashuv bir xil - fuqarolarning daromad darajasi toʻrtta guruhdan biriga kiradigan mamlakatlardagi kambagʻallik milliy chegarasining qiymatiga asoslanadi: kam daromadli mamlakatlar (yiliga bir kishiga 1035 dollar yoki undan kam), past-oʻrta daromad (yiliga 1036–4045 dollar), oʻrtadan yuqori darajadagi daromad (yiliga 4046–12535 dollar) va yuqori daromad (yiliga 12 536 dollar yoki undan koʻp). Oʻzbekiston past-oʻrta daromadli mamlakat guruhiga kiradi[8].

Oʻzbekiston davlati qissa davrda kambagallikdan qutilish rejasini ishlab chiqdi va buni muvoffaqiyat bilan amalga oshirmoqda. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 26-martda "Iqtisodiyotni rivojlantirish va kambagʻallikni qisqartirishga oid Davlat siyosatini tubdan yangilash chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi PF-5975-sonli farmonida kambagʻallikani qisqartirish borasida aniq vazifalar belgilandi. Xususan, iqtisodiy oʻsishning inklyuzivligini taʼminlash, davlat boshqaruvi organlari, nodavlat notijorat tashkilotlari, jamoat tashkilotlari hamda xalqaro moliya institutlari va xorijiy hukumat moliya tashkilotlari bilan hamkorlikda kambagʻallikni qisqartirish boʻyicha strategiya va dasturlarni ishlab chiqish, amalga oshirish va muvofiqlashtirish; kambagʻallikni qisqartirishning aniq dastak va mexanizmlarini ishlab chiqish, xorijiy tajribani inobatga olgan holda kambagʻallik darajasini aniqlash mezonlari va baholash uslubiyatini, ijtimoiy taʼminotning minimal standartlari va meʼyoriy asoslarini ishlab chiqish va joriy etish; barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarga erishish chora-tadbirlarini amalga oshirish, yashash minimumi va minimal isteʼmol savatini hisoblash metodologiyasini ishlab chiqish hamda aholi daromadlari tabaqalashuvini oʻrganish boʻyicha tizimli ishlarni olib borish hamda ularning davlat maqsadli dasturlari bilan oʻzaro muvofiqligini taʼminlash[9].

Shuningdek, davlat rahbarining 2020-yil 8-iyunda "Tadbirkorlik faoliyati va oʻzini oʻzi band qilishni davlat tomonidan tartibga solishni soddalashtirish chora-tadbirlari toʻgʻrisida"gi

8 https://www.gazeta.uz/uz/2020/12/02/society/.

9 https://lex.uz/docs/4776669.





4742-sonli karorida, 2020-yil 11-avgustda "Kambagʻal va ishsiz fuqarolarni tadbirkorlikka jalb qilish, ularning mexnat faolligini oshirish va kasb-xunarga oʻqitishga qaratilgan xamda aholi bandligini taʼminlashga oid qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 4804-sonli karorlarida koʻplab vazifalar belgilab berildi xamda kambagʻallikni qiskartirish boʻyicha yangi yoʻnalishlar shakllantirildi. Jumladan, Iqtisodiyot va sanoat vazirligi Iqtisodiy taraqqiyot va kambagʻallikni qisqartirish vazirligi qilib qayta tashkil etilishi ushbu yunalishdagi islohotlarning yangi bosqichini boshlab berdi. 2020-yil 18-may kungi 4716-son qaroriga asosan tomorqa yer egalariga subsiyadiyalar ajratilishi boshlandi.

2021-yil 28-aprelda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Moddiy yordam va koʻmakka muhtoj oilalarni, xotin-qizlar va yoshlarni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida"gi 250-son Qarori qabul qilindi. Qarorga koʻra ijtimoiy ahvoli va turmush sharoiti ogʻir hamda sektor rahbarlari tomonidan alohida nazoratga olingan oilalarni qayd etish, muammolarini aniqlash, bartaraf etish va nazoratini olib borish boʻyicha "Temir daftar", xotin-qizlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha "Ayollar daftari", yoshlar muammolarini tizimli ravishda hal etish va ularni ijtimoiy qoʻllab-quvvatlash boʻyicha "Yoshlar daftari" shakllantirildi. Oʻtgan davr mobaynida "Temir daftar"ga 594,9 ming oila va ularning 2,5 million nafar aʼzosi, shundan 659,1 ming nafar mehnatga layoqatli ishsiz oila aʼzolari kiritildi. Vaqtinchalik tartib asosida "Temir daftar"ga kiritilgan oilalarning 654,6 ming nafar ishsiz aʼzolari bandligi taʼminlash orqali 543,3 ming oila (91 foiz) roʻyxatdan chiqarildi. "Temir daftar", "Ayollar daftari" va "Yoshlar daftari" uchun 5 milliard 313 million soʻm yoʻnaltirildi.

2021-yil 27-avgustda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "Minimal isteʼmol xarajatlari qiymatini hisoblash tartibini amaliyotga joriy etish toʻgʻrisida"gi 544-sonli qarori qabul qilindi. Unda kambagʻallik mezoni etib minimal isteʼmol xarajatlar koʻrsatkichidan foydalanish, shuningdek, 2022-yildan boshlab "Ijtimoiy himoya yagona reestri" axborot tizimi orqali oilani kam taʼminlangan deb eʼtirof etish jarayonida qoʻllanadigan va jon boshiga toʻgʻri keladigan bir oylik daromad mezoni minimal isteʼmol xarajatlariga tenglashtirilishi belgilandi. Davlat statistika qoʻmitasi 2022-yil uchun hisoblangan minimal isteʼmol xarajatlari miqdorini eʼlon qildi. Unga koʻra, bir kishi uchun minimal isteʼmol xarajatlarining yangi miqdori 13,2 foizga oshib, 498 mingni tashkil etdi.

2022-yil 21-fevralda Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining "2030-yilgacha boʻlgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish boʻyicha qoʻshimcha chora-tadbirlar toʻgʻrisida" gi 83-sonli qarorida 17 ta maqsad, 127 ta vazifa belgilandi. Vazifalar negizida "2030-yilgacha mamlakatda kambagʻallik darajasini ikki baravarga qisqartirish, aholini ijtimoiy himoya qilish tizimining manzilliligi va samaradorligini kuchaytirish, ijtimoiy himoya qilish xizmatlari sifatini oshirish, ijtimoiy himoya qilish choralari doirasiga muhtojlarning barchasi toʻliq qamrab olinishiga erishish, oziq-ovqat xavfsizligini mustahkamlash, ovqatlanish rasionini yaxshilash hamda qishloq xoʻjaligining barqaror rivojlanishiga koʻmaklashish, sogʻlom turmush tarzini taʼminlash va barcha yoshdagi kishilarning farovonligiga koʻmaklashish, umumqamrovli va adolatli sifatli taʼlimni taʼminlash hamda barchaga butun umri davomida taʼlim olish imkoniyatini ragʻbatlantirish; barcha uchun suv resurslari va sanitariyaning mavjudligi hamda ulardan oqilona foydalanishni taʼminlash"[10]. masalalari ustuvor ahamiyat kasb etdi.

Jumladan, amalga oshiriladigan tadbirlar natijasida 2030-yilgacha Oʻzbekistonda oʻta qashshoqlikni tugatish, kam taʼminlangan aholi sonini hozirgiga nisbatan ikki baravarga kamaytirish rejalashtirilgan boʻlsa, sogʻlom turmush tarzini taʼminlash maqsadida esa aholi oʻrtasida yurak-tomir, onkologik, qandli diabet va surunkali respirator kasalliklar tufayli bevaqt oʻlimlar sonini 30 foizga qisqartirish, shuningdek 2025-yilgacha yoʻl-transport hodisalari sonini ikki baravarga qisqartirish rejalashtirildi.

Xulosa qilganda inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanish nafqaqat iqtisodiy rivojlanish bilan balki sogʻliq, bilim, axborot taʼminoti, optimizm, tashabbus va mehnatsevarlik tutadigan shaxsning imkoniyatlarini kengaytirishdir. Bu borada mamlakatimizda inson taraqqiyoti va barqaror rivojlanishning uzviy birligini taʼminlashga katta eʼtibor qaratilmoqda. Xususan, qabul qilingan 2022-2026 taraqqiyot strategiyasida yettita ustuvor yoʻnalish boʻyicha "Inson qadri uchun – 100 ta maqsad" belgilangan.

10 https://www.norma.uz/

# OILA VA MAHALLADA SOG'LOM MUHITNI SHAKLLANTIRISHNING AXLOQIY-ESTETIK ASPEKTLARI

**Siroj Madatovich Ro'zimurodov** - *dotsent, Samaqand davlat universiteti*
**Mohinur Isaxonova** - *talaba, Samarqand davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada mamlakatimizda oila va mahalla instituti yosh avlodni tarbiyalash borasidagi vazifalar yoritilgan. Oila va mahallani davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligi bejiz emasligi ko'rsatib o'tilgan. Sag'lom ona, sog'lom bola va sog'lom jamiyat kansepsiyasining amaldagi natijasini bugungi kundagi ahamiyati yoritilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье описаны задачи института семьи и махалля в воспитании подрастающего поколения в нашей стране. Показано, что недаром семья и махалля возведены в ранг государственной политики. В сегодняшней важности подчеркивается практический результат концепции здорового матери, здорового ребенка и здорового общества.*

***Abstract:*** *This article describes the tasks of the family and neighborhood institution in the education of the young generation in our country. It has been shown that it is not for nothing that the family and neighborhood have been raised to the level of state policy. The practical result of the concept of healthy mother, healthy child and healthy society is highlighted in today's importance.*

***Kalit so'zlar:*** *oila, mahalla, axloqiy-estetik tarbiya, globallashuv, reproduktiv, axloqiy qadriyatlar, sog'lom farzand, go'zallik, an'ana.*

***Ключевые слова:*** *семья, махалля, нравственно-эстетическое воспитание, глобализация, репродуктивность, нравственные ценности, здоровый ребенок, красота, традиция.*

***Keywords:*** *family, neighborhood, moral-aesthetic upbringing, globalization, reproductive, moral values, healthy child, beauty, tradition.*

Yurtimizning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyotini ta'minlash va har jihatdan barkamol avlod tarbiyasiga bog'liqdir. Oila – ijtimoiy institutlarning eng qadimgisi bo'lib insoniyat boshidan kechirgan tarixiy davrlarning qanchalik turfa va murakkab bo'lishiga qaramay, buyuk o'zgarishlar va islohotlarga dosh bera olgan ushbu maskan o'z tizimi, tarkibi va jamiyat oldida turgan majburiyatlarini bajarishi nuqtai nazaridan sog' omon saqlanib qolgan tuzilmadir. Oilani insonlar tashkil etgani va undagi hayot-mamotni ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlar tashkil qilishini hisobga oladigan bo'lsak, uni sof axloqiy-estetik tarbiya maskani ham deb atash mumkin.

Azal-azaldan mamlakatimizda oila mustahkam, uning a'zolari tinch, farovon va sog'lom bo'lsagina, jamiyatda barqarorlik vujudga kelishini bilishgan. Jamiyatning mustahkamligi, osoyishtaligi oiladagi tinchlik-xotirjamlikka, jamiyatdagi sog'lom turmush tarzi esa oila a'zolarining bir-birlariga bo'lgan samimiy munosabat, axloqiy tarbiyasiga bog'liq bo'lgan. Oila va mahalladagi bo'lgan tarbiya juda muhim hisoblanadi, uning o'ziga yarasha qoidalari mavjud. Shu bilan birga mahallada bola tarbiyasida tajribaga ega bo'lgan onaxonlarning, buvixonlarning roli katta bo'ladi. Yosh avlodni ruhan tetik, jismonan sog'lom, aqlan yetuk, ma'naviy teran qilib kamol toptirish ajdodlarimiz ma'naviyatining ajralmas qismi bo'lgan. Ayniqsa murakkab globallashuv jarayonlarida yosh avlodni jismoniy va ma'naviy sog'lom qilib tarbiyalashda milliy ma'naviy qadriyatlarimizni va sharqona madaniyat asosida tarbiyalash muhum ahamiyat kasb etadi.

Oila – jamiyatning ajralmas bo'lagi. Biror bir xalq, millat yoki jamiyat yo'qki, u o'zining rivojlanish tarixida va taraqqiyotini belgilashda oila va uning atrofidagi muammolarni, qadriyatlarini inobatga olmagan bo'lsa. Har qanday rivojlanish oilaning manfaatlaridan ayro tasavvur qilinmaydi. Zero, har bir inson uchun oila – bu umrning boshlanishi, barcha narsalarning muqaddimasidir. Qolaversa, har bir inson o'z baxti va saodatini eng avvalo oilasi va mahallasi bilan bog'laydi, ya'ni, o'z uyi, oilasida baxtli bo'lgan insongina o'zini to'laqonli baxtiyor his etadi.

Oilaning har bir shaxs hayotidagi rolini, ayniqsa, farzandlar tarbiyasini Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev ta'kidlashicha «...bugungi tez o'zgarayotgan ziddiyatli davrda oilaviy masalalarni ilmiy asosda chuqur o'rganmasdan turib, ijtimoiy hayotdagi ko'plab murakkab savollarga javob topish qiyin»[1]. deb ta'kidlab o'tadilar. Shu jihatdan xalqimiz orasida shakllangan bunday tarbiya va odob-axloq bugungi kunda ham yoshlar ma'naviy qiyofasini ifoda etib kelmoqda. Yosh avlodning axloqiy qadriyatlar asosida shakllantirishda oila, maktab, mahalla va jamoatchilik tashkilotlari asosiy vosita hisoblanadi. Ayniqsa, o'zbek xonadonlarida yoshlarga xos axloqiy qadriyatlar: o'zaro hurmat, izzat, ishonch, mulozamat, muhabbat, hamkorlik tuyg'ulari yaqqol namoyon bo'ladi. Oila va mahalla va maktabda yosh avlodga xalqimiz uchun muqaddas bo'lgan burch hamda vazifalar o'rgatiladi. Shu bilan birga farzandni dunyoga keltirish, balki ularni yuksak ma'naviyatli, ma'rifatli qilib tarbiyalash emas, balki jamiyatda o'z o'rnini mustaqil topishiga shart-sharoit yaratib berishdan ham iboratdir.

Oilada farzandlarning, ayniqsa qizlarning salomat, baquvvat va reproduktiv hayotga tayyorlaydigan, ayollarni esa farzandli bo'lishi, farzandlarni tarbiyalashi uchun zarur sharoitlarni yaratib beradigan institutdir. Qur'oni karimda "Erkaklar xotinlari ustidan rahbardurlar. Bunga sabab Olloh ularning birovlarini birovlaridan (ya'ni erkaklarni ayollardan) ortiq qilgani va erkaklar (xotinlar va oilalari uchun) o'z mol-mulklaridan sarf-xarajat qilganlaridir"[2], deyilgan. Ushbu fikrlarda bugungi kundagi oilalarda munosabatlarning ta'siri borligi, ayol va erkak huquqlari ham ushbu munosabatlarga muvofiq o'rnatilgani ko'zga tashlanadi. Mol-mulkidan sarflash erkak zimmasiga yuklatilgan burch, vazifa, oilaviy hayot moddiy ta'minotsiz bo'lmaydi. Lekin bu ayolning ham oilaviy mol-mulkini yaratishga qo'shadigan hissasi katta ekanligini rad qilolmaydi. Ayolning oilada tinchlik, osoyishtalik, ozodalik, uy-ro'zg'or olib borishi erkak sarflaydigan sarf-xarajat, mehnat zahmatidan aslo kam emas. Shu o'rinda xotin-qizlarni reproduktiv hayotga tayyorlashni o'z zimmasiga olgani tufayli oila boshqa ijtimoiy institutlardan farq qiladi. Biroq, farzand ko'rishda ikki tomon erkak va ayol bab-barobar qatnashadi, shuning uchun farzand ular istagi, xohishi va huquqlarining hosilasidir. Oila qurishdan boshlanadigan ushbu istak, xohish va huquq farzand ko'rishda o'z cho'qqisiga chiqadi, erkak va ayolni yangi ijtimoiy burch, ya'ni farzandning sog'-salomat o'sishini ta'minlaydigan zarur shart-sharoitlarni yaratib berish bilan bir-biriga bog'laydi. Mamlakatimizda oila va farzand tarbiyasi davlat siyosati darajasiga ko'tarilganligini alohida ta'kidlash lozim. Sog'lom ona, sog'lom bola va sog'lom jamiyat konsepsiyasi amaldagi natijasi bugungi kunda o'z aksini topmoqda. Statistika ma'lumotlariga ko'ra yiliga mamlakatimizda o'n mingdan ziyot yangi oilalar shakllanmoqda va bugunga kelib umumiy oilalar soni 10 milliondan ortib bormoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning "2017-2021-yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha harakatlar strategiyasi"ning to'rtinchi yo'nalishida: "jismonan sog'lom, ruhan va aqlan rivojlangan, mustaqil fikrlaydigan, vatanga sodiq, qat'iy hayotiy nuqtai nazarga ega yoshlarni tarbiyalash, demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va fuqarolik jamiyatini rivojlantirish jarayonida ularning ijtimoiy faolligini oshirish masalasi alohida ta'kidlanadi"[3]. Azaldan o'zbek oilalari ko'p bolajonliligi bilan ajralib turgan. Bugungi kunda farzandlarni tarbiyalashda milliy qadriyatlarimiz va zamon ruhida yondoshuv katta ahamiyatga ega. Yuksak axloqiy ma'naviyatga ega ota-ona oilaning mohiyati, qadri, burch, mas'uliyat, oila vazifalari, oilada barkamol farzand tarbiyasi, oilani moddiy jihatdan ta'minlash, uning osoyishtaligini saqlash kabi vazifalarni anglab yetadi va unga amal qiladi. Albatta xalqimizning urf-odat, an'analarini yosh avlodga yetkazib berishda, mahalla va guzarlarning oqsoqollari yaqindan yordamberayaptilar. Ularningtashabbusi va faol ishtiroki bilan vayrona, xarobalarga aylangan masjidlar qayta tiklandi, yangilari qurilib, ishga tushirildi. Navro'z, hayit, singari bayramlarning tiklanishi va boshqa xayrli ishlarda ham ularning salmoqli ulushi bor. Mahalla ma'naviy axloqiy qadriyatlar va an'nalar maskani, va sharqona an'analar, urf-odatlar jamoa asosida amalga oshiruvchi, makondir. Mahalla–tarbiya o'chog'i, mahalla-oila tinch totuvligini, ahilligini mustahkamlaydigan maskan hamdir. Milliy qadriyatlarning tiklanishi tufayli bugun jonajon Vatanimizning «har bir asl farzandi o'zini ota yurtining ajralmas bo'lagi deb his etayapti va bundan faxrlanyapti. Istiqlol bergan eng katta

1 *Mirziyoyev Sh.M. Oila va jamiyat ustuni, hayotimizning fayzi va ko'rki. // Xalqimizning roziligi bizning faoliyatimizga berilgan eng oliy bahodir. 2 jild -T.: O'zbekiston, 2018, 464-bet.*
2 *Qur'oni karim. Alouddin Mansur tarjimasi. – Toshkent.: Cho'lpol, 1992. – 72 b.*
3 *2017-2021 yillarda O'zbekiston Respublikasini rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha Harakatlar strategiyasining"Xalq bilan muloqat va inson manfatlari yili"da amalga oshirishga oid davlat dasturini urganish bo'yicha ilmiy-uslubiy risola. Toshkent Ma'naviyat 2017-y 203 b.*



IJTIMOIY FANLAR

boyliklardan birinchisi ana shu desak aslo yanglishmagan bo‘lamiz»[4].

Har bir o‘zbek oilasining dunyodagi boshqa xalq oilalariga o‘xshamas tomonlari ko‘plab uchraydi. Chunki o‘zbek oilasida farzandlariga axloqiy-estetik tarbiya berishda oilaning o‘rni beqiyosdir. Bolaga estetik tarbiya berishda birinchi galda ota-onaning xushfe’l, xushmuomala so‘zlari, chiroyli, ko‘rkam voqelikni to‘g‘ri tushunishlari, yosh avlodga beriladigan bilimlar har tomonlama ravshan va yorqin bo‘lishi lozim.

O‘zbek xonadonida bolalarni milliy ruhda tarbiyalash, ularda estetik his-tuyg‘ularni shakllantirish va nafis tuyg‘ularni kamol toptirish asosiy vazifadir. “Oila - jamiyatning eng kichik yacheykasi bo‘lib, jamiyat ana shu yacheykalardan tashkil topgan. Oila murakkab tuzilmaga ega bo‘lib, tabiiy-biologik (jinsiy munosabatlar, nasl qoldirish), iqtisodiy (mulkiy munosabatlar, uy-ro‘zg‘orni boshqarish), ma’naviy (er-xotin, ota-ona va bolalar o‘rtasidagi mehr-muhabbat tuyg‘usi va b) munosabatlarga asoslanadi”[5]. Oilada bolaga estetik tarbiya berishda voqelikning go‘zalligini kuzatish, idrok etish va estetik did, idealni tarbiyalash katta ahamiyatga ega. Shuningdek, ularni tabiat go‘zalligiga va san’atiga havas uyg‘otish orqali tarbiyalash kerak.

Ayrim hollarda ota-onalar bolalarining qiziqishlarini hisobga olmasdan, o‘zlarining ko‘ngillariga yoqqan mashg‘ulotlarga jalb etishadi. Shuningdek, ba’zi ota-onalar o‘z ishlari bilan band bo‘lib, bolaning tarbiyasiga yaxshi e’tibor berishmaydi. Oilada sog‘lom farzand tarbiyasini olib borishda o‘ziga xos qoidalar mavjud bo‘lib, bu qoidalarni ota-onalar bilishlari, farzandlar esa rioya etishlari kerak bo‘ladi:

Birinchidan: oilada ota-onalar, farzandlar va boshqa a’zolari bir-birlarini;

ikkinchidan: sevishlari, tushunishlari, hurmat qilishlari;

uchunchidan: o‘qishni, ishni, mehnatni asosiy ehtiyoj sifatida qarash;

to‘rtinchidan; bekorchilik, dangasalikka berilmaslik;

beshinchidan; oilada qat’iy kun tartibi va maqbul yashash sharoitlariga rioya qilish;

oltinchidan; oilada katta kishilarni hurmat, kichiklarni izzat qilish;

yetinchidan; oilaning har bir kishisida mustaqillik, erkinlik, o‘ziga ishonch kabi xislatlarni shakllantirish.

Shu keltirilgan qoidalarga amal qilish, o‘zaro munosabatlarni yaxshilashga, oilaning mustahkam bo‘lishiga va bu o‘z navbatida sog‘lom bolani tarbiyalab jamiyat fuqarosiga aylantirishga asos bo‘ladi. Albatta, bunda ota-onalar va kattalarning namunasi, ibrati salmoqli o‘rin egallashini har doim yodda tutish lozim.

Demak, oila muhiti farzand tarbiyasi va barkamol bo‘lishida asosiy maskan ekan, oilaning boshqa ijtimoiy maskanlardan farq qiladigan jihatlarini doimo bilish va yodda tutish zarur.

Har birimiz uchun muqaddas bo‘lgan oila, undagi munosabatlarning ijobiy kechishi nafaqat farzand tarbiyasiga ta’sir etishi, balki shu oilaning mustahkam bo‘lishiga, bu orqali jamiyatning barqarorligiga ta’sir etishini unutmasligimiz kerak.

Sharq xalqlariga xos go‘zallik haqidagi umumbashariy nafosat olami shakllangan bo‘lib. Bu o‘ziga xoslik borasida jahonning ko‘plab mamlakatlarida xilma-xil fikrlar mavjud: “Oila o‘zbeklarning ko‘p asrlik an’analariga va mentalitetiga mos bo‘lgan eng muhim hayotiy qadriyatlardan biri bo‘lib kelmoqda”[6]. Bundan ko‘rinib turibdiki, o‘zbek oilasi o‘zining o‘tmishiga asoslanib o‘zining kelajagini yaratishga intilmoqda. Ayniqsa, katta yoshdagi oila azolarining estetik madaniyati yuksakligi, badiiy adabiyot va san’atga qiziqishlarining kuchliligi, ulardan estetik zavq olishlari bevosita yosh bolaga ta’sir etadi.

Bolaning yoshligidanoq estetik tarbiyasi mukammal bo‘lsa, yaxshi va yomon, go‘zal va xunuk tushunchalar farqini chuqurroq anglab yetadi. Mana shunday tushunchalarni yosh bolaning ongiga singdirishda, avvalo, ularning qiziqishlarini hisobga olish lozim. Agar bolani biror narsaga, sportga yoki san’atning ma’lum bir sohasiga qiziqish borligini ota-ona sezsa, uni shu qiziqishlariga jalb etishi foydalidir.

O‘zbek oilasida bola tarbiyasi, ota-onaning mehr-muhabbati, shirin so‘zlari, yoqtirgan narsasini e’zozlashga, bajarayotgan ishiga ishtiyoqman bo‘lishiga chorlash bilan xarakterlanadi. Bolaning tarbiyasida suhbatlashish, erkin muloqotda bo‘lishi estetik his-tuyg‘ularni o‘stiradi. Bolani estetik ruhda tarbiyalashda voqelikning go‘zalligini mushohada etishga, tevarak-atrof chiroyini his etishga o‘rgatish, bolada tabiatga nisbatan yuksak hissiyotni uyg‘otadi.

Yurtimizda “Obod mahalla” davlat dasturi asosida chinnidek toza hovlilar, did bilan saranjom qilingan uylar, chiroyli ko‘chalar tobora ko'payib bormoqda. Dinimizda inson uchun uni saodati belgilovchi omillardan biri makon yani uy joy muhim ekanligi ta’kidlanadi. Shuning uchun ham xalqimiz hovli-joyini top-toza qilib, yoz kunlari hamma yoqqa suv sepib, salqin va shinam qilib qo‘yishni yaxshi ko‘radi. Bunday ajoyib odatlar va fazilatlar o‘zbek oilasida ko‘proq yosh qizlar va kelinlarga o‘rgatiladi. Ular har kuni barvaqt uyg‘onishadi va bolalar o‘rnidan turgunga qadar ancha ishlarni saranjomlab olishadi. Bular barchasi xalqimizning azaliy estetik tarbiyaning negizi hisoblanadi.

O‘zbek oilasida har bir bola nozik didli bo‘lish, voqelik go‘zalligini qadrlay olish, badiiy madaniyatni tushunish tarzida tarbiyalanadi. Farzand tarbiyasida uning aql zakovati, estetik hissiyoti, badiiy adabiyot va san’atga munosabati, xohish-istaklari muhim ahamiyatga ega. Shu boisdan ota-onalar o‘z farzandlarini turmushdagi go‘zallik va xunuklikni tushunish, his etish, kishilar ma’naviy fazilatlarini anglab yetishga undaganlar intiltirishgan. O‘z bolalari qalbida mehnatsevarlik, shirinso‘zlik, quvonch, iliqlik, tabassum kabi kayfiyatlarni rivojlantirishgan.

Bunday tarbiya orqali ota-onalar farzandlariga qalb go‘zalligini tushuntirishgan. Hattoki o‘tmish ma’naviyatimizni ular ongida namoyon etgan. Shu boisdan, donishmand xalqimiz: “Chiroy husni jamolda emas, fazlu kamolda”, deb bekorga aytmagan!

O‘zbek oilasida estetik tarbiyaning muhim jihatlardan yana biri otaning qattiqqo‘lligi va ona mehribonligidir. Chunki ota o‘z farzandini yoshlikdanoq mehnatga mehr qo‘yish, voqelik go‘zalligidan bahramand bo‘lish, yurish-turishda, san’atga yuksak estetik qobiliyatli bo‘lishga hamda jirkanch va xunuk, did-farosatsiz voqealardan yiroq yurishga chorlaydi. Bolasi qalbida yuksak insoniy tuyg‘ular ichki va tashqi go‘zallik, zehni o‘tkirlikni kamol toptirishga intiladi. Ona esa ko‘proq bularga qo‘shimcha holda bolasini yoqimli kuy, musiqa tinglashga, go‘zal tabiat bag‘rida sayr qilishga, chiroyli manzaralar tomosha qilib qalbi quvonchga to‘lishga va hokazolarga harakat qiladi. O‘zbek oilasida bolalarni estetik ruhda tarbiyalashda yoshi ulug‘ bobo va buvilarimizning roli ham kattadir. Ular nabiralarini sevib erkalashadi, ularga qalblaridagi to‘lib toshgan mehr-muhabbatlarini baxsh etishadi. Nabiralariga hayot quvonchlari va tashvishlari haqida so‘zlashadi. Ko‘pincha ertak, rivoyat va hikoyalar so‘zlab, ularni botir, mard, qo‘rqmas, kamtarin, sofdil, chiroyli, go‘zal bo‘lishiga chorlaydi. Ayniqsa, tabiat go‘zalligi, uning har bir jonivorini g‘aroyib fazilatlarini birma-bir aytib, bolalar dunyo qarashida nozik his-tuyg‘ular, estetik ideallarni qaror toptirishadi.

Xulosa o‘rnida shuni ta’kidlaymizki sog‘lom turmush va ijtimoiy tafakkur tarzi, asosan, sog‘lom axloqiy-estetik tarbiya tufayli rivojlanib, madaniy yuksaklikka ko‘tariladi. Shuning uchun hayotdagi yangiliklar inson ruhiyatiga ko‘rsatayotgan ta’sirini sinchiklab o‘rganish, bugungi kunning dolzarb muammolaridan biridir. Bunda butun estetik tarbiya tizimining ob’yekt va sub’yektlari faol ishtirok etishi zarur. Xalqning asrlardan asrlarga meros bo‘lib kelayotgan estetik tarbiyasi bugungi kunda yoshlarni tarbiyalashda, ular ongida latofatli, nazokatli, lobar kayfiyatni vujudga keltirishda xalqimizning madaniyati, noyob durdonalari va ilmu xizmat xazinasidan ham foydalanish maqsadga muvofiqdir.

4 *Karimov I. A. O‘zbekiston kelajagi buyuk davlat.- T.:O‘zbekiston,1993, 4-bet.*

5 *Falsafa qisqacha izohli lug‘at M.N.Abdullayeva va boshqalar. T.”Sharq”.2004 y 241b*

6 *Gafarli M.S., Kasayev A.Ch. Rivojlanishning o'zbek modeli:tinchlik va barqarorlik- taraqqiyot asosi.-T.: O'zbekiston, 2001. 41-bet.*

# SHAXS HAYOTIY MAQSADLARINING SHAKLLANISHIDA QADRIYATLARNING O‘RNI

**Sanjar Sindorqulovich Karimov** - *katta o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada qadriyat va shaxsiy qadriyat tushunchalarining mazmun-mohiyati, qadriyatlarning yoshlarda hayotiy maqsadlar shakllanishidagi ahamiyati ijtimoiy-falsafiy jihatdan tahlil qilingan.*

***Аннотация:*** *В статъе анализируется сущност содержания понятий ценности и лисчностной ценности, рол ценностей в формировании жизненных целей у молодежи с социално-философской тосчки зрения.*

***Abstract:*** *This article analyzes the essence of the concepts of value and personal value, the role of values in the formation of life goals in young people from a socio-philosophical point of view.*

***Kalit so‘zlar:*** *qadriyat, shaxsiy qadriyat, maqsad, hayotiy maqsad, ehtiyoj, manfaat, determinant, ijtimoiylashuv.*

***Ключевые слова:*** *ценност, личная ценност, цел, жизненная цел, потребност, интерес, детерминант, социализация*

***Keywords:*** *value, personal value, purpose, vital purpose, need, interest, determinant, socialization.*

Qadriyatlar jamiyat taraqqiyotining mahsuli sifatida inson kamoloti uchun ham katta ahamiyatga ega ijtimoiy hodisadir. Zero, qadriyatlar o‘tmishda ijobiy ahamiyat kasb etgani uchungina emas, balki kelajak istiqboli uchun yangi imkoniyatlar yaratib berishga qodir bo‘lganligi sababli ham qadriyat hisoblanadi. Chunki qadriyatlar olamni bilish va uni amaliy o‘zgartirishga xizmat qiladi. Har bir qadriyatning negizida, mohiyati va ahamiyatida tabiat, jamiyat va ruhiy olam hodisalarini bilish, ilmiy umumlashtirish, ijtimoiy va ma’naviy taraqqiyotga ta’sir etish imkoniyatlari yotadi.

Bundan tashkari, qadriyatlar inson ma’naviy kamolotiga ta’sir etuvchi muhim omil hamdir. Bu borada to‘xtalar ekan, “Biz yaratayotgan yangi O‘zbekistonning mafkurasi ezgulik, odamiylik, gumanizm g‘oyasi bo‘ladi. Biz mafkura deganda, avvalo, fikr tarbiyasini, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tarbiyasini tushunamiz. Ular xalqimizning necha ming yillik hayotiy tushuncha va qadriyatlariga asoslangan[1]”, deydi Prezidentimiz Sh. Mirziyoyev. Har bir millat rivojlanishdagi tarixiy voqealar, unga ijobiy hissa qo‘shgan shaxslarning tajribalari ham milliy qadriyatlar jumlasiga kiradi. Qolaversa, har qanday jamiyatning ijtimoiy odilligi unda umuminsoniylik mezonlariga amal qilinishi, pirovard natijada inson qadrining qay darajada ekanligi, shaxsning individual qadriyatlarni namoyon qilishi uchun imkoniyatlar yaratilganligi bilan bog‘liq. Shu o‘rinda 2023-yil 30-aprel kuni o‘tkazilgan O‘zbekiston Respublikasi referendumida umumxalq ovoz berish orqali qabul qilingan yangi tahrirdagi O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining “Inson va fuqaroning asosiy huquqlari, erkinliklari va burchlari” deb nomlanuvchi ikkinchi bo'limida inson va fuqarolarning siyosiy, manaviy-madaniy, iqtisodiy, ijtimoiy sohalarda barcha huquq va erkinliklarining kafolatlab qo‘yilganligini mamnuniyat bilan e’tirof etish lozim. Zero, har qanday kishi o‘z qadriyatlari, ularning turli shaklda namoyon bo‘lishi natijasida boshqalar va jamiyat uchun qadrlidir.

Hozirgi davrda qadriyatlarni o‘rganishga oid falsafa, sosiologiya, madaniyatshunoslik, siyosatshunoslik, psixologiya, antropologiya, pedagogika fanlarida turli izlanishlar olib borilmoqda. Bu ijobiy hol, albatta. Lekin shu bilan birga, qadriyatlarni klassifikasiyalash masalasi chalkashib, hatto ularni hech qanday asossiz boshqa ijtimoiy voqea va hodisalar bilan aynanlashtirib yuborish ham yuzaga kelmoqda.

Tadqiqot jarayonida yig‘ilgan manbalar va aksiologik qarashlarni o‘rganish bizga qadriyatlarni quyidagicha klassifikasiyalash imkonini beradi.

Qadriyatlar:

- obyektiv va sub’ektivligiga ko‘ra: moddiy va ma’naviy;

- makonda tarqalishiga ko‘ra: milliy, mintaqaviy, umuminsoniy;

-ijtimoiy hayot sohalarida namoyon bo‘lishiga ko‘ra: siyosiy, ijtimoiy, madaniy, iqtisodiy;

stratifikasiyaga ko‘ra: sinfiy, partiyaviy, guruhiy;

-etnomadaniy va antropologik xususiyatiga ko‘ra: milliy, umuminsoniy;

-faoliyatining belgisi sifatida namoyon

1 https://qalampir.uz/uz/news/prezident-ma-naviyatni-yuksaltirish-buyicha-yigilish-utkazdi-31829





bo‘lishiga ko‘ra mavjud normalarni o‘zlashtirish, yangi normalarni shakllantirish;

-funksional maqsadlariga ko‘ra: boshqarish, koordinasiyalash, tadrijiy rivojlanishni tashkil etish kabi yo‘nalishlarga klassifikasiya qilinishi mumkin. Albatta, qadriyatlarni axloqiy, ijtimoiy-siyosiy, tashkiliy-pedagogik xususiyatlariga, shaxs, jamiyat manfaatlariga mos kelishiga qarab ham klassifikasiyalash mumkin[2].

Shuni alohida ta’kidlash zarurki, ushbu tadqiqotda bizning maqsadimiz qadriyatlarning o‘zini emas, balki ularning shaxs, jumladan, yoshlar hayotiy maqsadlarining shakllanishiga ta’siri nuqtai nazaridan tadqiq etamiz muhimdir.

Shu o‘rinda qadriyat tushunchasining mazmun-mohiyatini va qadriyatlarning yoshlarda hayotiy maqsadlarning shallanishidagi ahamiyatini o‘rganish ehtiyoji vujudga keladi.

Falsafiy adabiyotlarda qadriyatlar turlicha talqin qilinadi. Quyida ularning ba’zilarini ko‘rib chiqishimiz mumkin. Jumladan, Falsafa qomusiy lug‘atida “qadriyat – voqe’likdagi muayyan xodisalarning umumbashariy, umuminsoniy, ijtimoiy-ahloqiy, madaniy-ma’naviy ahamiyatini ko‘rsatish uchun qo‘llanadigan falsafiy-sosiologik va aksiologik tushuncha. Jamiyat, inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsa, hodisa va voqealar: erkinlik, ezgulik, tenglik, tinchlik, haqiqat, ma’rifat, madaniyat, moddiy va ma’naviy boyliklar, obida-yodgorliklar, go‘zallik, axloqiy xislat va fazilatlar, an’ana, urf-odat, udum va boshqalar qadriyat hisoblanadi[3]”, - deb ta’rif beriladi.

Ma’naviyat asosiy tushunchalar izohli lug‘atida esa Faylasuf olim Q. Nazarovning quyidagi ta’rifi keltirib o‘tiladi: “qadriyat – inson va jamiyat ma’naviyatining tarkibiy qismi, olamdagi voqealar, hodisalar, jarayonlar, holatlar, sifatlar, talab va tartiblarning qadrini ifodalash uchun ishlatiladigan tushuncha[4]”.

Faylasuf olima B.Ochilova esa “qadriyat bu tabiiy va ijtimoiy hayotda namoyon bo‘ladigan, kishilar qadrlaydigan va ular uchun manfaatli, foydali, ijobiy ahamiyatli bo‘lgan omillar yig‘indisi[5]” ekanligini ta’kidlab o‘tadi.

Demak, yuqoridagi ta’riflarda olimlar asosan qadriyatlarni ijtimoiy-tarixiy va madaniy kategoriya sifatida qarab, ularga «inson va insoniyat uchun ahamiyatli bo‘lgan barcha narsalar» ekanligiga alohida e’tibor qaratadilar. Biroq bu ta’rif ham o‘z o‘rnida ma’lum bir savollar uyg‘otadi. Inson va insoniyat uchun ahamiyatli, kerakli bo‘lmagan narsa bormi o‘zi? Olamda mavjud jamiki narsa, mavjudot inson va insoniyat uchun ahamiyatli, keraklidir balki.

Umuman olganda faylasuflar qadriyatlarning jamiyat hayoti va taraqqiyotida tutgan o‘rni masalasiga ontologik, gnoseologik, evristik va dunyoqarashlik nuqtai nazaridan yondashib, ularning ijtimoiy-siyosiy, madaniy-ma’rifiy va tarbiyaviy ahamiyatini alohida yoritishga harakat qiladilar.

Shu o‘rinda qadriyatlar masalasida bir qator xorij olimlarining ham yondashuvlarini keltirib o‘tish o‘rinlidir. Zero, qadriyatlar muammosi faqatgina milliy masala hisoblanmay xorijda ham bu masala psixologiya, sosiologiya, madaniyatshunoslik, falsafa kabi fanlarda qizg‘in o‘rganiladigan masalalardan biri hisoblanadi. Hususan, “Eng yangi falsafa lug‘ati”da qadriyatga “Absolyutga, shartga, maqsadga yo‘naltirilgan obyekt va hodisalarning insoniy, ijtimoiy va madaniy mohiyatini aks ettiruvchi atama[6]” deb talqin beriladi.

Yana bir yondashuvda esa, “u insonning sosiomadaniy faolligi doirasini belgilab keladi, madaniy faoliyat natijasi sifatida esa shaxsdan, ayrim hollarda esa tarixiy hodisalardan ayricha idrok etiladi. Shuning uchun qadriyatlar o‘tmish, hozir va kelajakni uyg‘unlashtirish, faoliyat natijalarini semiotik ifodalash, narsa va hodisalarni baholashda ularning maqsadga muvofiqlarini ustuvor hisoblash, dunyoni idrok etishda turli darajadagi qadrlash tizimlarini yaratish va fikrlarni asoslash tarzida keladi. Qadriyatlar eng avvalo normalar orqali amalga oshiriladi[7]. Ta’rif muallifi (V.L.Abushenko) qadriyatlarning qadrlanish jarayonida maqsadga muvofiqlik prinsipini e’tirof etganligi diqqatga sazovordir.

Qadriyatlarga axloqiy hodisalar sifatida yondashish u yoki bu darajada barcha adabiyotlarda mavjud. Biroq ayrim mualliflar qadriyatlardagi ushbu belgilarni mutlaqlashtirishga moyildirlar. Masalan, A.I.Kravchenko qadriyatlarga quyidagicha ta’rif beradi: “Qadriyatlar, - deb yozadi u, - ko‘pchilik kishilar tomonidan ijtimoiy qo‘llab-quvvatlanadigan ezgulik, adolat, vatanparvarlik, romantik sevgi, do‘stlik kabi hodisalar haqidagi tasavvurlardir”[8]deb ta’rif berilsa, yana bir yondashuvda “Qadriyatlar shubha ostiga olinmaydi, ular barcha kishilar uchun etalon, ideal bo‘lib xizmat qiladi”[9] deb ta’kidlanadi.

Ushbu yondashuvlardagi mazmun qadriyatlarning subyektiv hususiyatlariga

2 Қаранг: Назаров Қ. Основы философии. - Т.:Узбекистан, 1998. - С.369-370
3 Фалсафа қомусий луғат. Т.: Файласуфлар миллий жамияти нашриёти. 2004.Б. 858
4 Маънавият асосий тушунчалар изоҳли луғати.: Ғафур Ғулом номидаги нашриёт-матбаа ижодий уйи.2010. Б.707
5 Очилова Б. Миллий маънавий юксалишда меърос, қадриятлар ва ворисийлик.Т. Истоқлол.2009й. 23- б
6 Ценность. // Новейший философский словарь.- Мн.:Изд.В.М.Скакун, 1998.- С.798.
7 Ценность. // Новейший философский словарь.- Мн.:Изд.В.М.Скакун, 1998.- С.798.
8 Кравченко А.И. Социология.- М.: «Логос» Екатеринбург, Деловая книга,1999.- С.168.
9 Кравченко А.И. Социология.- М.: «Логос» Екатеринбург, Деловая книга,1999.- С.168

urg‘u berilish natijasidir. Ta’kidlash lozimki, qadriyatlarning subyektiv hususiyatlari ichida maqsadga muofiqlik alohida ahamiyatga egadir.

Demak, qadriyatlar tasavvurlargina emas, ular inson va tarixiy subyektlarning olamni idrok etishi, o‘zlashtirishi va o‘zgartirishi jarayonida ijtimoiy norma sifatida yaratgan moddiy hamda ma’naviy boyliklarining ijtimoiy muhit tan olgan majmuasidir.

Shu o‘rinda, g‘arb ilm-fanidagi qadriyat muammosiga yondashuvlar ichida qadriyatlarni maqsadlar sifatida talqin etishga harakat qiluvchi olimlarning qarashlari ham alohida ahamiyatga egadir. Quyida bu qarashlarning bazilarini keltiramiz. Hususan,

“Qadriyatlar keng, vaziyatga oid maqsadlardir”[10], ushbu yondasuvda shahsiy qadriyatlarning inson hayotining turli vaziyatlarida u bilan ro'ba-ru keladigan urf-odat va an’analar bilan bog‘liq alohida hususiyatlari va kundalik faoliyat va yumushlar bilan bog‘liq jihatlariga alohida urg‘u berilmoqda. Aytish mumkinki bu yondashuv shahsiy qadriyatlarning to'liq mazmunini yoritib bera olmaydi.

Yana bir yondashuvda esa, “qadriyatlar motivatsion maqsadlarning kognitiv ifodasidir[11]”, deb ta'rif berilmoqda. Ushbu yondashuvda qadriyatlarning inson hayotidagi motivasion vazifasi bo'rttirib yuborilmoqda.

Yuqoridagi olimlarning yana bir ta’rifida esa, “barcha qadriyatlar maqsadlarni anglatadi, ammo hamma maqsadlar ham qadriyat emas. Qadriyatlar turli xil vaziyatlarda muhim bo‘lgan umumiy maqsadlardir[12]”deb, qadriyat tushunchasi maqsad tushunchasi bilan aynanlashtirib yuborilmoqda.

“Shaxsning qadriyatlari bu odamlarning harakatlarini rag‘batlantiradigan va hayotlarida rahbarlik qiluvchi prinsip bo‘lib xizmat qiladigan umumiy maqsadlardir[13]” degan ta’rif esa, qadriyatlarning motivasion va regulyativ funksiyasiga alohida urg‘u berilmoqda.

“Qadriyatlar maqsadga muvofiqdir. Qadriyatlar orzu qilingan maqsadlarni anglatadi; ular odamlar muhim va munosib deb bilgan narsalarni aks ettiradi[14]” ushbu ta’rif ham qadriyatlar va ijtimoiy maqsadlarnin hamohangligiga ishora qilmoqda.

Ko‘rinib turibdiki, ushbu yondashuvlarda qadriyatlar insonning xatti-harakatlari va faoliyati uchun asos bo‘luvchi motivasion funksiyasi mutlaqlashtirilmoqda. Ammo ahamiyatli jihati shundaki, qadriyatlar aynan shu funksiyasi tufayli hayotiy maqsadlar uchun asos vazifasini bajaradi. Jamiyatshunos olim Prijogin maqsadni - “... rejalashtirilgan natija, mo‘ljal va vositalar birligi, shuningdek, ehtiyojlarni qondirishning oqilona va qadriyalarga mos usuli[15]”, ekanligini ta’kidlaydi. Shu o‘rinda insonning maqsadi uni shaxs sifatida shakllantirgan shart-sharoitlar va omillar ta’sirida shakllansa-da, ijtimoiy qadriyatlardan emas, maqsad egasining shaxsiy qadriyatlariga muvofiq shakllanishini alohida qayd etish lozim. Yuqoridagi yondashuvlarning yana bir jihati shundaki, ularda qadriyatlarning barchasi emas, balki aynan shaxsiy qadriyatlar e’tibor markazida bo‘lmoqda.

Qadriyatlarga nisbatan g‘arb olimlarining yondashuvlarini o‘rganar ekanmiz bu o‘rinda ularning qiziqishlari asosan alohida individ va uning qadriyatlari muammosi ekanligi g‘arbona qarashlarga xos bo‘lgan individualizm ruhi ustunlik qiladi.

Shu jihatdan bu qarashlarning qamrovi cheklangan bo‘lsa-da, aynan shaxsiy qadriyatlar muayyan vaziyatlarda odamlarning istaklari va xatti-harakatlariga ta’sir etishini tan olishimizga to‘g‘ri keladi. Shu nuqtai-nazardan biz ularning bu qarashlari bizning tadqiqotimiz uchun muhim jihatlarni topishimiz munkin.

Xo‘sh, shaxsiy qadriyatlar deyilganda qanday qadriyatlar nazarda tutiladi, ularning o‘ziga hosligi nimada?

Shaxsiy qadriyatlar deyilganda insonning faqat o‘zi uchun ahamiyatli bo‘lgan, kishilarning faqat o‘zlarigina qadrlaydigan[16] qadriyatlar nazarda tutiladi. Faylasuf olim Q.Nazarov shaxsiy qadriyatlar haqida fikr bildirar ekan, “Har bir inson – bir olam, boshqalarga o‘xshamaydigan o‘zga bir dunyodir. Insonning ana shu majoziy ma’nodagi ma’naviy olami, o‘zgalarga o‘xshamaydigan qiyofasi va betakror dunyosi qadriyatning shaxsiy darajada namoyon bo‘lish xususiyatlari bilan uzviy bog‘langan. Insonning o‘zi uchun qadrli bo‘lgan narsalar qatoriga juda ko‘p narsalarni kiritish mumkin. Masalan: oila, sog‘lik, shaxsiy hayot, ota-ona, ota-onani hurmat qilish, xonadon, sevgi, do‘stlik, bilim, xavfsizlik, boylik, kasb-kor, mavqe’, obro‘, ishxona, shaxsiy erkinlik, omad, muvaffaqiyat, mustaqil bo‘lish, sport, medallar, adolat, tozalik, barqarorlik, mehnat qilish, halollik, tarbiya, mas’uliyat, hayot, hashamat, madaniyatlilik, olg‘irlik, tadbirkor bo‘lish, qonuniylik, uddaburonlik, vatanparvarlik, shaxsiy biznes, do‘stlar, orzu-havas, ijodkorlik, kuch-qudrat, muhabbat, farovonlik, intelekt, iymon va hokazolar. Bu ro‘yxatni uzoq davom

10 Personal values in human life.Lilach Sagiv, Sonia Roccas, Jan Cieciuch and Shalom H. Schwartz

11 Schwartz, S. H. Universals in the content and structure of values: theoretical advances and empirical tests in 20 countries. Adv. Exp. Soc. Psychol. 25, 1–65 (1992).

12 Personal values in human life.Lilach Sagiv, Sonia Roccas, Jan Cieciuch and Shalom H. Schwartz

13 Kluckhohn, C. in Toward a General Theory of Action (eds Parsons, T. & Shils, E.) 388–433 (Harvard Univ. Press, Cambridge, MA, 1951).

14 Rokeach, M. The Nature of Human Values (Free Press, New York, 1973)

15 Социологический энциклопедический словарь: Ред.- координатор Г. В. Осипов; Ин-т соц.-полит. исслед. Рос. акад. наук., Ин-т социологии Рос. акад. наук. - М.: НОРМА-ИНФРА, 2000. - 488 с.408-бет

16 Б. Очилова. Миллий маънавий юксалишда мерос, қадриятлар ва ворисийлик. Т. Истиқлол.2009.Б. 23





ettirish mumkin va bu qadriyatlar har bir insonda uning dunyoqarashi va e’tiqodidan kelib chiqib turlicha bo‘lishi mumkin.

Har bir inson qadriyat ustuvorliklarining shaxsiy ierarxiyasiga ega ya’ni, inson uchun ba’zi qadriyatlar juda muhim, boshqalari o‘rtacha darajada, boshqalari esa unchalik ahamiyatsiz bo‘lishi ham mumkin.

Biroq ushbu qadriyatlar odamlarga nisbatan ahamiyatliligi jihatidan tubdan farq qiladi. Qadriyatlarning ierarxik tashkil etilishi ularni o‘ziga xos tushunchasi bilan bog‘liq bo‘lgan boshqa konstruksiyalardan ajratib turadigan o‘ziga xos xususiyatdir. U qadriyatlarning motivasion xususiyatini aks ettiradi: ierarxiyadagi qadriyat qanchalik yuqori bo‘lsa, shaxs hayotga yo‘naltiruvchi prinsip sifatida ushbu qadriyatga tayanishga undaydi[17].

Demak, qadriyalarning ayrimlari bir kishi uchun qadriyat hisoblansa, yana boshqa bir kishi uchun ular mutlaqo ahamiyatsiz, hattoki kulgili bo‘lishi ham mumkin va bu holat shaxsiy qadriyatlarni o‘rganishda muayyan qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi. Shu sababdan insonning shaxsiy qadriyatlari haqidagi fikrlarni konkretlashtirish nuqtai nazaridan ularni tizimlashtirish ehtiyoji tug‘iladi.

Q.Nazarov shaxsiy qadriyatlarni quyidagicha tizimga solib o‘rganishni taklif qiladi:

1) odamzotning tabiiy-tarixiy qadriyatlari;

2) ma’naviy-axloqiy qiyofasi, nafosati va go‘zalligi bilan bog‘lik qadriyatlar;

3) mehnati va iqtisodi bilan bog‘liq qadriyatlar;

4) individual kamoloti va ijtimoiy mavqei (yoki «karera»si) bilan bog‘liq qadriyatlar;

5) huzur-halovati bilan bog‘liq «gedonistik» qadriyatlar;

6) qobiliyati va iste’dodi bilan bog‘liq intellekutal qadriyatlar;

7) his-hayajon, tuyg‘ulari bilan bog‘liq «emosional» qadriyatlar[18].

Shaxsiy qadriyatlarni tizimlashririlgan holda o‘rganishning xorijda tan olingan tavsifi esa qadriyatshunos olim Shvars tomonidan taklif etilgan. E’tiborli jihati shundaki, ushbu tavsif biz yuqorida keltirgan tavsifga ancha yaqin va ba’zi jihatlardan uni chuqurroq tushunish imkonini beradi. Shvars qadriyatlarni ular bildirgan motivasion maqsadlarga muvofiq tashkil etish mumkinligini taklif qildi. Shvars shaxslarning ehtiyojlarini va ijtimoiy hayotga bo‘lgan talablarni tahlil qilib, o‘nta motivasion farq qiladigan qadriyatlar guruhlarini ajratib ko‘rsatadi:

1) O‘z-o‘zini boshqarish
2) Rag‘batlantirish
3) Gedonizm
4) Muvaffaqiyatga erishish
5) Kuch-quvvat
6) Xavfsizlik
7) Muvofiqlik
8) An’ana
9) Xayrixohlik
10) Universalizm[19].

Olimning fikriga ko‘ra, odamlar odatda o‘zlarining shaxsiy xususiyatlariga ijobiy qarashadi va ijobiy o‘zini o‘zi qadrlashga moyil. Biroq, odamlar o‘zlarining shaxsiy qadriyatlarini boshqa shaxsiy istaklariga qaraganda ko‘proq istalgan deb bilishadi: ular o‘z qadriyatlarini shaxsiy xususiyatlaridan ko‘ra ideal o‘zlariga yaqinroq ko‘rishadi va o‘z qadriyatlarini ozroq o‘zgartirishni xohlashadi[20]. Boshqacha aytganda, inson o‘z maqsadini shakllantirar ekan, turli xil imkoniyatlardan birini tanlaydi, uni amalga oshirish usullari to‘g‘risida qaror qabul qiladi, unga erishish yo‘lidagi to‘siqlarni o‘zicha aniqlasa-da, ushbu tanlov individual maqsadni ijtimoiy qadriyatlar va jamoat maqsadlari tizimi bilan muvofiqlashtirish va ularni qabul qilinishini ta’minlaydi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, shaxsiy qadriyatlar har bir insonning hayotiy maqsadlari shakllanishida asos vazifasini bajaradi. Ammo shaxsiy qadriyatlar milliy va umuminsoniy qadriyatlardan ayro holatda hech qachon mukammallik kasb eta olmaydi. Boshqacharoq aytganda shaxsiy qadriyatlar aynan milliy va umuminsoniy qadriyatlarga muvofiq shakllangandagina yuksak insoniy va axloqiy harakterdagi hayotiy maqsadlarga asos bo‘lishi mumkin. Aksincha bo‘lgan holatda esa bunaqangi hayotiy maqsadlar insoniyat, jamiyat va millatning boshiga faqatgina kulfatlar keltiradi xolos.

Yuqoridagilardan ma’lum bo'ladiki, shaxsning hayotiy maqsadlari shakllanishi uchun bevosita ta’sir ko‘rsatuvchi individual qadriyatlar bevosita milliy va umuminsoniy qadriyatlar bilan aloqador hisoblanadi. Xususan, xalqimizga xos milliy qadriyatlarining o‘zagini din, e’tiqod va ular bilan bog‘liq qarashlar, normalar, tasavvurlar tashkil etadi.

Demak, qadriyatlar odamlar shaxsiyatining asosiy jihatlaridan biri bo‘lib, ularning borliqqa munosabati va xatti-harakatlariga, hususan, hayotiy maqsadlarining shakllanishiga ham beqiyos darajada ta’sir qiladi.

17 Rokeach, M. The Nature of Human Values (Free Press, New York, 1973).

18 Назаров Қ. Қадриятлар фалсафаси. Т.:Файласуфлар миллий жамияти нашриёти. 2004.Б.48

19 Schwartz, S. H. Universals in the content and structure of values: theoretical advances and empirical tests in 20 countries. Adv. Exp. Soc. Psychol. 25, 1–65 (1992)

20 Roccas, S., Sagiv, L., Oppenheim, S., Elster, A. & Gal, A. Integrating content and structure aspects of the self: traits, values, and selfimprovement. J. Pers. 82, 144–157 (2014).

# QOBULSHOH-O‘G‘LON VA O‘G‘IZ MANZILLARI HAQIDA

***Akmal Kazakovich Niyozmatov*** *- o‘qituvchi, Jizzax viloyati Mirzacho‘l tumani 9-maktab*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Jizzax viloyati Zomin tumani Uyas-solin qishlog‘ida joylashgan Qobulmozor ziyorat maskani tarixiy yurt ekanligini chuqur va har tomonlama tadqiq qilinar ekan, ayni damda, o‘tmish tariximizni o‘rganishda buning dolzarbligiga e’tiborni qaratiladi. Maqoladagi muhim bir jihat, ya’ni so‘z tahlillariga asoslanib, Sohibqiron Temurbekning nasl-nasabi va uning o‘zbek urug‘lari orasida qaysi nom bilan yuritilganligi ilmiy tadqiq qilinadi. Bu maqola kelajakda aynan Temurbekning tug‘ilgan joyiga aniqlik kiritadi.*

***Аннотация:*** *В данной статье подробно и всесторонне исследуется, что место паломничества Кабулмазар, расположенное в селе Уяс-Солин Зааминского района Джизакской области, является исторической землей, в то же время уделяется внимание актуальности этого при изучении нашей истории прошлого. Важным аспектом статьи, а именно на основе анализа слов, является научное исследование происхождения Сахибкирана Темурбека и того, под каким именем он носил среди узбекских родов. Эта статья прояснит в будущем, где именно родился Темурбек.*

***Abstract:*** *This article will focus on the relevance of this at the same time, in the study of our past history, while a deep and comprehensive study of the fact that the Kabulmazor pilgrimage site, located in the village of Uyas-solin, Zominsky District, Jizzakh region, is a historical land. Based on an important aspect in the article, namely verbal analysis, a scientific study of the genealogy of Sahibqiron Us Temurbek and the name by which it was held among the Uzbek seeds is carried out. This article will clarify exactly where Timurbek was born in the future.*

***Kalit so‘zlar:*** *qobulmozor tarixiy maskani, Oqar dala-tuzi, o‘g‘lon unvoni, dug‘latiy, qiyot naslidan bo‘lgan o‘zbek, Tog‘ayshoh, tug‘oy aymog‘i, Suluqo‘rg‘on Uyas-solin.*

***Ключевые слова:*** *историческое место кабулмазар, агар дала-Тузи, титул сына, дуглати, узбек из рода киот, тогайшах, Тугай аймаг, Сулукурган Уяс-Солин.*

***Keywords:*** *qobulmozor historical settlement, Oqar dala-tuzi, oglan title, duglatiy, Uzbek of qiyot lineage, Togayshah, tughoy aymogi, Sulukurgan Uyas-solin.*

Jizzax viloyatining qadimiy manzilgohlarini ilmiy tadqiq etilishi ishlariga bag‘ishlangan O‘zbekiston Respublikasi Fanlar Akademiyasi Arxeologiya Instituti tomonidan nashr qilingan “Qadimiy Zomin” nomli ilmiy majmuaga Og‘a Burgutli – Sattor Qoraboyevning “Jizzax viloyati ziyoratgohlari” asari sahifalari ham kiritilgan bo‘lib, har ikkala kitobning sahifalarida Jizzax viloyati Zomin tumanida joylashgan Qobulmozor, ya’ni Qo‘shintepa haqidagi quyidagi ma’lumotni uchratish mumkin:

“Hozirgi paytda Ittifoq qishlog‘ining etagidagi kattagina haybatli tepalik “Qo‘shintepa” deb ataladi va kishilar ana shu tepalikda Amir Temur bobomizning lashkarlari olis janglar oldidan va jangdan qaytayotib makon tutganligini hikoya qiladilar.

“Qo‘shintepa”da bo‘lgan arxeolog olimlar bu yerdan aynan Amir Temur zamonasiga oid sapol parchalarini, daliliy ashyolarni topishdi. Fransiyaning poytaxti Parijda, Bressand xonim homiyligida chop etiladigan “Temuridis” – “Temuriylar” jurnalida aynan shu arxeologik tadqiqodlar haqida, mazkur tepalikni asrab-avaylash lozimligi haqida gap boradi”[1].

Mustaqillik yillarida tarixchi olimlarimiz tomonidan Qobulshoh-O‘g‘lonning hayoti va faoliyatiga oid tadqiqodlar kitobxonlar e’tiboriga havola etilgan. Uning darveshtabiat bo‘lgani va qaerda vafot etganligini, shuningdek, ezgulik yo‘lida boshqalarga yaxshilikni ilingani va ulashgani xususida so‘z yuritilgan. Endilikda, Qo‘shintepa hududidagi Qobulmozor ziyoratgohi joylashgan o‘rin aynan Temurbek zamonida yashagan Qobulshoh-Og‘longa tegishli bo‘lishi mumkin degan fikrga kelamiz. Chunki, ushbu hududda Uyas-solin deb atalgan qishloqning mavjudligi bizning shu fikrga kelishimizga asos bo‘ladi.

Avvalo, Qobulshoh-O‘g‘lonning “o‘g‘lon” unvoni haqida so‘z yuritishdan oldin, uning bu ism bilan hazrat Sohibqiron bobomizning tarixiga bag‘ishlangan “Zafarnoma” – tarixiy asarida uchrashligini alohida qayd etib o‘tishimiz lozim.

1 *Og‘a Burgutli “Jizzax viloyati ziyoratgohlari” Toshkent . 2008. 42-bet.*





Taniqli filolog olim Ahmad Ishayev “O‘g‘lingni sevsang..” (o‘g‘lingni sevsang, qulingdek ishlat! o‘zbek xalq maqoli) deb nomlangan ilmiy maqolasida “o‘g‘lon” so‘zining kelib chiqishi va asl mohiyati haqida so‘z yuritib, bu to‘g‘rida, tadqiqodchi olimlarning fikrlariga batafsil to‘xtalgan[2]. Jumladan, ushbu ilmiy maqolada qayd qilinishicha, eski o‘zbek tilida o‘g‘lon so‘zi xonlik mansabiga da’vo qilmagan Chingizxon avlodlarini hamda yosh jangchi va o‘gil ma’nolarini bildirgan. Biz bu so‘zning unvon, daraja ekanligini va uni turkiylar urf-odatiga ko‘ra qo‘llanilganligini qayd etishimiz lozim. Haqiqatda, bu haqda olimlarning o‘z ilmiy qarashlar mavjud bo‘lib, misol uchun, Amir Temur bobomizning otasi Amir Tarog‘ay Bahodirga berilgan “bahodir” nisbasi ham shunga tegishli.

Olim maqolasida quyidagi so‘zlarni keltiradi: “Mojar olimi Herman Vamberi o‘g‘il, o‘g‘lon so‘zlarining “ug‘” qismi aslida “tug‘” (tug‘moq) fe’li bilan aloqadorligini ko‘rsatgan. Uning fikricha o‘g‘il, o‘g‘lon so‘zlarida dastlabki inson bolasi emas, balki umuman, hayvonlarning yangi tug‘ilgan, onasidan ajratilmagan (bizningcha, uvuz bol'gan) bolasi degan tushuncha bo‘lib, u keyinchalik avlod, nasl, urug‘ ma’nolarini kasb etgan. Ozarbayjon tilshunosi A.Damirchizodaning ham fikri shunday: O‘g‘lon so‘zi do‘g‘-ul-an (tug‘ulgan) so‘zidan vujudga kelgan.

Bu o‘rinda, avlodning davomchisi bo‘lgan o‘gilning shunday atalishi va bu borada bolani o‘z ota-ona, ayniqsa, ona erkalar ekan, “qo‘zi” so‘zining ko‘proq til iste’molida qo‘llashini kuzatiladi. Dastlab, bu so‘zning oilaviy qadriyatlar negizida shaklanganligiga yana bir misol: xalq orasida tog‘a tomonidan kichik jiyanini “jiyan qo‘zi” deb aytish odati hozirda ham mavjud. Darhaqiqat, o‘g‘ilning nasl-nasab davomchisi ekanligini “uloq” yoki shunga o‘xshash menguloq, qo‘zichoq, bo‘taloq so‘zi bilan taqqoslashimiz mumkin. Albatta, bu so‘zning taraqqiyotning muhim bosqichlariga o‘tishda alohida ahamiyatga ega bo‘lganligiga shak-shubha yo‘q.

Turkona (milliy) urf-odatlarning, qadriyatlarning o‘ziga xosligi va shu tufayli turk atamasi (ashina qabilasi turk deb atalgan) alohida ahamiyatga ega bo‘lganligi o‘zining ishonch-e’tiqod ma’nosiga ega bo‘lgan O‘g‘uzxon (milliy o‘zlik ifodasi) haqidagi rivoyatni va uning davlatchilikka asos solganligi haqidagi hikoyatni keltirib chiqaradi.

Maqolada aytilishicha, “o‘g‘lon” so‘zining o‘zagini “o‘g‘” so‘zi tashkil etadi va bu bizningcha urug‘, qabila nomining olinishiga sabab bo‘lgan[3]. Biroq, turk jumlasi singari “o‘g‘i” jumlasi ham qadimiydir. Va bu so‘z “o‘guz” nisbasi bilan uyg‘undir. Uni vatan yoki yurt ma’nosida tushunish mumkin. Misol uchun, Muhammad (Mirzo) Haydar dug‘latiyning “Tarixiy Rashidiy” asarida taxallusini Ayoziy (Uyoziy) deb qayd etilganiga qaraganda, Ayoziy so‘zi Yozi yoki Uyoz degan so‘zga o‘xshash, o‘zbek xalq ijodidagi mashhur “Yozi quduq” dostoni nomi ham aynan shu so‘z bilan uyg‘undir[4]. Tarixiy manbalarda chig‘atoy ulusida mo‘g‘ul xonlaridan “o‘g‘lon” nisbasiga ega bo‘lgan ikkita tarixiy shaxs – hukmdorning ismini, ya’ni nomini qayd etiladi va sanoq bo‘yicha, ularning ikkinchisi Qobulshoh-O‘g‘londir.

Tarixnavis Nizomiddin Shomiy o‘zining “Zafarnoma” – tarixiy asarida Qobulshoh-O‘g‘lonning xonlikka ko‘tarilishi voqeasini quyidagicha ma’lum etadi: “..Mamlakat ahvoli shu xilda qaror topib, Samarqand bo‘ysundirilgach, payg‘ambarlar sayyidining <u kishiga Tangrining rahmati va salovoti bo‘lsin>, hijratidan yetti yuz oltmish bir yil o‘tgandaamirlar va no‘yonlar Oqor mavzeida kengash qilishib, Qobulshohni podshohlik taxtiga o‘tkazdilar va shunday bir marosimga munosib to‘y qilib, tuhfa va peshkashlarni taqdim etdilar: ayshu ishrat bazmini o‘rniga qo‘ydilar”[5].

Sharafuddun Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida Qobulshoh-O‘g‘lonning Movarounnahrga hukmdor e’lon qilingani voqeasini aytilishi bilan birga, (darhol) yurtdagi yuz bergan siyosiy ahvol to‘g‘risida quyidagicha ma’lum qilinadi: “Qadimdan ul diyor hazrat Sohibqiron va uning oliy martabali ota bobolariga tegishli bo‘lganligi uchun, uning podshohona oliyjanoblik rasm-rusumi mehmonlarni e’zozlashni taqozo etardi”[6].

Darhaqiqat, qurultoy – davlat to‘yi bilan birgalikda, bevosita Amir Temurning ota meros mulklarni bayon qilinishi alohida ahamiyatga ega bo‘ladi. Binobarin, Amir Husayn va katta beklarning mulklari bu hududga aloqador

2 *Ahmad Ishayev “O‘g‘lingni sevsang”. “Fan va turmush” N-2. (316) 1981. 26, 27-betlar*

3 *Umuman olganda, Ibn Havqalning “Kitob surat al-ard” asari Movarounnahr qismining arab tilidan tarjima va izohlar muallifi tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Kamoliddinovning ta’kidlashicha, islom tarixchilari at-turk atamasini islom atamasiga qarama-qarshi bo‘lgan tushuncha sifatida bilganlar. Keyinchalik, islom diniga kirgan turkiy xalqlar tomonidan qolganlarini ham muqaddas islom diniga kiritiladi.*

4 *“Tarixiy Rashidiy” asarining muqovasi.*

5 *Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”. “Fan”. Toshkent. 2019. 42,43-betlar*

6 *Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma”. “Kamalak”. Toshkent. 1994. 98, 99-betlar.*

emasligini va ularning yo‘llari Amir Temurning mulklaridan o‘tishini shu yo‘sinda ma’lum etiladi. Bizning ilmiy qarashlarimizga ko‘ra, aynan Uyas-solin deb ataluvchi manzillar tarixiy joy sifatida tarixnavis Nizomiddin Shomining “Zafarnoma”asarida quyidagicha ma’lum qilinadi: “Amir Sohibqironning xossai sharifi bo‘lgan mavze’lar”. Sharafuddin Ali Yazdiyning “Zafarnoma” asarida bu so‘zlar “xossai sharifasiga mansub bo‘lgan joylar”, degan tarzda keltiriladi. Mazkur jumlalarga tayanib aytishimiz mumkinki, tarixiy yurt (joy) hisoblangan “Oqar mavze’i” – Oqar dala tuzi ijtimoiy termin sifatida ma’lum qilinadi. Darhaqiqat, “Oqar” ijtimoiy termin bo‘lib, arab tilidan kirganligi aytiladi va bu so‘z “ko‘chmas mulk, yer, suv, zamin” – demakdir. Aslida, Amir Temurning xossai sharifi bo‘lgan mavze’lar, ya’ni Amir Temurning avloddan-avlodga meros tariqasida tegadigan mulklar ulus, qadimgi “juldu” yoki “suyurg‘ol” tarzida tarixnavislar tomonidan shunday qo‘llangan.

Amir Temurning oliy martabali ota-bobolariga tegishli bo‘lgan Uyoz manzillari, jumladan,bu mulk shakli shu munosabat bilan Muiniddin Natanziyning “Muntaxib ut-tavorix”asarida: “Amir Temurning mulki bo‘lgan Hiyoziy qishlog‘i”, “Amir Temurning tug‘ilgan joyi va asl makoni bo‘lgan Niyoziy qishlog‘i”, “Sultoni g‘oziyning zarxarid qishloqlari”, “Podshoh (Tug‘luq Temurxon) ko‘plab suyurg‘ol (mulklarini) berib, avloddan-avlodga barlosiya merosi bo‘lgan (markazi) Shahrisabz tumanini Amir sohibqironga inoyat qildi”, “(Sohibqironning) jonajon vatani va besh yuz yil davomida nomdor ajdodlari qo‘l ostida bo‘lgan ulusi..”,[7]degan tarzda beriladi. Biz bunga shubha bilan qaramasligimiz lozim. Negaki, yuz bergan voqealar davomida mavjud Niyoziy qishlog‘i nomini bir necha marotaba “Zafarnoma” asarlarida Ajig‘iy tarzda beriladi va Hasan Ato Abushiyning “Turkiy qavmlar tarixi” asaridagi so‘z tahliliga ko‘ra, bu qishloq nomi O‘g‘uz yoki O‘z ekanligini ma’lum bo‘ladi. Qobulshoh-O‘g‘lonning qismati (taqdiri) haqida “Temur tuzuklari” asaridan quyidagi ma’lumotni uchratish mumkin:

“Lekin suldus va Jete amirlaridan nafratlandim, chunki ular Qobulshoh Chingiziyni amirlik, xonlik taxtiga o‘tkazib, unga do‘stona ixlos bilan xizmat qilish xususida ahdu paymon qilgandilar. Biroq, keyinroq mening saltanat taxtiga o‘ltirganligimni eshitishgach, menga xushomad qilmoqchi bo‘lib, ontlarini buzdilar va uni o‘ldirdilar”[8].

Amir Temur Balx muzofotida dushmani Amir Husayn ustidan zafar qozonib, saltanat taxtga o‘tirar ekan, bu orada bir guruh johil amirlarning sof niyatli Qobulshoh-O‘g‘lonni o‘ldirganligi ma’lum bo‘ladi. Amir Temurning bu voqeadan ko‘ngli o‘ksiganligini va bu voqeaning o‘ziga yoqmagan amirlarning tomonidan sodir etilganligini uning tuyg‘uga berilib aytgan gapidan ham bilib olsak bo‘ladi. Haqiqatdan ham, u sulduz amirlaridan nafratlanadi.Amir Temurning Qobulshon-O‘g‘lonni o‘ziga hayrihoh va yaqin do‘st deb bilishi va “amir, xon” deb hisoblashi zamirida uning nufuzi va martabasi jihatidan Amir Temurga yaqinligi ma’lum bo‘ladi. Har holda, uning turkiy xonadonga mansub bir kishi, ya’ni amir yoki xon ekanligi ma’lum bo‘ladi. Bizning bunday fikrga kelishimizga sabab, “Temur tuzuklari” asaridagi “amirlik, xonlik taxtiga o‘tkazib”, degan jumla bo‘lib, bu jumlalar aynan Qobulshohning oliynasab yoki Chingiziyligi anglashiladi. Chunki, asardagi ushbu so‘zlar Qobulshoh Chingiziyningning tug‘ilgan joyini va bu kelib chiqish bo‘yicha Temurbek kabi “o‘g‘lonlik” martabasini, ya’ni unvon, rutba-darajasini olganligi bilan izohlanadi. O‘rta asr tarixchisi, ensiklopedist olim, filolog, hakim va davlat arbobi Rashiduddin Fazlulloh al-Hamadoniyning “Jome’ ut-tavorix” asarida mo‘g‘ul qabilalari to‘g‘risida o‘zini mo‘g‘ul deb hisoblovchi xalqlarning nomi ilgari bundoq emas edi, deb yozadi va qadimda mo‘g‘ullar cho‘llarda yashovchi turkiy xalqlarning bir bo‘lagi bo‘lgan deb uqtiradi. Bu kabi milliy birlik borasida hazrat Nizomiddin Shomiyning quyidagi so‘zlari alohida ahamiyatga molikdir: “..Shu holatda turganlarida Dulon Jovan elidan uch yuz kishi (Sohibqiron) xizmatiga keldilar. Yer o‘pib, o‘zlarining aslida Amir Sohibqironning elu yurtidan ekanliklarini, yana xizmatga kelganliklarini bildirdilar”. Amir Temurning qavmiga mansub ellarning uning bilan yaqin munosabatda bo‘lish istagini hamda buning mavridi ekanligini, shuningdek, uning ulusi butun Movarounnahr bo‘ylab tarqalib ketganligini Nizomiddin Shomiyning asaridagi keyingi ma’lumot ham isbot etadi:

“Amir Husayn Amir Sohibqironga: “O‘z xonadoningni va elingni suvdan o‘tkaz!” – deb buyurdi. Amir Sohibqiron javob berdi: “El-yurt, yaqin kishilar suvdan (Amudaryodan) kechish maqsadida jo‘nab ketdilar. Ammo bundan nima foyda? Axir viloyat vayron bo‘ldi-ku, yashashu tirikchilik odamlar uchun achchiq kechmoqda, shaharlar xarobaga aylanadi..”, dedi”[9].

*7 Muiniddin Natanziy “Muntaxab ut-tavorixi Muiniy”. “O‘zbekiston”. 2011. 59, 82, 86, 53, 56-betlar*

*8 “Temur tuzuklari” “Adabiyot va san’at”. Toshkent. 1997. 133-bet.*

*9 Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”. “Fan”. Toshkent. 2019. 37, 47 -betlar.*





Darhaqiqat, ushbu bitiklar Amir Temurning o‘z xalqining yaxshi yashash umidini ro‘yobga chiqarish istagi qat’iy ekanligini yaqqol namoyon etadi. Do‘lon Jovan – bu atamaning Chog‘an, Do‘lan Boyju, Ustbayg‘u, Oqqubiy, Yabuqiy degan variantlari bor bo‘lib, uni “yabg‘u” “jabg‘u” yoki yobu deb o‘qilish holatlari mavjud. Birtoq, qiziqarli jihati shundan iboratki, xitoy manbalariga ko‘ra, 7- asrda aynan shu hududda yashagan Su-man yoki sumanliklar xi-su nomli turkiy qabiladan kelib chiqqan Chi-go yen-na (Chog‘oniyon) podshohiga qarshi bo‘lgan. So‘g‘dcha yaba – “yog‘och” va ub – “yer”, ya’ni og‘jiri, ya’ni o‘rmanqit qabilasining nomi. “Jan” so‘zi so‘g‘dcha “daryo” ma’nosiga egaligi, buni toponomiyaga ko‘ra, “Junariq” nomini yoki turkiy shevada buning muqobili bo‘lgan “Ivishariq” degan joy nomi ham isbot etadi. Ularning biri Sirdaryo viloyatida, yana biri Toshkent viloyatida, garchand ularning har ikkishi ham muayyan bir lahjaga ko‘ra aytilgan bo‘lsa-da, bularning ma’no jihatidan farqi yo‘qdir. Shamsiddin Kamoliddinovning ta’kidlashicha, islomdan oldingi Chochning turkiy hukmdorlari zarb etgan mis tangalardagi so‘g‘diy yozuvlarda srush – “yabg‘u” unvoni qayd etilgan[10]. Aslida “sar” so‘zi Usrushona tarzida tarixiy o‘lka nomida ham aks etgan. Joy nomi bo‘yicha Sar yuzi, Sariog‘och va hokazo. “Do‘l’an jovan” – bu jumlaning “jun” ko‘rinishi Junqurboniy, Joniqurboniy tarzda tarixiy manbalarda mavjud. Buning ham qiziq jihati shundaki, Joniqurboniy ham mo‘g‘ullar yashaydigan Moxon degan tarixiy bir manzilda aks etgan. Nizomiddin Shomiyning “Zafarnoma” asarida “jonqiy” so‘zi aynan harbiy atama sifatida ikki marta kengash ma’nosida keladi. Yabuqiy – qadimda nufuzli turk qabilasining nomi bo‘lishi bilan birgalikda, Alp Er To‘ngaga bag‘ishlangan marsiyada ham esga olinadi. Muhammad Tarag‘ay (Mirzo) Ulug‘bekning “Tarixi arba’ ulus” asarida O‘g‘uzxonning turki qavmlariga laqab qo‘ygani zikrida: “Mazkur tarixda O‘g‘uzxon turklarning qavmlariga laqablar qo‘ydiki, ular to hanuz o‘sha ismu laqablar bilan mashhurdirlar”, “O‘g‘uzxon turkiynajod qavmlarga shu tarzda nom qo‘ydi. Sen ularning barchasini turk deb bil, faqat nomlari turlicha bo‘ldi”[11], degan jumlalariga duch kelamiz va bu bizning diqqat-e’tiborimizni o‘ziga tortishi tabiiy. Turk buduni va jumladan, Temurbekning uzundan-uzoq shajarasini va naslining millat darajasida bayon qilinishi va bu borada, Mirzo Ulug‘bekning mazkur asarida: “Qayon ibn Elxon naslidan bo‘lgan Amir Temur Ko‘ragon”[12] degan jumlaga to‘xtalib o‘tadigan bo‘lsak, bu yana ham oydinlashadi. Chunki, uning boshqa nom turkiy barlos qabilasi deb ko‘rsatilishini xuddi shu singari o‘z isbotiga ega bo‘ladi. Barlos “boylaqon”, “barusan”, shuningdek, “bulgut”, “bilkut”, “burkut” degan so‘zlar bilan uyg‘un bo‘lishi mumkin. “Bulkut” so‘zning oxirgi “t” harfi (yoyi) ko‘plik ma’nosidadir. “Barsa” – mo‘g‘ul tilida “xilvat joy” – o‘rmon kishilari degan ma’noga ega. Burkutni yuqoridagi tadqiq qilingan dulu (turgash ham) qabilasiga ko‘ra, aynan nisbat ma’nosi bilan “yabg‘u” – garbiy turk hoqonligi davridagi unvon bilan qiyoslash mumkin bo‘ladi. Cnunki, bundan “oqchekmon” yoki “oqsoli” to‘pi (bog‘lami) alohida ajralib chiqadi va bu bevosita Temurbekning ota-bobolarining kelib chiqishi jihatidan o‘g‘iz beklari, ya’ni turk urug‘iga mansubligi bilan tavsiflanadi.

Temurbekning zamonida “qiyot naslidan bo‘lgan o‘zbek”[13], degan jumla mashhur bo‘lib, bu jumla marqiyot yoki qiyot (burchqin, ya’ni mengul – marqa bolasi yuqorida aytilganidek) shaklida o‘zining juda ham qadimiyligini namoyon etadi. Ushbu jumlalar Temurbekning o‘ziga ham tegishlidir[14]. Qadimgi “o‘g‘i” jumlasiga ko‘ra, kishining muayyan bir xalqni vakili ekanligini “o‘z” va “bek” jumlasi ham isbot etadi. Temurbekning “Bizkim mulki Turon, amiri Turkistonmiz, bizkim millatlarning eng ulug‘i va qadimi turkning bosh bo‘g‘imiz”, degan jumla qiyot bo‘ganing, ya’ni o‘zbekning “o‘z” yoki “o‘gi” tarmog‘ini ma’lum etadi. “O‘zbek urug‘lari” nomli kitobida tarixchi olimlar Amur sohillarida yashagan qabilalardan o‘g‘i qabilalari tarkib topganligini tadqiq etadilar. Biz bu ma’lumotni inobatga olib, O‘z – Yuz etnonimi bilan bog‘liqligini tarix fanlari doktori, professor Shamsiddin Kamoliddin tomonidan ham ta’kidlanganligini aytib o‘tishni lozim deb hisoblaymiz[15].

Amir Temurning (urug‘-aymog‘i bo‘yicha) Uyuz (Us)ligini Zahiriddin Muhammad Boburning bir g‘azali ham isbotlaydi. G‘azal: “So‘rma holimniki bo‘ldum burnog‘iddin zorroq”, deb boshlanadi va to‘rtinchi satridagi: “Yuz Temur band o‘lsa, bu erur andin

*10 Ibn Havqal “Kitob surat al-ard”. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2011-yil. 249-bet.*

*11 Mirzo Ulug'bek “To‘rt ulus tarixi” “Yosh kuch”. Toshkent. 2010. 62, 64-betlar*

*12 Mirzo Ulug'bek “To‘rt ulus tarixi” “Yosh kuch”. Toshkent. 2010. 371-bet.*

*13 Nizomiddin Shomiy “Zafarnoma”. “Fan”. Toshkent. 2019. 183-bet.*

*14 Abulg'oziy Bahodirxon “Shajarayi turk“ “Cho‘lpon”. Toshkent. 1992. 46-bet “Tog'dan kelgan selni mo‘g'ul qayon der. Qiyot aning jam’i turur. Qiyotning asl ma’nosi kuchli va yildam temak bo‘lur... Arqanaqun ichinda qayon o‘g'lonlarina Qiyot tedilar”.*

*15 Ibn Havqal “Kitob surat al-ard”. “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” Davlat ilmiy nashriyoti. Toshkent. 2011. Shamsiddin Kamoliddinov “Sharh va izohlar” 283, 284-betlar. Yuz etnonimining “yuz, yz” ko‘rinishini ma’lum etiladi. (Qoshg'ariy lotin harfi 3: 164). (al-Qoshgari: 1826, 5363).*

dushvorroq”, degan jumla qaysi millatga mansublikni anglatadi[16]. Bu o‘rinda, ushbu mashhur g‘azaldagi “band” so‘zi forscha “bastand” so‘zidan olingan va “bog‘lanish”, degan ma’noga ega.

“Uyuz (bek)” va “o‘g‘lon” jumlasi qadimdan oliyjanob (suvning xislatlariga ko‘ra) va ezgu hisli qalbli kishilarga nisbatan qo‘llanilgan, balkim, shuning sabab “suv” so‘zini Nizomiddin Shomiy aynan Temurbekning so‘zi bilan yuqoridagicha, ya’ni “qiyot naslidan bo‘lgan o‘zbek”, deb bayon va ayon qilgandir.

Qobulshoh-O‘g‘lon ismidagi “shoh” jumlasi o‘z zamonida “og‘lon” jumlasi bilan bir ma’noga ega bo‘lgan degan fikr ustivor bo‘lib qolaveradi. Zero, “shoh” jumlasi qadim-qadimdan so‘gd bahodiri, ya’ni so‘g‘d hukmdoriga nisbatan qo‘llanilgaan bo‘lib, bu tarixiy so‘zlar Temurbekning zamonida yoshlikdagi o‘rtog‘lari, ya’ni og‘alariga nisbatan ham qo‘llanilgan. “Zafarnoma” asarida Tog‘ayshoh, Davlatshoh – Temurbek bilan bolalikdan eng yaqin do‘st, ya’ni o‘rtog‘lari nomini shu tartibda berilgan. Aslida bu nomlar ularning turk bahodiri, ya’ni barloslar, demakki yuz (uyuz) urug‘idan bo‘lganligi bilan ayirmalanadi. Bu bitiklardagi qimmatli bo‘lgan jihatlardan biri shuki, ularning “shoh” nisbasi asl yurti, ya’ni tug‘ilgan makoni (joyi)ga ko‘radir.

Jizzax viloyatining ma’muriy-hududiy xaritasida ushbu qishloqning nomi Uyas-solin deb qayd etilgan. Respublikamizning boshqa hududlarida ham bu kabi tarixiy joy nomlari ko‘plab uchraydi va ulardan biri Qashqadaryo viloyatining Yakkabog tumanida joylashgan va uni ilmiy-adabiy jurnalda “O‘z”, deb ma’lum qilinadi.

“Solin” so‘zi “sala” – irmoq ma’nosida bo‘lishi mimkin. Misol uchun, Salor arig‘i. Chunki, bu so‘zni Usu, ya’ni Su(v) yoki Sulu so‘zi bilan taqqoslashga ehtiyoj seziladi. “Selen” atamasi vaqtlar o‘tishi bilan “senat” jumlasini vujudga keltirgan. Shunga ko‘ra, bu “ular shunday bir jamoaki, muhim masalalarda kengashadilar”, degan jumla aql bilan ish ko‘rish ma’nosida keladi. “Sar”(yoki sot), “Oqqasar” – Amir Temurning amakisi Hoji Barlosning ulug‘ ming hazorasini tashkil qilishligi, ya’ni bilishligi bilan ifodalanadi. Keyinchalik xazar turkiy “Zafarnoma” asarida Amir Temurning xalqining kelajak saodatini ifodalaydi. Umuman, bularning barchasi haqida Alisher Navoiy she’rida shunday deydi: “Agar bir qavm, gar yuz, yo‘qsa mingdir, Muayyan turk ulusi xud meningdir”. Bu o‘rinda: aynan va aynan “turk ulusi”, degan so‘z-iboraga butun e’tiborni qaratish kerak bo‘ladi. Chunki, matndagi bu so‘z “vatan” ma’nosiga juda ham yaqin keladi yoki vatan tushunchasini ifodalaydi. Joy nomlari bo‘yicha Bayan sulu, Sanko og‘och, Sariog‘och, Selenga (daryo nomi). Mahalliy xalq tilidagi “Qipchoq suv solin”yoki “Gadoy Selkin bobo qabri joylashgan Suv darvoza”[17] jumlasini ham chuqur ilmiy tahlil qilishga asoslar bor. O‘zbek urug‘laridan biri Uyaz-Solin guruhlari (tarmog‘i) haqida ham so‘z yuritish maqsadga muvofiq bo‘lib, aynan mahalliy xalq tilidagi “tag‘oy to‘pi” nomi Respublikamizning Jizzax, Samarqand viloyatlarida ko‘p uchraydi.

“Temur tuzuklari” asaridan:

“Qaramog‘imdagi qirq aymoqdan o‘n ikkitasiga – barlos, tarxon, arg‘in, jaloyir, tulkichi, dulday, mo‘g‘ul, suldus, tug‘oy, qipchoq, orlot, totorg‘a tamg‘a berilsinkim, bular mening xos navkarlarim hisoblansin”. Mazkur bitiklardan so‘ng, “tug‘oy aymog‘i” haqida: “Tug‘oy ulusidan Ali Darveshni amir qildim”,[18] degan jumla qayd qilinadi.Ali Darvesh haqida “Zafarnoma” asarida mana shunday jumlani uchratish mumkin: “Ali Darveshkim, mashhur ba sagicha erdi”[19]. Yana Ali Darveshning ulusi, kishilari haqida, ularning go‘zal tarbiya topganligi xususida hurmat bilan aytilgan bir bitik – esdalik saqlanadi va bu oldingi manbadan ko‘chirma olinganligidan dalolat beradi. Eslatma tarzida: “tug‘oy” so‘zi qadimda xalq orasida daryoning burilish joyi – tirsagiga nisbatan qo‘llanilgan.

Jizzax viloyati Baxmal tumanidagi Sar yuzi, Samarqand viloyati Bulung‘ur tumanidagi Sulu(v)qo‘rg‘on (Uyas-solin) qishlog‘i, Samarqand viloyati Poyariq tumanidagi O‘zbekqo‘rg‘on (mahalliy xalq tilida Sotqo‘rg‘on) Oqar dala-tuzu, ya’ni O‘g‘uzlar yurti – joy nomi kabi o‘zining qadim tarixiga ega.

16 “Bobur she’riyatidan”. O‘zbekiston KP Markaziy Komitetining nashriyoti. Toshkent. 1982. 71- bet.
17 Salohiddin Soliyev. Umr savdosi – Voqeiy qissa. Nashriyot matbaa birlashmasi. 1992.201-bet. G‘aybullo Salomovnning Men suv ichgan daryolar – kitobida ham bor.
18 “Temur tuzuklari” “Adabiyot va san’at”. Toshkent. 1997. 109-bet.
19 Sharafuddin Ali Yazdiy “Zafarnoma” “Sharq” nashriyot-matbaa konsernining Bosh tahririyati Toshkent.1997 298-bet.





# O‘QUVCHILARDA MILLATLARARO TOTUVLIK HISSINI SHAKLLANTIRISHDA TARIXIY MEROSDAN FOYDALANISH

***Umida Oripovna Ergasheva** - o‘qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada o‘sib kelayotgan yosh avlodni bag‘rikenglik ruhida tarbiyalash, o‘quvchi – yoshlarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda tarixiy merosdan foydalanish, ularning huquqiy va ma’naviy ongini o‘stirish, axloqiy madaniyatini yuksaltirish, madaniy xulqiga tarbiyaviy ta’sir etish haqidagi fikrlar bayon qilingan.*

***Аннотация:*** *В статье раскрываются идеи воспитания подрастающего молодого поколения в духе толерантности, использования исторического наследия в формировании межнационального согласия студенческой молодежи, повышения их правового и духовного сознания, повышения их нравственной культуры, воспитательного воздействия на их культурное поведение сделано.*

***Abstract:*** *In the article, raising the growing young generation in the spirit of tolerance, using historical heritage in the formation of inter-ethnic harmony among students, raising their legal and spiritual awareness, raising their moral culture, and having an educational effect on their cultural behavior. ideas are presented.*

***Kalit so‘zlar:*** *yosh avlod, xalq, millat, elat, millatlararo totuvlik, qadriyat, tarixiy meros, millatlararo muloqot, etnik birlik, tolerantlik, ijtimoiy hayot, mafkuraviy tarbiya, vijdon erkinligi, diniy bag‘rikenglik, separatizm, milliy ayirmachilik, yagona mintaqa madaniyati.*

***Ключевые слова:*** *молодое поколение, народ, нация, народ, межнациональное согласие, ценность, историческое наследие, межнациональное общение, этническое единство, толерантность, общественная жизнь, идеологическое воспитание, свобода совести, веротерпимость, сепаратизм, национальное обособление, Единая региональная культура.*

***Keywords:*** *young generation, people, nation, people, inter-ethnic harmony, value, historical heritage, inter-ethnic communication, ethnic unity, tolerance, social life, ideological education, freedom of conscience, religious tolerance, separatism, national separation, single regional culture.*

Hozirgi globallashuv jarayonlarida bag‘rikenglikka bo‘lgan talabning dolzarb bo‘lishiga sabab, insoniyat kelajagini ta’minlash, global muammolarni oqilona yo‘l bilan hal qilishni talab qilmoqda.

Xalqimiz azal-azaldan adolat, erkinlik, muruvvat, mehr-oqibat, bag‘rikenglik kabi fazilatlarni yosh avlodga singdirib kelgan. Ayniqsa oilada, jamiyatda yoshlar tarbiyasiga katta e’tibor qaratilgan. Bu esa bo‘lajak pedagoglarga hozirgi zamon yoshlariga, xususan, yuqori sinf o‘quvchilariga mustaqil fikrlashni, o‘z-o‘zini tanqidiy anglashni, barcha xalqlar, elatlar va millatlarning milliy, ma’naviy qadriyatlarini hurmat qilishni, ya’ni bag‘rikenglik tuyg‘usini his etishni o‘rgatish lozimligini anglatadi. Shu o‘rinda millatlararo hamdo‘stlik va sobitqadamlikni rivojlantirishning bir qator omillari mavjud bo‘lib, shulardan biri millatlararo muloqot turli millatlarga xos bo‘lgan kishilar o‘rtasidagi munosabatlar jarayonida namoyon bo‘ladi.

Milliy mentaliteti, turmush tarzlari bir-biriga yaqin bo‘lgan millatlar o‘rtasidagi muloqot yengil va bir-birlarini tushunarli tarzda oson kechadi.

Millatlararo muloqotlarni madaniyatli va o‘zaro hurmat asosida tashkil etib, olib borilishi millatlararo munosabatlar taraqqiy etishiga katta ta’sir ko‘rsatadi. Millatlararo muloqotni rivojlantirib borish, turli millat vakillariga hurmat bilan qarash, ular bilan bahamjihat yashash milliy mafkuramizning umumbashariy g‘oyalari sirasiga kiradi.

Hozirgi vaqtda mavjud bo‘lgan har bir milliy madaniyatdagi yutuqlar, uning ijobiy, foydali tomonlarini doimiy ravishda o‘rganish, ulardan keng va atroflicha foydalanish milliy madaniyatlarni o‘zaro boytishning, kishilarni baynalmilal ruhda tarbiyalashning zarur yo‘llaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekiston Respublikasida barcha millat va etnik guruhlar o‘rtasida shu hududda yashaydigan har qanday odamga o‘zini erkin va teng huquqli deb his qilish uchun barcha imkoniyatlar yaratilib berilgan. Ularning fuqarolik, shaxsiy, ijtimoiy–siyosiy, iqtisodiy huquqlari O‘zbekiston Respulikasining Konstitutsiyasida, “Fuqarolar saylov huquqlarining kafolatlari to‘g‘risida”gi Qonunda

O‘zbekiston Respublikasining hamma fuqarolari “ijtimoiy kelib chiqishi, ijtimoiy va mulkiy mavqei, irqiy va milliy mansubligi, jinsi, ma’lumoti, tili, dinga munosabati, mashg‘ulotining turi va xususiyatidan qatiy nazar” teng saylov huquqiga ega, deb yozib qo‘yilgan. Shuningdek, O‘zbekiston hududida yashaydigan etnik ozchilikning huquqlarini himoya qilish to‘g‘risida ham alohida ko‘rsatib o‘tilgan. Konstitutsiyada yozilganidek, “O‘zbekiston Respublikasi o‘z hududida ham, uning tashqarisida ham o‘z fuqarolarini huquqiy himoya qilish va ularga homiylik ko‘rsatishni kafolatlaydi”[1].

Shuni alohida qayd etish lozimki, jamiyatimizda kundan-kunga mustahkamlanib borayotgan milliy hamjixatlik, milliy birdamlik nafaqat respublikamiz tub aholisi – o‘zbeklar bilan O‘zbekistonda yashayotgan boshqa millatlar vakillari orasida ham etnik madaniy asoslarda jipslashish jarayonlari faol yuz bermoqda.

Millatlararo totuvlikni ta’minlab, har bir millat vakilining ongi va qalbiga “Shu aziz Vatan barchamizniki” degan tamoyilni singdirish orqali ularni ozod va obod Vatan qurish yo‘liga safarbar etishda milliy madaniy markazlarning faoliyatini takomillashtirishning ahamiyati kattadir.

Respublikamizda hozirgi kunda bir yuz ellikdan ortiq milliy–madaniy markazlar faoliyat kursatib kelmoqda. Ular ko‘p millatli O‘zbekistonda jamiyatni siyosiy, iqtisodiy, madaniy–ma’naviy jihatdan qayta qurish jarayonida ijobiy rol o‘ynamoqda.

Millatlararo tinchlik, totuvlikni ta’minlashda o‘zbek millatining boshqa suveren davlatlarda, xususan, O‘rta Osiyo mamlakatlarida yashayotgan o‘z etnik qardoshlari bilan yaqin munosabatda bo‘lishi katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasining ta’lim sohasida amalga oshirayotgan siyosati natijasida yaratilayotgan o‘quv dasturlar va darsliklar yoshlarda o‘zaro tushunuvchanlikni mustahkamlashga xizmat qilib, birdamlik, etnik, ijtimoiy, madaniy, ma’naviy aloqalarni yanada yaqinlashtirmoqda. Shuningdek biz bo‘lajak pedagoglarga hozirgi zamon yoshlariga mustaqil fikrlashni, o‘z-o‘zini tanqidiy anglashni, barcha xalqlar, elatlar va millatlarning milliy, ma’naviy qadriyatlarini hurmat qilishni, ya’ni tolerantlik tuyg‘usini his etishni o‘rgatish lozimligini uqtirmoqda.

Har bir o‘quvchining nuqtai nazari, boshqalarnikiga yaqin yoki ulardan farqli bo‘lib, o‘zida barcha boshqa muqobil fikrlarni mujassamlashtirmaydi. O‘quvchilardagi bunday holat mavjud pedagogik vaziyat yoki taqdim etilayotgan bilimlar sirasigagina bog‘liq bo‘lib qolmay, muayyan jamiyatdagi ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, madaniy voqelik mahsuli hamdir. Umuman olganda tolerantlik tushunchasi va uni o‘quvchilarda shak¬llantirish muammosi ijtimoiy hayotda shaxslar, dinlar, mil¬latlararo farqlar, qarama-qarshilik va mojarolarning mavjudligi bilan chambarchas bog‘liq.

O‘quvchilarda tolerantlik tushunchalarini shakllantirish ishlarini umumiy o‘rta ta’limning ilk bosqichida, ya’ni ularda yaxshilik, hamdardlik va rostgo‘ylik kabi fazilatlar poydevori endigina vujudga kelayotgan davrdan boshlash lozim.

Bir so‘z bilan aytganda, xilma-xillik inson taraqqiyotini boyituvchi muhim omil hisoblanib, aynan chidamsizlik uning yo‘lida to‘siq bo‘ladi. Ta’lim jarayonida bu to‘siqlarni bartaraf etish yo‘llari va vositalari haqida o‘quvchilarni muntazam xabardor qilib turish ham muhim ahamiyatga ega.

Jamiyatda tolerantlik to‘la to‘kim qaror topmasa begona va zararli g‘oyalarning ta’siri sezilishi ehtimoli ortib boradi. Bu esa g‘oyaviy tarbiyani yo‘lga qo‘yish, sog‘lom mafkura tamoyillarini aholi qalbi va ongiga muttasil singdirishni dolzarb vazifaga aylantiradi.

O‘zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifasi - xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi asriy orzu-istaklari, maqsadlarini, milliy istiqlol mafkurasi-ning mohiyatini keng jamoatchilikka tushuntirish, ayniqsa, yoshlar ongiga va qalbiga singdirishdan iboratdir.

Mafkuraviy tarbiya jamiyatda, avvalambor, oila, maktabgacha yoshdagi bolalar muassasalari, maktablar, litsey, kollejlar, oliy o‘quv yurtlari, ommaviy axborot vositalari, jamoat tashkilotlarining birgalikdagi uzluksiz faoliyatini taqozo qiladi. Uzluksiz ta’lim tizimi mafkuraviy tarbiyani olib boruvchi asosiy bo‘g‘indir, zero mafkuraviy maqsadlarni yoshlar ongiga singdirish vazifasi asosan ta’lim tizimi orqali amalga oshiriladi.

Tolerantlikni ta’minlashga o‘z hissasini qo‘shadigan har tomonlama yetuk shaxslarni tarbiyalab voyaga yetkazishga xizmat qiladigan tarbiya inson dunyoqarashini shakllantirishga, ularning muayyan maqsadlarini ifoda etadigan g‘oyaviy bilimlar bilan qurollantirishga yo‘naltirilgan jarayondir.

Shaxs tarbiyasiga salbiy ta’sir ko‘rsatuvchi millatchilik, tajavuzkor millatchilik, shovinizm singari yovuz buzg‘unchi g‘oyalar mavjud bo‘lgan sharoitda mafkuraviy tarbiyani kuchaytirish tarixiy zaruriyatga aylandi.

Bugungi kun O‘zbekiston sharoitida mafkuraviy tarbiyaning asosiy vazifalaridan biri - xalqimizning ozod va obod Vatan, erkin va farovon hayot barpo etish yo‘lidagi sa’yoharakatlarini takomillashtirish, millatidan qat’i nazar, barcha jamiyat a’zolarini mana shu maqsad sari yo‘lida safarbar etishdir.

1 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018,7-bet.





Jahon tajribasidan millatlar yoki etnik guruhlar o‘rtasidagi o‘zaro munosabatlarda an’anaviy uyg‘unlik vujudga kelgan mamlakatlarda ko‘p elatlilik omili davlatlarning siyosiy-iqtisodiy rivojlanishiga samarali, rag‘batlantiruvchi ta’sir etishini ko‘rsatuvchi misollarni ko‘plab keltirish mumkin. Ko‘pgina mamlakatlarda etnik guruhlar va irqlar o‘rtasida ma’lum muammolar mavjud. Shunga qaramay, ko‘p elatlilik omili ularning ijtimoiy-iqtisodiy taraqqiyoti yo‘lidagi to‘g‘anoqqa aylanib qolmagan. Aksincha, taraqqiyotning jadallashuviga yordam bergan.

Mamlakatimiz O‘zbekistonni ham 130 dan ortiq millat va elatlar o‘zlarining jonojon Vatani deb hisoblaydilar, deb bemalol aytishga barcha asoslar yetarlidir. Bu esa mamlakatimizda tinchlik va osoyishtalikni yanada mustahkamlash hamda yuksak taraqqiyotga erishishda muhim omil bo‘lmoqda. Millatlararo va dinlararo ahillik, hamjihatlik istiqlol yillarida Prezidentimiz rahnamoligida ishlab chiqilgan milliy siyosatimizning muhim bir yo‘nalishi sifatida demokratik tamoyillarga asoslangan fuqarolik jamiyatining barqaror va mo‘tadil rivojlanishida muhim ahamiyat kasb etmoqda. Binobarin, bugun shiddat bilan kechayotgan globallashuv davrida dinlararo munosabatlarning, xususan, o‘zaro tolerantlikning ahamiyati tobora ortib bormoqda.

Aytish lozimki, O‘zbekistonda diniy hamjihatlik va xayrixohlik chinakam ma’noda xalqimizga xos fazilatga aylandi. Millatidan, dinidan, irqidan qat’i nazar, har bir vatandoshimiz nurli kelajagimizni barpo etish yo‘lida bir tanu bir jon bo‘lib, qo‘lni qo‘lga berib, fidokorona mehnat qilayotgani, yangidan-yangi marralarni zabt etayotgani fikrimiz dalilidir.

Konstitutsiyamizda har bir shaxsning vijdon va e’tiqod erkinligi daxlsiz ekanligi belgilangan. Unga ko‘ra, “Hamma uchun vijdon erkinligi kafolatlanadi. Har bir inson xohlagan dinga e’tiqod qilish yoki hech qaysi dinga e’tiqod qilmaslik huquqiga ega. Diniy qarashlarni majburan singdirishga yo‘l qo‘yilmaydi” (31-modda[2]). Shuningdek, Asosiy Qonunimizning 18-moddasida “O‘zbekiston Respublikasida barcha fuqarolar bir xil huquq va erkinliklarga ega bo‘lib, jinsi, irqi, millati, tili, dini, ijtimoiy kelib chiqishi, e’tiqodi, shaxsi va ijtimoiy-mavqeidan qat’i nazar, qonun oldida tengdirlar”, - deb belgilab qo‘yilgan.

Aynan mana shu konstitutsiyaviy kafolatlar kundalik hayotimizda o‘zining mukammal ijrosi va ifodasini topayotir. Yurtimizda yashayotgan turli millat va elat vakillari teng huquqlilik asosida, hamjihatlikda yashayotgani, barcha mavjud dinlarga e’tiqod qiluvchilar uchun bir xil shart-sharoitlar yaratib berilayotgani, ayniqsa, e’tirofga loyiqdir.

Istiqlol yillarida jamiyatimizda vijdon erkinligi va dinlararo tolerantlik g‘oyalarini hayotga tatbiq etishga, diniy tashkilotlar bilan har tomonlama aloqalarni shakllantirishga jiddiy e’tibor qaratildi. Buning samarasi o‘laroq, yuzlab masjid, cherkov, sinagog va ibodat uylari qurildi hamda ta’mirlandi. Toshkent shahridagi Xasti imom majmuasi, Navoiy, Qarshi shaharlaridagi jome masjidlari, Toshkentdagi katolik kostyoli, buddaviylik ibodatxonasi, Samarqandda arman apostol cherkovi bunyod etilgani shular jumlasidandir.

Istiqloldan oldin butun O‘rta Osiyoda 50 dan ziyod cherkov mavjud edi. Hozir birgina mamlakatimizda 40 dan ortiq rus pravoslav cherkovi faoliyat yuritmoqda. Yuqorida ta’kidlanganidek, bugun respublikamizda jami 16 ta diniy konfessiya o‘z faoliyatini erkin yo‘lga qo‘ygan. Hech shubhasiz, O‘zbekistondagi diniy va millatlararo hamjihatlikni saqlashga doir yuksak insonparvar siyosat, jamiyatdagi barqarorlik, o‘zaro hurmat, hamjihatlik, tolerantlik, mehr-oqibat, muruvvat va shafqat, saxovat muhiti dunyoning ko‘plab mamlakatlari uchun havas qilishga va namuna bo‘lishga arzigulikdir.

Endigi vazifa mamlakatimizda vujudga kelgan millatlararo hamjihatlik, diniy tolerantlik muhitining kelgusi taraqqiyotini ta’minlash uchun bugun o‘sib kelayotgan yosh avlodni ayni shu ruhda tarbiyalash kun tartibidagi eng asosiy vazifalardan biridir. Zero, bugungi kunda dunyoning juda ko‘p mintaqalarida yuz berayotgan turli to‘qnashuvlar, ichki nizolar aynan separatizm, milliy ayirmachilik yoki millatlaro bahamjihatlikning yo‘qligi oqibatida yuz bermoqda.

Shu o‘rinda “separatizm” — davlatning hududiy yaxlitligini buzishga, shu jumladan uning hududidan bir qismini ajratib olishga yoki davlatni dezintegratsiyalash qaratilgan, zo‘ravonlik yo‘li bilan sodir etiladigan, shuningdek bunday qilmishni rejalashtirish va tayyorlash, uni sodir etishga ko‘maklashishi, unga undash va Tomonlar milliy qonunchiligiga muvofiq jinoiy tartibda taqib qilinadigan biror bir qilmish[3]dir.

Bulardan xulosa chiqargan holda, ko‘p millatli yurtimizda aynan millatlararo hamjihatlikni ta’minlashda yurtimiz aholisining 55 % ni tashkil qiluvchi yoshlar o‘rtasida millatlararo hamjihatlik tuyg‘usini yanada rivojlantirish uchun bir qancha tadbirlarni amalga oshirish lozim:

1. Yurtimizda faoliyat olib borayotgan Respublika baynalminal madaniyat markazi bilan hamkorlikda turli milliy madaniy

2 O‘zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi. – T.: O‘zbekiston, 2018,7-bet.

3 “Terrorizm, separatism va ekstremizmga qarshi kurashish to‘g‘risida” Shanxay konvensiyasi, 2001-yil 15-iyun, Shanxay.Mazkur Konvensiya O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining 2001-yil 27-avgustdagi 274-II-sonli “Terrorizm, separatizm va ekstremizmga qarshi kurashish tug‘risidagi Shanxay Konvensiyasini ratifikatsiya haqida”gi Qarori bilan ratifikatsiya qilingan. (O‘zbekiston Respublikasi uchun 2003-yil 29-martdan kuchga kirgan)

markazlar ishtirokida yoshlarni jalb qilgan holda turli tadbirlar, uchrashuvlarni muntazam ravishda tashkil qilib borish;

2. O‘zbekiston Respublikasi Yoshlar ishlari agentligi, uning tuman, shahar bo‘limlari bilan hamkorlikda turli millatlarga mansub yoshlarni bir guruhga jamlagan holda ularning ishtirokida madaniy-ma’rifiy tadbirlar tashkil etish;

3. Ta’lim muassasalarida tarixiy merosi asosida millatlararo totuvlik g‘oyasini o‘qitishda yangi innovatsion usullardan foydalanishni keng yo‘lga qo‘yish;

4. Yurtimizda yashayotgan boshqa millatga mansub faol, tashkilotchi, olim, rahbar, yozuvchi, shoir kishilarning mamlakatimiz ravnaqiga qo‘shayotgan o‘ziga xos xissasini keng jamoatchilikka yetkazishda ommaviy axborot vositalarining vazifasini yanada oshirish;

5. “O‘zbekiston – yagona vatanimiz” nomi bilan to‘plam chiqarish lozim. Unda mamlakatimizda yashayotgan boshqa millatga mansub O‘zbekiston fuqarolarining hayoti, madaniyati, turmush tarzi, mentaliteti, kasbi-kori, maqsadlaridan hikoya qiluvchi turli materiallar joy olishi ko‘zda tutilishi kerak.

6. Respublikamizda biror bir kunni “Hamjihatlik kuni” deb e’lon qilish va uni keng targ‘ib qilish va h.k.

Millatlararo munosabatlar jarayonida milliy va mintaqaviy xavfsizlikka putur yetkazishi mumkin bo‘lgan har qanday vaziyatlarning oldini olish uchun quyidagi qoidalarga amal qilishimiz kerak:

1. Davlatning etnik milliy siyosatida shaxs huquqlarini himoya qilish ustuvor bo‘lishiga asoslanish lozim, shuningdek, milliy ozchilikning huquqlari ham kamsitilmasligi shart.

2. Davlatning etnik, milliy siyosatidagi bosh yo‘lda millatlararo ziddiyatlarni amaliy tarzda hal qiladigan usullarga asoslanish lozim.

3. Jamiyatimizning bozor munosabatlariga asoslanadigan iqtisodiy taraqqiyoti respublikamizda yashayotgan barcha millatlarning manfaatlariga mos bo‘lmog‘i kerak.

Millatlararo hamdo‘stlik, tinchlik, totuvlik - mustaqillik tufayli qo‘lga kiritilgan eng katta yutug‘imizdir.

Xalqimiz azaldan orzu qilib kelgan millatlararo do‘stlik, hamjihatlik, tinchlik, totuvlikka erishgan ekanmiz, endilikda bizning oldimizda turgan dolzarb vazifa ana shu oliy, ijtimoiy-siyosiy qadriyatlarni qo‘ldan bermay, avaylab-asrab, ko‘z qorachig‘idek ehtiyot qilib, saqlab qolish ustida doimo harakat qilishimiz lozim. Bunga Respublikamizda yashovchi har bir inson-yoshidan, millatidan qat’i nazar, o‘z hissasini qo‘shmog‘i kerak. Millatlararo totuvlikni ta’minlashga hissa qo‘shish har birimizning vazifalarimizdan biri bo‘lib qolmog‘i lozim. Respublikaga nomi berilgan millat muammolari hal etilar ekan, mamlakatimizda yashovchi xalqlar, milliy guruhlarning mavjud muammolarni hal etish, ularning talab va ehtiyojlarini qondirish yuzasidan O‘zbekiston Respublikasi rahbariyati izchillik bilan faoliyat olib boryapti.

Bugungi kunda har birimizdan tinchlik va barqarorlikni ta’minlash yo‘lida fidoiy insonlar sifatida faollik ko‘rsatish talab etilmoqda.

Tolerantlikni ta’minlash onglilik bilan va mas’uliyat bilan harakat qilmoq kerak. Buning uchun Perezdentimiz atrofida jipslashib, xalq bilan bamaslahat, bir tan-bir jon bo‘lib, halol mehnat qilib mustaqillikni yanada mustahkamlashimiz darkor.

Ko‘pmillatli mamlakatimizda milliy burch va mas’uliyat o‘zaro bog‘liq ravishda namoyon bo‘ladi. Fuqarolik mas’uliyati o‘z mohiyati va ahamiyatiga ko‘ra milliy mas’uliyatdan farq qiladi.

Mamlakatda yashayotgan fuqarolar turli millatlarga mansub bo‘lsalar ham ularni mushtarak maqsadlar birlashtiradi. Bu esa barcha millat vakillari umumiy mas’uliyatni his qilib yashashlarini taqozo etadi.

Fuqarolikning shakllanishi va rivojlanishini ta’minlash, millatlar o‘rtasidagi totuvlikni takomillashtirish ko‘pmillatli mamlakatda ro‘y berayotgan ma’naviy uyg‘onish poydevorini yanada mustahkamlaydi. Bunday vaziyat va imkoniyat milliy munosabatlarda qonunlar va ijtimoiy adolat mezonlari ustuvor bo‘lgan sharoitdagina yuzaga kelishi mumkin. Milliy mas’uliyat va fuqarolik mas’uliyatining birligi va barqaror bo‘lib turishi tarixiy burilish davrlarida katta ijtimoiy-siyosiy ahamiyat kasb etadi. Ushbu asosda amalga oshayotgan milliy uyg‘onish O‘zbekistonda taraqqiyot, tinchlik, osoyishtalik, ijtimoiy-siyosiy barqarorlikni ta’minlashning asosiy shartlaridan biri hisoblanadi.

O‘zbekistonning ko‘p asrlik tarixida milliy adovat yoki kamsitishlar tufayli kelib chiqqan qonli urushlar bo‘lmagan. Bu esa fuqarolik mas’uliyati mamlakat aholisining barchasiga xos bo‘lgan fazilat sifatida shakllanishiga olib kelgan. Bu an’analarga sodiq qolish, respublikamizda yashayotgan barcha xalqlarning manfaatlarini himoya qilish, tili, madaniyati, urf-odatlarini hurmat qilish taraqqiyotimizning hozirgi bosqichida nihoyatda katta ahamiyat kasb etadi.

Mamlakat kelajagida yoshlar shubhasil hal qiluvchi roll o‘ynaydi. Shu bois ham mamlakatimizda 2021-yil – Yoshlarni qo‘llab-quvvatlash va aholi salomatligini mustahkamlash yili deb nomlandi. Bu esa yoshlar tarbiyasi masalasi ayni paytda mamlakat taqdiriga daxldor masala ekanligini ko‘rsatadi.

2021-yil 19-yanvar kuni O‘zbekiston respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan videoselektor yig‘ilishida ham yoshlar tarbiyasi, ularning ma’naviyatini yuksaltirish masalalariga alohida e’tibor qaratilganligining sababi ham shunda.

Yig‘ilishda yaqinda o‘tkazilgan Yoshlar forumi va Murojaatnomada aytilgan g‘oya, tashabbus va takliflarni amalga oshirish, yoshlar bilan ishlash bo‘yicha yangicha tizimni joriy etish — bugungi davr talabi ekani ta’kidlandi. Prezidentimiz bu ishlar ikkita muhim yo‘nalishda tashkil qilinishi zarurligini ko‘rsatib o‘tdi.

Birinchisi — yoshlar tadbirkorligini qo‘llab-quvvatlash, kasb-hunarga o‘qitish orqali ularning bandligini ta’minlash, ikkinchisi esa yoshlarning bo‘sh vaqtini mazmunli tashkil etishdan iborat. Bu vazifalarni amalga oshirish, o‘z navbatida, yoshlarning intellektual salohiyatini aniq maqsadga yo‘naltirish, ularda milliy g‘urur, vatanga sodiqlik tuyg‘usini yanada mustahkamlash, ma’naviyatini muttasil yuksaltirib borishni taqozo etadi.

Ushbu yig‘ilishda mamlakat rahbari yoshlarimizni vatanparvarlik, milliy iftixor ruhida tarbiyalashda xalqimiz tarixi muhim o‘rin tutishi va bu yo‘nalishda ilmiy tadqiqotlar natijadorligini kuchaytirish kerakligini alohida ta’kidladi.

Yig‘ilishda qayd etilganidek, Hozirgi globallashuv davrida insoniyatga, ayniqsa, yoshlarga ma’naviy va axloqiy jihatdan tuban illatlarni o‘zida mujassamlashtirgan “ommaviy madaniyat” tahdid solmoqda. Bu unsur “madaniyat” deb atalsa-da, tub mazmun-mohiyati, maqsadlariga ko‘ra, chinakam madaniyatning kushandasi. “Ommaviy madaniyat” g‘arb madaniy hayotining deyarli barcha sohasini qamrab olgan bo‘lib, u xalqning o‘zligi va madaniyatini yo‘qotishga qaratilgan.

U xalqni xalq, millatni millat qilib turgan asoslar, ya’ni ming yilliklar mobaynida shakllanib, rivojlanib kelayotgan madaniy, ma’naviy, ma’rifiy, axloqiy va ruhiy an’ana, qadriyat hamda tamoyillardan begonalashtirishga yo‘naltirilgan xurujdir.

Bunday madaniyatga qarshi kurashish yo‘lida islom dinining insonparvarlik va bag‘rikenglik g‘oyalarini chuqur o‘rganish, Imom Moturidiy, Imom Buxoriy, Imom Termiziy, Hakim Termiziy, Abu Lays Samarqandiy, Qaffol Shoshiy, Abul Muin Nasafiy, Makhul Nasafiy, Mahmud Zamaxshariy, Bahouddin Naqshband, Burhoniddin Marg‘inoniy, Xorazmiy, Mirzo Ulug‘bek va Zahiriddin Muhammad Bobur singari ulug‘ mutafakkirlarning ilmiy-ma’naviy merosini tadqiq etish bugungi kundagi manfaatparastlik botqog‘iga g‘arq bo‘layotgan insonlarni jaholat changalidan qutqarishda muhim ma’naviy tayanch bo‘lib xizmat qilishi, shubhasiz[4].

Aslida ham shunday. O‘quvchi-yoshlarda millatlararo totuvlikni shakllantirishda tarixiy merosdan foydalanish ularning motivatsiyasini oshiradi va samaradorlikni ta’minlaydi.

O‘rta asr Sharqining buyuk mutafakkirlari o‘zlariga qadar mavjud bo‘lgan barcha ilm-fan yutuqlarini o‘zlashtirib, deyarli hamma sohalarda ilmiy asarlar yaratdilar, bu bilan ham kifoyalanmay, mavjud ilmlarni tasnif qildilar, xorijiy tillardagi mashhur asarlarni arab, fors va turk tillariga tarjima qilish ishlari bilan shug‘ullandilar. Shunday xizmatlari bilan “yagona mintaqa madaniyati” deb atalishi mumkin bo‘lgan tarixiy yangi jarayonga asos soldilar. O‘z navbatida ushbu tarixiy jarayon boshqa xalqlar ilm-ma’rifatiga kuchli ta’sir etib, Uyg‘onish davri deb ataluvchi ulkan ma’rifatparvarlik davrining boshlanishiga asos bo‘ldi. Shuning uchun ham, biz Forobiy, Abu Ali ibn Sino, Beruniy, Xorazmiy, Farg‘oniy kabi buyuk qomusiy olimlar asarlarida, ularning ilmiy-nazariy ta’limotlarida ta’lim-tarbiya masalalariga keng o‘rin berilganiga, chunonchi, tarbiya muammolariga jahon madaniyati mezonlari bilan yondashilganiga guvoh bo‘lamiz.

Umuman olganda, inson va jamiyat, insonning tabiat va jamiyatdagi o‘rni, komil insonni shakllantirishda ta’lim va tarbiyaning roli, oilada axloqiy madaniyatni takomillashtirish masalalari ilmiy-nazariy ta’limotlardagina emas, balki falsafiy didaktik va badiiy asarlarda ham keng talqin qilindi. Jumladan, Yusuf Xos Hojibning “Qutadg‘u bilig” asarida Oyto‘ldi o‘g‘li O‘gdulmishga bir qator nasihatlar beradi:

– Mening yagona tashvishim, – deydi u, – sening keyingi hayotingdir. Otaning ish-amali o‘g‘liga singsa, uning xulqida jilvagar bo‘ladi. Bolani tergab-nazorat qilish ota-ona yuzining yorug‘ligini ta’minlaydi. Nazoratdan tashqaridagi bola bebosh va yaramaslik sari og‘adi. Erka bo‘lib o‘sgan o‘g‘ilqizlar xatti-harakati ota-onaga mung va alam keltiradi[5].

Binobarin, ota-onaning burchi, avvalo, farzandga ta’lim-tarbiya bermoqdir. Shoir shu maqsadda asardagi barcha voqealarni, bahslarni ta’lim atrofida olib boradi. Lekin bilim, zakovat qadrini hamma inson ham bilavermaydi. Zar qadrini zargar bilgani kabi, bilim qadrini ham dono, zakolargina biladi. Demak, bilimdon bo‘lish, bilimni anglash uchun ham zakovat, onglilik, iste’dod zarur[6].

Ularning boy ma’naviy-ma’rifiy merosi yosh avlod uchun hamisha o‘rnak, hamisha namuna bo‘lib qoladi.

---

*4 Jamiyat hayotining tanasi iqtisodiyot bo‘lsa , uning joni va ruhi ma’naviyatdir/2021 yil 19 yanvar kuni O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev raisligida bo‘lib o‘tgan videoselektr yig'ilishi materiallari//Xalq so‘zi , 2021 yil, 20 yanvar.*

*5 Yusuf Xos Xojib . Qutadg'u bilig. – T.: Fan, 1990, 32-bet.*

*6 Yusuf Xos Xojib . Qutadg'u bilig. – T.: Fan, 1990, 34-bet.*



IJTIMOIY FANLAR

# IMKONIYATI CHEKLANGAN SHAXSLARNING HUQUQLARINING TA’MINLASH: MILLIY VA XORIJ TAJRIBA

***Shuhrat Atamurodovich Ismailov*** - *tayanch doktorant, O‘zbekiston Milliy universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada imkoniyati cheklangan shaxslarni ijtimoiy himoya qilish, tizimi hamda ijtimoiy himoya masalasi odil fuqarolik jamiyatini barpo etayotgan mamlakatimizning bugungi kundagi muhim vazifalaridan biri ekanligi haqida fikrlar keltirilgan. Bundan tashqari maqolani mavzusiga mos tarzda xorij tajribasida keltirilgan qariyalarni, nogironlarni, umuman olganda imkoniyati cheklangan insonlarga nisbatan amalga oshirilayotgan ishlar haqida batafsil keltirilib o‘tilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье система социальной защиты инвалидов и вопрос социальной защиты являются одной из важных задач нашей страны, строящей справедливое гражданское общество. Кроме того, в соответствии с темой статьи подробно описывается работа, проводимая в отношении пожилых людей, инвалидов и людей с ограниченными возможностями в целом, представленная в зарубежном опыте.*

***Abstract:*** *In this article, the system of social protection of disabled persons and the issue of social protection are one of the important tasks of our country, which is building a just civil society. In addition, in accordance with the topic of the article, the work carried out in relation to the elderly, the disabled, and people with disabilities in general, presented in foreign experience, is described in detail.*

***Kalit so‘zlar:*** *imkoniyati cheklangan bolalar, islohotlar strategiyasi, konvensiya, psixologik holatlar, ijtimoiy muhofaza omillari, kunduzgi statsionar.*

***Ключевые слова:*** *дети-инвалиды, стратегия реформ, условность, психологические состояния, факторы социальной защиты, дневной стационар.*

***Keywords:*** *children with disabilities, reform strategy, convention, psychological conditions, social protection factors, day hospital.*

Mustaqilligimiz qo‘lga kiritilgach uni mustahkamlash va jamiyatimizni rivojlantirish borasida o‘ziga xos yolimiz tanlanib amalga oshirilmoqda. Bu yo‘l xalqimizning jahon mamlakatlari orasida o‘ziga xos o‘ringa ega bo‘lishini, mamlakatimiz fuqarolari o‘zlarining iqtidorlarini namoyon qilish orqali amalga oshishini nazarda tutadi. Yangilanish jarayonining amalga oshuvida mamlakatimiz har bir fuqarosining o‘ziga xos o‘riniga ega ekanligi har tomonlama inobatga olinib, qolaversa, o‘tish davri muammolari nazarda tutilib, o‘ziga xos yo‘lini topgan o‘zbek taraqqiyotining besh tamoyilidan bittasi ijtimoiy himoya masalasiga qaratilgan bo‘lib, bu tamoyil islohotlar strategiyasining amalga oshishida o‘ziga xos muhim o‘ringa egadir.

Imkoniyati cheklangan bolalarning jismoniy — biologik - fiziologik nuqsonlarini bartaraf etish yoxud oldini olish, turli maxsus muassasalar uchun ta’lim-tarbiya nazariyasi, mazmuni, shakl va metodlari tizimini ishlab chiqish bilan bog‘liq masalalar S.Sh. Aytmetova, D.A.Gordiyenko, A.S.Sadiqova, V.S.Rahmanova, R.Shomansurova, P.M.Po‘latova, D.A.Nurkeldiyeva, M.P.Hamidova singari defektolog olimlar tomonidan o‘rganilgan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni[1], 2017-yil 1-avgustdagi R-5006-sonli «Nogironlarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Farmoyishi, 2017-yil 1-dekabrdagi «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi[2] Farmoni, shuningdek sohaga oid boshqa normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarning amaliyotga tadbiq

*1 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi 4947-sonli «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi Farmoni*

*2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 1-dekabrdagi «Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi*





etilishi jarayonlarini tahlil etish va yoritishda mazkur maqola muayyan darajada xizmat qiladi

Ijtimoiy himoya masalasi odil fuqarolik jamiyatini barpo etayotgan mamlakatimizning bugungi kundagi muhim vazifalaridan bilan hisoblanadi. Shu bilan bir qatorda bizning jamiyatimiz hayotida bu hodisa yangilik emas. Eng qadimgi yozma manbalarimiz bo‘mish “Avesto”da insonlarni mehnatga, faoliyatga, o‘zaro hamjihatlikka chaqirilishi o‘zining uch oltin qoidasi asosida, insonlarni faqat ezguliklar qilishga chorlashi, yomonlikdan, ittiloqsizlikdan qaytarishi ajdodlar hayotida muhim qoidalar sirasiga aylangan edi. Ma’naviy hayotimizda bu jihatlar islom dini keng tarqalgan davrda yana ham gullab yashnadi. Islomning oltin qoidalari sifatida hamjihatlik, o‘zaro yordam, birlik, ahillik keng ildiz otdi. Insonlar o‘zaro aloqada bir-birlariga insoniy munosabatda bo‘lishlari tarkib topib keldi. Zero, hadisda “barcha mo‘minlar sizlar aka-ukadirsiz”lar deyiladi.

Buguni kunda Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ko‘rsatmalari asosida olib borilayotgan islohotlar aholining keng qatlamlari tomonidan qo‘llab quvvatlangan yagona to‘g‘ri yo‘l ekanligi amalda o‘z isbotini topdi. Shu bilan birga, mamlakatda aholini ijtimoiy himoya qilishning mavjud barqaror mexanizmi jamiyatning muhtoj a’zolari, ayniqsa, ko‘p bolali oilalarni aniqlash va ularga ijtimoiy yordam ko‘rsatish bilan izohlanadi. Hozirgi kunda ijtimoiy muhofaza tizimini takomillashtirish bozor munosabatlari sharoitida eng dolzarb masalalaridan biridir. Chunki, mamlakatda olib borilayotgan barcha iqtisodiy islohot va tadbirlaming hammasi inson uchun uning taqdiri, hayot yo‘li uchundir. Shuning uchun aholining kam ta’minlangan, mehnat bozorida raqobatlasha olmaydigan qatlamini: kam ta’minlangan oilalar, ishsizlar, nogironlar, bolalar, talabalar, qariyalar, nogironlar, boquvchisini yo‘qotganlarni ijtimoiy muhofaza qilishni maqsad qilib qo‘yadi.

Xususan, Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham bugungi kunda 2023-yilni “Insonga e’tibor, sifatli ta’lim yili deb atadi”. Nima uchun yilga bunday nom beryapmiz? Degan savol tug‘ilishi aniq. Biz O'zbekistonda olib borilayotgan davlat siyosatining markazida inson va uning manfaatlarini ta’minlashni ustuvor vazifa etib belgiladik. Aslida ham, bizning eng bebaho boyligimiz, bu – bunyodkor xalqimiz, duogo'y ota-onalarimiz, navqiron avlodimiz emasmi? Shu yurtda yashayotgan har bir insonning tinch va baxtli hayot kechirishi, uning sog'lig'i joyida bo'lishi, yaxshi ta’lim olishi, oilasini tebratishi uchun qanday sharoit kerak bo'lsa, hammasini yaratib berishga harakat qilyapmiz va bu yo'ldan aslo to'xtamaymiz", - dedi davlat rahbari[3].

Shu nuqtayi nazardan olganimizda har bir insonni u kim bo‘lishidan qatiiy nazar uni e’zozlash muhim ahamiyatga ega. Nogiron - jismoniy, aqliy, psixologik va hissiy faoliyatning izdan chiqishi, shikastlanishi natijasida hayot faoliyatining cheklanishi munosabati bilan qonun hujjatlarida belgilangan tartibda nogiron deb topilgan va ijtimoiy yordam hamda himoyaga muhtoj bo‘lgan shaxs tushuniladi.

“Nogiron” atamasi hozirgi kunda eskirib qolgan va qo‘pol bo‘lgan so‘z hisoblanadi. Shuning uchun ham bunday shaxslarga nisbatan “imkoniyati cheklangan insonlar “yoki” nogironligi bo‘lgan shaxslar” deb murojaat qilish to‘g‘ri bo‘ladi.

Hozirgi kunda ko‘plab davlatlar qatori O‘zbekistonda ham imkoniyati cheklangan bolalarning ta'lim va tarbiya olishlari, tibbiy muolajalar olib borishlari uchun imkoniyatlar yaratib kelinmoqda va bunday insonlar va bolalarning haq-huquqlari qonun hujjatlari bilan mustahkamlab qo‘yilgan va himoya qilinmoqda. BMT ning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi Konvensiyaning xalqaro standartlari, shuningdek, “nogiron” so‘zi o‘rniga “nogironligi bo‘lgan shaxs” atamasidan foydalanishni nazarda tutuvchi "Nogironligi"bo‘lgan shaxslar huquqlari to‘g‘risida" gi Qonun yurtimizda yuqoridagi toifaga mansub shaxslarning huquq va manfaatlarini ifodalashga xizmat qiladi[4].

Oramizda shunday insonlar borki, ularning jismoniy imkoniyati cheklangan, lekin ma’naviyati yuksak, ruhi esa juda kuchli va matonatli. Afsuski, nogironligi bo‘lgan shaxslar ko‘pincha ishlash, ta’lim darajasini oshirish va jamiyat hayotida to‘laqonli ishtirok etish imkoniyatidan mahrum bo‘ladilar. Hozirgi paytda ularning soni jahon miqyosida taxminan 1 milliard nafarni tashkil etadi.

*3 O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning Oliy Majlis palatalariga Murojaatnomasi 2022-yil 20-dekabr.*

*4 Абдурахмонов К-Х-, Тохирова Х.Т., Шарипов Б.М. Ахолини ижтимоий мухофаза килиш. Укув кулланма - Тошкент, 2006.142-В*

Aksariyat hollarda ular kamsitish va “qo‘li kaltalik”dan aziyat chekadilar. Albatta, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash borasidagi eng katta mas’uliyat davlat zimmasiga tushadi.

Xususan, O‘zbekiston Respublikasi tomonidan BMTning Nogironlar huquqlari to‘g‘risidagi konvensiyasini 2009-yil 27-fevralda imzolagan, biroq, uni ratifikatsiya qilish masalasi hal etilmagan edi. Davlat rahbarining 2017-yil 1-dekabrdagi “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi[5]. Farmonida ushbu masala ilgari surilib, imkoniyati cheklangan shaxslar huquqlarini xalqaro normalarga muvofiqlashtirish, alohida qonun qabul qilish lozimligi ta’kidlangan edi.

Hozirgi kunda jahon miqyosida nogironlar masalasiga mutlaqo yangicha yondoshuv va qarashlar asosida ilmiy izlanishlar olib borilmoqda. Xususan, inklyuziv ta’lim masalasi xorijiy davlatlarda eng dolzarb masalalardan biriga aylangan. Pedagoglar bilan bir qatorda, Rossiya sotsiologlari[6] va Yevropa politologlari ham bu masalaga jiddiy qiziqish bilan qaramoqdalar. Ular o‘z tadqiqotlarida inklyuziv ta’limning nogironligi bo‘lgan bolalarni jamiyatga moslashtiruvchi eng muhim omil ekanligini ko‘rsatishga harakat qilganlar.

Bugungi kunda dunyoning ko‘pchilik mamlakatlarida aholining keksayishi jarayonining rivojlanishi qariyalarning ijtimoiy muhofazasiga alohida e’tibor qaratishni taqozo etmoqda. Bunga misol tariqasida Yevropa mamlakatlarini keltirish mumkin. Yevropaning ko‘pchilik rivojlangan mamlakatlari ikkinchi jahon urushidan keyin bu jarayonga yuz tutganligi bois yolg‘iz keksa va nogironlami qo‘llab-quvvatlashning ijtimoiy ta’minot dasturlari ishlab chiqdi va ijtimoiy siyosatni amalga oshirishning maxsus tizimlari yaratdi.

Chunonchi, Buyuk Britaniyada keksa va nogironlarga ijtimoiy tibbiy yordam ko‘rsatuvchi muassasalar sifatida poliklinikalar, shifoxonalar, qariyalar uylari, davlat va xususiy sektordagi hamshira parvarishlash uylari, nogironlar uylari, nogiron va ruhiy kasalga chalingan kishilar uchun mehmonxona tipidagi yotoqxonalar faoliyat ko‘rsatadi[7]. Keksa va nogironlarga yordam ko‘rsatuvchi ijtimoiy xodimlar, umumiy amaliyot vrachi, gerontolog, patronaj hamshirasi, psixolog, klinika vrachi, tuman tibbiyot hamshiralaridan tashkil etilgan guruhlar keng tarqalgan. Bu guruhlar o‘z faoliyatida har bir holatga alohida yondoshib, uni har tomonlama va chuqur o‘rgangan holda, mijozga uning ehtiyoji e’tiborga olingan shaxsiy reja asosida yordam ko‘rsatadi. Shuningdek, mijozning ijtimoiy va ruhiy zaiflik darajasini aniqlash maqsadida uning ahloqiy tavsifi ham o‘rganiladi. Buyuk Britaniyada yolg‘iz keksa va nogironlarga tibbiy-ijtimoiy xizmat ko‘rsatish bo‘yicha asosiy m as’uliyat mahalliy hokimiyatga yuklatilgan bo‘lib, moliyaviy mablag‘ning katta qismini ham u ajratadi. Mamlakatda tibbiy yordam sohasida umumiy amaliyot vrachi faoliyatini muvofiqlashtirish maqsadida “hamshiralik ishi menejeri” lavozimi ta’sis etilgan. Bu mutaxassis yordam ko‘rsatish jarayonini muvofiqlashtiradi va zarur xizmatlar bo‘yicha maslahatlar beradi.

Fransiyada yolg‘iz keksalar oila homiyligiga olingan, Boltiq bo‘yi mamlakatlari Litva, Latviya va Estoniyada esa yolg‘iz qariyalarga uy sharoitida yordamning patronaj xizmati rivojlangan. Shuningdek, bu mamlakatlarda maxsus tayyorlangan ijtimoiy xodimlar yolg‘iz keksa bemorlarga kerakli tovarlarni xarid qilishda, ovqat tayyorlashda, xonalarni yig‘ishtirishda yordam beradi, ular bilan birga mutolaa qiladi va suhbatdosh bo‘ladi. Maltada qariyalarni ijtimoiy qo‘llab-quvvatlashning oilaviy shakli rivojlangan. Bundan 50 yil oldin mamlakatda ko‘pchilik oilalar kengaytirilgan tipga tegishli edi. Hozirgi kunda oilaning bunday shakli qishloq joylarida keng tarqalgan. Bu yerda nikoh qurish an’anasiga ko‘ra, yosh oilalar odatda ota-onalari bilan qo‘shni yashaydi. Bu esa, o‘z navbatida keksalarga oilaviy yordamning ko‘p bo‘lishini bildiradi. Maltada davlat qariyalarni boqish uchun asosiy xizmatni ta’minlovchi hisoblanadi. Mamlakatda 1987-yilda keksa kishilarning muammolari bilan shug‘ullanuvchi departament tuzilgan. Departament jamiyatdan ajralmagan holda qariyalarga

5 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 01.12.2017 yildagi PF-5270-son “Nogironligi bo‘lgan shaxslarni davlat tomonidan qo‘llab-quvvatlash tizimini tubdan takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”

6 Малофеев Н.Н. Современный этап в развитии системы специального образования в России: результаты исследования как основа для построения программы развития // Альманах Института коррекционной педагогики РАО. Вып. 1. - 2000. - 56 с.; Скок Н.И. Биосоциальный потенциал лиц с ограниченными возможностями и социальные механизмы его регуляции // Социологические исследования, 2005. - No4

7 Nargiza Shayusupova Turg'unovna, Nurali Arabov Uralovich, Dilmurod Nasimov Abdullaevich. Ijtimoiy siyosat va ijtimoiy himoya. (O‘quv qo‘llanma). “Iqtisodiyot”. 308 bet.



IJTIMOIY FANLAR

quyidagi qator xizmatlarni taqdim etadi:

- kunduzgi muloqotda bo‘lish markazlari
- qariyalarga ijtimoiy yolg‘izlikdan xalos bo‘lishda yordam beradi;
- uy sharoitida yordam ko‘rsatish

ovqat tayyorlash, xarid qilish, uy tozalash va idish yuvish, dorixonaga borib kelish;

- usta xizmati
- uyda ta’mirlash xizmatlarini taqdim etadi;
- tibbiy xizmat ko‘rsatish - bu xizmat odatda, xususiy muassasalarda, qisman MMDNA tibbiyot hamshirasi assosiatsiyasida ko‘rsatiladi;
- “Kartanjan” xizmati - qariyalarga turli xizmat va tovarlar haqini to‘lash uchun diskont kartalar taqdim etadi;
- vaqtinchalik parvarish qilish - qariyaning qarindoshlarini ma’lum muddatga biror yoqqa chiqishiga zarurat tug‘ilganda, uning “St Vincent de Paule” qariyalar uyida yoki xususiy muassasalarda vaqtinchalik turishini ta’minlashni o‘z ichiga oladi.

Hindistonda keksa erkaklarni parvarish qiluvchi 20 ta, keksa ayollarga xizmat qiluvchi 68 ta, keksa erkak va ayollarni parvarish qiluvchi aralash tipdagi 230 ta markaz faoliyat ko‘rsatadi. Mamlakatda qariyalar uchun qurilgan jami uylarning 46 foizi barcha qariyalar uchun, 35 foizi faqat muhtojlar uchun, 11 foizi nochorlar uchun, qolgan 8 foizi esa kasal va nogironlar uchun mo‘ljallangan. Qariyalar uylarining 66,5 foizida bepul, qolganlarida esa kirish badallari hisobidan xizmat ko‘rsatiladi. Jahon mamlakatlarida yolg‘iz keksalar va nogironlarni ijtimoiy himoya qilish tajribalarining tahlili shuni ko‘rsatadiki, har qanday mamlakat ijtimoiy himoya qilish tizimini rivojlantirish orqali aholi bu guruhining ijtimoiy muammolarini hal etish imkoniyatiga ega bo‘lgan.

Fikrimizcha, O‘zbekistonda xorij tajribasidan foydalanib, chunonchi:

- Buyuk Britaniya tajribasida ko‘rilgan “Ijtimoiy xodim”, “Patronaj hamshirasi” singari mutaxassis kadrlami tibbiyot kollejlarida, “Gerontologiya” ixtisosligi bo‘yicha kadrlami oliygohlarda tayyorlashni amaliyotga kiritish va shu bilan bog‘liq holda davlat ta’lim standartlariga o‘zgartirishlar kiritish;
- Latviya, Litva va Estoniya tajribasi asosida, respublikamizning shahar, qishloq va ovullarida yashovchi yolg‘iz keksa va nogironlarga uy sharoitida xizmat ko‘rsatuvchi tibbiy-ijtimoiy yordam patronaj brigadalarini tashkil etish va ularning faoliyatlarini yo‘lga qo‘yish;
- Fransiya tajribasi bo‘yicha yolg‘iz keksalarni oila homiyligiga olish tizimini kengaytirish;

Yaponiya tajribasiga tayangan holda keksalarga qarashda oilaga vaqtincha yordam beruvchi kunduzgi statsionarlar tashkil qilish;

- Hindiston tajribasidan kelib chiqib, respublikamizda mavjud “Nuroniy” jamg‘armasi qatori “Qariyalarga yordam”, “Qariyalarga g‘amxo‘rlik ko‘rsatish” jamiyati, shuningdek “Baxtli keksalik” singari jamg‘armalarni tashkil etish maqsadga muvofiq.

Umuman olganda bugungi kunda ta’lim muassasalarida va boshqa tashkilotlarda ham xuddi xorij tajribasiga muvofiq tarzda imkoniyati cheklangan bolalarga g‘amxo‘rlik qilish ishlari bosqichma-bosqich amalga oshirilmoqda. Bundan tashqari bugungi kunda imkoniyati cheklangan bolalarni huquqlarini himoya qilish maqsadida turli xil qaror va farmonlar e’lon qilinmoqda va ijrosi ta’minlanmoqda.

# TALABALARNING MA’NAVIY-AXLOQIY TARBIYASI TIZIMINI TAKOMILLASHTIRISHDA MAHMUD AZ-ZAMAXSHARIY TA’LIMOTIDAN FOYDALANISH (“Atvoq uz-zahab”asari misolida)

***Zebiniso Mamarajab qizi Qurbonova -*** *tayanch doktorant, Termiz davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada oliy ta’lim muassasalarida ta’lim-tarbiya jarayonida Mahmud az-Zamaxshariy ta’limotidan foydalanib talaba-yoshlarda ma’naviy-axloqiy fazilatlarini takomillashtirish ilmiy-nazariy va amaliy jihatdan yoritilgan. Shu bilan birga ilmiy-texnikaviy taraqqiyot natijasida millatlar, dinlar, tillar va urf-odatlar o‘rtasida vujudga kelgan globallizatsiya va integratsiya natijasida yosh avlodning ma’naviy-axloqiy tarbiyasiga salbiy ta’siri, barkamol avlod ta’lim tarbiyasi tizimida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning o‘rni, qadimgi Sharq tamadduniga O‘rta Osiyo allomalari asarlarining ta’siri va o‘rni, oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlarining ma’naviy-axloqiy tarbiyasi mazmuni, vazifalari, usullari va unga pedagogik rahbarlik, ijtimoiy gumanitar fanlar mazmunidagi ma’naviy-axloqiy tarbiya masalalar ilmiy-nazariy va metodologik jihatdan yoritilgan.Allomaning ma’naviy – axloqiy merosini o‘rganish asnosida oliy ta’lim muassasalari talabalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyaning eng yuqori fazilatlarini rivojlantirish dolzarb ijtimoiy – pedagogik muammo.*

***Аннотация:*** *В данной статье с научной, теоретической и практической точек зрения объясняется повышение морально-нравственных качеств студентов с помощью учения Махмуда аз-Замахшари в ходе образовательного процесса в высших учебных заведениях. В то же время в результате глобализации и интеграции между нациями, религиями, языками и обычаями, возникшими в результате научно-технического прогресса, негативное влияние на духовно-нравственное воспитание подрастающего поколения, духовное и нравственное воспитание зрелого поколения место нравственного воспитания, влияние и место трудов среднеазиатских ученых на древневосточную цивилизацию, содержание, задачи, методы нравственно-нравственного воспитания студентов высших учебных заведений и педагогическое руководство, социальных и гуманитарных наук Вопросы духовно-нравственного воспитания в содержании разъясняются с научно-теоретической и методологической точки зрения Развитие высших качеств духовно-нравственного воспитания у студентов высших учебных заведений при изучении духовной и нравственное наследие Аллама является актуальной социально-педагогической проблемой.*

***Abstract:*** *In this article, the improvement of moral and moral qualities of students using Mahmud al-Zamakhshari's teachings during the educational process in higher education institutions is explained from a scientific, theoretical and practical point of view. At the same time, as a result of globalization and integration between nations, religions, languages, and customs, which have arisen as a result of scientific and technical progress, the negative impact on the spiritual and moral education of the young generation, the spiritual and moral education of the mature generation the place of moral education, the influence and place of the works of Central Asian scholars on the ancient Eastern civilization, the content, tasks, methods of moral and moral education of students of higher educational institutions and pedagogical guidance, social and humanitarian sciences The issues of spiritual and moral education in the content are explained from a scientific-theoretical and methodological point of view. Development of the highest qualities of spiritual and moral education in students of higher educational institutions during the study of the spiritual and moral heritage of Allama is an urgent social and pedagogical problem.*

***Kalit so‘zlar:*** *Ma’naviyat, axloq, tarbiya, pand-nasixat, ilm , o‘git, umuminsoniy qadriyatlar, yaxshi xulq, rostgo‘ylik, yolg‘onchilik, do‘stlik, yaxshilik.*

***Ключевые слова:*** *Духовность, мораль, образование, совет, знание, образование, общечеловеческие ценности, хорошее поведение, честность, ложь, дружба, доброта.*

***Keywords:*** *Spirituality, morals, education, advice, knowledge, education, universal values, good behavior, honesty, lying, friendship, kindness.*

Mamlakatimiz xalqining boy intellektual merosi umumbashariy qadriyatlar asosida kadrlar tayyorlash tizimini shakllantirish, ta’lim oluvchilarning ma’naviy va axloqiy fazilatlarini





rivojlantirish borasida olib borilgan islohotlar ta’limni insonparvarlashtirish, barkamol avlodni, axloqiy fazilatlarga ega, yuksak ma’naviyatli, shu bilan birga bilimdon, zukko, ruhan va jismonan sog‘lom, keng dunyoqarash va tafakkurga ega, zamonaviy kasb-hunar egasi etib tarbiyalashga yo‘naltirilgan pedagogik yondashuvlardan foydalanish imkoniyatlarini kengaytirdi. Shu bilan birga, pedagogika fani oldida oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlarida ma’naviy-axloqiy tarbiya tizimini rivojlantirish texnologiyalarini takomillashtirish zaruriyati vujudga keldi. O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning Yoshlar kuniga bag‘ishlab 2021-yil 30-iyun kuni o‘tkazilgan tantanali marosimda so‘zlagan nutqida yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, madaniy saviyasi, bir so‘z bilan aytganda, tarbiyasi yo‘nalishida amalga oshirilayotgan katta ishlarni samaradorligini yanada kuchaytirish masalalariga jiddiy e’tibor berishimiz zarurligi masalasi ustuvor vazifa sifatida belgilangan edi.

Bu borada oliy ta’lim muassasalari talaba-yoshlarni ma’naviy-axloqiy tarbiyalashda, milliy va umuminsoniy qadriyatlar tizimini rivojlantirishning tashkiliy tuzilmasi va mexanizmlarini takomillashtirish, zamonaviy ta’lim texnologiyalaridan o‘rinli va samarali foydalanish muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarbiya-bu shaxs ongini muayyan jamiyatning maqsad va vazifalariga mos ravishda rivojlantirishdan iborat ijtimoiy hodisa bo‘lib hisoblanadi. Shaxsning ma’naviy-axloqiy tasavvurlari ham tarbiya tufayli hosil qilinadi. Sharqning buyuk mutafakkirlari insonni axloqiy kamol toptirish, uni har tomonlama rivojlantirish, ma’naviy qiyofasini shakllantirish jamiyat taraqqiyotining muhim omillaridandir, deb bilganlar.

Musulmon Sharqida “Ustoz ul-dunya”( Butun dunyo ustozi) “Ustoz ul-arab va-l ajam” (Arablar va g‘ayri arablar ustozi), “Faxru Xorazm” (Xorazm faxri) kabi sharafli unvonlarga ega bo‘lgan[1]. Abul -qosim Mahmud ibn Umar az-Zamaxshariy (1075-1144) o‘z asarlarida ma’rifiy-axloqiy va didaktik ta’limotga ma’lum hissasini qo‘shib, jamoadagi, oiladagi va turmushdagi asosiy odob me’yorlari va qoidalarini belgilab berdi.

Az-Zamaxshariyning “Atvoq uz-Zahab fi-l mavoiz val xutab” (O‘git va nasihatlarning oltin shodalari) asarida ma’rifiy va axloqiy-didaktik masalalar to‘g‘risida fikr yuritarkan, u inson kamolotiga putur yetkazadigan , kishining axloqiy qiyofasini buzadigan salbiy xatti-harakatlarni keskin qoralaydi va bunda shaxslarni “Nohaqlarga pora beruvchilar, zolimlarga yordam beruvchilardir”, “Vijdonli odam xavfdan holi yashasa, xiyonat qiluvchi halokatda yashaydi” deb ta’riflaydi. Alloma uqtiradiki, “Ey, o‘zini baland olib gerdayib yuradigan, kibrdan burni shishgan, o‘zgalarga haqorat nazari bilan qaraydigan , uzun ko‘ylakli, bilmaydiki, uzun etakli kiyim savobmi yoki gunoh. Vaholanki, kibr qilib etagini tekkizib yurish katta gunohdir.

Ma’naviyat yoshlarni haqiqiy vatanparvar bo‘lishda, ona-vatanga cheksiz mehr-muhabbatni qaror toptirishga undaydi. “Ma’naviyat (arabcha “ma’naviyat”-ma’nolar majmui)- kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiiy, axloqiy, diniy tasavvurlari va tushunchalari majmui[2].

Ushbu ta’rifga ko‘ra ma’naviyat insonning falsafiy-huquqiy, diniy-axloqiy tasavvurlarini aks ettiruvchi ma’naviy manba hisoblanadi, shunga asosan u kishilarni bir-birlariga yaqinlashtiradigan va ularni hamjihatlikka erishishga yordam beradigan, hamkorlikning yangi qirralarini ochadigan boylikdir. Ma’naviyat keng ma’noda insonni inson, yetuk shaxs qilib uni boshqa barcha jonli mavjudotlardan tubdan farqlab, keskin ajratib turadigan ong, aql-idrok va tafakkur bilan bog‘lagan botiniy tushunchalar majmuidir.

Ma’naviyat atamasining negizida ma’no so‘zi yotar ekan, uning mazmunini qisqacha izohlab o‘tsak maqsadga muvofiq bo‘lar edi. “Ma’naviyat” - inson ruhiy va aqliy olamini ifodalovchi tushuncha. U kishilarning falsafiy, huquqiy, ilmiy, badiy, axloqiy, diniy tasavvurlarini o‘z ichiga oladi. Ma’lumki, insonning ichki va tashqi olami mavjud. Tashqi olamiga uning bo‘y basti, ko‘rinishi, kiyinishi, xatti-harakatlari va boshqalar kiradi. Ichki olami yesa uning yashashdan maqsad, fikr yuritishi, orzu-istaklari intilishlari, his –tuyg‘ularini o‘z ichiga oladi. Insonning ana shu ichki olami uning ma’naviyatidir.

Axloq ijtimoiy ong shakllaridan biri bo‘lib, oliy ta’lim talabalarida halollik, poklik, burch, vijdon, oliyjanoblik, fidoyilik kabi fazilatlarni shakllantiradi. Axloq keng qamrovli tushuncha sifatida inson faoliyatining hamma jabhalarida kuzatiladi.

Axloq dunyoni bilishning o‘ziga xos usuli bo‘lib, kishilar xulq-atvorini yaxshilik va yomonlik nuqtai nazaridan tartibga soladi. Axloq kishilarning xulqini me’yorlash, taqiqlash

1 *A. Zunnunov, M.Xayrullayev, B.To'xliyev, N.Xotamov. Pedagogika tarixi.Darslik-Toshkent: Sharq,2000.-b.59*

2 *Abul-Qosim Mahmud az-Zamaxshariy “Nozik iboralar” U.Uvvatov T:. “Kamalak”,1992-80. 28 b*

, baholash,, bilan birga vijdon va burch kabi fazilatlarini shakllantiradi. Vijdon kishini yaxshilikka chorlab, nohaqlikka qarshi turishni, burch esa uni pok, halol, o'z sha'ni va g'ururini saqlashga undaydi. Insoniyat taraqqiyotida axloq muhim o'rin tutadi. Tarbiya esa bu jarayonda barkamol avlodni shakllantiradigan hodisadir.

Az-Zamaxshariy o'zining axloqiy ta'limotida o'z zamonasidagi turli tabaqa kishilari va kasb-hunar egalarining jamiyatda tutgan mavqei va axloq odobi to'g'risida fikr yuritar ekan, mutafakkir shaxsning qandayligidan kimligidan: podshohmi yoki oddiy kishi qat'iy nazar, avvalo u hushxulq va odamiylik ziynatiga ega bo'lmog'i kerakligi to'g'risida gapiradi va "Xushsifat va yaxshi xulqlar bilan ziynatlanmagan kimsani ipak kiyimlari ziynatlay olmaydi" deydi. Allomaning fikriga ko'ra, adablilik, diyonat ilmu ma'rifatlilik har bir kishining axloqiy xislatlaridan biri bo'lib qolmog'i kerak: "Kishining qadrini dinu diyonati va ilmu ma'rifati oshirib qo'ygandan keyin uning faqrligi va yetimligi tushirib qo'ya olmaydi. Shuningdek, yomon sifatlari va nodonligi tufayli o'z qadrini o'zi tushirib qo'ygan bo'lsa hech vaqt boylik yoki ko'p avlodlilik bilan uni tiklay olmaydi.

Insonning asl otasi- bu uning odobidir. Balki odob bebosh farzand uchun otadan ham yaxshi tarbiyachidir. Nafsni tiyish esa insonning asl onasidir. Balki u onadan ham dilkashroqdir. O'zingni shu ikki mehribon murabbiylar bag'riga topshir va undan zinhor ayrilma. Buyuk allomaning fikricha, har tomonlama barkamol insonning chinakam axloqiy xislatlaridan biri kamtarlik, saxiylik, go'zallik va mardlik bo'lib, "Go'zal va chiroyli ko'rinish ko'ngilda shodlik paydo qilur", "Mard mag'lub bo'lsa ham, tuban yiqilmaydi"[3]deydi allomamiz. Demak insoniylik, mardlik, kamtarlik, xushxulqlilik , ota-onalar va kattalarning ibratli nasixatlari va tanbehlari talaba shaxsining kamol topishida muhim ahamiyatga egadir: "Ey birodar qani u ota-onalar-u qarindosh-urug'lar qalin do'stlar-u uzoq-yaqin qo'shnilar, qani u birga o'tirishgan, suhbat qurishganlar, birga hamkorlik qilganlar-u bir-birimizdan ilmu hikmat o'rganishganlar? Hammasini yaratganning o'zi vujud bog'idan yana sahroga jo'natdi, elu-yurt ulardan holi qoldi, go'yo ular asli dunyoga kelmagandek. Qulog'iga gap kiradigan va g'aflat uyqusidan uyg'onuvchi odam uchun ularning taqdiri katta ibrat va tanbehdir". Mutafakkir o'z nasl-nasabi bilan maqtanib yuruvchi shaxslarni eng tuban axloqsiz kishilar deb hisoblaydi. "Ey odamzod, asling loy sopoldan bo'lishiga qaramay Ey insoniyat! Sening asling loydan, ko'zadek. Biroq, takabburlik va mag'rurlikka to'la. Ba'zan, otangiz va otangiz bilan; ba'zi paytlarda,siz o'z o'g'lingiz va omadingiz bilan faxrlanasiz. Insonga manmanlik bilan qaramaslik kerak. Sizga qanaqa yarashadi, ajdodlaringiz bilan maqtanishning sizga nima keragi bor? Yaxshisi ey do'stim! Haqiqatni ko'ring, nimaga minasiz va qanday holatga aylanasiz. Shunday ekan, gunohlaringizni kamaytiring, maqtanchoqlik va takabburlikni bas qiling!

Zamaxshariy inson xatti-harakatining axloqiy sabablarini insonning o'zidan qidiradi. "Yolg'onchi yaxshiligini aytguvchilar sizni yetaklab yurganingizni yeyishadi, biroz vaqt o'tgach, ular toshlarini to'kadilar u sizni qoplaydi va sizni xafa qiladi, sizga turli muammolar beradi. Sizning u sizga berganingizdan ko'ra ko'proq og'irlik qiladi"[4].

Mutafakkir yoshlarni pastkash , ikkiyuzlamachi, ig'vogar, nomard kishilardan yiroq yurish va xushyor bo'lishga da'vat etadi[5]: "Ahmoq hikmat lazzatini totmaydi, tumov kishi gul hidini sezmaydi", "Minnat"-siltovlar bilan qilingan hotamlik ortig'i bilan yoqqan yomg'irdek bo'lsa-da, unga yaxshilik bo'lmaydi", "Seni sharaflash va ulug'lash (odamlar oldida); haqiqatda tom ma'noda kamsitish va mashhur qilish; barcha shon-sharaf va shon-shara yo'q qilishdir. Shunday ekan, shon-shuhratdan ko'ra oddiy bo'lishni afzal ko'ring. Burchakda sharaf va qadr-qimmatdan ko'ra qiyinchiliklar panjasidan sevimliroq bo'lishni ko'ring. Yashirin nafrat va hasaddan xoli yashang"[6]. Shuningdek olim do'stlik, do'st tanlash muammolariga ham to'xtalib, kishini do'st tanlashda zinhor yanglishmaslikka chaqirib, Yomon yo'ldoshga ergashsang, uning og'usi senga yuqadi", "Sen xavf-xatar, nochorlikka tushib qolishdan qo'rqituvchiga yondosh, qo'rqma, bu ishda ziyon yo'q deyuvchidan saqlan" deb chinakam do'stlikning asosiy belgisi sadoqat va ishonch ekanligini uqtiradi.

Az-Zamaxshariy yoshlarni insonparvarlikka va haqiqatparvarlikka, halollik va rostgo'ylikka, adolatli va insofli bo'lishga da'vat etadi.

Az-Zamaxshariy axloqiy-didaktik qarashlarida o'zidan kattalarni xurmat qilish, bola tarbiyasi va unda ota-onaning roli haqida ham o'zining qimmatli fikrlarini bayon qiladi. Ota-ona bolani xush-hulq, odobli, mehnatsevar, aql-idrokli qilib tarbiyalamoqchi ekan, avvalo, bolani me'yoridan ortiqcha erkalatmasdan doimo nazoratda tutish ekanligini uqtirib, "Hayvonni siylasa, shodlanib egasini tepadi, odam bolasi erkalansa, shodlanib ota-onasini azobga qo'yadi"deydi mutafakkir.

Az-Zamaxshariy jamiyatda baxtga erishish orzusida yurgan kishilarni bilimini, qobiliyatini oshirishga, yomonlik va zo'ravonlik kabi illatlarga qarshi kurashishga chaqiradi. U ilm- fanga intiluvchi, muayyan fanga o'z umrini baxshida etgan olimlar haqida to'xtalib "Insonning kiyinishiga qarama, bilimiga qara" yoki "Savdogarning sharofati cho'ntagida, olimning shuxrati kitoblaridadir" deydi. Alloma bu bilan yoshlarni ham insoniylik ruhida tarbiyalab, uni avvalo kamtar inson, yetuk olim bo'lishlikka undaydi va har qanday havoyu-havasdan chetlanish lozimligini uqtirib: "Ey, Abulqosim seni dunyoga keltirib, xalqning munosibi qilib, senga aqlni va havoyu havasni mindirdi. Ular yaxshi va yomon yo'llarda seni boshlab yuruvchilardir. To'g'ri va egri joylarda sening mehmonlaringdirlar. Ularning biri ko'zi ochiq bo'lib, seni katta yo'lning ko'rsatkichlari bo'yicha olib yuradi va seni toza, tiniq buloqlarga olib keladi. Ikkinchisi esa, ko'zi ko'r, nodon bo'lib seni suvsiz sahroning o'rtasiga olib borib tushiradi. Bu ikki ko'rsatuvchining qaysi biri mohirroq , ustaroq va qaysi biriga ergashish lozimroq ekan. Yaxshi ko'rsatkichlari bilan to'gri yo'lda kutilganmi yoki adashib, egri yo'lda tutilganmi? Bilinhki havoyu havasni aqlning o'rniga tanlash adolatdan emas. Aqlning tarafi tong shafaqidek oq, havasning sharafi tundek qora. Senga bir yuzlansa, yaxshimi, yomonmi, qara-chi , unga ikkinchisining qaysi biri moyildir va bu qabul qilur, havasmi yoki aqlmi? Agar aql bo'lmasa, unda uni sevish va unga yopishib olish qanday munosib, u aqlning bo'yniga qo'lingni sol, bo'shatma....Agar havo-yu havas bo'lsa, undan asl arslondan qochgandek qochgin. Agar uni barcha seni sevinturuvchi narsalar bilan bilan hamroh ko'rsang va agar senga ikkalasining o'rtasidagi biror ish yuzlansa, oydinlashtirish uchun chin ko'ngildan to'g'ri maslahat beruvchilarga murojaat qil. Ulardan bir o'tkir fikr chiqsa, sening tilaging o'shadir. Aks holda unday ishdan oladigan foydangning orqasida bekingan zarardan hazar qil va undan qutulishga harakat qil.

Mahmud az-Zamaxshariy asarlari vositasida ma'naviy-axloqiy tarbiya faoliyatini samarali tashkil etishda talabalarning fe'l-atvorini, oilaviy holatini, imkoniyat va intilishlarini, qiziqishlarini atroflicha tahlil etish hamda har bir talaba uchun maqbul alohida munosibatni shakllantirish muhim ahamiyatga ega. Bu esa, talaba-yoshlar tarbiyasi uchun bevosita ota-onalar bilan hamkorlik ishlarini olib borishni, talaba shaxsidagi axloqiy, aqliy va jismoniy jihatlarini takomillashtirishda yetarli tarbiyaviy muhit yaratishni taqozo etadi. Shuningdek oilalar xilma-xilligi va ota-onalarning imkoniyatlarini (ijtimoiy, iqtisodiy, madaniy, ma'naviy-axloqiy) to'g'ri baholay olish zarur. Bu esa talaba-yoshlar bilan muntazam va tizimli tarbiyaviy ishlar tashkil etilishi uchun qulay imkoniyat yaratadi.Chunki tadbirlarda ma'naviy-axloqiy tarbiya mukammal rivojlantiriladi.

3 A.A. Boltayev Az-Zamaxshariyning ijtimoiy-siyosiy qarashlari. Avtoreferat. Buxoro 2007 yil 8 bet

4 A.Turdibayev. "Buyuk allomamiz Mahmud az-Zamaxshariyning asarlarida yaxshilik, do'stlik, oila tarbiyasi va diniy fikrlari haqida" maqola Science and Education" Scientific Journal 2020, Volume 1 Issue 2 , 410-418 b

5 Mahmud Zamaxshariy/OJo'rayev, A. Muhiddinov; tahrir hay'ati: U. Inoyatov va boshq. T.: Tafakkur, 2015. - 32 b. - (Mutafakkirlar

6 Окилов, Махмуджан. Замахшари и его сочинение "Атвак аз-захаб" : диссертация ... кандидата филологических наук : 10.01.06. - Москва, 1981. - 210 с.



IJTIMOIY FANLAR

# MADANIY TADBIRLAR KONTEKSTIDA TALABALARNING BADIIY TAFAKKURINI TAKOMILLASHTIRISH TAHLILI

*Omonboy Turgunbayevich Ergashev - tayanch doktorant, Namangan davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada oliy ta'limda talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishda hamda kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning madaniy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirib borishdagi madaniy tadbirlardan samarali foydalanish holatlari tahlil qilinib, madaniy tadbirlarni tashkil etishda foydalaniladigan metodlar to'g'risida kerakli taklif va tavsiyalar yoritilgan.*

***Аннотация:*** *В статье анализируются случаи эффективного использования культурно–массовых мероприятий в процессе совершенствования художественного мышления студентов вузов и совершенствования их культурологических знаний и умений в процессе подготовки их к профессиональной деятельности.*

***Abstract:*** *The article analyzes the cases of effective use of cultural events in the process of improving the artistic thinking of students in higher education and improving their cultural knowledge and skills in the process of preparing them for professional activities.*

***Kalit so'zlar:*** *badiiy tafakkur, ijodiy tafakkur, madaniy–ma'rifiy tadbirlar, ma'naviy–axloqiy, milliy, tarbiyaviy, ijodiy jarayon.*

***Ключевые слова:*** *художественное мышление, творческое мышление, культурно–просветительские мероприятия, духовно–этический, национальный, воспитательный, творческий процесс.*

***Keywords:*** *artistic thinking, creative thinking, cultural–educational events, spiritual–ethical, national, educational, creative process.*

Tarbiya–shaxs kamolotida, yoshlar hayotida muhim o'rin tutadi. Har bir inson oilada tarbiya topadi, ijodkorni xalq tarbiyalaydi. Yoshlar badiiy tafakkurini rivojlantirish bevosita mehnat, xalq e'tirofi, badiiy estetik ongning o'sishi bilan bog'lanadi.

Inson badiiy tafakkuri ilmiy va ijodiy salohiyat orqali kengayib boradi. Bugungi kunda O'zbekiston yoshlari ma'naviyatini yanada rivojlantirish, ijodiy barkamolligini ta'minlash, har qaysi sohada kreativlikni oshirishga qaratilgan e'tibor oshib bormoqda[1].

Bu borada O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Davlat mustaqilligini 26 yilligiga bag'ishlangan nutqida ta'kidlaganidek, "Mamlakatimizning taqdiri va kelajagi uchun mas'uliyatni o'z zimmasiga olishga, bu yo'lda bor bilim va salohiyatini safarbar etishga qodir bo'lgan, azmu shijoatli yoshlarni tarbiyalab voyaga yetkazish–biz uchun eng muhim masaladir"[2]. Bu esa yangi taraqqiyot bosqichida yoshlarning badiiy tafakkurini takomillashtirish jamiyat uchun muhim ahamiyatga ega ekaligini ko'rsatadi.

Tafakkur va ong ajralmas bo'lib, unda yoshlarning fikr yuritishi, tasavvur qilish, bilimlarni o'zlashtirish, voqelikni bilish qobiliyati sifatida ongning boyishi, uning yangi mazmun bilan to'ldirilishi manbai mavjud[3].

Bugungi kun oliy ta'limda tahsil oluvchilarning badiiy tafakkurini xalqaro standartlar darajasiga mos, raqobatbardoshli bo'lishida madaniy tadbirlar kontekstida yondoshuv muhim ahamiyatga ega. Oliy ta'limda bo'lajak mutaxassislarning badiiy

1 Достонбек Раҳматуллаев "Ёшлар ижодий тафаккурини шакллантиришда кино санъатининг ўрни" Янгиланаётган жамиятда ёшларнинг ижтимоий фаоллиги: муаммо ва ечимлар мавзуидаги республика илмий–амалий конференцияси мақолалар тўплами. – Тошкент: "Инновацион ривожланиш нашриёт–матбаа уйи", 2020. – б. 69.

2 Мирзиёев Ш.М. Ўзбекистон Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг йигирма олти йиллигига бағишланган тантанали маросимдаги нутқи. https://uzbekistan.lv/uz/prezident–shavkat–mirziyoyevning–ozbekiston–respublikasi–davlat–mustaqilligining–yigirma–yetti–yilligiga–bagishlangan–tantanali–marosimidagi–nutqi/.

3 Асрақулова А. Ўзбекистонда ёшлар иқтисодий тафаккурини шакллантириш ва ривожлантиришнинг ижтимоий–фалсафий асослари: фалсафа фанлари доктори (PhD) диссертацияси. – А., 2023. – б. 22.





tafakkurini shakllantirishda madaniy tadbirlardan samarali foydalanish, talabalarni kasbiy faoliyatga tayyorlash jarayonida ularning madaniy bilim va ko'nikmalarini takomillashtirib borishni dolzarb vazifalardan biriga aylantirdi.

Shu xaqda fikr yuritilar ekan, pedagogika fanlari doktori, professor S.Turg'unov, ular "... o'z faoliyati davomida o'quvchilarning maktab va maktabdan tashqari faoliyatidan xabardor bo'lishi va ularni nazoratga olishi, madaniy va ma'rifiy tadbirlarga keng jalb qilishning samarali yo'llarini qo'llashi zarur" ligini ta'kidlaydi[4].

Madaniy tadbirlar kontekstida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirish yuzasidan, xususan madaniy tadbirlar, ommaviy bayram va tomoshalarning tarbiyaviy va estetik ahamiyati yuzasidan bir guruh tadqiqotchilar: F.E.Ahmedov, B.S.Sayfullaev, M.B.Umarov, J.Dushamov, V.Rustamov, B.A.Shodiyev, U.X.Qoraboyev, J.A.Mamatqosimov kabi tadqiqotchilar madaniy tadbirlarning mazmun–mohiyati, shakllanishi, rivojlanish bosqichlari, madaniy tadbirlar spetsifikasi, madaniy tadbirlar kvalifikatsiyasi, madaniy tadbirlar rejissurasi, madaniy tadbirlar estetikasi, madaniy tadbirlarni o'tkazish orqali aholining estetik va ijtimoiy–madaniy kompetensiyalarini takomillashtirish masalalari yuzasidan tadqiqot olib borgan bo'lib, mazkur tadqiqotlar talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga katta xizmat qiladi.

Tadqiqotchilar D.U.Jumanazarova, G.Ibragimova, A.Isimova, M.J.Ishmuratov, B.X.Madraimov, R.Mamatqulova, U.Mahkamov, O.Musurmonova, O'.M.Rajabov, A.Y.Teshaboyev, A.T.Tileganov, D.Tog'ayeva, N.Egamberdiyeva, M.Quronov pedagogik ta'limotlar va pedagogik nazariyaga asoslangan tadqiqot ishlarida madaniy tadbirlarning dars va darsdan tashqari mashg'ulotlar orqali o'quvchi va talabalarning umummadaniy kompetensiyalarini takomillashtirish metodlarini ishlab chiqqan bo'lib, G.Lloyd, Ch.M.Wong, B.Rudolff, M.R.Davey, R.Crutchfield, P.Krishnaswami, M.Krishnaswami, L.Radenković, W.Westerman kabi xorijlik olimlar madaniy tadbirlarni bevosita moddiy va nomoddiy madaniy meros namunalarini targ'ib qilish vositasida tadqiq etishgan.

Ta'lim tizimida madaniy–ma'rifiy tadbirlarni tashkil qilish va ularning ma'naviy–axloqiy tarbiyaga yo'naltirilganligini ta'minlash ta'lim muassasalari raxbarlari, avvalo, o'quv yurti raxbarining ma'naviy–ma'rifiy ishlar bo'yicha o'rinbosarlarining vazifasidir.

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda quyidagi jihatlarga rioya qilish maqsadga muvofiq:

– madaniy–ma'rifiy tadbirlarda yuqori interaktivlikka erishish;

– o'zini–o'zi tarbiyalash jarayonini tashkil etish;

– tadbirga kompleks yondashish;

– tadbirning ma'naviy–axloqiy, milliy, tarbiyaviy ruhda bo'lishi;

– inson va jamiyat manfaatlariga uyg'unligi va h. k.

Madaniy–ma'rifiy tadbirlarning ma'naviy–axloqiy tarbiyadagi ahamiyatini tadqiq etish, avvalo, shu atama va unga turdosh bo'lgan "ma'naviy–ma'rifiy tadbirlar", "madaniy tadbirlar", "badiiy–ommaviy tadbirlar", "ommaviy tadbirlar", "badiiy tadbirlar" singari atamalarning mazmun doirasi va moxiyatini aniqlashni taqozo etadi[5].

Madaniy tadbirlarni tashkil etishda tomoshabinni (tadbir ishtirokchilarini) voqelikka ishontirish katta mahorat talab qiladigan jarayondir[6].

Oliy ta'lim muassasalarida har qanday tadbirni tashkil etishda mas'ul rahbardan juda katta mehnat talab qilinadi. Shu o'rinda aytib o'tish joizki, tashkiliy ishlar ijodiy ishlar bilan bir xil darajada turadi. To'g'ri, ijodiy sharoitlarning ham o'ziga xos ishlash uslublari bor, ammo mana shu ijodiy jarayonni amalga oshirishning tashkiliy tomonlarini hisobga olish muhimdir.

U.Qoraboyevning "Badiiy ommaviy tadbirlar" nomli kitobida madaniy tadbirlarni tashkil etishda foydalaniladigan metodlar to'g'risida juda ko'p qimmatli fikrlar berilgan. Unda ushbu soha bo'yicha ish olib borishda quyidagi metodlardan, ya'ni tarbiyaviy, ta'limiy, hordiq chiqarish va ijodiy jarayonni tashkil etish, tashkiliy metodlardan foydalanish maqsadga muvofiqligini aytib o'tadi[7].

Ma'lumki, oliy ta'lim muassasalarida talabalarning bo'sh vaqtini mazmunli o'tkazish, ularni vatanparvarlik va fidoyilik ruhida tarbiyalashga qaratilgan ommaviy, madaniy–ma'rifiy va sport–sog'lomlashtirish tadbirlari, turli musobaqalar hamda ko'rik–tanlovlar

4 Зарипов К.З. Ўқувчилар малакасини оширишда мактаб раҳбарларининг роли. – Тошкент: Ўқитувчи, 1993. – б. 59.

5 Самадова С. Маънавий–маърифий тадбирлар самарадорлигини оширишнинг педагогик асослари [Матн]: ўқув–услубий қўлланма. – Бухоро: "Садриддин Салим Бухорий", 2020. – б.47.

6 Сайфуллаев Б. С., Рустамов В.К., Маданий тадбирларни ташкил этиш махорати. – Т: Фан ва технология, 2016. – б. 34.

7 У.Қорабоев. "Бадиий оммавий тадбирлар". – Т: Ўқитувчи. 1986. – б.59.

o‘tkazib kelinmoqda. Bunga misol qilib, Namangan davlat universitetida talabalarning badiiy tafakkurini takomillashtirishga qaratilgan tadbirlarni tahlil qiladigan bo‘lsak, bu borada amalga oshirilgan keng ko‘lamli ishlarni ayrimlariga e’tibor qaratish maqsadga muvofiqdir.

Talabalar turar joylarida ta’lim muassasasi kafedralari tomonidan rejalashtirilgan grafiklar asosida “Kafedra kunlari” va “Kafedra haftaliklari” tashkil etilib, uzluksiz ravishda davra suhbatlari, kitobxonlik tadbirlari, “Zakovat”, “Zukko kitobxon” tanlovlari, yozuvchi va adiblar bilan uchrashuvlar, bayram tadbirlari va sport musobaqalari, huquq–tartibot organlari bilan hamkorlikda davra suhbatlari, devoriy gazetalar tanlovi, “Eng namunali xona”, “Eng namunali qavat”, “Eng namunali TTJ” nominatsiyalari bo‘yicha tanlovlar o‘tkazilib, g‘oliblar taqdirlanib borilishi ham yo‘lga qo‘yilgan.

Bundan tashqari, “Besh muhim tashabbus” asosida yoshlarning musiqa, rassomlik, adabiyot, teatr va san’atning boshqa turlariga qiziqishlarini oshirishga, iste’dodini yuzaga chiqarish maqsadida “Raqs”, “Namangan navolari” an’anaviy xonandalik ansambli, “Yoshlik” kamer orkestri, “Rassom ustaxonasi”, “Kitob mening do‘stimsan” to‘garaklari, “Nihol” talabalar teatr–studiyasi, “Quvnoqlar va zukkolar” jamoalari hamda ovoz yozish studiyalari faoliyat ko‘rsatmoqdaki, bularning barchasi talabalarning badiiy tafakkurini o‘stirishda o‘rni beqiyosdir.

Universitetning ijodkor talabalari viloyat televideniesi va radiosida, mahalliy va respublika nashrlarida adabiy–badiiy, ilmiy, publitsistik maqolalari va chiqishlari bilan faol qatnashib kelmoqdalar.

Universitet talaba–yoshlari orasida nomdor, Davlat va Prezident stipendiyalar sovrindorlari, fan olimpiadalari g‘oliblari ko‘pchilikni tashkil etadi. Bularning soni yildan yilga ortib bormoqda.

представлены аналитические формы побудительного наклонения с частицей давай, давайте (–ка). Такой вид волеизъявительных речевых актов характерен для статей–очерков. Например:

“소통합시다”…강기정 광주시장·시민단체 “맞장 토론”

[16] “Давайте общаться”...Мэр Кванджу Кан Ки Чжон и гражданские группы “беседуют лицом к лицу”

연합 뉴스. 2023–01–30); “갓구운 빵 고집하는 프랑스…버리는 빵 재활용 합시다 [17]”.

“Франция настаивает на свежеиспеченном хлебе... “Давайте переработаем выброшенный хлеб” ( . 2022–09–15);

(연합 뉴스. 2022–09–15); “오늘은 지구의 날…지구에 투자합시다 [18]”

“Сегодня День Земли...Инвестируйте в Землю” 연합 뉴스. 2022–04–22).

Из проведенного выше анализа следует, что массовая коммуникация вошла в новый этап и приняла новые формы. Важнейшими чертами массовой коммуникации являются–установка на новизну, связанная с ориентацией на немедленное восприятие передаваемой информации, и функция воздействия – убеждение адресата, влияние на его позицию, побуждение его к действиям.

Как было определено, общим коммуникативным назначением директивного речевого акта является стремление говорящего побудить адресата совершить действие. Многообразие языковых средств выражения побудительных высказываний обуславливает широкий спектр форм их репрезентации в речи.

На основании этого анализа следует, что побуждение в корейском языке выражается как в прямой, так и в косвенной форме. Косвенные способы выражения побуждения отличаются многообразием форм и способны удовлетворить прагматические запросы коммуникантов.

Для успешного осуществления своего намерения автор употребляет в своем высказывании ряд лексических средств (эмоционально–оценочные высказывания, формулы вежливости, обращения); грамматических средств (императив, императив с отрицанием, условное наклонение, модальные глаголы), а также синтаксические и графические средства.

В ходе исследования пришли к выводу о том, что изучение особенностей реализации побудительных речевых актов в корейском языке является перспективным направлением для изучения, благодаря которому в дальнейшем станет возможным организовывать коммуникацию с большей эффективностью и продуктивностью. Полученные результаты открывают перспективы для дальнейших исследований особенностей влияния СМИ на восприятие окружающей действительности и формирование языковой картины мира.

16 장원 기자. 연합 뉴스. https://www.yna.co.kr/view/AKR20230130130600054?section=search (송고시간2023-01-30 17:00).
17 유한주 기자. 연합 뉴스. https://www.yna.co.kr/view/AKR20220915137200009?section=search (송고시간2022-09-15 17:15).
18 연합 뉴스. https://www.yna.co.kr/view/AKR20220422086000505?section=search (송고시간2022-04-22 14:00).





# BADIIY MATN TARJIMASINING LINGVOKULTUROLOGIK TADQIQI

**Nargiza Qo‘chqarovna Bo‘riyeva** - dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti

**Annotatsiya:** *Mazkur maqola badiiy asarlarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilishdagi lingvistik va grammatik transformatsiyalar, va tarjimaning lingvokulturologik tahlilini muhokama qiladi. Tarjimon tomonidan asl matnni sharhlashda yuzaga keladigan lingvistik va madaniy to‘siqlar ko‘rib chiqiladi. Tarjimaning asosiy muammolariga quyidagilar kiradi: to‘plam iboralari tarjimasining o‘ziga xosligi; o‘yinni so‘zlarga tarjima qilish muammosi; madaniy tafovutlar, tarjimonning asosiy vazifasi esa yuzaga kelayotgan muammolarni bartaraf etishdir.*

**Аннотация:** *В данной статье рассматриваются лингвистические и грамматические трансформации при переводе произведений искусства с узбекского на английский язык, а также лингвокультурологический анализ перевода. Рассмотрены лингвистические и культурные барьеры интерпретации оригинального текста переводчиком. К основным проблемам перевода относятся: специфика перевода устойчивых выражений; проблема перевода игры словами; культурные различия, и основная задача переводчика – устранение возникающих проблем.*

**Abstract:** *This article discusses linguistic and grammatical transformations in the translation of works of art from Uzbek into English, as well as a linguocultural analysis of the translation. Linguistic and cultural barriers to the interpretation of the original text by the translator are considered. The main problems of translation include: the specificity of the translation of set expressions; the problem of translating the game into words; cultural differences, and the main task of the translator is to eliminate emerging problems.*

**Kalit so‘zlar:** *badiiy matn, tarjima, lingvokulturologik, etnik, frazeologik birikmalar, nasriy tarjima, milliylik tuyg'usi.*

**Ключевые слова:** *художественный текст, перевод, лингвокультурологический, этнический, фразеологические сочетания, прозаический перевод, национальное чувство.*

**Keywords:** *literary text, translation, linguoculturological, ethnic, phraseological combinations, prose translation, national feeling.*

Badiiy lingvistik matnni kuzatish va uni boshqa tilda takrorlash masalasi uzoq vaqtdan beri tarjima amaliyotchilari va nazariyotchilarining e’tiborini tortgan, bu muammo yuzasidan turli, ba’zan bir-biriga zid, ilmiy qarashlar bildirilgan. Xususan, E.G.Etkind, I.Kashkin, A.V.Fyodorov kabi taniqli olimlar badiiy tarjima, boshqa tillardagi she’riy va nasriy matnlarni ko‘paytirish muammolariga bag‘ishlangan asarlari bilan bu soha rivojiga katta hissa qo‘shgan[1]. Mustaqillik yillarida fan va ta’limga alohida e’tibor qaratilib, tadqiqotchilar oldiga tilshunoslik sohasida mas’uliyatli vazifalar qo‘yildi. Shunday vazifalardan biri chet tillarini o‘rganish va o‘rgatishdir. O‘zbekiston Respublikasining Birinchi Prezidenti I.A.Karimov ta’biri bilan aytganda, “Bugun jahon hamjamiyatida o‘zining munosib o‘rnini egallashga intilayotgan mamlakatimiz, xalqimiz uchun xorijiy tillarni mukammal bilishning ahamiyatini kamsitishning hojati yo‘q. Xorijlik hamkorlarimiz bilan hamkorlikda o‘zining buyuk kelajagini qurayotgan insonlar”[2].

O‘zbekistonda badiiy tarjima amaliyoti uzoq o‘tmishda paydo bo‘lgan va rivojlangan bo‘lsa-da, uning tarixi va o‘ziga xos xususiyatlari haqidagi nazariy qarashlar faqat bizning davrimizda shakllanib, tarjima faniga asos solgan. Mamlakatimizda tarjima fanining asoschisi G.Salomov, taniqli olimlar Sh.Sharopov, N.Komilov va bir qator keyingi avlod vakillari ishtirokida badiiy tarjimaning turli muammolari keng yoritildi. Biroq, boshqa tillardan tarjima san’ati, tarjimon mahorati va tarjima nazariyasi o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjimani o‘rganishga, undan ham jiddiyroq, matn tuzilmalarini qiyosiy tahlil qilishga yetarlicha e’tibor bermadi. Ingliz va o‘zbek nasrida ilmiy asar yaratilmagan.

Tilshunoslikning markaziy lingvistik birligi bo‘lgan so‘zni tarjimashunoslik va stilistikada markaziy “tarjima” va “uslubiy” birlik sifatida ko‘rish mumkin. Matndagi eng to‘liq ma’noga ega bo‘lgan til birliklarining birligi so‘z tilshunosligining barcha sohalarini birlashtiruvchi til tizimi yoki strukturasining

1 Maugham U.S. (2001). Theater. Moscow: Eskimo-press, 62.
2 Karimov I.A. A harmoniously developed generation is the foundation of Uzbekistan's development. - Tashkent: Uzbekistan, 1998. - 98 p.

eng muhim elementi hisoblanadi[3].

Matnlarni tarjima qilish oddiygina bir tildagi matnni shu til qoidalaridan kelib chiqqan holda boshqa tildagi matnga o‘zgartirishni anglatadi. Bunda so‘z birikma hosil qilishi, sinonimlarga ega bo‘lishi, antonimlarga ega bo‘lishi, frazeologik birliklar hosil qilishi, ko‘chma ma’noda qo‘llanishi bilan ajralib turadi. Boshqa til birliklarini e’tibordan chetda qoldirmagan holda aytish mumkinki, so‘z barcha til sohalari ichidagi yagona birlikdir.

Masalan, so‘z boshqa tilga morfemalar, so‘zlar, iboralar, gaplar yordamida tarjima qilinadi. So‘zning boshqa tilga qanday tarjima qilinishi tarjima tilining o‘ziga xos xususiyatlariga, uning uslubiy boyligiga, so‘zning ko‘plik yoki birlik bo‘lishiga bog‘liq.

Tarjima uchun tanlangan so‘z qaysi qatlamga (neytral, og‘zaki yoki adabiy) mansubligi, tarjima tilidagi faol so‘zlar qatoriga kirganligi, birikma hosil qilishdagi faollik darajasi va boshqa bir qator omillarga bog‘liq[4].

Lug‘at boyligining asosini tashkil etuvchi neytral so‘zlarning boshqa qatlamlarda o‘ziga xos sinonim va antonimlari mavjud. Shulardan tarjimonning tegishli o‘rinlarda uslub va ma’nodan foydalanishi tarjimaning yuqori sifatini ta’minlaydi.

Tarjimaning adekvatligini (muqobilligini) ta’minlashda qatlamlar o‘rtasidagi farqlarni to‘liq aks ettira oladigan maxsus lug‘atning tuzilishi tarjima nazariyasi va stilistikasining ham nazariy, ham amaliy masalalarini hal etishda bebaho manba bo‘lib xizmat qiladi.

So‘zlarning stilistik farqlarini ko‘rsatadigan va ular haqida ma’lumot beruvchi lug‘at bizga nafaqat tarjima nazariyasini, balki tarjimani tahrirlashning aksariyat masalalarini ham oydinlashtirish imkonini beradi. Kelgusida bu boradagi ilmiy izlanishlar tarjima nazariyasining dolzarb muammolarini hal etishda muhim ahamiyat kasb etadi.

Tarjimadagi eng katta muammo bu madaniyatlar orasidagi farqni bilishdir. Muayyan madaniyat rezidentlari biror narsaga o‘z nuqtayi nazaridan qarashadi. Ekvivalent sifatida kelgan so‘zlar ekvivalent bo‘lmasligi mumkin. Turli madaniyatlar turli yo‘nalishlarga ega. Masalan, O‘zbekiston madaniyatida bog‘dorchilik, dehqonchilik, uy hayvonlari va kundalik turmush katta ahamiyatga ega bo‘lsa, Angliya va Amerikada daromad, pul, sport va imtiyozlarga e’tibor beriladi. Ba’zi jamiyatlar texnik jihatdan ko‘proq yo‘naltirilgan, boshqalari kamroq texnik yo‘naltirilgan. Bu farq muayyan mavzularni muhokama qilish uchun ishlatilishi mumkin bo‘lgan lug‘atlar sonida namoyon bo‘ladi. Bunday holda, ma’noga asoslanib, texnik va texnik bo‘lmagan lug‘atlardan foydalanish mumkin. Agar manba matn yuqori texnologiyali hamjamiyatdan bo‘lsa, uni boshqa tilda texnik bo‘lmagan hamjamiyatga tarjima qilish qiyin bo‘ladi.

Tarjimon asarni ona tiliga tarjima qilishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ysa, avvalo asl asl mohiyatini to‘liq anglab yetishi, so‘ng uni chet tiliga tarjima qilishga kirishishi kerak. Agar tarjima pragmatik tarjima talabiga javob bermasa, o‘quvchini chalg‘itadi. Aksincha, asar mohirona tarjima qilinsa, milliy tarixiy romanlarimizni dunyoning chet tillarida o‘qish imkoniyati paydo bo‘ladi. Demak, tarjima yangi syujet, janr hosil qiladi. Adabiyotda yangi badiiy vositalar yaratiladi. Bahs uchun Oybekning “Navoiy” romani tarjimasiga to‘xtalsak.

Oybekning o‘zbek adabiyotida alohida o‘rin tutgan asarlari allaqachon dunyoning bir qancha tillariga tarjima qilinib, nashr etilgan. Masalan, adibning “Navoiy” romani qozoq, turkman, rus, ukrain, fransuz, nemis va boshqa tillarga tarjima qilingan. Bu asar dunyo xalqlari orasida keng tarqalgan. So‘nggi paytlarda romanning o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilinishi o‘zbek tilidan tarjima amaliyotida muhim voqea bo‘ldi. Sababi, Oybek ijodi ingliz kitobxoni uchun hamon yangi dunyo. Romanni ingliz tiliga Ilhom To‘xtasinov va Omon Mo‘minov tarjima qilgan.

Tarjimonlar o‘sha davr ruhi va qiyofasini tarjima tilida xuddi asl nusxadagidek aks ettirishni maqsad qilganlar. Bu maqsadni amalga oshirish, albatta, tarjimonlar va ularning mahoratiga bog‘liq. Darhaqiqat, Oybekning ingliz tilidagi “Navoiy” romani asliyat kabi tabiiy va ta’sirchan bo‘lib, tarjimonlarning izlanishlari, badiiy mahorati samarasidir.

Yozuvchi romanda buyuk shoir obrazi talqini orqali xalqimizning XV asr tarixining murakkab manzarasini chizgan. Oybek Navoiyning buyuk fazilatlarini mukammal tasvirlab bergan. Romandagi bu badiiy barkamollik Navoiy hayotining barcha bosqichlari tasvirlangan sahnalarda o‘z ifodasini topgan.

Tarjimon tarjima jarayonida adabiy ijodning nazorat va badiiy xususiyatlarini chuqur anglashi, asardagi personajlarning sifatiga alohida e’tibor berishi kerak[5]. Shuning uchun ham “Navoiy” romanida Sultonmurod, Arslonqul, Zayniddin, Majididdin, Tuvgonbek kabi yorqin obrazlarning reportaji muallifdan buyuk mutafakkir hayoti va ijodini, shoir hayotini tadqiqotchi sifatida o‘rganishni taqozo etdi va ayni shu talablarni qo‘yadi (tarjimonga ham). Zero, Navoiy siymosini o‘zligini his qilmasdan turib, o‘zga odamlarga gavdalantirib bo‘lmasligi tabiiy.

Muhimi, madaniyatlar o‘rtasidagi farqlar tarjimondan chuqur lingvistik bilimga ega bo‘lish bilan birga xalqlar madaniyatidan xabardor bo‘lishni ham talab qiladi. Masalan, o‘zbek madaniyati me’yorlari, shubhasiz, Amerika

3 Neubert A. Semiotic aspects of the training of interpreters and translators. “Linguistische Arbeitsberichte”, 2. Leipzig, 1970.- p.41-45.
4 Nida E. Science of translation. “Language”, vol.45, No3. 1969. – 180p.
5 Catford J. A linguistics theory of translation. Oxford, 1965.-556p.





madaniyatidan farq qiladi.

Milliy asarlarimizda uchraydigan ayrim so‘z yoki jumlalar matnda millatimizga xos bo‘lgan pragmatik vaziyat yaratadi. Bu nozikliklarni anglash uchun o‘zbek millatining vakili bo‘lish kerak. Masalan, yagona so‘z “Borakallo!”. Bizning misolimizdan ko‘rinib turibdiki, ijodkor so‘zni kim aytgani, uning jinsi, yoshi haqida hech qanday ma’lumot bermasa ham, o‘quvchi gap muallifi yoshi ulug‘ odam ekanligini oson anglab yetadi. Xuddi shu holatni xorijlik o‘quvchiga yetkazish tarjimonning haqiqiy san’atidir.

“Barakallo, bu yerdagi ishlardan aql hurkadi!”

“Well, well! Local affairs can come in horror”

Yoki boshqa misolni ko‘rib chiqing:

“ -Faqirning ostonasini ne maqsad bilan so‘radi kimyogar.”

Bu misolda “faqir” so‘zi kambag‘al emas, balki o‘zbekcha kamtarlikni ifodalovchi birinchi shaxs olmoshi (men) bor. Tarjimon bu holatni o‘quvchiga quyidagi ma’noda yetkazishi kerak:

-Why have you come to my place? – he asked slowly but with an unsatisfied tone.

Romanda yuqoridagilardan tashqari uning uslubini boyitib turuvchi sinonimlar, frazeologik birikmalar, maqollar borligi va ularga muqobil topish tarjimonning lug‘at boyligi qanchalik boy bo‘lishi kerakligini ko‘rsatadi. Lekin shuni ham aytish kerakki, tarjimon ayrim hollarda sinonimik vositalar o‘rniga leksik takrorlardan foydalanadi.

M.Hakimov leksik takrorning izchillikni saqlash uchun qo‘llanilishini va bu hodisaning band ichidagi gaplarda yaqqol ko‘rinib turishini qayd etadi[6].

E.A.Referovskayaning fikricha, jumlalar qatorida ma’lum bir so‘zning qo‘llanishi uni gapning markaziy elementiga aylantiradi va shu bilan tinglovchining ham, so‘zlovchining ham diqqatini shu so‘zga qaratadi. Bundan tashqari, u orqali gaplar o‘zaro bog‘lanadi[7].

Fikrimizning isbotini quyidagi misollarda ko‘rish mumkin:

“Mana u bir zum qotib boshini ushladi-oq salla qip-qizil qonga bo‘yaldi. Olomon hayqirib chuvvos solarkan, yarador amaldor daraxtlar orasida g‘oyib bo‘ldi…- Ajab voqealar bo‘lmoqda. Xalqning haqiqat talab qilgan ovozidan butun Hirot larzada,- shavq bilan dedi Sultonmurod…- Uluska ne yomonlik qilibmiz?-beparvolik bilan so‘radi To‘g‘onbek.”

Keltirilgan misolda ko‘rinib turibdiki, olomon, xalq, millat kabi sinonim so‘zlar ishlatilgan. Biroq tarjima jarayonida sinonimik vositalar emas, balki yuqorida aytib o‘tilgan leksik takrorlash texnikasi qo‘llanilgan:

“Here he paused for a moment and grabbed his head,-his white turban was drowned in blood. The people broke cries of joy; he was wounded, managed to hide behind trees…-There is an extraordinary thing going on outside. The people demand justice, their voices are shaking entire Herat…- Sultonmurod said excitedly…What have I done wrong to the people?-Togonbek asked quietly”.

Oybekning “Navoiy”ini tarjima qilish jarayonida adibning adolatli shoh va xalq, Navoiy va xalq, Navoiy va urush, Navoiy va madaniyat taqdiri, Navoiy va xalqlar birligi kabi masalalarning badiiy talqiniga duch kelamiz. Bunda shoir siymosi orqali Navoiy siymosini xorijliklarga gavdalantirish, zamondoshlari uchun muhim, kelajak avlodlar uchun ibrat bo‘ladigan ijtimoiy-falsafiy qarashlarini targ‘ib etishga harakat qilish vazifasi yuklatilgan[8].

Tarixiy asarlar ko‘pincha she’riy shaklda yozilishini bilamiz. Biroq ko‘plab asarlar nazmdan nasrga tarjima qilingan. Nasriy tarjimaning ham she’riy tarjimaning o‘ziga xos qiyinchiliklari bor. Ko‘pincha she’riy tarjimada so‘zning tanlanishi, uning uzunligi yoki qisqaligi, uning tarkibidagi har bir unli va undosh hal qiluvchi rol o‘ynaydi, degan fikrga duch kelamiz. Biroq nasriy tarjimaning ham o‘ziga xos murakkab tomonlari borki, yuqoridagi misollardan ko‘rinib turibdiki, tarjima jarayonida so‘zlar ma’no va uslub jihatidan bir-biriga mos keladi; bir-birini almashtirish, muqobil iboralarni topish, maxsus sintaktik vositalar yaratish kerak[9].

Ba’zan asarni tarjima qilishda tarjimon ikki til o‘rniga uch yoki undan ortiq til bilan ishlashiga to‘g‘ri keladi. Xususan, “Navoiy”da fors-tojik tilidagi she’rlarni uchratamiz;

Hech kasro nazdi dud naguzoshti,
In du shohi gov gar har doshti.

Keltirilgan misoldan ko‘rinib turibdiki, bu holat bizning vazifamizni ikki baravar oshiradi. Bu yerda tarjimondan faqat o'zbek va ingliz tillarida ishlashi talab qilinadi:

If a donkey had ox's horns,
In would not let anybody come close to it.

Uning o‘zbek tiliga quyidagicha tarjima qilinganini ko‘rishimiz mumkin:

Agar eshakni xo‘kiz kabi shohlari bo‘lsa,
Hech kim unga yaqinlashmasligi kerak edi.

Ma’lumki, ilgari o‘zbek adiblarining asarlari rus tiliga tarjima qilingan. Oybekning “Navoiy” romani ingliz tiliga bevosita tarjima qilingan ilk tajribadir. Asar mazmuni har tomonlama to‘g‘ri tarjima qilingan bo‘lsa-da, ba’zi o‘rinlarda noaniqliklar, asl nusxadan chetga chiqishlar

6 Tukhtasinov I.M. (2017). Discursive approach in the training of translators, Mat. International scientific and creative forum “Youth in science and culture of the XXI century”. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture., 229-231.
7 Maugham U.S. (2001). Theater. Moscow: Eskimo-press, 62
8 Tukhtasinov I.M. (2017). Discursive approach in the training of translators, Mat. International scientific and creative forum “Youth in science and culture of the XXI century”. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture., 229-231.
9 Neubert A. Semiotic aspects of the training of interpreters and translators. “Linguistische Arbeitsberichte”, 2. Leipzig, 1970.- p.41-45.

ham uchrab turadi. Ushbu romanning asl nusxasi va tarjimasi bilan solishtirar ekanmiz, tarjimaning ayrim qismlarida milliy o‘ziga xoslik poymol qilinganiga guvoh bo‘ldik.

Masalan, asl nusxasi: “Mana bunda biri katta sallali boshini uzliksiz chayqab, ko‘zlarini chirt yumgan holda g‘o‘ng‘ilab Arabiyotni yodlaydi” (3 b.).

Tarjimada: “Here one could also see one of them with his book on his knees learning by heart the book called “Arabiyot” with his eyes closed”.

Yuqoridagi gapdagi “katta sallali boshini uzluksiz chayqab” (constantly shaking his head in a big turban) so‘zlari tarjima tilida tushib qolgan va ma’nosi o‘zgargan yoki aslida “chuchitilgan moy va qovirilgan go‘sht hidi dimoqlariga urildi” (the smell of smoked butter and fried meat has hit the palate.) Tarjima tilida gapning ma’nosi butunlay o‘zgargan[10].

“They all heated the oil and fried go‘sht” iborasini o‘zbekchaga qaytarsak, “Ular hammasi moyni qizdirdilar va go‘shtni qovurdilar” degan ma’noni bildiradi.

Yoki asl nusxada: “Do‘st yorlar yig‘ilishib chag‘ir ichib musiqa va raqslar bilan tong ottiradilar.”

Tarjimada: “They gathered together with their friends and drunk alcohol, listened to music and watched dances: in short they had a good time”, deb berilgan.

Yuqoridagi misoldagi “chag'ir” so'zi tilga “alcohol” deb tarjima qilingan bo'lib, uning milliy ma’nosi ingliz tilida yo'qolgan. Asl nusxaga qo‘shimcha ravishda: “Uzoq kengashdan so‘ng biron ma’qul chora topilmagach yog‘ochday qo‘tgan, junsiz, taqir po‘stakda xujra to‘rida o‘tirgan Aloiddin Mashxadiy kichgina gavdasi bilan yengilgina qo‘zg‘alib uzun pechi osilgan. katta sallali boshini choyqadi” tarjima tili bilan aytganda: “After a long discussion they could not find any solution and then Aloiddin Mashhadiy who was sitting on the top of the room moved and shook his head”.

Yuqoridagi gapdagi “Yog‘ochday qotgan junsiz taqir po‘stakda va kichkina gavdasi bilan yengilgina, uzin pechi osilgan katta sallali” so'zlari tarjimada o'z aksini topmagan va milliy ma’no yo'qolgan.

Asl matnda: “Agar qasida shoiri bo‘lsam edi, hoqon ibn hoqon Sulton Husayin Boyqaro hazratlariga bir bemisl qasida yozib, janobi oliydan shoxona sarpolar edi, chunki ayni vaqti: ikki hafta muqaddam ul janobning muborak boshlariga Xumoyun qushi qo‘ndi, ko‘ngillarini saqlab bo‘ldi. Usharoga saxovatning yetti darvozasini ochishlariga aminmen” jumla tarjimasi: “If I were a poet of ode I would write an ode to Sultan Husain Boyqaro and would get royal clothes and praises, because two weeks ago he was appointed as a king and he calmed down a lot. I am completely sure that he will praise and respect poets now”.

O'zbek va ingliz tilidagi matnlarni solishtirsak, “Hoqon ibr hoqon hazratlariga, ul janobning muborak boshlariga Xumoyun qushi qo'ndi” so'zlari tarjima tilida o'z aksini topmagan, asl nutqdagi o'zbekcha hurmat va milliylik tuyg'usi yo'qolgan.

Yoki aslida: “Butun Xirot hasratda uyg‘ondi” “Butun Hirot tog‘larda uyg‘ondi” deb tarjima qilingan va mazmuni butunlay o‘zgargan.

Xulosa qilib aytganda, tarjimonning mahorati eng muhim xususiyat bo‘lib, u ham asar darajasini to‘ldira oladi. Agar tarjimon yetarli bilim va tajribaga ega bo‘lmasa, tarjimaning to‘liq chiqishi qiyin bo‘ladi. Agar bu ikki sifat yetarli bo‘lsa, saviyasiz asarni ham saviyali ko‘rinishda ijodiy usullardan foydalangan holda tarjima qilish va mijozning ehtiyojlarini to‘liq qondirish mumkin.

“Navoiy” kabi tarixiy asarni o‘zbek tilidan ingliz tiliga tarjima qilish oson ish emas; bu juda qiyin va ko‘p mehnat talab qiladi. Demak, Oybekning “Navoiy” romanining ingliz tiliga tarjimasi bugungi o‘zbek tilidagi tarjimasida katta voqea bo‘ldi. Tarjimonlar tarjimadagi ayrim xato va kamchiliklarni romanning keyingi nashrida to‘g‘rilab beradilar, degan umiddamiz.

Demak, milliy atamalarni o‘zbek tiliga tarjima qilish ingliz tiliga ma’lum mahorat va e’tibor talab qiladi, degan xulosaga kelish mumkin.

Shunday ekan, tarjimon eng avvalo, milliy ijod ruhini yetkazishga harakat qilishi kerak, deb o‘ylaymiz. V.Golishevning “Tarjimada maktub ham ruh zarur bo‘lganidek zarurdir” degan fikrini ilmiy ishda keltirilgan misollar ham isbotlaydi.

Agar tarjimada faqat lug‘atga e’tibor qaratilgan bo‘lsa, unda milliy ruhiyat yo‘q. Biroq tarjimada atamalarni faqat nomini tushuntirmasdan berish ham johillikdir. Har ikkisining ham eng yaxshi tarjimasiga erishish kerak, chunki milliy ruhni asrash tarjimonning zimmasida.

Yuqorida tilga olingan tarjimaning dolzarb masalalari har doim ham o‘z ahamiyatini yo‘qotmagan. Asl nusxadan tarjima tiliga qanchalik ko‘p tarjima qilinsa, shuncha ko‘p tanqid qilinadi va tarjima nazariyasi bo‘yicha yangi qoidalar, ko‘rsatmalar, tavsiyalar yaratish uchun asos bo‘ladi. Hozirda ingliz tilida “O‘tgan kunlar”, “Navoiy”, “Shum bola” asarlari nashr etilmoqda. Bu asarlar bizning kelgusi faoliyatimizning debochasi bo‘lib, o‘zbek adabiyoti klassiklarini dunyoga yetkazishdek ulug‘ maqsadlarga hissa qo‘shsa ajab emas.

10 Tukhtasinov I.M. (2017). Discursive approach in the training of translators, Mat. International scientific and creative forum “Youth in science and culture of the XXI century”. Chelyabinsk: Chelyabinsk State Institute of Culture., 229-231.





# O‘ZINIKI BO‘LMAGAN KO‘CHIRMA GAPLARDA SO‘Z TURKUMLARINING QO‘LLANISHI

*Shoxida Isoqovna Siddiqova* - *f.f.b.f.d.,(PhD), dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda so‘z turkumlarining badiiy asarlarda qo‘llanish xususida fikr yuritilar ekan, badiiy matnda asar mazmunini ochishga, personajlar xarakter-xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishiga alohida e’tibor qaratiladi. Shunday ekan, muloqot jarayonida ishtirok etuvchi har bir morfologik til birligi muayyan uslubiy vazifani bajarishga xizmat qilishi muxtasar tadqiq qilingan.*

**Аннотация:** *В данной статье при размышлении об употреблении словосочетаний в художественных произведениях в несобственных прямых речь, особое внимание уделяется раскрытию содержания произведения в художественном тексте, их значению в определении черт характера персонажей. Поэтому было кратко изучено, что каждая морфологическая языковая единица, участвующая в процессе общения, служит для выполнения определенной методологической задачи.*

**Abstract:** *In this article, while thinking about the use of word groups in artistic works in quotations that are not one's own, special attention is paid to revealing the content of the work in the artistic text, and their importance in determining the character traits of the characters. Therefore, it was briefly studied that each morphological language unit involved in the communication process serves to fulfill a certain methodological task.*

**Kalit so‘zlar:** *o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar, kommunikatsiya jarayoni, grammatik-stilistik xususiyatlar, nutqiy maydon.*

**Ключевые слова:** *несобственные прямая речь, процесс общения, грамматико-стилистические особенности, речевое поле.*

**Keywords:** *non-own quotations, communication process, grammatical-stylistic features, speech space.*

Til tadqiqida o‘zga gap turlaridan biri bo‘lgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning tarkibiy tuzilishini antropotsentrik planda aniqlash, grammatik, pragmatik va lingvopoetik xususiyatlarini ochib berishga umumiy tilshunoslikda katta e’tibor berilmoqda.

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning badiiy matnning estetik vazifasini yuzaga chiqaradigan, uning ta’sirchanligini ta’minlaydigan badiiy tasvir vositalaridan biri ekanligi filologiya ilmida e’tirof etilgan haqiqatlardan biridir[1]. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar o‘zbek tilshunosligida B.Yo‘ldoshev va S.Isroilovlar tomonidan yaratilgan o‘quv qo‘llanmasida anchayin xolis va batafsil ko‘rsatilgan. “O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gapning grammatik-stilistik xususiyatlari va badiiy tekstdagi o‘rni” deb nomlangan bu o‘quv qo‘llanmasida o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning umumiy tavsifi berilib, uning grammatik-intonatsion xususiyatlari o‘rganilgan, shuningdek, sintaktik variantlari, badiiy nutq tuzilishidagi o‘rni, xalq og‘zaki ijodi, she’riy va nasriy matnda qo‘llanilishi atroflicha bayon qilingan[2].

O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning asosiy belgilari bu grammatik belgilar hisoblanadi. Rus va ukrain tillari bo‘yicha kuzatishlar olib borgan A.A.Andrievskaya o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarga muhim uslubiy vosita sifatida qarab, fe’lga xos kategoriyalarning o‘zgaruvchanligi, kirish va modal so‘zlar, yuklamalarning o‘rin almashishi xarakterli ekanligini qayd etadi[3]. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarning grammatik usullari muallif hikoyachiligi ichida yuzaga keluvchi qarshilantirish, ya’ni hikoya qilish jarayonida matnga kiritilgan va o‘z uslubiy bo‘yoqdorligiga ko‘ra birgina muallifgagina emas, balki bir vaqtning o‘zida ikki subyekt nutqiy maydoniga – ham muallifga, ham personajga birday taalluqli bo‘lgan leksik birliklarga asoslanadi. Keyingi holatda muallif tomonidan o‘ylangan predmet personaj subyektiv qarashlarini yoki uning nutqiy manerasini ko‘rsatuvchi ta’sirchan uslubiy bo‘yoqdorlikka ega so‘zlar vositasida ifodalanadi. Bunday hollarda predmet to‘g‘risida muallif tomonidan berilgan ma’lumot o‘zga nuqtayi nazarini ifodalaydi

1 Сиддиқова Ш.И. Ўзга гаплар тадқиқи. Монография. Тошкент Innovatsion-Ziyo” 2021. Б. 93

2 Йўлдошев Б., Исроилов О. Кўрсатилган асар. –Б.6 – 60.

3 Андриевская А.А. Несобственно-прямая речь в художественной прозе Луи Арагона. - Киев: Изд-во Киев, ун-та, 1967. С.23.

va, tabiiyki, boshqa so‘zlar yordamida yuzaga chiqadi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar ifodalanishida deyksis va “egotsentriklik” unsurlari muhim ahamiyat kasb etadi. Tildagi egotsentrik unsurlar deyilganda so‘zlovchi nutqiga havola qilinadigan so‘zlar va qurilmalar tushuniladi. Y.V.Paducheva unsurlarga faqatgina deyktik so‘zlar va unsurlarni emas, balki subyektiv modallik deb yuritiluvchi kirish so‘zlarni; eksplitsit illokutiv vazifadagi gaplarni; so‘zlovchi tomonidan o‘ylangan modal so‘zlar va yuklamalarni ham kiritadi[4]. Tilning egotsentrik unsurlari deyksis subyekti, nutq subyekti, ong subyekti, idrok subyekti bo‘lgan so‘zlovchi roli bilan chambarchas bog‘liq. Bu unsurlarni ko‘rib o‘tamiz.

Yozuvchining badiiy matnda o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar zimmasiga uslubiy vazifalar yuklashi ularning o‘quvchi shaxsi tomonidan tez va to‘g‘ri tushunilishini ta’minlashidan tashqari obrazlilikni ham vujudga keltiradi. Badiiy asarlarda qo‘llanilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarni qo‘llashda shu gaplar tarkibida ishtirok etayotgan va personaj ruhiyatini, uning ichki kechinmalari tasviriga asoslangan leksik-frazeologik vositalarning tadqiq etilayotgan matnning lingvostilistik va badiiy-estetik qimmatini belgilashda, lisoniy shaxsga xos belgilarni aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishiga alohida e’tibor qaratiladi. Ular badiiy asar tilining o‘ziga xosligini ta’minlashdan tashqari personaj nutqini tavsiflashda ham asosiy omillardan biri hisoblanadi. Badiiy matnda asar mazmunini ochishga, personajlar xarakter-xususiyatlarini aniqlashda muhim ahamiyat kasb etishiga alohida e’tibor qaratiladi[5].

Xususan, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar tarkibida so‘z turkumlarining qo‘llanish darajasi bir xil emas. Bu ham lisoniy birliklarning kommunikatsiya jarayonidagi pragmatik tabiati bilan bog‘lanadi. Nutq ifodalashda ma’lum bir voqea-hodisa yoki narsa-predmetni alohida ajratib ko‘rsatish, ta’kidlashi so‘zlovchidan olmoshlarni, ruhiy holat ifodalashda fe’llarni, subyektiv munosabat bildirish zarurati esa modal ma’noli so‘zlarni qo‘llashni taqozo qiladi. Shuning uchun o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda bu so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari boshqa so‘zlarga nisbatan bo‘rtib turadi. Yuqorida ta’kidlaganimizdek, kommunikatsiya jarayoni o‘ta murakkab bo‘lib, uning qanday amalga oshishi muloqotchilar tomonidan til birliklarining to‘g‘ri tanlanishiga bog‘liq.

Shunday ekan, muloqot jarayonida ishtirok etuvchi har bir til birligi, u fonetik, leksik, frazeologik yoki grammatik birlik bo‘ladimi, bundan qat’iy nazar, muayyan uslubiy vazifani bajaradi. Til birliklarining nutqiy vaziyatga mos kelishi hamda so‘zlovchi ko‘zlagan maqsadiga erishishida ishtiroki nutqning emotsional-ekspressivligini ta’minlaydi. Til birliklarining, shu jumladan, munosabat ifodalashda faol qo‘llaniluvchi olmoshlarning muomalaga kiritilishi aholining milliy-tarixiy turmush va tafakkur tarzidan, xalq an’analari va urf-odatlari bilan chambarchas bog‘liq. Erkaklar nutqiga xos bo‘lgan qat’iylik, ma’lum darajada o‘ziga xos dag‘allik, cho‘rtkesarlik, xotin-qizlar nutqiga xos bo‘lgan soddalik, shirinso‘zlik, xushmuomalalik, ta’sirchanlik kabi xususiyatlar kishilar o‘rtasidagi munosabatlarning me’yori va mezonlaridan hisoblanadi.

Og‘zaki yoki yozma nutq jarayonida so‘zlovchi yoki yozuvchi ma’lum bir mavzu haqida fikr yuritganda o‘zi tasvirlamoqchi bo‘lgan biror shaxs, predmet, belgi, miqdor haqida yozar yoki gapirar ekan, shu predmet, hodisa, miqdor yoki belgining nomini bildiruvchi so‘zni takrorlay berishdan qochadi. Ana shu takrorlashdan qochish zarurati ularni ma’nodosh boshqa so‘zlar bilan almashtirishga imkon yaratadi. Shunday hollarda ko‘pincha ot, sifat, sonlarning ekvivalenti sifatida olmoshlar qo‘llaniladi va ular so‘zlovchi yoki yozuvchining fikr ifodalashida qulaylik tug‘diradi. “Ergash gapli qo‘shma gaplarda ergash gapning biror bo‘lagi bildirgan narsaning bosh gapning biror bo‘lagi orqali ifodalangan narsa bilan aynan bir xil ekanligini (boshqacha emasligini) ta’kidlashda bosh gap tarkibida hamma vaqt shu olmoshi ishlatiladi va bu normal holat hisoblanadi. Bunday paytda bu olmoshi qo‘llanilmaydi. O‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda personaj ichki kechinmalari tasvirini berishda kishilik va ko‘rsatish olmoshlarining faol qo‘llanishi kuzatiladi. Tabiiyki, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gapda so‘z harakatlanuvchi shaxsga berilmaydi – bu mazkur nutq turining o‘ziga xos xususiyati hisoblanadi. Unda muallif tili muallif hikoyachiligining morfologik belgilarini saqlagan holda personaj nutqi va fikrlashini qamrab oladi.

Quyidagi matnda muallif asar qahramoni Ali Qushchi xarakter-xususiyatlarini yoritishda muallif hikoyachilik yo‘lini tanlamaydi. U fikr ifodalashning ichki nutq usulini qo‘llab, qahramonning o‘zini gapirtiradi, uni o‘ylashga, o‘z xatti-harakatlarini tahlil etishga, jamiyat faoliyatiga baho berishga yo‘naltiradi. Bunda muallif kishilik va ko‘rsatish olmoshlaridan mohirona foydalanganligi seziladi:

Bu ko‘rkam, muazzam saroyni sohibqiron atalmish Amir Temur Kuragoniy barpo qildirganini, devorlariga tilladan jilo berilgay bu shinam xonalarda olamni titratgan fotihi muzaffar istiqomat qilganini, shu yerda o‘tirib, butkul ro‘yi zaminni fath etmoq to‘grisida pinhoniy rejalar tuzganini o‘ylaganda vujudini allaqanday muqaddas bir titroq; qamrab olgan edi. Hayhot!.. Mana hozir yana o‘sha qasri oliyda, ulug‘ jahongirning dorulmulkida o‘tiribdi, lekin qalbida na bir qo‘rquv bor, na bir hayajon! Faqat suyukli ustodiga kuyunganidan, uning aziz boshini qora bulutlar o‘rab olganiga achinganidan, xolos! Nechun, nechun shunday bo‘ldi? Nechun falakiyot ilmini idrok eta olgan, o‘tkir tafakkuri bilan koinot sirlarini ochib, yangi yulduzlar kashf etgan allomalar sarboni taxt va saltanatning bevafoligini idrok etolmadi? Nechun hamma shoh va fotihlarning tarixini besh qo‘liday biladigan bu zukko donishmand toj va hokimiyat hech bir kimsaga vafo qilmaganini tushunmadi yoxud tushunsa-da, uni tark etishga irodasi yetmadi? (O.Y. Ulug‘bek xazinasi)

Yuqoridagi fikrlardan ma’lum bo‘ladiki, olmoshlarning pragmatik imkoniyatlari, uslubiy vosita sifatida qo‘llanilishidagi o‘ziga xosliklar ularning badiiy asar tilida qanday maqsadda ishlatilishiga bog‘liq bo‘ladi. Yozuvchi olmoshlarni badiiy asar tilida muomalaga kiritar ekan, ularga ma’lum bir uslubiy vazifa yuklaydi, ularni o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda badiiy-estetik ta’sirchanlikni ta’minlovchi vositaga aylantiradi. Badiiy matnda o‘rinli qo‘llanilgan o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar ta’sirchanlik, jozibadorlik, ohangdorlik kabi xususiyatlarga ko‘ra, insonni turli ruhiy holatlarga soladi, xayolot olamiga olib kiradi, mushohadalarni aql ko‘zgusidan o‘tkazib, uning estetik tafakkurini yanada kengaytiradi. O‘quvchi yoki tinglovchi ular vositasida ta’sirlanadi hamda badiiy matnning quvvatini his etgan holda voqelik faktlariga obrazlilik nuqtayi nazaridan munosabatda bo‘ladi va baho beradi.

Umuman olganda, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplar tarkibida so‘z turkumlarining qo‘llanish darajasi bir xil emas. Bu ham lisoniy birliklarning kommunikatsiya jarayonidagi pragmatik tabiati bilan bog‘lanadi. Nutq ifodalashda ma’lum bir voqea-hodisa yoki narsa-predmetni alohida ajratib ko‘rsatish, ta’kidlashi so‘zlovchidan olmoshlarni, ruhiy holat ifodalashda fe’llarni, subyektiv munosabat bildirish zarurati esa modal ma’noli so‘zlarni qo‘llashni taqozo qiladi. Shuning uchun o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gaplarda bu so‘zlarning o‘ziga xos xususiyatlari boshqa so‘zlarga nisbatan aniq namoyon bo‘ladi. Ammo shunday bo‘lsa-da, ko‘plab nazariy masalalar, xususan, o‘ziniki bo‘lmagan ko‘chirma gap tushunchasi, uning tipologiyasi, uning nimaga taalluqli ekanligi – uning sinaktik qurilma yoki stilistik usul ekanligini aniqlash, shu bilan birga morfologik tasnifi haligacha o‘z yechimini topgan emas.

*4 Падучева Е.В. Семантические исследования (Семантика времени и вида в русском языке; Семантика нарратива). - М.: Школа “Языки русской культуры”, 1996. С.258.*

*5 Сиддиқова Ш.И. Бадиий матнни шакллантирувчи синтактик воситалар. “Бошланғич таълимнинг долзарб масалалари: муаммо ва ечимлар” (Республика илмий-амалий конференция материаллари). Жиззах- 2020. Б. 275*





# QANOTLI IBORALARDA KONTAMINATSIYA USULINING VOQELANISHI

*Go‘zalxon Ne’matovna Isakova - f.f.n., dotsent, O‘zbekiston davlat san’at va madaniyat instituti*

***Annotatsiya:*** *Stilistikada birliklarni kontaminatsiya usuli muhim o‘rin tutadi. Ushbu usul ikki turg‘un birlikni yoki ularning qismlarini birlashtirgan holda, bir kontekst doirasida qo‘llanilishi bilan xarakterlanadi. Quyida kontaminatsiya usulining qay darajada voqelanishini fransuz tilidagi qanotli iboralar misolida ko‘rib chiqiladi hamda tahlil qilinadi.*

***Аннотация:*** *Важную роль в стилистике играет метод контаминации фразеологизмов. Для этого метода характерно его применение в рамках одного контекста, объединяющее две устойчивые единицы или их части. Степень применения метода контаминации обсуждается и анализируется ниже на примере крылатых выражений на французском языке.*

***Abstract:*** *The method of contamination of phraseological units plays an important role in stylistics. This method is characterized by its application within a single context that combines two stable units or their parts. The degree of usage of the contamination method is discussed and analyzed below with the examples of winged expressions in French.*

***Kalit so‘zlar:*** *stilistik transformatsiya, kontaminatsiya, qanotli ibora, ma’no, semantik o‘zgarish, struktur o‘zgarish, tahlil.*

***Ключевые слова:*** *стилистическая трансформация, контаминация, крылатое выражение, значение, смысловое изменение, структурное изменение, анализ.*

***Keywords:*** *stylistic transformation, contamination, winged expression, meaning, semantic change, structural change, analysis.*

Kontaminatsiya hodisasi turg‘un birliklarning o‘zgarishida va shu asosda

yangi birliklarning shakllanishida muhim vositalardan biri hisoblanadi. Lingvistik terminlarning izohli lug‘atida kontaminatsiya (lot. contaminatio - tutashtirish, aralashtirish) terminiga biror munosabat, tasavvurga ko‘ra o‘zaro bog‘liq bo‘lgan ikki so‘z yoki iborani birlashtirish yo‘li bilan yangi so‘z yoki iboraning hosil bo‘lishidir, deb ta’rif berilgan[1].

Kontaminatsiya usuliga ko‘ra mualliflar ikki frazeologik birlikni yoki ularning qismlarini birlashtirgan holda, bir kontekst doirasida qo‘llaydilar. Bunda ikki ibora yoki uning qismlarini birlashtirilib ishlatilishi asosida transformatsiyaga uchragan iboralar butunlay yangi alohida ma’no kasb etmaydi, balki iboraning ma’nosi kuchayadi, emotsional ekspressivligi oshadi, ularning stilistik imkoniyatlari yanada yuqori bo‘ladi.

Tilshunos olim B.Yo‘ldoshev kontaminatsiya hodisasini individual-muallifga xos usullarga kiritishni lozim topmaydi va kontaminatsiya muallifning til ustida, frazeologik birliklar ustida rejali xatti-harakati tufayli kamdan-kam hollarda yuzaga keladi, degan fikrni bildiradi[2]. Ammo ko‘pchilik tilshunoslar frazeologik birliklar kontaminatsiyasi okkazional iboralar hosil bo‘lishining bir usuli, degan fikrni ilgari suradilar[3].

Tilshunosi Y.A.Kolobovaning fikriga ko‘ra, kontaminatsiya jarayoni natijasida okkazional birliklar frazeologik kontaminantlar, ya’ni yangi fikr ifodalovchi, yangi obrazli frazemalar yuzaga keladi[4].

Shuningdek, G.A.Selivanov “Frazeologik kontaminatsiya sekin shakllanadigan jarayon bo‘lishiga qaramay, tilning frazeologik tarkibi boyishida mahsuldor usullardan biridir”, deb ta’kidlaydi[5].

Tilshunos olim A.E.Mamatov frazeologik iboralarning kontaminatsiyasi bo‘yicha: “Frazeologik iboralarga ishlov berishning original stilistik usuli kontaminatsiyadir, ya’ni ikkita frazeologik birlik qismlari yoki bitta frazeologik birlikning bir qismi va butun frazeologik birlikning bir kontekstda birikishi hisoblanadi”, deb fikr bildiradi. Muallif ushbu hodisaning iboralarni yangilash va transformatsiyalash bo‘yicha eng keng tarqalgan usullaridan biri sifatida baholaydi hamda frazeologik iboralar kontaminatsiyasining quyidagi: 1) ikki sinonimik frazeologik birliklarning chatishish usuli; 2) semantik jihatdan yaqin, struktur jihatdan ham bir xil bo‘lgan frazeologik birliklarning qo‘shilish usuli; 3) bir frazeologik birlikning boshqa frazeologik birlik ta’sirida kengayishi; 4) umumiy komponentlarga ega bo‘lgan frazeologik birliklarning qo‘shilish usuli; 5) frazeologik birlik va qo‘shma so‘zlarning kontaminatsiya usuli kabi shakllarini keltiradi[6].

Quyida biz kontaminatsiya hodisasini qanotli iboralar doirasida tahlil qilishga harakat qilamiz. Ko‘p hollarda kontaminatsiya hodisasini ikki sinonimik qanotli so‘zlarning bir kontekstda birlashuvi orqali ko‘rish mumkin.

Masalan: Quant à la corne d'abondance d'Amalthée, […] nous tenons pour sûr qu'elle se comprend comme la médecine philosophique d'or, remplie de tout genre de productions, et qu'elle n'est rien dans le monde en dehors de cela, si ce n'est très improprement. (M.Maier)

Ushbu o‘rinda yunon afsonasidan kelib chiqqan Corne d’Amalthée va uning sinonimi, kelib chiqishi qadimgi rim afsonasiga mansub bo‘lgan Corne d'abondance qanotli iboralari qo‘llangan. Corne d'abondance va Corne d’Amalthée qanotli iboralari ham tuzilishi jihatidan ot+ot qolipidagi iboralar bo‘lib, ularning har ikkisi ham “mo‘l-ko‘lchilik, seroblik” ma’nolarini anglatadi. Bu kabi sinonimik qatorni tashkil etuvchi qanotli so‘zlarning bir kontekstda qo‘llanilishi natijasida ma’noning kuchayishi, ta’sirchanlikning oshishi kuzatilmoqda. Kontekstdagi Mo‘l-ko‘lchilik shoxi va Amalfeya shoxi qanotli so‘zlarining kontaminatsiyasi natijasida La corne d'abondance d'Amalthée (Amalfeyaning mo‘l-ko‘lchilik shoxi) qanotli iborasi vujudga kelganligini ko‘rish mumkin. Ushbu o‘rinda Amalfeya shoxi iborasining allyuziya hodisasiga yuz tutganligini ham aytib o‘tish lozim va shu tufayli ikki uslubning birga qo‘llanilishi, ya’ni konvergensiya hodisasi ham yuz bermoqda.

Ushbu turkumga quyidagi misolni ham keltirish mumkin: Mon cher, dit-il, je suis ravi de vous voir. Je suis aux anges de vous avoir retourné. Je suis au septième ciel que nous soyons réunis. (Blot)

Ushbu misolda qadimgi yunon faylasufi Aristotelning osmon haqidagi (lot. De Caelo) asaridan kelib chiqqan Être au septième ciel qanotli iborasi hamda uning sinonim varianti Être aux anges iborasi qo‘llangan. Har ikki ibora ham “juda xursand bo‘lmoq” ma’nosini anglatadi. Ushbu iboralar struktur jihatdan ham bir xil, ya’ni fe’l+ot qolipida yasalgan iboralar sanaladi. Har ikki iboraning bir kontekstda qo‘llanilishi kontaminatsiya hodisasini yuzaga keltirgan va natijada stilistik

*1 Ҳожиев А. Лингвистик терминларнинг изоҳли луғати. – Тошкент: “Ўзбекистон миллий энциклопедияси” Давлат илмий нашриёти. –Б. 52. www.ziyouz.com kutubxonasi.*

*2 Йўлдошев Б. Ўзбек тилида фразеологизмларнинг услубий ва прагматик имкониятлари. – Самарқанд: СамДУ, 2002. – Б. 28.*

*3 Молотков А.И. Некоторые особенности употребления фразеологизмов в современном русском языке// Нормы современного русского литературного слово употребления. – Москва-Ленинград, 1966. –Стр. 105-110; Умаров Э.А. Фразеологическая контаминация в языка Алишера Навои // Сов.тюркология, 1974. №5. – Стр. 23-27; Маматов А.Э. Фразеологик стилистика масалалари. – Тошкент, 1991. –Б. 87-90; 105-108.*

*4 Колобова Е.А. Контаминация ФЕ с общим именным компонентом// Вестник КГУ, №4. 2007. – Стр. 111-112.*

*5 Селиванов Г.А. Фразеологическая контаминация как один из показателей структурного развития русского языка // Вопросы семантики фразеологических единиц. Часть 1. – Новгород: 1971. – Стр. 233-234.*

*6 Маматов А.Э. Очерки по французской фразеологической стилистике. –Ташкент: Укитувчи, 1989. –Б. 82-88.*





jihatdan ta’sirchanlikni, obrazlilikni oshirishga erishilgan.

Ko‘rinadiki, yuqoridagi kontekstlarda qo‘llangan kontaminatsiyaga yuz tutgan qanotli iboralar sinonim bo‘lishlari bilan birga struktur jihatdan ham bir turkumni tashkil etishi bilan xarakterlanadi.

Ma’nodosh bo‘lmagan qanotli iboralarning birlashuvi ham keng qo‘llanuvchan hisoblanadi. Masalan, Liberté, égalité, fraternité! Paroles vaines, funestes même, depuis qu'elles sont devenues politiques; car la politique en a fait trois mensonges. (L.Veuillot)

Bilamizki, Liberté, égalité, fraternité! (Ozodlik, Tenglik, Birodarlik) Fransiya respublikasining shiori hisoblanadi. Uning kelib chiqishi buyuk fransuz inqilobi bilan bog‘liq. Paroles vaines (Quruq gap) qanotli iborasi esa Goratsiyning “Nomalar” asaridan olingan bo‘lib, “ma’nosiz” o‘rnida qo‘llanadi. Struktur jihatdan turlicha bo‘lgan ushbu ikki qanotli so‘zning bir kontekstda kelishi orqali kontaminatsiya hodisasi yuzaga kelgan va natijada Ozodlik, Tenglik, Birodarlik! Quruq gapdir qanotli ibora shakli vujudga kelganligini ko‘rish mumkin.

Qanotli iboralarning kontaminatsiya usulida ma’no jihatdan bir-birini to‘ldirib kelish holatlari ham faol kuzatiladi. Ushbu turkumga quyidagi misolni keltirish mumkin: A quinze lieues autour de mon moulin, quand on parle d’un homme rancunier, vindicatif, on dit: Cet homme-la! Méfiez-vous, il est comme la mule de pape, qui garde sept ans son … coup de pied. (Daudet)

Ushbu o‘rinda A.Dodening “Les lettres de mon mulin” to‘plamidagi “La mule de Pape” ertagidan kelib chiqqan Mule de pape qanotli iborasi va La Fontenning “Le lion devenu vieux” masalidan olingan Coup de pied de l’Ane qanotli iboralari bir kontekstda qo‘llangan. Bilamizki, Mule de pape iborasi “kek saqlaydigan shaxs”ga nisbatan qo‘llanadi, Coup de pied de l’Ane iborasi esa “tuban qasos” ma’nosini bildiradi. Anglanadiki, qasos olish kekchi shaxsga xos xususiyatdir yoki kekchi shaxs doimo qasos olish payida bo‘ladi va shuning bilan har ikki qanotli ibora bir-birini ma’no jihatdan to‘ldirib kela oladi.

Shu kabi ma’no jihatdan bir-birini to‘ldirib kelish holatini quyidagi misolda ham ko‘rish mumkin: Voici que s'ouvre la période orageuse des jacqueries, des pragueries et des ligues. L'autorité s'ébranle, l'unité se bifurque; la féodalité demande à partager avec la théocratie, en attendant le peuple, qui surviendra inévitablement, et qui se fera, comme toujours, la part du lion, quia nominor leo. (V.Hugo)

Bu o‘rinda qadimgi rim masalchisi Fedrga mansub Quia nominor leo (Chunki men sherman) va yunon masalchisi Ezopning masalidan olingan La part du lion (Sherning ulushi) qanotli iboralari qo‘llangan. Struktur jihatdan turlicha bo‘lgan ushbu qanotli iboralar ma’no jihatdan bir-birini to‘ldirib kelmoqda. Ushbu kontekstda kontaminatsiya usuli bilan bir qatorda ellipsis hodisasi ham kuzatilmoqda. Chunki Quia nominor leo qanotli iborasining to‘liq shakli: Ego primam tollo, nominor quoniam leo, ya’ni Birinchi qismni men olaman, chunki men sherman tarzida berilgan. Shunga ko‘ra ushbu o‘rinda ikki usul qo‘llanib konvergensiya hodisasi ham yuz bermoqda.

Yana bir misolga yuzlanamiz: La jeune et la vieille garde arrivèrent; elles entrèrent dans la place incendiée à notre premier passage. (Chateaubriand, Mémoires d’outre-tombe)

Keltirilgan misolda La jeune garde (Yosh gvardiya) va La vieille garde (Eski gvardiya) qanotli iboralari qo‘llangan. Ushbu ikki iboralarning kelib chiqishi Napoleon Bonapart qo‘shinlarining ikkiga, ya’ni yangi va eski gvardiyaga ajralishi bilan bog‘liq. Kontekstda yosh gvardiya bilan sara, tajribali gvardiyaning birgalikda qo‘llanilishi bir-birini to‘ldirib kelmoqda va ma’noning kuchayishiga, ta’sirchanlikni ortishiga ta’sir ko‘rsatmoqda.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, qanotli iboralar kontaminatsiyasida: 1) sinonimik, struktur jihatdan bir xil bo‘lgan ikki qanotli so‘zning birlashuvi; 2) ma’no jihatdan yaqin bo‘lmagan va struktur jihatdan turlicha bo‘lgan qanotli so‘zlarning birlashuvi; 3) ma’no jihatdan bir-birini to‘ldirib keladigan qanotli so‘zlarning birlashuvi kabi shakllar faol kuzatilmoqda.

Qanotli iboralarning kontaminatsiyasi natijasida kontekst ma’nosining kuchayishi, tasviriylikning oshishi va stilistik planda emotsional ekspressivlikning kuchayishi hamda uslubiy natijaning boyiganligini ko‘rish mumkin. Shuningdek, qanotli iboralarning kontaminatsiyasi jarayonida boshqa xil uslublarning qo‘llanilishi ham kuzatilmoqda va bu orqali kontekst ta’sirchanligini yanada oshirishga erishilmoqda.

Tahlillar asosida aytish mumkinki, qanotli iboralar kontaminatsiyaida asosan, sinonimik, struktur jihatdan bir xil bo‘lgan ikki qanotli so‘zning birlashuvi; ma’no jihatdan yaqin bo‘lmagan va struktur jihatdan turlicha bo‘lgan qanotli so‘zlarning birlashuvi; ma’no jihatdan bir-birini to‘ldirib keladigan qanotli so‘zlarning birlashuvi kabi shakllar faol ekanligi ko‘rinadi. Qanotli iboralarning kontaminatsiyaga uchrashi natijasida kontekst ma’nosining kuchayishiga, tasviriylikning oshishiga va emotsional ekspressivlikning kuchayishiga hamda uslubiy mahsuldorlikning boyishiga erishish aniqlandi.

# ALISHER NAVOIY SHE'RIYATIDA OBRAZLAR OLAMI VA BADIIYAT MASALASI

**Usmon Qobilov** - f.f.d., (DSc), Samarqand davlat universiteti
**Xolyigit Xolmurodov** - f.f.d., (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Alisher Navoiy she'riyatining badiiy obrazlar olami bilan bog'liq masalalar yoritib berilgan. Unda shoir she'riyatida tasvir etilgan "shaxs-siymo" badiiy obrazlarining muvoziy talqin etilishi muammosiga e'tibor qaratilgan. Bunday timsol-obrazlarning muvoziy qo'llanishidagi adabiy qonuniyatlar va badiiy-estetik o'ziga xosliklar atroflicha tadqiq etilgan. Shuningdek, obrazlar muvoziy tasvirlanishida shoir mahorati va she'r badiiyati masalalari ilmiy tahlil qilingan.*

***Аннотация:*** *В статье освещены проблемы мира поэтических образов поэзии Алишера Навои. В ней обращено внимание проблеме интерпретации параллельных художественных образов «личности» в лирике поэта. Исследованы литературные закономерности и художественно-эстетические специфики этих параллельных образов. В том числе, анализированы с научной точки зрения проблемы художественности стиха и мастерство поэта в изображении параллельных образов.*

***Abstract:*** *In article problems of the world of poetic images of poetry of Alisher Navoi are covered. In it the attention to a problem of interpretation of parallel artistic images of "person" in the lyric poet of the poet is paid. Literary laws and is art-aesthetic specificity of these parallel images are investigated. Including, analysisted from the scientific point of view of a problem of artistry of a verse and skill of the poet in the image of parallel images.*

***Kalit so'zlar:*** *mumtoz she'riyat, Alisher Navoiy lirikasi, lirik janrlar, badiiy obraz, ramziy timsol, siymo obrazlari, muvoziy tasvir, badiiyat, badiiy talqin.*

***Ключевые слова:*** *классическая поэзия, лирика Алишера Навои, лирические жанры, художественный образ, символический знак, образы личности, параллельные изображения, художественность, художественная интерпретация.*

***Keywords:*** *classical poetry, lyric poet Alisher Navoi, lyric genres, an artistic image, a symbolical sign, images of the person, parallel images, artistry, skill, art interpretation.*

Alisher Navoiy she'riyati nafaqat milliy, balki umumshe'riyat fenomeni darajalari va badiiy-estetik o'lchamlari bilan baholanganda ham eng yuksak pag'onalarni band etadi. Bunday tajriba buyuk shaxsiyat va tafakkur, pokiza dil va bedor ruh, ma'naviy quvvat va ilohiy idrok sohiblari uchungina xosdir. Bu sohir she'riyatni anglash va anglatish, qaytadan o'zi mansub xalqning ma'naviy mulkiga aylantirish ham adabiyotshunoslikda muammo bo'lib kelayotganligi bugungi kunda hech kimga sir emas. Shoir she'riyati badiiy ko'lam, estetik joziba va falsafiy mazmun borasida ham aqllarni hayratga soluvchi hodisadir. Bu tajribadan kelib chiqib aytish mumkinki, she'riyat mazmun ifodalovchiligi bilan birgao'ziga xos san'atligi bilan ham boshqa tur asarlardan ajralib turadi. She'riyatda shoir shaxs sifatida she'rning o'ziga aylanishi, so'zlar timsolida haqiqat va ezgulik lahzalaridan aks sado bera bilishi lozim. She'riyat tabiat, jamiyat va ilohiyot olamidan "rang olishi" mumkinu, biroq uning o'zi ham hech bir olamga o'xshamas olamdir. Borliqdagi narsa va hodisalar, ashyo va predmetlar, ismlar she'rda o'zga ohang taratishi, ma'ni ifodalashi tabiiydir. Biroq she'r lug'at qatlami qancha bo'lsa, obrazli ifodasi ham shunga mosva hatto undan-da ziyoda darajalarga egalik qiladi. Bir lirik janrning o'zida poetik o'lchamlarning barchasiga muvofiq keladigan, o'zigacha ham, o'zidan keyin ham, butun bir she'riyat bisotiga teng namuna yarata olgan hazrat Alisher Navoiy she'riyat maktabida esa bunday salmoq yanada ortib boraveradi. Agar Alisher Navoiy she'riy ijod jarayoniga nazar tashlasak, deyarli umrining har yilida g'azal janrining oltmishdan ortiq shoh namunasini yaratganligini taxmin etishimiz mumkin. Lirikaning barcha janrlari nuqtayi nazaridan qaralganda esa bu miqdor yuzdan oshadi. Bu boshqa ijod fasllari bilan taqqoslanganda bir qator ijodiy faoliyatdan ham miqdor, ham badiiyat masalalarida yuksak ekanligini ko'rsatadi. Navoiy she'riyatida har bir timsol va badiiy ifoda o'zi alohida ma'ni makonlariga egadir. Shular orasida jonli tarix guvohlari bo'lgan shaxslar, xalqlar afsonaviy-romantik taxayyuli mahsuli bo'lgan qahramonlar, adabiy va abadiy ishq timsollari, ilohiy maqom sohiblari va boshqa tipli obraz-timsollar tasviri ifodalagan poetik manzaralar bu masrur she'riyatning behad darajada yorqin mazmunidannishonadir.She'rdagiharbirtimsol o'z tarixi, paydo bo'lish asoslari, va ayniqsa, poetik fikrni o'ziga jalb etish xususiyatlariga ega bo'ladi. Boshqacha qilib aytilganda, puxta badiiy zamin, mantiq va tabiiylik, joziba va nafosatga yo'g'rilgan bo'lmog'i hamda ko'p va teran ma'nolar ifodalamog'i, ramz va majoz qoidalarini aks ettirishga chog'li poetik mohiyat kasb etishi darkor. Bundan tashqari obrazda ming bir ta'rif-tavsif va nuqtai nazarlar bilan ham ifodalab bo'linmaydigan, shoirning o'zi ham izohlay olmaydigan vahbiy ma'nolar jamg'armasi ham bo'ladi. Bularning bari obraz badiiyati masalalariga o'tkir nigoh, sergak fikr, tiyrang nazar bilan yondashishni taqozo etadi. Alisher Navoiy she'riyati badiiy obrazlarining bir turi "shaxs-siymo" bildiruvchi timsollardan iboratdir.Bu tip obrazlar silsilasi, odatda, badiiy tafakkurni olam va odam dunyosining unutilmas lahzalari bilan tutashtiradi. Bunda ikki hodisani oldindan e'tirof etib o'tish kerak bo'ladi. Birinchisi, shaxs-siymo obrazi talqini masalasidashoir she'riyati qadar salmoq va mahsuldorlikka ega boshqa biror tajribani qayd etish mushkul. Ikkinchisi, shoir she'riyatida bunday obrazlar talqini qancha miqdor va sanoqni tashkil etishiga qaramasdanhar bir o'rinda o'zgacha ruh, betakror joziba kasb etadi. Bu holat mumtoz she'riyatning o'lmas va abadiy qonuniyati hamdir. Alisher Navoiy "Yusuf va Zulayho", "Vomiq va Uzro" haqida maxsus dostonlar bitmagan bo'lsa-da, "Farhod va Shirin", "Layli va Majnun" sarguzashtlarini alohida asarlarda talqin etib berganligi ma'lum. Shunga qaramasdan Farhod, Majnun, Shirin, Layli timsollari shoir she'riyatida ham eng ko'p tasvir etiladigan obrazlardan hisoblanadi. Bunda epik talqinidan lirik talqini orasida jiddiy farq borligi ham inobatga olinishi darkor. Epik talqinda adabiy qahramonlar alohida xarakter bo'lib namoyon bo'lsa, she'riy talqinda lirik qahramonning ahvol ruhiyasidan kelib chiqib "shaxs" obrazlariga murojaat etiladi. Lirikada boshqa shaxs obraz-timsollari tasvirida lirik qahramon xarakteri birinchi o'rinda bo'ladi va o'zga obrazlar shu qahramon ruhiyatida kechayotgan turli darajadagi holatlarga tamsil-talmeh qilib olinadi. Bunday tamsil-talmehlar esa Alisher Navoiy she'riyatida nihoyatda mo'ldir. Ular qatoriga muqaddas manbalarda keltirilgan payg'ambar siymolar (Odam, Nuh, Ibrohim, Muso, Yusuf, Iso Masih kabilar), Sharq adabiyotida an'anaviy tasvirlarga aylangan adabiy qahramonlar (Farhod, Majnun, Vomiq, Layli, Shirin, Uzro singarilar), badiiy siymo tusini olgan tarixiy shaxslar (Bahrom, Iskandar, Jamshid va boshqalar), og'zaki adabiyotdan yozma badiiy talqinga ko'chgan mifologik-afsonaviy obrazlar va boshqalarni e'tirof etishimiz mumkin. Ular she'riyatda lirik qahramon tabiati bilan uyg'un ravishda talqin etiladi. Bu obraz-timsollar badiiy va tarixiy-hayotiy haqiqat masalalarida qanday daraja kasb etishiga qarab, lirik qahramon ruhiyati va kayfiyatiga moslashtiriladi. Masalan, she'rda oshiq holatlari tasvirida Majnun, Vomiq, Farhod, Shayx San'on, Zulayho obrazlari talqinga tamsil bo'lib keladi, hijron tasvirida Ya'qub va Yusuf, Vomiq va Uzro obrazlari talqiniga ehtiyoj paydo bo'ladi,"ko'z"ning joduligi haqida gap borganda Muso va Somiriy sehri, "lab" jonbaxshligiga Masih anfosi, "xat" jozibadorligi uchun Xizr, "ishq" uchun tiriklik chashmasi, "husn" tavsifiga Yusuf chehrasi, "husn mulki" Sulaymon davlatiga, "ishq nag'masi" Dovud ovoziga va boshqalar poetik qiyoslar tasviriga xizmat etadi. Shoir she'riyatida "shaxs-siymo" badiiy obraz-timsollarning muvoziy qo'llanishi masalasida ham aytilganlar amaliga rioya etilsa-da, o'ziga xos alohida badiiy-estetik manzaralar yuzaga chiqadi. Alisher Navoiy lirikasida shaxsni anglatuvchi obrazlar tipologik jihatlardan ko'p o'rinlarda o'zaro parallel talqin etiladi. Ana shunday tasvirlarda nazarda tutiladigan adabiy qonuniyatlar va badiiyat masalalari xususida tadqiqotlarda muayyan ilmiy kuzatishlar bayon etilgan. Bunda birinchi galda Navoiy she'riyatida Odam va Muhammad Mustafo timsollarining birgalikda tasvirlanishi masalasiga e'tibor qaratish kerak. Masalan, shoir "Hayrat ul-abror" dostonida quyidagi misralarni bitadi:

*O'zga dalil istasa tab'i saqim,*
*Basdurur Odamda "alif", "dol"u "mim".*
*Borchasi Ahmadda topib izzi shon,*
*O'g'lig'a uch harf atodin nishon.*
*"Ho"i muhabbat anga-o'qdur nasib,*
*Kim seni haq dedi o'ziga habib.*

Bu o'rinda, albatta, "nuri muxammadiya"ning birinchi borliq ekanligi, borliq Yaratuvchining shu nurga bo'lgan muhabbati tufayli paydo bo'lganligi haqidagi qarashlardan kelib chiqib Odam Ato Muhammadga ham o'g'il, ham otaligi

darj etiladi. Lekin masalaning ikkinchi bir muhim tomoni ham borki, uni e'tibordan chetda qoldirmaslik kerak. Badiiy talqinlarda Odam va Muhammad (s.a.v) birgalikda tasvirlanishida o'ziga xos mantiq ham bor. Ma'lumki, nubuvvat tarixida payg'ambarlardan ikkitasi, ya'ni Odam va Muhammad butun bashariyat uchun tanlanganligi zikr etiladi. Alisher Navoiy talqinicha, Odam – Bulbashar (bashariyat otasi), Muhammad Mustafo ham barcha insoniyat uchun yuborilgan. Hazrat Rasululloh hadislaridan birida: "o'zga payg'ambarlar bir qavm yoki millatga yuborilgan bo'lsalar, men barchaga umumiy payg'ambar etib yuborilganman",- deyilgan. Shu bois ikki payg'ambar lirikada muvoziy tasvir etilganda "bashariyat otasi", "olam va odam mohiyati" sifatida yaqinlik kasb etadi, she'riy satrlarda lirik qahramon tuyg'ularining umuminsoniyligini ochib beradi. Umuman boshqa shaxs-siymo obrazlarining muvoziy qo'llanishida ham shunga o'xshash qaysidir jihatlardan yaqinlik va bog'liqlik qonuniyatlari kuzatilishi kerak bo'ladi. Shu nuqtai nazarlardan Alisher Navoiy she'riyatida bunday timsollar u yoki bu jihatlardan mushtarak nuqtalarga ega bo'ladi. Masalan, mazkur baytda "Nuh umri" va "Sulaymon mulki" tasvirlangan.

*Nuh umriyu Sulaymon mulkiga yo'qtur baqo,*
*Ich, Navoiy, bodakim, olam g'ami behudadur*[1].

Bunda lirik qahramon uchun boshqa barcha masalalar, hatto eng uzoq umr hisoblangan Nuh umri ham, eng katta boylik bo'lgan Sulaymon mulki ham, eng og'ir dard bo'lgan olam g'ami ham ilohiy ishq huzurida o'tkinchi ekanligi darj etiladi. Ya'ni, umr qancha davomli, molu davlat qancha behisob va dunyo g'ami qancha fuzun bo'lsa-da, baribir boqiy emas, ularning barchasidan ishq sharobi afzaldir. Bu o'rinda umr, mulk, g'am, boda tushunchalari badiiy ramz va obraz ifodalariga aylantirilgan bo'lib, faqat "boda" lirik qahramon, ya'ni oshiq dardiga malham ekanligi, umr, mulk va g'am qanchalik darajada ortiq bo'lsa-da, muvaqqatligi aytiladi. Demak, muvoziy tasvirda ham oshiq holati birinchi planga chiqadi. Navoiy she'riyati va umuman lirik talqinlarda Xizr va Masih timsollaridek sermahsul muvoziy tasvirlarni uchratish qiyindir. Alisher Navoiy she'riyatida "Xizru Masih" radifli ikkita alohida g'azal ham mavjud. Umuman nabiylardan Masih, valiylardan Xizr, adabiylardan Farhod, Majnun timsollari mumtoz she'riyatda eng mahsuldor obrazlardan hisoblanadi. gap shundaki, nubuvvat ma'rifati yoki adabiy tafakkurda bu siymolar, ya'ni Xizr va Masih orasida bog'liqliklar ko'rinmaydi. Ular faqat badiiyatdagina muvoziy qo'llanadi. Bundagi badiiy mantiq "tiriklik va tiriltirish", ya'ni xizrpaylik va masihnafaslikdir.

*La'li bir so'z birla yuz yilliq o'lukni Xizr etar,*
*Go'yiyo Ruhulloh ushbu obi hayvon ichradur*[2].

Bu o'rinda "lab" istioraviy tarzda "la'l" (yoqut rangli tosh) deb yuritilgan. Ya'niki, lab bir so'z bilan yuz yil oldin o'lgan murdaga Xizrdek abadiy umrni baxsh etadi, bu holat go'yo tiriklik suvida Masihi Ruhulloh namoyon bo'lgandek tasavvur uyg'otadi. Obi hayvon - Xizrga in'om etilgan mo'jizaligi ravshan. U vazifa jihatdan, ya'ni tiriltirish borasida Masih nafasiga kichik o'xshashligi bor. Bunday jonbaxshlik manbai "lab". Demak, obrazlar muvoziyligidan ko'zlangan badiiy mantiq jonbaxshlik ma'nosida tutashadi va oshiqning emas, balki ma'shuqaning "la'li labi" mo'jizasiga nisbatan ishlatiladi. Mumtoz she'riyatda shaxs-siymo obrazlari u yoki bu jihatlardan birgalikda tasvir etilganda, goh oshiq va gohida ma'shuqa tiynatlarini ifoda etib keladi. Mazkur satrlarda ham ma'shuqalik siri muvoziy obrazlar tasviri bilan amal qilmoqda. Faqat bunda Masih va Yusuf bir ma'no ifodasiga xizmat etmoqda. Ya'ni, badiiy fikr "olamoro husn" va "jonbaxsh nutq" haqida bormoqda.

*Olamoro husn ila jonbaxsh nutqungmu ekin,*
*Yo Masiho ruhi Yusuf jismida qilmish hulul?*[3].

Ma'shuqa husni olamga oro beruvchi, nutqi jon ato etuvchidir. Bu go'yo Masihoning ruhi Yusuf jismiga kirgandek holni eslatadi. Garchi Masih va Yusuf bir "xayl"dan bo'lsa-da, ular tarixida biror bog'liqlik yo'q. Nubuvvat xalqasida ham ular orasini uzoq vaqt va zamonlar ajratib turadi. Lekin nubuvvat maqomi masalasida bir guruhni tashkil etishi ma'lum. Bu ularning birgalikda talqin etilishiga asos emas. Balki ularni bir o'rinda tasvirlanishiga badiiy talqin, lirik taxayyul va adabiy idrok yo'l ochib bermoqda, xolos. Bunda masala ma'shuqaga qaratilgan bo'lib, Yusuf uning husndagi tengsizligidan nishona, Masih jonbaxsh nutqidan alomatekanligiga urg'u berilmoqda. Chunki husnda ham nutq singari oshiq dillarni tiriltiruvchilik xususiyati bor. Alisher Navoiy she'riyatida ko'p o'rinlarda muvoziy tasvirlarda Masih timsoli keladi. Mazkur satrlarda ham Masih Somiriy obrazi bilan birgalikda tasvir etilgan. Agar Somiriy Muso bilan yonma-yon tasvirlanganda tarixiy

1 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, birinchi tom. Badoyi ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987. – 78 b.
2 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, birinchi tom. Badoyi ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987. – 172 b.
3 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, ikkinchi tom. Navodir un-nihoya. –Toshkent: Fan, 1987.– 92 b.





va badiiy haqiqatlarda uyg'unlikni ko'rishimiz mumkin edi. Chunki bu ikki siymo orasida tarixiy bog'liqlik bor, lekin Masih va Somiriy o'rtasida aloqadorlik yo'q. Bunday holatlarda badiiy-estetik talqin o'z qonuniyatiga binoan ish ko'radi.

*Ko'zni afsunsoz etib jonbaxsh labdin nukta ayt,*
*Somiriy sehrin, Masiho mo''jizin izhor qil*[4].

Badiiy talqinda timsol-obrazlar qo'sha bo'lgandan keyin subyekt ham unga monand tasvirga ega bo'lishi talab etiladi. Bunda "ko'z" sehrlovchilikda Somiriy sehriga, "lab" jonbaxshlikda Masih mo'jizasiga,ya'ni, ma'shuqa ko'zlari bilan sehr ko'rsatib, jonbaxsh labidan dono so'zlar aytganligi hodisasi Somiriy sehri va Masiho mo'jizasini namoyon etganligiga qiyoslanmoqda. Bunda muvoziy talqindagi badiiyat "jon olish va jon berish", ya'ni ko'z sehri va lab mo'jizasida bir mantiq topgan. Alisher Navoiy g'azaliyotida muvoziy tasvirlar turli toifalar obrazlari bilan ham amalga oshirilgan. Sharq she'riyatida badiiy tafakkurni o'ziga jalb etgan adabiy-estetik voqeliklar ko'lami ham keng. Unda tarixiylik ham, afsonaviylik ham, ilohiyot ham o'rin olgan. Navoiyning mashhur "bo'ldim senga" radifli g'azalida Jamshid va Xizr obrazlari lirik qahramon holatini ifoda etib bergan. Bu ikki siymoni esa tarixan bog'laydigan biron bir nuqta mavjud emas. Xizr nabiy bo'lmasa-da, ahli nubuvvat darajasida turadi, Jamshid esa jamiyat hayotida o'z o'rniga ega bo'lgan tarixiy-afsonaviy shaxs. Unga ko'p hodisalar(qurol-aslaha yasash, bino va hammomlar qurish, libos tikish, kemasozlik, tabiblik, gavhar yasash, Navro'z bayrami) nisbat berilsa-da, she'riyatni u yasatgan gavhar "taxt",ixtiro etgan jahonni ko'rsatuvchi "jom" timsollari rom etgan. Shundan "Jomi Jam" tushunchasi lirikada keng tasvir etiladi va alohida zohiriy-botiniy ma'nolarga egadir. Xizr obrazi tasvirida ham shunday holat bor. U haqidagi qissa va rivoyatlar xilma-xil bo'lsa-da, she'riy talqinlarni u qidirib topgan "tiriklik suvi" o'ziga jalb etgan. Shu tufayli lirikada Xizr va Jamshid timsollari tasvirida bo'lmasa-da, afsonaviy "obi hayvon"va "jom"obrazlarining yonma-yon kelishida qaysidir ma'nolarda mutanosib keladi. Jamshidning jomi ichgan bilan ado bo'lmaydigan sharob sifatida talqin etilishi nazarda tutilsa, bu ikki tushuncha-timsol bir biriga yaqin bo'lgan badiiy mantiq kasb etadi. Ya'ni, har ikkala tushuncha ham botiniy ma'noda o'zaro bog'lanib, ishq chashmasi va sharobiga tamsil bo'lib keladi.

*Jomi Jam ichra Xizr suyi nasibimdur mudom,*
*Soqiyo, to tarki joh aylab gado bo'ldum sanga*[5].

She'rda "garchi Jamshid jomi bilan Xizr suvi mening nasibam bo'lsa ham, Ey soqiy, shunday ulug'likni tark etib senga gado bo'ldim", – degan tarzdagi ma'no ifodalangan. Ko'rinadiki, bu o'rinda ma'shuqa emas, balki oshiq dil hayajonlari aks etgan. Navoiy va umuman Sharq she'riyatida shaxs-siymo obrazi tasvir etilganda, ularga tegishli biror bir xususiyat yoki predmed badiiy detal sifatida talqin etilishini ko'rish mumkin. Xuddi shunday holat Kayxusrav va Sulaymon obrazlari birgalikda tasvirlangan ushbu satrlarda ham amal qilingan. Unda Kayxusrav "toji" va Sulaymon "mulki" badiiy fikrni yuzaga chiqargan. Bunda timsollar g'azal maqtasida kelganligi bois lirik qahramon o'rnida Navoiy ishlatilgan. Shuni aytish kerakki, odatda lirik qahramon umumlashma obraz hisoblanadi. U she'r tabiatiga qarab o'ziga xoslik kasb etadi. Ushbu g'azal so'nggida bu obraz konkretlashib taxallus bilan almashsa-da, uning umumlashmalik xarakteri o'z kuchida qoladi. Shundan kelib chiqib baytda "Navoiy olam sultonining bandasidir, u Kayxusrav tojiyu Sulaymon mulkini istamaydi", – tarzidagi fikrni uqib olishimiz mumkin.

*Toji Kayxusrav bila mulki Sulaymon istamas,*
*To Navoiy bo'ldi ul sultoni olam bandasi*[6].

Endi muvoziy talqindagi badiiy mantiq masalasiga kelsak, bunda Kayxusrav va Sulaymon maqom martaba masalalarida tamoman o'zgacha bo'lsa-da, toj va mulk dunyo boyliklari ma'nosida yaqinlik kasb etgan. Har qanday boyligu hashmatdan "olam sultoniga bandalik" afzal ekanligi ta'kidga olingan. Shu tariqa shaxs-siymo timsollaridan ko'ra, ularga nisbatan ta'rif etiladigan va talqinlarda detal sifatida qaraladigan tushunchalar tasviri boshqa satrlarda ham davom ettiriladi. Bunga Iskandar va Xizr obrazlari asosida yuzaga kelgan badiiy manzara ham misol bo'ladi. Endi bu obrazlar muvoziy qo'llanishida tarixiy haqiqat talqinlari bilan badiiy-estetik tasvir uyg'unlashadi. Bu uyg'unlik Iskandar va Xizrning tiriklik chashmasini birgalikda qidirganliklari lavhasi bilan bog'lanadi. Lekin mazkur satrlarda poetik fikrni bu uyg'unlik yuzaga chiqarmagan, balki adabiy-estetik fikr Iskandar "mulki" va Xizr "umri" tushunchalari bilan ro'yobga chiqqan.

Gar Skandar mulki birla Xizr umri bersalar,

4 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, birinchi tom. Badoyi ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987. – 125 b.
5 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, birinchi tom. Badoyi ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987. – 342 b.
6 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, ikkinchi tom. Navodir un-nihoya. –Toshkent: Fan, 1987.– 254 b.

Uyla mulku buyla umri javidondin kechkamen[7].

Lirik qahramonning "Iskandar mulki bilan Xizr umrini in'om etsalar ham bunday behisob mulk va abadiy umrdan voz kechishi"ga sabab ishqi ilohiydir. Bunda obrazlararo mantiq masalasi moddiy "farovonlik" tushunchasida birlashgan va oshiq dil uchun bu ham hech qanday qimmat kasb etmaydi. Albatta, talqinlarda Sulaymon "mulki" bilan Iskandar "mulki" orasida farq bor.Ushbu satrlarda biryo'la Iskandar, Xizr, Sulaymon, Qorun bir poetik tasvirni yuzaga chiqarish uchun xizmat qilgan. Bu tasvirlarda ham shaxs-siymo timsollaridan ko'ra "mulk", "umr", "amr", "martaba", "boylik" singari tushunchalar talqini birinchi planga chiqqan va lirik qahramon kechinma-holatlarini ifodalab bergan. Unda aytilishicha, "Sening martabang taxti Iskandar mulki, mamlakatidek bo'ldi, bu mulkka Xizr umri ham muyassar bo'ldi. Bunday mulk va umrdan so'ng ins va jinlar, yovvoyi hayvonu qushlar Sulaymon amriga bo'ysingandek hukmingga tobe' bo'ldi. Bunday martabalar topganingdan sening quling ham martaba va boylikda Qorunday davlatga ega bo'ldi". Bu o'rinda Alisher Navoiy kinoya orqali san'at yaratganligi ko'rinadi. Ya'ni, sen behad katta molu mulk va uzun umrga ega bo'lgan bo'lsang ham - bularning barchasi Haq huzurida "Qorun davlati"ga o'xshaydi. Ma'lumki, "Qisas ul-anbiyo"larda "Qorun alayhil - la'na qissasi" keltiriladi va u hisobsiz molu mulki bilan er qa'riga cho'kib ketganligi darj etiladi. G'azalda shu tarixga ishora etilib, dunyoning barcha boyliklari "Qorun mulki"ga qiyos etiladi. Demak, bu satrlarda muvoziy qo'llangan obrazlar lirik tasvir ta'sirchanligini oshirib, olam va odam mohiyati haqidagi ibratli masalalarga e'tiborni jalb etgan.

*Taxtu johing kishvari mulki Skandar bo'ldi, tut,*
*Xizr umri ham bu mulk uzra muyassar bo'ldi, tut.*
*Bo'yla mulku umrdin so'ng jinu insu vahsh tayr,*
*Hukmu amringg'a Sulaymondek musaxxar bo'ldi, tut.*
*Muncha hashmat topmog'ingdin so'ngra birovni quling,*
*Joh ila muknatda Qoruncha tavongar bo'ldi, tut*[8].

Shoir she'riyatida Sulaymon va Iskandar "mulk"i singari "umr" tushunchasi talqinida Nuh va Xizr timsollari parallel keladi. Navoiy she'riyatida "umr" tushunchasi Nuh timsolida tasvirlanganda uzoq muddatli bo'lsa-da, ma'lum chegaraga egaligi nazarda tutilsa, Xizr obrazi orqali ifodalanganda boqiyligi hisobga olinadi. Lekin sharqona talqinlarda ikki holatda ham bu tushuncha aniq bir to'xtam bilan izoh etilmaganligini qayd etib o'tish lozim. Manbalarda Nuh, Xizr umri haqida turli qarashlar bayon etiladi. Alisher Navoiyning o'zi ham Nuhni qancha umr kechirganligini aniq raqam etmagan. Lekin Xizr borasida shoir lirik talqinlarida abadiy umr masalasi qo'yiladi. "Tarixi anbiyo va hukamo"da esa Nuh tarixi bitilgan holda Xizrga alohida to'xtalmagan, faqat Muso tarixida uning Xizr bilan uchrashganligi zikr etilgan, xolos. Qiziq tomoni "umr" qanday timsol yoki muddat bilan tasvir etilmasin, ishqi ilohiy mavzulari talqinida ahamiyat kasb etmaydi. Bunda maqsadning muhimligi ishq, oshiq va ma'shuqlikdadir. Shundan Alisher Navoiy ham "molu mulkdan umringga osoyishtalik etmaydi, garchi u Nuh umri va Qorun xazinasiga ega bo'lsa ham", - deydi.

*Moldin umrungg'a osoyish agar etmas, ne sud,*
*Nuh umri hosil etsang, ganji Qorun qozg'onib*[9].

Alisher Navoiy she'riyatida aytib o'tganimizdek Xizr eng sermahsul obrazlardan hisoblanadi. Bu uning boshqa timsollar bilan muvoziy tasvirlanishida ham namoyon bo'ladi. Sharqona talqinlarda al-Xizr barcha ezgu masalalarda yo'ldosh va madadkor ruh sifatida qaraladi. Bu balkim insoniyatning ezgulik va adolatga bo'lgan rag'batu ishonchi tufaylidir, va balkim haqiqatdir. Xizr Alisher Navoiy she'riyatida alohida holda ham, boshqa shaxs-siymolar bilan paralel ravishda ham "ko'p va xub" uchraydi. Bu bir tomondan Alisher Navoiy ijodi barakasini ham bildiradi. Mazkur satrlarda Xizr timsoli Jamshid bilan birgalikda tasvir etilgan. Unda aytilishicha, "Xizr yuz mehr bilan Jamshid jomini uzatgandan ko'ra, do'st yuz qahr bilan may quyqasini uzatgan yaxshiroqdir".

*Xizr yuz mehr ila tutqan jomi Jamdin yaxshiroq,*
*Tutsa may durdini yuz taroju yaxmo birla do'st*[10].

Bunda Xizr va Jamshidni muvoziy qo'llangan deb atash ham noo'rinday ko'rinadi. Chunki birinchi misrada Xizr uzatadigan jom - Jamshid jomi bilan tashbih etilgan, xolos. Lekin shu "jom" ham "jomi Jam" bilan sharaflangan, "jomi Jam", "may durdi", "do'st" timsollari irfoniy ma'nolar ifodalaydi. Masalan,

7 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, birinchi tom. Badoyi ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987. – 138 b.
8 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, ikkinchi tom. Navodir un-nihoya. –Toshkent: Fan, 1987.– 95 b.
9 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, birinchi tom. Badoyi ul-bidoya. – Toshkent: Fan, 1987. – 87 b.
10 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, ikkinchi tom. Navodir un-nihoya. –Toshkent: Fan, 1987.– 48 b.





jom-ma'rifat bodasi bilan to'la orifning dilini anglatadi. Komil orif ilohiy boda jomidan ichadi va tavhiddan sarmast bo'ladi."Jomi Jam" – "jom sharobi", "jomi jahonnamo", "jomi gettinamo" shakllarida ham talqin etiladi. Irfoniy adabiyotlarda "jom sharobi" ilohiy sirlarni oshkor qilishi bilan "jomi jahonnamo"ga qiyoslanadi. Mutasavvuflar g'ayb asroridan voqif qalbni "jomi Jam"ga o'xshatadi. Solik bu "jomi jahonnamo" qalbiga nazar solib, uning sirlaridan ogoh bo'ladi, qalbini g'ururdan xalos etadi, do'st ishqi bilan limmo-lim to'ldiradi. May – ilohiy ishqni bildiradi. Do'st – ko'ngilga yaqin kishi bo'lib, tasavvuf istilohida ba'zan Alloh, Muhammad va murshidi komillar ham nazarda tutiladi. Xizr - do'st, "obi hayvon"esa ilohiy ishq sarchashmasi sifatida talqin etiladi. Ishq mayi turli dardu balo va ofatlardan o'tib keladi. Shu bois uning quyqasi ham sokin dunyoviy maydan yuz karra afzaldir. Baytda mana shu haqiqatga ishora bor. Ba'zi satrlarda Surush, Ahraman, Sulaymon obrazlari birgalikda tasvirlanadi.

*Gar Sulaymon majmaida bo'lmag'ay juz Ahraman,*
*Kimga ul maj'ma aro, yorab, nido qilg'ay surush*[11].

Axraman qadimgi mifik qarashlarda yovuzlik timsolini anglatadi. "Surush" ham timsol bo'lib, bunda Haq xabarlarini etkazuvchi Jabroil (a.s.v) nazarda tutiladi. Shundan she'rda "Sulaymon majmaida Ahraman bo'lmaydi, agar u majlisda farishta Jabroil nido qilsa", ya'ni Jabroil xabar olib kelgan joyda yovuz ruhlarga o'rin bo'lmaydi – degan tarzdagi ma'no mavjud. Ko'rinadiki, Alisher Navoiy she'riyatida rangin timsol-obrazlar muvoziy tasvirlanadi. Lekin Farhod, Majnun, Shirin, Layli obrazlari nihoyatda keng tasvir etilgani holda ularning boshqa shaxs-siymo timsollari, xususan, nabiylar bilan birga talqin etilgani uchramaydi. Bundan ko'rinadiki, mumtoz she'riyatda shaxs-siymo obrazlari talqinida ham o'ziga xos qonuniyatlar bo'lib,bu adabiy-estetik qonuniyatlar barcha davrlar mumtoz she'riyatida an'analarni ta'minlab kelgan.

Xullas, Alisher Navoiy va umuman mumtoz she'riyatda shaxs-siymo obrazlari muvoziy tasvirlanganda ular tarixi va tavsifi bilan bog'liq rangin talqinlar lirik qahramon tuyg'ulariga tamsil etib olinadi. Bunda shaxs-siymo obrazidan ko'ra ularga daxldor lavhalar va detallar badiiy tasvirga tortiladi. Ular goh oshiq, goh ma'shuq obrazlari tabiatida aks etadi. She'riyatda shaxs-siymolar timsollari muvoziy talqinida obrazlararo ham, timsol va she'r ruhiyatida ham mantiqiy bog'liqlik, badiiy-estetik muvozanat ta'minlanadi. Shundagina lirik she'r qimmati oshadi, tasvir ta'sirchanligi ortadi, voqelik qamravi kengayadi, lirik qahramon dunyosi jozibador olam singari anglanadi.

# "BOBURNOMA" ASARINING O'ZBEK TILSHUNOSLIGINI RIVOJLANTIRISHDAGI AHAMIYATI

***Munosibxon Saidahmadovna Ishanjanova** - f.f.b.f.doktori (PhD), Andijon davlat chet tillari instituti*

**Annotatsiya:** *Ushbu maqolada Bobur adabiy merosining dunyo olimlari tomonida o'rganilishi va Boburnomaning o'zbek tilshunosligidagi o'rni, unda adabiy tilga bo'lgan qarashlar, Andijon shevasi Navoiy tiliga yaqinligi xususidagi nazariyalar, undagi fonetik va leksik xususiyatlar tahlil qilingan.*

**Аннотация:** *В данной статье анализируются фонетические и лексические особенности литературного наследия Бабура со стороны мировых ученых и место Бабурномы в узбекском языкознании, его взгляды на литературный язык, теории о близости андижанского диалекта к языку, Алишера Навои.*

**Abstract:** *This article analyzes the study of the Babur's literary heritage on the side of World Scientists and the place of the Baburnoma in Uzbek linguistics, its views on the literary language, theories on the proximity of the Andijan dialect to the Navoi language, phonetic and lexical features in it.*

**Kalit so'zlar:** *adabiy til, Andijon shevasi, turkiy til, izohli lug'at.*

**Ключевые слова:** *литературный язык, Андижанский диалект, тюркский язык, толковый словарь.*

**Keywords:** *literary language, Andijan dialect, Turkish language, explanatory dictionary.*

Sharq xalqlari mumtoz adabiyoti Yevropa adabiyotshunoslarida uzoq yillardan qiziqish uyg'otib kelgan. Ayniqsa, Navoiy va Bobur ijodi ularning diqqat e'tiborini ko'proq jalb qilgan.

11 Alisher Navoiy. Mukammal asarlar to'plami. Yigirma tomlik, ikkinchi tom. Navodir un-nihoya. –Toshkent: Fan, 1987.– 35 b.

Yevropa olimlari XVIII asrga kelib o‘zbek tilshunosligini ilmiy o‘rgana boshladilar. Fransuz olimi Pave de Kurteyl Sharq tilshunosligini o‘rganar ekan, Boburmirzo adabiy merosiga qiziqadi. U “Boburnoma”ni birinchilardan bo‘lib fransuz tiliga tarjima qilishi, shuningdek, turkiy tillarda bitilgan asarlarni o‘rganish orqali ushbu tillarni ravnaq topishda o‘z xizmatlarini ko‘rsatdi va shu bilan dunyoga tanildi. Olim Navoiy, Bobur va Abulg‘ozi Bahodirxon asarlarini chuqur o‘rganish uchun “Sharqiy turkiy tillar lug‘ati”ini yaratar ekan, unda Navoiyning “Xazoyin ul-maoniy” devoni, “Xamsa”si, Boburning “Boburnoma”si, Abulg‘ozi Bahodirxonning “Shajarai turk” asarlaridan keng foydalanadi. Lug‘atda olti mingdan ortiq eski o‘zbek tiliga oid so‘zlar izohi berilgan bo‘lib, olim ularni fransuz tiliga o‘girishda ijodiy yondashgan, asrlarni o‘rganish jarayonida o‘z ko‘zi bilan undagi milliy xos so‘zlarni borliqdagi aksini ko‘rib tushuncha hosil qiladi va atroflicha yoritishga erishadi. Akademik A.N.Kononov ushbu lug‘at eski o‘zbek tili va adabiyotini o‘rganishda o‘z ahamiyatiga ega ekanligini ta’kidlaydi[1].

Bobur va Navoiy dunyo olimlari tomonidan o‘rganilar ekan, o‘zbek tadqiqotchilar ham bunda bir qancha izlanishlar olib borganlarini ta’kidlash joiz. Mazkur namoyandalarimizning o‘zbek tilshunosligidagi o‘rni haqida X.Doniyorov o‘z asarlarida keng yoritadi. Shuningdek, Bobur o‘z asarida Navoiy o‘zbek tilini yaratishda xalqning ma’lum shevalarini birlashtirganini, jumladan, Andijon shevasi Navoiy tiliga to‘g‘ri kelishini aytadi[2]. Bobur Andijonni ta’riflar ekan, uning tili, aynan, Navoiy tiliga monand ekanligini yozadi: “Eli turkdur. Shahar va bozorlarida turkiy bilmas kishi yo‘qtur. Elining lafzi qalam bilan rosttur. Ani uchunkim, Mir Alisher Navoiyning musannafoti bovujudkim. Hirida nash’u namo topibtur, bu til biladur”[3]. Boburning bu fikriga sharqshunos olim, akademik V.Bartold ishonchsizlik bildirib, u Navoiyni Andijonda bo‘lmaganligini va Andijon shevasidan boxabar ekanligini aytadi. O‘sha davrda Andijon madaniy markaz bo‘lgani bois, uning tili adabiy tilga yaqin bo‘lgan deb hisoblaydi[4]. Mashhur rus tarixchisi A.Yakubovskiy esa, V.Bartold fikrini inkor etib, Navoiy Hirotda yashagan bo‘lsa-da, Andijon Farg‘onaning markazi bo‘lgani bois uning shevasi yaqin til yaratgan bo‘lishi mumkin ekanligini ta’kidlaydi[5]. Tilshunoslar bu masalani uzoq muhokama qilib qisman yechimini topdi. Ular o‘sha davrda o‘zbeklar ko‘chmanchi bo‘lgani bois Andijon shevasini yoyishga xizmat qilgan bo‘lishi mumkin deb taxmin qiladilar[6]. Lekin Navoiy tili ham arab yozuvida bo‘lgani uchun ayrim tovushlar hozirgacha qanday talaffuz qilingani muammoligicha qolmoqda.

Bobur nima yoki kim haqida yozmasin doim chuqur yondashgan. “Boburnoma”ning “Vaqo‘i sanayi samon va tis’a min”, ya’ni 1502-1503 yillardagi voqealar bayoniga bag‘ishlangan bobida turkiy so‘zlarda d, t, k, q, g‘ tovushlari bir-birini o‘rnini almashtirish xususiyatiga ega ekanligini ta’kidlaydi. U shunday deb yozadi: “So‘ngra ma’lum bo‘ldikim, turkiy lafzida mahal iqtizosi bila to va dol yana g‘ayn va qof, kof bir-birlari bila mubaddal bo‘lurlar ermish”[7].

Yod etmas kishini mehnatta kishi,
Shod etmas emish ko‘ngulni g‘urbatda kishi.
Ko‘nglum bu g‘aribliqta shod o‘lmadi hech,
G‘urbatta sevunmas emish, albatta kishi.

Ushbu misoldagi turkiy tillar fonetikasiga xos xususiyat mehnatta, mehnatda yozilishi va aytilishi qoidaga xilof emasligi, bu bilan so‘zning ma’nosi o‘zgarmasligi aytib o‘tiladi. Bunda Bobur t va d tovushlarini o‘rin almashtiruvchi undosh ekanligini aytib o‘tib, hozirgi zamon tilshunoslariga ko‘ra qofli va g‘ofli so‘zlarni kofliga zid qo‘ymaydi. G‘ariblik, g‘ariblig‘ shevada o‘zgarsada ma’noda farqlanmasligini ular faqat o‘rin almashuvchi ekanligini aytadi. Bobur ushbu fikrlariga Urxun yozuvlarida bitilgan toshbitiklarda ham uchraganligini ko‘p so‘zi qo‘p tarzida yozilagnini asos qilib keltiradi. Asarda Boburning fonetist sifatida ham fikr yuritganiga guvoh bo‘lamiz va bunga ko‘plab misollar keltirilgan.

Boburnomadagi tilshunoslikka oid ma’lumotlar Yevropa olimlari uchun qulay bo‘lib, Boburnomani tizimli tarjima qilishda foyda bo‘lganidan guvohlik beradi. Fransuz professori Pave de Kurteylning turkiy tillarni nazariy o‘rgangani va amaliy tarzda tahlil etish uchun “Boburnoma”ni tarjima qilishga kirishadi va asardagi turkiy tushunchalar unda yanada qiziqish uyg‘otgan edi. 1871-yilda “Boburnoma”ning Pave de Kurteyl tarjimasi ikki jildda nashrdan chiqadi. Birinchi jildda tarjimonning o‘n olti sahifali so‘zboshisi ham berilgan. Unda “Boburnoma”ning yozilish tarixi, unda tasvirlangan davrlar, Boburshohning Afg‘oniston va Hindistonda barpo etgan qudratli imperiyasi xususida ma’lumotlar berilgan. “Men tarjima qilgan bu asar faqat sharqshunoslar uchungina emas, – deb yozadi professor Pave de Kurteyl, – balki tilshunoslik, tarix va geografiya ilmi bilan shug‘ullanuvchi kishilar uchun ham foydalidir. Unda XV asrning oxiri va XVI asrning birinchi yarmida yashab o‘tgan arboblar va hukmdorlar hayoti, sharqiy turk adabiyotining oltin davri

1 Кононов А.Н. Очерк истории изучения туретского языка. –Л., 1976, –С.25.

2 Дониёров Ҳ. Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. —Т., Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. — 64 б.

3 Бобурнома. – Тошкент, ЎзФА нашриёти, 1960.- Б.60.

4 Бартольд В.В. «Мир Али-Шир и политическая жизнь», сборник, «Мир Али- Шир». Ленинград, 1928, стр, 106.

5 Якубовский Я. Черты общественной и культурной жизни эпохи Алишера Навоиий. Монография,-1946. – С.6.

6 Дониёров Ҳ . Алишер Навоий ва ўзбек адабий тили. —Т., Ғафур Ғулом номидаги адабиёт ва санъат нашриёти, 1972. — 64 б.

7 Умаров Э. Бобурнинг тилшуносликдаги маҳорати. –Бобур ва Дунё. – Б.40.





ta’rifi, shahzodalar, beklar hamda fuqaroning turmushi tavsiflangan”[8]. Olim so‘zboshida Boburning taxtga o‘tirish davridan boshlab Hindistonni zabt etguniga qadar bosib o‘tgan hayot yo‘li hikoya qiladi. Dunyoga mashhur bo‘lgan “Boburnoma” ta’rifiga ham urg‘u berib o‘tadi.

Ma’lumki, “Boburnoma”ning tili xalq tiliga yaqindir. Bu xususda professor Pave de Kurteyl shunday yozadi: “Bobur tili usmonli turk tili emas, balki sof turkiy til (o‘zbek tili – M.X.) bo‘lib, har qanday arab va forsiy iboralardan xolidir. Bu til shoir Lutfiy va Navoiy, Sulton Husayn va Mir Haydar tili bo‘lib, juda sodda, boy hamda ifodalidir”[9].

Yevropalik Boburshunoslar “Boburnoma”ning yaratilishini Bobur Hindistonda hukmron bo‘lgan davr bilan bog‘laydilar. Fransuz tarjimoni Pave de Kurteyl ham ularga monand quyidagi fikrlarini aytadi: “Agar mendan “Boburnoma” qaysi davrda yozilgan, deb so‘rasalar, men kitob Bobur Hindistonni zabt etgandan so‘ng, ya’ni 1526 yildan boshlab yozilgan va Boburshoh hayotining oxirigacha davom etgan, deb javob qilardim”[10]. Olimning bu xulosasidan asarning boshlanishidan Hindiston voqealari aks etganiga tayangani aks etadi.

So‘zboshida Pave de Kurteyl o‘ziga qadar amalga oshirilgan “Boburnoma”ning ikki mashhur tarjimasi mavjud bo‘lganligi, ulardan biri Akbarshoh zamonida uning topshirig‘i bilan qilingan Mirza Abdurahimxon ibn Bayramxonning forsiy tarjimasi hamda, ikkinchisi, sharqshunos olimlar Jon Leyden va Vilyam Erskinning inglizcha tarjimasidir. “Parijdagi Milliy kutubxonada, – deydi sharqshunos, – Mirzaxon, ya’ni Abdurahimxon tarjimasidan iborat qo‘lyozmaning ikki nusxasi saqlanadi. Abdurahimxon Humoyun podsholigi davrida uning saroyidagi eng nufuzli kishilardan bo‘lgan, uning obro‘yi Akbar va Jahongir mirzo davrida ham saqlanib qolgan (u 1626-yilda vafot etgan)”[11]. Yevropa tillaridagi ko‘p tarjimalar asarning forsiy tilidagi nusxasidan o‘girilganiga guvoh bo‘lamiz. Bunda o‘z-o‘zidan tarjimada tafovutlar paydo bo‘ladi. Lekin mazkur forsiy tarjimaning miniatyuralar bilan bezatilgani va uning nusxalari hozirda London, Parij, Kalkutta kutubxonalarida saqlanishini ta’kidlash joizdir.

M.Xolbekov Pave de Kurteylning tarjimalari ustida ishlar ekan, tarjimonning quyidagi e’tiroziga to‘xtataladi: “Mening oldingi tarjimonlarga birdan-bir e’tirozim, ular asl nusxa matni ustida fors tiliga qilingan tarjima (Mirza Abdurahimxon tarjimasi ko‘zda tutilmoqda – M.X.) asosida qunt bilan ishlanmagan… Inglizcha va nemischa tarjimalar aslidan bir qadar uzoqlashgandir, ko‘pchilik hollarda geografik nomlar forsiyda qanday berilgan bo‘lsa, shu holda takrorlangan. Ayniqsa, Shimoliy Hindistondan keladigan daromad xususida gap ketganda, bu nuqsonlar yaqqol ko‘zga tashlanadi”[12]. Bunda tarjimada leksik birliklarda sezilarli kamchiliklar borligi, asardagi terminlar bilan ham tadqiqotlar olib borishni taqozo etgani ko‘rinadi. 1888 yil “Osiyo” jurnalining ikkinchi jildida sharqshunos Jyul Darmstetening “Qobul yozuvlari. Boburshoh va boshqa mo‘g‘ul shahzodalarining qabrtoshlaridagi bitiklar” maqolasi e’lon qilinadi. Maqolada muallif Bobur va boburiylar maqbarasidagi bitiklar haqida atroflicha ma’lumot berish bilan birga, ularning fransuz tiliga tarjimasi va talqinini ham keltirib o‘tadi. Boburnoma asari turli tillarda o‘rganilar ekan, undagi tilshunoslik xususidagi ma’lumotlar olimlarda katta qiziqish uyg‘otadi. Shuningdek, asarni tishunoslikning fonetika, leksikologiya, semantika, pragmatika yo‘nalishlarida ham tadqiq etishda manba sifatida alohida ahamiyat kasb etadi. Jumladan, Boburnomada “Xatti Boburiy” tilshunoslikda yana bir alifboni yaratilishi haqidagi fikrlar, shevalardagi o‘zaro farqlarni tovushlari bilan keltirib berilishi diqqatga sazovardir. Boburning she’riyatga bo‘lgan muhabbati uning til qonuniyatlarini ham o‘rganishga chorlaganidan xabar beradi. Shuningdek, uning “Aruz risolasi” asari nafaqat o‘zbek, balki boshqa turkiy xalqlar she’riyatidagi qonuniyatlarini, tilshunoslik qoidalarini o‘rganishda muhim ahamiyat kasb etadi. She’rlardagi bo‘g‘inlar, tovushlarning talaffuzi haqidagi fikrlar, albatta, o‘zbek tilshunosligini ravnaq topishida katta o‘rin tutadi.

Xulosa qilsak, Boburnoma asari ensiklopedik asar sanalib, unda tilshunoslik, adabiyotshunoslik bo‘yicha ham ma’lumotlar keltirib o‘tilgan. Boburning tilshunoslikning fonetika bo‘limi uchun undoshlar haqidagi, leksikologiya bo‘limi uchun shevalar, milliylikni bildiruvchi so‘zlarni izohi bilan keltirgani, tilshunoslikning ushbu bo‘limlarini yanada chuqur o‘rganishda ahamiyatli sanaladi. Boburnomadan tilshunoslikni tadqiq etishda ham qimmatli manba sifatida foydalanish maqsadga muvofiqdir.

8 Pavet de Courteille J.B. Mémoires de Baber (Zahir-ed-Din-Mohammed),— Paris, Maisonneuve, 1871.

9 Xolbekov M. Fransuzcha “Boburnoma”lar. // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 yil,4-son. HTTPS://N.ZIYOUZ.COM/PORTAL-HAQIDA/XARITA/MAQOLALAR/MUHAMMADJON-XOLBEKOV-FRANSUZCHA-BOBURNOMA-LAR

10 Pavet de Courteille J.B. Mémoires de Baber (Zahir-ed-Din-Mohammed),— Paris, Maisonneuve, 1871.

11 Xolbekov M. Fransuzcha “Boburnoma”lar. // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 yil,4-son. HTTPS://N.ZIYOUZ.COM/PORTAL-HAQIDA/XARITA/MAQOLALAR/MUHAMMADJON-XOLBEKOV-FRANSUZCHA-BOBURNOMA-LAR

12 Xolbekov M. Fransuzcha “Boburnoma”lar. // “Jahon adabiyoti” jurnali, 2010 yil,4-son. HTTPS://N.ZIYOUZ.COM/PORTAL-HAQIDA/XARITA/MAQOLALAR/MUHAMMADJON-XOLBEKOV-FRANSUZCHA-BOBURNOMA-LAR

# TEACHING SPEAKING COMPREHENSION THROUGH THE INTERACTIVE TECHNOLOGIES IN EFL CLASSES

**Fazilat Ermamatovna Sattorova** - *o'qituvchi, PhD, Samarqand davlat universiteti*

***Abstract:*** *In this article speaking is studied as one of the main skill in learning and teaching foreign language as the goal of this comprehension is to improve their communicative skill. Because students can express themselves and learn how to follow the social and cultural rules appropriate in each communicative circumstances. Despite its importance, for many years, teaching speaking has been undervalued and English language teachers have continued to teach speaking just as a repetition of drills or memorization of dialogues. Some speaking activities are provided below, that can be applied to EFL classroom setting, together with suggestions for teachers who teach oral language. Communicative language teaching and collaborative learning is based on real-life situations and this requires the interaction and communication of the speakers. Using this method in the process of teaching English language the students can have the chance of communicating with each other in order to achieve the goal.*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada xorijiy tilni o'rganishda gapirish ko'nikmasini rivojlantirishning maqsadi kommunikativ mahoratini oshirishdir va bunda nutq chet tilini o'rganish va o'rgatishning asosiy ko'nikmalaridan biri sifatida baholanadi. Talabalar chet tilini o'rganish jarayonida o'zlarini namoyon etishlari va har bir kommunikativ sharoitga mos keladigan ijtimoiy va madaniy qoidalarga qanday rioya qilishni o'rganishlari talab etiladi. Ko'p yillar davomida nutqni o'rgatishga yetarli darajada baholanmagan va ingliz tili o'qituvchilari nutqni mashqlarni takrorlash yoki dialoglarni yodlash kabi o'rgatishda davom etishgan. Ushbu maqolada og'zaki nutqni o'rgatishda o'qituvchilar va til o'rganuvchilar uchun takliflar bilan birga ingliz tili darslarida qo'llanilishi mumkin bo'lgan ba'zi nutqiy faoliyat turlari ham keltirilgan. Xorijiy tilni o'rgatishda kommunikativ muloqot real hayotiy vaziyatlarga asoslanadi, bunda so'zlashuvchilarning o'zaro ta'siri va muloqotini talab qiladi. Ingliz tilini o'rgatish jarayonida ushbu usuldan foydalangan holda talabalar maqsadga erishish uchun bir-birlari bilan muloqot qilish imkoniyatiga ega bo'lishlari eng muhim omil sifatida baholanadi.*

***Аннотация:*** *В данной статье говорение рассматривается как один из основных навыков в изучении и преподавании иностранного языка, поскольку целью этого понимания является улучшение их коммуникативных навыков. Потому что учащиеся могут выразить себя и научиться следовать социальным и культурным правилам, подходящим для каждой коммуникативной ситуации. Несмотря на свою важность, в течение многих лет преподавание говорения недооценивалось, и учителя английского языка продолжали обучать говорению просто как повторение упражнений или заучивание диалогов. Ниже представлены некоторые устные упражнения, которые можно применить в классе EFL вместе с предложениями для учителей, преподающих устную речь. Коммуникативное преподавание языка и совместное обучение основаны на реальных жизненных ситуациях, и это требует взаимодействия и общения говорящих. Используя этот метод в процессе обучения английскому языку, студенты могут иметь возможность общаться друг с другом для достижения цели.*

***Keywords:*** *english language, speaking skill, communicative method, in EFL classes, spoken interaction and spoken production, describing picture, simulation, storytelling, brainstorm, narrating the story.*

***Kalit so'zlar:*** *ingliz tili, nutq mahorati, kommunikativ usul, EFL darslarida, og'zaki muloqot va muloqot ko'nikmasi, rasmni tasvirlash, simulyatsiya, hikoya qilish, aql hujum, hikoyani bayon qilish.*

***Ключевые слова:*** *английский язык, навык говорения, коммуникативный метод, на занятиях по английскому языку, разговорное взаимодействие и устное производство, описание картины, моделирование, рассказывание историй, мозговой штурм, рассказ истории.*

Speakingis "the process of building and sharing meaning through the use of verbal and non-verbal symbols, in a variety of contexts"[1] Speaking is a crucial part of the second language learning and teaching. Now many linguistics and EFL teachers agree on

1 Richards J.C. Communicative language teaching today. Cambridge: Cambridge University Press. 2006, 13-15 p





that students learn to speak in the language by "interacting". Communicative language teaching and collaborative learning serve best for this aim. It is based on real-life situations that require communication. By using this method in EFL classes, students will have opportunity of communicating with each other in the target language. In brief, EFL teachers should create a classroom environment where students have real-life communication, authentic activities, and meaningful tasks that promote oral language. This can occur when students collaborate in groups to achieve a goal or to complete a task.

Teaching process is mainly based on two activities. They are imparting knowledge and acquiring knowledge. In the first case teacher sends information and the learners receive it. The innovative methods also deal with this process and their aim is to evaluate the activities of a teacher and learners using new ways and methods of teaching including new technical means of teaching. As we know that methodological approach in teaching foreign languages may be divided into three groups. They are passive methods, active methods and also interactive methods. If we speak here in the first place about the passive methods, it should be noted that in passive methods a teacher is in the center of teaching. He plays active role but the learners are passive. Control can be carried out by the way of questions, individual and control work, tests etc. It may be useful when it is used by an experienced teacher. Secondly, in active methods learners are also active. Their role and activity is equal in the process of interaction. Learners may ask questions; express their ideas with a teacher. There are a number of problems which the students can face while doing learning this skill which are as following[2]:

Learners may have difficulty in understanding the instructions given by teacher.

May all the learners will not be able to answer all the comprehension questions.

Some learners will be unable to utter a dialogue completely and accurately.

Many non-native speakers will find it difficult to manage speed and agility of response while talking to strangers.

Students sometimes find difficulties while speaking as they think much about grammar. They think they must speak grammatically correct all the time. It disturbs them to speak, so most of them prefer to remain silent instead of answering in a wrong sentence.

Some learners may feel shy and never give answers in target language.

The goal of teaching speaking skills is to improve communicative efficiency. By learning these skills the students will be able to[3]:

Avoid confusion in the message due to faulty pronunciation, grammar, or vocabulary.

Observe the social and cultural rules that apply in each communication situation.

Clarify their meaning or ask for confirmation of their own understanding.

Practice using all of the language they know in situations that resemble real settings.

Develop their socio-linguistic competence.

The native language should not be used in class room; teacher and students use the target language in classroom.

The syllabus based on situations or topic, not usually on linguistic structures.

Structured task or topic-based activities with clear goals are a good basis for classroom talk in the foreign language, particularly at elementary and intermediate levels. However, the kind of talking they given practice in is some respects limited: more advances learners may need a wider range of activity types[4].

Different kinds of interaction. Discussion tasks tend to be based on transactional talk, short turns and fairly detached argument or persuasion. The main types of interaction which are discussion in the extracts and which tend to be neglected are: interactional talk; long turns; talk which is based on situations, emotions and personal relationships. Interactional talk is to some extent a matter of learning conventional formulae of courtesy: how to greet, take leave, began and end conversations, apologize, thank and so on. But even more than this it is culture-linked: how the interactional function of speech is realized in different languages depends as much on cultural convention as on knowledge of the words of the language.

Interactional uses of a language are those in which the primary purposes for communication are social. The emphasis is on creating harmonious interactions between participants rather than on communicating information. The goal for the participants is to make social interaction comfortable and non-threatening and to communicate good well.

2 Halliday M.A.K. Spoken and written language. Oxford: Oxford University Press. 1985, 50-55p

3 Krashen S.D. "Bilingual education and second language acquisition theory". Oxford University Press, 1981, 30-40p

4 Brown J., Bryan J. and Brown T.(2005) . Twenty-first century literacy and technology in K-8 classrooms. innovate,1(3), 60-65 p

Although information may be communicated in the process, the accurate and orderly presentation of information is not the primary purpose. Examples of interactional uses of language are greeting, making small talk, telling jokes, giving complements, making casual chat of the kind used to pastime with friends or to make encounters with strangers comfortable.

The way interactional talk is carried out in different languages is very culture-linked, and it is difficult to explain the conventions that govern it in a foreign language; it is dubious therefore whether it is worth investing very much effort in teaching and practicing them. My own opinion is that given general language proficiency and a knowledge of the more obvious courtesy conventions, most learners will be able to cope adequately with interactional speech on the basis of their own cultural knowledge and common sense. Some kinds of simulation can give opportunities for practicing.

Long turns. The ability to speak at length is one which adult, more advanced or academic students will perhaps need and therefore needs cultivating; for other types of classes it may be less important.

Varied situations, feelings, relationships are certainly arguable that learners will need to function in a wide variety of such contexts, and it makes sense to give them opportunities to try using the target language in simulations of at least a selection of them. Conventional task-based discussions do not provide such opportunities; but as the extract quoted here claims, role-play activities do-which is a cogent argument for discussion of simulation and role play.

For learners who feel self-conscious about acting someone else, this type of activity is less demanding. But most such discussions do not usually allow much latitude for the use of language to express different emotions or relationships between speakers, or to use interactive speech.

The most of teachers usually understand or mean cooperative action during the lesson. But here attention should be focused on inner action too. The learners should have inner motivation which involves them into active work or active participation at the lesson. In interactive method teacher's role is to direct learners activity to getting the aim of the lesson which include interactive exercises and tasks.

Below some types of interactive methods are given[5]:

Describing picture is a simple but surprisingly productive activity for beginner classes. Make sure participants understand that it is only necessary for the secretary to put a tick for each contribution; some tend to assume that every sentence has to be written our- but this cuts down drastically the amount of talk possible. The second time round, with a new picture, the groups almost invariably break their previous record. Students describe what it is in the picture.

• They discuss the picture with their groups.

• Then, a spokesperson for each group describes the picture to the whole class. This activity fosters the creativity and imagination of the learners as well as their public speaking skills.

• It could also be used as springboard for a whole class-discussion

Information gap:

• Students are supposed to be working in pairs.

• One student will have the information that other partner does not have and the partners will share their information.

• Information gap activities serve many purposes such as solving a problem or collecting information. Also, each partner plays an important role because the task cannot be completed if the partners do not provide the information the others need.

• These activities are effective because everybody has the opportunity to talk extensively in the target language.

Brainstorm. It is technique for generating new ideas on a topic. These methods stimulate creative activity of the learners in solving problems and express their ideas freckly. Various variants of solving the problem are usually given here. In brainstorming quantity of utterances is important but not the quality[6]. Teacher should listen to all utterances and not criticize them. Instead of this he inspires the learners to give as many variants of solving the problem as he (or she) can. Lacks of criticism create favorable conditions for the learners to express the ideas freely and these of course motivate them. At the end of brainstorming activity all the expressed utterances are written and then analyzed.

• On a given topic, students can produce ideas in a limited time. Depending

5 Woolfolk A., Hughes M. & Walkup V. Psychology in Education. Harlow: Pearson Education Limited 2008, Oxford University Press, 15-30p

6 Wilson J.A. A program to develop the listening and speaking skills of children in a first grade classroom. Cambridge University press, 1997, 110-116p





on the context, either individual or group brainstorming is effective and learners generate ideas quickly and freely.

• The good characteristic of brainstorming is that the students are not criticized for their ideas so students will be open to sharing new ideas.

Simulations are very similar to role-plays but what makes simulations different than role plays is that they are more elaborate. In simulations, students can bring items to the class to create a realistic environment. For instance, if a student is acting as a president, he/she wears a suit and brings a microphone to deliver his speech. Role plays and simulations have many advantages.

• Such activities motivate the students and increase the self-confidence of hesitant students.

In simulations the individual participants speak and react as themselves, but the group role, situation task they are given is an imaginary one. They usually work in small groups, with no audience[7].

"Digital storytelling is an emerging art form of personal, heartfelt expression that enables individuals and communities to reclaim their personal cultures while exploring their artistic creativity"[8]. What is digital story? The cooperative learning process of debate, discussion and reflection that students engage in as they work together to storyboard, shoot, and edit their digital stories is critical to the learning process. Digital is its real tools to tell stories. Digital storytelling is a short form of digital media production that allows everyday people to share aspects of their story. The media used may include the digital equivalent of film online course.

The elements of Digital Storytelling. The Center for Digital Storytelling (CDS) in Berkeley, California is known for and disseminating the Seven Elements of Digital Storytelling, which are often useful starting point as you begin working with digital stories[9].

1. Point of view: What is the main point of the story and what is the perspective of the authority

2. A Dramatic Question: A key question that keeps the viewer's attention and will be answered by the story.

3. Emotional content. Serious issues that come alive in a personal and powerful way and connects audience to the story.

4. The Gift of Your Voice. A way to personalize the story to help the the audience understand the context.

5. The Power of Soundtrack. Music or other sounds that support and embellish story.

6. Economy. Using just enough content to tell the story without overloading the viewer.

7. Pacing. The rhythm of story and how slowly or quickly it progresses.

The specific requirements of an educational digital story differ slightly from Seven Elements for Digital Stories. Working with the Seven Elements that Center developed, we added a few new items to make them more applicable to the digital stories created by students. The modified elements are shown below[10].

1. The Overall Purpose of the Story
2. The Narrator's point of View
3. A Dramatic Question or Questions
4. The Choice of Content
5. Clarity of Voice
6. Racing of the Narrative
7. Use of Meaningful Audio Soundtrack
8. Quality of the images, video and other Multimedia Elements
9. Economy of the Story Detail
10. Good grammar and Language Usage

7 Schegloff, E 'Narrative analysis: Thirty years later'. Journal of Narrative and Life History, Cambridge University press. 1997, 209-215p

8 Larsen-Freeman D., & Anderson M. Techniques& Principles in Language Teaching (3rd ed.). New York, NY: Oxford University Press. 2011, 25-30 p

9 Penny Ur. A course in Language Teaching. Practice and theory. Cambridge University Press. 2001, 20-35p

10 Bolitho R. (1988) "Teaching, teacher training and applied linguistics", The Teacher Trainer, 2, 3 4-7 p.

# HOSHIMJON VA GEKLBERRI OBRAZLARIDA XARAKTERLARNING SHAKLLANISHI

***Muxabbat Mamadjanovna Kurbanova*** *- o'qituvchi, Toshkent davlat transport universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada O'zbek hamda AQSH bolalar yozuvchilari Xudoyberdi To'xtaboyev va Mark Tven ijodlaridan "Sariq devni minib" va "Geklberri Finn sarguzashtlari" asarlarining bosh qahramonlari Hoshimjon va Geklberrining obrazlarida xarakterlarning shakllanishi haqida fikr yuritiladi. Maqolada har ikki yozuvchi yaratgan asar qahramonlarining ichki dunyosi tasvirlanadi, uni qahramon tilidan ochib beradi.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматривается формирование характеров персонажей Хашимджона и Гекльберри, главных героев произведений «Сариқ девни миниб» ("Верхом на жёлтом великане") и «Приключения Гекльберри Финна» из произведений узбекских и американских детских писателей Худойберди Тўхтабоева и Марк Твена. В статье описывается внутренний мир героев произведения, созданного обоими писателями, раскрывая его через язык персонажей.*

***Abstract:*** *This article discusses the formation of the characters of the characters of Khashimjon and Huckleberry, the main characters of the works "Sariq devni minib" ("Riding the Yellow Giant") and "The Adventures of Huckleberry Finn" from the works of Uzbek and American children's writers Khudoyberdi Tukhtaboev and Mark Twain. The article describes the inner world of the heroes of the work created by both writers, revealing it through the language of the characters.*

***Kalit so'zlar:*** *qahramonlar, romanlar kompozitsiyasi, qalpoqcha, xarakter, sehr, samimiylik, obraz, badiiy-estetik vazifa, insonparvarlik, mehnatsevarlik g'oyalari.*

***Ключевые слова:*** *герои, композиция романов, шапка, характер, волшебство, искренность, образ, художественно-эстетическая задача, представления о человеке, трудолюбие.*

***Keywords:*** *heroes, composition of novels, hat, character, magic, sincerity, image, artistic and aesthetic task, ideas about a person, diligence.*

Ma'lumki, badiiy adabiyot real hayotning aksi, asarlardagi obraz esa aniq shaxslarning badiiy asardagi tasviri hisoblanadi. Adabiyotshunoslar istalgan yozuvchi asari haqida so'z yuritayotib, albatta undagi obraz haqida to'xtaladi. Shu ma'noda Xudoyberdi To'xtaboyev va Mark Tven ham badiiy adabiyotning o'zak masalasidan chetga chiqmagan holda ana shu yo'lda borgan deyish to'g'ri bo'ladi. Hoshimjon va Geklberri obrazlaridagi qat'iyat, iroda ularda shakllana borgan xarakter romanlar kompozitsiyasida mustahkam o'ringa ega bo'lib, yaxlit jamiyat obrazining konkret obrazdagi timsolini namoyon etishda muhim o'ringa ega. Shu ma'noda, avvalo, mazkur bolalar xarakterining shakllanishini ilmiy-nazariy asosda tadqiq etish lozim bo'ladi.

Mavzuga oid adabiyotlarning tahlili. Tadqiqot obyekti sifatida olingan romanlar keng ma'noda o'zi yaratilgan davr obrazi sanaladi. Bu esa izlanuvchiga ikki xil jamiyat obrazlarini o'zaro taqqoslash imkonini beradi. Xususan, XIX asr AQSh jamiyati va XX asr o'rtalaridagi o'zbeklar jamiyati umuminsoniy tamoyillarga asoslagan hayotsevarlik, insonparvarlik, mehnatsevarlik, intiluvchanlik, adolatparvarlik kabi badiiy-falsafiy g'oyalari bilan o'zaro yaxlitlik kasb etadi. Ammo undagi bosh qahramon, ularning xarakteri va ular bilan bog'liq voqealar ifodasidagi realistik, ironik tasvirda farq mavjudligi ko'rinadi. Yozuvchilar Mark Tven va Xudoyberdi To'xtaboyev o'z ijodiy konsepsiyasini yaratar ekan, o'zlari ijod etgan bosh qahramonlarga real hayotdan prototiplar izlagan va ularni umumlashtirgan. Ba'zi fazilat va qusurlari esa ijodiy yo'l bilan singdirgan. Natijada Hoshimjon va Geklberri obrazlari o'ziga xos hayot yo'li va xarakterga ega etib tasvirlangan.

Tahlil va natijalar. Ma'lumki, obrazning o'ziga xosligini ko'rsatuvchi jihat xarakter deyiladi. Xarakter haqida Aristotel quyidagicha yozgan: "Xarakterlarga kelsak, ulardan to'rt maqsad ko'zda tutiladi. 1.Birinchi va asosiysi: xarakterlar yaxshi bo'lishi kerak. Avval aytganimizdek, shaxs agar o'zining gaplari va ishlarida qandaydir maqsadga amal qilsa, xarakterga ega bo'ladi. Agar shaxs yaxshi maqsadlarni ko'zlasa, xarakteri ham yaxshi bo'ladi. Bu har bir odamda mavjud bo'lishi mumkin: ayol ham, hatto qul ham yaxshi bo'lishi





ehtimol, birinchisi (erkakdan) yomonroq, qul esa undan ham yomonroq bo'lishi mumkin. 2.Ikkinchidan, xarakterlar o'ziga xos bo'lishi kerak: xarakter mardona bo'lishi mumkin, ammo ayol kishiga mardlik bilan kuchlilik yarashmaydi. 3.Uchinchidan, xarakterlar (hayotiy) haqqoniy bo'lishi kerak: bu yuqorida aytilgandan mutlaqo boshqacha bo'lib, ularni yoki yarashiqli qilib tasvirlash kerak degan gap emas. 4.To'rtinchida, xarakterlar izchil bo'lishi kerak. Hatto tasvirlangan shaxs noizchil bo'lishi, shu xarakterning barcha ishlariga noizchillik xos bo'lishi mumkin. Ammo xarakterning mana shu noizchilligi ham izchil bo'lishi zarur"[1]. Yuqoridagilardan ko'rinadiki, romandagi xarakter yaxshi bo'lishi shart va bu xarakterdagi jihatlarga o'quvchiga ta'sir etishi bilan bog'liq. Ikkinchidan, har qanday xarakter boshlardan ajralib turadigan jihatlarga ega bo'lmog'i kerak ekan. Xarakterdagi real hayotdagiga muvofiqlik, haqqoniylik, izchillik ham uning badiiyligi ta'minlovchi tamoyillar sanaladi. Demak, Mark Tven va Xudoyberdi To'xtaboyev mazkur qoidalar asosida o'z qahramonlari xarakteri sekin-astalik bilan shakllantirgan, deyish mumkin. Buni Hoshimjonning quyidagi tasvirida kuzatish mumkin:

"Qadrdon qalpoqchamni nima qilish kerakligini shu soatgacha o'ylab ko'rmabman. Olib ketaveray desam, yana sehrgar bo'lib ketishdan qo'rqaman. Ko'chada yolg'iz qoldirib ketgani, gapning ochig'i, ko'zim qiymaydi. Yaxshisi qayerdan topib olgan bo'lsam, o'sha yerga olib borib tashlayman, dedim-da, sekin o'zidan so'radim:

– Xo'sh, bunga nima deysan?

–Juda yaxshi fikr. O'z joyimga, lattaga o'rab oxurga tashlab ket... Sendan boshqalarga ham kerak bo'lib qolaman.

Ushbu parchada sehr yordamida katta odam bo'lish orzusi amalga oshgani bilan bilimi yo'q, aqlsiz odam yo'lini topolmasligini anglagan Hoshimjon xarakterida iroda hosil qilgani tasvirlangan. U eng katta qusuri, ilm olmasdan biror kasb ega bo'lib bo'lmasligini, ilmsizlik, kattalarga qarshilik qilish, to'g'ri gapni tan olmaslik kabi yomon jihatlarini tushungani ifodalangan. Aslida irodasi mustahkam bo'lsa, uni aql bilan zarur joyida ishlatsa ham bo'ladi, degan fikr keladi, o'quvchiga, ammo, Hoshimjon o'zidagi dangasalikni, sehrga o'chlikni kabi qusurni bilib sehrli qalpoqni o'zida olib qolmaydi. Ana shu joyda uning xarakteri shakllana boshlaganini ko'rsatadi.

Aslida "Xarakter [yunon. sharakter – farqlanuvchi xususiyat, belgi] 1 Odam, narsa va hodisalarning o'ziga xos ko'rinishi, xususiyati; boshqalardan ajralib, farq qilib turadigan tomoni. 2. Adabiyot va san'atda: xususiy belgilari mukammal tasvirlangan va o'zida fe'l-atvorning tarixan aniq tipi mujassamlashtirgan, shuningdek, muallifning ma'naviy-estetik konsepsiyasini ifodalagan inson obrazi"[2]bo'lib, yozuvchi bosh qahramon xarakteriga xos jihatlarni turli epizodlar orqali sekin-asta ochib bera boshlaydi. Chunki roman boshida bosh qahramonning dangasaligi, ustozlar o'gitiga qarshi borgani oqibatida unga sehrli qalpoq yordamida o'zi tutgan yo'l xato ekanligini turli vaziyatlarda ko'rsatdi. Demak, romandagi Hoshimjon xarakteri o'sib boruvchi, turli vaziyatlar ichida shakllanadigan xarakter sanaladi. Bu bir tomondan janr talabi ham sanaladi. Chunki aksariyat hikoyalarda bosh obraz xarakteri tayyor shakllangan bo'ladi. Sababi hikoya hajmi qisqaligi, voqealar bir ikki epizoddan oshmasligi, ularda obrazning xarakter darajasiga o'sib chiqish jarayonini yoritishga imkon bermaydi.

Romanda esa buning imkoni bor. Shu ma'noda Hoshimjonning xarakterida dastlab shakllangan ba'zi salbiy jihatlarni aniq voqealar, hayotiy vaziyatlar yordamida tasvirlangan. Natijada esa bosh qahramon asar o'quvchisi ko'z oldida o'zining boshqalardan ajralib turadigan turli fazilat va qusurlarini ko'rsata borib, o'quvchi mehrini qozonadi. U qatnashgan voqealar esa kompozitsiya va syujet qurilishining ishonchli bo'lishini ta'minlagan. Hikoyada esa aks ettirilayotgan voqeagacha xarakterning qanday bo'lganligi, u tugagandan so'ng qanday bo'lishligi tasvirlanmaydi yoki yo'l-yo'lakay aytib o'tiladi. Shu ma'noda romanda esa xarakterni batafsil ko'rsatish imkoni mavjud. Demak, romandagi qahramon xarakteri sekin astalik bilan, syujet voqealari asosida rivojlanib boruvchi dinamik xarakter bo'ladi.

Tadqiqot obyektlaridagi xarakterlarning shakllanish jarayonini to'laroq anglashga yordam beradigan ba'zi fikrlarni ko'rib chiqish zarurati tug'iladi. D.Quronov, Z.Mamajonov, M.Sheralievalar muallifligidagi lug'atda xarakter quyidagicha ta'riflangan: "Xarakter (yun. Charakter – iz, belgi, farqlovchi xususiyat) – badiiy xarakter; muayyan davr va muhit kishilariga xos eng muhim umumiy xususiyatlar bilan alohida shaxsga xos individual xususiyatlarni o'zida uyg'un

1 *Arastu. Poetika. Axloqi kabir. Ritorika. – Toshkent: Yangi asr avlodi, 2012. – B.40.*

2 *O'zbek tilining izohli lug'ati. 5 jildli. To'rtinchi jild. – Toshkent:O'zbekiston davlat milliy ensiklopediyasi, 2008. – B.59.*

mujassam etgan inson obrazi. Badiiy xarakter o‘zida obyektiv va subyektiv jihatlarni birlashtiradi. Inson hayotining ijtimoiy-psixologik realligi (bu o‘rinda, xarakterning real asosi, ya’ni uning hayotiy kuzatishlar yoki muayyan prototip asosida yaratilgani nazarda tutiladi) badiiy xarakterning obyektiv tomoni bo‘lsa, uning ijodkor tomonidan hissiy idrok etilishi va g‘oyaviy hissiy baholanishi subyektiv tomondir. Badiiy xarakterning subyektiv jihati, bir tomondan, uning ijodkor tomonidan yaratilgan yangi mavjudlik, badiiyat hodisasi bo‘lishini; ikkinchi tomondan, uning konseptual funksiyasi xarakter orqali amalga oshadi, ya’ni jamiyatning joriy holati xarakterlar vositasida badiiy tadqiq etiladi va yaxlit badiiy konsepsiya ishlab chiqiladi”[3]. Mazkur fikrlar ilmiy jihatdan puxta mulohazalar hisoblanadi. Ularga asosan biz Hoshimjon yoki Geklberri Finn obrazlarining obyektiv va subyektiv jihatlari orqali ularning fabula, prototip bilan bog‘liq tomonlarini, o‘z navbatida esa mazkur obrazlarning xarakter darajasiga o‘sib chiqishida muallif ular zimmasiga yuklagan badiiy-estetik vazifani ham tekshirishimiz lozimi bo‘ladi. Shu ma’noda har qanday obraz ma’lum ijtimoiy muhitda aks ettiriladi va ular voqealar markazida turishini inobatga olish shart bo‘ladi. Masalan, “Kinna soladigan apparat” bobi kirish qismida Hoshimjonning do‘sti Zokirjonga bir-birlariga uy-xo‘jalikdagi ishlarda o‘zaro yordamlash maqsadini keltirish mumkin:

Shu o‘rinda ta’kidlash kerakki, Hoshimjon xarakterini ochishda uning Orif, Zokir kabi do‘stlari, buvisi, otasi, onasi, singlisi Donoxon, Abdushukur amaki, Yong‘oq qori, Danak qori kabi personajlar muhim o‘ringa ega. Chunki badiiy adabiyotda inson doimiy ravishda o‘ziga o‘xshagan boshqa odamlar, ularning orzu-havaslari, intilishlari, turmush-tarzi, faoliyati bilan o‘zaro munosabat bo‘lgan holatda tasvirlanadi. Bu keng ma’noda ijtimoiy faoliyat deb atalib, Hoshimjon ham ana shu muhitda namoyon bo‘ladi[4]. Zero, romandagi obrazlar, jumladan Hoshimjonning xarakteri ham ma’lum ijtimoiy faoliyat tipi hisoblanib, ma’lum mehnat yoki biror shaxs bilan o‘zaro munosabatda yaxshiroq namoyon bo‘ladi. Bu esa o‘z-o‘zidan voqea, vaziyatni taqazo etadi. Bu esa birinchi galda xarakter syujet voqealari o‘zagi sifatida tasvirlashga asos bo‘ladi. Ko‘rinadiki, Hoshimjonning xarakteri, birinchi navbatda, aniq hayotiy sharoitda, bu yerda do‘sti Zokirni uchratishi va shaftoli terishida o‘zining individual xatti-harakatlari, ruhiy kechinmalari bilan ifodalanadi.

Agar ana nazariy qarashdan kelib chiqilsa, Hoshimjon xarakteriga xos bo‘lgan individual xatti-harakat, ruhiy kechinmalari va ijtimoiy faoliyat tipi ekanligini «Yo‘q, Zokir dangasa emas» bobida yorqinroq tasvirlanganini kuzatish mumkin. Bobning boshlanishida buvisi “mushkulkushod”ga ketgani, Hoshimjon singlisi Donoxonni ko‘cha eshigi oldidagi maydonchaga to‘kilgan qumda oyog‘ini tepa ko‘tarib, kuldirib turgani haqida bayon qilinadi. So‘ng Zokir degan sinfdoshi kelganini aytadida unga ta’rif berdi. Uning dars paytida uxlab o‘tirishi, gavdasi katta bo‘lsa-da, hammadan qo‘rqishini, odamlar uni dangasa deyishlarini keltiradi. Shu yerda ular bir-birini bolalarcha samimiylik bilan bag‘rlariga bosib, sog‘inganliklarini aytishadi. Shu yerda Hoshimjonning xarakteridagi soddalik, samimiylik, do‘stiga sodiqligini namoyon etadi. Shu yerda epizodda keltirilgan “buvim “mushkulkushod kirib ketdi”, degan jumlaning mohiyati ochiladi. Ya’ni buvi Hoshimjonga “singling bilan shaftolining pishgan-pishganini terib, tomga olib chiqib yorib” qo‘y, deya tayinlagan bo‘ladi. Ana topshiriqni bajarish zamirida Zokirning mehnatkash, tinim bilmas, chidamli va, albatta, uyquchiligi hamda Hoshimjonning xarakteridagi shoshqaloqlik, quvlik, mehnatkashlik, tajribasizlik kabilar jihatlar ko‘rinadi. Shoshqoloqligi oqibatida hali pishib yetilmagan shaftolini ham tergani keyinroq gap orasida buvisi tilidan ta’kidlab ko‘rsatiladi. Bu bilan yozuvchi Hoshimjon xarakteri hali to‘la shakllanmaganini ko‘rsatar ekan, bu yerda buvining asosiy o‘rnini ta’kidlash zarur. Agar buvisining shaftoli terish haqidagi topshirig‘i bo‘lmaganda Hoshimjon xarakterining yuqorida sanalgan qirralari ochilmas edi. Demak, shu kabi turli vaziyatlarda bosh qahramonning yangidan yangi xarakter qirralari ochilib boraveradi. U o‘zida o‘qish va mehnat qilishda o‘zida kuch topa oldi, tashabbus ko‘rsatib Zokirni ishga taklif etgani, g‘ayrati jo‘shib tinimsiz ishlaganini namoyon etadi.

Ma’lumki, nazariy adabiyotlarda xarakterning mohiyatini aniqlaydigan ikki asosiy xususiyat ko‘rsatiladi: “a) shaxs iroda yo‘nalishini ko‘rsatuvchi narsa xarakterini belgilaydi;

b) xulq-atvorni belgilaydigan individual ruhiy belgilar: mardlik, qo‘rqoqlik, insoflilik, insofsizlik, tashabbuskorlik, mehnatsevarlik, ishyoqmaslik, dangasalik kabilar. Bunday

3 Quronov D., Mamajonov Z., Sheraliyeva M. Adabiyotshunoslik lug‘ati. – Toshkent: Akademnashr, 2010. – B. 198.

4 Твен Марк. Собрание сочинений в восьми томах. Том 1. – Моксва: Правда, 1980. – 203 С.





individual ruhiy xususiyatlarsiz xarakterni tasavvur qilib bo‘lmaydi”[5]. Yuqorida biz tekshirgan “Yo‘q, Zokir dangasa emas” nomli bobdan ko‘rinadiki, Hoshimjonning xarakteriga xos ikki xususiyat yaqqol ko‘rinadi.

Bundan tashqari, Zokir bilan samimiy suhbat, shaftoli terish jarayonidagi insonparvarlik, mehnatsevarlik g‘oyalari, do‘stlik, sadoqat kabi tuyg‘ular esa asar mazmunini ifodalasa, mazkur jarayonning ifodasi asar kompozitsiyasining, ya’ni shakliy tomonini ham ko‘rsatadi. Shu yerda akademik Izzat Sultonning “Xarakter adabiy asar mazmunining shaklidir. Chunki o‘quvchi mazmunni dastavval va butunicha xarakterlar orqali biladi va “hazm etadi”. Shu sababli ham xarakterlar oquvchi yodida qoladi”[6], degan fikri isbotini topadi.

Demak, Hoshimjon xarakterida ruhiy-emotsional kechinmalarni (Zokir bilan sog‘inib, samimiy suhbatlashish va quchoqlashishda), ulardagi irodaning yuzaga chiqishi (tinimsiz mehnat qilishi, yana nima qilsam ekan, deya o‘ylanishi), adabiy qahramonga mansub ichki fe’l-atvor (Zokirning tezda uxlab qolishi, Hoshimjonning uyqusi kelmasligi) kabi jihatlar namoyon bo‘ladi. Bunday fazilat va xususiyatlar birligi, shuningdek, qahramonning fikrlash tarzi, tabiati, his-tuyg‘ularining, ma’naviy-axloqiy belgilarining namoyon bo‘lishidagi o‘ziga xosliklar, badiiy asarda harakat qiluvchi kishining, personajning individualligini ifoda etuvchi shaxs obrazi zamirida yozuvchining badiiy-estetik konsepsiyasi ham mujassamligini ko‘rish mumkin. Ya’ni yozuvchi Hoshimjon xarakteriga xos jihatlarning keltirishdan asosiy maqsadi, uni o‘quvchiga yetkazishdan badiiy niyati bolalarni ilmli, mehnatsevar, samimiy etib tarbiyalash bo‘lgan. Demak, roman davomidagi voqealar tasvirida Hoshimjonning xarakteri shakllanib borar ekan ular orqali yozuvchining ijodiy niyati ham amalga osha boradi.

Yozuvchi o‘zining badiiy niyatini amalga oshirish davomida romanning badiiylik yaratuvchi tarkibiy qismlari, masalan, tipik sharoit tasviri, voqealar ifodasi bo‘lgan syujet va adabiyotning “material”i hisoblangan badiiy til zimmasiga ham xarakter yaratish vazifasi yuklagan bo‘ladi. Bunda xarakter ifodalanayotgan voqealarga, obrazga nisbatan mazmunni anglatsa, voqea, obraz va til xarakterga nisbatan shakl hisoblanadi[7].

Yozuvchi xarakter tasvirini berar ekan, tasvir orqali roman mazmunini “badiiy axborot”ga aylantiradi. Uni o‘qigan o‘quvchi Hoshimjon xarakteriga oid badiiylashgan xabarni oladi va qalbida unga nisbatan iliqlik paydo bo‘ladi. Xarakterning bu xususiyati romandagi obrazlarning hayotiyligini, ikki sinfdoshlarning aniq hissiy munosabatini anglashga yordam beradi. Aniqroq aytganda, asar mazmuni xarakter tasviri yordamida hayotiy yorqinlikka ega bo‘ladi. Bu esa yozuvchi iste’dodi yuksak ekanligini bildiradi.

Abdurauf Fitrat badiiy xarakterga oid fikrlarini “Adabiyot qoidalari” kitobida shunday beradi: “Har kim o‘zining shodligi, qayg‘uli tuyg‘ularini boshqalarga bildirmak, ularni ham shu tuyg‘ular bilan tuyg‘ulantirmoq istaydir. Buyuk bir shodlik ko‘rgan kishi o‘zining shod tuyg‘ularini boshqalarga bildirib, shodligini orttiradir. Ulug‘ bir qayg‘uga uchragan esa, o‘z dardini boshqalarga o‘tkazib o‘zini ovuntiraturg‘an bo‘ladir. Miyasi yuksalmagan bolalar, san’atdan xabarsiz kishilar shodliqli-qayg‘uli tuyg‘ularini sakrab, o‘ynab, kulib, talpinib jonlantiradilar, ochiqcha chiqarib boshqalarg‘a onglatadirlar, san’at egalari esa turli tovar (material)lar yordami bilan o‘zlarining tuyg‘ularini jonlantirib maydonga chiqaradir”[8]. Demak, romandagi qahramon o‘zining ichki olamidagi quvnoq, tashvishli, qayg‘uga kabi tabiatlarga kechinmasini ifodalashida xarakter namoyon bo‘ladi.

Xullas, Hoshimjon o‘z boshidan kechirganlarini o‘z oilasi, buvisi, dadasining kamchiliklarini ham ayovsiz ochib tashlashida yozuvchining realistik qarashlari yashiringan. Mark Tven ham xuddi Hoshimjon tilidan, uning dadasi keksa Finn xarakteridagi salbiy tomonlarni tasvirlashida realizm metodining o‘zak yo‘sini tanlab, asariga reallik, hayotiy berganini e’tirof etish lozim. Demak, bu ikki yozuvchi yutuqlari ana shu jihati bilan yana yaqinlik kasb etadi.

5 Boboyev T. Adabiyotshunoslik asoslari. – Toshkent: O‘zbekiston, 2002. – B. 52.

6 Izzat Sulton. Adabiyot nazariyasi. – Toshkent: O‘qituvchi, 2005. – B. 75.

7 To‘xtaboyev X. Sariq devni minib. Sarguzasht roman. – Toshkent: Yosh gvardiya, 1982. – B. 63.

8 Fitrat. Adabiyot qoidalari. – Toshkent: O‘qituvchi, 1995l. – B.21.

# BOSHLANG'ICH SINF ONA TILI TA'LIMIDA O'QUVCHILARNING IJODIY FAOLIYATINI LOYIHALASHTIRISH MUAMMOSI

*Javohir G'aybullo o'g'li Zokirov* - *o'qituvchi, Termiz davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish amaliyotini asoslash, uning o'ziga xos xususiyatlarini tavsiflash uchun pedagogik tajriba predmeti, maqsadi, vazifalarini aniqlash, tajribaning borishini tavsiflash, uning natijalarini tahlil qilishga doir fikr bayon etilgan.*

***Аннотация:*** *В статье раскрываются предмет, цель и задачи педагогического эксперимента с целью обоснования практики проектирования творческой деятельности учащихся в сфере родного языка, описания ее особенностей, описания хода эксперимента и анализа его результатов.*

***Abstract:*** *The article describes the subject, purpose, and tasks of the pedagogical experiment in order to justify the practice of designing students' creative activities in mother tongue education, to describe its specific features, to describe the course of the experiment, and to analyze its results.*

***Kalit so'zlar:*** *ona tili, boshlang'ich sinf, ijodiy ta'lim, ijodiylik, ijodiy faoliyat, loyiha, loyihalashtirish, tafakkur, ta'lim jarayoni, samaradorlik, pedagogik tajriba, boshqarish, nazorat qilish, davlat ta'lim standarti, o'quvchi.*

***Ключевые слова:*** *родной язык, начальный класс, творческое образование, творчество, творческая деятельность, проект, проектирование, мышление, учебный процесс, эффективность, педагогический опыт, управление, контроль, общеобразовательный норматив, читатель.*

***Keywords:*** *mother tongue, primary class, creative education, creativity, creative activity, project, designing, thinking, educational process, efficiency, pedagogical experience, management, control, public education lim standard, reader.*

Izohli-ko'rgazmali ta'lim eng ko'p qo'llaniladigan ta'lim turi bo'lib, qator afzalliklarga ega. Biroq ushbu ta'limning xotiraga mo'ljallanganligi, o'quvchilarning o'quv-tarbiya jarayonidagi sust ishtiroki, teskari aloqaning umumiy xarakteri kabilar izohli-ko'rgazmali ta'limning kamchiliklarini ko'rsatadi. Bu kamchiliklarni bartaraf etishda ijodiy ta'lim imkoniyatlari nihoyatda katta. Ijodiy ta'limning o'ziga xos jihatlari bor: ta'lim mazmunining didaktik ishlov berilganligi, o'quv-tarbiya jarayonining ham xotiraga, ham tafakkurga mo'ljallanganligi, o'quvchilar o'zlashtirishining individualligi, ta'limda o'quvchilar faolligi kabi xususiyatlar ijodiy ta'limning o'zigagina xos sifatlardir[1]. Ularga rioya qilish ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishga olib keladi. Ana shularga ko'ra ijodiy ta'lim sharoitida o'quv ishlarining samaradorligini oshirish pedagogik tajriba predmeti sifatida belgilandi.

Pedagogik tajriba predmeti, maqsadini nazarda tutib quyidagilarni pedagogik-metodik jihatdan hal qilishni tajriba vazifalari deb belgiladik.

I. Pedagogik tajriba predmetini aniqlash, maqsadini rasmiylashtirish. Ijodiy ta'limning samaradorlik darajasini o'rganish, ta'lim samaradorligini oshirishga yo'nalgan omillarni tahlil qilish yo'li bilan samaradorlik aniqlanib, tadqiqot maqsadi shakllantirildi.

II. Ijodiy ta'lim munosabati bilan boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini o'qitish tizimiga kiritilgan yangiliklarni tavsiflash. Ona tili ta'limini o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish asosida umumiy o'rta ta'lim maktablarida o'qitish shart-sharoitlari yangilandi, ta'limni tashkil etish, boshqarish, nazorat qilishga yaroqli loyihalash konseptsiyasi yaratildi.

III. Pedagogik tajriba samaradorligini o'rganish va tavsiflash uchun ijodiy ta'limni izohli-ko'rgazmali ta'limga taqqoslash shakllarini qayd qilish. Bu vazifani sifatli hal etish maqsadida o'qituvchilar izohli-ko'rgazmali va ijodiy ta'limga oid dars qurilishi bilan tanishtirildi, ularga tegishli tavsiyalar berildi.

IV. Ijodiy ta'lim sharoitida o'quvchilarda yuz beradigan individual o'zgarishlarni izchil qayd etish. Bu maqsadda o'quvchilarni individual kuzatish rejasi ishlab chiqildi[2]. Unda o'quvchilar tomonidan o'quv materialiga oid axborotlarni qabul qilishdagi aniqlik; topshiriqlarni aniq, to'liq, diqqat bilan bajarish; bilishga qiziqish, topshiriqlarni mustaqil belgilash kabi xususiyatlar qayd etildi.

V. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishning samaradorlik bilan bog'liq xususiyatlarini o'rganish. Dasturning samaradorligi u nima maqsadda foydalanilishidan tortib loyihalash jarayonigacha bo'lgan elementlarga bog'liq bo'lib, uni bir mezon bilan baholash qiyin. Shunday bo'lsa-da, ona tili ta'limini loyihalashtirish dars samaradorligining asosiy xususiyati sifatida qaraladi. Loyihalashtirishning ishonchliligi deganda undagi xatolarning bartaraf qilinganlik darajasi tushuniladi.

Har bir darsning loyihasi va uning bajarilishidagi shartlar aniq belgilangan bo'lishi lozim. Pedagogik tajriba jarayonidagi bu xususiyatlarning dars samaradorligiga ta'siri ham o'rganildi.

VI. Tahlil qilish uchun natijalarni to'plash. Pedagogik tajriba natijalarini sonlar vositasida qayd etish va statistik metodlar asosida qayta ishlash qo'llaniladigan uslubiyatlarning farqliligini va birining ikkinchisidan ustunligini ko'rsatuvchi usuldir[3].

Boshlang'ich sinf ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirishning psixologik, pedagogik, metodik asoslarini o'rganish, loyihalashtirishning xususiyatlari bilan bog'liq xususiy muammolarni yechish yo'llarini izlashdan iborat. Buning uchun ishni ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish asosida darslarni tashkil qilish o'quvchilar bilim saviyasini oshiradimi yoki pasaytiradimi degan savolga javob izlashdan boshladik. Shu maqsadda to'rtta umumiy o'rta ta'lim maktabini tanlab, tajriba uchun ajratilgan har bir sinfda 5 tadan dars kuzatildi.

Darslar odatdagi o'qitilayotgan sinflarda tashkil qilinganda, o'quvchilar ta'limda sust ishtirok etishdi, har bir mashg'ulotda 2-3 ta mashq bajarishgagina ulgurishdi, xolos. O'quvchilarning aksariyati darsda "kuzatuvchi"dek qatnashdi. Qolgan o'quvchilarning ham o'qituvchi savollariga bergan javoblaridan ularning o'quv materialini to'liq o'zlashtirmaganliklari aniqlandi. Darsda o'quvchilar bilimini baholash ham qisman amalga oshirildi va baholash odilona bo'lmadi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish vositasida ma'lum tayyorgarlik loyiha asosida tashkil qilingan darslarda o'quvchilar faolligi kuzatildi. O'quvchilar bir darsda 4-5 ta mashq bajarishga ulgurdilar va ularning o'qituvchi savollariga javoblari ham asosli bo'ldi. O'quvchilarning baholanish darajasi oshdi. Darsda o'quvchilarni faollashtirishga mo'ljallangan loyihalardan foydalanilganda esa sinf o'quvchilarining bilimini to'liq va haqqoniy baholashga erishildi.

Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish muammosining maktab amaliyotidagi ahvoli tahlil qilinadi. Ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish tajribasini tizim sifatida qarab, ijodiy ta'lim amaliyoti xususiyatlarini ajratishga, maktab o'qituvchilarining ijodiy ta'lim to'g'risidagi fikrlarini qayd etishga harakat qilamiz. Boshlang'ich sinf ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish amaliyotining real ahvoli va o'qituvchilarning o'z fikrlarini bir-biri bilan taqqoslab ijodiy ta'limning kuchli hamda zaif tomonlarini ajratamiz.

1. Boshlang'ich sinflarda ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish tajribasi. Ona tili ta'limini ijodiy tashkil etish bo'yicha mavjud tajribani o'rganish va umumlashtirish maqsadida ilg'or o'qituvchilarning darslari kuzatilib, yozib olindi. Darslarni kuzatish va qayd etish jarayonlarida quyidagi savollarga javob izlandi:

a) ijodiy ta'limning maqsadi bilan daxldor savollar-ta'limni ijodiy tashkil etishning maqsad, vazifalari, tanlangan o'quv topshiriqlarining ijodiy ta'lim maqsadi, vazifalariga mosligi;

b) ijodiy ta'lim mazmuni bilan daxldor savollar-ijodiy o'quv topshiriqlarining mazmuni nimalarga ko'ra aniqlanadi, ijodiy topshiriqlarning o'quv materiali mazmuniga mosligi, o'qituvchilarning real o'quv imkoniyatlariga muvofiqligi, u yoki bu ijodiy ishning o'quv topshiriqlari tizimidagi o'rni;

v) ijodiy ta'limning jarayoniy xususiyatlari bilan aloqador savollar-ijodiy topshiriqlarning dars turi, bosqichlariga mosligi, ijodiy ta'limda o'qituvchilarning real o'quv imkoniyatlari, ishlash tempi bilan bog'liqligi, ijodiy ishlarni bajarishda foydalaniladigan usullar, ijodiy topshiriqlarni bajarishda oldin o'rganilgan bilim va faoliyat usullarini qo'llash, yangi bilim

---

*1 Розиқов О.Р. Ўзбек тилидан дарс типлари. Тошкент, "Ўқитувчи". 1976. 123 б.*

*2 Саидаҳмедов Н., Очилов А. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. –Т.: 1999. -55 б.*

*3 Неъматова Г. Ижодий тафаккурни ривожлантириш технологияси ва ўқитувчининг мустақил фаолияти. Она тили ўқитувчилари учун методик тавсиялар. – Тошкент, 2001. – 96*

va faoliyat usullarini qayd qilish vositalari;

g) ijodiy ishning natijasi bilan daxldor savollar-u yoki bu ijodiy ishning o'quvchilar uchun ahamiyati, o'quv topshiriqlarining o'quv materiali mazmunini to'liq o'zlashtirish talablariga yetarligi, ijodiy ishlarning o'qituvchilarda mustaqil faoliyatni shakllantirishdagi roli va sh.k.

Darslarni kuzatish va qayd qilishda prof. O.Roziqov ishlab chiqqan dars turlarini asos qilib oldik[4]. Bunda quyidagi dars turlari qayd qilingan: yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darslari; o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari; bilim va malakalarni umumlashtirish darslari; bilim va malakalarni nazorat qilish darslari[5]. Ta'limni ijodiy tashkil etish muammosi bo'yicha 200 dan ortiq dars qayd qilinib, yozib olindi. Ijodiy ishlarni tashkil etishga oid kuzatilgan darslar taqsimoti 1.1-jadvalda keltirildi.

Ijodiy ishlarni tashkil etishga oid kuzatilgan darslar taqsimoti

1.1-jadval

| Kuzatilgan darslar miqdori | Dars turlari | | | |
|---|---|---|---|---|
| | Yangi mavzuni o'rgatish va mustahkamlash darsi | O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darsi | Bilim va malakalarni umumlashtirish darsi | Bilim va malakalarni nazorat qilish darsi |
| 200 | 57 | 123 | 8 | 12 |

Jadvaldan ko'rinadiki, ona tiliga oid dars turlarining har birida ijodiy ta'limni tashkil etish imkoniyatlari nihoyatda keng. Birinchi dars turi-ona tilidan yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darsining yadrosi o'qituvchilarni yangi mavzuni o'rganishga tayyorlash, yangi ta'rif, qoidalarni, mavzuga oid dalillarni idrok qilishni ta'minlash, idrok qilingan faoliyatdan ilk bor o'tgan bilim, faoliyat usullarini mustahkamlashdan iborat. Ta'lim jarayonida muammolar qo'yish, savollarni o'rtaga tashlash, qiyin o'quv holatlari hosil qilish yo'llari bilan o'quvchilar diqqati yangi mavzu va unga oid dalillarga tortiladi, mavzuni o'qitish maqsadi tushuntiriladi. Binobarin, o'quvchilarga o'z maqsadlarini mustaqil belgilashga jalb qilish, qo'yilgan muammoning qiyinligini anglatish, qo'yilgan savollarga javob izlatish yo'llari orqali ham ta'limning samaradorligini oshirish, o'qituvchilarni ijodiy ishlashga undash mumkin. Darsning ikkinchi bosqichi-yangi bilim va faoliyat usullarini idrok etish bosqichida ham o'quvchilarning ijodiy izlanishlarini o'tkazish imkoniyatlari bisyor topiladi: oldin o'rganilgan mavzuga va endi o'rganilayotgan mavzuga oid dalillarni o'zaro taqqoslash, mavzuga oid dalillarni kuzatish, kuzatilgan dalillardan xulosalar chiqarish, chiqarilgan xulosani darslikda berilgan ta'rif, qoidaga taqqoslash. Bu ko'rinishdagi o'quv yumushlari o'qituvchilarning ijodiy mustaqil faoliyatini ta'minlaydi. Xuddi shunga o'xshab, mavzu o'rganilgach, uni mustahkamlash bosqichida ham turli-tuman ijodiy ishlarni o'tkazsa bo'ladi. Bunday ko'rinishdagi ijodiy ishlar sirasiga o'rganilgan ta'rif, qoidalarni yangi dalillarga ko'chirish, ta'rif, qoidalarni yangi o'quv holatiga tatbiq qilish kabi ijodiy ishlar kiradi. Bulardan ayon bo'ladiki, dars turlarining har birida o'qituvchilarni ijodiy ishlarga jalb qilish imkoniyatlari nihoyatda ko'p bo'lib, ularni metodik jihatdan to'g'ri belgilab olish dolzarb muammo sanaladi. Shu munosabat bilan o'qituvchilar tajribasiga murojaat qilamiz: yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash dars tipi bo'yicha 57 ta mashg'ulot kuzatilib, ularda hammasi bo'lib 25 marta ijodiy ish tashkil etildi. Har bir ijodiy ishga o'rtacha 3 minutdan vaqt ajratildi. Ijodiy ishlar darsning asosiy bosqichlariga taqsimoti 1.2-jadvalda keltirildi.

Yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darslarida ijodiy ishlarning miqdori.

1.2-jadval

| Yozib olingan darslar miqdori | O'quv vaqti (minut hisobida) | Darsning asosiy bosqichlari | | | Ijod. ish uchun ajrat. vaqt (%hisobida) |
|---|---|---|---|---|---|
| | | Yangi o'quv materialini o'rganishga tayyorgarlik | Yangi o'quv materialini o'rgatish | Yangi o'quv materialini mustahkamlash | |
| 57 | 2565 | 12 | 33 | 30 | 75 |
| (%) hisobida | 100 | ≈2,3 | ≈6,2 | ≈5,3 | ≈13,8 |

Jadvaldan ikki xil xulosa chiqarish mumkin: avvalo, ona tili darslarining birinchi turida ijodiy ishlarni tashkil etishga nihoyatda oz vaqt ajratilsa-da, ahyon-ahyonda o'tkazilib turiladi; ammo shunga qaramasdan ona tili mashg'ulotlarida o'qituvchilarning ijodiy ishlariga nihoyatda oz vaqt ajratiladi. Har bir ijodiy ishni tayin etish va bajartirish uchun o'rtacha 3 minut vaqt beriladi. Yangi o'quv materialini o'rgatish va mustahkamlash darslarida umumiy vaqt byudjetining taqriban 14%i ijodiy ishlarga sarflanadi. Vaqt byudjetini

4 Розиқов О.Р. Ўзбек тилидан дарс типлари. Тошкент, "Ўқитувчи". 1976. 32 б.

5 Розиқов О.Р. Ўзбек тилидан дарс типлари. Тошкент, "Ўқитувчи". 1976. 34-68 б.





bu shaklda taqsimlash o'qituvchining faolligiga asoslangan bo'lib, unda yangi o'quv materiali, asosan, deduktiv yo'l bilan tushuntiriladi.

Ikkinchi dars turi-o'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darsida o'rganilgan mavzular bo'yicha malakalar takomillashtiriladi. Biz shu tipdagi darslardan 123 tasini yozib olganmiz. Kuzatilgan darslarda, asosan, darslik mashqlari ustida ish qilinadi. O'tganlarni takrorlash va malaka hosil qilish darslari o'qituvchilar xotirasiga mo'ljallangan bo'lib, ularda bilimlarni o'xshash sharoitlarga tatbiq qilish kabi o'quv yumushlariga ko'p vaqt ajratiladi. Bu o'z navbatida ijodiy topshiriqlarni ta'limga tatbiq etish uchun juda oz vaqt ajratishga olib kelmoqda. Kuzatilgan darslarda hammasi bo'lib, 103 marta ijodiy ish o'tkazilib, o'rtacha 5 minutdan vaqt sarflandi. Ijodiy ishlarning barchasi o'rganilgan bilimni berilgan holatlarga tatbiq qilish xarakterida edi.

Ona tili darslarining navbatdagi turi bilim va malakalarni umumlashtirish darsi deb yuritiladi. Bu dars turida bilim, malakalar tushuncha darajasida o'zlashtiriladi. Ammo aksariyat maktab o'qituvchilari faoliyatida bu dars turi farqlanmaydi. Bilim va malakalarni o'zlashtirish darslarining o'zigagina xos qator belgilari bor: ikki yoki undan ortiq mavzuga oid dalillarni o'zaro taqqoslash. Masalan, shunday topshiriq berilgan bo'lsin: ikkita ustunda so'zlar berilgan. Ularni o'zaro taqqoslab, har birining o'ziga xos so'roqlarini aniqlab, so'ngra har bir ustundagi so'zlar nimani anglatishini ustiga yozing.

| 1-ustun | 2-ustun |
|---|---|
| muhandis | qizil |
| quruvchi | zangori |
| shifokor | binafsha |

Yuqorida qayd qilinganidek, bilim va malakalarni umumlashtirish darslarining asosida tushuncha darajasida umumlashtirish yotadi. "Tushuncha darajasida umumlashtirishda ma'lum grammatik hodisaning his qilinayotgan aniq belgilari emas, balki uning umumiy xususiyatlari nazarda tutiladi. Bunda asos qilib olingan xususiyat o'rganilgan hodisalarning bir qanchasi uchun mushtarak hisoblanadi. Mashg'ulotlarda yuqori darajada abstraktsiyalashni ta'minlaydigan topshiriqlardan foydalaniladi"[6]. Masalan, otlarda birlik va ko'plikning qo'llanishini o'rgatish uchun birlik (qalam) va ko'plik (qalam+lar) o'zaro taqqoslanadi: -lar qo'shimchasining boshqa belgilari (hurmat, kesatish, tur ma'nolarini bildirishi) hisobga olinmaydi, -lar qo'shimchasining umumiy xususiyati sifatida ko'plik ma'nosi, ko'plikning ziddi sifatida birlik ma'nosi ajratiladi. Umumlashtirish mashg'uloti shu ikki xil belgi-ko'plik va birlik atrofida tashkil etiladi.

Bir guruhda an'anaviy metodika asosida, ikkinchisida ona tili ta'limida o'quvchilarning ijodiy faoliyatini loyihalashtirish vositasidan foydalanib dars o'tib, kelgusi darsda o'quvchilarning oldingi dars bo'yicha olgan bilimlari tekshirilganda tajriba guruhi o'quvchilarining o'zlashtirish darajasi yuqori bo'lganligi aniqlandi. Kuzatishlar, nazorat ishlarining natijalari, o'qituvchi va o'quvchilar bilan o'tkazilgan suhbatlar natijasida ona tili darslarini pedagogik va metodik jihatdan asoslangan loyihalar zamirida tashkil qilganda o'quvchilar bilim saviyasini oshirish mumkin degan fikrga keldik.

6 Саидаҳмедов Н., Очилов А. Янги педагогик технология моҳияти ва замонавий лойиҳаси. –Т.: 1999. -64 б.

# TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALARNI QO'LLASH ASOSIDA TALABALARNING ILMIY TAFAKKURINI RIVOJLANTIRISH METODIKASI

**Pokiza Muzaffarovna Jalolova** - *p.f.d. professor, Shahrisabz davlat pedagogika instituti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada vodorod atomi kvant mexanik nazariya asosida talqin qilingan, Shredinger tenglamasi bo'yicha kvant mexanik parametrlarni tushuntirishga oid virtual ishlanma yaratish va uning natijalari yoritilgan. Nazariy ma'lumotlar yaratilgan atomning holat modellari asosida taqqoslanib, kompyuter dasturlari yordamida modellashtirilgan ishlanma to'g'risida ilmiy tushunchalar keltirilgan. Atom fizikasi fani bo'yicha masalalarni yechishda qo'yilgan metodik va ilmiy talablar, ularni amalga oshirish usullari yoritilgan. Kvant mexanik parametrlar asosida atom orbitalarida elektronlar harakatini tavsiflovchi funksiyalar va modellarning jadvali keltirildi. Atom fizikasi bo'limini raqamli texnologiyalardan foydalanib o'qitish orqali talabalarning kasbiy tayyorgarligini rivojlantirishning metodik modeli maqsadli, mazmunli, texnologik-jaryonli va diagnostik-natijaviy komponentlarni virtual fazoda sinxron modifikatsiyalash orqali uzviylashtirish hamda fizika o'qitishning didaktik, metodik, texnologik va pedagogik shart-sharoitlarini ta'minlash asosida ishlab chiqilgan.*

***Аннотация:*** *В этой статье атом водорода интерпретируется в соответствии с квантово-механической теорией, чтобы создать виртуальную разработку, объясняющую квантово-механические параметры в соответствии с уравнением Шредингера, и освещаются его результаты. Теоретические данные сравниваются на основе моделей состояния создаваемого атома и дается научное понимание разработки, смоделированной с помощью компьютерных программ. Освещаются методические и научные требования, предъявляемые при решении задач по науке атомной физики, способы их реализации. Приведена таблица функций и моделей, описывающих движение электронов по атомным орбитам на основе квантово-механических параметров. Разработана на основе оптимизации через синхронную модификацию в виртуальном пространстве целевого, содержательного, технологически-процессуального и диагностико-результативного компонентов, а также обеспечения дидактических, методических, технологических и педагогических условий преподавания физики методическая модель развития профессиональной подготовки студентов посредством преподавания раздела атомная физика с использованием цифровых технологий.*

***Abstract:*** *In this article, the hydrogen atom was interpreted on the basis of quantum mechanical theory, creating a virtual development on the explanation of quantum mechanical parameters according to the Schrödinger equation, and its results are covered. Theoretical data is compared on the basis of State models of the created atom, providing scientific insights into the development modeled using computer programs. The methodological and scientific requirements set in solving issues in the science of atomic physics, the methods of their implementation are covered. On the basis of quantum mechanical parameters, a table of functions and models describing the movement of electrons in Atomic orbits was presented. The methodical model of the development of students' professional training by teaching the atomic physics department using digital technologies was developed on the basis of integration of targeted, meaningful, technological-flow and diagnostic-resultative components through synchronous modification in virtual space and provision of didactic, methodical, technological and pedagogical conditions of teaching physics.*

***Kalit so'zlar:*** *vodorod, metod, masala, atom, orbita, elektron, foton, virtual model, to'lqin, kvant son, energiya, tenglama.*

***Ключевые слова:*** *водород, метод, проблема, атом, орбита, электрон, фотон, виртуальная модель, волна, квантовое число, энергия, уравнение.*

***Keywords:*** *hydrogen, method, masala, atom, orbit, electron, photon, virtual model, Wave, quantum number, energy, equation.*

Mamlakatimiz ta'lim tizimining bo'lajak mutaxassislarni tayyorlash jarayonida raqamli texnologiyalarning tatbiqini yanada takomillashtirish, zamonaviy bilim va yuksak ma'naviy-axloqiy fazilatlarga ega, mustaqil fikrlaydigan yuqori malakali kadrlar tayyorlash





jarayonini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish, zamonaviy o'qitish uslublarini joriy etishning xalqaro amaliyotga muvofiq ta'lim jarayonini tashkil etish, ta'limning zamonaviy shakllari va axborot-kommunikatsiya texnologiya vositalarini joriy etgan holda ta'lim jarayonini sifat jihatidan yangilash, ta'lim muassasalarini xalqaro indeks va reytinglarga kiritish, oliy ta'lim, fan va ishlab chiqarishning o'zaro mustahkam integratsiyasini ta'minlash borasida keng qamrovli ishlar belgilangan bo'lib, shu asosda bo'lajak fizik mutaxassislarni ilmiy-tadqiqot hamda pedagogik faoliyatga tayyorlash tizimining elektron metodik ta'minoti va mexanizmlarini takomillashtirish katta ahamiyat kasb etadi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 19-martdagi PQ-5032-son «Fizika sohasidagi ta'lim sifatini oshirish va ilmiy tadqiqotlarni rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida», 2019-yil 7-fevraldagi PQ-4165-son 2019-2029-yillarda «O'zbekiston Respublikasida atom energetikasini rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida», 2019-yil 16-oktyabrdagi PQ-4492-son «O'zbekiston Respublikasining Yadro-energetika dasturi uchun kadrlar salohiyatini rivojlantirish strategiyasini tasdiqlash to'g'risida» qarorlari hamda mazkur sohaga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu tadqiqot ma'lum vazifani bajaradi.

Atom fizikasi hodisalarini o'rganishning o'ziga xos xususiyati va nazariyaning konseptual apparati atom fizikasi asosida o'rgatish jarayonida simulyatsiya-modellashtirish dasturlaridan foydalanish zarurligini taqozo etadi. Ushbu bo'limni o'rgatish jarayonida simulyatsiya dasturlaridan foydalanish xususiyatlari, avvalo, o'rganish sohasi, kvant nazariyasining o'ziga xosligi va xususiyatlari bilan tavsiflanadi. Fizikaning boshqa sohalarida (masalan, klassik mexanika, optika, statistik fizika) talabalar tasavvurga ega bo'lishi mumkin bo'lgan haqiqiy obyektlarning xususiyatlarini o'rganadilar. Atom fizikasida talabalar fizik haqiqatning matematik modeli bilan ishlashadi. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, mikrojarayonlar fizikasini «tasavvur qilish» mumkin emas, ammo zamonaviy kompyuter texnologiyalarining imkoniyatlari matematik fizika tenglamalarini yechish natijalarini grafik izohlashga imkon beradi. Bu hisoblash tajribasini tabiiy tajribaga yaqinlashtiradi[1]. Fizika yo'nalishi talabalarining atom fizikasi bo'limiga oid ilmiy tasavvurlarini raqamli texnologiyalarning tekshiruvchi, grafik tacvirlovchi va uzatuvchi kabi masofaviy ta'lim komponentlarining interaktiv imkoniyatlaridan foydalanib o'qitishning tashkiliy-metodik ta'minoti fizik jarayonlarni vizualllashtirish va modellashtirish imkonini beradigan raqamli texnologiyalarga (MX Media Flash; Java) ustuvorlik berish asosida mazmunan rivojlantirishga qaratilgan dasturiy ishlanmalar ta'lim uchun zarurdir.

Masala yechish malakasi uzoq va tizimli mashqlar natijasida egallanadi. Masala yechishni o'rganish va laboratoriya ishini bajarishga tayyorgarlik ko'rish uchun darsliklarning navbatdagi bo'limini o'rganib bo'lgach, masala yechish namunalarini diqqat bilan o'rganish, "Mustaqil yechish uchun masalalar" bo'limidagi masalalarni yechish, shuningdek, fizikadan masalalar to'plamlaridan bir qator masalalarni yechish kerak bo'ladi. Mustaqil yechish uchun masalalarni nazorat ishida yechish uchun ko'zda tutilgan masalalarning elementlarini o'z ichiga olgan holda tanlanishi ta'lim jarayonida zarurdir. Shuning uchun ham bu masalalarni yechish talabani nazorat ishini bajarishga tayyorlaydi. Talabalar atom fizikasi kursida amaliy mashg'ulotlar uchun murakkab bosqichni o'taydilar. Atom fizikasi kursi klassik mexanika va kvant mexanikasi orasida ko'prik vazifasini bajaruvchi bo'lim hisoblanib, talabalardan oliy fizika kursi va oliy matematika kursini puxta o'zlashtirish bilan birga kimyo fanidan ham bilimlarni talab etadi. Quyida misollar keltiramiz.

Masala: Yadro atom markazida 1S-elektron hosil qilingan elektrostatik potensiallarni toping.

Yechilishi:

Vodorod atom markazida yadrodan r masofada elektron hosil qilingan potensial

$$\varphi = \frac{1}{4\pi\varepsilon_0}\int\left(\frac{\rho}{r}\right)\bullet r^2 dr \qquad (1)$$

Bunda $\psi_{1s}^2(r)\rho$ elektron zaryadning hajmiy zichligi 1S-eletronning formulasi

$$\psi_{1s}(r) = 2\left(\frac{1}{r_1}\right)^{3/2}\bullet e^{-r/r_1}. \qquad (2)$$

u holda

$$\rho = -\frac{4e}{r^3}\exp\left(\frac{2r}{r_1}\right) \qquad (3)$$

bunda e – elektron zaryad, – Bor radiusi. (3) ni (1)ga qo'ysak;

1 Jalolova P.M. Methods of atomic physics classes organization based on e-learning technologies // European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, 2020. No 12. – Pp. 1547–1553

# ZAMONAVIY MAKTABDA HAQIQIY SONLAR MAVZUSINI O'QITISH METODIKASI

***Murod Barakayev*** - *p.f.n., professor, Toshkent davlat pedagogika universiteti*
***Abduvali Shamshiyev*** - *i.f.n., dotsent, Jizzax davlat pedagogika universiteti*
***Gulnora G'oyibnazarova*** - *p.f.n,. dotsent, Alfraganus universiteti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada zamonaviy matematika o'qituvchisini samarali tayyorlashda imkoniyatlari "Haqiqiy sonlar mavzusini o'qitish metodikasi" misolida ochib berilgan. Bunda "Haqiqiy sonlar" mavzusini o'qitish metodikasiga turli yondoshuvlar, ularning afzalliklari, bevosita mazkur mavzuni samarali o'qitish imkoniyatlari asoslab berilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье раскрыты возможности эффективной подготовки современного учителя математики на примере "методики преподавания темы действительных чисел". При этом были обоснованы различные подходы к методике преподавания темы" действительные числа", их преимущества, возможности эффективного преподавания непосредственно данной темы.*

***Abstract:*** *This article reveals the possibilities of effective training of a modern mathematics teacher on the example of "methods of teaching the topic of real numbers". At the same time, various approaches to the methodology of teaching the topic "real numbers", their advantages, and the possibilities of effective teaching of this topic directly were substantiated.*

***Kalit so'zlar:*** *metodika, son, haqiqiy son, mavzuni o'qitish metodikasiga turli yondoshuvlar, darslarni didaktik sxemasi, mavzu bo'yicha darslarga tayyorlanish sxemasi.*

***Ключевые слова:*** *методика, число, действительное число, различные подходы к методике преподавания темы, дидактическая схема уроков, схема подготовки к урокам по теме.*

***Keywords:*** *methodology, number, real number, various approaches to the methodology of teaching the topic, didactic scheme of lessons, scheme of preparation for lessons on the topic.*

Maktabda "Haqiqiy sonlar" mavzusini o'rganish zarurati algebra kursini o'rganish ehtiyojlaridan kelib chiqadi va uni maktab matematika kursida o'rganish haqiqiy sonlar to'plamining sonli sistemalarni ko'rib chiqish yakunlanadi.

Haqiqiy son tushunchasi metrik geometriya va geometrik miqdorlarni o'lchash asosida yotadi va bu sonlarsiz: sonli ketma-ketlik va funksiya tushunchalarining ta'rifini aniqlash mumkin emas. Boshqacha qilib aytganda, haqiqiy sonlarsiz maktabda matematik analiz asoslarini kiritish imkoni bo'lmas edi.

"Sonli to'plamlar", "Haqiqiy sonlarning xossalari" kabi mavzularni o'rganishda to'plam nazariyasi elementlariga duch kelinadi. Bu davrda, garchi "teng quvvatli to'plamlar" tushunchasining ta'rifi berilmagan bo'lsa-da, to'plam elementlari orasida o'zaro bir qiymatli moslik o'rnatish qaraladi[1].

Maktab matematika kursida "Haqiqiy sonlar" mavzusini o'rganishning asosiy maqsadi: o'quvchilar tomonidan ilgari o'rganilgan ratsional va irratsional sonlar haqidagi bilimlarni umumlashtirish va tizimlashtirishdan iborat bo'lib, bunga erishishda quyidagilarga erishishni ta'minlash talab etiladi:

irratsional sonlarning cheksiz davriy bo'lmagan o'nli kasrlar sifatidagi ta'rifiga asoslanib, haqiqiy sonlar ustida arifmetik amallarni bajarilishini asoslash;

haqiqiy sonlar to'plami yordamida cheksiz to'plamlarining quvvati va haqiqiy sonlarning ma'lum bir amallarga nisbatan yopiqligi tushunchalarini kiritish;

haqiqiy sonlar to'plamida tartib munosabatlarini kiritish va ularni ilgari ma'lum bo'lgan sonli tengsizliklarning xossalari yordamida isbotlashni ko'rib chiqish;

o'nli yaqinlashishlar, xatoni baholash metodi va taqribiy hisoblashlarning formulalaridan foydalanish imkoniyatlari bilan tanishish;

kvadrat ildiz chiqarish ko'nikmalarini rivojlantirish;

ko'paytma, kasr va darajadan kvadrat ildizni olish qoidalarini isbotlash[2].

Mazkur mavzuni ko'rib chiqishni sonli

1 Алгебра и начала математического анализа [Текст] : учебник для 10 класса / С. М. Никольский [и др.].– 7-е изд., испр. – М. : Просвещение, 2008. –с.10

2 Виленкин Н.Я. Рабочая программа по алгебре 8 класс для школ с углубленным изучением математики УМК Н.Я. Виленкин. – URL: http://gymnasia35.ru/upload/dokumenty/





sistemalarni o'rganishning quyidagi metodik sxemasini o'rganishdan boshlash maqsadga muvofiq. Maktab matematika kursida sonli to'plamlar quyidagi sxema bo'yicha o'rganiladi (1-sexema).




1-sxema

Turli sonli to'plamlarni o'rganish tarixiy va mantiqiy ehtiyoj asosida amalga oshiriladi, yani sonli to'plamning kengayishi ba'zi amallarni amalga oshirishning mumkin emasligi bilan bog'liqdir.

Umuman, haqiqiy son tushunchasi matematikaning asosiy tushunchalaridan biri bo'lib, o'quvchilar u haqida yetarli bilimga ega bo'lmasdan turib, unga asoslangan matematik ta'limni o'zlashtirishda qiyinchiliklarga duch kelishadi. Ayniqsa, miqdorlarning taqribiy qiymatini topish, ketma-ketlik chegaralarini aniqlash va funksiyalar hosilalarini hisoblash kabilarni o'rganishda qiyinchiliklarga duch kelishadi.

O'quvchilar tomonidan "Haqiqiy sonlar" modulini o'rganish jarayonida quyidagilarni o'zlashtirishi kerak:

butun son, sonarning bo'linishi, oddiy kasr, o'nli kasr, ratsional son, sonning taqribiy qiymati, qism, ulush, nisbat, foiz, masshtab haqiada ma'lumotga ega bo'lishi;

butun va ratsional sonlar bilan arifmetik amallarni bajara olishi;

sonlarning darajalari yoki ildizlarini o'z ichiga olgan sonli ifodalarning sodda shakl almashtirishlarni bajara olishi;

ratsional sonlarni taqqoslay olishi;

butun ko'rsatkichli daraja va natural sondan ildiz chiqarish natijasini ratsional son orqali ifodalashi baholash va taqqoslash;

koordinata o'qida butun va ratsional sonlarni tasvirlang;

butun va kasr-ratsional ifodal ustida sodda shakl almashtirishlarni bajara olishi va h.k.

Agar o'quvchi yuqoridagilarni egallasa, u holda:

tushunchalar bilan erkin ishlash, ya'ni butun son, sonlarning bo'linishi, oddiy kasr, o'nli kasr, ratsional son, sonning taqribiy qiymati, qism, ulush, nisbat, foiz, masshtab tushunchalari bilan ishlash ko'nikmalarini egallaydi;

og'zaki va yozma ravishda arifmetik amallarni bajarish ko'nikma va malakalarini egallaydi;

harfiy ifodalarini shakl almashtirishlarni o'ziga oldindan ma'lum bo'lgan formulalar va qoidalarga asoslangan holda bajara oladi;

kerakli shakl almashtirishlarni amalga oshirgan holda sonli va harfiy ifodalarning qiymatini topa oladi va h.k.

Ma'lumki, X-XI sinf algebra kursi dasturida katta miqdordagi yangi materiallar o'rganish talab etiladi. Bu sonlar haqidagi ma'lumotlarni umumlashtirish uchun qo'shimcha vaqt ajratishni talab etadi va u o'qituvchi uchun qiyin bo'lishi bilan bir qatorda mazkur materiallarni o'quvchi tomonida idrok etish ham ancha murakkab jarayon hisoblanadi. Shuning uchun ham haqiqiy sonlar tushunchasi bilan bog'liq o'quv materiallarini o'quvchilar tomonidan yetarli darajada o'zlashtilishiga erishish o'qituvchidan alohida e'tibor va mehnatni talab qiladi.

Maktab o'quv dasturida π va e irratsional sonlar o'rganilib, ular irratsional sonlarni yaxshiroq o'zlashtirishda muhim o'rin tutadi. Shuning uchun, bu sonlarning mavjudligi va matematikada qo'llanilishini amaliy mazmindagi misollar yordamida ko'rsatishi kerak. π soni dastablab planimetriya kursida aylana tushunchasini o'rganishda qaraladi va aylana bilan bog'liq formulalarda, stereometriya kursida esa aylanma jismlarining sirtni va hajmini hisoblashda ishlatiladi. Odatda, maktab bitiruvchilari "π soni aylana usunligining uning diametri uzununligiga nisbatini" ifodalovchi doimiy miqdor ekanligini bilishi, eslab qolishi va bu son qatnashgan formulalardan amaliy foydalanishni bilishi shart hisoblanadi.

Shuni alohida ta'kidlash kerakki, o'quv materialining mazmuni va maktab uchun zamonaviy darsliklarda haqiqiy sonlarni o'rganish uchun ajratilgan soatlar miqdori:

irratsional va haqiqiy sonlar tushunchalarini chuqur va aniq o'zlashtirishga;

programmy_obuchenija/matematika/8_ugl ublennyj_matematika_vilenkin_n.ja._atanasjan_l.s..pdf

sonli to‘plamlar bilan ishlash ko‘nikmalarini rivojlantirishga;

turli sonlar sistemasi haqida to‘g‘ri tasavurga ega bolishiga ma’lum ma’noda to‘sqinlik qiladi.

Mazkur qiyinchiliklarni bartaraf etish uchun o‘qituvchi darslarni quyidagi didaktik sxema asosida amalga oshirilishi maqsadga muvofiq hisoblanadi:

yangi materialni o‘rganish darsi;

ko‘nikmalarni rivojlantirish va mustahkamlash darslari;

bilimlarni boshqarish darsi;

umumiy dars;

birlashtirilgan dars.

Bunday sxema asosida darslarni tashkil etishda ularning sifati va samarasi o‘qituvchini ularga tayyorlanishining puxtaligi bilan belgilanadi. O‘qituvchini darsga tayyorlanish sxematik tarzda quyidagicha ifodalanishi mumkin[3].

1-bosqich. O‘quv dasturini o‘rganish. Dastlab o‘qituvchi fanning so‘ngra har bir o‘quv mavzusi oldida turgan asosiy maqsad va vazifalariga alohida e'tibor qaratilshi kerak. Muayyan o‘quv mavzusini o‘rgatishda u:

dastlab mazkur mavzu mazmunini o‘rganishi;

o‘quv materialining ilgari o‘rganilgan materiallar bog‘liqligini aniqlashi;

shuningdek, keyinchalik o‘rganilishi kerak bo‘lgan materiallar bilan mantiqiy bog‘liqligini tushunib yetishi shart hisoblanadi.

Yuqoridagilarga erishish o‘quv materialini o‘rganishning yaqin va uzoq maqsadlarini yanada chuqurroq va aniqroq shakllantirishga imkon beradi.

2-bosqich. Metodik adabiyotlarni o‘rganish. O‘qituvch dastur bo‘yicha har bir darsga tayyorlanishda:

o‘quv mavzusining mazmunini o‘rganib chiqishi;

amaldagi darslikning tegishli bo‘limlarini, o‘quv qo‘llanmalarini va metodik jurnallardagi maqolalarni ko‘rib chiqishi;

mavzuni o‘rganishning umumiy rejasi (tematik rejalashtirish) uchun materiallar to‘plashi;

tematik rejada o‘quv materialining darslarga bo‘linishi, materiallarning mantiqiy o‘zaro bog‘liqligini aniqlashi talab etiladi.

3-bosqich. Amaldagi darslik bo‘yicha ma’lum bir dars materialini o‘rganish. O‘qituvchi darslikni o‘rganib chiqishi, unda o‘quv materialini taqdim etishning mohiyati va uning o‘quvchilarining rivojlanish darajasiga mosligi, o‘quv materialini taqdim etishning mavjudligiga e'tibor qaratishi, mavzuni o‘qitish metodikasi bilan tanishib chiqishi talab etiladi.

4-bosqich. Dars mavzusi bo‘yicha maktabda mavjud bo‘lgan o‘quv vositalarini o‘rganish va tayyorlash. O‘qituvchi:

mavjud qo‘llanmalar bilan tanishishi va oldindan o‘quv filmlari ajratib olishi va ularni tomosha qilgan holda tahlil qilishi;

o‘quv televizion dasturlarining izohlari bilan tanishib chiqishi;

ovozli qo‘llanmalarda imkoniyat darajasida foydalanishi va h.k.

5-bosqich. Dars rejasini ishlab chiqish. Dars rejasi — bu o‘qituvchining darsga tayyorgarlik ishining yakuniy natijasi. Dars rejasi mavzuni o‘rganishda haqiqiy rivojlanishni hisobga olgan holda tematik reja asosida tuziladi. Mazkur reja asosida dars taqdimoti tayyorlanadi.

Haqiqiy sonlar nazariyasi XIX asrning ikkinchi yarmida Veyershtrass, R.Dedekind, G Kantorlat tomonidan yaratilgan bo‘lib, bu sonlar to‘plamining o‘ziga xos xususiyatlaridan biri – bu uning uzluksizligidir.

Maktabda haqiqiy sonlar mavzusini o‘rganishda o‘qituvchi quyidagilarni hisobga olishi majburiy hisoblanadi:

Umumiy o‘rta ta’lim darajasi va matematika chuqur o‘qitiladigan ta’lim yo‘nalishlari uchun standart va dastur talablarini amaldagi darslik bo‘yicha tahlil qilib chiqishi:

2) umumiy ta’lim darajasi va matematika chuquplashtirib o‘qitiladiga ta’lim yo‘nalishlari uchun mo‘ljallangan maktab darsliklarining mazmunini tavsiflash;

3) mavzuning amaliy qismini tavsiflash, bunda modulning qiyin elementlarni ajratib ko‘rsatish va qiyinchiliklarni bartaraf etishga yordam beradigan vazifalarni ishlab chiqishi;

4) mavzuni o‘qitish metodikasini ishlab chiqish, bunda:

manfiy bo‘lmagan sonning ildizi tushunchasini kiritish;

irratsional son tushunchasining kiritilishi;

haqiqiy son tushunchasini kiritish;

kadrat ildizlarning xossalari;

ildiz chiqarish amalini o‘z ichiga olgan ifodalarni shakl almashtirish;

funksiyalar, ularning xossalari va grafigi;

mavzu bo‘yicha eng qiyin muammolarni hal qilish va h.k.

Makrabda haqiqiy son tushunchasini kiritish odatda ildizni chiqarish muammosi bilan boshlanadi va uni kiritish jarayonida

3 *Barakayev M va b. Zamonaviylashuv sharoitida matematika fanini o‘qitish texnologiyalari (Umumta’lim maktablari o‘qituvchilari uchun metodik qo‘llama) - T.:, 2017-yil, "Zuhra Baraka biznes" MCHJ bosmaxonasi, 130 bet*





asosiy vazifa ratsional sonlar to‘plamini uzluksizlikka to‘ldirish hisoblanadi. Bu esa o‘z navbatida har qanday musbat sondan ildiz chiqarish muammosini hal qilinishiga olib keladi.

Haqiqiy son tushunchasini kiritishda turli xil metodik muammolar yuzaga keladi.

Masalan. 1) Mavzuni o‘rganish natijasida o‘quvchilar tasavurida haqiqiy son tushunchasi qanday bo‘lishi kerak?

2. Haqiqiy son tushunchasining ta’rifi berish kerakmi? Agar ta’rif berish kerak bo‘lsa u qanday bo‘lishi kerak?

3. Haqiqiy son tushunchasini kiritish zaruriyati qanday aniq vazifalardan kelib chiqishi kerak va h.k.

Mazkur masalalar jarayonioda boshqa juda muhim masalalar ham hal qilinadi.

Haqiqiy son tushunchasini kiritishda quyidagi yondoshuvlarga e’tibor qaratish kerak:

Dastlab haqiqiy son tushunchasini kiritish, so‘ngra irratsional sonni alohida holat sifatida ajratib olingan holda qaraladi.

Dastlab irratsional son tushunchasi kiritiladi, so‘ngra esa ratsional va irratsional sonlar to‘lamining birlashmasi sifatida haqiqiy sonlar to‘plami kiritiladi.

Yuqoridagi yondashuvlardan birortasini tanlashda o‘qituvchi sinf o‘quvchilari uchun qulayligi va ularning tayyorgarlik darajasini hisobga olishi kerak.

Haqiqiy son tushunchasini kiritilishi natijasida miqdorlarning doimiy o‘zgarishini ifodalash imkoniyati yuzaga keltiradi. Mazkur jarayonning uzluksizligini esa nuqta to‘g‘ri chiziq bo‘ylab harakatlanishi va harakat jarayonida boshlang‘ich nuqtaga nisbatan masofani o‘zgarib borishi bilan izohlash mumkin.

Shuning uchun, haqiqiy sonlar to‘plaminuing tuzilishi to‘g‘ri chiziq nuqtalari to‘plami bilan bir xil bo‘ladi, ya’ni to‘g‘ri chiziqdagi har bir nuqtaga faqat bitta haqiqiy son mos keladi, shuningdek har bir haqiqiy songa to‘g‘ri chiziqda faqat bitta nuqta mos keladi.

Yuqoridagilardan ko‘qinadiki, haqiqiy son tushunchasi va o‘zgarmas miqdor tushunchasi bitta jarayonning ikkita tomonidan iborat ekan.

O‘quvchilarda haqiqiy son tushunchasini shakllantirishda cheksiz o‘nli kasr kasr tushunchasi muhim o‘rin tutadi.

Shuning uchun haqiqiy son tushunchasini kiritishdan oldin oquvchilarga quyidagi qoidalarni tushuntirish kerak:

har bir kasr sonini chekli yoki cheksiz davriy o‘nli kasr ko‘rinishida ifodalash mumkin: 4,5; 4,5(0).

Demak, har bir ratsional sonni cheksiz o‘nli kasr ko‘rinishida ifodalash mumkin ekan. Shuningdek, har bir cheksiz davriy o‘nli kasrni ratsional son ko‘rinishida taqdim etish mumkin.

Arifmetik kvadrat ildiz tushunchasi kiritiladi.

Ta’rif. Kvadrati a ga teng (manfiy bo‘lmagan) songa a sonining arifmetik kvadrat ildizi deyiladi.

Bu ta’rifning tuzilishi konyuktiv ta’rif bo‘lib, bunda misollar yordamida o‘quvchilarni a sonining manfiy qiymatlarida mantiqiy ma’noga ega emas degan xulosaga tayyorlashda muhim hisoblanadi.

Shu yerda ifoda barcha manfiy bo‘lmagan ildizlar uchun aniqlanganmi? – degan haqli savol tug‘uladi.

Bu savolga kvadrat tenglamani yechish orqali javob beriladi. Bunda o‘quvchining asosiy e'tiborini kvadrati 2 ga teng bo‘lgan ratsional son mavjud emasligiga qaratiladi. Ko‘pgina o‘qituvchilar irratsional sonlarni kiritishda ratsional sonlar to‘plami bilan koordinata o‘qidagi nuqtalar top’lami o‘rtasida o‘zaro bir qimmatli akslantirish o‘rnatish mumkinmi? – degan nuqtayi nazardan yondashadi.

Bu savollarga javob berilgandan so‘ng haqiqiy sonlar to‘plamiga ta’rif beriladi.

Ma’lumki, cheksiz davriy o‘nli kasr ko‘rinishda ifodalash mumkin bo‘lgan sonlar ratsional sonlar, sheksiz davriy o‘nli kasr ko‘rinishda ifodalash mumkin bo‘lmagan sonlar irratsional sonlar hisoblanadi.

Ta’rif. Cheksiz davriy onli kasrlar va davriy bo‘lmagan cheksiz o‘nli kasrlar birgalikda haqiqiy solar deb yuritiladi va u "R" harfi bilan belgilanadi.

Haqiqiy sonlar tasnifi quyidagi sxemada tasvirlangan (2-sxema).

Demak, istalgan ratsional yoki irratsional son – haqiqiy son bo‘ladi. Masalan. 0; 6; 458; 1863; 0,578; -3/8; 5√26; 0,145(3); log_5 12.

Umuman, haqiqiy sonlarni maktab matematika kursida quyidagi tartibda kiritish maqsadga muvofiq:

1. $x^2-2=0$ tenglama yechiladi. Buning uchun: "Kvadrati 2 ga teng bo‘lgan butun yoki kasr son mavjud emas" – degan teorema isbotlanadil.

2. Kvadrati 2 ga yaqin bo‘lgan sonni topish vazifasi qo‘yiladi.

3. Irratsional sonlarni kiritishda qaralgan geometrik masala ko‘rib chiqiladi:

yon tomoni 1 ga teng bo‘lgan kvadratning diagonal uzunligini topish;

4. $y = x^2$ grafigida ordinatasi 2 ga

teng bo‘lganda uning abtsissasi nechaga teng bo‘lishi aniqlanadi.

5. Kesmalarni o‘lchash, ularning mutanosibligi va nomutanosibligi, uzunligining o‘nli yaqinlashishi muammosi yuzaga keladi. Bu ni hal etish talab etiladi.

6. Oddiy kasrlarni cheksiz davriy o‘nli kasrga aylantirish va aksincha cheksiz davriy o‘nli kasrni oddiy kasr ko‘rinishida ifodalash qoidasi kiritiladi.

7. Irratsonal sonlat to‘plami tushunchasi kiritiladi.

8. Haqiqiy sonlar to‘plami tushunchasi kiritiladi.

9. Haqiqiy sonlarni taqqoslash qoidalari aniqlanadi.

10 Haqiqiy sonlar ustida amallar ko‘rib chiqiladi.

Geometrik jihatdan haqiqiy sonlar, shuningdek ratsional sonlar to‘g‘ri chiziq nuqtalari bilan ifodalanadi.

Aytaylik, a - to‘g‘ri chiziq berilgan bo‘lsin va O uning biror nuqtasi bo‘lsin. a to‘g‘ri chiziqda O nuqtatadan boshlab undan o‘ng tomonga e uzunlikdagi birlik kesmani ketma-ket qo‘yib chiqamiz. Bunda har α musbat haqiqiy songa bitta A nuqtani mos qo‘yamiz.

Masalan. α = 2,1356 … , bo‘lsa, u holda

2 < α < 3

2,1 < α < 2,2

2,13 < α < 2,14

Ko‘rinib turibdiki, A nuqta bu holatda berilgan a to‘g‘ri chiziqda: 2; 2,1; 2,12; …, sonlariga mos kelgan nuqtalardan chap tomonda, 3; 2,2; 2,14; … sonlariga mos kelgan nuqtalardan esa o‘ng tomonda joylashgan.

Yuqorida keltirilgan shartga ko‘ra, α haqiqiy songa a to‘g‘ri chiziqda belgilangan A nuqtaga faqat bittagina α soni mos kelar ekan. Bu haqiqiy son α = 2,1356 … bo‘ladi.

Endi yuqoridagi tartibda a to‘g‘ri chiziqda O nuqtadan boshlab undan chap tomonga berilgan e birlik kesmani ketma-ket qo‘yib chiqamiz. Har bir β manfiy haqiqiy songa O niqtadan chap tomonda |β| uzunlikda joylashgan B nuqtani mos qo‘yamiz. Nihoyat O nuqtaga “nol” sonini mos qo‘yamiz.

Ta’rif. Berilgan a to‘g‘ri ciziqning har bir nuqtasiga faqat bitta α haqiqiy sonni mos qo‘yish mumkin. Agar α>0 bo‘lsa, unga mos kelgan A niqta O nuqtadan |α| uzunlik birligida joylashadi, aksincha α<0 bo‘lsa, u holda unga mos kelgan A nuqta O nuqtadan |α| uzunlik birligida chapda joylashadi.

Ta’rifdan ko‘rinadiki, turli ikkita haqiqiy songa a to‘g‘ri chiziqda turli ikkita niqta mos kelar ekan.

Bundan, barcha haqiqiy sonlar to‘plami bilan son to‘g‘ri chizig‘ining barcha nuqtalari orasida o‘zaro bir qiymatli moslik o‘rnatish mumkin ekan.

Aytaylik, α musbat haqiqiy son cheksiz o‘hli kasr ko‘rinishda ifodalangan bo‘lsin.

α musbat haqiqiy sonning kami bilan olingan o‘nli yaqinlashishi quyidagicha aniqlanadi: dastlab barcha verguldan keying raqamlar tashlab yuboriladi, songra verguldan keying biribch xona birligidan keying barcha raqamlar tashlab yuboriladi va songra vergul han keying ikkinchi xona birligidan keying, songra vergulhan keying uchinchi xona birligidan keyingki raqamlar tashlab yuboriladi. Bu jarayonni istalgancha davom ettirish mumkin. Natijada hosil bo;lgan sonlar berilgan α musbat haqiqiy sonning kami bilan olingan o‘nli yaqinlashishlari deb yuritiladi.

Masalan, √2 = 1,41421 … sonining kami bilan olingan o‘nli yaqinlashlari: 1; 1,4; 1,41; 1,414; 1,4142; 1,41421; … lardan iborat bo‘ladi.

Agar α haqiqiy sonning qoldirilayotgan oxirgi xona birligidagi raqam bittaga ortirilsa, natijada hosil bo‘lgan haqiqiy sonlar berilgan α haqiqiy sonining ortig‘i bilan olingan o‘nli yaqinlashishlari deyiladi.

Masalan. √2 soning ortig‘I bilan olingan o‘nli yaqinlashishlari: 2; 1,5; 1,42; 1,415; 1,4143; 1,41422; … lardan iborat bo‘ladi.

Yuqoridagilarga asoslangan holda manfiy haqiqiy sonlarni o‘nli yaqinlashishlari aniqlash mumkin. Bunda 0 soning o‘nli yaqinlishlari doimo 0 ga teng bo‘ladi.

Demak, ivtiyoriy α haqiqiy son o‘zning kami bilan olingan o‘nli yaqinlashishlarida katta, ortig‘i bilaan olingan o‘nli yaqinlashishlaridan esa kichik bo‘lar ekan.

Shundan so‘ng, quyidagi mazmundagi topshiriqlarni bajarish egallangan nazariy bilimlarni mustahkamlashda muhim o‘rin tutadi:

1-topshiriq: Ratsional sonlar to‘plamida qanday asosiy qonunlar bajariladi?

2-topshiriq: To'g'ri chiziq nuqtalari bilan quyidagi ratsional sonlarni belgilang: 7; -3; 1/4; 1/8;5,1.

3-topshiriq: Quyidagi davriy kasrlarni oddiy kasrlar ko‘rinishida ifodalang: 0,(44); 4,(63); – 2,001(7).

4-topshiriq: Quyidagi sonlarni taqqoslang: -2 va - 2,001(7); 1,(56) va 1,56; 4,555 ...va 4,(5).

Umuman, Matematika o‘qitish metodikasi fanini o‘rganish jarayonida “Haqiqiy sonlar” mavzusini o‘qitish metodikasiga bunday yondoshuv – zamonaviy matematika o‘qituvchisini samarali tayyorlash imkoniyatlarini oshiradi.





# TALABALARNING MANTIQIY FIKRLASHINI RIVOJLANTIRISHDA BIFUNKSIONAL MASALALARDAN FOYDALANISH

***G‘iyosiddin Sa’dullayevich Bozorov -*** *dotsent v.b., (PhD), Jizzax davlat pedagogika universiteti*
***Dilnoza Tangirberdiyevna Samanova -*** *magistr, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada pedagogika oliy ta’lim muassasalarining matematika va informatika ta’lim yo‘nalishi talabalariga bifunksional masalalar yordamida matematik mantiq elementlarini o‘rgatish masalasi, mantiq orqali to‘g‘ri mulohaza yuritish, to‘g‘ri fikrlash va to‘g‘ri fikrlardan to‘g‘ri xulosalar chiqarish usullarini o‘rgatish ya’ni matematik mantiq elementlarini o‘rganishga motivatsiyani shakllantirish masalasi qaralgan. Buning uchun asosan talabalarda matematik mantiq elementlarini o‘rganishga ijobiy motivatsiyani shakllantirish bilan bog‘liq masalalar majmuasi ishlab chiqilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассмотрен вопрос обучения элементам математической логики с помощью бифункциональных задач студентов математико-информатического образования педагогических вузов правильному мышлению через логику, правильному мышлению и правильному рисованию. учитывались правильные выводы из мыслей, то есть формирование мотивации к изучению элементов математической логики. С этой целью разработан комплекс вопросов, связанных с формированием у учащихся положительной мотивации к изучению элементов математической логики.*

***Abstract:*** *In this article, the issue of teaching the elements of mathematical logic with the help of bifunctional problems to the students of mathematics and informatics education of higher educational institutions of pedagogy, correct reasoning through logic, correct thinking and correct The issue of teaching methods of drawing correct conclusions from thoughts, that is, formation of motivation for learning the elements of mathematical logic, was considered. For this purpose, a set of issues related to the formation of positive motivation for students to learn the elements of mathematical logic has been developed.*

***Kalit so‘zlar:*** *mulohaza, mantiq, rost, yolg‘on, konyunksiya, dizyunksiya, implikatsiya, ekvivalentsiya.*

***Ключевые слова:*** *рассуждение, логика, истина, ложь, конъюнкция, дизъюнкция, импликация, эквивалентность.*

***Keywords:*** *reasoning, logic, true, false, conjunction, disjunction, implication, equivalence.*

Jahonda oliy ta’lim muassasalarining ta’lim sifati va sifatli kadrlar tayyorlash, tayyorlanayotgan kadrlarning raqobatbardosh bo‘lishini ta’minlash masalasi alohida ahamiyat kasb etadi. YUNESKO tomonidan qabul qilingan 2030 yilgacha xalqaro ta’lim kontseptsiyasida “Ta’lim — taraqqiyotning asosiy harakatlantiruvchi kuchi va barqaror rivojlanish maqsadlarga yetkazuvchi muhim faoliyat” deb e’tirof etilib, unda «Butun hayot davomida sifatli ta’lim olishga imkoniyat yaratish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bu vazifalarni amalga oshirish jarayonida har tomonlama rivojlangan, mustaqil fikrlay oladigan, milliy merosimizni qadrlay oladigan, ijodkor, aqlli va mantiqiy fikrlay oladigan hamda buyuk kelajak sari dadil qadam tashlay oladigan iqtidorli yoshlarni tarbiyalashdan iborat bo'lib, hozirgi zamon o‘qituvchisidan ijodiy izlanishni va o‘z ustida tinimsiz ish olib borishni talab qiladi.

O‘zbekiston Respblikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha “Harakatlar strategiyasi”da belgilangan ustuvor vazifalarni amalga oshirishda «matematika, ximiya, biologiya va informatika kabi boshqa muhim va talab yuqori bo‘lgan predmetlarni chuqurlashtirilgan tarzda o‘rganish» dolzarb vazifa sifatida belgilangan. Bu borada talabalarning mantiqiy fikrlashlarini rivojlantiruvchi kreativ yondashuvlar, dars jarayonlarini loyixalashtirish hamda ilg‘or ta’lim texnologiyalari (munosabatlar pedagogikasi, har tomonlama tarbiyalash, loyihalash, kreativ faoliyatga yo‘naltirilgan ijodiy topshiriqlar, bifunksional masalalar) asosida o‘qitishni takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda talabalarning mantiqiy

fikrlashini shakllantirishda asosi bifunksional masalalardan iborat pedagogik texnologiyani yaratish maqsadga muvofiq hisoblanadi. Buning uchun esa dastlab, “bifunksional masalalar” tushunchasi bilan bog‘liq metodik jihatlarni qarab chiqamiz, ya’ni aynan qanday masalalarni bifunksional deb atashimizni aniqlab olamiz.

Ta’rif. Bifunksional masalalar – yechilish jarayonida bir yoki bir nechta matematik tasdiqlar ustida bir yoki bir nechta mantiqiy amallarni bajarish zaruriyati paydo bo‘ladigan masalalar[1].

Bu tor ma’nodagi ta’rif bo‘lib hisoblanadi. Aslida bifunksional masalalar tushunchasi kengaytirilishi mumkin. Mantiqiy amallarni nafaqat matematika kursidagi tasdiqlar ustida, balki boshqa o‘quv fanlaridagi tasdiqlar ustida ham bajarish mumkin. Demak, keng ma’noda bifunksional masalalar - deganda yechilishida ixtiyoriy o‘quv predmetining bir yoki bir nechta tasdiqlari ustida mantiqiy amal (amallarni) bajarish talab etiladigan masalalar tushuniladi. Biz ushbu ishda faqat matematika darslarida talabalarda mantiqiy fikrlashni shakllantirish va rivojlantirish bilan bog‘liq masalalarni qaraymiz. Shu sababli bifunksional masalalarning tor ma’nodagi ta’rifidan foydalanamiz.

Masalalar haqida gap ketganda bifunksional masalalarning tarkibi haqidagi masalani qarab chiqamiz.

L.M.Fridmanning fikriga ko‘ra ixtiyoriy masalada quyidagi asosiy qismlarni ajratib olish mumkin.

Birinchi asosiy qism – masalaning predmetli sohasi. Masalaning predmetlar sohasi masalada qatnashgan obyektlardan iborat.

Ikkinchi asosiy qism – “masalaning predmetlar sohasi obyektlarini bog‘lovchi munosabatlar”.

L.M.Fridman masalaning predmetlar sohasi obyektlari va munosabatlarni o‘zgarmas va o‘zgaruvchilarga ajratgan. O‘zgarmaslarga masala shartida to‘liq aniqlangan elementlar (predmetlar) va munosabatlarni kiritgan. O‘zgaruvchilar deb biror to‘plamdan itiyoriy qiymatlarni qabul qilishi mumkin bo‘lgan munosabatlarni hisoblagan.

Bundan tashqari predmetlar sohasi elementlarini va munosabatlarni ma’lum va noma’lumlarga ajratgan. Agar masala shartida predmetlar sohasi elementlari va munosabatlarning aniq qiymati ko‘rsatilgan bo‘lsa, ular ma’lum deb hisoblanadi.

O‘z navbatida, noma’lum elementlar va munosabatlar orasidan qidirilayotganlarini (ya’ni masalani yechish davomida aniqlanishi talab etilgan qiymatlarni) belgilaydi, qolgan noma’lum elementlar va munosabatlarni yordamchilar soniga kiritadi.

Uchinchi asosiy qism – bu masalaning talabi. Masalaning talabi - masala maqsadi - yechim natijasida aniqlanishi lozim bo‘lgan tushunchalardir”.

Masalaning to‘rtinchi asosiy qismi – masala operatori. Masala operatori deganda “masala talabini bajarish uchun uning sharti ustida bajariladigan amallar” to‘plamini tushunadi.

L.M.Fridmanning fikriga ko‘ra predmetlar sohasi elementlari va munosabatlar masala shartini tashkil etadi. Shunday qilib, har qanday masalada: 1) shart; 2) talab; 3) masala operatorlarini ajratish mumkin.

Bifunksional masalalarning predmetlar sohasini sonlar, turli geometrik figuralar va boshqa matematik obyektlar tashkil etadi. Predmetlar sohasi elementlari quyidagi munosabatlar bilan bog‘lanadi: 1) matematika sohasi munosabatlari (masalan, funksional munosabatlar, tartib munosabatlar va boshqa); 2) matematik mantiq sohasi munosabatlari.

Bir nechta bifunksional masalalarni qarab chiqaylik[2].

1 - masala. 1-rasmdagi figuralarning qaysi biri ortiqcha?




1-rasm

Sonlarning qaysi biri ortiqcha: 4, 12, 20, 25?

2 - masala. 2 - rasmdagi figuralar haqidagi mulohazalardan qaysi biri rost, qaysi biri yolg‘on?




1 Bozorov G‘.S. “Improve the knowledge of students, expressing mathematical reasons, using logic and restoring the logical function” (European Journal of Research and Reflection in Educational Sciences, Vol. 7 No. 12, 2019, 859-861).

2 О.Ю.Агарева. Математическая логика и теория алгоритмов. М., 2011. С. 55-60.



TABIIY VA ANIQ FANLAR

2-rasm

1) Rasmdagi barcha figuralar ko‘pburchaklar.

2) Rasmdagi ayrim figuralar uchburchak emas.

3) Rasmdagi birorta figura ham doira emas.

4) Rasmdagi kamida bitta figura qora rangda.

5) Rasmda tasvirlangan ixtiyoriy figura to‘rtburchak yoki doira.

6) Rasmda tasvirlangan hech bo‘lmaganda bitta figura oq rangda va u uchburchak emas.

3 - masala. Berilgan mulohazalarning inkorini tuzing.

1) O‘zbekiston mustaqil davlat.

2) Alisher Navoiy “Ufq” romanining muallifi.

3) Amir Temur Samarqanda tug‘ilmagan.

4) O‘zbekistonning barcha daryolari Orol dengiziga quyiladi.

5) Ayrim planetalarning yo‘ldoshi bo‘lmaydi.

4 - masala. Boltayev va Teshayevlar oilasi bor. Har bir oila uch kishidan iborat - ota, ona va o‘g‘il. Boltayevlarning otasi Teshayevlarning otasini tanimaydi. Boltayevlarning onasi Teshayevlarning onasini tanimaydi. Boltayevlarning yagona o‘g‘li Teshayevlarning yagona o‘g‘lini tanimaydi. Demak, bu ikki oila a’zolari bir - birini tanimaydi. Shunday bo‘lishi mumkinmi?

5 - masala. Keltirilgan gaplardan hech bo‘lmaganda bittasi ikkinchisidan kelib chiqadimi?

1) Har bir imtixonni kamida bitta o‘quvchi topshirgan.

2) Eng kamida bitta o‘quvchi hamma imtihonni topshirgan.

6 - masala. Quyidagi tasdiqlarni isbotlang yoki inkor qiling:

1) Har bir bahor oyida 30 kun bor.

2) Ayrim qushlar janubga uchib ketmaydi.

3) Barcha natural sonlar 3 ga bo‘linadi.

7 - masala. x ning qanday qiymatlarida ifoda ma’noga ega[3].

$$\frac{1}{\sqrt{5x-20}}+\sqrt{6-2x}$$

Yechim. $\frac{1}{\sqrt{5x-20}}+\sqrt{6-2x}$ ifoda manoga ega bo`ladi agar

$$5x-20\ge 0 \quad \text{yoki} \quad 6-2x\ge 0$$

$$5x\ge 20 \qquad\qquad -2x\ge -6$$

$$x\ge 4 \qquad\qquad x\le 3$$

Javob: $(-\infty;3]\cup[4;\infty)$

Ko‘rinib turibdiki 7 - masalaning yechimida mantiqiy va matematik xato bor. Matematik xato - kasrli ifoda o‘zgaruvchisining mumkin bo‘lgan qiymatlari to‘plami noto‘g‘ri topilgan. Mantiqiy xato - “va” mantiqiy amal “yoki” mantiqiy amal bilan almashtirilganligi.

7 - masalaning yo‘l qo‘yilgan mantiqiy xato noto‘g‘ri javobga olib kelgan. Aynan “mantiqiy” xatolar matematik misollarni yechishda talabalarni noto‘g‘ri javobga olib keladi.

Berilgan masalaning aynan qaysi tur masalalarga tegishliligi, masalada qo‘yilgan talabga bog‘liq. Berilgan bifunksional masalalarga qo‘yilgan talablarni sanab o‘tamiz:

mulohazaning rostlik qiymatini aniqlash;

mulohazali shaklning rostlik to‘plamini topish;

tasdiqning inkorini tuzish;

tarkibida umumiylik va mavjudlik kvantorlar qatnashgan tasdiqlarni isbotlash yoki rad etish;

- shartning zarurligi, yetarliligi, zarur va yetarliligini aniqlash;

- bir tasdiq ikkinchisidan kelib chiqishini aniqlash; shu tasdiqlar teng kuchliligini aniqlash.

Bifunksional masalalarning operatori sifatida quyidagilar qaralgan: 1) turli matematik amallar (qo‘shish, ayirish, ko‘paytirish, bo‘lish); 2) turli mantiqiy amallar (inkor, konyunksiya, dizyunksiya, implikatsiya, ekvivalentsiya, umumiylik va mavjudlik kvantorlar)[4].

Talabalarni o‘qitish jarayonida bifunksional masalalarning o‘rni bilan bog‘liq masalalarni qarab chiqamiz. Bifunksional masalalar (ixtiyoriy matematik masala kabi) quyidagi vazifalarni bajaradi: 1) o‘qitish; 2) rivojlantiruvchi; 3) tarbiyaviy; 4) nazorat; 5) amaliy. Sanab o‘tilgan vazifalarning har biriga batafsil to‘xtalib o‘tamiz.

Pedagogika oliy ta’lim muassasalari talabalarini o‘qitish jarayonida yuqorida keltirilgan bifunksional masalalardan foydalanish talabalarda bir vaqtda matematik bilimlar, ko‘nikma va malakalar bilan birga matematik mantiq elementlari bo‘yicha bilimlar, ko‘nikma va malakalar tizimini shakllantirishga, talabalarning fikrlashini rivojlantirishga, ular tomonidan samarali aqliy faoliyat usullarining egallanishiga imkon beradi. Bifunksional masalalarning ixtiyoriy matematik masalaga qaraganda o‘ziga xosligi (ularda mantiq elementlarining mavjudligi) shulardan iboratki, ular pedagogika oliy

3 Игошин В.И. Дидактическое взаимодействие логики и математи¬ки //Педагогика. 2002. № 1. С. 51-56.

4 Bozorov G‘.S. Matematik mantiq elementlarini talabalarga noan’anaviy usulda o'rgatish usullari. // “Xalq ta’limi” jurnali 2020-yil, 2-son 49-54-betlar.

ta'lim muassasalari talabalarida fikirlashni rivojlantirishga ko'proq yordam beradi.

Bifunksional masalalarning tarbiyaviy funksiyalari shulardan iboratki ularni yechish jarayonida talabalarda e'tiborlilik, qa'tiyatlilik, mehnatsevarlik, yangi bilimlarni o'zlashtirishda mustaqillik va boshqa shu kabi sifatlar shakllanadi.

Bifunksional masalalarning nazorat funksiyasi o'qituvchi tomonidan ushbu masalalar talabalarda matematik bilim, ko'nikma va malakalar bilan birga matematik mantiq elementlari bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalarning shakllanganlik darajasini aniqlashda o'qituvchi tomonidan qo'llanishi mumkinligini nazarda tutadi.

Bifunksional masalalarning amaliy axamiyati nimadan iborat ekanligini qarab chiqamiz. Matematik mantiq asoslarini bilish ko'p kasbiy faoliyat soxalarida, masalan, yuristpendentsiya va dasturlashda zarur. Talabalar tomonidan matematik mantiq elementlari bo'yicha o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalar bo'lajak kasbiy faoliyatida zarur bo'lishi mumkin. Bundan tashqari, bifunksional masalalarni yechishda talabalar mantiqiy fikrlashni o'rganadi, bu shubxasiz ularni kundalik hayotda paydo bo'ladigan va mantiqiy yechilishi lozim bo'lgan muammolarni yechishga tayyorlaydi. Shu bilan birga, bifunksional masalalar talabalarda matematika sohasidan o'zlashtirgan bilim va ko'nikmalarini mustahkamlashga yo'naltirilgan.

Bifunksional masalalarni tuzish usulining moxiyati quyidagidan iborat: bifunksional masalani tuzish uchun bir yoki bir nechta matematik tasdiqlar ustida bir yoki bir nechta mantiqiy amallar bajarish zarur.

Bifunksional masalalarni tengsizliklar yoki tenglamalar sistemasini yechishga nisbatan propedevtika sifatida qarash mumkinligini takidlab o'tamiz. Haqiqatdan ham bitta tengsizlikdan tengsizliklar sistemasiga o'tishda "va", "yoki" mantiqiy amali qo'llaniladi. Bifunksional masalalar bilan ishlashda ikkala holat ham samarali hisoblanadi. Birinchidan, nafaqat tengsizlik yoki tenglamalar, balki barcha mumkin bo'lgan matematik dalillar ham qaraladi. Ikkinchidan, mantiqiy amallarning kengroq guruxi ("va", "yoki", "agar,...u xolda", "faqat va faqat, qachonki"), shu bilan birga kvantorlar bilan bog'lash va inkor tuzish amallari qo'llaniladi5.

Yuqorida keltirilgan masalalarni yechishda talabalarda aqlning egiluvchanlik, maqsadga yo'naltirilganlik, isbotlilik va tanqidiylik kabi sifatlar rivojlanadi, shu bilan birga ular tomonidan yuritilgan mulohazalarning aniqliligi va asoslanganliligi, chiqariladigan xulosalarning mantiqiyligi ta'minlanadi. Taklif etilgan masalalar asosiy (matematik mantiq elementlarini o'rganish motivatsiyasini shakllantirish) vazifasidan tashqari yana bitta muxim rivojlantiruvchi vazifalarni bajaradi.

Bundan tashqari, masalalarning odatiy bo'lmagan mazmuni, yechish usullarining yangiligi va masalalarni bir nechta usullarda yechish imkoni mavjudligi kabi omillar talabalarning bilish faolligi darajasini oshirishga imkon beradi.

Talabalarda matematik mantiqni o'rganishga motivatsiyani shakllantirishda ya'ni matematik mantiqning sodda tushunchalari va sodda mantiqiy amallarining propedevtikasi o'rganilish masalasi xal etildi.

Biz asosan bitta masalani tuzish usulini bayon etdik. Lekin, real jarayonda masalalar tizimi qatnashadi. Bifunksional masalalar tizimini tuzishda birinchidan, matematikani o'qitish jarayoni talabidan kelib chiqgan holda matematik materialni tanlash, ikkinchidan bifunksional masalalarni tuzish usulidan foydalanishda turli masalalar tuzish kerak.





# RAQAMLI TA'LIM MUHITIDA TALABALARNING MUSTAQIL ISHLARINI TAKOMILLASHTIRISH IMKONIYATLARI

***Akmal Shavkatovich Aminov*** - *o'qituvchi, Buxoro davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada raqamli ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ishlarini takomillashtirish imkoniyatlari bo'yicha quyidagicha fikr yuritilgan. Ta'lim sohasida zamonaviy axborot texnologiyalardan unumli foydalangan holda fanga doir keng ma'lumotlarni yetkazish va talabalarning mustaqil topshiriqlarini dasturiy ta'lim vositalardan foydalanib amalga oshirish bugungi kun vazifasiga aylanganligi bo'yicha atroflicha fikr va mulohazalar bayon qilingan. Bundan tashqari O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining qaror va farmonlari haqida ma'lumotlar keltirilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассматриваются возможности улучшения самостоятельной работы учащихся в цифровой образовательной среде следующим образом. Подробно изложены мнения и соображения по поводу того, что в сфере образования стало задачей сегодняшнего дня передача обширной информации по науке с использованием современных информационных технологий и реализация самостоятельных заданий учащихся с использованием программных средств обучения. Кроме того, представлена информация о постановлениях и указах Кабинета Министров Республики Узбекистан.*

***Abstract:*** *This article reflects on the possibilities of improving the independent work of students in the digital education environment as follows. In the field of Education, detailed opinions and reflections on the fact that it has become a task of today to convey a wide range of information about science using modern information technologies and implement independent tasks of students using software educational tools. In addition, information is provided about the decisions and decrees of the Cabinet of Ministers of the Republic of Uzbekistan.*

***Kalit so'zlar:*** *kredit-modul tizimi, dasturiy ta'lim vositalari, modul texnologiyasi, platforma, mustaqil ish, kompyuter dasturlari.*

***Ключевые слова:*** *кредит-модульная система, программные средства обучения, модульная технология, платформа, самостоятельная работа, компьютерные программы.*

***Keywords:*** *credit-modular system, learning software, modular technology, platform, independent work, computer programs.*

Jahondailm-fanvaaxborottexnologiyalari professional ta'lim didaktikasi rivojlanishining yangi bosqichini belgilab berdi, bunda uning tushunchalarning kengayishini, pedagogikada yuzaga kelayotgan terminlar, qadriyatlar va ta'lim mazmunini takomillashtirish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ma'lumki, yosh malakali kadrlarni zamon talabiga mos ravishda tayyorlash oliy ta'limning asosiy vazifasi hisoblanadi. Bu borada respublikamizda qator islohotlar olib borilmoqda. Ta'lim qonunchiligida oliy ta'limning zamonaviy axborotlardan ortga qolmaslik uchun o'qitish sifati va bitiruvchilar professional malakalarini oshirish maqsadida bir nechta qaror va farmonlar qabul qilindi. Jumladan, O'zbekison Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PK-3775-son qarorida innovatsion va texnologik g'oyalarni har tomonlama rivojlantirish hamda qo'llab-quvvatlash uchun zarur shart-sharoitlar yaratish, professor-o'qituvchilar, yosh olimlar va talabalarning innovatsion texnologiyalarni yaratish borasidagi tashabbuskorligini oshirish; o'quv mashg'ulotlarini talabalarni innovatsion fikrlashga yo'naltiradigan o'qitish texnologiyalari va interfaol uslublarni joriy etish asosida tashkil etish vazifalariga e'tibor qaratilgan[1].

Shu bilan birga "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish

1 *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-iyundagi "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng kamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar tug'risida"gi PK-3775-son qarori. Manba: https://lex.uz/ docs/3765586*

konsepsiya”sida, rivojlangan davlatlarning ta’lim tizimiga moslashtirish maqsadida “mustaqil ta’lim soatlari ulushini oshirish, talabalarda mustaqil ta’lim olish, tanqidiy va ijodiy fikrlash, tizimli tahlil qilish, tadbirkorlik koʻnikmalarini shakllantirish, oʻquv jarayonida kompetensiyalarni faollashtirishga qaratilgan metodika va texnologiyalarni joriy etish, oʻquv jarayonini amaliy koʻnikmalarni shakllantirishga yoʻnaltirish, bu borada oʻquv jarayoniga xalqaro ta’lim standartlariga asoslangan ilgʻor pedagogik texnologiyalar, oʻquv dasturlari va oʻquv-uslubiy materiallarni keng joriy etish” kabi vazifalar belgilangan[2]. Shu maqsadda Oliy ta’lim muassasalarida oʻquv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibi boʻyicha Oʻzbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 31.12.2020 yildagi 824-sonli qaroriga asosan nizomi ishlab chiqildi. Oliy ta’lim muassasalarida oʻquv jarayoniga kredit-modul tizimini joriy etish tartibining 4-bobida Oʻquv jarayonini rejalashtirish, monitoring olib borish va ta’lim sifatini ta’minlashda kredit-modul tizimi 1 kredit oʻrtacha 25—30 akademik soatlik oʻquv yuklamasiga teng. Ya’ni talaba muayyan fandan tegishli kreditlarni toʻplashi uchun ma’lum miqdordagi oʻquv yuklamasini oʻzlashtirishi zarur. Oʻquv yuklamasi bakalavriatda — 40 — 50% auditoriya soati, 50 — 60% mustaqil ish soatiga boʻlinishi koʻrsatilgan. Bugungi kunga qadar axborot bilan boyitilgan ta’lim muhitida elektron resurslardan foydalanish boʻyicha ba’zi tajribalar toʻplangan (elektron darsliklarning koʻrinishi, Internet-konferensiyalar va boshqalar). Shu sababli, axborotlashtirish davridagi eng muhim masalalardan biri bu talabalarni nazorat ostida mustaqil ishlarini tashkil etish usullari va shakllarini ishlab chiqish hamda auditoriyadan tashqari ishlarni amalga oshirilishi kerak.

Mavzuning dolzarbligi shundaki, raqamli ta’lim muhitida talabalar mustaqil ishini samarali tashkil etish, talabalar hamda oʻqituvchilarning akademik mobilligi, innovatsion ta’lim texnologiyasi, fundamental bilim sohasi koʻrinishida zamonaviy axborot texnologiyalar yetarli darajada oʻrganilmaganligi bilan belgilanadi.

Raqamli ta’lim muhitida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishning turli xil axborot texnologiyalari mavjud. Ulardan biri kompyuter dasturlarini oʻqitish asosida dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi (V.P.Bespalko, B.F.Skinner, N.F.Talizina va boshqalar). Bunday dasturlashtirilgan ta’lim texnologiyasi hozirgi zamon talablaridan kelib ta’lim tizimida foydalanib kelinmoqda.

Dasturlashtirish deganda oʻquv materialini oʻrganishning har qanday dastur emas, balki dasturlashtirishning kibernetik va matematik qoidalari yoki shartlariga muvofiq dasturgina tushuniladi.

Kibernetika (yun. kybernetile – boshqarish san’ati) — axborotni qabul qilish, saqlash, uni qayta ishlash hamda undan turli jarayonlarni boshqarishda foydalanish bilan shugʻullanadigan fan[3]. Ma’lumki, kibernetika murakkab tizim yoki jarayonlarni eng qulay yoʻl bilan ma’lum maqsadga muvofiq holda idora qilish haqida bahs yuritadi. Talabalarga tegishli ilmiy ma’lumotlarni qayta hisobga olishini ta’minlash, tekshirib koʻrish, oʻz-oʻzini tekshirish kabi vazifalarni kibernetika boshqaradi.

Dasturlashtirilgan ta’lim esa, yuqoridagi kabi kibernetika ilmi va metodlariga bogʻliq holda ish koʻradi. Dasturlashtirilgan ta’limning bosh vazifasi, talabalar mustaqil ishining unumdorligini oshirishga yordam berishdan iboratdir.

Dasturlashtirilgan matnlar bilimlarni oʻzlashtirishni muayyan mantiqiy yoʻlini vujudga keltiradi. Ammo bu yoʻl faqat ma’lum material uchun xarakterlidir, ya’ni ta’lim uslubi materialni mazmuniga bogʻliqdir. Mazmun oʻzgarsa, axborot berish va oʻz-oʻzini nazorat qilish usullari ham oʻzgaradi. Uni bilimlarning ayrim tarkibiy qismlari boʻlish mumkin boʻlgan mavzularni oʻrganishda, chunonchi, grammatikaga doir ayrim masalalarni, matematika teoremalarini, ba’zi bir ximiyaviy va fizikaviy formulalarni fanda qaror topgan tizimlar haqida ma’lumot beruvchi tarixiy, biologik va geografik materialni oʻrganish vaqtida qoʻllash mumkin[4].

Dasturlashtirilgan ta’lim uchun “didaktik mashina” (yoki dasturlashtirilgan darslik) mavjudligi juda muhimdir. Ushbu individual yondashuv ma’lum darajada amalga oshiriladi, lekin asosiysi, koʻnikmalarni oʻzlashtirish, rivojlantirish jarayoni ma’lum bir algoritm boʻyicha dastur tomonidan nazorat qilinadi.

Koʻpgina zamonaviy tadqiqotchilar tomonidan A.A.Abduqodirov, Sh.A.Nazirov, M.M.Aripov, U.Sh.Begimqulov, N.I.Taylaqov, A.Gʻ.Hayitov, B.B.Moʻminov, R.R.Boqiyev, F.M.Zakirova, N.A.Otaxanov, M.M.Mamarajabov, M.Y.Eshnazarova, U.Y.Yuldashev, B.Z.Toʻrayev, O.X.Turakulov,

2 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yil 8-oktabrdagi PF-5847-sonli “Oʻzbekiston Respublikasi Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini toʻgʻrisida”gi Farmoni. КҲММБ: 06/19/5847/3887-son 09.10.2019 й. Manba: https://lex.uz/docs/4545884

3 Qomus.info Onlayn ensiklopediya. Manba: https://qomus.info/encyclopedia/cat-k/kibernetika-uz/

4 Akramova F.A, Ochilova G.O “Pedagogika, psixologiya” oʻquv qoʻllanma - TDIU, 2007 - 304 b. Manba: https://uz.denemetr.com/docs/768/index-93935-1.html?page=6





F.R.Muradova, A.X.Pardayev, N.H.Avliyoqulov, M.D.Pardayeva va boshqalar.) talabalarning mustaqil ijodkorligi uchun imkoniyat yaratadigan yangi axborot texnologiyalaridan foydalanish orqali qat’iy sxemadan chiqib ketish bilimlarni mustaqil ravishda olish va taqdim etish qobiliyatini oʻzlashtirish sohasidagi oʻquv jarayonining samaradorligini oshirishga yordam berishi isbotlangan.

Bilishning umumiy usullari va ta’limni oʻzlashtirish strategiyasini oʻzlashtirish materiallari, oʻquv faoliyati rejimini, oʻqitishning tashkiliy shakllari va usullarini mustaqil tanlash ta’limda turli texnologiyalar shakllandi:

- muammoli ta’lim, dasturlashtirilgan ta’lim,
- aqliy harakatlarni bosqichma-bosqich shakllantirish nazariyasiga asoslangan ta’lim,
- ta’limni algoritmlashtirish,
- belgi-kontekstli ta’limni rivojlantirish loyihaviy ta’limni rivojlantirish.

Biroq, ijodiy mustaqil faoliyatni rivojlantirish muammolari, talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va takomillashtirishda raqamli ta’lim texnologiyalaridan foydalanish, ular asosida oʻqishni olib borish usullari toʻliq oʻrganilmagan.

Mustaqil ishlarni tashkil etish muammosi talabalarning ijodiy kognitiv faoliyatining tarkibiy qismlari sifatida mustaqil ishlarni faollashtirish, qoʻshimcha oʻrganish motivatsiyasi va ta’limni individuallashtirish uchun axborot texnologiyalarining imkoniyatlarini topish va asoslashdan iborat.

Tajriba natijalariga koʻra oʻqituvchilarning talabalar mustaqil ishlashi sifatini boshqarishga tayyorgarligi past darajada ekanligi quyidagicha aniqlandi:

- axborot-texnologik komponenti shakllanganligi oʻqituvchilarning 45%da ekanligi oʻqituvchilarning axborot madaniyati darajasini past darajada
- uslubiy komponent oʻqituvchilarning 42%da boʻlib oʻquv jarayonida axborot-kommunikatsiya texnologiyalarini qoʻllashga qobillikni aks ettiradi.
- oʻquv-tashkiliy va ekspert komponentlari, shuningdek, tarmoq hamkorligi komponenti 32% oʻqituvchida shakllangan.

Shakllantiruvchi tajriba natijalari muhiti. Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish boʻyicha raqamli ta’lim texnologiyalardan biri pedagogik dasturiy vositalar yordamida video darslardir. Oʻqituvchi axborot texnologiya ta’limi boʻyicha pedagogik dasturiy vositalarini oʻqitishi talabalarning tayyorligi tuzilmasidagi barcha koʻrsatkichlarning oʻsishiga sabab boʻladi. Oʻqituvchilar qayd etgan, olingan bilimlarni oʻquv jarayonida qoʻllash natijalari talabalarning qiziqishlari, fanga munosabatning yaxshilanishi bilvosita ularning mustaqil ishlar sifati bilan bogʻliqligini isbotlaydi.

Pedagogik dasturiy vositalar — kompyuter texnologiyalari yordamida oʻquv jarayonini qisman yoki toʻliq avtomatlashtirish uchun moʻljallangan didaktik vosita hisoblanadi. Ular ta’lim jarayonini samaradorligini oshirishning istiqbolli shakllaridan biri hisoblanib, zamonaviy texnologiyalarning oʻqitish vositasi sifatida ishlatiladi. Pedagogik dasturiy vositalar tarkibiga: oʻquv fani buyicha aniq didaktik maqsadlarga erishishga yoʻnaltirilgan dasturiy mahsulot (dasturlar majmuasi), texnik va metodik ta’minot, qoʻshimcha yordamchi vositalar kiradi. Hozirda pedagogik dasturiy vositalarga Adobe Illustrator, Adobe Captivate, iSpring, Camtasia Studio, Microsoft – PowerPoint, AutoCAD, Google Clasroom va hokazolar foydalaniladi. Bu kabi dasturlar har biri ozining sohaga oid ishlatish usullari mavjud. Aynan talabalarning mustaqil topshiriqlarni berish va olish boʻyicha dasturiy vosita Google Clasroom hisoblanadi.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etishni takomillashtirishda axborot texnologiyalari imkoniyatlaridan foydalanish pedagogik texnologiyalarning mavjud kontentlarini boyitishi, faol shaxsni shakllantirishni ta’minlashi, oʻqishni qoʻshimcha ragʻbatlantirish uchun yangi imkoniyatlarni izlashga yordam berishi mumkin, agar: talabalar tayyorgarlik, yaratish va qoʻshishda faol ishtirok etadilar talabalarni kasbiy yoʻnaltirilgan vazifalarni topish va hal qilish jarayoniga kiritish orqali ta’lim muassasasining elektron didaktik resurslari, oʻquv amaliyotini oʻtish, kurs loyihalarini, yakuniy malakaviy ishlarni bajarish jarayonida jamoaviy ish shakllarini ragʻbatlantirish; oʻqituvchi va talaba oʻrtasidagi munosabatlar ta’lim resurslarini yaratishda oʻzaro boyituvchi hamkorlik shaklida boʻladi, garchi oʻqituvchi ularning birgalikdagi faoliyati natijalari uchun javobgarlikni saqlab qoladi; ta’lim va kognitiv faoliyat (shu jumladan va oʻqituvchi bilan birgalikda) avtomatlashtirilgan oʻquv muhiti (pedagogik dasturiy vositalardan foydalangan holda kontent yaratish va undan foydalanish) doirasida tashkil etilgan va oʻqitishda interaktiv elektron ta’lim resurslaridan samarali foydalanishning asosiy mexanizmi boʻlib xizmat qiladi, tanlovni ta’minlaydi (mumkin boʻlgan tuzatish bilan, shu jumladan

o'qituvchi yordamida). talabalarga loyihalar doirasida jamoaviy faoliyat bilan shug'ullanish qobiliyatini shakllantirish, ularning ijodiy tashabbusini faollashtirish, umumiy axborot madaniyatining yuqori darajasiga erishishga hissa qo'shish imkonini beradigan axborot texnologiyalari vazifasini beradi.

Talabalarning mustaqil bilim faoliyati samaradorligi quyidagilar bilan belgilanadi:

1) yangi axborot texnologiyalaridan foydalangan holda har xil turdagi didaktik materiallarni ishlab chiqish, elektron uslubiy resurslar esa algoritmning qat'iy doirasi bilan chegaralanmagan va talabalar uchun joy ajratadigan birgalikdagi faoliyat natijasida yaratiladi.

2) o'qituvchi va talabaning axborot texnologiyalari sohasidagi hamkorligi o'zaro boyituvchi xarakterga ega bo'lib, mustaqil ishni faollashtirishga ham, ijodiy qobiliyatlarni rivojlantirishga ham yordam beradi, talabalar o'rtasida yakuniy natija uchun yuqori mas'uliyatni shakllantiradi va o'qituvchi tomonidan bilimlarni oshirish motivatsiyasini oshiradi.

Pedagogik dasturiy vositasidan foydalanish natijasida talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun pedagogik vositalarni kengaytirish mumkin.

Talabaning jamoaviy mehnatga tayyorlik darajasi, uning tashabbusi, mustaqilligi hisobga olinadi. Tugallangan loyiha odatda jamoaviy ish natijasidir. Axborot texnologiyalaridan foydalangan holda har qanday faoliyat natijalari ommaga oshkor bo'ladi. Bu talabalarning ijtimoiy kamolotiga yordam beradi, bu mutaxassisning mustaqil kasbiy faoliyatida muhim ahamiyatga egadir.

Xulosa o'rnida shuni ta'kidlash joyizki, axborot ta'lim muhitida talabalarning mustaqil ishlashini boshqarish, muntazam ravishda butun kasbiy tayyorgarlik davomida, asta-sekin uni ifodalovchi zaruriy kompetensiyalarni yuksaltirib borishlik bilan amalga oshirilishi kerak. O'quv jarayoni va talabalarning mustakil ishlashi axborot-ta'lim muhitiga o'tkazilishida ularni amalga oshirish shart-sharoitlari o'zgarishini quyidagilar inobatga olish kerak bo'ladi:

- o'rganiladigan materiallar hajmi ortishi;
- ta'lim trayektoriyalari variativligi usishi;
- ishni istalgan joyda, istalgan vaqtda, har qanday texnik vositalar yordamida amalga oshirish mumkinligi; talabalarning o'qituvchilar bilan kommunikatsiyaviy o'zaro aloqasi ahamiyati ortishi;
- axborot ta'lim muhitida mavjud, mustaqil ish ta'lim natijalarini rejalashtirilganlaridan chetlashiga olib keluvchi va uning sifatini pasaytiruvchi texnologik, tashkiliy, metodik va kommunikativ ta'lim jarayonini boshqarish lozim.

Talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish va takomillashtirishda quyidagi tavsiyalar beriladi: talabalarning mustaqil ishlarini tashkil etish uchun metodik baza yaratishga oid hujjatlarga o'rganiladigan mavzularning ro'yxatini, mustaqil ish mazmunini, ajratilgan soatlar hajmini, reyting kartasini, o'z-o'zini nazorat qilish uchun savollarni, testlarni, adabiyotlar ro'yxatini kiritish; talabalarning mustaqil ish bo'yicha video darslar bazasini takomillashtirish; turli xil ishlar bo'yicha baholar mezoni va quyiladigan ballarni ko'rsatish; o'qituvchi va talabalar kompyuter va mobil ilovasidan foydalanishi;

Dasturiy ta'lim vositalardan foydalanib mustaqil topshiriqlarni berish uchun yuqorida aytilgan so'zlarga rioya qilgan holda talabaga qulay sodda tushunarli tarzda kompyuter va mobil ilova vositalar orqali foydalanish natijali bo'ladi. O'qituvchi bu kabi dasturlardan foydalanish bo'yicha kompyuter savodxonligini ega bo'lishi kerak. Bunday pedagogik dasturiy vositalaridan foydalanish jihati ish unumdorligi oshib qog'ozbozlikka barham beriladi va talabalarning kompyuter savodxonligi bo'yicha bilimlarini keygaytirishi mumkin.





# O'QUVCHILARDA KIMYO FANIGA OID KOMPETENSIYALARNI SHAKLLANTIRISHDA PISA TADQIQOTLARIDAN FOYDALANISH

**Sarvinoz Sadridinovna Xojiyeva** - *o'qituvchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada yangi O'zbekistonda yangicha dunyoqarash, tafakkurga ega bo'lgan, raqobatga bardosh bera oladigan, umumiy o'rta ta'lim fanlarini, xorijiy tilni mukammal biladigan zamon bilan hamnafas ruhda yashaydigan o'quvchilarni tarbiyalash, bilim berish, pedagogik tarbiya va taktikalarni o'rgatishda yuzaga kelayotgan muammolar va yechimlar batafsil yoritib berilgan. Shuningdek, maqolada umumiy o'rta ta'lim maktablarida tabiiy fanlar jumlasiga kirgan kimyo fanini o'qitishda PISA tadqiqotlardan foydalanish orqali o'quvchilarda fanga oid, kundalik turmushda oid kompetensiyalarni shakllantirishga oid taklif va tavsiyalar ham ishlab chiqilgan.*

***Аннотация:*** *В статье рассматривается воспитание студентов, обладающих новым мировоззрением, мышлением, способных выдержать конкуренцию, в совершенстве владеющих общеобразовательными предметами, иностранным языком, живущих в духе времени, прививая знания, педагогическое образование и подробно объясняются проблемы и решения, возникающие при обучении тактике. Также в статье разработаны предложения и рекомендации по формированию у учащихся компетенций, связанных с наукой и бытом, посредством использования исследований PISA в преподавании химии, которая входит в перечень естественных наук, в общем среднем образовании школы.*

***Abstract:*** *In the article, the education of students who have a new worldview, thinking, who can withstand competition, who have a perfect knowledge of general secondary education subjects, a foreign language, and who live in the spirit of the times in New Uzbekistan, imparting knowledge, pedagogical education and The problems and solutions that arise in teaching tactics are explained in detail. Also, in the article, proposals and recommendations were developed for the formation of students' competences related to science and everyday life through the use of PISA studies in the teaching of chemistry, which is included in the list of natural sciences, in general secondary education schools.*

***Kalit so'zlar:*** *kimyo ta'limi, kompetensiya, suv, tuz, ichimlik suvi, suvning qattiqligi, muz.*

***Ключевые слова:*** *химическое образование, компетентность, вода, соль, питьевая вода, жесткость воды, лед.*

***Keywords:*** *chemical education, competence, water, salt, drinking water, water hardness, ice.*

Har bir jamiyatning kelajagi uning ajralmas qismi va hayotiy zarurati bo'lgan ta'lim tizimining qay darajada rivojlanganligi bilan belgilanadi. Bugungi Yangi O'zbekistonda uzluksiz ta'lim tizimini isloh qilish va takomillashtirish, yangi sifat bosqichiga ko'tarish, unga ilg'or xorijiy tajribalardan foydlanish, pedagogik va axborot texnologiyalarini joriy qilish hamda ta'lim samaradorligini oshirish davlat siyosati darajasiga ko'tarildi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida» 2019-yil 29-apreldagi PF-5712-sonli Farmoniga muvofiq umumiy o'rta ta'lim va maktabdan tashqari ta'limni isloh qilishning ustuvor yo'nalishlarini belgilash, o'sib kelayotgan yosh avlodni ma`naviy-axloqiy va intellektual rivojlantirishni sifat jihatidan yangi darajaga ko'tarish, o'quv-tarbiya jarayonida ta'limning innovatsion yondashuvlar asosida tashkil qilish dolzarb ahamiyat kasb etadi[1].

O'zbekiston Respublikasining 2030-yilga kelib PISA xalqaro dasturi reytingida jahonning birinchi 30 ta ilg'or mamalakatlari qatoriga kirishiga erishish hamda xalq ta'limi tizimida ta'lim sifatini baholash sohasidagi xalqaro tadqiqotlarni tashkil etish asosida o'quvchilarning tabiiy yo'nalishdagi fanlardan savodxonlik darajasini baholashga yo'naltirilgan ta'lim sifatini baholashning milliy tizimini yaratish vazifalari belgilangan.

Tabiiy fanlar qatoriga kiradigan kimyo boshqa fanlar qatori inson faoliyatining mahsuli sifatida vujudga kelib, tabiiy ehtiyojlarni qondirish, zaruriy mahsulotlar ishlab chiqarish,

1 *Ўзбекистон Республикаси Президенти Шавкат Мирзиёевнинг Олий Мажлисга мурожаатномаси. Халқ сўзи. 2020 йил 30 декабрь. №276. 2-бет.*

biridan ikkinchisini hosil qilish va, nihoyat, turli hodisalar sirlarini bilish maqsadida ro‘yobga chiqdi. Kimyo tabiatdagi barcha mavjudotlar turli ko‘rinishdagi kimyoviy moddalardan tarkib topganligiga asoslangan holda, ularning bir turdan boshqa turga o‘zgarish qonuniyatlarini, shuningdek, moddalarning xossalarini o‘rganuvchi fan hisoblanadi. Kimyo fanining predmeti barcha tabiiy va sintetik moddalardir.

Tabiatdagi yer, suv, havo, osmon jismlari, jonli va jonsiz barcha mavjudotlar, kundalik turmushda foydalaniladigan uy-ro‘zg‘or buyumlari, oziq-ovqat mahsulotlari, umuman, atrofimizdagi butun borliq kimyoviy moddalardan

tarkib topgan. Moddalar esa hozirgi vaqtda ma’lum bo‘lgan 118 ta kimyoviy elementning u yoki bu tarzda o‘zaro birikishi natijasida hosil bo‘lgan birikmalardir. Kimyo fani butun borliqdagi kimyoviy o‘zgarishlar natijasida hosil bo‘ladigan moddalarning xossalarini o‘rganadi, ulardan foydalanish yo‘llarini aniqlaydi va insoniyat uchun muhim bo‘lgan moddalarni topishda bevosita ishtirok etadi.

PISA — dasturi o‘quvchilarning katta hayotga tayyorgarlik darajalarini motivatsiyalash, ishontirish va bilimlarini mustahkamlashga asos bo‘lib xizmat qiluvchi dastur hisoblanadi. Tabiiy-ilmiy savodli inson tabiiy fanlar va texnologiyalarga oid muammolar muhokamasida ishtirok etishga intiladi va buning uchun quyidagi kompetensiyalarga ega bo‘lishi talab etiladi, hodisalarni ilmiy tushuntiradi, baholaydi va ilmiy tadqiqotlarni rejalashtiradi, ma’lumot va dalillarni ilmiy jihatdan sharhlaydi. PISA topshiriqlari bloki muammo bo‘lgan real holatlar ko‘rinishida bo‘ladi. Bunda har bir savol, topshiriq quyidagi kategoriyalar bo‘yicha klassifikatsiyalanadi:




PISA-o‘quvchilarning ta’lim sohasidagi yutuqlarini baholash bo‘yicha xalqaro dastur bo‘lib, tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik darajalarini turli xil testlar ko‘rinishida baholashdan iboratdir[2].

PISA tadqiqotlar o‘quvchilarga quyidagi kompetensiyalarni shakllantiradi:




Tabiiy fanlar bo‘yicha savodxonlik modeli va kompetensiyalarilaridan kelib chiqib, quyida bir nechta PISA topshiriqlaridan namunalar keltilib o‘tamiz:

Hayvonlar tuzni yaxshi ko‘radimi?

Odamlarning ham, hayvonlarning ham tuzli ovqatga, oziqqa o‘chligi jonli tabiatning eng ajib sir-sinoatlaridandir. Biz insonlar ming yillar mobaynida tuzni qadrlab kelganlarini va undan taom tayyorlashda foydalanganligini bilamiz. Qadimiy Meksikada tuz shunchalar zarur mahsulot hisoblanganki, har yili go‘zal qizlardan biri tuz xudosi sharafiga qurbonlik qilingan. Qamoqxonada o‘tirgan mahbusga tuzsiz ovqat berilganda, u tuz yetishmasligi sababli aqldan ozganligi haqidagi ma’lumot hozirgi kunda ko‘pchilikka ma’lum.

Organizmda aylanib yuruvchi suyuqlik — bu tuz eritmasidir. Tanamiz turli yo‘llar orqali ma’lum miqdordagi namlikni chiqarib turadi, shu tufayli organizm tuzni ham yo‘qotadi, bu yo‘qotishlar qoplanishi kerak bo‘ladi. Yer yuzida tuzning zaxiralari quyidagicha taqsimlangan, ya’ni uning katta miqdori okean suvida bo‘lib, quruqlikdagi zaxirasi nisbatan ko‘p emas. O‘simliklar tarkibidagi tuz arzimagan miqdorda bo‘ladi. Tuproqdagi tuzlarni esa yomg‘ir suvlari yuvib, avval daryoga, so‘ng dengiz va okeanlarga elitadi. Quruqlikda yashovchi hayvonlar qachonlardir dengiz hayvonlaridan tarqalgan. Ular tanasidagi suv o‘z ajdodlari tanasidagining aynan o‘zi va dengiz suviga o‘xshashdir! O‘simliklar ham, tuproq ham ularni yetarli miqdordagi tuz bilan ta’minlay olmaydi, shu bois ular har qanday tuzli oziqqa ochko‘zlik bilan tashlanadi. Faqat yirtqich hayvonlar, ya’ni boshqa hayvonlarni tutib yeydiganlar tuzga ortiqcha ehtiyoj sezmaydi: ular tuz bilan o‘z

2 Ahlidinov R.Sh., Ibragimov X.I. Umumiy o‘rta ta’lim tizimida uzviylikni ta’minlashning ilmiy-pedagogik asoslari // «Uzluksiz ta’lim jarayonini takomillashtirishning dolzarb masalalari» mavzusidagi Respublika ilmiy-amaliy konferensiya materiallari. -T., 2004.-B. 9-12.





qurbonlari go‘shti evaziga ta’minlanadi. O‘txo‘r hayvonlarning aksariyati esa, aksincha, tuzni juda xush ko‘radi[3].

1-savol: Qanday tuzlarni bilasiz? Tuzlarning barchasi sho‘r ta’mga egami?

Mazkur topshiriqni bajarish uchun o‘quvchilar kimyo fanidan tuzlarning fizik va kimyoviy xossalari jumladan tuzlarning rangi, ta’mi, toifalanishi kabi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak.

Baholash mezoni:Tuzlar o‘rta, nordon, asosli va kompleks tuzlarga bo‘linadi. Biz kundalik turmushda asosan o‘rta tuz bo‘lgan NaCl osh tuzidan eng ko‘p foydalanamiz. Bundan tashqari NaHCO3 nordon tuz bo‘lib ichimlik sodasi sifatida kundalik turmushda foydalanib kelamiz. Pishiriqlarni oshirishini ta’minlaydigan yana bir tuz bu $NH_4(CO_3)_2$ ammoniy karbonat bo‘lib (разрыхлитель) nomi bilan mashhur tuz[4]. Hayvonlarga beriladigan maxsus tuz bor bu NaCl·KCl silvinit tuzi hisoblanadi. Tuzlardan faqat NaCl osh tuzi sho‘r ta’mga ega qolgan barcha tuzlar achchiq yoki nordon ta’mga ega bo‘ladi.

2-savol: O‘simliklar qanday tuzlardan foydalanadi? Mazkur topshiriqni bajarishda o‘quvchilar o‘simliklarning oziqlanishi mineral o‘g‘itlar haqidagi bilimlarga ega bo‘lishlari kerak.

Baholash mezoni:Biz o‘simliklarga beradigan o‘g‘itlar ham tuzlar hisoblanadi. $NaNO_3$-natriy nitrat, $KNO_3$-kaliy nitrat, ammoniy nitrat, ammoniy fosfat kabi tuzlardan keng foydalaniladi. O‘simliklar o‘zi uchun kerakli Na, K, P larni aynan mana shu o‘g‘itlar orqali o‘zlashtirib oladi.

3-savol: Tuzlarning tirik organizmlarda qanday ta’siri bor?

Baholash mezoni: Natriy xloridning 0,9 % li eritmasi tibbiyotda fiziologik eritma hisoblanib, qonni yuvishda ishlatiladi, tananing turli patologik sharoitlarida natriy yetishmovchiligini qoplaydi va tomirlarda aylanib yuradigan suyuqlik hajmini vaqtincha oshiradi. 0,9% natriy xlorid eritmasidan boshqa dorilar uchun asosiy eritma (erituvchi) sifatida foydalaniladi.

Mazkur savollar o‘quvchilarning ma’lumot va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyalarini baholashga qaratilgan.

Nega suv muzga aylanadi?

Agar muzlayotgan hovuz, ko‘l yoki daryoga e'tibor bergan bo‘lsangiz, dastlab suvning yuzasi muzlay boshlaganini ko‘rgansiz, albatta. Agar hovuzlar, ko‘llar, dengizlar tubidan muzlay boshlasa, hayotimizda ko‘p narsalar o‘zgarib ketishi mumkinligini hech o‘ylab ko‘rganmisiz? Unda Yerdagi iqlim o‘zgaribgina qolmasdan, suvda yashaydigan ayrim mavjudotlar butunlay qirilib ketishi mumkin edi. Endi hovuzdagi suv qanday qilib muzga aylanishini ko‘zdan kechiraylik. Suv ustidagi havo sovigach, u suvning yuqori qatlamini ham sovitadi va sovuq quyi iliq qatlamga nisbatan og‘irlashib, pastga tusha boshlaydi. Bu jarayon butun hovuzdagi suvning temperaturasi Selsiy shkalasi bo‘yicha 4 gradusga yetguncha qadar davom etadi. Ammo havo temperaturasi pasayaveradi. Suvning ustki qatlamlari 4 darajadan pastroq temperaturaga yetgach, pastga tushmaydi. Chunki 4 darajadan quyi temperaturagacha sovigan suv yengilroq bo‘lib qoladi. Shunday qilib, suvning yuqori qatlamlari muzlagan holga keladi. Temperatura muzlash nuqtasi — 0 darajaga yetgach yoki undan ham quyi tushgach, o‘ta mayda kristallchalar paydo bo‘la boshlaydi. Bunday har bir kristallning olti nuri bo‘ladi. Ular o‘zaro birlashib, suv yuzasida muz po‘stlog‘ini hosil qiladi. Muz ba’zan shaffof bo‘ladi. Ba’zida esa bunday bo‘lmaydi. Nega? Suv muzlayotganda, undan o‘ta mayda pufakchalar ajralib chiqa boshlaydi. Ular muz kristallari nurlariga yopishib oladi. Qancha ko‘p muz kristallchalari hosil bo‘lsa, shunchalik ko‘p pufakchalar paydo bo‘ladi. Bu esa tiniq bo‘lmagan muz paydo qiladi[5].

Agar muz ostidagi suv oqar bo‘lsa, havo pufakchalari bir joyga yig‘iladi va shaffof muz hosil bo‘ladi. Suvning, boshqa ayrim moddalar qatori suyuq holatdan qattiq holatga o‘tganda, hajmi toraymaydi. U muzlaganda, o‘z hajmining to‘qqizdan bir qismi qadar kengayadi, ya’ni to‘qqiz litr suv muzlaganda, undan 10 litr qattiq muz hosil bo‘ladi. Qishda avtomobillar radiatori va suv quvurlari suv muzlashi oqibatida kengayib, yoriladi[6].

1-savol: Ichimlik suvi yer yuzasining qancha qismini tashkil qiladi.

Baholash mezoni: Chuchuk suvning 70 foizi muz qoplamalarida, 30 foizi esa tuproqdagi nam yoki olish qiyin bo'lgan yer osti qatlamlarida joylashgan. Yer yuzida mavjud bo'lgan chuchuk suv zahiralarining bir foizidan insoniyat foydalanishi mumkinligi manbalarda qayd etilgan.

2-savol: Suvning qattiqligi deganda nimani tushunasiz? Suvni yumshatishda qanday usullardan foydalanasiz?

3 Kimyoni o‘qitishda zamonaviy texnologiyalar o‘quv qo‘llanma/ Ixtiyarova G. Bekchanov D. Ahadov M. Toshkent- 2019.223-230 bet.
4 “Biz bilgan va bilmagan kimyo” M.Primqulov, R.Ziyayev, B.Akbarov, U.Haydarov “O‘qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2011.108 b.
5 “Biz bilgan va bilmagan kimyo” M.Primqulov, R.Ziyayev, B.Akbarov, U.Haydarov “O‘qituvchi” Nashriyot-matbaa ijodiy uyi Toshkent - 2011.108 b.
6 Qiziqarli kimyo. T. Do‘stmurodov, A. Aloviddinov Akademiya Toshkent 2005.105-bet.

Mazkur topshiriqni bajarishda o‘quvchilar suvning fizik va kimyoviy xossalarini, suvning xususiyatlarini bilishlari kerak. O‘quvchilar mazkur topshiriqlardan kundalik turmushda foydalanish jarayonida o‘zlari uchun kerakli xulosalarni chiqarishlari ham mumkin.

Baholash mezoni: Tabiatda toza suv uchramaydi: uning tarkibida doimo biror moddalar aralashgan bo‘ladi. Jumladan, suv yer qobig‘idagi tuzlar bilan o‘zaro ta’sirlashib, muayyan qattiqlikka ega bo‘lib qoladi. Agar suvda bu kationlarning konsentratsiyasi yuqori bo‘lsa, u holda suv qattiq, agar kam bo‘lsa — yumshoq deyiladi. Xuddi ana shu kationlar tabiiy suvlarga o‘ziga xos xususiyatlar baxsh etadi. Kir yuvilganda qattiq suv gazlamalarning sifatini yomonlashtiradi va ko‘p sovun ishlatishga to‘g‘ri keladi, sovun $Ca_2+$ va $Mg_2+$ kationlarini bog‘lashga sarflanadi va ko‘pik shu kationlar to‘liq, cho‘kkandan keyingina hosil bo‘ladi. Ba’zi sintetik yuvish vositalari qattiq suvda yaxshi yuvadi, chunki ularda kalsiy va magniy tuzlari oson eriydi. Qattiq suvda ovqat mahsulotlarining pishishi qiyin bo‘ladi, unda qaynatilgan sabzavotlarning esa ta’mi bo‘lmaydi. Choy yaxshi chiqmaydi va ta’mi yo‘qoladi. Shu bilan birga bu kationlar sanitariya-gigiyena jihatdan xavfli emas, magniy kationlari $Mg_2+$ ning miqdori ko‘p bo‘lganda dengiz yoki okeandagi singari suv taxirroq bo‘ladi va odam ichagida surgi sifatida ta’sir etadi.

Suvdagi qattiqlikni yo‘qitishda turli usullardan foydalaniladi: Qaynatilganda kalsiy kationlari $Ca_2+$ karbonat holida cho‘kmaga tushadi.

Mazkur savollar o‘quvchilarning ma’lumot va dalillarni ilmiy talqin qilish kompetensiyalarini baholashga qaratilgan.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, bugungi Yangi O‘zbekistonda yangicha yondashuvlar, ilg‘or xorijiy tajribalardan foydalanib o‘qitish tizimini tashkil qilish o‘quvchilarida kimyo fanini o‘qitishda uzluksizlik va uzviylikni ta’minlash dolzarb vazifa sifatida qaraladi buni amalga oshirishda PISA tadqiqotlaridan foydalanib yuqorida keltirilgan tavsiyalarni qo‘llab kimyo darslarini shakllantirib, borsak albatta ko‘zlangan maqsadga birgalikda erishamiz va jamiyatda raqobatbardosh kadrlarni tayyorlashga zamin yaratgan bo‘lamiz.





# RADIOAKTIV EKSPERIMENTAL NATIJALARNI "BBB" METODIDAN FOYDALANGAN HOLDA TAHLIL QILISH

***Adham Raxmatillayevich Turg‘unov*** - *o‘qituvchi, Namangan muhandislik qurilish instituti*

***Annotatsiya:*** *Bu maqolada "BBB" metodidan foydalanilgan holda radioaktivlik mavzusini tushintirilgan va exsperimental natijalar tahlil qilingan. Fizika darslari uchun grafik usul yaratish uchun misollar, BBB metodini yaratish uchun tavsiyalar berilgan. Radioaktivlik mavzusini o‘qitishda turli xil metodlardan foydalangan holda mavzuni tushintirish juda samarali hisoblanadi. O‘qitishda mavzuni tushinarli bo‘lishi uchun BBB metodidan foydalanilsa o‘tiladigan mavzuni tinglovchilar oldindan qay darajada bilishlarini aniqlab olib faqat yangi tushunchalarni o‘rgatish uchun o‘qituvchiga darsning aniq xaritasini belgilab olish imkonini berishi ko‘rsatilgan. Atom fizikasi bo‘limini raqamli texnologiyalardan foydalanib o‘qitishda talabalarni pedagogik va ilmiy-tadqiqot faoliyatga tayyorlash hamda kommunikativ, shaxsiy, texnologik, innovatsion kasbiy kompetentlik komponentlarini rivojlantirishning elektron-didaktik vositalari zamonaviy android dasturlash (Python, Java, S++), veb dasturlash (PHP, CSS) va virtual simulyatorlardan kompleks foydalanish natijasida ishlab chiqilgan.*

***Аннотация:*** *В этой статье объясняется тема радиоактивности с использованием метода BBB и анализируются экспериментальные результаты. Приведены примеры создания графического метода для уроков физики, рекомендации по созданию метода BBB. Объяснение темы с использованием различных методов очень эффективно при изучении темы радиоактивности. Показано, что если метод BBB используется для того, чтобы сделать тему понятной в обучении, он позволяет учителю определить точную карту урока для обучения новым понятиям только после определения того, что аудитория уже знает тему. Разработаны с применением комплексно современного андроидного программирования (Python, Java, C++), веб программирования (PHP, CSS) и виртуальных симуляторов электронные дидактические средства подготовки студентов к педагогической и научно-исследовательской деятельности, развития коммуникативного, личностного, технологического, инновационного компонентов их профессиональной компетентности.*

***Abstract:*** *This article explains the topic of radioactivity using the BBB method and analyzes the experimental results. Examples for creating a graphic method for physics lessons, recommendations for creating a BBB method are given. Explaining the topic using different methods is very effective in teaching the topic of radioactivity. It is shown that if the BBB method is used to make the topic understandable in teaching, it allows the teacher to determine the exact map of the lesson in order to teach new concepts only after determining that the audience already knows the topic. Electronic-didactic tools for the preparation of students for pedagogical and scientific research activities and the development of communicative, personal, technological, innovative professional competence components in the teaching of atomic physics department using digital technologies modern android programming (Python, Java, S++), web programming (PHP, CSS) and developed as a result of complex use of virtual simulators.*

***Kalit so‘zlar:*** *Radioaktivlik, gamma nurlanish, BBB metodi, o‘qitish, tushunchalar, yozuvli o‘qitishdan qochish, tavsiyalar.*

***Ключевые слова:*** *радиоактивность, гамма-излучение, метод BBB, обучение, понятия, уклонение от письменного обучения, рекомендации.*

***Keywords:*** *Radioactivity, gamma radiation, BBB method, teaching, concepts, avoiding written teaching, recommendations.*

Fizika fanining radioaktivlik mavzusini tinglovchilarga samarali yetkazib berish uchun turli xil metodlardan foydalangan holda tushuntirish tinglovchilarda mavzuni to‘laqonlik tushunarli bo‘lishi uchun yordam beradi. O‘qituvchi qanday uslubda dars bermasin maqsadiga yetish imkonini izlaydi, bu borada turli xil ta’lim metodlari va innovatsion metodlardan foydalanadi. Mamlakatimizda mustaqillik yillari davomida oliy ta’lim muassasalarining moddiy-texnik bazasini mustahkamlash, o‘quv jarayonini BBB metodi asosida texnologiyalash, o‘quv-uslubiy, ilmiy ta’minotini rivojlantirishga qaratilgan

islohotlar fundamental, talabalarni aniq va tabiiy fanlar bo‘yicha tadqiqotchilik faoliyatiga tayyorlashda axborot texnologiyalarini qo‘llash imkoniyatlarini kengaytirdi.

Shuningdek, zamonaviy pedagogik texnologiyalar ta’lim jarayonining samarasini oshiradi, tinglovchilarning erkin fikrlash jarayonini shakllantiradi, tinglovchilarda bilim olishga ishtiyoqi va zavqini oshiradi, bilimlarini mustahkam o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda mustaqil foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida»gi PF-4947-son, 2018-yil 19-fevraldagi «Axborot texnologiyalari va kommunikatsiyalari sohasini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi PF-5349-son farmonlari, 2018-yil 5-iyundagi «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida» gi

PQ-3775-son qarori hamda boshqa huquqiy-me’yoriy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda mazkur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qilgan[2].

Ta’lim, bir so‘z bilan aytganda, mamlakatning kelajakdagi istiqbolini ta’minlaydigan yosh avlodni tarbiyalash, savodli qilishdir. Turli ilmiy tadqiqot

metodlarini fizika fanini o‘qitish jarayonida qo‘llash ta’lim samaradorligini oshiradi, o‘quvchilarning mustaqil fikrlash jarayonini shakllantiradi, o‘quvchilarda mavzuni o‘rganishga ishtiyoq va qiziqishni oshiradi, olingan bilimlarni mustahkamlash, o‘zlashtirish, ulardan amaliyotda erkin foydalanish ko‘nikma va malakalarini shakllantiradi.

Mavzuni tinglovchilarga tushuntirishda "BBB" metodi bir nechta qulayliklarga ega. BBB qisqartma so‘z bo‘lib: bilaman; bilmoqchiman; bilib oldim degan ma’nolarni anglatadi. Ushbu metod tinglovchilarga muayyan mavzular bo‘yicha bilimlari darajasini baholay olish imkonini beradi. Metodni qo‘llash jarayonida tinglovchilar bilan guruhli yoki ommaviy ishlash mumkin. Guruh shaklida ishlashda mashg‘ulot yakunida har bir guruh tomonidan bajarilgan faoliyat tahlil etiladi.

Bu metoddan foydalangan holda fizika mavzularini tushuntish ancha samara beradi lekin hozirgacha eksperimental natijalarni "BBB" metodidan foydalangan holda taxlili ko‘rilmagan faqat fizikani turli mavzularini nazariy tushuntirishda bu metoddan foydalanilgan xolos[3].

Aynan eksperimental natijalarni BBB metoddan foydalanib tahlil qilish tinglovchilarda o‘rganilayotgan mavzuni tajriba o‘tkazishdan oldin mavzu yuzasidan bilimlari qaydarajada ekanligini aniqlavolib tajribani yakunlagach tinglovchilar mavzuni qaydarajada o‘zlashtirganliklarini bilib olish mumkin shu jumladan nazariy bilimlarni eksperiment o‘tkazish orqali mustahkamlab olinadi[4].

Fizik eksperiment o‘tkazishda o‘tkazilishi lozim bo‘lgan eksperiment haqida kuchli bilimga va ko‘nikmaga ega bo‘lish juda zarur hisoblanadi sababi ma’lumki har bir eksperiment birinchi navbatda eksperimentatorning hayotiy hafvsizligi bo‘lsa keyingi navbatda ancha miqdordagi mablag‘ga borib taqaladi shu boisdan eksperimentator tomonidan priborlarni puhta o‘rganganligi, o‘tkazilayotgan tajribadan aniq maqsadga ega ekanligini anglash muhim hisoblanadi. Shuning uchun eksperementator tomonidan o‘tkazilishi lozim bo‘lgan eksperiment haqida oldindan tinglovchilar qaydarajada bilimga egalar va eksperiment o‘tkazishdan maqsad nima qolaversa eksperiment tahlili orqali tinglovchilar nimalarni o‘rganishadi shu kabi savollarga avvaldan eksperimentator javoblarni bilishi muhim hisoblanadi. Shunday ekan bu maqolada turli eksperimental natijalarni o‘tkazishda va tahlil qilishda BBB metodi yordamida o‘rganish maqsad qilib qo‘yildi[5].

Bu maqolada ilmiy tadqiqot metodlaridan keng miqyosda foydalanish mumkinligi va eksperiment natijalarini tahlil qilishda interfaol metodlarni qo‘llash mumkinligini ochib berish maqsad qilingan.

Tadqiqot metodologiyasi

1 *Mirziyoyev Sh.M. “Mamlakatimizda ta’lim-tarbiya tizimini takomillashtirish, ilm-fan sohasi rivojlanishini jadallashtirish” masalalari muhokamasi bo‘yicha videoselektor yig‘ilishi. 30 oktabr 2020 yil. https//uza.uz.*

2 *Mirziyoyev Sh.M. “O‘zbekiston – yoshlar mamlakati” O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining BMT Bosh assambleyasining 72-sessiyasida so‘zlagan nutqi. 20.09.2017. https://president.uz/uz/lists/view/1063.*

3 *Feruza Mardanova. “Использование интерактивных методов при преподавание теме Показательные и логарифмические уравнения”. Центр научных публикаций (buxdu. uz) 8.8 (2021).*

4 *Zaynidinovich, Mislidinov Baxtiyor. “Pedagogik texnologiyalardan foydalanish asosida fizika o‘qitishning samaradorligini oshirish”. Ilm sarchashmalari: 88-91.*

5 *Boydedayev S. R., M.M.Umaraliyev, and A.R.Turgunov. “Application of the venn diagram method in the laboratory lesson” determination of young‘s modulus of different metals by bending method. Web of Scientist: International Scientific Research Journal 3.9 (2022): 377-381*





Maqolada radioaktivlik nazariyani va gamma-nurli spektroskopiya nurlanishni eksperemental natijalarni "BBB" metodi bilan tahlil qilingan.

Radioaktivlikni birinchi bo‘lib 1896-yilda A.Bekkerel kashf etdi. Radioaktiv nurlanishlarning fotoplastinkaga ta’sir etishini va ionlashish xususiyatlarini aniqladi. Radioaktivlik yemirilish vaqtida uch xil (α,β,γ) nurlanish vujudga keladi va nurlanish intensivligi tashqi ta’sirlarga (temperatura, elektromagnit maydon ta’siri, deformatsiya) ga bog‘liq emas. Radioaktivlik na’munalardan chiquvchi α- nur ikki marta ionlashgan geliy atomi, β-nur tez elektronlar oqimi, γ-esa qisqa elektromagnit to‘lqin. Bu hodisalarini atom, molekulalarda bo‘ladigan jarayonlar deb tushuntirib bo‘lmaydi, balki yangi soha-yadroda sodir bo‘ladi.

Vaqt birligida yemirilayotgan dN radioaktiv yadrolarning soni shu radioaktiv yadrolarning umumiy soni N ga proporsional, dt vaqt oralig‘ida dN ga kamayayotgan bo‘lsa:

**-dN=λNdt (1)**

bo‘ladi. Bu yerda λ-radioaktiv yemirilish doimiysi, o‘lchami [s-1], vaqt birligida yemirilishlar soni, nisbiy kamayish tezligini ifodalaydi; manfiy ishora vaqt o‘tishi bilan radioaktiv yadrolar sonining kamayishini ko‘rsatadi. (1) tenglamani yechish uchun quyidagicha yozamiz:

$$\frac{dN}{N} = -\lambda dt, \text{ integrallasak}$$

$$\int \frac{dN}{N} = -\lambda \int dt; \ \ln N = -\lambda t + \ln C,$$

$t=t_0$ bo‘lganda $N=N_0$; $\ln N=\ln C=\ln N_0$; $N=N_0=C$

$$\ln\frac{N}{N_0} = -\lambda t; \ N = N_0 e^{-\lambda t}. \quad (2)$$

(2) radioaktiv yemirilish qonuni deyiladi. Formula yordamida istalgan vaqt momentida yemirilish extimolligini aniqlash mumkin. Lekin (2) formula orqali radioaktiv yadrolarni yemirilish intensivliklarini bevosita taqqoslab bo‘lmaydi, u aniq fizik ma’noga ega emas. Shu maqsadda yarim yemirilish tushunchasi kiritilgan. Yarim yemirilish davri shunday vaqtki, bu davr ichida dastlabki radioaktivlik yadro soni ikki marta kamayadi.

U holda (2) ifodani yoza olamiz:

$$\frac{N_0}{2} = N_0 e^{-\lambda T_{1/2}}, \quad \frac{1}{2} = e^{-\lambda T_{1/2}}, \quad \ln 2 = \lambda T_{1/2}, \quad T_{1/2} = \frac{\ln 2}{\lambda} = \frac{0.693}{\lambda} \quad (3)$$

(3) ifoda yarim yemirilish davri bilan yemirilish doimiysi orasidagi bog‘lanishni ifodalaydi.

Gamma-nurli spektroskopiya mikroobyektlarning (birinchi navbatda atom yadrolari) xususiyatlarini aniqlashning eng aniq usullaridan biridir, chunki elektromagnit o‘zaro ta’sir γ-kvantlarning emissiyasi uchun javob beradi, ularning xususiyatlari boshqa fundamental xususiyatlarga qaraganda yaxshiroq o‘rganiladi. Shuning uchun gamma-spektroskopiya yordamida olingan eksperimental ma’lumotlarning talqini eng oddiy va eng aniq hisoblanadi.

Bir guruh yadro kursini o‘rganayotgan tinglovchilar o‘rtasida radioaktiv eksperimentlarni tahlilini o‘rganishda BBB medodi qo‘llab ko‘rildi, ya’ni gamma nurnanish xaqida tinglovchilarni dastlabki bilimlarini aniqlab olindi. Aksariyat tinglovchilar gamma nurlanish haqida umumiy ma’lumotlarga ega ekanliklari ma’lum bo‘ldi. Bulardan: gamma-nurlanishda yadroda massa soni, zaryadi o‘zgarmasligi, faqat energiya o‘zgarishini gamma-nur tinch holat massasi nol, zaryadsiz, spini I=1 ga teng bo‘lgan qisqa elektromagnit to‘lqin ekanligi haqida umumiy ma’lumotlarga ega ekanliklari ma’lum bo‘ldi[6].



1-rasm. Vodorod atomidagi elektronlarning holat va to‘lqin funksiyasini o‘rganish mavzusidagi dasturiy mahsulotning ko‘rinishlari

Yemirilishda neytrino paydo bo‘lsa, albatta teskari jarayonham paydo bo‘ladi. 1-rasmda tajriba quyidagicha o‘tgan. Antineytrino manbayi sifatida sekundiga $10^{18}$—$10^{19}$ ta antineytrino oqimini beradigan yadro reaktoridan foydalanilgan. Bak-nishonga kelib

6 *T.M.Mo‘minov, A.B.Xoliqulov, Sh.X.Xushmurodov “Atom yadrosi va zarralar fizikasi” O‘zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti Toshkent-2009.*

tushgan antineytrino nishon protoni bilan $\bar{\nu} + p \rightarrow n + e^{+}$ reaksiya bo'yicha ta'sirlashsa, neytron va pozitron hosil bo'ladi. Pozitron 1 sm atrofidagi masofani $10^{-9}$s da o'tib, elektron bilan annigillyasiyalanadi $(e^{+} + e^{-} \rightarrow \gamma + \gamma)$ va ikkita γ gamma-foton hosil qiladi. Fotonlar mos tushish sxemasiga ulangan $D_1$, $D_2$, va $D_3$-detektorlarda qayd qilinadi.

Neytron esa suvda ketma-ket to'qnashish natijasida o'z energiyasini kamaytirib Cd yadrosida yutiladi. Kadmiy yadrosi uyg'ongan holatdan umumiy energiyasi 10MeV gacha bo'lgan bir necha γ_Cd gamma-fotonlar chiqarib asosiy holatga o'tadi. γ_Cd-kvantlar ham $D_1$, $D_2$, va D -detektorlarda qayt qilinadi. Qurilma antineytrinoning proton bilan o'zaro ta'sirlashishi, neytronlarni sekinlatish va diffuziya vaqti (1dan 25 mks gacha) oralig'i bo'yicha siljigan ikki impulsning hosil bo'lishiga moslashgan mos tushish sxemasi asosida ishlaydi.

Qurilma 1400 soat uzluksiz ishlab, bir soatda o'rtacha 2,88±0,22 impulslarni qayd qiladi. Bu antineytrino bilan protonning o'zaro ta'sir kesimi $s_n \sim 10^{-43} sm^2$ ga teng ekanligini ko'rsatdi.

Bu tajribani kuzatishda, tinglovchilar pozitronni $\bar{\nu} + p \rightarrow n + e^{+}$ reaksiya natijasida hosil qilinishi va pozitronni elektron bilan annigillyasiyalanishi natijada ikkita foton hosil bo'lishini o'rganishadi. Fotonlarni qayd qilishda detektorlardan foydalanish kerakligi qolaversa detektorlarni tuzilishi ishlash mehanizmi haqida ham ma'lumotlarga ega bo'lishadi. Reaksiya natijasida ajralib chiqqan neytronlarni sekinlatishda suvdan foydalanish kerakligi va kadmiy yadrosida yutilib, yadroni uyg'ongan holatga olib chiqishini o'rganishadi. Uyg'ongan yadro asosiy holatga o'tganda 10MeV lik gamma-fotonlar chiqarishini bilib olishadi.

Xulosa va takliflar. Maqola radioaktiv eksperimental natijalarni "BBB" metodidan foydalangan holda tahlil qilishdan iborat edi. Tahlilda gamma-nurlarni hosil bo'lishi ularni yutilishini kuzatildi.

"BBB" metodni birinchi qismi bo'lgan BILAMAN qismida dastlab tinglovchilar gamma-nurlar haqida nimalarni bilishlari aniqlab olindi. Ikkinchi qismi bo'lgan BILISHNI XOHLAYMAN qismida esa gamma-nurlarni qanday hosil qilish va eksperimental natijalar o'tkazish deb baholandi. Uchinchisi BILIB OLDIM qismida $\bar{\nu} + p \rightarrow n + e^{+}$ reaksiya o'tishi, turli yadroviy reaksiyalarda antineytrino hosil bo'lishi, elektron va pozitronni annigillyasiyasi natijasida gamma-fotonlar hosil bo'lishini hamda kadmiy uyg'ongan yadrosi asosiy holatga o'tganda ham gamma-fotonlar hosil bolishini va yadro reaksiyalari haqida umumiy ma'lumotlarga ega bo'lishdi. Laboratoriya mashg'ulotlarini o'qitishda metodik, pedagogik imkoniyatlardan keng foydalanish, didaktik prinsiplar asosida ularning imkoniyatlarini kengaytirish va rivojlantirish orqali o'qitish metodikasi takomillashtirildi.

Talabalarning «Atom fizikasi" bilan bog'liq zamonaviy kasbiy kompetentligini shakllantirishga oid innovatsion ta'lim texnologiyalari asosida ilmiy-metodik tavsiyalar ishlab chiqish orqali bo'lajak mutaxassislarni tayyorlashda o'z-o'zini namoyon qilish, boshqarish va baholash kompetensiyalarini shakllantirish, ilmiy tasavvurlarni rivojlantirish metodik jihatdan asoslandi.





# KIMYODAN MASALA YECHISH YORDAMIDA BILIM VA KO'NIKMALARNI RIVOJLANTIRISH

***G'olibjon Tolibjonovich Ikromov -*** *o'qituvchi,Toshkent shahar Shayxontohur tumani 102-sonli ixtisoslashtirilgan davlat umumta'lim maktabi*

***Annotatsiya:*** *Maqolada o'quv jarayonida o'quvchilarning masala yechish orqali bilim va ko'nikmalarini rivojlantirish mumkinligi haqida so'z yuritilgan. Maqolada ilmiy asoslangan masalalar yechish usullari ochib berilgan. Bu o'quvchilarni ijodiy fikrlashga, fikrlash talab qilinadigan masalalar va ular yechimlarining qisqa, aniq yechish usullarini o'rgatadi.*

***Аннотация:*** *В статье рассматривается о возможности развития знаний и умений учащихся в ходе учебного процесса путем решения задач. В статье описаны методы решения научно обоснованных задач. Они учит студентов мыслить творчески, решать задачи требующие мышления, и находить короткие и четкие пути их решения.*

***Abstract:*** *This article discussed the possibility of developing students' knowledge and skills in the course of the educational process by solving problems. The article describes methods for solving scientifically based problems. They teach students to think creatively, solve problems that require thinking, and find short and clear ways to solve them.*

***Kalit so'zlar:*** *bilim, malaka, ko'nikma, kompetensiya, o'rtacha molekulyar massa, massa ulush, absolyut massa.*

***Ключевые слова:*** *знания, умение, компетентность, средняя молекулярная масса, массовая доля, абсолютная масса.*

***Keywords:*** *knowledge, skill, competence, average molecular weight, mass fraction, absolute mass.*

Bugungi kunda jahon miqyosida amalga oshirilayotgan chuqur iqtisodiy-ijtimoiy islohatlardan kelib chiqqan holda ta'lim va tarbiya jarayoni sifatini rivojlangan demokratik davlat barpo etish talablariga mos ravishda oshirish, o'quv jarayoniga ta'limning zamonaviy shakllari va usullarini joriy etish muhim. Mazkur vazifalar umumiy o'rta ta'lim tizimida shaxsga yo'naltirilgan ta'lim strategiyasi talablari asosida kompetensiyaviy yondashuvni joriy etish orqali amalga oshiriladi. Ta'lim tizimiga kompetensiyaviy yondashuvga asoslangan davlat ta'lim standartlarini joriy etish, o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shaklantirish bosqichlari va mezonlarini aniqlash, o'qitish jarayonini kompetentsiyaviy yondashuv asosida tashkil etishning didaktik va metodik ta'minotini takomillashtirish, o'quvchilarda fanga oid kompetensiyalarni shakllanganlik darajasini nazorat qilish va baholash tizimini ishlab chiqish dolzarb ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kun jamiyati har bir insondan o'z salohiyatini, bilim, ko'nikma va malaka darajasini tinimsiz orttirib borishni talab etmoqda. "Inson salohiyati eng faol, eng bunyodkor omil bo'lib, u mamlakatning islohotlar va tub o'zgarishlar yo'lidan tinimsiz ilgarilab borishini ta'minlab beradi. Bu omilning kuchi va ta'siri, eng avvalo, yuksak ma'naviyat bilan, jamiyatning iqtisodiy va ijtimoiy rivojlanish darajasi bilan belgilanadi"[1].

Shu o'rinda ta'kidlab o'ish joizki, o'quvchilarda kimyodan masalalar yechish orqali bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish kimyoni o'rganishda muhim hisoblanadi.

Kimyo fanidan masala yechishni bilish predmetni ijodiy o'zlashtirishning asosiy mezoni hisoblanadi. Shuning uchun bitiruv imtihonlarida va oliy o'quv yurtlarida kirish imtihonlarida imtihon biletlariga hamma vaqt masalalar va avvalo hisoblashga doir masalalar kiritiladi. Bu fanni o'rganish bilimlarni tekshirishning qulay usuli va ularni mustahkamlashning muhim vositasidir, zero

1 *Karimov I.A. O'zbekiston XXI asr bo'sag'asida: xavfsizlikka tahdid, barqarorlik shartlari va taraqqiyot kafolatlari. –T.: O'zbekiston, 1997. 330-b*

bilim, ko'nikma va malakalarni rivojlantirish davr talabidir[2].

Ko'pchilik o'quvchilar kimyodan masalalarni to'liq yechishni bilmaydi. Buning sabablarini to'liq o'rganib chiqish juda qiyin, bunga kimyo o'quv adabiyotlardagi bilimlar yetishmasligi yoki o'quvchining fikrlash jarayonidagi kamchiliklari bo'lishi mumkin. Kimyodan masalalar yechish jrayoni bir qancha muhim bosqichlardan iborat. Bu bosqichlar bir-biri bilan ma'lum tartibda mantiqiy bog'liqdir. O'quvchilarga kimyodan masalalar yechishni o'rgatishning muhim tamoni shundaki, ulardagi aqliy qobiliyatlarni umulashtirishdan iboratdir. Shuning uchun o'quvchilar bilimini umumlashtirish va jamlash o'qitishning sifat va natijasini oshiradi. Adabiyotlarda fikrlash ikki hilga bo'lib ko'rsatiladi,ular nazariy va emperikdir. Ko'pchilik o'quvchilar emperik fikrlaydi,ya'ni ular har bir masalani yangicha deb o'ylab,ular bir-biri bilan bog'liq emas deb qarashadilar.

Natijada ularda masala yechish desa qandaydir o'ziga xos "qo'rquv" hissi paydo bo'ladi. Bunday o'quvchilarga ko'p masala yechdirish orqali bilim va ko'nikma hosil qilinmasa,ularda mustaqil masala yechish malakasi hosil bo'lmaydi. O'quvchilarda nazariy fikrlashni oshirish esa kimyo o'qitish sifat va natijalarini oshiradi. Masala ma'nosini tushunish, undagi ma'noni anglash,jarayonlar ketma-ket bog'liqligini ko'z oldiga keltirish va unda yashirin muammoni ko'ra bilish, bu o'quvchilardagi bilimlarning umumlashgan holati bo'lib masala yechishga nazariy yondashishdir. O'quvchilar bilim, ko'nikma va malakalarini kimyodan masalalar yechish orqali umumlashtirishi va jamlashi muhimdir. Osonroq masalalarni yechish natijasida umumlashgan bilim va ko'nikmalar yordamida o'quvchilar shunga o'xshash masalalarni, yangi tipdagi masalalarni va xatto qiyin masalalarni yechishi ham mumkin bo'ladi. Demak, kimyodan masalalar yechishga doir nazariy bilim va ularni yechishni bilishlari, o'quvchilarda har xil masalalarni ma'lum maqsadli yechishni amalga oshirishga yordam beradi[3].

Pedagogik eksperimentlarimiz natijalari tahlili ham bu fikrlarimizning to'g'riligini tasdiqlaydi. Pedagogik faoliyatimiz davomida ham kimyodan masalalar yechishni mukammal egallagan o'quvchilarimiz tengdoshlari orasida o'z o'rnini topib, hurmatga sazovor bo'lishmoqda. Biroq bunday o'quvchilar safini ko'paytirish biz o'qituvchilar zimmasidagi sharfli va o'z vaqtida og'ir bo'lgan yukdir. Ushbu olib borayotgan ilmiy metodik izlanishlarimiz kelgusida bunday o'quvchilar safini ko'paytirishga olib kelishiga ishonamiz.

O'quvchilar modda miqdori, mol, molyar massa, Avagadro soni, molyar hajm, reaksiyaning issiqlik effekti tushunchalarini mustahkamlash va umumlashtirish uchun bu tushunchalarni o'zida jamlagan masalalar yechishlari lozim. Bitta masalada turli mavzular jam bo'lsa, uni hal qilish uchun o'quvchi barcha o'tilgan mavzularga murojat qiladi, natijada bilimlar esga olinadi va ular o'rtasida bog'lanishlarni hamda umumiylikni jamlagan holda masala ishlashga kirishadi. Quyida bunday misol, masalalarga na'munalar va ularni yechimini keltiramiz[4]:

1. Qaysi holatda sulfat kislotani suyultirish to'g'ri berilgan?




Misol shartining tahlili: Kislota erimalarini tayyorlash jarayoni

Yechimi: Sulfat kislota suvni o'ziga yutib, ko'p miqdorda issiqlik chiqaradi. Shu sababli uni suyultirishda kislotaga suv qo'shish salbiy oqibatlarga olib keladi (kuchli portlash sodir bo'lishi mumkin). Sulfat kislotani suyultirish uchun uni oz-ozdan suvga qo'shiladi.

Sulfat kislotaning suvdagi eritmalarini sovitish yo'li bilan uning

$H_2SO_4 \cdot H_2O$, $H_2SO_4 \cdot 2H_2O$, $H_2SO_4 \cdot 4H_2O$

tarkibli gidratlari olingan.




2. quyidagi rasmdan foydalanib xlorning o'rtacha molekulyar massasini toping.

Misol shartining tahlili: element atom massasi uning izotoplari massalarining o'rtacha qiymatiga teng kattalik:

$$A_r = \frac{\omega_1 \cdot A_1 + \omega_2 \cdot A_2}{\omega_1 + \omega_2} = \frac{\omega_1 \cdot A_1 + \omega_2 \cdot A_2}{100\%}$$

Yechimi: Yuqoridagi formula asosida xlorning o'rtacha molekulyar massasini topiladi.

$$A_r = \frac{24.23 \cdot 35 + 75.77 \cdot 35}{24.23 + 75.77} = \frac{24.23 \cdot 35 + 75.77 \cdot 35}{100\%} = 35$$

3. Titanning absolyut massasini (g) hisoblang. ($A_r$(Ti) = 48; NA ≈ 6 x 1023;

$$1\ \mathrm{u} = \frac{10^{-23}}{6}\ \mathrm{g})$$

Misol shartining tahlili: element absolyut massasi (A) ning $^{12}C$ atomi absolyut massasining qismiga nisbatiga teng kattalik:

$$A_r = \frac{A}{\frac{1}{12} \cdot m(^{12}_{6}C)}$$

Dalton formulasi




element absolyut massasi (A) va 6,02 x $10^{23}$ ko'paytmasiga teng kattalik:

$$A_r = A \cdot 6{,}02 \cdot 10^{23}$$

Yechimi: 1) Elementning absolyut massasini hisoblash formulasi:

$$A = \frac{A_r}{N_A} = A_r \cdot \frac{10^{-23}}{6} \qquad (1)$$

Titanning absolyut massasini (1) formula bo'yicha hisoblaymiz:

2)

$$A = \frac{A_r}{N_A} = \frac{48}{6 \cdot 10^{23}} = 8 \cdot 10^{-23}\ \mathrm{g}$$

yoki

$$A = A_r \cdot \frac{10^{-23}}{6} = 48 \cdot \frac{10^{-23}}{6} = 8 \cdot 10^{-23}\ \mathrm{g}$$

4. 200 g 17% li kumush nitrat eritmasiga osh tuzining 10% li 300 g eritmasi ta'sir ettirilganda necha gramm tuz cho'kmaga tushadi. Eritmada qolgan tuzlarning massa ulushlarini (%) aniqlang.

Masala shartining tahlili: Ikkala tuzning o'zaro almashinish reaksiya tenglamasini yozish va jarayonda cho'kma modda hosil bo'lishi bilan hisoblash jarayoni.

Yechimi: $AgNO_3$ suvda yaxshi eriydi, eritmasidagi tuzning massasini hisoblaymiz. NaCl ham suvda eriydi va eritmasidagi tuzning massasini hisoblaymiz. Bu eritmalar o'zaro ta'sir ettirilganda yangi mahsulotlar hosil qiladi. Hosil bo'lgan AgCl tuzi suvda yomon eriydi. Reagentlardan birining massasidan ortib qoladi. Hosil bo'lgan eritmada ortib qolgan reagent va yangi tuz mavjud. Ularning massa ulushlarini (%) hisoblaymiz. Demak, quyidagi reaksiya tenglamalarini yozib olamiz.

Dastlab har bir eritmadagi tuzlarni massalarini (g) hisoblaymiz: 1.

$m_e = 200$ g; $\omega(AgNO_3) = 17\%$ 200 g — 100%; x g — 17% $x = \frac{200 \cdot 17\%}{100\%} = 34\ g\ AgNO_3$

$m_e = 300$ g; $\omega(NaCl) = 10\%$ 300 g — 100%; x g — 10% $x = \frac{300 \cdot 10\%}{100\%} = 30\ g\ NaCl$

Reaksiya tenglamasini yozamiz:

$$AgNO_3 + NaCl \rightarrow AgCl\downarrow + NaNO_3$$

Demak, cho'kma AgCl ekan. U hisobiga hosil bo'lgan eritma massasi kamayadi.

Reaksiyaga kirishayotgan moddalarni massalari orqali miqdorlarini (mol) hisoblaymiz va sarf bo'lgan moddani aniqlaymiz:

$M(AgNO_3)$ = 170 g/mol;

M(NaCl) = 58,5 g/mol;

$$n = \frac{m}{M} = \frac{34}{170} = 0.2\ mol\ AgNO_3$$

$$n = \frac{m}{M} = \frac{30}{58.5} = 0.513\ mol\ NaCl$$

2 Shomurotova, S.X. (2023). Kimyo fanidan masalalar yechish orqali o'quvchilarda bilish darajasini oshirish. O'zbekistonda fanlararo innovatsiyalar va ilmiy tadqiqotlar jurnali, 2(17), 541-544.
3 Iskandarov A.Yu. "Kimyodan masalalar yechish metodikasi" (darslik) -Toshkent: TDPU, 2018.
4 Sh.B.Formanova. "Kimyodan masalalar yechish metodikasi" (o'quv qo'llanma) T.: "Ilm-ziyo-zakovat", 2020.



TABIIY VA ANIQ FANLAR

Demak, $AgNO_3$ reaksiyaga to'liq kirishib ketgan. NaCl dan esa ortgan. Eritmada qolgan tuzlar: ortgan NaCl va hosil bo'lgan $NaNO_3$ ekan.

Eritmada qolgan tuzning va cho'kmani massalarini (g) sarflangan $AgNO_3$ orqali hisoblaymiz:

$$\underset{170}{\overset{34\,g}{AgNO_3}} + \underset{58{,}5}{\overset{x_1\,g}{NaCl}} \rightarrow \underset{143{,}5}{\overset{x_2\,g}{AgCl}} + \underset{85}{\overset{x_3\,g}{NaNO_3}}$$

$$x_1 = \frac{34 \cdot 58.5}{170} = 11.7\ g\ NaCl\ sarflangan$$

$$x_2 = \frac{34 \cdot 143.5}{170} = 28.7\ g\ AgCl\ cho'kma$$

$$x_3 = \frac{34 \cdot 85}{170} = 17\ g\ NaNO_3\ hosil\ bo'lgan$$

Demak, eritmada 17 g $NaNO_3$ va 18,3 g NaCl (30 – 11,7 = 18,3) bor ekan.

Hosil bo'lgan eritmani massasini (g) hisoblaymiz:

$m_{er}$ = (200 + 300) – 28,7 = 471,3 g

Hosil bo'lgan eritmadagi moddalarning massa ulushlarini (%) hisoblaymiz:

$$\omega(NaNO_3) = \frac{m(NaNO_3)}{m_{er}} \cdot 100\% = \frac{17}{471.3} \cdot 100\% = 3.6\%$$

$$\omega(NaCl) = \frac{m(NaCl)}{m_{er}} \cdot 100\% = \frac{18.3}{471.3} \cdot 100\% = 3.88\%$$

5. Quyidagi berilgan oddiy moddalar kislorod bilan reaksiyaga kirishib oksidlarni hosil qilsin?




Misol shartining tahlili: Yuqorida berilgan oddiy moddalarni grafikli organayzer "baliq skeleti" yordamida kislorod bilan reaksiya tenglamalari yoziladi.

Yechimi: Har bir elementning kislorod bilan hosil qilgan birikmalari reaksiya tenglamalari orqali ifodalanadi.

$$2Ca + O_2 \rightarrow 2CaO$$
$$2Mg + O_2 \rightarrow 2MgO$$
$$4P + 5O_2 \rightarrow 2P_2O_5$$
$$C + O_2 \rightarrow CO_2$$

Xulosa qilib aytganda, kimyo darslarining har xil qismlarida masala yechishdan foydalanib kimyo o'qitish jarayonini sifatini oshirish mumkin. Masalan, yangi mavzuni o'zlashtirishda, o'tilgan mavzuni mustahkamlashda, uyda va darsda mustaqil ishlashda, o'quvchilarni baholashda va nazorat ishlari olishda, mavzuni umumlashtirishda va hokazo.



TABIIY VA ANIQ FANLAR

# TEXNIK TA'LIMDA EKOLOGIK XAVFSIZLIK MA'NAVIYATNI SHAKLLANTIRISHDA MODERNIZATSIYA

***Sayyora Toshpo'latovna Davlatova*** - *o'qituvchi, Termiz agrotexnologiyalar va innovatsion rivojlanish instituti*

***Anotatsiya:*** *Ushbu maqolada ekologik xavfsizlik ma'naviyatni shakllantirishda O'zbekistondagi bir komponentli ta'lim tizimidan (Ekologiya fani), ko'p komponentli ta'lim tizimiga ekologik xavfsizlik ma'naviyatga oid maxsus fanlar, ekologiyaga oid yangi fanlar, fakultetlar, maxsus ta'lim muassasalariga o'tish tavsiya etiladi.*

***Аннотация:*** *В данной статье экологическая безопасность в формировании духовности от однокомпонентной системы образования (Экологическая наука) в Узбекистане к многокомпонентной системе образования, специальные науки, связанные с экологической безопасностью, духовность, новые науки, связанные с экологией, факультеты, специальные учреждениям образования рекомендуется пройти.*

***Abstract:*** *In this article, ecological security in the formation of spirituality from a single-component education system (Ecological science) in Uzbekistan to a multi-component education system, special sciences related to environmental security, spirituality, new sciences related to ecology, faculties, special education Institutions are recommended to pass.*

***Kalit so'zlar:*** *modernizatsiya, ta'lim, kommunikatsiya, metodlar, texnologiyalar, ekologik xavfsizlik, ekologik ma'naviyat, model.*

***Ключевые слова:*** *модернизация, образование, коммуникация, методы, технологии, экологическая безопасность, экологическая духовность, модель.*

***Keywords:*** *modernization, education, communication, methods, technologies, ecological safety, ecological spirituality, model.*

Ta'limda modernizatsiya – samarali, tez, sifatli, dinamik tarzda amal qilishga qodir ta'lim jarayonini turli yangi innovatsion vosita, usul, shakllar orqali ta'minlashdir. Modernizatsiya aslida mamlakatimizda ijtimoiy talab bo'lib, jamiyatimizning bugungi taraqqiyoti har sohada, jumladan ta'limda ham tub o'zgarishlarni taqozo etadi. Ta'lim modernizatsiyasi ta'lim jarayonini yangicha tarzda, yangicha shaklda, yangi mazmunda tashkil qilish, an'anaviylikdan noan'anaviylikka o'tish jarayonidir. Biroq modernizatsiyaning o'ziga xos murakkab jihatlari ham yo'q emas.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son[1], 2020-yil 6-noyabrdagi «O'zbekistonning yangi taraqqiyot davrida ta'lim-tarbiya va ilm-fan sohalarini rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi PF-6108-son[2] farmonlari, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021-yil 30-dekabrdagi "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-76-son[3], mazkur sohaga taalluqli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ushbu maqolada o'z aksini topgan.

Xo'sh, yangilanish mazmuni nimalarda o'zini namoyon etadi? Eng avvalo, ta'lim mazmunini takomillashtirish, uning moddiy-texnik bazasini yangilashda, ta'lim zaxiralarini kompyuter-axborot, yangi kommunikatsiya tizimlariga o'tkazishda, bilim berish texnologiyalarini yangilashda, o'qituvchi va talabaning ta'lim jarayoniga bo'lgan munosabatining o'zgarishida va boshqalarda.

"Inson va biosferaning koevolyutsiyasi" tushunchasini N.N.Moiseev[4]: "Biosfera noyob obyekt bo'lib, u bir nusxada mavjud. Bugun kechagidek emas, ertaga ham bugungidek

*1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son farmoni. PF-4947-son 07.02.2017. (lex.uz)*

*2 PF-6108-son 06.11.2020. (lex.uz).*

*3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Atrof-muhitni muhofaza qilish hamda ekologik nazorat sohasidagi davlat organlari faoliyatini tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida" PQ-76-son qarori. PQ-76-son 30.12.2021. (lex.uz)*

*4 Моисеев Н.Н., Восхождение к Разуму. - М:. "ИздАТ", 1993. – 174 с.*

bo'lmaydi. Biosfera bilan o'tkazilgan har qanday tajribalar qabul qilinishi mumkin emas" deb ilmiy jihatdan asoslaydi.

A.A.Rafiqov, Q.N.Abirqulov, A.N.Hojimatovlar[5] mamlakatimizda ekologik vaziyatlar va ekologik xavfsizlikni ta'minlash, ekologik xavfning manbalari va oqibatlari, ekologik xavfsizlikni ta'minlash omillarini ilmiy-nazariy jihatdan yoritib berishgan.

N.F.Reymers ekologik xavfsizlik masalasini ilmiy jihatdan tahlil qilarkan, "Tabiiy va antropogen omillarning o'zaro ta'sir etishi natijasida tirik mavjudotlar hayot tarzi va yashash muhitining turli darajasi va tezkorligida hosil bo'luvchi salbiy holatdan saqlanish mezoni" deb hisoblaydi.

S.A.Kiselev ta'lim muhitining ekologik xavfsizligi va uning pedagogik jihatlarini yoritib, o'qish davrida zamonaviy maktab o'quvchilarining salomatligida sezilarli darajada o'zgarishlar ro'y berishini ta'kidlab: "o'quvchi vaqtining katta qismini maxsus mikro-muhitda, ya'ni ta'lim muhitida o'tkazadi, bu esa o'z navbatida o'quvchi rivojlanishi, salomatligi va tarbiyasiga ta'siri boshqacha. Zero, ta'lim muassasasi atrof-muhitining ekologik xavfsizligini ta'minlash muammosi hayotiy ahamiyat kasb etadi" deb izohlaydi[6].

Ta'limda modernizatsiya – tizimning o'zini, ta'lim mazmuni, uning metodlari, shart-sharoitlar, ta'lim vositalari va turlari kabi masalalar majmuini qamrab oladi (1-rasm).




Ekologik xavfsizlik ma'naviyat bo'yicha texnik ta'lim modernizatsiyasi quyidagi amallarni o'z mazmuniga qamrab oladi: moddiy-texnik bazani kapital rekonstruksiya qilish va ta'mirlash, yangi zamonaviy asbob-uskunalarni joriy etish; ekologik xavfsizlik bo'yicha yangi mutaxassisliklar reestrini ishlab chiqish va joriy etish, yangi mutaxassisliklar bo'yicha ta'limni joriy etish, ular uchun o'quv dasturlari, DTS va ularni ta'lim amaliyotiga joriy etishning istiqbol reja-dasturlarini ishlab chiqish; zamonaviy ta'lim ta'minotini vujudga keltirish, xususan, o'quv-laboratoriya, kompyuter texnikalari va o'quv dasturlari, darslik, o'quv metodik adabiyotlar bilan qurollantirish, ular mazmunini takomillashtirish va shaklini zamonaviylashtirish; zamonaviy pedagogik innovatsiyalarni egallagan, yuksak kompetensiyali, ekologik ta'lim rivojlanish tendensiyalarini anglagan, xavfsizlik kvalifikatsiyasiga ega, raqobatbardosh pedagogik kadrlar bilan pedagogik jarayonni ta'minlash, mamlakatimiz ekologik muammoli hududlarida ishlab chiqarishda va pedagogik malakalarini o'stirish, kadrlarni qayta tayyorlashni jadallashtirish; o'quv rejalari va dasturlardagi fanlar mazmunini ekologik xavfsizlik ma'naviyat nuqtai nazaridan qayta ko'rib chiqish, takomillashtirish va zamonaviy talab darajasiga ko'tarish.

Ekologik xavfsizlik ma'naviyatni shakllantirishda O'zbekistondagi bir komponentli ta'lim tizimidan (Ekologiya fani), ko'p komponentli ta'lim tizimiga (ekologik xavfsizlik ma'naviyatga oid maxsus fanlar, ekologiyaga oid yangi fanlar, fakultetlar, maxsus ta'lim muassasalari) o'tish tavsiya etiladi.

5 Rafiqov A.A., Q.N.Abirqulov, A.N.Hojimatov «Ekologiya» - O'quv qo'llanma. O'zbekiston yozuvchilar uyushmasi Adabiyot jamgarmasi nashriyoti. - T.: 2004. - 144 b.
6 Киселев С. А. Педагогические аспекты экологической безопасности образоватeлной среды / С. А. Киселев. — Текст : непосредственный // Молодой ученый. — 2015. — № 7 (87). — С. 777-780. — URL: https://moluch.ru/archiве/87/16605/ (дата обращения: 28.09.2021).








Ayni mana shunday ko'p komponentli ta'lim jarayoni talabaning ekologik xavfsizlik ma'naviyatga ega bo'lib shakllanishini ta'minlab beradi. Ekologik xavfsizlik ma'naviyat bo'yicha texnik ta'lim mazmunini ilmiy-texnik rivojlanish bilan muvofiq ravishda doimiy takomillashtirib borish; texnik ta'limda zamonaviy kvalimetrik va kompetatsion nazoratni joriy etish; pedagog-kadrlarning kvalifikatsion kompetensiyasini ta'minlash; pedagoglarnirng innovatsion didaktik ta'minotini, AKTlari, interfaol shakl, yo'l, vosita, metodlarni, real ishlab chiqarish vaziyatlarning virtual modellari, animatsion trenajerlar, aqlli jihoz-asboblar va multimedia tizimlarini bilishlarini ta'minlash; ta'lim mazmunini takomillashtirish uchun uning ilmiy-nazariy va texnik-muxandislik ta'minotini ta'minlash zarur.

Binobarin, neft va gaz, konchilik ishi, mexanika mashinasozlik va energetika yo'nalishidagi kadrlaretukligini ko'rsatuvchi bosh mezon – ularning ekologik xavfsizlik ma'naviyatga egaligidir ( 2-rasm).

Texnik ishlab chiqarish sohalari ekotizimiga ta'siri va uning tavsifi nuqtayi nazaridan serqamrov, rang-barang, aks ta'sirli, intensiv, tiklab olish qiyin bo'lgan katta masshtabli va ko'p funksionallidir. Buning o'ziga xos tavsifnomalari quyidagilardan iborat: tabiiy uglevodorodlarning yuqori toksikligi, ya'ni zaxiraliligi: tabiiy zaxiralarni (masalan, neft va gaz mahsulotlarini) izlab topish, ular razvedkasi, burg'ulash, transportirovka qilish, saqlash, qayta ishlash jarayonida yuqori toksik kimyoviy moddalarning keng qo'llanilishi; mazkur moddalarning o'z xolicha mustaqil migratsiyaga qodirligi; bunday tabiiy mahsulotlarni ishlab chiqarishga bo'lgan talabning haddan ziyod ortib borishi, oqibatda ekotizimga nisbatan kuchli aks texnogen ta'sir o'tkazayotganligi, uni tiklash imkoniyatining yo'qotilishi. Ishlab chiqarish jarayonini agressivlikdan holi qilishni bilish mutaxassisning ekologik xavfsizlik ma'naviyat bo'yicha bosh vazifasi sanaladi.

Tabiiy atrof-muhitning ifloslanishi bo'yicha manbalarni quyidagicha tasniflash mumkin: Kelib chiqishga ko'ra: sun'iy, antropogen (umumiy tahdidlarning 90% tashkil qiladi) va tabiiy; tahdidlarning joylashishi bo'yicha: kontinental, suv havzalaridagi va atmosferadagi; o'zining amal qilish xususiyatlari bo'yicha: muntazam, epizodik, bir martalik, tasodifiy; o'zining aniq belgilanganligi bo'yicha: aniq belgilangan, ya'ni fiksatsiya qilingan hamda aniq belgilanmagan, ya'ni fiksatsiya qilinmagan.

Ko'rinib turibdiki, sohadagi asosiy texnogen katastorfalarning umumiy hajmida antropogen, ya'ni inson tomonidan yuzaga keltirilgan tahdidlar katta hajmni tashkil qiladi. Agar sohadagi inson karpitali, ya'ni yangitdan tayyorlanayotgan mutaxassislarning barchasi ekologik xavfsizlik ma'naviyatga ular tafakkuri, amal qilishi, o'z oldiga qo'yilgan vazifalarni bajarishi nuqtai nazaridan yo'naltirilgan bo'lsa, prpeventiv ekologik tahdidlar oldi olinadi.

Soha bo'yicha mutaxassislarni tayyorlashda dolzarblik kasb etayotgan talab bugungi texnogen katastrofalarga tayyorlik emas, balki kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ekokatostrofalarning oldini oluvchi tizimlarni ishga tushirish, ekokatastrofalarni izlash va ularga nisbatan preventiv tizimlarni yaratishdir. Zamonaviy talab kelajakda vujudga kelishi mumkin bo'lgan ekologik katastrofalarga qarashi shunday insoniy, texnik vosita va qurollarni, tamoyil, tuzilma va tizimlarni joriy etish zarurki, ular kadrlar tayyorlash jarayonining o'zida ekologik xavfsizlik ma'naviyat kompetensiyasini shakllantirib berishi kerak.

# DIVERSIFIKATSIYA TAMOYILI UZLUKSIZ TA'LIM RIVOJLANISHINING ASOSIY TAMOYILI SIFATIDA

**Shamsu Qamar Otamurodovna Otamurodova** - o'qituvchi, Termiz davlat universiteti

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola diversifikatsiya tamoyili uzluksiz ta'lim rivojlanishining asosiy tamoyili sifatida hamda diversifikatsiya va uning shakllanish, davomli rivojlanish shart-sharoitlari haqida yozilgan. Biz diversifikatsiya jarayonining uzluksiz ta'lim tizimida namoyon bo'lish shart-sharoitlari bilan tanishdik. Maqolada mazkur jarayon natijasida tabiiy yo'sinda amalga oshadigan miqdor, sifat va mazmun-mundarijaviy o'zgarishlarning uzluksiz ta'limning ravnaqiga qo'shadigan hissasi haqida mulohaza yuritilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье написано о принципах диверсификатsiи как основных принципах развития непрерывного образования и условиях диверсификатсии и ее становления и непрерывного развития. Мы ознакомились с условиями проявления процесса диверсификатsiи в системе непрерывного образования, а также рассмотрели вклад в развитие непрерывного образования количественных, качественных и содержательно-содержательных изменений, закономерно происходящих в результате этого процесса.*

***Abstract:*** *This article is written about the principles of diversification as the main principles of the development of continuous education and the conditions of diversification and its formation and continuous development. We got acquainted with the conditions for the manifestation of the diversification process in the continuous education system, and the contribution to the development of continuous education of the quantity, quality, and content-content changes that occur naturally as a result of this process was considered.*

***Kalit so'zlar:*** *diversifikatsiya, shakllanish, rivojlanish, shart-sharoitlar, ta'lim, pedagogik innovatsiya.*

***Ключевые слова:*** *диверсификатция, формирование, развитие, условия, образование, педагогические инноватsiи.*

***Keywords:*** *diversification, formation, development, conditions, education, pedagogical innovation.*

Ta'limdagi diversifikatsiyaning tub mohiyati, ahamiyati va rivojlanish tamoyillari aynan "ta'lim xizmatlari" tushunchasi bilan bog'liq deyish mumkin. Shuning uchun bir vaqtning o'zida "Ta'lim xizmatlari nima?", "Bu xizmatlar kimning ehtiyojlari uchun xizmat qiladi?", "Bu xizmatlarda mahsulot o'rnida nima iste'molga chiqariladi?" hamda "Xizmat ko'rsatuvchi bilan iste'molchi o'rtasidagi munosabatlar qanday tashkiliy-huquqiy asoslarga tayanib yo'lga qo'yiladi?" kabi savollarga javob berish zarurati paydo bo'ladi.

Diversifikatsiya ("diversificatio" so'zidan kelib chiqqan bo'lib, faoliyat ko'lamining kengaytirilishini bildiradi) jarayonining jamoatchilik talablari asosida ishlab chiqiladigan Davlat ta'lim standartlari talablariga uzluksiz ta'lim tizimi tomonidan javob tariqasida yuzaga kelishi ta'lim muassasalarining boshqariluv usuli, mulkchilik shakli, mazmun-mohiyati, faoliyat ko'lami va turi kabi omillarga ko'ra, xilma-xillashib (miqdor jihatdan ko'payib, sifat jihatdan yaxshilanib) borishi uchun zamin yaratadi.

Y.N.Teterin ta'lim xizmatlarini nomoddiy xizmatlar sirasiga kiritadi va uning samarasi mijoz (ta'lim oluvchi)ning mutlaqo yangi muhitda bilim, malaka ko'nikmalar shaklidagi "mahsulot"ni olishini yoki o'zida mavjud potensialning yuzaga chiqishi bilan bog'liq "manfaat ko'rishi"ni ta'kidlaydi. U yana fikrini davom ettirib, ta'lim xizmatlari aynan muayyan bir shaxsga yo'naltirilganlik xususiyatiga ega bo'lgani holda jamoviy ko'rinishda ko'rsatilishini (amalga oshirilishini), natijada esa xizmat ko'rsatishning samaradorligi oshishini yozadi[1].

Tadqiqotchi o'z talqinini asoslash va mavjud talqinlar bilan muqoyasa qilish uchun yana boshqa mutaxassislarning ham ta'lim xizmatlari tushunchasiga bergan ta'riflarini keltirib o'tadi: "V.A.Dolyatoyskiy va O.A.Mazurning qayd etishlaricha, ta'lim xizmatlari – bu shaxsning ongiga yo'naltirilgan va uning muayyan ko'rinishdagi bilim, ko'nikma va malaka olishini yoki o'z mahoratini oshirishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishini nazarda tutuvchi faoliyat turi bo'lib, mehnat bozorining talablari uchun xizmat qiladi[2].

1 М.Ю.Ломакина. Диверсификация как принцип непрерывного образования, Журнал "Мир науки", 2017 г. 2-номер.

2 Ю. Н. Тетерин, Понятие и сущность образовательной услуги как социально экономической категории, журнал "Мир науки", 2017, №3





Ta'lim xizmatlarining jamiyatdagi turli qatlam vakillari uchun zaruriy xizmat turi ekanligi hamda mazkur tarmoqning jamiyatda o'z barqaror o'rnini yarata olishini ta'min etadigan uchta holat qayd etiladi. Birinchisi, oliy ta'lim tizimida juda ko'p uchrab turadigan bir holni misol sifatida keltirish orqali fikrimizni oydinroq ifodalashga harakat qilamiz. Masalan, talabaning OTMda muayyan soha bo'yicha olgan kasbiy bilimi shiddatli texnologiyalar, yangi innovatsiyalarning joriy etilish sharoitlarida to'g'ri ma'noda "eskirib" qolishi va kasbiy faoliyatda foydalanish uchun "yaroqsiz" bo'lish hollari kuzatiladi. Birinchi holat bilan bog'liq "eskirish" faqat kasbiy ta'lim yoki mutaxassisning ish beruvchi talablariga javob bera olmay qolishida namoyon bo'libgina qolmasdan, jamiyatimizda sodir bo'la boshlagan ijtimoiy voqeliklardan ham kelib chiqadi. Aholi turmush sharoitlarining farovonlashuvi, moddiy boyliklar yaratish sohalarining kengayganligi, bozor munosabatlarining faollashuvi kabi hodisalarning natijasi sifatida mamlakatimizda mulkdorlar qatlami shakllanganligi va yil sayin bu qatlam jamiyatning kattaroq miqyoslarini qamrab olayotgani sir emas. Globallashuv va integratsiyalashuv jarayonlarining mahsuli o'laroq, "boshqaroq yashashga intilish", "xorijliklarga xos taomillarni joriy etish" kabi yangi ko'rinishdagi madaniy turmush tarzlarining kirib kelishi uzluksiz ta'lim va norasmiy ish beruvchilar bozori sohasida ham o'z ta'sirini o'tkazmoqda[3]. Bu ta'sir, xususan, ijtimoiy sotsiumning tor doirasiga mansub vakillari potensial ish beruvchi sifatida norasmiy mehnat bozori tashkil etishlari hamda maxsus, individuallashtirilgan ta'lim xizmatlaridan foydalanish kabi voqeliklarda kuzatiladi.

Ta'lim xizmatlarining jamiyat qatlamlari orasida "ommalashib" ketishiga zamin yaratadigan ikkinchi holat mehnat bozorining talablari bilan bog'liq. Ya'ni aksar hollarda kasbga tayyorlashning an'anaviy usullarini o'zida mujassam etgan pedagogik ta'lim bo'lajak mutaxassis kelgusida o'z sohasi bo'yicha bajarishi lozim bo'lgan vazifalarga muvofiq kelmay qoladi. Mehnat bozori esa jamiyatning ehtiyojlaridan kelib chiqib, o'z faoliyatini boshlagan mutaxassislar oldiga tezkor va o'zgaruvchan talablarni qo'ya boradi. Shu o'rinda mehnat bozori (umumiy tarzda esa jamoatchilik)ning talablari "o'zgaruvchan" xususiyatga ega ekanligini Shetinin V.P. pozitsiyasidan qaragan holda asoslab beramiz. "Mehnat bozorining talablari o'zgarib turish xususiyatiga ega, zero, bu o'zgaruvchanlik jamiyatning ishlab chiqarish, ijtimoiy, madaniy, xizmat ko'rsatish sohalariga tatbiq etilayotgan ilmiy-texnik progress (ya'ni yangi texnologiyalar va innovatsiyalar – ta'kid bizniki) hosilasining amaliy natijasini o'zida aks ettiradi"[4]. Demak, ko'rib turganimizdek, jamiyat (ya'ni ishlab chiqarish, buning natijasida esa mehnat bozori) talablari o'zgaruvchan. Bu hol esa mazkur "o'zgarib turuvchi" talablarga tezkorlik bilan javob bera oladigan, yangi iqtisodiy o'zgarishlarga moslasha oladigan mutaxassislarga bo'lgan ehtiyojni yanada oshiradi.

Bundan kelib chiqadiki, bu ikki hodisa bir-biri bilan chambarchas bog'liqdir.

V.A.Oganesovning ta'kidlashiga ko'ra, ta'lim xizmatlari va ta'lim xizmatlari bozorining shakllanishi ta'limga qo'yiladigan talablarning yangilanishi va zamonaviylashishi natijasidir. Ta'lim xizmatlarining jamiyat va iste'molchilar tomonidan uzluksiz ta'lim tizimining barcha bo'g'inlari oldiga qo'yadigan talablarining hosilasi ekanligini tasdiqlagan holda, diversifikatsiya sharoitida bu talablarning ijtimoiy-iqtisodiy xususiyatlarga ega bo'lib, aynan qanday tashkil etuvchi elementlardan iborat ekanligiga e'tibor qaratamiz. Mazkur talablar:

-shaxsning atrof-borliqqa yangicha hayotiy munosabatlarini shakllantirish;

-ijtimoiy-iqtisodiy munosabatlarda insonparvarlik tamoyillarining ustivorligiga erishish;

-bilim, malaka, ko'nikma va hayotiy tajribalarning iqtisodiy taraqqiyotning qudratli harakatlantiruvchi kuchiga aylanishiga erishish;

-ta'limning tashabbuskorligi va innovatsion g'oyalarning birlamchi manbaiga aylanishi hamda jamiyatni ochiq, variativ, tolerant va ushbu jamiyatni hosil qiluvchilarning o'zaro munosabatlari asosida rivojlanadigan barqaror tizimga aylantirish va shu kabilardan iborat[5].

Demak, aytishimiz mumkinki, ta'lim va jamiyat o'rtasida uyg'unlikda sodir bo'layotgan o'zgarishlar va yangilanishlarning zamonaviy bosqichida uzluksiz ta'limdagi diversifikatsiya jarayonlari o'z rivojlanish yo'nalishlariga ega bo'lishi tabiiy holda. V.A.Oganesov mazkur yo'nalishlarni quydagilardan iborat deb hisoblaydi:

-mutaxassislar tayyorlash hamda ta'lim sifatini nazorat qilish tizimlarining mundarijaviy va texnologik jihatdan yangilanishi;

-OTMlarning ijtimoiy-iqtisodiy va ijtimoiy-pedagogik muhit bilan integratsiyalashuvini ta'minlovchi mexanizmlar ishlab chiqish;

3 Ю.Н.Тетерин, Понятие и сущность образовательной услуги как социально экономической категории, журнал "Мир науки", 2017, №3

4 Сапаргалиев, Г.С. Отношения по обучению и воспитанию граждан – предмет правового регулирования // Советское государство и право. – 1977. – № 8. – С. 57;

5 Щетинин, В. П. Экономика образования: учебное пособие / В. П. Щетинин, Н. А. Хроменков, Б. С. Рябушкин. — М.: Российское педагогическое агентство, 1998. 17-С

-muayyan mintaqaning ehtiyojlaridan kelib chiqqan holda mutaxassislar tayyorlashning amaliy faoliyatga yo‘naltirilganligini ta’minlovchi mexanizmlarni takomillashtirish;

-ta’limning mundarijasidagi tarbiya komponentlarining amaliy va nazariy bilim komponentlari bilan uyg‘unlashuvi uchun sharoit yaratishga qaratilgan mexanizmalarni takomillashtirish;

-pedagogik tizimlarni doimiy monitoring qilib borish tizimlarini ishlab chiqish;

-pedagogik mehnat bozorining markentingini tashkil etish;

-jamiyat talablariga muvofiq holda mutaxassisning kasbiy, shaxsiy va ijtimoiy jihatlarining yangilanib borishi;

-hududning mintaqaviy o‘ziga xosliklari va OTMning imkoniyatlarini hisobga olgan holda mutaxassis shaxsining shakllanishi uchun optimal sharoitlar yaratish orqali ularning ijtimoiy, kasbiy mobilligi va raqobatbardoshligini ta’minlash;

-aholi bandligini ta’minlovchi tizimlarning faoliyatini yanada takomillashtirish orqali mutaxassislarning o‘z imkoniyatlarini namoyon qilishlari uchun sharoit yaratish[6].

Uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiyaning yuqorida ko‘rsatib o‘tilgan yo‘nalishlari qatoriga Djurinskiy A.N. iqtidorli bolalarga e’tibor qaratishni o‘z ichiga olgan yo‘nalishni ham ilova qiladi[7]. Tadqiqotchi alohida iqtidorga ega bo‘lgan, ilmning ma’lum bir sohasi bo‘yicha qiziqish va motivatsiyaga ega bo‘lgan bolalar hamda o‘smirlarning ta’lim-tarbiya olishlari uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiyaning rivojlanishida eng muhim yo‘nalish ekanligini ta’kidlab, fikrni jahon pedagogikasida sodir bo‘lgan shu xildagi jarayonlarning keltirgan samaralari bilan asoslaydi. “Keyingi yillarda jahon pedagogik amaliyoti bu masalaga jiddiy qiziqish bildira boshladi. Masalan, Yevropada Oliy iqtidorlar assotsiatsiyasi tashkil etilgan bo‘lib, uning maqsadi iqtidorli bolalarni o‘qitish msohasini tadqiq etish va rag‘batlantirib borishdan iboratdir. Bunda bolalarning iqtidorlilik darajasini tashxislovchi mezonlar ishlab chiqish, ulardagi mavjud potensialni o‘rganish va uni yuzaga chiqarishni ta’minlaydigan metodikalar hamda pedagogik shart-sharoitlarni o‘z ichiga olgan loyihalar ishlab chiqish, iqtidorli bolalarni rag‘batlantirib borish tizimini joriy etish kabi masalalarda izlanishlar olib boriladi. Yevropa Oliy iqtidorlar assotsiatsiyasi olimlari va mutaxassislari ushbu o‘rinda “iqtidorli bola” tushunchasiga ta’rif berib o‘tadilar: ularning fikricha, intellektual, adabiy-badiiy va ijtimoiy-ma’naviy sohalardan birida yuqori natijalarga erishish uchun yetarli imkoniyatlarga ega bo‘lgan yoki favqulodda psixomotor va ijtimoiy qobiliyat sohibi bo‘lgan bolalarnigina “iqtidorli bola” maqomi bilan tasniflash mumkin[8].

Modomiki, iqtidorli bolalarni topish va ularning qobiliyatlariga alohida e’tibor berish uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiyani rivojlantirishning asosiy yo‘nalishlaridan biri sifatida e’tirof etilar ekan va jamoatchilikning (iste’molchi sifatida) “xizmat ko‘rsatuvchi” maqomidagi ta’lim xizmatlari bozoriga qo‘yadigan talablari uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiyaning yuzaga kelishi uchun muhim shart-sharoitlardan biri sanalar ekan, aytishimiz mumkinki, biz tadqiq etayotgan mavzu iqtidorli bolalarni tarbiyalash va ta’lim xizmatlari bozorini rivojlantirish masalalariga bevosita bog‘liqdir. Mazkur masalani esa uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiya jarayonlarining asosiy tamoyillarini o‘rganmay hamda ularni to‘liq joriy etmasdan turib hal etish deyarli ilojsizdir[9].

Biz uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiya jarayonining asosiy tamoyillarining tahliliga kirishishdan oldin jamoatchilikning uzluksiz ta’lim tizimi oldiga mutaxassis kadrlarni yetkazib berish bilan bog‘liq talablarini tuzilmaviy ravishda alohida tashkil etuvchilarga ajratish zarurati xususidagi mulohazalarga to‘xtalib o‘tishni zarur deb hisoblaymiz. Zero, mazkur talablarni mufassal o‘rganibgina, ularga javob beradigan darajadagi ta’limni yo‘lga qo‘yish mumkin.

Ma’lumki, mamlakatimizdagi ta’lim tizimi maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim, o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi, oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim kabi asosiy bo‘g‘inlarni o‘z ichiga oladi. Oliy ta’lim va oliy ta’limdan keyingi ta’lim bosqichlarida ta’lim oluvchi shaxs, ta’lim subyekti sifatida shakllangan hamda ta’limning navbatdagi bosqichida uning hajm, sifat, usul, metod va vositalaridan ma’lum darajada erkin foydalanish imkoniyatlarini qo‘lga kiritadi. Biroq kuzatuvlar, muallifning shaxsiy tajribalari shuni ko‘rsatadiki, ta’lim tizimining dastlabki to‘rtta (maktabgacha ta’lim, boshlang‘ich ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim va o‘rta maxsus kasb-hunar ta’limi) orasida izchil bog‘lanishlarni ta’minlovchi talablar tizimi joriy etilishi lozim. Sodda qilib aytganda, boshlang‘ich sinf o‘quvchisi MTT tarbiyalanuvchisini “qanday darajada” qabul qilib olishini dasturiy-bayoniy tarzda taqdim etishi hamda MTTdagi tarbiya jarayonlariga

6 Щетинин, В. П. Экономика образования: учебное пособие / Щетинин В.П, Хроменков Н.А, Рябушкин Б.С, — М.: Российское педагогическое агентство, 1998. 23-С.

7 Сырых В.М. Введение в теорию образовательного права. – М., 2002. – С. 7.

8 Щетинин, В. П. Экономика образования: учебное пособие / Щетинин В.П, Хроменков Н.А, Рябушкин Б.С. — М.: Российское педагогическое агентство, 1998. 27-С.

9 Тетерин Ю.Н Понятие и сущность образовательной услуги как социально экономической категории, журнал “Мир науки”, 2017, №3





bevosita metodik, amaliy ko‘mak berishi tizimi yo‘lga qo‘yilishi maqsadga muvofiq bo‘lar edi. Garchi mazkur ta’lim muassasalarida amalga oshiriladigan ta’lim-tarbiya jarayonlari tegishli huquqiy-meyoriy hujjatlarda (ta’limning ma’lum bo‘g‘iniga oid

Davlat ta’lim standartlari, o‘quv dasturlari va shu kabilar) mufassal ko‘rsatib o‘tilgan bo‘lsa-da, mahalliy sharoitlar hamda imkoniyatlardan kelib chiqadigan talablar ham bo‘lishi mumkin-ku? Xuddi shunday tizim ta’limning navbatdagi yondosh bo‘g‘inlari (boshlang‘ich ta’lim va umumiy o‘rta ta’lim, umumiy o‘rta ta’lim va oliy ta’lim) orasida ham mavjud bo‘lishi lozim. Mazkur talablar o‘z ichiga huquqiy-meyoriy hujjatlarda belgilangan talablardan tashqari ta’lim muassasasining ichki tartib-qoidalari, o‘qituvchining ijodiy qobiliyati, ta’lim muassasasidagi muhit, ta’lim muassasasi joylashgan hudud (mintaqa)dagi ijtimoiy-iqtisodiy, ma’naviy-ma’rifiy hamda madaniy sharoitlardan kelib chiqqan holda ta’lim jarayoni ishtirokchilarining uchinchi tomoni (ya’ni ota-onalar) talablarini ham hisobga olgan bo‘lishi va sof ijodiy tarzda tuzilishi lozim deb hisoblaymiz. Bu mavzu, bizning fikrimizcha, uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiyani yanada rivojlantirish uchun muhim faktor bo‘lgan bo‘lur edi, ammo u alohida tadqiqotlar va izlanishlarni talab qiladi. Biz uchun mazkur o‘rinda bu masalaning ta’lim tizimi oldiga jamoatchilik qo‘yadigan talablarning mohiyatini anglashimizga yordam berishdagi ahamiyati muhim.

Hamonoki, gap jamoatchilikning talablari asosida ketar ekan, yuqorida keltirib o‘tilgan savollarga mazmundosh “Ta’lim tizimini tashkiliy jihatdan yangilashga majbur etayotgan sabablar nima?” degan savolga biz, aynan, mehnat bozorida tomonidan qo‘yilayotgan talablar deb javob beramiz.

Bundan uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiya iqtisodiy mazmunga ega bo‘lgan holda tijoratlilik xususiyati kasb etadi, degan xulosa kelib chiqmasligi lozim [20, 9-b]. Negaki, qator OTMlar tomonidan o‘tkazib kelinayotgan ta’lim marketingi ham ta’limning bozor tamoyillari asosida olib borishning “iste’molchilar”ga qulay tuzilmalarini axtarib topish va mahalliy sharoitlarga moslashtirishni nazarda tutib kelmoqda. Biroq mazkur izlanishlarda ta’lim oluvchining o‘zi istagan bilimni o‘zi olishi yoki uning o‘z ta’lim trayektoriyasini o‘zi yaratishga bo‘lgan urinishlarini bee’tibor qoldiradi. Shunisi ham borki, jamiyat ichida shakllangan talab hamma narsani o‘z joyiga qo‘yish lozimligini taqozo etdi va uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiyaning sekin-asta o‘zini namoyon qila borishi bilan ta’lim xizmatlari bilan taklif etilayotgan tijorat mazmunidagi xizmatlar o‘rtasidagi chegaraning torayib borish hollari kuzatila boshlandi. Ya’ni I.V.Leushina fikricha, “foyda ilinjida fan dargohlarini tijorat muassasalariga aylantirish orqali yangicha xizmat turlari paydo bo‘ldi”[10].

Bu hol diversifikatsiya jarayonining innovatsion xarakterga ega ekanligi bilan bog‘liq bo‘lib, ta’limni tashkil etishning (yoki ta’lim muassasasining) barcha mavjud potensialdan amaliyotda foydalanishni va buning natijasida kelib chiqadigan ijtimoiy-iqtisodiy samarani ko‘zda tutadi. Biroq bu diversifikatsiya jarayonlari har qanday ijtimoiy-iqtisodiy manfaatni ko‘zlagan ta’lim muassasasida sodir bo‘lishi kerakligini bildirmaydi, bil’aks, mazkur jarayon faqat ta’limni rivojlantira olish uchun zarur potensialga ega bo‘lgan hamda diversifikatsiya yuzaga kelishi uchun yetarli shart-sharoitlarga ega bo‘lgan ta’lim muassasalari bazasida sodir bo‘lishigina zarur natijani beradi. Uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiya jarayonining samarali kechishi uchun lozim bo‘lgan potensial, bizning nazarimizda, malakali mutaxassislar, moddiy-texnik baza va o‘quv-metodik majmua kabi quyidagi tashkil etuvchi elementlardan iborat bo‘lishi zarur.

Demak, aytishimiz mumkinki, uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiya jarayoni ta’lim jarayonidagi ustivor hodisa sifatida ikkita – innovatsion va ta’lim oluvchilarning mundarijaviy jihatdan erkinligini ta’minlovchi xususiyatlarga egadir. Biz yuqorida uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiyaning innovatsion jarayon sifatida o‘z tatbiq etilish va rivojlanish tamoyillariga ega bo‘lishi lozimligi haqida mulohaza yuritgan edik. Mazkur jarayonning namoyon bo‘lish sharoitlari, sodir bo‘lish bosqichlari, rivojlanish faktorlari haqida yetarlicha tasavvurga ega bo‘lgan holda, endi uning rivojlanish tamoyillariga to‘xtalib o‘tamiz.

Ko‘rib turganimizdek, o‘z joriy etilish tamoyillariga ega bo‘lgan diversifikatsiya jarayoni, eng avvalo, alohida insonning manfaatlari, ta’limiy ehtiyojlari, qolaversa, jamiyatda yaxlit holda shakllanadigan va vaqt davomida o‘zgarib boradigan talablarning dinamik tarzda rivojlanib borishiga bog‘liqdir. Biz ayni vaqtda “qaytariqli aloqa”ning sodir bo‘lish mexanizmini ham ko‘rishimiz mumkin: ya’ni uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiya jarayonlari jamiyatdagi rivojlanishning talabi bo‘lgani kabi jamiyatdagi yangilanishlar ham uzluksiz ta’limdagi diversifikatsiyaning hosilasidir[11].

10 Джуринский А.Н. Развитие образования в современном мире. – М., 1999. 9-С.

11 Леушина И.В. Диверсификация в образовании и подготовка кадров для металлургического производства, журнал “Педагогика”

# BOʻLAJAK PEDAGOGLARDA SOGʻLOM TURMUSH TARZI KOʻNIKMALARINI SHAKLLANTIRISH VA ULARNI YOSHLAR ONGIGA SINGDIRISHNING AHAMIYATI

***Manzura Xurshid qizi Burxonova*** *- doktorant, Samarqand davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Oliy taʼlimda boʻlajak pedagoglarni tibbiy madaniyatini shakllantirish va ularni yoshlar ongiga singdirishning ahamiyati haqida soʻz boradi. Darhaqiqat, tana sog'lom, ruh tetik bo'lsagina, har qanday yumushni uddalay olishi va muvaffaqiyatli amalga oshirishi mumkin. Olimlarning aytishicha, aholi salomatligini mustahkamlashning 10 foizi tibbiyot xodimlariga bog'liq bo'lsa, qolgan 90 foiziga profilaktika orqali erishiladi. Shundan bilishimiz mumkinki sog'lom hayot tarziga amal qilish barchamizning burchimizdir.*

***Аннотация:*** *В данной статье говорится о важности формирования медицинской культуры будущих педагогов в высшей школе и привития их в сознании молодежи. На самом деле, только если тело здорово, а душа свежа, оно может делать любую работу и делать ее успешно. Ученые утверждают, что 10% оздоровления населения зависит от медицинских работников, а остальные 90% достигаются за счет профилактики, из чего мы можем понять, что вести здоровый образ жизни — это наша обязанность.*

***Abstract:*** *This article talks about the importance of forming the medical culture of future pedagogues in higher education and instilling them in the minds of young people. In fact, only if the body is healthy and the soul is fresh, it can do any work and do it successfully. Scientists say that 10% of population health improvement depends on medical workers, and the remaining 90% is achieved through prevention. From this, we can know that it is our duty to follow a healthy lifestyle.*

***Kalit soʻzlar:*** *oliy taʼlim, konstitutsiya, pedagog, kadrlar, pedagog-oʻqituvchi, barkamol shaxs, koronavirus, tibbiy madaniyat, kompetensiya, tarbiya, salomatlik, boshlangʻich taʼlim, taʼlim tizimi.*

***Ключевые слова:*** *высшее образование, конституция, педагог, кадры, педагог-учитель, совершенный человек, коронавирус, медицинская культура, компетентность, образование, здоровье, стартовое внутреннее образование, система образования.*

***Keywords:*** *higher education, constitution, pedagogue, personnel, pedagogue-teacher, perfect person, corona virus, medical culture, competence, education, health, start internal education, education system.*

Bugungi kunda jahonda taʼlim tizimini rivojlantirishning metodologik asosi sifatida pedagogik fikrlar taraqqiyoti masalasi, taʼlim-tarbiya sohasida qoʻlga kiritilgan yutuqlar va oʻz yechimini kutayotgan muammolarni tadqiq etish ustuvor ahamiyat kasb etmoqda. Mustaqillikning dastlabki yillarida mutaxassislar tayyorlashning ilgʻor jahon tajribasini oʻrganishga keng jalb etildi. Va, eng avvalo, bevosita Oʻzbekistonning oʻzida yuqori sifatli taʼlim uchun shart-sharoit yaratildi[1]. Oʻzbekistonda olib borilayotgan islohotlardan asosiy maqsad, yurtimizda sogʻlom va barkamol, bilimli, yuksak maʼnaviy-axloqiy fazilatlarga ega boʻlgan avlodni shakllantirishdan iborat. Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli farmonining 70-maqsadda keltirilgan bandida aynan Yoshlarga oid davlat siyosatini takomillashtirish togʻrisida , yoshlarning hayoti va sogʻligʻini saqlash, ular uchun malakali tibbiy xizmatdan foydalanish shart-sharoitlarini yaxshilash, yoshlar oʻrtasida tibbiy savodxonlikni oshirish va sogʻlom turmush tarzini mustahkamlash tog ʻrisida alohida taʼkidlangan[2].

Aynan ana shu maqsadga erishish uchun Prezidentimiz rahnamoligida yangi davrda yashaydigan, yangicha fikrlaydigan, yangi ishlab chiqarish, ijtimoiy sharoitlarda faoliyat koʻrsatadigan, zamonaviy kasbiy mahoratga ega boʻlgan mutaxassis kadrlar tayyorlashdek muhim vazifalar amalga oshirilmoqda. Oliy taʼlim muassasalari tomonidan taʼlim va tarbiya jarayonlarini tashkil etishda, Oʻzbekiston

1 Karimov I.A. Yuksak maʼnaviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: "Maʼnaviyat", 2008, 176 B

2 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son ,70-maqsad, 2022-yil





Respublikasining Konstitusiyasi, Taʼlim toʻgʻrisidagi qonuni, farmonlar, qarorlar va buyruqlar kabi normativ hujjatlar qoʻllanilmoqda. Ushbu maqolada tibbiy madaniyatni boʻlajak pedagoglarda shakllantirishning afzalliklari haqida fikrlarni bayon etamiz va maqolada boʻlajak pedagoglarda tibbiy madaniyat kompetensiyaning shakllantirish imkoniyatlari haqida ham birmuncha toʻxtalib oʻtamiz .

Hozirgi zamonda malakali pedagog kadrlarni tayyorlash taʼlim oldida turgan muhim muammolardan biri hisoblanadi. Chunki oʻqituvchida barcha pedagogik gʻoyalar mujassamlangan boʻlib, uning faoliyati orqali bu gʻoyalar amalga oshiriladi va hayotga tadbiq etiladi. "Taʼlim toʻgʻrisida"gi Qonunning 46-moddasida pedagog xodimlarning majburiyatlari sifatida "taʼlim oluvchilarning psixologik va oʻziga xos xususiyatlarini, jismoniy va ruhiy salomatligini, fiziologik rivojlanishini hisobga olishi, jismoniy, aqliy, sensor (sezgi) yoki ruhiy nuqsonlari boʻlgan shaxslarni oʻqitish uchun shartsharoitlar yaratilishiga eʼtibor qaratishi " taʼkidlangan[3]. Oʻqituvchining koʻp qirrali va murakkab faoliyati zamirida yosh avlodni odobli, axloqli qilib tarbiyalash, ularni bilimlar bilan qurollantirish kabi muhim vazifalar yotadi. Bularni amalga oshirish esa pedagog-oʻqituvchining faoliyatiga bogʻliq: bolalarni oʻqitish, maktabdan va sinfdan tashqari tarbiyaviy ishlarni tashkil eta bilish va oʻtkazish, bolalarda tibbiy madaniyatni shakllantirish ishlarini olib borish va hokazo.

Barkamol shaxsni tarbiyalash barcha davrlarda ham muhim ijtimoiy talablardan biri boʻlib kelgan, ammo bugungi sifat oʻzgarishlar roʻy berayotgan bir davrda bu masalaning dolzarbligi yanada koʻzga tashlanmoqda. Birgina 2020-yilda butun jahon murakkab sinovni boshidan kechirdi. Koronarovirus nomli pandemiyani oladigan boʻlsak , birgina shu pandemiya necha million aholini erta koʻz yumishiga sabab boʻldi. Jahonning eng taraqqiy etgan mamlakatlari pandemiyaga qarshi kurash chogʻida turli toʻsiqlarga duch kelgani koʻrdik. Yurtimizda ham oʻz vaqtida tezkor va qatʻiy choralar koʻrildi. Bunga misol qilib,Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Sogʻlom turmush tarzini keng tatbiq etish va ommaviy sportni yanada rivojlantirish chora-tadbirlari toʻgʻrisidagi farmonini misol qilib olishimiz mumkin[4]. Davlatimiz rahbari tomonidan bu kasallikni barvaqt oldini olish uchun bor kuch va imkoniyatlar hamda barcha resurslar safarbar etildi. Pandemiya va shu kabi ofatlar bilan bogʻliq jarayonlarning barvaqt oldini olish, vaziyatni har tomonlama chuqur tahlil qilib, boʻlajak xavf-xatarlarni, ular bilan bogʻliq muammolarni oldindan prognoz qilish, ularning yechimiga aniq reja va choralar bilan tayyor turish tizimini yaratish boʻyicha topshiriqlar maʼsul shaxslarga topshiriqlar berildi[5]. Lekin shu bilan bir qatorda aholining aksariyat qismida tibbiy madaniyat shakllanmaganligi yaqqol koʻrindi. Zamonaviy jamiyatda sodir boʻlayotgan ijtimoiy-madaniy oʻzgarishlar, sogʻliqni saqlash muammosi boʻyicha davlat siyosatining oʻzgarishi taʼlim sohasiga ham taʼsir koʻrsatdi. Dinamik oʻzgaruvchan sharoitda taʼlimning asosiy mazmun yoʻnalishlaridan biri - hayotning mustaqil strategiyasini ishlab chiqish, oʻz-oʻzini tarbiyalash qobiliyati va sogʻliqni saqlash sohasidagi oʻqituvchilarning kompetentsiyasini rivojlantirish. Zamonaviy oliy taʼlim kelajakdagi mutaxassisni beqaror, oldindan aytib boʻlmaydigan dunyoda yashash va harakat qilishni oʻrgatish uchun moʻljallangan, ijtimoiy ahamiyatga ega boʻlgan oʻzaro taʼsir koʻnikmalarini egallash imkonini beradi, oʻz sogʻligʻiga va boshqalarning sogʻligʻiga ijobiy va mas'uliyatli munosabatda boʻlishga hissa qoʻshadi.

Hozirgi kunda biz shu davrgacha qoʻlga kiritgan yutuqlarimizni, mamlakatimizda yoʻlga qoʻyilgan hamda dunyoda rasman eʼtirof etilgan yangi taʼlim tizimini faxr bilan aytishimiz mumkin. Jumladan, taʼlimning hamma bosqichlarida zamonaviy xalqaro talablarga toʻla mos keladigan oʻquv dasturlari yangidan yaratildi. Eng muhimi, oʻquv yurtlari va ishlab chiqaruvchilar oʻrtasida hamkorlik aloqalari yoʻlga qoʻyildi, yoshlarimiz zamonaviy talablar asosida jihozlangan, barcha shart-sharoitlarga ega oʻquv binolarida tahsil olmoqdalar. Shu yoʻsinda taʼlim va tarbiya berish bilan bir qatorda kelajagimiz mevalariga bir vaqtning oʻzida sogʻlom turmush tarzi , tibbiy madaniyat , jismoniy madaniyatning hayotdagi oʻrni haqida ham tushuntirish ishlarini olib borishimiz lozim . Boʻlajak pedagog-oʻqituvchilarining zimmasida barkamol avlodni salohiyatli etib shakllantirish , yoshlarni maʼnaviy-axloqiy va jismonan sogʻlom etib tarbiyalash, ularni olib borilayotgan islohotlarning faol ishtirokchisiga aylantirishga kabi maʼsuliyat turibdi .

Taʼlimni modernizatsiya qilish sharoitida boʻlajak oʻqituvchilarning kasbiy tayyorgarligiga qoʻyilgan talablarni oshirish asosiy pedagogik muammolardan biri boʻlib kelmoqda. Bugungi

3 Oʻzbekiston Respublikasining "Taʼlim toʻgʻrisida"gi Qonuni (Oʻzbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi, 2020 y., 9-son, 225-modda; 2020 y., 41-son, 543-modda)

4 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 30.10.2020 yildagi PF-6099-son

5 Oʻzbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 28.01.2022 yildagi PF-60-son ,70,88-maqsad , 2022-yil

kunda bo‘lajak pedagoglarning nafaqat o‘z mutaxassisliklari bo‘yicha balki dunyoviy bilimlardan ham xabardor bo ‘lishi lozim. Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyev ta’kidlaganidek, «Bizni hamisha o‘ylantirib keladigan yana bir muhim masala - bu yoshlarimizning odob-axloqi, yurish-turishi, bir so‘z bilan aytganda, dunyoqarashi bilan bog‘liq. Bugun zamon shiddat bilan o‘zgaryabti. Bu o‘zgarishlarni hammadan ham ko‘proq his etadigan kim - yoshlar. Mayli, yoshlar o‘z davrining talablari bilan uyg‘un bo‘lsin. Lekin ayni paytda o‘zligini ham unutmasin. Biz kimmiz, qanday ulug‘zotlarning avlodimiz, degan da’vat ularning qalbida doimo aks-sado berib, o‘zligiga sodiq qolishga undab tursin. Bunga nimaning hisobidan erishamiz? Tarbiya, tarbiya va faqat tarbiya hisobidan»[6]Salomatlik insonning eng ulug‘vor boyligidir. Tibbiy madaniyat pedagogik va ijtimoiy toifadagi ma’lumotlarni o ‘zida jamlagan bo‘lib, ham jismonan, ham ruhan sog‘lom bo‘lgan millat namoyondasini tarbiyalash va takomillashtirish borasidagi zarur omillarni va uslublarni o‘rganib, ularni turmushga tadbiq etish kabi vazifalarni zimmasiga oladi. Tibbiy madaniyatni o‘rgatishdan maqsad muayyan shaxsning salomatligini nazorat qilish va ta’minlash orqali oilaning, jamiyatning, millatning va davlatning mustahkam bo‘lishiga asos yaratishdir. Birinchi prezidentimiz I.A.Karimov ham “Shuni unutmasligimiz kerakki, kelajagimiz poydevori bilim dargohlarida yaratiladi, boshqacha aytganda, xalqimizning ertangi kuni qanday bo‘lishi farzandlarimizning bugun qanday ta’lim va tarbiya olishiga bog‘liq” deb ta’kidlagan edilar[7]. Bolani kichik yoshidan tarbiyalab borish,unga gigiena haqida tushuncha berish , salomatlikni saqlash va mustahkamlash borasida amaliy-uslubiy ma’lumotlar bazasini bolada shakllantirish muhim ahmiyat kasb etadi.

Ta’lim jarayoni qanday olib borilishi kerak deganda nimani tushunamiz? Ta’lim – o‘quvchilarga ko‘nikma va malakalar berishning, bu bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘quvchilar o‘qib olishi, egallab olishi va ularni mustahkamlab olishining rejali jarayonidir. Shu jarayonning samarali borilishi, bolada kelajak hayotda yetuk shaxs bo‘lib yetishishi esa ta’lim beruvchi pedagog-o‘qituvchi va oilaga bog‘liq. Ta’lim jarayoni - bolalar xotirasining boyishi, ular nutqi va tafakkurining o‘sish, turli xil metod va usullar yordamida sodir bo‘ladigan vaziyatdir. Shaxs sifatida shakllanadigan o‘quvchining ma’naviy kamolotida axloqiy madaniyatning ahamiyati benihoya katta. Ta’lim muassasalarida ma’naviy-axloqiy tarbiyani yo‘lga qo‘yishning quyidagi turlari alohida ahamiyatga egadir: suhbatlar, uchrashuvlar, ertaliklar, haftaliklar, oyliklar, ko‘riklar, konferensiya, baxs- munozara va boshqalar.

Hozirgi vaqtda O‘zbekistonda maktab yoshidagi bolalarning sog‘lig‘ining yomonlashishi nafaqat tibbiy, balki jiddiy pedagogik muammoga aylandi, chunki sog‘liqining yomonlashishi o‘quv jarayonini murakkablashtiradi, bilim sifatini pasaytiradi, jismoniy rivojlanishini sekinlashtiradi. Ularning ijtimoiy xatti-harakatlarida og‘ishlarni keltirib chiqaradi. Shifokorlarning ta’kidlashicha , inson kasalliklarining 75 % bolalik davrida yuzaga keladi. Aynan shu sababli ham bo‘lajak boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilarda tibbiy madaniyatni shakllantirish sog‘lom muhitni ilk maktab yoshidan shakllanishiga asos bo‘ladi. Maktabda ta’lim sohasini keng qamrovli qilib amalga oshirishga katta e’tibor qaratilmoqda. Bu erda sog‘liqni saqlash bo‘yicha ish yo‘nalishlari birinchi o‘ringa qo‘yiladi va shu orqali o‘quvchilarning sog‘lig‘ini saqlash kompetensiyalarini shakllantirish uchun qulay shart-sharoitlar yaratiladi. Bolada tibbiy madaniyat kompetensiyasini shakllantirish esa maktabgacha ta’lim va boshlang‘ich ta’lim pedagog – o‘qituvchilarining muhim vazifasidir. Boshlang'ich sinflarda o'quvchilar dastlabki bilimlarga ega bo'ladilar. Har bir kishining kelajakda qanday kasb egasi bo'lishida ham, asosan, shu davr asos bo'ladi. Bunda boshlang'ich sinf o'qituvchisining roli katta. Ular maktabga endi qadam qo'ygan o'quvchilarni maktab hayotiga ko'niktirib, zamonaviy bilim olishlariga zamin yaratib beradilar. Bolalarning o'qishga munosabatlari, aqliy salohiyatlari shu davrda shakllanadi. Bu ham boshlang'ich sinf o'quvchilarining vazifasi mas’uliyatli ekanligini ko'rsatadi. Boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun ularning o'qituvchisi “ideal” shaxs hisoblanadi. Shu sababli boshlang'ich sinf o'qituvchisi har tomonlama mukammal shaxs bo'lishi: u kuchli bilimga va tarbiyaga ega bo'lishi kerak. O‘zi sog‘lom turmush tarziga rioya qilmay turib, tibbiy madaniyat haqida tushunchaga ega bo‘lmay boladan buni talab qilishi noo‘rin hioblanadi.

Yoshlarga ta’lim va tarbiya berishni yuksak darajada ta’minlash uchun bugungi kunda ta’lim muassasalariga puxta

6 *Mirziyoyev Sh.M. Tanqidiy tahlil, qat’iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik-har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo‘lishi kerak. – Toshkent, 2017 yil*

7 *Karimov I.A. Yuksak ma’naviyat – yengilmas kuch. – Toshkent.: “Ma’naviyat”, 2008, 176 B*





tayyorgarlik ko‘rgan, o‘z sohasidagi bilimlarni egallash bilan birga zamonaviy innovatsion texnologiyalarni yaxshi o‘zlashtirgan, tibbiy madaniyat kompetensiyasi shakllangan, o‘zi sog‘lom turmush tarziga rioya qiladigan, o‘quvchilarga o‘rnak bo‘la oladigan, axborot va pedagogik texnologiyalarni yaxshi biladigan va ulardan unumli foydalanadigan professor-o‘qituvchilar kerak. Chunki, bugun mamlakatimizning tayanchi bo‘lgan yoshlarga yangicha yondashuvlar va zamon talablaridan kelib chiqib bilim berish davlat siyosatining ustivor yo‘nalishidan biridir .

Mutaxassislarning fikriga ko‘ra, maktabga kirayotgan bolalarning 30-35% allaqachon surunkali kasalliklarga ega; maktab ta’limi yillarida ko‘rish va postural buzilishlar soni besh barobar, psixologik salomatlik buzilishlari soni to‘rt baravar, ovqat hazm qilish tizimi kasalliklari bilan kasallangan bolalar soni uch baravar ko‘paymoqda. Shuni hisobga olgan holda oliy ta’limda bo‘lajak pedagoglarni tibbiy madaniyat , salomatlik, sog‘lom turmush tarzi haqida bilimlarini oshirish lozim . Ota-onalar, o‘qituvchilar, mutaxassislarning birgalikdagi sa’yi -harakatlari bilan bolalarda sog‘lom turmush tarzi tushunchasini - sog‘liqni saqlashning asosiy kompetensiyalaridan biri sifatida shakllantirish, sog‘lom bo‘lish zaruratida ko‘nikma va odatlarni shakllantirish zarur deb hisoblayman. Salomatlikni asrash va mustahkamlash, salomatlik baxtini qadrlash barchamizning burchimizdir. Bejizga “Sog‘lom tanda – sog‘lom aql “ deb aytishmagan. Maqolamiz yakunida xulosa va tavsiyalarga keladigan bo‘lsak ,o‘quvchilarning ma’naviy-axloqiy tushunchalari faqat dars jarayonidagina emas, balki kundalik turmushda ham sinovlardan o‘tib shakllana boradi. Shuning uchun ta’lim-tarbiya jarayonida shunday sharoit yaratmoq kerakki, o‘quvchilar sabot-matonat, qunt, tashabbuskorlik, chidam ko‘rsata oladigan, qiladigan ishlarning jamiyat va vatan uchun zarurligini qalbdan tushunadigan bo‘sinlar. O‘quvchilarga beriladigan bilimlar majmui, shubhasiz, juda katta tarbiyaviy kuchga egadir. O‘quvchilarda chinakam ilmiy dunyoqarash asoslarini yaratishda, to‘g‘ri hukm yuritish qobiliyatini tarbiyalashda ma’naviy- axloqiy sifatlarga tayanib ish ko‘riladi.

Xulosa qilib aytganda, tibbiy madaniyat tarbiyasi barkamol shaxsni tarbiyalashdagi asosiy omillardan biri bo‘lib, shaxsni har tomonlama garmonik tarbiyalashga zamin yaratadi. Biroq, insonni kamolga yetkazishda har bir shaxsga o‘ziga xos munosabatda bo‘lish ta’lim-tarbiyaning asosiy tamoyillari ekanligini unutmasligimiz ham lozim.Shu sababdan bo‘lajak pedagoglarda ta’limning uzviy bir jabhasi sifatida nafaqat aniq va gumanitar fanlar balki hozirgi kunda kunlik hayotimizning ajralmas qismiga aylangan bizning sog‘ligimizga va uni asrash,asramagan taqdirda yuzaga keladigan nojo‘yi holatlarni bola onggiga yoshlik davridanoq singdirish maqsadga muvofiq deb o‘ylayman .

# ИНТЕГРАТИВНО-КРЕАТИВНО ОРИЕНТИРОВАННОЕ ОБРАЗОВАНИЕ В МЕДИЦИНСКИХ ВУЗАХ

***Шахло Тойировна Юлдашова*** *- ассистент кафедры, Бухарского государственного медицинского института*

***Аннотация:*** *Профессионально-культурологического образования будущего специалиста медицинского вуза в системе их творческой направленности: осознанная индивидуально-личностная мотивация студента-медика в аспекте креативности; способность к культуротворческому оцениванию своих профессиональных результатов; креативная склонность к прогнозированию; способность видения нового в решении творческих задач; способность к принятию оригинальных научно-исследовательских решений в системе творческого аспекта.*

***Annotatsiya:*** *Tibbiyot oliy o'quv yurtining bo'lajak mutaxassisining kasbiy-madaniy ta'limi ularning ijodiy yo'naltirilganligi tizimida: ijodkorlik nuqtai nazaridan tibbiyot talabasining ongli individual-shaxsiy motivatsiyasi; kasbiy natijalarini madaniy ijodiy baholash qobiliyati; bashorat qilishga ijodiy moyillik; ijodiy muammolarni hal qilishda yangi narsalarni ko'rish qobiliyati; ijodiy jihat tizimida original tadqiqot qarorlarini qabul qilish qobiliyati.*

***Abstract:*** *Vocational and cultural education of a future specialist of a medical university in the system of their creative orientation: conscious individual-personal motivation of a medical student in the aspect of creativity; the ability to culturally creative evaluation of their professional results; creative propensity for forecasting; the ability to see something new in solving creative problems; the ability to make original research decisions in the system of the creative aspect.*

***Ключевые слова:*** *творческо-педагогический аспект, профессиональное творчество, образование студенты медицинских вузов, креативность, творческое мышление.*

***Kalit so'zlar:*** *ijodiy-pedagogik jihat, kasbiy ijod, tibbiyot oliy o'quv yurtlari talabalarini tarbiyalash, ijodkorlik, ijodiy fikrlash.*

***Keywords:*** *creative and pedagogical aspect, professional creativity, education students of medical universities, creativity, creative thinking.*

Современное общество ищет оригинально мыслящих личностей, проявляет интерес к созданию тех условий, которые способствуют выявлению творческих способностей, формированию индивидуального стиля деятельности. Эта проблема особенно важна в медицинском вузе, поскольку он призван готовить специалистов высшей квалификации, обеспечивающих прогресс в разных сферах человеческой деятельности. Поэтому овладение профессиональной деятельностью, которое предполагает: освоение операционно-практической сферы выбранной специальности, выработку такого отношения к ней, которое придает самой деятельности личностный смысл, определяет включенность в нее будущего профессионала, является основой учебно-профессиональной позиции студентов.

Педагогическая деятельность требует от преподавателя медицинского вуза умения создавать творческую атмосферу, в которой профессионально необходимые знания не просто усваиваются, а проходят через сознание студентов, позволяя им определить роль этого знания в своей профессиональной деятельности. Большой вклад в разработку проблемы педагогической деятельности и мастерства преподавателей внесли исследования, выполненные под руководством Н.В.Кузьминой, которые позволили выделить ряд закономерностей педагогической деятельности, определить критерии эффективности деятельности преподавателя, уточнить и апробировать теоретическую модель педагогической деятельности. В качестве педагогической модели может выступать такая психологическая структура деятельности преподавателя, которая представляет собой взаимосвязь, систему и последовательность его действий и умений, направленных на достижение целей профессиональной подготовки студентов технического вуза через решение





педагогических задач, соответствующих основным функциональным компонентам данной модели: гностическому, конструктивному, коммуникативному, организаторскому[1].

Необходимо отметить, что педагогическая деятельность преподавателя медицинского вуза направлена на создание условий для самосовершенствования и не ограничивается только передачей знаний будущим врачам. В ней сплетаются воедино стремление к сопереживанию и «безусловное принятие друг друга как ценностей». Все это требует от самого преподавателя необходимости собственного профессионального роста. Повышение педагогического мастерства преподавателя неразрывно связано с совершенствованием в его педагогической деятельности. Согласно педагогической закономерности цикличности, основными циклами развития педагога в процессе самостоятельной деятельности являются: освоение профессии; её совершенствование; утверждение и проверка системы работы; дальнейшее совершенствование; обобщение опыта; передача опыта; подведение итогов. Все это связано с поиском нового, с творчеством преподавателя. Связь между креативной активностью педагога и его мастерством подтверждается экспериментально.

Инновации в содержании современного медицинского образования и специализированное обучения в медицинском вузе предусматривают:

– широкую фундаментальную и профессионально-ориентированную подготовку;

– переход от дисциплинарно-информационного подхода к реализации междисциплинарных знаний, овладению методологией предмета, интеллектуальными основами, универсальным инструментарием профессиональной деятельности;

– активное использование в учебном процессе результатов и технологий научного поиска, повышение на этой основе эффективности самостоятельной творческой работы студентов, снижение аудиторной учебной нагрузки преподавателя и студентов;

– внедрение в учебный процесс интеллектуальных технологий, предусматривающих формирование знаний с целью получения нового интеллектуального продукта.

Системно-концептуальный анализ творческо-педагогического аспекта в становлении и развитии образования студентов медицинского вуза выступает в нашем исследовании как принцип, позволяющий каждому будущему специалисту медицинского профиля развиваться на протяжении всей жизни в различных профессионально-творческих ситуациях и рационально сочетаться с компонентами самообразования и самовоспитания.

Нами установлены и описаны новые творческо-педагогические аспекты и структурные компоненты креативности в научно-исследовательской работе будущего специалиста медицинского профиля: мотивационно-личностный компонент развития профессионального образования студента-медика; интеграционные компоненты креативности (интуиция, логическая строгость, воображение, способность, склонность к индивидуальным креативным разработкам; независимость суждений и т.д.), характеризующие дидактическое взаимодействие преподавателя и студента-медика[2].

С учетом этих исследований нами были определены детерминанты становления и развития профессионально-культурологического образования будущего специалиста медицинского вуза в системе их творческой направленности: осознанная индивидуально-личностная мотивация студента-медика в аспекте креативности; способность к культуротворческому оцениванию своих профессиональных результатов; креативная склонность к прогнозированию; способность видения нового в решении творческих задач; способность к принятию оригинальных научно-исследовательских решений в системе творческого аспекта[3].

В связи с этим нами была выявлена структура системы творческого мышления будущего специалиста медицинского профиля в научном творческом инновационном исследовании студента-

1 Юлдашева, Ш. (2021). Основные Тенденции Интегративно-Креативных Возможностейстудентов в Высшем Медицинском учебном Заведении и их Влияние на их Деятельность. Central asian journal of medical and natural sciences, 2(3), 369-377.

2 Kurbanova G.N. Important directions for the development of creative abilities and creative abilities of youth // "Pedagogical skill" // Issue 3, 2019. -P. 67-72.

3 Kurbanova G.N., Haydarova N.A. Reflection of innovative pedagogical ideas in the philosophy of the English revival Traditions, tasks and prospects for the development of pedagogicalscience 2015.-P.458-461.

медика: творческо-интеграционный аспект подготовки; творческая концентрация в аспекте креативности; интеграция идей креативности; творческое озарение; анализ и синтез творческого аспекта.

В своей диссертационной работе мы исследовали особенности педагогической деятельности в креативно ориентированном образовательном процессе медицинского вуза.

В ходе исследования мы убедились, что креативная педагогика, реализующаяся в условиях высшего медицинского образования, включает в себя все основные звенья творчества, входящие в организационно-педагогическую ткань образовательного процесса.

Нами было выявлено, что креативная педагогика, адекватная медицинскому образованию, выступает как одно из инновационных направлений в педагогической науке и образовательной практике высшего медицинского учреждения.

В связи с этим нами были разработаны основные направления творческо-практической деятельности педагога медицинского вуза с учетом специфических особенностей образовательного процесса, адекватного высшему медицинскому образованию: общение, как часть творческо-педагогического процесса, проникновение креативности в общение преподавателя со студентами; нестандартный творческий подход к решению медицинских задач; разработка новых творческих методов, форм, приемов и средств; эффективное творческое применение имеющегося опыта; подготовка субъекта творческо-педагогического процесса, творческой индивидуальности; конкретные творческо-педагогические действия преподавателя; творческое импровизация на основе точных знаний и интуиции.

При разработке основных направлений творческо-педагогической деятельности педагога медицинского вуза нами были выделены цели креативной педагогики, адекватной процессу высшего медицинского образования: активизировать творческий интерес студента с учётом выявления склонностей к определённой области изучаемой специально-медицинской дисциплины; способствовать зарождению мотивационного фактора, необходимого для креативной исследовательской работы будущего врача; формировать творческое мышление студента как саморегулируемую, самоорганизующуюся систему; развить в процессе работы индивидуально-личностную интеллектуальную организацию исследовательской деятельности; развить индивидуальный научно-исследовательский путь решения творческих проблем в процессе образования в вузе[4].

Проведенное исследование позволило нам также выделить и описать основные компоненты креативной педагогики, адекватной медицинскому образованию.

В процессе исследования нами разработана и описана система содержательных основ творческо-педагогического аспекта в становлении и развитии образования студентов-медиков.

Основываясь на результатах проведенного исследования, мы описали интеграционный характер соотношения целей, основных компонентов и содержательных основ творческо-педагогического аспекта, реализующегося в условиях образовательного процесса высшей медицинской школы.

Исключительно важное значение для формирования личности современного специалиста, по нашему мнению, имеет общение преподавателя медицинского вуза и студента. Общение – сложный социальный процесс, выполняющий целый ряд важных функций, одной из которых – информационная. Общение, как педагогическое средство, должно быть направлено на формирование деловых и тесных взаимоотношений между наставниками и студентами, а в конечном итоге – на формирование настоящего специалиста. В творческом сотрудничестве со студентами поведение преподавателей бывает исключительно разнообразным: пунктуальным и строгим или предельно снисходительным – детерминировано индивидуальностью преподавателя.

В педагогической науке накоплен большой опыт использования педагогических технологий, направленных на саморазвитие, которое позволяет человеку найти себя, быть востребованным, способным полнее реализовать свои возможности. В соответствии с принципами гуманистического подхода процесс развития полноценной личности студента медицинского вуза должен строиться как системное взаимодействие

4 Yuldashova Sh. T. Prerequisites for the Development of Creative Thinking // Middle european scientific bulletin // Volume 8, January 2021.-С. 287-289





преподавателя и студента, при котором:

– преподаватель не формирует человека, стараясь отличить его в форме, задуманной ранее, а помогает студенту найти в себе положительное, что в нем уже есть, но искажено, забыто, спрятано;

– студент может научиться чему-либо лишь самообучаясь, т.е. учение – это не только усвоение знаний, умений и навыков, а изменение внутреннего чувственно-когнитивного опыта учащихся, связанного со всей его личностью;

– студенты становятся ответственными, независимыми, самостоятельными, умеющими давать себе адекватную самооценку, актуализировать свои потенциальные возможности.

Итак, анализ литературных источников свидетельствует о важности творческого направления в образовательном процессе студента высшем медицинском образовании.

Как было выявлено в процессе исследования, творческий исследовательский потенциал студента-медика способствует формированию и последующему развитию объекта творчества, продукта его творческой деятельности; креативность в работе студента медицинского вуза направлена не только на разработку объекта, но на преобразование самого субъекта этой деятельности - студента-медика. Деятельность, производимая при этом студентами, становится творческой активностью будущих специалистов медицинского профиля. Таким образом, мы делаем вывод, что именно интегративно-креативные возможности способствуют формированию креативно мыслящей личности студента-будущего врача, характеризующейся, в первую очередь, готовностью студента-медика к творческой активности в избранной им сфере медицинских знаний. На основании проведённого исследования мы делаем вывод, что интегративно-креативный подход в модернизации образования - это один из инновационных подходов к развитию образования студента медицинского профиля.

Исследовании мы исходим из того, что интегративно-креативные возможности в профессиональной подготовке образования студента-медика способствует формированию высококвалифицированного, профессионально грамотного специалиста-врача.

# MASOFAVIY MALAKA OSHIRISH TIZIMINING MAZMUNI VA MOHIYATI

***Asliddin To'lqinjon o'g'li Doliyev** - doktorant, Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Bosh ilmiy-metodik markazi*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada Oliy ta'lim muassasasi rahbar va pedagog kadrlarning malakasini oshirishda masofaviy ta'limning o'rni hamda masofaviy ta'limning o'ziga xos xususiyatlari, masofaviy malaka oshirishning afzalliklari va vazifalari ko'rsatib o'tilgan.*

***Аннотация:** В данной статье показана роль дистанционного образования в подготовке педагогических и руководящих кадров высших образовательных учреждений, а также показаны специфические особенности, преимущества и задачи дистанционного обучения.*

***Abstract:** This article shows the role of distance learning in the training of managers and teachers of higher educational institutions, as well as the specific features of distance learning, the benefits and objectives of distance learning.*

***Kalit so'zlar:** masofaviy ta'lim, elektron ta'lim, o'quv jarayonini masofadan tashkil etish, kompetentlik, ta'lim sifati, kasbiy layoqat.*

***Ключевые слова:** дистанционное образование, электронное образование, организация дистанционного образовательного процесса, компетентность, качество образования, профессиональная компетентность.*

***Keywords:** distance learning, e-education, organization of the educational process at a distance, competence, quality of education, professional competence.*

Keyingi yillarda oliy ta'lim tizimini tubdan isloh qilish va ta'lim sifatini baholash hamda oliy ta'lim muassasasidagi pedagog va rahbar kadrlarni malakasini oshirishda

ta'lim sifatini oshirish bo'yicha keng ko'lamli ishlar olib borilmoqda. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2019-yil 23-sentyabridagi "Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida"gi 797-sonli qarori va 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son Farmoni ijrosini ta'minlash hamda oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining kasbiy bilimi, ko'nikmalari va mahoratini uzluksiz yangilab borish mexanizmlarini joriy etish, zamonaviy talablarga muvofiq oliy ta'lim sifatini ta'minlash uchun zarur darajada kasbiy tayyorgarlikni oshirish, qayta tayyorlash va malaka oshirishning bevosita hamda kasbiy faoliyatga aloqador bilvosita shakllarini variativ va bir birini to'ldirish tamoyillari asosida amaliyotga joriy etishni ta'minlash maqsadida Vazirlar Mahkamasi qaror qiladi[1]. O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 21-dekabrdagi 530-sonli "2022-yilda o'tkaziladigan oliy ta'lim muassasalari, akademik litsey rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari reja va tinglovchilar kontingentini tasdiqlangan"[2]. O'zbekiston Respublikasidagi davlat va nodavlat Oliy ta'lim muassasalarida yagona masofaviy kurs platformasidan foydalanish va kelgusi yillarda barcha yo'nalishlarida tatbiq etishdan iborat; tinglovchilar uchun masofaviy malaka oshirishda kurs platformalaridan foydalanishning umumiy darajasini oshirish maqsadida mintaqaviy malaka oshirish markazlarining asosiy o'quv dasturlariga yangiliklar kiritib borish.

masofaviy malaka oshirishda o'quv dasturlari orqali nazariy materiallarni o'rganish va kasbiy malakasini oshirishi;

an'anaviy malaka oshirish uchun sarflanadigan mablag'larning ma'lum bir qismini tejash orqali rahbar va pedagog xodimlarning malakasini oshirish;

o'quv kurslarini o'zlashtirish, tinglovchilarga o'qish va o'z lavozim vazifalarini tizimli bajarish imkonini beradi;

masofaviy malaka oshirish o'quv dasturlarini samarali amalga oshirishning asosiy vazifalari sifatida quyidagilarni ko'rsatib o'tish mumkin;

yangicha metodlarni va amaliy ko'nikmalarni tahlil qilish hamda masofaviy malaka oshirganligi haqidagi sertifikatni olish uchun o'quv kurslariga motevatsiyani oshishi;

rahbar va pedagog kadrlar faol mustaqil faoliyati, o'zlarining vazifalari vaqtida har-xil masalalarni yechish uchun ularni qo'llay olishi;

axborot ta'lim resurslari hamda telekommunikatsiya, yangicha pedagogik usullardan foydalanish;

masofaviy ta'limga individual va differensial yondashuv;

masofaviy ta'limning modulli tizimi;

uzluksiz malaka oshirish tizimi;

Masofaviy malaka oshirishning qulay jihatlarini keltirib o'tishimiz mumkin. Ta'lim resurslarining ta'minlanganligi, hududiy joylashuvdan, vaqt va sotsial vaziyatidan qat'iy nazar yuqori darajada kirishishlik, nisbatan samarali, ortiqcha jismoniy kuch sarf etmay, ishlab chiqarishdan ajralmagan holatda masofadan kurslarni o'zlashtirishdan iborat[3]. Muayyan nazariy va amaliy bilimlarni videoma'ruzalar, maslahatlar, nazorat turlarini masofadan turib real vaqt rejimida tinglovchilarga yetkazib berish, ularda ma'lum faoliyat yuzasidan ko'nikma va malakalarni hosil qilish, egallangan bilim, ko'nikmalarini masofadan singdirish o'qituvchidan yuksak pedagogik mahorat talab etadi. Masofaviy malaka oshirish tizimi ikki oyni tashkil etadi, masofaviy malaka oshirish tizimidagi modellar, topshiriqlar, mavzular, shu mavzuga tegishli qisqa savol javoblarni o'z vaqtida o'zlashtirishi yuzasidan masofaviy kurs tinglovchilarga ko'nikmalarini hosil qildirgan holatida kurslarni o'zlashtirish uchun maslahatlar, nazorat turlari, nazariy ko'nikmalarni rivojlantirish, kelgusida zarur bo'ladigan keng ko'lamli masofaviy kurs tinglovchilari uchun o'quv-metodik materiallarni yangilab borish[4].

Hozirgi kundagi kompyuter texnologiyalaridan keng foydalanilgan holatda kurslarni tashkil etishga yo'naltirilgan yuqori darajali masofaviy malaka oshirish kurslarini joriy etish; Rahbar va pedagog kadrlar bilan bog'liq yo'nalishda kadrlarning malakasini oshiruvchi Bosh ilmiy metodik markazi va mintaqaviy markazlarda bitiruvchilar sonini, mutaxassislik sohasi bo'yicha yuqori darajada kompetentlikka ega bo'lgan tinglovchilarni sonini oshirish[5]; Elektron ta'lim resurslaridan keng foydalanilgan holatda an'anaviy malaka oshirish kurslariga tushgan pensiya yoshidagi, nogironligi bor va 3–yoshga to'lmagan farzandli ayol rahbar va pedagog kadrlarni ishidan ajralmagan holatida masofaviy malaka oshirish kurslarda o'qitishni yana-da mustahkamlash va shu rahbar va pedagog kadrlar o'z sohalari bo'yicha kurslarni o'zlashtirish rahbar va pedagog kadrlarning yutuqlariga poydevor bo'ladi va ta'lim sifatining oshishi hamda o'qitish metodologiyalarini takomillashtirishga xizmat qiladi; Malaka oshirish tizimining barcha yo'nalishlarida "Jihozlar interneti", sun'iy intellekt texnologiyalarini qo'llash va o'rganish bo'yicha saytlar, shuningdek, butun malaka oshirish tizimidagi qog'oz shaklidagi hujjatlarni raqamlashtirish formatlardan foydalanish bo'yicha O'zbekiston Respublikasida yagona raqamlashtirilgan tizimlarni qo'llab-quvvatlashni ta'minlash orqali malaka oshirishda elektron ta'lim resurslaridan foydalanib tizimni mazmun va mohiyatini ishlab chiqishdan iborat; elektron ta'lim nazariyasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish va rag'batlantirish, ularni tashkiliy mexanizmlarini rivojlantirish; ilg'or surilgan g'oyalar va yangi elektron ta'lim nazariyasi sohasida ilmiy-tadqiqot ishlarini rivojlantirish; elektron ta'lim nazariyasi sohasida yangi tizimlarni yaratish yo'llarini ishlab chiqish va aniqlash, shuningdek, audio va video ma'ruzalarni har bir soha mutaxassisi malaka oshirish tizimlariga joylashtirish va yangi texnologiyalardan foydalanilgan holatda tinglovchilarga yangicha o'qitishning algoritmlarini tushuntirishdan iboratdir. Elektron ta'lim nazariyasi zamonaviy axborot sohasida tinglovchilarga elektron ta'lim muhitda joylashtirilgan sifatli ta'lim kontentidan foydalana olish imkonini beradigan masofaviy ta'lim nazariyasi keng qo'llanib kelmoqda[6]. Elektron ta'lim resurslari va internet tarmog'ining boshqa manbalaridan keng foydalanish asosida qurilgan masofaviy kurslar bir tomondan tinglovchilarga internet orqali sifatli ta'lim materiallariga yo'lash imkonini, ikkinchi tomondan esa, kurslarni ishlab chiquvchilariga hamkorlik va tajriba almashish imkonini ta'minlash; Kompyuter texnologiyalaridan foydalanish o'quvchilarga, talabalarga va pedagog va rahbar kadrlar ta'lim sifatiga, keyinchalik butun umrlik ta'lim olishga bo'lgan o'sib boruvchi talablarni qoniqtirish imkonini beradi. Malaka oshirish ta'lim tizimining usulini hamda bilimlarning tarqatish vosita va uslublarini o'zgartirish hisobiga sifat jihatidan yangilanib borilishi kerak. Bu har doim va insonga uning butun ijtimoiy va malakaviy faoliyati davomida kerak bo'ladigan ta'limni berish bilan bog'liq bo'ladi. Bunday masofaviy ta'limni tashkil etish paradigmasi bo'lib an'anaviy pedagogikadan farq qiladigan, ta'lim amaliyotida individual yo'naltirilgan trayektoriyalarni kuzatib borish pedagogikasi sifatidagi ta'limni tashkil etish hisoblanadi. Unda ijtimoiy-madaniy amaliyotlar bevosita, refleksi bo'lmagan holda taqdim etiladi; didaktik pedagogika, madaniy me'yorni ta'lim oluvchi subyektdan ajratilgan bilimlar va faoliyat me'yorlari tizimi shakliga o'tkazadi; faoliyatli pedagogika, ta'lim oluvchi subyektni mavjud bo'lgan faoliyat turiga kiritadi[7].

Masofaviy ta'lim g'oyasini ishlab chiqishda boshqa pedagogik mazmunini ishlab chiqish emas, balki uni ishlab chiqishga boshqacha metodologik yondashuv to'g'risida gapirish zarur bo'ladi. Masofaviy ta'limda ta'lim jarayonining asosini tinglovchini mavzu yuzasidan maqsadga yo'naltirilgan, nazorat qilinadigan, intensiv mustaqil izlanishi va bunda tinglovchi o'ziga qulay joyda, individual reja bo'yicha o'qishi mumkin bo'ladi va o'zida maxsus o'qitish vositalarining majmuasiga ega bo'ladi hamda pedagog bilan muloqot qilish va shaxsan uchrashish imkoniyatiga ega bo'ladi. Masofaviy ta'limning maqsadi tinglovchilarni axborot va telekommunikatsion jamiyat sharoitida ijtimoiy va kasbiy sohalarda to'la-qonli va samarali ishtirok etishga

*1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Oliy ta'lim muassasalari rahbar va pedagog kadrlarining uzluksiz malakasini oshirish tizimini joriy etish to'g'risida» 2019-yil 27-avgustdagi PF-5789-son Farmoni.*

*2 O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirining 2021-yil 21-dekabrdagi 530-sonli "2022-yilda o'tkaziladigan oliy ta'lim muassasalari, akademik litsey rahbar va pedagog kadrlarini qayta tayyorlash va malakasini oshirish kurslari reja va tinglovchilar kontingentini tasdiqlangan"*

*3 Максиянова Т.В., Тарасенко О.С., Рулиене Л.Н. и др. Дистанционные технологии в образовании. - Сиб. федер. ун-т.; Краснояр. гос. пед. ун-т им. В.П.Астафьева [и др.]. – Красноярск: Центр информации, 2012. 164 bet.*

*4 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Tanqidiy tahlil qat'iy tartib-intizom va shaxsiy javobgarlik har bir rahbar faoliyatining kundalik qoidasi bo'lishi kerak" Toshkent 2017-107 b.*

*5 O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Erkin va farovon, demokratik O'zbekiston davlatini birgalikda barpo etamiz". Toshkent 2017-59 b.*

*6 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Farmoni, 05.10.2020 yildagi PF-6079-son "RAQAMLI O'ZBEKISTON — 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida" farmoni.*

*7 O'zbekiston Resiublikasi Prezidentining "Oliy ta'lim muassasalarida ta'lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga oshirilayotgan keng kamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta'minlash bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" gi PQ-3775-son qarori 05.06.2018 y. Ochiq ta'lim resurslari bo'yicha butun jahon kongressi, YUNESKO, 2012-yil 20-22 iyun.*

yo‘naltirishdir[8].

Tizimlashtirilgan texnologiyalar va o‘qitish vositalaridan foydalanish– kompyuterlar, tarmoq vositalari, multimedia texnologiyalari, masofaviy kurs tinglovchilarini tayyorlash uchun maxsus dasturiy ta’minotdan foydalanish.

Bilim sifatini test va himoya orqali nazorat qilish, pedagoglar tomonidan shakllantirilgan axborot texnologiyalari bazasidagi test tizimlaridan foydalanish.

Iqtisodiy samaradorlik – olingan natijaning vaqt, pul va boshqa resurslarning sarflanishiga nisbatining masofaviy shaklda o‘qitish nisbatan yaxshilanishi.

Masofaviy kurslarda – o‘ziga qulay vaqtda, qulay joyda va qulay sur’atda o‘qish imkoniyati.

Asinxronlik – har bir tinglovchi uchun qulay jadvalga o‘qitish texnologiyasini amalga oshirish.

Pedagoglarning yangi roli – unga bilish jarayonini muvofiqlashtirish, fan mazmunini to‘g‘rilash, individual o‘quv rejasini tuzishda maslahatlashgan holatda, axborot va telekommunikatsion texnologiyalar yordamida kurs loyihalariga rahbarlik qilish funksiyasini yana-da rivojlantirish.

Pedagogning yangi roli – o‘z-o‘zini tashkil etish, motivlanish, mustaqil ishlash ko‘nikmalari va mehnatsevarlikka qo‘yiladigan talablarni oshirish.

Malaka oshirishga zamonaviy axborot va telekommunikatsion texnologiyalarni tatbiq etish.

Internatsionallik – ta’lim xizmatlarini eksport va import qilish imkoniyati.

Masofaviy ta’lim konsepsiyalari masofaviy o‘qitish asosida yagona masofaviy ta’lim muhitini shakllantirish[9].

Pedagogik tadqiqotlarda masofaviy malaka oshirish kurslarining ta’lim yo‘nalishlarida keng miqyosdagi an’anaviy, yangi axborot va telekommunatsion texnologiyalar va texnik vositalarni qo‘llashga asoslangan o‘qitish uslubi bo‘lib belgilanadi. Bunda tinglovchiga standartlarga mos keladigan ta’lim sohalari tanlab platformadagi kurslarga joylashtiriladi, pedagog bilan suhbat asosida fikr almashish imkoniyati beriladi, kurslarni o‘qitish jarayoni tinglovchilarning masofaviy va oflayni joylashishiga bog‘liq bo‘lmaydi.

Jadval-1

| Klassik ta'lim paradigmasi | Masofaviy ta'lim paradigmasi |
|---|---|
| Masofaviy ta'limning asosiy maqsadi — tinglovchilarning salohiyatini baholash | Masofaviy ta'limning asosiy maqsadi — tinglovchilarning pedagog salohiyatini oshirish |
| Malaka oshirish — oddiy tizim | Malaka oshirish — murakkab tizim |
| Pedagog mahorat — o'tmishdan («xotira maktabi») | Pedagog mahorat — kelajak uchun («fikrlash maktabi») |
| Masofaviy ta'lim jarayoni — malaka oshiruvchilarda mashhur ilm namunalari bo'yicha bilim, malaka, ko'nikmalar berish | Masofaviy ta'lim jarayoni — malaka oshiruvchilarda jamiyatda shaxsiy faol faoliyat yo'li bilan o'z-o'zida dunyo namunasini yaratish |
| Masofaviy malaka oshiruvchi — pedagogik obyektning ahamiyati | Masofaviy malaka oshiruvchi— faoliyatni tushunish subyekti |
| Pedagog va malaka oshiruvchining Monologik subyektiv-obyektiv munosabati | Pedagog va malaka oshiruvchining Dialogik subyektiv-obyektiv munosabati |
| Masofaviy malaka oshiruvchining reproduktiv faoliyati | Masofaviy malaka oshiruvchining faol ijodiy faoliyati |

Ko‘rsatilgan tamoyillardan foydalanish masofaviy ta’lim pedagogik tizimi barcha elementlarining sifatli o‘zgarishlariga olib keladi va ular quyidagilardan iborat.

Masofaviy ta’lim jarayoni nihoyatda murakkab va ko‘p komponentlidir. Masofaviy ta’lim samaradorligi pedagog va tinglovchilarning faolliligiga, masofaviy ta’lim vositalarining mavjudligiga, masofaviy ta’lim jarayonining tashkiliy, ilmiy-metodik mukammalligiga, jamiyatda ilmli kishilarga bo‘lgan ehtiyojga va boshqa aniqlanmagan ko‘pgina omillarga bog‘liq. Jamiyat o‘zining ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy ehtiyojlari asosida ta’lim samaradorligi yuqori bo‘lishini talab etadi.

Masofaviy ta’limning barcha bo‘g‘inlarini shunday tashkil etish kerakki, tinglovchilar kurslarni chuqur o‘zlashtirish bilan birga keng qamrovli fikrlashga o‘rgatsin. Masofaviy ta’lim jarayonida tinglovchi masofaviy bilim olish ehtiyoji hozirgi kunning talabidir.

Pedagogik amaliyot va tadqiqotlarda qator ish usullari qo‘llab ko‘rildi. Masofaviy ta’limni muammoli tashkil etish, masofaviy ta’limda tinglovchilarni faollashtirish, hamkorlik pedagogikasi, tayanch ko‘nikmalarga asoslanish, masofaviy ta’limni optimallashtirish.

8 Titarev D.L., Fedanov A.N., Medvedev A.P. Internet – ta’lim texnologiyalari. // Ochiq ta’lim, 5, 2002, 18 – 25 betlar.

9 Информатсионные и коммуникатсионные технологии в образовании / под ред. Д. Бадарча. М. ИИТО ЮНЕСКО, 2013. 320 с.





O‘zlashtirilayotgan kurs bo‘yicha tinglovchilarda bilim yetarlicha bo‘lmagan holda ham tinglovchida salbiy kechirmaga o‘rin qoldirmaslikni, bu tinglovchilarning aybi emasligini tan olishni talab etadi.

Masofaviy ta’limning ustuvor vazifalaridan biri, bu tinglovchi ongida milliy va umuminsoniy qadriyatlarni qaror toptirish va kelgusi ish faoliyatida pedagogik mahoratini samarali qo‘llash hamda malakaviy ko‘nikmalarni shakllantirish.

Ushbu vazifalar ta’lim sifati darajasini yanada ko‘tarilishini, malakali mutaxassislar tayyorlash tizimida o‘zgarishlar sodir etishni talab qiladi[10].

Masofaviy malaka oshirish tizimida ta’lim sifatini ta’minlash birinchi navbatda malaka oshirish tizimlarining moddiy-texnik bazasi, mablag‘li ilmiy loyihalar, pedagoglarning kasbiy malakalari, bilim saviyalari, salohiyati va tinglovchilarning kurslarni o‘zlashtirishi katta ahamiyat kasb etadi.

Bugungi kunda masofaviy ta’lim modelining asosiy maqsadi – zamonaviy axborot jamiyatini rivojlantirish bilan tinglovchilarga yuqori saviyadagi masofaviy ta’limni ta’minlovchi muhitni hosil qilish va masofaviy ta’lim sifatini qo‘llash yuzasidan olib borilgan izlanish natijasiga ko‘ra quyidagi xulosa va takliflar ishlab chiqildi.

Hozirgi vaqtda rahbar va pedagog kadrlarini uzluksiz malakasini oshirish va masofaviy ta’limda tinglovchilarning bilim va malaka ko‘nikmalarini o‘quv kurslari bo‘yicha e’tirof qilish.

Bugungi kunda jahonda hamda Respublikamizda masofaviy ta’limning o‘rni, ta’lim sifatiga ta’siri, samaradorligi va ahamiyati o‘rganildi.

Masofaviy ta’limning mazmuni va mohiyati hamda ro‘y berayotgan ijtimoiy, iqtisodiy va madaniy o‘zgarishlar, shuningdek, masofaviy ta’lim yo‘nalishi sohasida kuzatilayotgan yangiliklar, islohotlar negizida doimiy o‘zgarib, g‘oyaviy jihatdan to‘ldirib boriladi.

Oliy ta’lim muassasalarini malaka oshirish bilan integratsiya qilishda ta’lim sifatini ta’minlashga qaratilgan Bosh ilmiy-metodik markazi va tarmoq markazlarining elektron kutubxonalari o‘rganilib chiqildi.

Malaka oshirishda yaratilgan elektron ta’lim resurslarini bir nechtasidan kurslarni o‘zlashtirishda, elektron auditoriyalar yaratishda foydalanish tavsiya etildi.

Malaka oshirishni tashkil etishda Oliy ta’lim muassasalari yosh bolali, nogironligi bor va pensiya yoshiga yetgan rahbar va pedagog kadrlarning yillik reja grafigini Bosh ilmiy-metodik markazi va tarmoq markazlariga to‘g‘ri shakllantirib berishi tavsiya etildi.

Nodavlat oliy ta’lim muassasalarining rahbar va pedagog kadrlarini qisqa muddatli masofaviy malaka oshirish kurslarda ishtirok etishi tavsiya etiladi.

10 Lobachev S.L. “Elektron ta’lim resurslarini ishlab chiqish asoslari” 2020. B-114.

# CHET TILIDA NUTQIY KO‘NIKMALARNI RIVOJLANTIRISHDA MUAMMOGA ASOSLANGAN YONDASHUV TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

***Shohista Komiljonovna Tojiboyeva*** *- tayanch doktorant, Qo‘qon davlat pedagogika instituti*

***Annotatsiya:*** *Chet tilida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muammoga asoslangan yondashuv texnologiyalaridan foydalanish haqida batafsil ma’lumotlar berib o‘tilgan. Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda leksik ko‘nikmalarni shakllantirish va nutqni o‘rgatishning muhimlilik darajasining ahamiyati borasida fikr-mulohazalar berildi. Nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda ingliz tilining grammatikasi hamda metodikasining tutgan o‘rni va vazifalari bayon etildi. Nutqning psixofiziologik mexanizmlarining nutqni rivojlantirishdagi ta’siri atroflicha ochib berildi. Ingliz tilida og‘zaki nutqdan foydalanishda innovatsion uslublarni qo‘llanilishi borasidagi fikrlar haqida mulohazalar yuritildi. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish uchun mamlakatimizda olib borilayotgan rejalar to‘g‘risida atroflicha to‘xtalib o‘tildi.*

***Аннотация:*** *Подробная информация об использовании технологий проблемного подхода в развитии навыков говорения на иностранном языке. Высказаны мнения о важности формирования лексических навыков и уровне значимости обучения речи в развитии речевых навыков. Объяснены роль и задачи английской грамматики и методики в развитии навыков разговорной речи. Детально раскрыто влияние психофизиологических механизмов речи на развитие речи. Обсуждались мнения об использовании инновационных методов в использовании устной речи на английском языке. Подробно говорилось о планах, проводимых в нашей стране по развитию навыков устной речи.*

***Abstract:*** *Detailed information on the use of problem-based approach technologies in the development of speaking skills in a foreign language. Opinions were given on the importance of the formation of lexical skills and the level of importance of teaching speech in the development of speech skills. The role and tasks of English grammar and methodology in the development of speaking skills were explained. The impact of psychophysiological mechanisms of speech on the development of speech was revealed in detail. Opinions on the use of innovative methods in the use of oral speech in English were discussed. It was discussed in detail about the plans being carried out in our country for the development of oral speech skills.*

***Kalit so‘zlar:*** *og‘zaki nutq ko‘nikmalarining xususiyatlari, psixofiziologik mexanizmlar, innovatsion uslublar, leksik ko‘nikmalar, nutqni o‘rganishning muhimlilik darajasi.*

***Ключевые слова:*** *особенности навыков устной речи, психофизиологические механизмы, инновационные методы, лексические навыки, уровень значимости обучения речи.*

***Keywords:*** *features of oral speech skills, psychophysiological mechanisms, innovative methods, lexical skills, level of importance of learning speech.*

Jahonning umumiy o‘rta ta’lim maktablarida PISA, PIRLS, TIMSS xalqaro baholash dasturlarida belgilangan ko‘nikma va malakalarni egallashga alohida e’tibor qaratilmoqda. Ana shu jihatdan umumiy o‘rta ta’lim maktablarida ingliz tilini o‘rgatish jarayonida intensiv ta’lim texnologiyalaridan samarali foydalanish metodlari, nutqiy ko‘nikmalarning rivojlanganlik darajalarini o‘lchash mezonlarini ishlab chiqish va uning zamonaviy ta’lim talablariga mosligini ta’minlash katta ahamiyat kasb etadi.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi «O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha Harakatlar strategiyasi to‘g‘risida» gi PF-4947-son, 2019-yil 8-oktyabrdagi PF-5847-son «O‘zbekiston Respublikasi oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida»gi, O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-apreldagi PQ-2909-son «Oliy ta’lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2018-yil 5-iyundagi PQ-37755-son «Oliy ta’lim muassasalarida ta’lim sifatini oshirish va ularning mamlakatda amalga





oshirilayotgan keng qamrovli islohotlarda faol ishtirokini ta’minlash bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida»gi, «O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida» 2021-yil 19-maydagi PQ-5117-son qarorlari va mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirish ushbu tadqiq etilayotgan muammoda muayyan darajada e'tiborga olinadi.

Mamlakatimiz oliy ta’lim muassasalarida chet tilni o‘rgatish masalalari bo‘yicha L.T.Axmedova, J.J.Jalolov, I.Y.Yoqubov, G.T.Maxkamova, S.A.Misirov, V.I.Normuratova, T.Q.Sattorov, S.Saydaliev, O‘.X.Xoshimov, G.Tadjibayev, M.Sh.Ro‘zmetova va boshqalar shug‘ullanganlar[1].

Chet til o‘qitish metodikasida muammoga asoslangan yondashuv orqali nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirish muammolari bo‘yicha, N.G.Barыshnikova, V.P.Bespalko, I.A.Zimnyaya, N.A.Gorlova, G.Selevko va boshqalar shug‘ullanishgan.

Xorijiy davlatlarda chet tilda nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirish masalalari bo‘yicha N.Banu, A.Barton, P.Blumberg, X.D.Braun, L.Kabral, J.Xarmer, J.Richards, L.D.Friman, P.Neyshn kabi olimlar shug‘ullanishgan.

Tadqiq etayotgan mavzumizda mazkur yo‘nalishda bajarilgan ishlardan farqli ravishda, umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining chet tilda nutqiy ko‘nikmasini rivojlantirish usullarini ishlab chiqish masalasiga e'tibor qaratilgan.

Dunyo amaliyotida o‘quvchilarning ingliz tilida nutqiy ko‘nikmalarini shakllantirishda sotsiokulturoloogik nazariya asosida ishlab chiqilgan metodlar (Task Based Approach – Muammoga asoslangan ta’lim yondashuvi) dan foydalangan holda chet tilni bosqichma-bosqich o‘rgatish, lingvodidaktik va psixologik omillar ta’sirini aniqlash alohida ahamiyat kasb etadi. Shu jihatdan muammoga asoslangan yondashuv texnologiyalari orqali umumiy o‘rta ta’lim maktablari o‘quvchilarining nutqiy kompetensiyasini rivojlantirish zaruriyatini izohlaydi.

S.Fiz tomonidan taklif qilingan “muammoga asoslangan ta’lim” (Task-based instruction) metodi mazmunni tushunib o‘zlashtirishni (comprehensible input) ta’minlaydi va mazmunni muhokama qilishga tabiiy chet til muhitini yaratib beradi va muloqotga undaydi. Ushbu metod quyidagi g‘oyalarga asoslanadi:

- asosiy e’tibor natijadan ko‘ra jarayonga ko‘proq yo‘naltirilishi;
-ushbu metodning asosiy tarkibi mashqlar va vazifalar bo‘lib, ular muloqot va mazmunga yo‘naltiriladi (obyekt muammosidan kelib chiqib, obrazga kirishish va muhokama qilish);
- o‘quvchilar chet tilni berilgan topshiriq va vazifalarni o‘zaro hamkorlikda maqsadli bajarish jarayonida o‘rganib borishlari;
- mashqlar va vazifalar ikki xil bo‘lishligi;
- hayotiy vaziyatlarda foydalana olishligi;
- maxsus pedagogik maqsadlarni amalga oshirishga yo‘naltirilganligi (muayyan o‘quvchilarning real hayotiy ehtiyojidan kelib chiqishligi);
- muammoli ta’limning mashqlari va topshiriqlari bosqichma-bosqich murakkablashtirilib borilishi;
- vazifalarning oson yoki qiyinligi o‘quvchilarning ingliz tilini bilish darajasi, topshiriqning murakkabligi darajasi, foydalaniladigan leksik birliklar, o‘qituvchi tomonidan beriladigan yordam kabi bir qator omillarga bog‘liq.

Hozirgi kunda ta’lim jarayonida eng ko‘p qo‘llaniladigan usulublardan “Muammoli vaziyat yechimi” (Creative Problem Solving), “Tezkor javob” ( Quick answers), “Chigil yozdi” (Warm-up exercises), “Hikoya zanjiri” (A chain story), “Rolli o‘yinlar” (Acting characters) kabilari og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etmoqda. Darslarda bunday innovatsion usullardan foydalanish o‘qituvchi hamda o‘quvchi o‘rtasidagi hamkorlikni, hamda o‘quvchining nutqiy faoliyatini rivojlantiradi[2].

Biz ushbu tadqiq etayotgan muammoni 3 bosqichda amalga oshirish lozim deb hisoblaymiz. Jumladan:

Birinchi bosqich

- ingliz tilida nutqiy ko‘nikmalarni shakllantirishning zamonaviy g‘oyalarini tadqiq etish va tadqiqot mavzusining dolzarbligini aniqlash;
- pedagogika, psixologiya, tilshunoslikda muammolarning o‘rganilganlik darajasini tahlil qilish;
- umumiy o‘rta ta’lim maktablarida chet til o‘rgatish jarayonida muammoga asoslangan yondashuv texnologiyalaridan foydalanish holatini o‘rganish;

1 Ахмедова Л.Т. Теория и практика обучения профессиональной русской речи студентов-филологов // – Ташкент: Fan, 2013. –200 с. Нормуратова В.И. Формирование рецептивных лексических навыков у студентов-юристов (на материале английского языка) // дисс...канд.пед.наук. – Ташкент, 2008. – С. 62-72.;

2 Саттаров Т.К. Формирование профессиональных умений будущего учителя иностранного языка на практических занятиях по специальности (на материале английского языка) // автореф.дис ... докт. пед. наук. – Ташкент, 2000. – 32 с.;

- oliy ta’lim muassasalarida talabalarning kasbiy tayyorgarligi pedagogik tizimlarini hamda chet til fani o‘quv dasturlarini o‘rganish;

Ikkinchi bosqich

- muammolarni tadqiq qilish konsepsiyasini ishlab chiqish va uni pedagogik jarayon davomida hal etish;
- umumiy o‘rta ta’lim maktabi o‘quvchilarining nutqiy ko‘nikmalarini rivojlantirishda qaratilgan muammoga asoslangan yondashuv g‘oyasini amalga oshirish;
- o‘quvchilarning ingliz tilini o‘rganish motivatsiyasi monitoringini olib borish;
- o‘quvchilarning chet tilda nutqiy kompetensiyasini shakllantirishning omillari, shartlari va shakllarini o‘rganish;
- til o‘rgatishning psixolingvistik prinsiplari asosida o‘quvchilarning ingliz tilida nutqini rivojlantirish muammolarini hal etishni ko‘rib chiqish.

Bu bosqich tadqiqot ishi materiallarini ishlab chiqish, o‘quvchi yoshlar bilan ishlashning mazmuni va usullarini aniqlashtirishni o‘z ichiga oladi.

Ushbu bosqichda prognostik va diagnostika usullar qo‘llaniladi.

Uchinchi bosqich

- tadqiqotning tahlil qilish va yakuniy hulosalar chiqarish;
- ingliz tilini o‘qitish jarayonida tadqiqot natijalarini sinovdan o‘tkazish;

Ushbu bosqichda tahlil qilish, umumlashtirish, eksperiment o‘tkazish, natijalarni statistik tahlil qilsh kabi metodlardan foydalaniladi.

Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muammoga asoslangan ta’lim jarayoni aqliy faoliyat hisoblanadi va u nutqni tinglash qobiliyatini, o‘ylash, mulohaza qilish kabi psixologik mexanizmlarini o‘z ichiga oladi. Ingliz tilida og‘zaki nutq ko‘nikmasini rivojlantirishda tilning leksik, grammatik va fonetik jihatlarini o‘rganish hamda tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda Oliy va o‘rta maxsus ta’limda chet tilini o‘rganish va o‘rgatish masalasi dolzarbligicha qolmoqda. Bunda asosan gapirish ko‘nikmasini rivojlantirish ahamiyatli hisoblanadi[3].

Nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muammoga asoslangan ta’limni rivojlantirishda innovatsion metodlardan foydalanish, ularni dars jarayonlarida faol darajada qo‘llash muhimdir. Bu innovatsion metodlarni qo‘llashdan asosiy maqsad, o‘quvchilarni mantiqan fikrlab, berilayotgan mavzu doirasidagi savollarga mustaqil javob berish, o‘z-o‘zini mustaqil ravishda baholashga qaratilgan[4]. Umuman olganda innovatsion metodlar nafaqat og‘zaki nutq ko‘nikmalarini balki, ingliz tilini o‘rganishdagi keying uchta aspektda ham (o‘qish, yozish va tinglab tushunish) qo‘l keladi. Bugungi kunda ta’lim jarayonida o‘qituvchilarimiz Amerika Qo‘shma Shtatlari va Angliyaning pedagogik tajribalariga tayangan holda innovatsion uslublardan foydalanishmoqdalar. Albatta, og‘zaki nutq ko‘nikmalarini riovjlantirishda yordam beradigan uslublarni kengroq yoritib berish muhim masala hisoblanadi.

Ingliz tilida nutqiy ko‘nikmalarni rivojlantirishda muammoga asoslangan ta’limni rivojlantirishning asosiy tamoyillari hamda jihatlari va unga asos bo‘ladigan boshqa lingvistik ko‘nikmalar ko‘rib chiqildi. Muammoga asoslangan ta’limni shakllantirishdagi eng muhim jihatlar bu keyingi yillarda mamlakatimiz miqyosida olib borilayotgan qator ishlar natijasi deb hisoblasak ham bo‘ladi. Chunki asosiy urg‘u chet tillarida so‘zlashni yo‘lga qo‘yish, nafaqat o‘z ona tilimizda balki boshqa chet tillarda ham ravon va go‘zal so‘zlashish mahoratini oshirishga qaratilgan. Bu borada olib borilayotgan ishlar zamirida esa albatta mehnat yotibdi.

Til- inson ko‘zgusidir. Shunday ekan uni mukammallashtirishga ko‘proq ahamiyat bermog‘imiz lozim. Muammoga asoslangan ta’limni rivojlantirish chet tili sohasidagi asosiy istiqboli jabhalardan biri hisoblanadi. Shuning uchun ingliz tilidagi og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirishda turli xil zamonaviy hamda innovatsion metodlarga tayanib ish ko‘rish va ularni fanda tatbiq etish muhimdir. Innovatsion metodlar orqali nutqning rivojlanishini ta’minlash samaralidir. Og‘zaki nutq ko‘nikmalarini o‘rgatish va o‘rganish darajasini muhimliligi ko‘pgina jabhalarda o‘z isbotini topib kelmoqda.

3 Ҳошимов Ў. Ҳ., Ёқубов И.Я. Инглиз тили ўқитиш методикаси. -Тошкент.: Шарқ, 2003;

4 Сайдалиев С. Тиллар ўқитиш методикаси ва таълим технологиялари (олмон тили мисолида). –Наманган.: 2019;





# BO‘LAJAK O‘QITUVCHILAR KASBIY KOMPETENTLIGINI TARIXIY TAFAKKUR ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH MAZMUNI VA USTUVOR TAMOYILLARI

***Ikromjon Murodjon o‘gli Usmonaliyev*** - *tayanch doktorant, Andijon davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Oliy ta’lim tizimida tahsil olayotgan bo‘lajak o‘qituvchilarning kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirishning mazmuni va ustuvor tamoillari haqida fikr-mulohazalar bayon etilgan. Shuningdek maqolada, bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirishning asosiy omili va unga erishish yo‘llari haqida ham ayrim tavsiyalar berib o‘tilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье раскрываются содержание и приоритетные принципы повышения профессиональной компетентности будущих педагогов, обучающихся в системе высшего образования на основе исторического мышления. Также в статье даны некоторые рекомендации относительно основного фактора повышения профессиональной компетентности будущих учителей на основе исторического мышления и путей его достижения.*

***Abstract:*** *This article describes the content and priority principles of improving the professional competence of future teachers studying in the higher education system based on historical thinking. The article also gives some recommendations about the main factor of improving the professional competence of future teachers based on historical thinking and ways to achieve it.*

***Kalit so‘zlar:*** *bo‘lajak o‘qituvchi, tarixiy tafakkur, kompetentlik, pedagogik munosabatlar, rivojlantirish, ilmiy faoliyat, “Persial ta’lim”, mohiyat.*

***Ключевые слова:*** *будущий учитель, историческое мышление, компетентность, педагогические отношения, развитие, научная деятельность, «Личное образование», сущность.*

***Keywords:*** *future teacher, historical thinking, competence, pedagogical relations, development, scientific activity, "Persial education", essence.*

OTMda bo‘lajak o‘qituvchilar kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish yo‘lida amalga oshiriladigan pedagogik faoliyat uzoq muddatli, integrativ xarakterga ega jarayondir. Uzoq muddatli ekani tarixiy tafakkurning asosini belgilovchi bilim, ko‘nikma, malaka, kompetensiyalarning uzluksiz ta’lim tizimining barcha bosqichlarida o‘zlashtirilishini anglatadi. Avvallari maktabgacha ta’lim muassasalarida tarbiyalanuvchilar tomonidan maxsus, izchil ravishda tarixiy bilimlarning o‘zlashtirilishiga e'tibor qaratilmagan. Turli tadbirlarda u yoki bu davlat amamiyatiga molik bayram, an'analar, buyuk siymolar to‘g‘risida epizodik m a’lumotlar berilgan. Shunga qaramay, epizodik m a’lumotlarning o‘zi ham bolalarda u yoki bu tarixiy davr, jarayon to‘g‘risidagi bilimlarning shakllanishi uchun “yadro” bo‘lib xizmat qiladi.

O‘zbekiston Respublikasining “Oliy ta’lim tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish Konsepsiyasini tasdiqlash to‘g‘risida”gi PF-5847-son (8-oktyabr 2019-yil), “Raqamli O‘zbekiston – 2030” strategiyasini tasdiqlash va uni samarali amalga oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi 6079-son (2020-yil 5-oktyabr), “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi PF-60-son (2022-yil 29-yanvar) Farmonlari, “Pedagogik ta’lim sohasini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PQ-4623-son (2020-yil 27-fevral) Qarori, shuningdek, Respublika Vazirlar Mahkamasining “2030-yilgacha bo‘lgan davrda barqaror rivojlanish sohasidagi milliy maqsad va vazifalarni amalga oshirishni jadallashtirish bo‘yicha qo‘shimcha chora-tadbirlar to‘g‘risida”gi 83-son (2022-yil 21-fevral) Qarori kabi me’yoriy hujjatlarda ko‘rsatilgan vazifalarni amalga oshirishda mazkur tadqiqotimiz muayyan darajada xizmat qiladi.

“Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarida tarix fanining uzviyligini ta’minlash Konsepsiyasi”[1]ning loyihasi e’lon qilingan 2020-yildan boshlab

1 Maktabgacha, umumiy o‘rta, professional va oliy ta’lim tizimlarida tarix fanining uzviyligini ta’minlash Konsepsiyasi // https://uzviylik.tdi.uz/upload/iblock/fbf/ fbf807fcc6a

esa respublikada uzluksiz ta'lim tizimining dastlabki bosqichidan boshlab, bolalarga tarixiy bilimlar bilan izchil tanishtirib borish amaliyoti yo'lga qo'yildi. Loyiha g'oyasiga ko'ra, parsial ta'limiy dasturi asosida maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilariga dastlabki tarixiy tushunchalar beriladi.

Tarix – insoniyatning ko'plab avlodlari tomonidan to'plangan madaniy, ma'naviy-axloqiy, ijtimoiy tajribasining katta to'plami. Tarixiy xotirani yo'qotish ijtimoiy ong va ijtimoiy qadriyatlarni yo'q qiladi. Tarix – avloddan avlodga o'tib, har safar yangi tajribalarni hisobga olgan holda uni "boshidan kechirgan" va anglab yetgan ijtimoiy tajribani rivojlantiruvchi oqim. Pedagogik fikrlar tarixiy taraqqiyotida tarix fanlarini o'rganishning ahamiyati vorisiylik asosida amalga oshirilishi insoniyat o'tmishi va buguni, shuningdek, ertasi (kelajagi)ni bog'lovchi "ko'prik" ekani qayd qilinadi. Zero, tarixiy vorislik o'tmish haqiqatlari, saboqlarining yangicha ko'rinish, yangi shaklda yosh avlodga uzatilishini anglatadi. L.I.Jarikova ta'kidlaganidek, "tarixiy vorisiylik mohiyati uzluksiz ta'lim tizimi elementlari yoki alohida tavsiflarining yangi holatga o'tish jarayonida saqlanib qolinishida ko'rinadi"[2].

Vorislik, xususan, tarixiy vorislik u yoki bu narsaning ajdodlardan avlodlarga uzatilishini ifodalar ekan, xorijiy mamlakatlar hamda O'zbekiston misolida tarix fanlarini o'qitishda ushbu tamoyildan foydalanish tegishli sohada ta'lim sifatini yaxshilashga xizmat qiladi. Ayni o'rinda shu xususida so'z yuritiladi.

Ayni o'rinda "parsial ta'limiy dastur" tushunchasini ham sharhlab o'tish to'g'ri bo'lgan bo'ladi: parsial ta'limiy dastur – maktabgacha ta'lim muassasalari hamda guruhlarida bolalarga ta'lim berishga oid asosiy dasturga qo'shimcha dastur bo'lib, u muayyan maqsad uchun xizmat qiladi[3].

Ayni vaqtda maktabgacha ta'lim muassasalari uchun tavsiya qilinayotgan parsial ta'limiy dastur tarbiyalanuvchilar tomonidan "milliy tarix va buyuk Sharq allomalari hayoti va ijodi xaqida ilk tushunchalar, buyuk siymolarning bolalar yoshiga mos odob-ahloq, tarbiyaga oid, ota-onalarga, Vatanga muhabbat hissini uyg'otuvchi asarlari, mashhur sarkardalar (Zahiriddin Muhammad Boburning podshoh, shoir va buyuk sarkarda, Amir Temur mashhur sarkarda, yirik davlat arbobi bo'lgani) haqidagi dastlabki ma'lumotlar"[4] ni o'zlashtirishga xizmat qiladi.

Tarixiy tafakkur hodisa, dalil va hodisalar mohiyatini o'rganish orqali shakllanadi. Kamdan kam uchraydigan hodisalarni yorituvchi tarixiy dalillar muayyan vaqtda, m a'lum makonda muayyan kishilarning ishtirokida m a'lum doirada sodir bo'lgan voqealarni aks ettiradi. Mazkur dalillar o'ziga xos bo'lib, ular tarixiy davrga tegishli hodisalarning o'ziga xos xususiyatlarini yoritadi. Tarixiy dalillar hajmi, murakkabligi va ahamiyati jihatidan bir-biridan farqlanadi. Murakkab dalillarni tushunish va o'zlashtirish uchun ularni oddiyroq dalillar yordamida ochib berish kerak. Tarixiy voqyea va hodisalar bir-biri bilan chambarchas bog'liq.

Talabalarida tarixiy tafakkurni rivojlantirish OTMning tegishli yo'nalishi bo'yicha tashkil qilinayotgan o'quv-tarbiyaviy ishlarning muhim tarkibiy elementi hisoblanadi. Ushbu tarkibiy element tarix fanlari turkumi ("Qadimgi dunyo tarixi", "O'rta asrlar tarixi", "Yangi tarix", "Eng yangi tarix", "O'zbekiston tarixi", "O'zbekistonda davlatchilik tarixi", "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Jahon tarixi", "Manbashunoslik", "Arxeologiya", "Muzeyshunoslik", "Tarix o'qitish metodikasi") ni o'qitish, auditoriyadan va OTMdan tashqari tarixiy mavzularda m a'naviy-ma'rifiy ishlarni tashkil qilish jarayonining umumiy mohiyatini ifodalaydi. Tarixiy tafakkurni rivojlantirishda talabalar tomonidan tarix fanlari asoslarining mustaqil o'zlashtirilishi hamda nazariy bilimlarni amaliyotga tatbiq etish jarayoni – pedagogik amaliyot ham muhim o'rin tutadi. OTMda bo'lajak o'qituvchilarni tayyorlashda ushbu masalani inobatga olish maqsadga muvofiqdir.

Talabalarda tarixiy tafakkurini rivojlantirishda ularning muayyan darajada tarixiy bilimlarni, tarixiy sanalarni samarali o'zlashtirish, tarixiy voqyea, hodisa va jarayonlarning mazmunini tahlil qilish, sabab-oqibatlari hamda o'zaro aloqadorligini baholay olish, tarixiy mohiyatga ega xaritalar bilan kutilganidek ishlay olish qobiliyatlarga ega bo'lishi muhimdir. Bo'lajak o'qituvchi sifatida talabalarning tarixiy tafakkurga ega bo'lishning yana bir muhim sharti – ular tomonidan tarixiy hujjatlar bilan ishlay olish kompetensiyalarining muvaffaqiyatli o'zlashtira olishiga erishish sanaladi.

092deb5efa04b9525ce1c.pdf.

2 Жарикова Л.И. Педагогика непрерывного образования в системе наук о человеке // Вестник ТГПУ. 2009. № 7(85). – С. 124.

3 Список парциальных программ в ДОУ по ФГОС // https://www.resobr.ru/article/63081-qqq-17-m01-obzor-partsialnyh-programm-v-dou-po-fgos.

4 Maktabgacha, umumiy o'rta, professional va oliy ta'lim tizimlarida tarix fanining uzviyligini ta'minlash Konsepsiyasi // https://uzviylik.tdi.uz/upload/iblock/fbf/ fbf807fcc6a 092deb5efa04b9525ce1c.pdf.





Tarixiy tafakkur o'z navbatida talabalar – bo'lajak tarix fanlari o'qituvchilarning milliy g'urur va vatanparvarlik sifatlariga ega bo'lishlariga erishish uchun zamin yaratadi.

OTMda bo'lajak o'qituvchilarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish jarayonida quyidagi holatlar so'z yuritilayotgan jarayonda samaradorlikka erishishni kafolatlaydi: zamonaviy sharoitda talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish ijtimoiy ahamiyatga ega masala ekaniga e'tiborni qaratish; talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish mazmunini yorituvchi kognitiv-metodologik asoslarni ishlab chiqish; talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirishga xizmat qiluvchi mavjud didaktik, texnik va texnologik imkoniyatlardan samarali foydalanish chora-tadbirlarini belgilash; talabalarning tarixiy tafakkurini rivojlantirishga yordam beruvchi innovatsion shakl, metod va vositalar tizimini asoslash; tarix fanlarini o'qitish jarayonida fanlararo aloqadorlikni ta'minlash; talabalar tomonidan o'zlashtirilgan nazariy tarixiy bilim, ularni amaliyotda samara qo'llash ko'nikma, malaka, tajribalardan amaliyotda maqsadli, oqilona foydalanishga imkon beruvchi shart-sharoitlarni yaratish.

Pedagogik manbalarda ilgari surilgan g'oyalarga tayangan holda bo'lajak tarix fanlari o'qituvchilarining tarixiy tafakkurga egalik darajasi quyidagi metodlar yordamida baholanadi:

1) ta'lim-tarbiya jarayonida talabalarning o'quv-bilish faoliyatini bevosita o'rganish metodlari (pedagogik kuzatish, retrospektiv ish hujjatlari va o'quv hamda kasbiy faoliyat rejalarini o'rganish, suhbat, tahlil, boshqalar);

2) tarixiy tafakkurga egalik darajasini tashxislashga yordam beruvchi maxsus metodlar (tashxisli vaziyatlar, anketa, test va boshqalar)[5].

Mazkur jarayonda talabalarda ish hujjatlarini metodik jihatdan to'g'ri, oqilona yuritish, kasbiy faoliyat rejalarini puxta ishlab chiqish, individual va mustaqil ta'lim olish, o'quvchilarda o'quv-bilish faoliyatini individual va mustaqil tashkil qilish, ta'limiy natijalarni refleksiv o'rganish malakasi, tajribasi, kompetensiyalarini rivojlantirishga alohida e'tibor qaratish zarur. Quyidagi ta'lim shakllari bo'lajak tarix fanlari o'qituvchida o'quvchilarning tarixiy tafakkurga egaliklarini o'rganish va baholashda o'ziga xos o'rin tutadi: ilmiy anjuman; "Talaba va ilmiy-texnika taraqqiyoti" fan olimpiadasi; tanlov (davlat (O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyasi, Navoiy nomidagi davlat stipendiyasi), maxsus (Yahyo G'ulomov nomidagi) stipendiya uchun tanlovda qatnashish va g'olib bo'lish); ilmiy-metodik jurnallar (masalan, "Xalq ta'limi", "Pedagogik ta'lim", "Uzluksiz ta'lim", "ta'lim taraqqiyoti", "Maktab va hayot" kabilar)da ilmiy maqolalar chop ettirish; Respublika va xalqaro grantlar (masalan, "Iqtidorli yoshlar" tanlovida ishtirok etish va g'oliblikni qo'lga kiritish); ish tajribasi ("ustoz-shogird" an'anasiga ko'ra yetakchi, tajribali va malakali pedagoglarning ish tajribalarini o'rganish); to'garak (misol uchun, "Yosh tarixshunos" to'garaklarida ishtirok etish) va boshqalar[6].

OTMda bo'lajak o'qituvchilarning pedagogik tafakkurini to'laqonli shakllantirish bir qadar murakkab jarayon hisoblanadi. Binobarin, tarix fanlari turkumi o'zida yirik hajmli tarixiy bilimlarni qamrab olgan bo'lib, ularni talabalar tomonidan puxta o'zlashtirish muayyan vaqt va intellektual kuchni talab etadi. ta'lim jarayonida quyidagi vazifalarni ijobiy hal qilish talabalik davrida bo'lajak tarix fanlari o'qituvchilari tomonidan tarixiy bilimlarni yetarli darajada o'zlashtirishlariga imkon beradi:

1. Tarix fanlari turkumini o'qitish jarayoniga innovatsion yondashish.
2. Mashg'ulotlarni interfaol metodlar asosida tashkil qilish.
3. O'qituvchi va talabalar o'rtasida kollaboratsiyani yuzaga keltirish.
4. Tarix fanlari asoslarini o'zlashtirishda talabalarning mustaqil faoliyat yuritishi uchun sharoit yaratish.
5. Kichik guruhda ishlash orqali talabalarni ijodiy loyihalarni bajarishga yo'naltirish.
6. Talabalarning ijodiy faoliyatlarini rag'batlantirish.
7. Talabalarda o'quv-bilish faoliyatini mustaqil ravishda refleksiv tahlil qilish qobiliyatlarini rivojlantirish.

Yuqorida bir necha bor takrorlaganidek, bo'lajak o'qituvchilar kasbiy

kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish yaxlit jarayon sanaladi. Shu sababli har qanday jarayonda bo'lgani kabi bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish ham muayyan bosqichlarda tashkil qilinadi. Mavjud sharoitda bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirish jarayoni quyidagi

5 Zanina L.V., Menshikova N.L. Основы педагогического мастерства / Учеб.пособие для студ. пед. вузов. – Rostov-na-Donu, Feniks, 2003. – S. 238.

6 Fayzullaeva N. Pedagogik bilimlar – o'qituvchi kasbiy mahoratining nazariy asosi //Uzluksiz ta'lim j. – T.: 2006. 6-son. – 103-bet.

bosqichlarda kechadi:

1-bosqich. Tarix fanlari turkumi:

1) umumiy o'rta ta'lim maktablarida tarix fanlari – "Tarixdan hikoyalar" (5-sinf), "Qadimgi dunyo tarixi" (6-sinf), "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" (7-sinf), "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" (8-sinf), "O'zbekiston tarixi" va "Jahon tarixi" (9-sinf), "O'zbekiston tarixi", "Jahon tarixi" va "Dunyo dinlari tarixi" (10-sinf), "O'zbekiston tarixi", "Jahon tarixi" va "Dunyo dinlari tarixi" (11-sinf);

2) professional ta'lim muassasalarida tarix fanlari– "O'zbekiston tarixi", "Jahon tarixi" va "Dunyo dinlari tarixi" bo'yicha Davlat ta'lim standartlari (DTS)da belgilangan nazariy bilim (tushuncha)larni o'zlashtirish hamda tahlil qobiliyatini shakllantirish.

2-bosqich. Oliy ta'lim muassasalarida mutaxassislik fanlari– "Qadimgi dunyo tarixi", "O'rta asrlar tarixi", "Yangi tarix", "Eng yangi tarix", "O'zbekiston tarixi", "O'zbekistonda davlatchilik tarixi", "O'zbekistonning eng yangi tarixi", "Jahon tarixi", "Manbashunoslik", "Arxeologiya", "Muzeyshunoslik", "Tarix o'qitish metodikasi" fanlari bo'yicha DTSda belgilangan nazariy bilim (tushuncha)larni o'zlashtirish, tahlil, baholash va munosabat bildirish qobiliyatlarini rivojlantirish.

3-bosqich. Tarix fanlari bo'yicha o'zlashtirilgan nazariy bilimlarni uzlukli va uzluksiz pedagogik amaliyot davrida, amaliy mashg'ulotlar va mustaqil ta'lim jarayonida amaliyotda qo'llay olish ko'nikma, malaka va tajribalarini rivojlantirish;

4-bosqich. Mustaqil ravishda o'qib-o'rganish va ijodiy izlanish asosida hosil qilingan amaliy ko'nikma, malaka va tajribaning kompetensiyalarga aylanishiga erishish.

5-bosqich. Uzluksiz ta'lim tizimining turli bosqichlarida faoliyat yuritib, ta'lim muasssasalarida pedagog sifatida ish olib borish jarayonida o'zlashtirilgan kompetensiyalarga tayangan holda kasbiy faoliyatni samarali tashkil etishga psixologik jihatdan tayyorlash.

Talabalarda tarixiy tafakkurni rivojlantirish jarayoni quyidagi yo'nalishlarda amalga oshiriladi:

1. Tarixiy voqea, hodisa va jarayonlar mohiyatini ochib beruvchi tushunchalarni o'zlashtirish (masalan, xronologiya, xronologik rivojlanish, solnoma, tuzum, ibtidoiy jamoa tuzumi, urug', qabila, davlat tuzilmasi, ilk davlat tuzilmasi, quldorlik tuzumi, qul, qul egasi, feodal tuzum, feodal yer egaligi, qo'zg'alon, feodal yer, xartiya, "Salb yurishi", salbchilar, Renessans (Uyg'onish davri), pomeshchik, pomeste (pomeshchikning yer mulki), kustar ishlab chiqarish (hunarmandchilikka asoslangan kichik ishlab chiqarish), sanoat, sanoatlashuv, fabrika, zavod, sanoat ishlab chiqarishi, burjua, burjuaziya, kapital, kapital ishlab chiqarish, kapitalist (burjuaziya jamiyatida hokim sinf vakili, kapital egasi), milliy ozodlik harakati, inqilob, sotsialistik g'oya, sotsializm, ishchilar va dehqonlar jamiyati, madaniy inqilob, kommunistik g'oya, kommunizm, partiya, kommunistik partiya, kolxoz, kolxozlashtirish, elektrlashtirish, sotsialistik musobaqa, bepul ta'lim, madaniy-oqartiruv muassasalari, qayta qurish, mustaqillik, milliy istiqlol g'oyasi va boshqalar.

2. Tarixiy jarayonlar mohiyatini yorituvchi tushunchalarni o'zlashtirish – ilk davlat tuzilmalarining vujudga kelishi, milliy ozodlik qo'zg'alonlari, turli sulolalar hukmronligi davrlari, maktab va madrasa ta'limi tizimining shakllanishi, ilm-fan, san'at va madaniyatning rivojlanishi, xonliklar o'rtasidagi urushlar, turli tariqatlarning rivojlanishi, jadidlar harakatining tashkil etilishi, Turkistonning Chor Rossiyasi tomonidan bosib olinishi, Turkistonda Sovet hokimiyatining o'rnatilishi, Turkiston muxtoriyatining tuzilishi va fojiali yakun topishi, O'rta Osiyoda milliy-davlat chegaralanishi amalga oshirilishi, O'zbekistonda maktab ta'limi tizimining tashkil etilishi, oliy ta'lim muassasalari faoliyatining yo'lga qo'yilishi, siyosiy qatag'onlik, I va II Jahon urushlarining kelib chiqish sabablari hamda oqibatlari, Respublika Fanlar akademiyasining tashkil qilinishi, transport tizimi faoliyatining yo'lga qo'yilishi, ishlab chiqarish, sanoat va metallurgiya sohalarining rivojlanishi, O'zbekistonda qayta qurish siyosatining amalga oshirilishi, O'zbekistonning mustaqillikka erishishi, MDH tashkilotining tuzilishi, O'zbekistonning MDH va boshqa xorijiy davlatlar bilan hamkorlik faoliyati va hokazolar.

3. Milliy meros va milliy qadriyatlar to'g'risida ma'lumot beruvchi tushunchalarni o'zlashtirish (masalan, qadimgi yodgorliklar, "Avesto" asari, zardushtiylik ta'limoti, yozma ma'rifiy yodgorliklar, Urxun-yenisey yozuvlari, "Irq yozuvlari" ("Ta'birnoma"), islom dini g'oyalari, musulmon maktablari, islom axloqi, Hadis ilmi, hadislar, Imom al-Buxoriy, Imom at-Termiziy, "ishonarli to'plam", so'fiylik ta'limoti, komil inson, Ahmad Yassaviy, Bahouddin Naqshband, Sharq Uyg'onish davri, Naqshbandiya tariqati, Sharq mutafakkirlari va jadidchilik harakati namoyandalarining axloqiy, ma'rifiy qarashlari va boshqalar.





4. Kasbiy kompetentlikning mohiyatini yorituvchi tushunchalarni o'zlashtirish (masalan: pedagogik faoliyat, pedagogik faoliyat mazmuni, pedagog shaxsi, kompetensiya, kasbiy kompetensiya, kasbiy (maxsus) kompetentlik, pedagogik kompetentlik, ijtimoiy kompetentlik, metodik kompetentlik, axborot kompetentligi, pedagogik ta'sir, pedagog odobi, muloqot madaniyati, mimika, pantomimika, pedagogik takt, faoliyat uslublari, pedagogik tajriba, pedagogik mahorat, ijodkorlik, muammoli vaziyat, muammoli vaziyatlarni hal etish, o'qituvchi va o'quvchi hamkorligi va hokazolar).

5. Tarix ta'limini tashkil etishga texnologik va innovatsion yondashuv mohiyatini yorituvchi tushunchalarni o'zlashtirish (masalan: ta'lim texnologiyasi, pedagogik texnologiya, an'anaviy yondashuv, tizimli yondashuv, pedagogik tizim, texnologik yondashuv, texnologik yondashuv tamoyillari, innovatsion yondashuv, shaxsga yo'naltirilgan ta'lim, tarixiy bilimlarni o'zlashtirish darajasi, tarix ta'limini tashkil qilish jarayoni, tarix ta'limi jarayonini loyihalash, loyihalash bosqichlari, ta'lim motivlari, o'quv-bilish faoliyati, o'quv-bilish faoliyatini boshqarish, bixeviorizm ta'limoti, ta'lim maqsadlari, ta'lim maqsadlarini oydinlashtirish,).

6. O'quv jarayonini metodik jihatdan to'g'ri tashkil qilishga imkon beruvchi malaka va kompetensiyalarni o'zlashtirish (o'quv jarayonini ajratilgan vaqt bo'yicha tashkil qilish, o'quvchilarning o'quv-bilish faoliyatini samarali uyushtirish, o'quv materialini, shuningdek, samarali metodika (ta'lim shakli, metodi, vositalari, texnologiyalar)ni to'g'ri tanlash, o'quv vositalari (ko'rgazmali qurollar, bosma va vizual metodik ishlanmalar)ni yaratish, o'quv topshiriqlari hamda nazorat-sinov ishi to'plamini shakllantirish, o'quvchilarning o'quv faoliyatini baholash mezonlarini ishlab chiqish.

Yuqoridagilardan kelib chiqib xulosa qiladigan bo'lsak, OTMning talabalarida tarixiy tafakkurni rivojlantirishda "fakt (dalil) lar, terminologiya, faktlarni saralash usullari, rivojlanish omillari, tasniflar, tekshirish va baholash mezonlari, tadqiq qilish uslublari, umumiy tushunchalar, hodisalarni tushuntirish, talqin va bashorat qilish uchun zarur nazariyalar, qoidalar va qonunlarni bilishga e'tibor berish lozim".

O'qituvchining tarixiy tafakkuri bevosita uning turli ta'limiy vaziyatlarda yuzaga keluvchi masalalarning yechimini topishda, ayniqsa, yaqqol namoyon bo'ladi. Shu sababli OTMda bo'lajak o'qituvchining kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirishda ularning pedagogik vaziyatlarga baho bera olishi, ularning mohiyatini chuqur va to'la anglashi, ularning yechimlarini topishda obyektiv hamda subyektiv ta'sirlarni inobatga ola bilishi muhimdir. Demak, talabalar tomonidan kognitiv xarakterdagi tushunchalar majmui hamda amaliy kompetensiyalarning puxta o'zlashtirilishi ularda tarixiy tafakkurni samarali shakllantirishga zamin yaratadi.

Bo'lajak o'qituvchilar kasbiy kompetentligini tarixiy tafakkur asosida takomillashtirishga qaratilgan ilmiy-pedagogik faoliyat samarasini ta'minlashda ustuvor tamoyillarning ham tanlanishi muhim ahamiyat

# TA'LIM JARAYONIDA INNOVATSION FAOLIYATNI TAKOMILLASHTIRISH MEXANIZMLARI

***Jahongir Ro'ziyev** - tadqiqotchi, Samarqand davlat chet tillar instituti*

***Annotatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlar asosida ta'limni innovatsion tashkil etish, u orqali yuqori samaradorlikka erishish, innovatsion ta'limni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari, yoshlarning malakali kadrlar bo'lib yetishishlari uchun barcha zarur resurslar bilan ta'minlash, jamiyatning ma'naviy ehtiyojini qondirish, moddiy imkoniyatlarini kengaytirishning konstruktiv mohiyati ijtimoiy-falsafiy tahlil qilingan.*

***Аннотация:** В данной статье на основе реформ, проводимых в сфере образования в Узбекистане, инновационной организации образования, достижения с его помощью высокой эффективности, особенностей внедрения инновационного образования, всего необходимого для того, чтобы молодежь стала квалифицированной. кадровый социально-философский анализ конструктивной сущности обеспечения ресурсами, удовлетворения нравственных потребностей общества, расширения его материальных возможностей.*

***Abstract:** In this article, based on the reforms implemented in the field of education in Uzbekistan, the innovative organization of education, achieving high efficiency through it, the specific features of the introduction of innovative education, all the necessary for young people to become qualified personnel socio-philosophical analysis of the constructive essence of providing resources, satisfying the moral needs of the society, expanding its material capabilities.*

***Kalit so'zlar:** ta'lim, innovatsiya, an'anaviy va innovatsion ta'lim, ta'lim texnologiyalari, obyekt, metodologik ong, aql, dunyoqarash, substansiya.*

***Ключевые слова:** образование, инновация, традиционное и инновационное образование, образовательные технологии, объект, методологическое сознание, разум, мировоззрение, субстанция.*

***Keywords:** education, innovation, traditional and innovative education, educational technology, object, methodological consciousness, reason, outlook, substance.*

O'zbekistonda ta'lim sohasida amalga oshirilayotgan islohotlarning negizida har tomonlama yetuk kadrlarni tayyorlash masalasi muhim sanaladi. Ta'limning samaradorligiga erishish, yoshlarning malakali kadrlar bo'lib yetishishlari uchun barcha zarur resurslar bilan ta'minlash, jamiyatning ma'naviy ehtiyojini qondirish, moddiy imkoniyatlarini kengaytirish dolzarb sanaladi. O'zbekistonda barqaror rivojlanish jarayonlarini yanada tezlashtirish va samarasini oshirish uchun ilg'or iqtisodiy mexanizm, zamonaviy ilmiy yo'nalishlar va innovatsion texnologiyalarni yaratuvchi kreativ yoshlar va yangicha tafakkur sohiblarini tarbiyalash davlat siyosati darajasiga ko'tarildi. Chunki, keng ko'lamdagi islohotlarni amalga oshirish yangicha, proyektiv tafakkur tarziga bog'liq. Bu vazifalarni hal qilish yosh mutaxassislarda yangicha fikrlashni shakllantirish, mamlakatimizda jahon hamjamiyatida o'ziga munosib, salohiyatli o'rinni egallash borasida o'tkazilayotgan iqtisodiy, ijtimoiy-siyosiy, huquqiy islohotlar fan va texnikaning innovatsion yo'nalishda rivojlanishini ta'minlash murakkablashishi mumkin. Shu sababli tadqiqotda jamiyat, inson, uning faoliyati va tafakkuriga oid zamonaviy postnoklassik xarakterdagi innovatsion g'oyalar va nazariyalar ishlab chiqildi.

Xo'sh innovatsiya o'zi nima?

"O'zbek tilining izohli lug'ati"da: "Innovatsiya (ingl. innovation-kiritilgan yangilik, ixtiro) texnologiyaning - texnika va yangi turlari (avlodlari)ni joriy etish iqtisodiyotga sarflangan mablag'lar: ilg'or texnika va texnologiya, boshqarish va boshqa sohalardagi yangiliklar va ularning turli sohalarda qo'llanishi; muayyan tilda, asosan uning morfologiya sohasida eng so'nggi davrlarda paydo bo'lgan yangi hodisalar (til birliklari)"[1], "Falsafa: ensiklopedik lug'at"ida: "Innovatsiya (ing. innovationas - kiritilgan yangilik, ixtiro)- oldin mavjud bo'lmagan predmet, tuzilma, qadriyat va faoliyat metodlari maqsadida (texnologiyalari) ni yaratish, paydo bo'lgan yangiliklarni belgi, obraz va simvollarda ifodalash, ijtimoiy o'zlashtirish hamda tarqatish orqali jamiyat va inson hayotining barcha sohalariga tatbiq qilish jarayoni[2], "Большая экономическая энциклопедия"da: "Bozorning istiqbolli talabidan kelib chiqib, ishlab chiqarishga loyihaviy, texnologik, moddiy, tashkiliy jihatlarga yangilik kiritish bilan bog'liq faoliyat[3], - degan ta'riflar keltirilgan bo'lsa, olimlardan I.T.Balabanov: "Innovatsiya yangi texnika va texnologiya, mehnat, ishlab chiqarish, xizmat ko'rsatish va boshqaruv, shuningdek, nazorat, hisob-kitob, rejalashtirish uslublari, tahlil va boshqalarni tashkil etishning yangi shakllariga mablag' kiritish orqali erishilgan moddiylashgan natijadir"[4], S.Y.Kryuchkova: "Innovatsiya ilmiy tadqiqot faoliyatining mavjud shakl va usullarini yangilashga, ularni amalga oshirish uchun yangi maqsad va vositalar yaratishga qaratilgan paradigmal faoliyatdir"[5], N.A.Shermuhamedova: "Innovatsiya deb, ilmiy texnik yutuqlardan samarali foydalanishga aytiladi"[6], - degan ta'riflarni berganlar.

Yuqorida keltirilgan barcha ta'rif va tavsiflarni umumlashtiradigan bo'lsak, innovatsiya: birinchidan, har qanday g'oyadan emas, balki eng ilg'or g'oyalardan tashkil topadigan; ikkinchidan, eng ilg'or g'oya esa fan va texnika yutuqlarida mujassamlashgan; uchinchidan, yutuqlar ilg'or texnika va texnologiya sifatida o'zini namoyon qiladigan; to'rtinchidan, jamiyat ijtimoiy hayotining turli sohalarida qo'llaniladigan, beshinchidan, qo'llaniladigan joyida yangi bir sifatiy o'zgarishlarni keltirib chiqaradigan, oltinchidan, sifatli ta'lim berish tufayli yuzaga keladigan g'oya, ishlanma, vositalardan iborat faoliyat ekanligini ko'ramiz. Shu sababli mamlakatimiz milliy taraqqiyot yo'lini yangi rivojlanish bosqichiga ko'tarishda innovatsion faoliyat olib borishning beqiyos o'rni haqida O'zbekiston Respublikasining Prezidenti Sh.M.Mirziyoyev "Hammamiz yaxshi bilamiz, bugungi davr yuqori texnologiyalar, innovatsiyalar zamonidir. Dunyodagi rivojlangan mamlakatlar o'z oldiga nafaqat ko'plab mahsulotlar ishlab chiqarish va ularni bozorga olib chiqishi, balki chuqur bilim va ilmiy yutuqlarga asoslangan innovatsion iqtisodiyotga o'tish vazifasini qo'ymoqda. Ya'ni o'z iqtisodiyotini mavjud tabiiy resurslarni sarflash evaziga emas, innovatsion mahsulotlar yaratish, o'zlashtirish va ilg'or texnologiyalarni ishlab chiqarishga joriy qilish orqali rivojlantirish taraqqiyotning asosiy omiliga aylanmoqda.

Prezidentimiz Sh.M.Mirziyoyevning yuqorida bayon qilingan innovatsiya haqidagi bildirgan fikrlarini mamlakatni rivojlantirishning falsafiy metodologik-konseptual asosi sifatida innovatsion faoliyat tushunchasiga quyidagicha falsafiy ta'rif berish mumkin: Innovatsion faoliyat deb, iqtidorli shaxs, ilmiy jamoa, ta'lim muassasalari, ilmiy-tadqiqot institutlari, ishlab chiqarish birlashmalari, konstruktorlik-tajriba byurolari kabilar tomonidan jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotini, uning muayyan sohalarini isloh qilish, modernizatsiyalash, rivojlantirish uchun yangi g'oya, ilmiy-amaliy ishlanmalarni yaratishga, ularni amaliyotga joriy etishga qaratilgan ish harakatlardan iborat bo'lgan jarayonlar tizimiga aytiladi.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 29-noyabrda qabul qilgan "O'zbekiston Respublikasi Innovatsion rivojlanish vazirligini tashkil etish to'g'risida"gi Farmoni, 2018-yil 5-mayda qabul qilingan "Faol tadbirkorlik va innovatsion faoliyatni rivojlantirish uchun shart-sharoitlarni yaratish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi hamda 2018-yil 7-mayda qabul qilingan "Iqtisodiyot tarmoqlari va sohalariga innovatsiyalarni joriy etish mexanizmlarini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi Qarorlarida O'zbekiston Respublikasi innovatsion rivojlanishining asosiy yo'nalishlari etib quyidagilar: mamlakatning intellektual va texnologik salohiyatini oshirishning uzoq muddatli ssenariylari asosida, ustuvor soha va tarmoqlarni innovatsion rivojlantirishning kelajakdagi modellarini shakllantirish imkonini beradigan strategik rejalashtirish tizimini yaratish; davlat xizmatlari ko'rsatishning tartib-tamoyillarini optimallashtirish va soddalashtirishni, davlat boshqaruvi organlari faoliyatining samaradorligini oshirishni ta'minlaydigan davlat boshqaruvining innovatsion shakllarini joriy etish; hududlar ijtimoiy-iqtisodiy salohiyatining barqaror o'sishi, shuningdek, aholining hayot darajasi va farovonligi yuksalishi uchun zarur sharoitlarni ta'minlashga qodir bo'lgan fan va innovatsiya faoliyatini rivojlantirishning zamonaviy infratuzilmasini shakllantirish va boshqalar belgilangan. Ijtimoiy raqobat, ilg'or g'oyalarga ehtiyoj, davlat va inson manfaatlari uyg'unligini ta'minlash ta'lim sohasini muhim qonuniyatlari sifatida amal qiladi. G.Sultonovaning ta'kidlashicha, "Bugungi

*1 Ўзбек тилининг изоҳли луғати. Ж.П. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашри, 2006-Б.212.*

*2 Фалсафа:энциклопедик луғат. -Т.: "Ўзбекистон миллий энциклопедияси" Давлат илмий нашриёти, 2006.-5.138 (344-6ег)*

*3 Большая экономическая энциклопедия. -М.: Эксмо, 2007.- С.257.*

*4 Балабанов И.Т. Инновационный менеджмент. - СПб: "Питер", 2000.- С.11*

*5 Крючкова С.Е. Инновация и их роль в современном мире / С инергетика нелинейность глобализм монография. М.: Изд-во МГТУ «Станкиния, 2012г С.57.*

*6 Шермуҳамедова Н. Илмий тадқиқот методологияси. Дарслик.- Т.: "Fan va texnologiya".2014.-Б.174.*

kunda jahon sivilizatsiyasining postindustrial mamlakatlar hamjamiyatiga aylanib borishi axborotlashtirish, kompyuterlashtirish va turli madaniyatlararo muloqatning globallashuvi inson hayoti, ilm-fan va tafakkur tarzi jabhalarida jiddiy o'zgarishlarga olib keldi. Falsafa va fan sohalarida sodir bo'layotgan differensiya va integratsiya jarayonlari esa, birinchidan, paradigmal innovatsiyalarning, ikkinchidan, yangi tipdagi falsafiy va ilmiy tafakkur tarzining vujudga kelishiga sabab bo'lmoqda"[7].

Jamiyat ijtimoiy taraqqiyotining uzluksizligini ta'minlashga qaratilgan innovatsion faoliyat yuritishning muhim bo'g'inlardan birini innovatsion ta'lim tashkil qiladi.

Innovatsion ta'lim bu ta'lim-tarbiya berish va olish subyektlarining tizimlashtirilgan bilim, ko'nikma va malakalarini o'zlashtirish borasida eng yangi g'oyalarning fan va texnika yutuqlarida mujassamlashtirilgan, ilg'or texnika va texnologiya sifatida o'zini namoyon qilgan, o'qitish va o'rgatishda yangi sifatiy o'zgartirishni keltirib chiqaradigan vositalardan foydalanish orqali muayyan natijalarga erishishini ta'minlaydigan uzluksiz kechadigan jarayonlardan tashkil topgan bir yaxlit tizimidir. Innovatsion ta'limning mamlakatimiz ta'lim tizimidagi jarayonlarining shakllanishi va kechishini quyidagi bosqichlarga: "birinchisi — bu yangi eng ilg'or g'oyaning vujudga kelishi va shu asosda yangiliklarni yaratish konsepsiyasining paydo bo'lishi; ikkinchisi — yangilik yaratish konsepsiyasi asosida ixtiro qilish ya'ni, yangilikni yaratish; uchinchisi — yaratilgan yangilikni amalda qo'llay bilish; to'rtinchisi yangilikni keng tatbiq qilish, beshinchisi yangilikni hukmronlik qilishi; oltinchisi yangilikni navbatdagi muqobilini paydo bo'lishi"[8]; yettinchisi — mavjud yangilikning pirovardida eskilikka aylanishi, muqobil yangilikning innovatsion obyektni bir sifatiy bosqichdan ikkinchi yuqoriroq sifatiy bosqichga o'tishini ta'minlashi kabilarga ajratish mumkin.

Ta'lim tizimida innovatsion ta'limni joriy etishning o'ziga xos xususiyatlari mavjuddir. Masalan, oliy ta'lim tizimida bularga: a) oliy ta'lim kontingenti savodxonlik darajasining boshqalarga qaraganda yuqoriligi ya'ni, ularning asosiy qismi dunyoviy ilmlarni puxta egallagan professor-o'qituvchilar hamda muayyan ilmiy falsafiy dunyoqarashga ega bo'lgan talabalar tashkil qilishi; b) oliy ta'limda ta'lim va tarbiya hamda ilmiy ijod va ilmiy tadqiqotlarning dialektik tarzda uyg'unlashib ketganligi; v) moddiy texnika bazasi va ilmiy salohiyatning kuchliligi va keng qamrovliligi; g) yetakchi olimlar tomonidan shakllantirilgan ilmiy maktablarning vorisiylik an'analariga mos ravishda faoliyat olib borishi; d) har bir yangi g'oya, ilmiy kashfiyot, ixtiro, amaliy ishlanma va xokazolarning qanchalik jamiyat hayotida o'rni va umri borligini aniqlab beruvchi ilmiy ekspertlarning faoliyat olib borishi; g) oliy o'quv yurtlari o'rtasida ilmiy hamkorlikning yo'lga quyilganligi; ye) xorijiy mamlakat oliy o'quv yurtlari bilan o'quv va ilmiy tadqiqot ishlarini tashkil etish bo'yicha tajriba almashishning tashkil etilganligi; 2) zamonaviy pedagogik va axborot texnologiyalaridan foydalanish imkoniyatlarini voqelikka aylantirishda professor-o'qituvchilarning kasbiy-innovatsion kompetentlik darajalarining borligi kabilar kiradi va ularni innovatsion faoliyat yuritishda hisobga olish zarur bo'ladi.

Innovatsion ta'limning tarkibiy qismlarini an'anaviy ta'lim tizimini sifatiy jihatdan o'zgartirishga yoki tubdan takomillashtirishga qodir bo'lgan eng ilg'or g'oyalarning moddiylashishidan vujudga kelgan mutlaqo yangi tipdagi texnika va texnologiyalarni ta'lim jarayoniga kiritishda qo'llaniladigan vositalar va usullar tashkil qiladi. Bunda qo'llaniladigan innovatsion vositalarga: darslik, o'quv qo'llanma, axborot va texnik qurilmalar, ko'rgazmali qurollar, radio, televideniye, kompyuter, videoproektor, laboratoriya jihozlari, ramziy belgilar, tasviriy ko'rgazmali materiallar; innovatsion usullarga esa – "Aqliy hujum", "Debat", "Guruhlarda ishlash", "Modifikatsiyalashgan ta'lim", "Improvizatsiya", "Multimedia", "Bumerang texnologiyasi", "Skorbey texnologiyasi", "Yelpig'ich texnologiyasi", "Muammoli vaziyat", "Tanqidiy tafakkur" va hokazolar kiradi.

Ta'lim jarayoniga ta'sir qiluvchi omillar haqida tadqiqotchilarning yondashuvlarni tahlil qiladigan bo'lsak, bir qator xorijiy olimlar Georgina Hutchinson, Emily Laurie, Chris Yiular masalaga makon nuqtayi nazardan yondashib, ta'limda innovatsion jarayonga ta'sir etuvchi omillarni global, makro, mikro darajaga bo'lishadi va shunga asoslanib omillarni tahlil qilishadi[9].

Global omillarga quyidagilar kiradi: bilimlarni samarali uzatish, tajriba almashish

7 Султанова Г. Постноклассик илмий тафаккур тарзида ғоявий ворислик ва инновация муаммолари. Фалсафа фанлари бўйича фалсафа доктори автореферат Самарканд, 2018, Б.7

8 Азизходжаева Н.Н. Педагогик технологиялар ва педагогик маҳорат.-Т.: "Молия",2006.-Б.19.

9 https://institute.global/policy/technology-and-innovation-global-education-systems





va yangiliklarni takrorlashga hissa qo'shadigan innovatsion loyihalarni amalga oshirish doirasida jahon hamjamiyati bilan aloqa o'rnatish. Bunda makon nuqtayi nazardan jahon hamjamiyati subyekti inobatga olinib global omil sifatida e'tirof etilgan.

Makro va mikro darajadagi omillar innovatsion loyihalarni amalga oshirish muvaffaqiyatini belgilaydi. Davlat va mahalliy hokimiyat organlarining asosiy vazifasi – bu innovatsion sohaga investitsiyalar oqimini kuchaytirish orqali u uchun qulay sharoitlarni vujudga keltirish hisoblanadi. Makro darajada innovatsion faoliyatni rivojlantirish butun mamlakat ta'lim tizimi bilan birga hududlardagi ta'limni rivojlantirish nuqtalarini tashkil etadigan samarali mintaqaviy tizimlarni rivojlantirish orqali sodir bo'ladi.

Ularning fikricha, mintaqaviy darajada ta'limtizimidagiinnovatsiyalarnirivojlantirishga to'sqinlik qiladigan quyidagi omillar mavjud bo'ladi: ilmiy izlanishlar va texnologik rivojlanishni moliyaviy qo'llab-quvvatlashning pastligi, yosh olimlarni yetalicha qo'llab-quvvatlamaslik, kichik korxonalarning huquqiy himoyasi sustligi, shuningdek, innovatsion faoliyatni axborot bilan ta'minlashning sustligi. Ular yuqoridagi omillarni bartaraf etish va hududlarda yaratilgan innovatsion korxonalarni qo'llab-quvvatlash maqsadida innovatsion faoliyat ishtirokchilarining o'zaro bog'liqligini ta'minlaydigan innovatsion infratuzilma obyektlari yaratish samarali ekanligi qayd etib global, makro, mikro darajadagi faoliyatni uyg'unlashtirish samarali ekanligini asoslashga harakat qiladilar.

Innovatsion faoliyatni mamlakatni har tomonlama rivojlantirishning zamonaviy konseptual asosi sifatida quyidagi yo'nalishlar bo'yicha, ya'ni:

a) birinchi konseptual yo'nalish yaratuvchilari: iqtidorli shaxslar, ilmiy xodimlar, tajribali amaliyotchilar, maxsus ixtirochilar; b) ikkinchi konseptual yo'nalish — raqobatbardoshlik omili: tovarlarni, texnika va texnologiyalarni, boshqarishni takomillashtirish; v) uchinchi konseptual yo'nalish — manfaatdorlikni ifodalash: mulkdor (investor)lar, ixtirochilar, shaxs, jamiyat, mehnat jamoalari, davlat manfaatini ifoda etuvchi; g) to'rtinchi konseptual yo'nalish amaliyotga joriy qilish: amaliyotga joriy qilingan innovatsiya, amaliyotga joriy qilinishi ko'zda tutilgan; d) beshinchi konseptual yo'nalish -iqtisodiy mazmuni: ishlab chiqarishga, taqsimotga, ayirboshlashga, iste'molga; oltinchi konseptual yo'nalish - tarmoqlar: sanoatga, qishloq xo'jaligi, savdo, moliyaga; g) yettinchi konseptual yo'nalish muddatli; vaqt: qisqa, mavsumiy, uzoq j) sakkizinchi konseptual yo'nalish — ijtimoiy soha: ta'lim, ilm-fan, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport; 3) to'qqizinchi konseptual yo'nalish — mamlakatning mudofaa sohasini: yangi qurol-yaroqlarni ixtiro qilish, harbiy sanoat majmuasini yaratish va shu kabilarni rivojlantirishga qaratilgan innovatsiyalarga ajratish mumkin.

Ta'lim tizimini innovatsion rivojlantirishning yana bir asosiy xususiyatlaridan biri, uning insonni ijtimoiy asosda shakllanishi va inson taraqqiyotiga mo'ljallanganligidir. Har ikkala jihat ham jamiyatning umumiy taraqqiyotiga xizmat qiladigan jarayondir. Inson taraqqiyotining asosiy xususiyatlari uning ongi va tafakkur mukammalligi yangiliklar va zamonaviy qadriyatlarga moyilligi, jamiyatda mavjud bilimlarni o'zlashtirishga bo'lgan ehtiyoji, ijtimoiy va iqtisodiy muammolarni yechishga qodirligi kabilar bilan o'lchanadi.

Xulosa o'rnida shuni aytish mumkinki, ta'limda innovatsion faoliyat birinchidan, jamiyat va uning har bir a'zosining ta'lim olishga bo'lgan ehtiyojlarini qondiruvchi, ikkinchidan, fuqarolar o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni bir konsensus keltirish orqali jamiyatning barqaror rivojlanishini ta'minlovchi, uchinchidan, odamlar o'rtasida intellektual farqni stratifikatsiyalovchi; to'rtinchidan, insonning savodxonlik darajasini shakllantiruvchi, rivojlantiruvchi, shu asosda ta'lim sifatini oshiruvchi omil sifatida konseptuallik ahamiyatiga ega bo'lgan qadriyatli fenomen hisoblanadi.

# RIVOJLANTIRUVCHI TA'LIM SOHASINI TASHKIL ETISHDA FANLARARO MUNOSABATLAR

**Sherzodjon Xusanboy o'g'li Azamov** - mustaqil tadqiqotchi, Chirchiq davlat pedagogika universiteti

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada fanlararo aloqani bog'lashda qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning turlari, shuningdek darslarda amalga oshiriladigan turli xil metodlar va ularning dars samaradorligini oshirishdagi roli haqida so'z yuritiladi. Bundan tashqari maqolada ta'lim sohasida olib borilayotgan yangi innovatsion loyihalar va turli xil o'qitish uslublari bayon etilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье рассказывается о видах педагогических технологий, применяемых при связывании межнаучные связи, а также различных методах, реализуемых на уроках, и их роли в повышении эффективности преподавания. Кроме того, в статье изложены новые инновационные проекты и различные методы обучения в сфере образования.*

***Abstract:*** *It is talked about the types of pedagogical technologies used in connecting interdisciplinary communication as well as various methods implemented in closses and their role in increasing the effectiveness of lessons in this article. In addition, the article describes new innovative projects in the field of education and various teaching methods.*

***Kalit so'zlar:*** *texnologiya, o'qitish metodlari, innovatsion loyiha, pedagogika, psixologiya, etika–estetika, ijtimoiy tizim, zamonaviy innovatsiyalar, motivatsiya.*

***Ключевые слова:*** *технология, методы обучения, инновационный проект, педагогика, психология, этика-эстетика, социальная система, современные инновации, мотивация.*

***Keywords:*** *technology, teaching methods, innovative project, pedagogy, psychology, ethics, aesthetics, social system, modern innovations, motivation.*

Mustaqil davlatlar rivojlanishi bilan jamiyatning moddiy va ma'naviy hayotidagi o'zgarishlar, dunyoqarashlar almashinuvi va ta'lim tizimini isloh qilish davrida mustaqil ish yurita oladigan yangi tipdagi o'qituvchi kadrlarni fan sohasiga olib kirish zarurati tug'ilmoqda.

O'qituvchi kadrlar, jumladan musiqa, informatika, kimyo fanlari o'qituvchilarini tayyorlash jarayoni ta'limning texnokratik va gumanistik tendensiyalari eskirib qolgan aqidaparastlik va demokrativlashtirish, ta'limning erkinligi va variativligi, o'qituvchilar tayyorlashning yangi tizimi va uning induvidual ijodiy xarakteri, pedagogik mehnat bozorining yuzaga kelishi va ko'plab o'qituvchilarning raqobatbardosh emasligi, o'qituvchi kasbining yoshlar orasida yetarlicha e'tibor topmayotgani, o'qituvchilarning ijtimoiy himoyalanishi o'rtasidagi qator ziddiyatlar hisobiga murakkablashib borishi kuzatilmoqda.

Bugungi kunda oliy pedagogik ta'lim tizimi ma'naviy ishlab chiqarish sohasi tarzida o'qituvchi shaxsini kasbga tayyorlashning yaxlit ilmiy nazariyasi asosida yaratilgan taqdirdagina yangi bosqichga ko'tarilishi mumkin. Mazkur nazariya o'qituvchilar tayyorlashning didaktik asoslarini har tomonlama ishlab chiqishga asoslanadi.

O'zbekiston Respublikasining 2017-yil 7-fevraldagi O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha "Harakatlar strategiyasi to'g'risida"gi PF-4947-son, 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi PF-5712-son Farmonlari. 2018-yil 14-avgustdagi "Yoshlarni ma'naviy-axloqiy va jismoniy barkamol etib tarbiyalash, ularga ta'lim-tarbiya berish tizimini sifat jihatidan yangi bosqichga ko'tarish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-3907-son qarori hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa me'yoriy-huquqiy xujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda xizmat qiladi[1].

Maktab o'quvchilarining ma'naviy sifatlarini rivojlantirishda musiqa tinglash va eshitishga o'rgatish bo'yicha integratsiyalashgan sinflar katta ahamiyatga ega bo'ladi[2]. Til, musiqa va san'at uchlik bir

1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF – 4947-son «O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida»gi Farmoni. // https: lex.uz/docs/3107036.

2 Burgin M.S. Pedagogikadagi innovatsiyalar va yangilik // Sovet pedagogikasi. - 1989. 12-son 45-46 b.





butunlik ekanini aniq anglab yetganimizdan so'ng, maktabda turli mamlakatlar va xalqlarning san'ati atrofimizdagi dunyoni bilim va global idrok etish orqali o'rganiladi. Buyuk Falkon va sirli Salvador Dalining, dono Shekspir va kamtarin Rujer de Lislning durdona asarlari o'quvchilarimiz mulkiga aylandi. Fizika kafedrasida qo'llaniladigan pedagogik texnologiyalarning nazariy asoslanishi dotsentlar T.G.Studennikova, R.T.Sotnikovalarning mualliflik o'quv dasturlari hisoblanadi.

Ushbu dasturlarning har biri innovatsion xususiyatga ega, tabiatning asosiy tamoyillari asosida qurilgan, ta'limni insonparvarlashtirish va insonparvarlik bilan chambarchas bog'liq bo'lib, koinot qonunlarining birligi va uyg'unligi orqali o'quvchilarda dunyo go'zalligini tushunishga qaratilgan estetik asosni shakllantirishga imkon beradi.

Maktabning rivojlanayotgan ta'lim sohasi maktab o'quvchilarining ekologik bilimlarning muhimligini anglashini bildiradi. Ekologik ta'lim va tarbiya mazmunini belgilab, tabiat bilan hamkorlik, ekosferani optimallashtirish dasturining asosiy ijrochilari kelajak avlod vakillari bo'lishidan kelib chiqdik.

Ekologik ta'limning maqsadi - avlodlarimiz taraqqiyoti va hayotining poydevoriga putur yetkazmasdan, uni doimiy ravishda takomillashtirib, kelajak dunyoda xavfsiz va baxtli yashashga qodir insonni, olam fuqarosini tarbiyalashdir.

"Ekologiya" tushunchasining zamonaviy talqini muhokama qilinadigan masalalar doirasini oshiradi. Inson hayotining turli jabhalarining biosferaning boshqa tarkibiy qismlari hayoti bilan aloqasi, biologik xilma-xillikni saqlashda insonning roli, zamonaviy global ekologik vaziyatni V.I.Vernadskiyning noosfera konsepsiyasiga yaqinlashishi, uning rivojlanishi, ta'lim jarayonini integratsiyalashning muhim tarkibiy bo'g'inlaridan biri sifatida maktab ekologiyasidan asosiy foydalanish uchun imkoniyatlar yaratadi.

Tarkibni yangilashda hududiy bilimlarni ommalashtirishga qaratilgan metodik ishlar muhim o'rin tutadi. Maktab o'qituvchilari tomonidan Irkutsk davlat universiteti va Rossiya Fanlar akademiyasining Sibir bo'limi xodimlari bilan birgalikda tayyorlangan qo'lyozmalar ko'rinishidagi yetarli miqdorda materiallar mavjud. "Tabiatshunoslik", "Umumiy va mintaqaviy ekologiya asoslari" kompleks hududiy kursi, "Regional inson ekologiyasi", "Paleekologiya va antropologiya asoslari" kurslari ishlab chiqilmoqda. Modulli ta'lim barcha yoshdagi maktab o'quvchilarining manfaatlarini shuningdek, talabalar va aspirantlar - IDU ekologlari (ularning 1/3 qismi, maktab bitiruvchilaridir) birlashtirgan kompleks ekologik ekspeditsiyasi asosida amalga oshiriladi. O'rta va oliy ta'lim integratsiyasining bir necha yillar davomida topilgan shakli ta'lim va ilmiy tadqiqotlar jarayonlarini uyg'unlashtirish nuqtai nazaridan o'zining samaradorligini tasdiqladi[3].

Fizika va astronomiya fanlarini o'qitishni oliy va o'rta maktab o'qituvchilari olib boradilar, ularning ko'pchiligi ilmiy daraja va unvonga (62,5%), mualliflik va moslashtirilgan tajriba dasturlariga ega.

Jismoniy tarbiya mualliflik konsepsiyasi va maktabning umumiy "Tiklangan ma'naviyat orqali – fanlarga, shaxsning ijodiy salohiyatini rivojlantirish..." maqsadiga muvofiq tuziladi. Bundan kelib chiqadiki, maktabda jismoniy tarbiya ko'p bosqichli, shaxsga yo'naltirilgan xususiyatga ega bo'lib, o'quvchilar bilimini bilim uchun emas, balki shaxsiy rivojlanish vositasi sifatida shakllantirishga qaratilgan.

Ushbu global muammoni hal qilishning asosiy texnologik yo'nalishlariga quyidagilar kiradi:

1.Standart.

2.Integratsiyalashgan variant.

3.Ta'lim jarayonini faollashtirish (tezlashtirilgan va optimallashtirilgan variantlar).

4.Psixodiagnostika va psixometriya elementlari bilan zamonaviy pedagogik testlar asosida fizika va astronomiya fanlarini o'qitish sifatini baholash va nazorat qilishning tashkiliy shakllari va metodlarini takomillashtirish.

Ushbu yondashuvning samaradorligi ko'plab oraliq va yakuniy imtihonlar, statistik ta'lim natijalari, o'quvchilarning turli darajadagi jismoniy musobaqalar va ilmiy-metodik konferensiyalarda muvaffaqiyatli ishtirok etishi, oliy ta'lim muassasalarining jismoniy tarbiya mutaxassisliklari bo'yicha eng iqtidorlilarni muddatidan oldin qabul qilish, shuningdek maktab attestatsiya ma'lumotlari orqali tasdiqlanadi[4].

Maktabda kimyo fanini o'qitish yuqori pedagogik mahoratga ega o'qituvchilar tomonidan olib boriladi. Maktab tajribasi doirasida olib boriladigan pedagogik faoliyatning asosiy vazifasi bilimlarning ijtimoiy

3 G'afforov Y.X. Maktab islohati va o'qitish metodlarini takomillashtirish. Science and education. Scientific Journal. 2020, 482 b.

4 Qorayev S.B. Pedagogika. –T.: "Zebo-Print". 2023 y 54-57 b.

va hayotiy rolini o'zgartirish, o'quvchilarning ta'lim jarayonida faol pozitsiyani egallashi, dunyoni bilishi, u bilan faol muloqotga kirishishi uchun imkoniyatlar yaratishdan iborat.

Kimyo bo'yicha maktab kursini tabiatning asosiy qonuniyatlarini tushunish nuqtai nazaridan o'rganish, shuningdek, o'quv materialini sinchkovlik bilan tanlash, uni dunyoqarash pozitsiyalaridan umumlashtirish orqali amalga oshirilgan bilimlarni fundamentallashtirish, o'quv kursini ixtiyoriy ma'lumotlardan tushirishga xizmat qiladi. Bu, o'z navbatida, iqtidorli bolalar va aqliy rivojlangan bolalar uchun kimyo bo'yicha tezlashtirilgan o'qitish mazmunini modellashtirish imkonini beradi.

Kimyoni o'rganish 3-sinfda "O'zingni yarat" integral kursining bo'limi sifatida boshlanadi. Dunyoning kimyoviy manzarasiga bunday erta murojaat amaliyoti shuni ko'rsatadiki, bu yosh davri katta bilim bilan ajralib turadi, shuning uchun fanni o'rganishga yuqori motivatsiya, qo'shimcha ravishda, bizning davrimiz bolalar uchun ahamiyatli bo'lgan axborot xabardorligi bilan asoslanadi, ortiqcha yuklanishsiz tabiiy hodisalarga yondashuvni o'zlashtirishga imkon beradi.

Kimyo bilan tanishishni davom ettirgan holda, 5-sinf o'quvchilari kimyoning asosiy tushunchalariga qarashni rivojlantiruvchi propedevtika kursini o'zlashtiradilar. Ushbu kurs boshlang'ich sinflarda "Tabiatshunoslik" fanining ahamiyatini oshiradi, dunyoqarashini kengaytiradi, tabiat haqidagi bilimlarni olishga qiziqishni oshiradi. Kurs davomida mintaqaviy materiallarga tayanishni kuzatish mumkin.

O'quvchilarning bunday propedevtik tayyorgarligi bizga iqtidorli va aqliy rivojlangan bolalar uchun tezlashtirilgan ta'lim mazmunini modellashtirish imkonini beradi. Dastur mavzuni chuqur o'rganishni o'z ichiga oladi, u har bir bolaning maqsad sari individual rivojlanishini ko'rish va 9-sinfda kimyo ta'limini yakunlash imkonini beradi.

Informatika fani o'qituvchilari jamoasi 1-sinfdan 11-sinfgacha bo'lgan uzluksiz informatika kursini (ta'lim mazmuni, o'quv jarayonini tashkil etish, o'qitish metodikasi, bilim, ko'nikma va malakalarni baholash mezonlarini) ishlab chiqish bo'yicha keng qamrovli ilmiy-pedagogik tadqiqotlar olib bormoqda.

Informatikani o'qitish siklik tarzda tuzilgan. 1-5-sinf o'quvchilari uchun "Kompyuter bilan do'stlashing" propedevtik kursi birinchi navbatda mustaqil fikrlashni rivojlantirish, intellektual faoliyat usullari va metodlarini o'zlashtirish, shuningdek, informatika kursini muvaffaqiyatli o'qish uchun zarur bo'lgan aniq ko'nikma, malaka, tushunchalarni shakllantirish va kompyuterni o'quv faoliyatida qo'llashga qaratilgan[5].

"Masalalarni yechishda axborot texnologiyalari" asosiy kursi 6-9-sinf o'quvchilarini zamonaviy kompyuter muhitida masalalar yechish metodlari va usullari bilan tanishtiradi. O'quv vazifalari sinfi kengayib bormoqda, kompyuterni modellashtirish o'quvchilarning tadqiqot ishlarini tashkil etish imkonini beradi. Maktab fanlarini o'rganishga bo'lgan motivatsiya kuchayadi, zamonaviy dasturiy ta'minot bilan ishlash bo'yicha mustahkam ko'nikmalar shakllanadi. Turli o'quv kurslari o'quv rejalarining xilma-xilligi o'quvchilarning o'zini-o'zi tasdiqlash va o'zini-o'zi anglash uchun samarali vositaga aylanadi.

10-11-sinflarda informatika fanini chuqurroq o'rganish uchun o'quvchilar o'zlari uchun qiziq bo'lgan sohalarni tanlaydilar. Darslar Irkutsk davlat universitetining matematika fakulteti va Irkutsk iqtisodiyot akademiyasining zamonaviy kompyuter texnologiyalari (IBM kompyuterlari) bilan jihozlangan displey sinflarida olib boriladi.

Frazeologik birliklarni alohida-alohida tarjima qilib bo'lmaydi; tarjimon har bir idiomaning haqiqiy ma'nosini yoki tasvirini qo'lga kiritishi va etkazishi kerak. Shu nuqtai nazardan qaraganda, tarjimon bir emas, balki ko'plab muammolarga duch kelishi mumkin, ularni quyidagicha umumlashtirish mumkin:

Ba'zan tarjimon frazeologik birlik bilan muomala qilayotganini aniq anglamaydi. Buning sababi, barcha idiomalarni osongina tanib bo'lmaydi. Ba'zi idiomalarni tanib olish boshqalarga qaraganda osonroq. Bunday muammoni bartaraf etish uchun tarjimon birinchi navbatda shubhali iborani to'g'ridan-to'g'ri ma'nosiga o'zgartirib, ma'no mos kelishini tekshiradi, agar bo'lmasa, ya'ni to'g'ridan-to'g'ri ma'no ma'noga ega bo'lmasa, uni idioma sifatida tan oladi. va unga shunday munosabatda bo'ling: "Umuman olganda, iborani tushunish qanchalik qiyin bo'lsa va ma'lum bir kontekstda u qanchalik kam ma'noga ega bo'lsa, tarjimon uni idioma sifatida tan olish ehtimoli shunchalik yuqori bo'ladi"[4].

Bu borada tarjimon uchun navbatdagi muammoli moment iboraning ikkita ma'noga ega bo'lishi, ulardan biri to'g'ridan-to'g'ri, ikkinchisi idiomatik bo'lishidir. Bu idiomatik ibora jismoniy tasvirga asoslangan holda sodir bo'ladi. Bu odatda tana a'zolari ishtirok etgan idiomalarda uchraydi. Quyidagi misollarni ko'rib chiqing: "Turn a blind eye" ikki ma'noga ega. Birinchisi to'g'ridan-to'g'ri (biror narsadan ko'zni burish jismoniy harakatiga ishora qiladi), ikkinchisi idiomatik (kimdir biror narsani qasddan e'tiborsiz qoldirayotgani yoki e'tiborsiz qoldirayotganini aytish usuli). Qizig'i shundaki, bu ikki ma'no ko'p tillarda bir xil. Lekin yana takror ta'kidlash lozimki, tarjimon madaniy farqlarni hisobga olgan holda nihoyatda ehtiyotkor bo'lishi kerak, chunki ba'zi madaniyatlarda qo'pol eshitilishi mumkin va har bir shaxsga nisbatan qo'llanilmaydi. Ko'zini yummoq to'g'ridan-to'g'ri ma'noda neytral, boshqasiga nisbatan ko'chma ma'nodagi ko'rib ko'rmaslikka olmoq, biroz qupol ma'noda ishlatiladi.

Keep one's head above water. Bu yerda yana ikkita ma'no ishtirok etadi: suvga cho'kmaslik uchun tom ma'nodagi va idiomatik (qarzdan, sharmandalikdan uzoqroq turing). Bu ibora o'zbek tilida ko'chma ma'noning biroz boshqacha o'zgarishiga ega. Boshingni baloga suqma so'zlashuv iborasi bo'lib, boshqalarga nisbatan ishlatilmasligi kerak.

A pain in the neck - bu jismoniy og'riqni yoki idiomatik ma'noni anglatishi mumkin: (bezovta qiluvchi yoki bezovta qiluvchi odam), buyindagi chipqon yoki oyog`imga kirgan tikandek o'zbek tiliga ham jismoniy ham idioma sifatida tarjima qilinadi (yoqimsiz og'riq beruvchi, ortiqcha, kerksiz, istalmagan kishilarga yoki xodisaga nisbatan ishlatiladi), odatda, idiomalarda tananing bir qismi boshqasini almashtirishi mumkin.

Tarjimon iboraning bunday iboralar

1 *Larson, L. L. Meaning-Based Translation: A Guide to Cross-Language Equivalence, 1984, 129 b.*
2 *"ibidem" 98 b.*
3 *"ibidem" 98 b.*
4 *"ibidem" 99 b.*

qo‘llanilgan matn turiga qarab to‘g‘ridan-to‘g‘ri yoki ko‘chma ma’noda qo‘llanishini aniqlaydi, ikki ma’nodan qaysi biri nazarda tutilganligini aniqlaydi, so‘ngra tarjimon bu iboralar bilan ishlashda qanday strategiya qo‘llashni hal qiladi. Tarjimon tarjima qilingan matnda idiomalarning mavjudligini tan olgandan so‘ng, ularni maqsadli tilga tarjima qilishda muayyan qiyinchiliklarga duch keladi. Bunday qiyinchiliklar, birinchi navbatda, idiomalarni tarjima qilish uchun eng mos strategiyani tanlash bilan bog‘liq. Idiomalarni muhokama qilishda Baker idiomalarni tarjima qilishning to‘rtta strategiyasini eslatib o‘tadi[5]. Ikki xil tilni o‘z ichiga olgan ushbu tadqiqotda tarjimon qisqa vaqt ichida muhokama qilinadigan uchta strategiyadan birini tanlash orqali idiomalarni uzatishda eng yaxshi samaraga erishishi mumkinligi taklif qilindi. Tarjimaning o‘zi murakkab jarayon bo‘lib, muammoli va o‘rganish qiyin bo‘lgan idiomalarni tarjima qilish haqida gapirmasa ham bo‘ladi. O‘rganish muammosi va qiyinligi nafaqat idiomalarning so‘zma-so‘z ma’noga ega bo‘lishi bilan bog‘liq emas, garchi bu o‘z-o‘zidan katta muammo. Ba’zi boshqa omillar idiomalarni o‘ziga xos qiladi va shuning uchun bu oson ish emas. Ba’zi idiomalar o‘zlarining biroz noodatiy so‘z turkumlari yoki qat’iy va asossiz so‘z tartibi bilan tavsiflanadi. Tarjimonning idiomalar bilan ishlashda bir qator qiyinchiliklar mavjud: bir tomondan idiomani anglab yetish va to‘g‘ri talqin qilish qobiliyati, va boshqa tomondan, tarjima tilida idiomaning eng mos talqinini topishdagi muvaffaqiyati. Idiomalar madaniyatga bog‘liq bo‘lgani uchun bu masala tarjimondan alohida e’tiborni talab qiladi. Bunday mezonni saqlab qolish uchun tarjimon nafaqat so‘zma-so‘zlikdan qochish kerak, balki shu bilan birga, iloji boricha, o‘z o‘quvchilariga nafaqat belgilangan ma’no, balki madaniy o‘ziga xoslikni ham ko‘rsatadigan idiomatik tarjimalar bilan ta’minlashga harakat qilishi lozim.

Madaniy farqlar badiiy tarjimonlar uchun eng qiyin va muhim masaladir, va bu o‘z navbatida badiiy tarjima uslubni bilishni talab qiladi, bu esa tarjimonlarga “alohida jumlalar qanday qilib umumiy tuzilmaning bir qismini tashkil qilishini bilishga” yordam beradi.

Badiiy matn bir-biriga bog‘langan tizimlar yig‘indisidir; qismlarning bir-biriga va butunga munosabati badiiy matn uchun muhim ahamiyatga ega. Badiiy matn o‘ziga xos individual tuzilishga ega bo‘lib, u “boshqalarni emas, balki ma’lum lingvistik xususiyatlar yoki darajalarni ta’kidlaydi”. Dominant tuzilma, ya’ni dominant lingvistik xususiyatlar yoki darajalar matnning ma’nosidir va shuning uchun uni etarli darajada tushunish kerak. Bassnettning qayd etishicha, “Ko‘pgina tarjimonlarning badiiy matn-undan tashqaridagi boshqa to‘plamlar bilan dialektik aloqada bo‘lgan murakkab tizimlar majmuasidan iborat ekanligini tushuna olmasligi ko‘pincha ularni matnning ba’zi jihatlariga boshqalar hisobiga e’tibor qaratishga olib kelgan”. U batafsilroq misollar keltiradi:

Brext pyesalarining dialektik-materialistik asosini tan olmaydigan yoki Shekspir sonetlaridagi kinoyani payqamaydigan yoki transubstantsiya ta’limotidan Vittorinining “Conversazioni in Sicilia” asarida fashizmga qarshi bayonotini yaratish uchun niqob sifatida foydalanilganiga e’tibor bermagan o‘quvchi/tarjimon. asl nusxani o‘z mulkingiz bilan bo‘gani kabi ishlatib, kuch muvozanatini buzadi. Va bu elementlarning barchasini o‘tkazib yuborish mumkin, agar o‘qish paytida asarning umumiy tuzilishi to‘liq hisobga olinmasa[6].

Har qanday tilning frazeologik manbalari o‘ziga xos uslub va xususiyatlar bilan ajralib turadi. Ko‘pgina frazeologizmlarning boshqa tillarda ekvivalenti yo‘q.

Ma’noni yetkazib berish ba’zan tarjimon uchun imkonsiz ish bo‘lib qoladi, chunki u o‘xshash ma’noga ega bo‘lgan idiomalarni izlash va tarjima qilish muammosiga duch keladi. Frazeologizmlarni tahlil qilish ushbu birliklarning leksik tarkibini hisobga olishni talab qiladi.

So‘z birikmalarini lug‘aviy tarkibiga ko‘ra ikki guruhga bo‘lish mumkin. Birinchi guruhga leksik birlikli frazeologik birliklar kiradi, ularning ma’nosi ular tarkibiga kirgan so‘zlar orqali ma’lum darajada tushuniladi. Masalan, ko‘z tashlamoq, qaramoq (to look). Bu turdagi iboralar grammatik qoidalar asosida bir-biri bilan bog‘lanadi.

Frazeologik birliklarning yana bir guruhini ma’nosi frazeologik birlikning umumiy ma’nosiga bevosita ishora qilmaydigan so‘zlardan iborat. Butun ma’no eskicha leksik-semantik omillar, masalan, etim uvishdi yoki tuklarim jimirladi (qaltirash-shiver), kabilar orqali izohlanadi.

Har bir madaniy kontekstda so‘zlarni ular tuzilgan alohida so‘zlarning ma’nolari yig‘indisi bilan cheklanmaydigan biror narsani anglatish uchun to‘playdigan tipik ifoda usullari

5 *Baker, In Other Words: A Coursebook on Translation, Routledge, 1992 -14 b.*

6 *Bassnett S. Translation Studies, 2002-85 b.*





mavjud; qo‘shimcha ma’no, odatda metafora, ushbu alohida to‘plamning ajralmas qismiga aylanadi. “To find oneself between hammer and anvil” (siqilib qolmoq) tom ma’noda o‘sha jismoniy holatda bo‘lishni anglatmaydi; aksincha, bu stressli yoki juda qiyin vaziyatda bo‘lishni anglatadi. Kundalik hayotimizda biz yaqin atrofimizda kamdan-kam hollarda bolg‘a yoki temir uskuna bilan to‘qnash kelishimiz mumkin.

Frazeologizmlar - yoki shunday bo‘lishga intiladigan iboralar – ko‘p shakllanadi, lekin har doim ham muvaffaqiyat qozonmaydi. Ba’zan ular deyarli bir vaqtning o‘zida hosil bo‘ladi va yo‘qoladi.Tarjimon uchun muammo tug‘diradigan birdan-bir holatlar barqaror, takrorlanuvchi leksik idiomalar bo‘lib, ular o‘zlarining metaforik ma’nosiga ko‘ra, faqat o‘qish paytida o‘quvchi mantig‘ini idrok etishiga bog‘liq emas, balki, birinchi navbatda, ko‘rilayotgan til tarixida bunday metafora egallagan ahamiyatiga bog‘liq.

Xalq iboralarining tarjimasi ham tarjimonga ma’lum qiyinchiliklar tug‘diradi. Milliy mustaqil bo‘lganligi sababli, ular an’anaviy tarzda o‘rnatilgan ekvivalentlarga yoki tarjima tilida o‘zlashtirilgan variantlarga ega bo‘lolmaydilar. Natijada, ularning ko‘pchiligi tarjima tilida tarjimonning bir nechta versiyasiga ega bo‘lishi mumkin. Bu oddiy ma’no-ma’no varianti (chiziqlararo tipdagi tarjima) yoki lug‘aviy ma’no bilan bir qatorda, manba til frazeologiyasining aforistik tabiati, ifodaliligi, jonliligi va idiomaga ega bo‘lgan badiiy adabiy versiya bo‘lishi mumkin.

Akademik V.Vinogradov tomonidan birlik sifatida ajratib ko‘rsatilgan va asosan shaffof ma’noga ega bo‘lgan ayrim frazeologik iboralar til manbasining turli milliy xususiyatlarini aks ettirishi mumkin. Ikkinchisi ham lingvistik, ham nolingvistik xususiyatga ega bo‘lishi mumkin, milliy tasvirlarni, ularni an’analar, urf-odatlar yoki tarixiy voqealarga, asl til millatining geografik joylashuviga aniq bog‘lagan holda ifodalashning o‘ziga xos vositalarini o‘z ichiga oladi[7]. Bunday frazeologik iboralar ko‘pincha sodda yoki qo‘shma gap tuzilishiga ega bo‘ladi.

Frazeologizmlarni tematik belgilariga ko‘ra ham guruhlash mumkin.

Frazeologik va semantik sohalarni yaratish muayyan milliy va madaniy xususiyatlarni tavsiflash usuli bo‘lib xizmat qilishi mumkin. Ya’ni, bunday tavsif bizga frazeologik birliklar dunyoning o‘ziga xos, milliy idrokini qanday aks ettirishi haqida bir oz tasavvurga ega bo‘lishi mumkin. Ma’lum bir frazeologik birlikning tilda paydo bo‘lishi va unda qo‘llanishda qolishi bu birlikda hammaga tushunarli, tipik metafora (yoki belgi) mavjudligidan dalolat beradi.

Ingliz tili dinamik va yangi narsalarga ochiq. Reproduktivlik ingliz frazeologik birliklarining eng muhim xususiyatlaridan biridir. Frazeologik ijod til obrazliligining konseptual ildizlari, ma’lum bir tilning konseptual modellarni metaforalash qobiliyati bilan bog‘liq. Ba’zi tillar metaforik neologizmlarni osongina moslashtiradi, boshqalari ularni tildan chiqarib tashlash uchun rad etadi. Ingliz tili frazeologik birliklarni kommunikativ jarayonga moslashtirish uchun ochiqdir.

Frazeologik birliklar semantik jihatdan har bir komponenti individual ma’noga ega bo‘lishiga qaramay, frazeologik birliklar bitta ma’noga ega bir birlik vazifasini bajaradi, masalan: bu mahalda (at the present).

Frazeologizmlarni semantik nuqtai nazardan to‘rt guruhga bo‘lish mumkin:

- Frazeologik
- Birikmalar
- Birikmalar
- Iboralar.

Frazeologik birikmalar va frazeologiyalar semantik jihatdan bo‘linmaydigan frazeologiyadir. Ularning ma’nosi bir so‘z yoki tavsiflovchi so‘zlar guruhiga qisqartirilishi mumkin.

Frazeologik iboralar va iboralar semantik jihatdan ajratiladigan birliklardir.

Frazeologik birikma - bu ajralmas frazeologik birliklar bo‘lib, ularning ma’nosi unga kiritilgan har bir so‘zning ma’nosidan farq qiladi. Bunday frazeologik birliklarning leksik ma’nosi turg‘un va to‘liq shartli bo‘ladi, masalan, ko‘zlarimga ishonmayman (do not trust). Har bir so‘z alohida butun frazeologik birliklarning m’a’nosiga mos kelmaydi. Ba’zan orqadan gapirish (g‘iybat) kabi frazeologizmlar ham idiomatik, ham to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’noga ega bo‘lishi mumkin. Masalan, ular mehmonlarning orqasidan gapirdilar kabi gapda bir xil so‘zlar to‘g‘ridan-to‘g‘ri nominativ ma’noga ega.

Semantik artikulyatsiyadagi frazeologik birliklarning ikkinchi turi frazeologik birliklardir. Bu guruhga frazeologik birikmaga yaqin semantik barqaror va bo‘linmas birliklar kiradi, lekin ularning semantik ildizi frazeolog tomonidan tuzilgan alohida so‘zlar asosida tushuntiriladi. Masalan, ilgak tashlash, tishga kirib qolmoq frazeologizmlari o‘zaro hosila ma’noli alohida so‘zlardan iborat. Frazeologik birikmalardan farqli o‘laroq, frazeologik

7 *Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – М., 1977. 140 b.*

birliklar tilning bunday daxlsiz birliklari emas, chunki frazeologik birlikni tashkil etuvchi so‘zlarni ichiga boshqa so‘zlarni qo‘shish orqali bir-biridan ajratish mumkin. Bu frazeologik guruhning ana shu xususiyati uni frazeologik ibora va iboralardan ajratib turadi. Frazeologik birikma va frazeologik birliklardan farqli o‘laroq, frazeologik ifodalar va iboralar mavjud bo‘lib, ularning ma’nosi ideomalarni tashkil etuvchi alohida so‘zlarning ma’nosiga to‘liq mos keladi.

Frazeologik birliklarning keyingi, uchinchi turi frazeologik so‘z birikmalardir. Ular mustaqil va tegishli foydalanishga ega. Masalan, haqiqiy (g‘irt) ilon. (denotativ ma’noda bo‘g‘ma ilon va konnotativ ma’noda yovuz odam). Ilon so‘zi mustaqil qo‘llanishi mumkin bo‘lsa-da, haqiqiy(g‘irt) so‘zi o‘z-o‘zidan foydalanish huquqisiz bu so‘zga biriktirilgan.

Oxirgi tur - frazeologik ifodalar. Ular mustaqil ma’noli so‘zlardan iborat, masalan sevgi yosh tanlamaydi. Frazeologik iboralarning qismlari sinonimlar bilan almashtirilishi mumkin emas.

Shanskiy frazeologik iboralarni ikki guruhga ajratdi: kommunikativ iboralar va nominativ iboralar[8]. Kommunikativ iboralar jumla vazifasini bajaradi, masalan, ishlamagan tishlamaydi (inglizcha ekvivalenti — without an effort will not get a fish out of a pond). Nominativ frazeologik iboralar gapning bir qismiga ekvivalent bo‘lib, nominativ vazifani bajaradi, masalan, mehnat yutuqlari (work success), ayni damda (at the present moment).

Rus tilshunosi Vinogradov frazeologizmlarni uch guruhga ajratdi: leksik, predikativ va qiyosiy frazeologizmlar[9].

Yuqorida aytib o‘tganimizdek, ingliz tili idiomalarga juda boy. Ingliz frazeologik birliklarini ko‘pincha bir xil semantik ma’no va hissiyotga ega ekvivalentlar bilan almashtirish qiyin.

Vinogradovning fikricha, agar frazeologik birlikning shakli muayyan kontekstda muhim bo‘lmasa, tarjimon frazeologik birlikning ichki shaklini saqlab qolishi shart emas. Asl idiomaning hissiy va funktsional ma’lumotlarini etkazish muhimdir. Agar imkoni bo‘lsa va ekvivalentlari bo‘lsa, tarjimon frazeologik birlikni frazeologik birliklar orqali tarjima qilishga harakat qilishi kerak. Vinogradov quyidagi tarjima strategiyalarini ajratadi: bir so‘z bilan tarjima va tavsifga ko‘ra tarjima. Bitta so‘z bilan tarjima qilish, agar maqsadli tilda ekvivalentlik bo‘lmasa yoki mavjud bo‘lsa, lekin uning konteksti, hissiyligi, uslubi va ekspressivligiga mos kelmasa, amalga oshiriladi. Ta’rif bo‘yicha tarjima - bu frazeologik birlik ma’nosini erkin so‘zlar majmuasi yordamida ma’noga tushiradigan parafraza. Vinogradov tomonidan taklif qilingan so‘nggi tarjima strategiyasi uglerod nusxasi tarjimasidir. U juda kamdan-kam qo‘llaniladi, chunki idiomaning so‘zma-so‘z tarjimasi tarjima tilida juda begona eshitiladi. Nusxa qog‘oz tarjimasi, so‘z birikmasini asl idiomada etkazish muhim bo‘lganda foydali bo‘lishi mumkin.

Reker idiomalarning ma’nosini manba tilidan tarjima tilga etkazish uchun to‘rtta asosiy tarjima imkoniyatlarini aniqlaydi:

1) asl frazeologik birlikning ma’nosi, ifodaliligi va shaklini to‘liq saqlab qolish;

2) asl frazeologik birlikning ma’nosi, ifodaliligi va shaklini qisman saqlab qolish;

3) asl frazeologik birlikning ekspressivligining o‘zgarishi;

4) asl frazeologik birlikning ekspressivligini butunlay yo‘q qilish

Asl idiomaning ma’nosi, ifodaliligi va shaklini to‘liq saqlab qolgan holda, olim xalqaro muvofiqlik va universallikka ega bo‘lgan va bir xil ma’noli, ammo tarjima tilida boshqa shakldagi idiomalardan foydalanish orqali ko‘chirilishi mumkin bo‘lgan idiomalarni hisobga oladi. misol: to play with fire-olov bilan o‘ynashish. Misol manba ifodasining ma’nosini o‘zgartirmasdan saqlaydigan tarjimani ko‘rsatadi. Tarjimaning ikkinchi usuli frazeologik birliklarning ekspressivligini saqlab qolish uchun mo‘ljallangan, lekin leksik yoki grammatik xususiyatlarga ba’zi o‘zgarishlar kiritadi. Frazeologik birliklarning emotsional komponentlari boshqalar bilan almashtirilishi mumkin. Masalan: in broad daylight- kuppa-kunduzi (kuppa-kunduzi ko‘p hollarda og‘zaki nutqda foydalaniladi va biror ishni qilish ta’qiqi ma’nosida ham ishlatilishi mumkin) yoki kunning o‘rtasida deb olinishi mumkin, in the dead of night – yarim kechasi (tunda).

Uchinchi tarjima strategiyasi asl idiomaning ekspressivligini o‘zgartirishdan iborat. Masalan: to take somebody for a ride – chuv tushirmoq (aldamoq).

Asl idiomaning ekspressivligini butunlay yo‘q qilish oxirgi tarjima strategiyasidir. Asl nusxadagi ekspressiv funksiyaning emotsionalligi tarjimada yo‘qoladi, masalan, a skeleton in the cupboard- oila siri (vaqti kelib yomon vaziyatga solib quyguvchi sir).

8 [Shansky] Шанский Н. М. Фразеология современного русского языка. Москва: Высшая школа. 1969 49 b.

9 Виноградов В.В. Об основных типах фразеологических единиц в русском языке. – М., 1977.-88 b.





“To put the cat among the pigeons” - bu qiyinchilik tug‘diradigan biror narsa qila oladigan odamga ishora qilish uchun ishlatilgan qadimgi ingliz idiomasi. O‘zbek tilida bunga o‘xshash idioma yuq lekin, o‘zini uqqa otmoq iborasidan ma’lum bir kontekstga mos keladigan bo‘lsa ishlatsa bo‘ladi. Lekin bu har doim ham mumkin emas, shuning uchun asliyatning ifodaliligi yo‘q bo‘lsa-da, kurashmoq mos kelishi mumkin. Ingliz tilidagi “to poke one's nose into things” burnunu har joyga suqmoq iborasi semantik va emotsional jihatdan asliyat bilan bir xil.

You won’t get me out of here until you take me out feet first.- Bu yerdan faqat mening o‘ligim chiqadi. Ushbu iboraning ma’nosi ikkala tilda ham aniq va turli tillarda ham muqobillari mavjud.

I always like to have something up my sleeve in the early stages. -Men har doim o‘z ixtiyotimni qilaman. Bu ibora ingliz tilida frazeologikdir, lekin idiomatik muqobil varianti yo‘qligi sababli tavsiflovchi ekvivalent bilan tarjima qilingan.

But who on earth? Lekin kim jin ursin? bu ibora ikkala tilda ham idiomatik, lekin ikki tilda mutlaqo boshqacha ekspressivlik va semantikaga ega.

That throws rather a light on things. Bu, masalaga aniqlik keltiradi. Ushbu ibora ingliz tilida ham frazeologikdir, lekin tavsiflash orqali tarjima qilingan.

“poke her nose” idiomasining o‘zbek tilida “burnini suqmoq” kabi juda yaqin muqobili bor. O‘zbek tilidagi ma’no ham qiziquvchanlik va beparvolik bo‘lgani uchun ma’no va hissiyot saqlanib qolgan”.

Yuqorida muhokama qilinganidek, ba’zi idiomalar asl idiomaning ma’nosi va hissiyotini qisman saqlab, tarjima qilinadi.

“Have something up my sleeve” misoli, ba’zi ma’lumotlardan keyin foydalanish uchun sir tutilishi ma’nosini anglatadi – ehtiyot choraim bor deb tarjima qilinishi mumkin, bu inglizchadan bir oz boshqacharoq ma’noga egadek tuyuladi, ammo tarjimada asl ma’nosini ochib beradi.

“Who on erath” misoli norasmiy idioma bo‘lib, u odamning hayratini yoki g‘azabini ko‘rsatish uchun ishlatiladi. Bu hayrat va g‘azabni aks ettiradi. O‘zbek tilidagi Jin ursin bir xil ekspressivlikka ega bo‘ib, tarjima tiliga kayfiyat va ma’noni yetkazib beradi.

O‘zbek tilidagi Jin ursin iborasi, ma’nosi va ifodaliligi jihatidan aynan ekvivalent hisoblanadi, lekin shakl jihatidan farq qiladi.

Tajriba shuni ko‘rsatadiki, eng ommabop strategiya tavsif bo‘yicha tarjimadir, chunki o‘zbek tilida inglizcha idiomaga to‘liq mos keladigan ekvivalentni topish juda qiyin; chunki bu tillar madaniy va grammatik jihatdan bir-biridan farq qiladi; bundan tashqari, ular turli lingvistik guruhlarga kiradi.

Frazeologik birliklarning talqini turlicha bo‘lsa-da, ko‘pgina tadqiqotchilar bir fikrga kelishgan ayrim xususiyatlar mavjud. Bu turg‘unlik va bu sifat tadqiqotlarda turli nomlar bilan beriladi. Frazeologik iboralarning ajralmas o‘ziga xos xususiyati ularning metaforik xususiyatidir. Frazeologiya so‘zlarning ma’nosi so‘zlarning to‘g‘ridan-to‘g‘ri ma’nolarining oddiy yig‘indisidan farq qiladigan shunday iboralarni o‘rganadi. Ushbu iboralarning qismlaridan ma’no kelib chiqmagani uchun ularni boshqa tillarga tarjima qilish juda qiyin. Agar targima tilida asl leksikaga o‘xshash bo‘lsa, unda bunday tarjima uslubi idiomatik yoki frazeologik iboralarni to‘g‘ri tarjima qilishda muvaffaqiyatli usullardan biri hisoblanadi. Munozara masalasi nafaqat semantika, balki ekspressivlikdir.

Xulosa qilib aytadigan bo‘lsak, badiiy asarlar tarjimasida komponent o‘zgaruvchanligi turli omillar, jumladan, madaniy farqlar, idiomatik iboralar, madaniy murojaatlar, stilistik farqlar, tarjimonning o‘z bilimi va tajribasi bilan bog‘liq bo‘lishi mumkin. Tarjimonlar badiiy asarlarni tarjima qilishda ana shu omillarni sinchiklab ko‘rib chiqishlari, tarjima asl asarning mazmuni, uslubi va ohangini to‘g‘ri yetkazishini ta’minlashi kerak.

Agar manba tilda ham, tarjima tilida ham yaqin komponentli tasvirlar va strukturaviy shakllar mavjud bo‘lsa, o‘xshashlik kuzatilishi mumkin. Bunga ba’zi misollar mavjud:

Not to see a step beyond one’s nose – tumshug‘idan nari ko‘rmaslik;

Measure twice and cut once – Yetti o‘lchab, bir kes;

Ko‘p sonli frazeologik birliklar umumiy kelib chiqishi tufayli ikki tilda so‘z tartibiga o‘xshash: to cherish/warm a viper in one’s bosom – quynida ilon saqlamoq.

Frazeologik iboralar shakllanish usuliga ko‘ra, ma’nosi, tuzilishi va morfologiyasiga ko‘ra tasniflanadi.

# BOSHLANG'ICH TA'LIM O'QITUVCHILARI UCHUN STEAM TA'LIM TEXNOLOGIYALARIDAN FOYDALANISH

***Mansur Anorboyevich Tayirov*** *- stajyor-tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada Xalqaro ilg'or tajribalarga tayanib, boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarga bilim berishda STEAM ta'lim texnologiyalari asosida o'qitishni tashkil etish zarurligi, yangicha o'qitish metodikasi, ko'rgazmalilik, ko'rsatmalilik va uzviyligi mujassamlashgan noan'anaviylikni o'rganish va amaliyotga tadbiq etish jihatlari to'g'risidagi fikrlar bayon etilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье, опираясь на передовой мировой опыт, учителям начальных классов необходимо организовать обучение на основе образовательных технологий STEAM, новой методики обучения, наглядности, познавательности и излагаются идеи об аспектах изучения и применения неконвенциональности, воплощенные в единстве.*

***Abstract:*** *In this article, relying on international best practices, primary education teachers need to organize education based on STEAM educational technologies, new teaching methodology, demonstrativeness, instructiveness. and ideas about the aspects of studying and applying non-conventionalism embodied in unity are stated.*

***Kalit so'zlar:*** *STEAM ta'limi, texnologiya, o'qituvchi, o'quvchi, mashg'ulot, taraqqiyot, innovatsiya, metod, integratsiya, ijodkorlik, ko'nikma, malaka.*

***Ключевые слова:*** *STEAM-образование, технология, учитель, ученик, обучение, развитие, инновация, метод, интеграция, творчество, мастерство, компетентность.*

***Keywords:*** *STEAM education, technology, teacher, student, training, development, innovation, method, integration, creativity, skill, competence.*

Rivojlangan mamlakatlarda umumta'lim ta'lim muassasalarida STEAM ta'limi texnologiyalari asosida bo'lajak boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarga ta'lim berishda global tendensiyalar va amaliyot bo'yicha ko'nikmalarga ega bo'lishi bu albatta, o'quvchilarning dars jarayonlarida fanlarni o'zlashtirishi va bilim, ko'nikma, malakalarni hosil qilishidan sezilmoqda.

STEAM ta'lim texnologiyalari asosan AQShda dastlab XX-asr oxirlarida ishlab chiqilgan bo'lib, umumta'lim maktablarining bitiruvchilarini keyingi faoliyatini kuzatib, tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik mahorati, matematika fanlarini integratsiyalashga qaror qilishdi va dastlab, STEM (Science, Technique, Engineyering and Math) tizimini ishlab chiqqan. Keyinchalik unga san'at (Art) qo'shib STEAM ta'limini oxirigacha shakllantirdi.

Umumta'im muassasalarida boshlang'ich ta'lim o'qituvchilari tomonidan o'quvchilarga xalqaro tajribalar va jalb etilgan xalqaro konsultantlarning tavsiyalarini inobatga olib zomonaviy texnologiyalardan foydalangan holda ta'lim berishni, o'qituvchilarni o'quvchilarga ta'lim berishda asosan STEAM texnologiyalari asosida yondashib ta'limni tashkil etish zarurligini taqoza etmoqda.

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmoni[1], O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-sonli farmoni[2], 2019-yilning 26-noyabrdagi ""Zamonaviy maktablar'ni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4537-son qarorida[3] umumta'lim maktablarni, shu jumladan, o'quv sinflarini yangi shart-sharoitlarga mos va qulay mebellar bilan jihozlash, zamonaviy o'quv va laboratoriya uskunalari bilan ta'minlash, o'quvchilar uchun darsliklar va o'quv-uslubiy materiallar, kompyuterlar va multimedia texnikasi, videokuzatuv tizimlari bilan jihozlash, o'quv rejalari va dasturlarini optimallashtirish, innovatsion, shu jumladan, masofaviy pedagogik usullardan keng foydalanish, ushbu jarayonning samaradorligini oshirishni nazarda tutgan holda muassasa rahbari va pedagogik xodimlari malakasini oshirish tartibi va tizimini tubdan qayta ko'rib chiqilishi belgilangan.

Shunga ko'ra, Respublikamizning barcha hududlarida iqtidorli yoshlarni aniqlash maqsadida Prezident maktablari ochildi va faoliyat ko'rsatib kelinmoqda. Ular STEAM fanlarini o'qitishga ixtisoslashgan bo'ldi. STEAM — maktab o'quvchilarini yangi o'qitish metodikasi bo'lib, an'anaviy o'qitish tizimiga muqobil tizim hisoblanadi. U bolalarni bir vaqtning o'zida Science (tabiiy fanlar), Technology (texnologiya), Engineering (muhandislik), Art (san'at) va Mathematics (matematika) bo'yicha o'qitish tizimiga asoslangan, bunda o'quvchilar amaliy va ko'ngilochar loyihalar mashg'ulotlari yordamida saboq oladilar. STEAM ta'lim texnologiyalari asosida yondoshganda o'quvchilarda bir qancha quyidagi qobiliyatlarni rivojlantirishda yordam beradi.




STEAM ta'lim texnologiyalari asosida rivojlantiriluvchi qobiliyatlar.

Boshlang'ich ta'limda STEAM – ta'limdan foydalanish bu o'quvchilarda tabiiy va texnik fanlariga bo'lgan qiziqishlarini rivojlantirishda, bajaradigan ishini sevib bajarish, qiziqishlarini rivojlantirish uchun asos bo'lib xizmat qiladi.

Mamlakatimiz Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning 2022-yil 21-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasida maktab darsliklari, yoshlarga berilayotgan ta'lim, ayniqsa 2023-yilni "Insonga e'tibor va sifatli ta'lim yili" deb nom berganligi, kelgusi yildan boshlang'ich sinflarda mutlaqo yangi metodika asosida yaratilgan darsliklar bo'yicha o'qitish yo'lga qo'yiladi. Hozirgi vaqtda ular xalqaro ekspertizadan o'tib, o'zimizda sinovdan o'tkazilmoqda. Lekin yuqori sinflarda-chi? Ochiq aytish kerak, ularda berilayotgan ta'lim va tarbiya sifati, o'qituvchilarning bilimi va mahoratini talab darajasida, deb bo'lmaydi deb ta'kilagan edi[4].

Yurtimizda bugungi kunda yosh avlodni yetuk barkamol avlod qilib tarbiyalash eng muhim vazifalardan biri sanaladi. Bu vazifalarni bajarish, albatta pedagoglarga bog'liqligi, shu maqsadda yoshlarga bilim berishga katta e'tibor qaratish lozim.

Yurtboshimiz ta'kidlaganidek, yoshlarni erkin fikrlash va mustaqil hayotga yo'naltirishimiz kerak.

Bu borada umumta'lim maktablarida STEAM ta'lim texnologiyasi bizga qo'l keladi. STEAM-tabiiy fanlar, texnologiya, muhandislik, san`at va matematika fanlarini uyg`unlikda o'qitish uslubidir. STEAM texnologiyasida nazariy va amaliy bilimlar uyg'unligiga e'tibor qaratiladi. STEAM ta'limi muhitida o'quvchilar bilimga ega bo'ladilar va darhol undan foydalanishni o'rganadilar. Milliy dastur asosida ishlab chiqilgan 1-2 sinflarning ona tili va o'qish savodxonligi, tabiiy, matematika darsliklarida berilgan mavzularga STEAM texnologiyasi asosida yondashib, darslar tashkil etsa bo'ladi. Xususan tabiiy fanlarda har bir mavzu nazariy ham amaliy tarzda berilgan. Jumladan, 2-sinf tabiiy fanida Yer-sayyora mavzusi berilgan. Bu mavzuni o'rganishda o'quvchilar nazariy bilim bilan birga amaliy mashg'ulot ham o'tkazishadi. O'quvchilar yer shari, quyosh modelini yasashadi. Bu bilan ular yer shari quyosh atrofida aylanishini amaliy bilib oladilar shu bilan birga yer sharining global muammolarini bartaraf etish choralarini o'ylab topishadi. Biz shu mavzu asosida o'quvchilarni bilishga, fikrlashga, mustaqil ishlashga, ijodkorlikka undashimiz mumkin. Nafaqat darslarda balki sinfdan tashqari mashg'ulotlarda ham STEAM texnologiyasidan oqilona foydalanish kerak. Mashg'ulotlarni tashkil etishda kasb-hunar egalari taklif etilsa, ular o'z kasblari haqida nazariy bilim bilan birga amaliy ko'rsatib bersa, bu bolalarda yaxshi taassurot qoldiradi. Kelajakda kasb tanlashda, o'z yo'nalishini topib oladilar.

STEAM ta'limi texnologiyalari asosida

*1 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 5-sentabrdagi "Xalq ta'limini boshqarish tizimini takomillashtirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi PF-5538-sonli Farmoni. 1, 9-bandlari. https://lex.uz/uz/docs/-3893445*

*2 O'zbekiston Respublikasi prezidentining 2019-yil 29-apreldagi "O'zbekiston Respublikasi xalq ta'limi tizimini 2030-yilgacha rivojlantirish konsepsiyasini tasdiqlash to'g'risida"gi 5712-sonli farmoni. 3-bob, 8-band. https://lex.uz/uz/docs/-4312785*

*3 O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilning 26-noyabrdagi ""Zamonaviy maktablar'ni tashkil etish chora-tadbirlari to'g'risida"gi PQ-4537-son qarori. https://lex.uz/uz/docs/-4613683*

*4 2022-yil 21-dekabr kuni O'zbekiston Respublikasi Prezidentining Sh.M.Mirziyoyevning O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisga va O'zbekiston xalqiga Murojaatnomasi. "Xalq so'zi" gazetasi. 2022-yil 21-dekabr. № 272-son.*

dars mashg‘ulotlari olib borilganda o‘quvchilarda quyidagi muhim xususiyatlar va ko‘nikmalarni rivojlantirishga yordam beradi.




STEAM ta’lim texnologiyalari asosida o‘quvchilarda rivojlantiriladigan muhim xususiyatlar va ko‘nikmalar.

O‘qituvchilarning ish uslublarining bir xilligi o‘quvchilar orasida qiziqishning pasayishiga olib keladi. Ta’limda muammoli vaziyatlarni modellashtirish yangilik emas. Bu usul dastlab Qadimgi Gretsiyada qo‘llanilgan. Muammoli vaziyat, odatda, shaxsga ma’lum bo‘lgan vositalar yoki usullar orqali erisha olmaydigan intellektual qiyinchilik deb talqin etiladi. Kutilmagan qiyinchilik mustaqil qidiruv ishlarini olib borishga undaydi Umumiy holda, muammoga asoslangan ta’lim nostandart harakatlarni, “bilimlarni o‘zlashtirishning reproduktiv darajasidan ijodiy qidiruv ishlariga o‘tish” ni taqazo etadi.

Xulosa qilib aytganda, STEAM ta’limi umumta’lim maktabida boshlang‘ich ta’lim o‘qituvchilari faoliyatini amalga oshirishda innovatsion texnologiya asosida yondashuv, ta’limni aralash turda olib borish va o‘quvchilar dars mashg‘ulotlarida egallagan nazariy bilimlarini kundalik hayotda qo‘llay olish ko‘nikmalarini shakllantirishga imkon beradi.

STEAM ta’limi texnologiyasi asosida yondashuv o‘quvchi yoshlarga dunyoni anglashga va atrofda ro‘y berayotgan jarayonlarni mantiqiy mushohada qilishga, ulardagi o‘zaro aloqani anglab yetishga o‘zi uchun yangi, noodatiy va qiziqarli narsalarni kashf qilishga imkon yaratadi. O‘quvchi yoshlarda qiziquvchanlikni rivojlantiradi, o‘zi uchun qiziqarli bo‘lgan masalani aniqlab olishni, yechimini matematik jihatdan topishni ishlab chiqishni, natijalarni tanqidiy baholashi, fikrlashning muhandislik jihatlarini shakllantirishga va amaliyotda san’at darajasida qo‘llay olishiga olib keladi.





# KOMPETENSIYANING PEDAGOGIK TUSHUNCHA SIFATIDA O‘RGANILISHI

**Shoxista Sharifovna Rustamova** - *doktorant, Samarqand davlat chet tillar instituti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqolada pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi o‘qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo‘lishi kabi tushunchalar o‘rganilgan va tahlil qilingan. Bunlan tashqari, kompetensiya va kompetentlik kabi atamalarning mazmun mohiyati turlicha shakllarda namoyon bo‘lishi ko‘rsatib o‘tilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье изучается и анализируется понятие психолого-педагогической компетентности в педагогической науке, такие понятия, как способность учителя достигать наивысшего уровня результатов в образовательном процессе, высокий профессиональный потенциал, а также коммуникабельность и положительные качества. Кроме того, было показано, что такие термины, как компетенция и компетентность, проявляют себя в различных формах содержательной сущности.*

***Abstract:*** *In this article, the concept of psychological and pedagogical competence in pedagogical science, such concepts as the ability of a teacher to achieve the highest level of results in the educational process, high professional potential is studied and analyzed, as well as sociability and positive qualities. In addition, it has been shown that terms such as competence and competency manifest themselves in different forms of content essence.*

***Kalit so‘zlar:*** *kompetensiya, o‘quv, kompetentlik, qobiliyat, mahorat, intelektual salohiyat, kasbiy kompetentlik, lingvistik hodisalarning mahsulotlari.*

***Ключевые слова:*** *компетентность, обучение, компетентностный подход, способность, умения, навыки, интеллектуальный потенциал, профессиональная компетентность, продукты языковых явлений.*

***Keywords:*** *competence, training, competency, ability, skill, intellectual potential, professional competence, products of linguistic phenomena.*

“Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi, jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan, jamiyatga, mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o‘z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Pedagogika fanida psixologik-pedagogik kompetentlik tushunchasi o‘qituvchining ta'lim-tarbiya jarayonida eng yuqori darajada natijaga erishishi, yuqori kasbiy salohiyat, shuningdek, muloqotchanlik va ijobiy fazilatlarga ega bo‘lish degan xulosaga kelinadi. “Kompetentlik” so‘zining ma'nosi xabardorlik, obro‘, o‘z sohasi bo‘yicha keng qamrovli tushuncha va tajribaga ega bo‘lish bilan belgilanadi. Kompetensiya esa shaxsiy sifat bo‘lib, turli xil vaziyatda pedagogik faoliyat va ijtimoiy hayotda ifodalanadigan qobiliyat, bilim, ko‘nikma va malaka hisoblanadi[1].

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning rahbarliklari ostida chet tillarini o‘rganish masalasiga juda katta e`tibor qaratilmoqda. Jumladan, Prezidentimizning 2021-yil 19-maydagi PQ-5117 sonli qarorida quyidagi vazifa belgilab berilgan: “Aholi orasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish va ularni mukammal o‘zlashtirish uchun zarur sharoitlar yaratish, xorijiy tillarni o‘qitishning xalqaro tan olingan dastur va darsliklari ta’limning barcha bosqichlarida joriy etilishini muvofiqlashtirish hamda o‘qituvchilarda zamonaviy o‘qitish ko‘nikmalarini rivojlantirish”[2].

Bu borada O‘zbekiston olimlari B.Azezov, A.Xoliqov, X.Xudoyqulov, M.Ochilov, Sh.Olimov, D.Ro‘ziyeva, N.Azizxodjayeva, A.Kenjaboyevlar ilmiy pedagogik tadqiqotlar ishlari olib bormoqdalar. Ularning tadqiqot ishlarida bugungi ta'lim sohasiga kompetentlik asosida yondashish kerakligi ilmiy asoslangan. Bu, ayniqsa, ta'lim jarayoniga kreativlik va innovasion asosda yondashishni talab etadi. Ushbu yondashuv tafakkurni rivojlantirishning muhim ko‘rsatkichi sifatida e'tirof etilmoqda. Bugungi globallashuv sharoitida bo‘lajak o‘qituvchilarning pedagog mahoratini kompetentlik talablari asosida

1 Normatova.N.N Ingliz tilini o‘qitishda iqtisod yo‘nalishi talabalarning og‘zaki nutq ko‘nikmalarini rivojlantirish. Ped.fanlari bo‘yicha falsafa dokt. diss. avtoreferati. – Sam., 2021. – 77 b.

2 O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2021 yil 19 maydagi PQ-5117 son “O‘zbekiston Respublikasida xorijiy tillarni o‘rganishni ommalashtirish faoliyatini sifat jihatidan yangi bosqichga olib chiqish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi qarori. Qonunchilik ma'lumotlari milliy bazasi.

takomillashtirish zarurati vujudga keldi. Yetakchi psixolog va pedagog olimlarning ilmiy-tadqiqot ishlarida "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalariga turlicha izohlar berilgan.

Tilshunoshlikda "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalariga doir turli farazlar mavjud. Ushbu tushunchalar ta'limning yakuniy natijalarini tasvirlashda foydanlanishi bilan birga, rivojlangan shaxsning turli xususiyatlarini ifodalashda qo'llanilgan. Jumladan, D.Raven olib borgan tadqiqotlarning ko'rsatishicha, pedagogik topshiriqlarning yechimi "fikrlash, harakat qilish va fikrlash uchligiga borib taqaladi. "O'qituvchining kasbiy layoqati modeli uning nazariy va amaliy tayyorgarlik darajasining o'zaro muvofiqligi asosida o'z aksini topadi" deb ta'kiqlanadi[3].

"Kompetentlik tushunchasi ta'lim sohasiga psixologik izlanishlar natijasida kirib kelgan. Shu sababli kompetentlik noan'anaviy vaziyatlar, kutilmagan hollarda mutaxassisning o'zini qanday tutishi, muloqotga kirishishi, raqiblar bilan o'zaro munosabatlarda yangi yo'l tutishi, noaniq vazifalarni bajarishda, ziddiyatlarga to'la ma'lumotlardan foydalanishda izchil rivojlanib boruvchi va murakkab jarayonlarda harakatlanish rejasiga egalik ni anglatadi"[4].

Devi Gudepu ta'kidlashicha kompetensiya ta'lim jarayonida juda muhim omil hisoblanadi hamda kompetentlik o'quv-tarbiya jarayonida talabalarni yetakchilik qilishiga qaratilgan[5].

Kasbiy kompetentlik – mutaxassis tomonidan kasbiy faoliyatni amalga oshirish uchun zarur bo'lgan bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishi va ularni amalda yuqori darajada qo'llay olinishidir. Kasbiy kompetentlik mutaxassis tomonidan alohida bilim, ko'nikma va malakalarning egallanishini emas, balki, har bir mustaqil yo'nalish bo'yicha integrativ bilimlar va harakatlarning o'zlashtirilishini nazarda tutadi. Shuningdek, kompetensiya mutaxassislik bilimlarini doimo boyitib borishni, yangi axborotlarni o'rganishni, muhim ijtimoiy talablarni anglay olishni, yangi ma'lumotlarni izlab topish, ularni qayta ishlash va o'z faoliyatida qo'llay bilishni taqozo etadi.

Pedagogning kasbiy kompetensiyasi pedagogik (o'quv va tarbiya) jarayonini samarali, muvaffaqiyatli tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur. O'z-o'zini rivojlantirishda "Individual rivojlanish dasturi" qo'l keladi. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatlarini rivojlantirish zarur bo'ladi.

Bir qator ishlarda, xususan, E.V.Masalkovaning tadqiqotlarida pedagogik kompetentlikning tarkibiy asoslari qayd etib o'tilgan. "Pedagogning kasbiy kompetensiyasi o'quv va tarbiya jarayonini samarali tashkil etilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiyaga ega bo'lish uchun pedagog o'z-o'zini izchil rivojlantirib borishga e'tiborni qaratishi zarur"[6]. Zero, ushbu dasturda pedagogda mavjud bo'lgan kompetentlik sifatlari va rivojlantirish zarur bo'lgan sifat, BKMni aniq, xolis ifodalash mumkin. Zamonaviy ta'limning asosiy maqsadi, jamiyat va davlat uchun har tomonlama rivojlangan jamiyatda mehnat faoliyatiga ijtimoiy moslashuvchan, o'z ustida ishlay oladigan shaxsni tayyorlashdan iborat. Kompetentlik har bir kishining til tizimi haqidagi yashirin bilimidir, jumladan, grammatik qoidalar, lug'at, tilning barcha qismlari va ushbu qismlarning qanday qilib birga mos kelishi bunga misol bo'la oladi. Nutqiy ijro bu lingvistik hodisalarning maxsulotlari (gapirish, yozish) yoki ularni tushunishdir (tinglash, o'qish).

N.Xomskiy kompetentlik haqida shunday degan; "Kompetentlikni" til o'rganuvchilarini, jumladan, xotira limitlari, fikr tarqoqligi, qiziqish va e'tiborning o'zgarishlari, xatolar va ikkilanish xodisalarini (takrorlash, to'xtab qolish, tushirib qoldirish) ko'rsatmaydigan benuqson gapiruvchi-tinglovchiga qiyoslash mumkin". Ya'ni til nazariyasi kompetentlik nazariyasi bo'lishi kerak, aks xolda tilshunos behudaga gapiruvchi tinglovchining yashirin lingvistik qobiliyatini yoritishga urinadi. Natijada, biz umumiy kognitiv qolipda ishlay olishimiz uchun qisqartirilgan aqliy tuzilma haqidagi tasavvurga ega bo'lamiz.

N.Xomskiy ta'kidlab o'tgan fikrga nisbatan bildirilgan asosiy tanqid bu uning ideal gapiruvchi tinglovchilik qobiliyatlarini o'rganishni tashviq qilishi bilan bog'liq. Ushbu kamchilikning oldini olishga qaratilgan fikrlar orasidan Stubbsning "Language in use" va Taronening "Heterogeneous competence" tushunchalarini anglash juda muhimdir. Stubbsning" Language in use" tushunchasi

3 Равен Д. Компетеность в соверемен обществе. –М.: Коко-центр, 2002. – С. 25

4 Normatova.N.N Ingliz tilini o'qitishda iqtisod yo'nalishi talabalarning og'zaki nutq ko'nikmalarini rivojlantirish. Ped.fanlari bo'yicha falsafa dokt. diss. avtoreferati. – Sam., 2021. –B. 25.

5 Devi Gudepu, Manjulatha. Applications of Communicative Language Teaching 1. Techniques in Reading Classes: A Special Focus on Junior Colleges in Telangana Region (India). World Journal of English Language Vol. 3, No. 2; 2013. – P. 57-64.

6 Масалкова Э. В Обучение общению на английский языке студентов факультета физической культуры. Автореф.дис. – Пятигорск, 2006.– 93 с.



YOSH TADQIQOTCHILAR

tilni kontekstga bog'lashga undaydi[7]. Toroun esa, ikkilanish, to'xtash kabilarni qobiliyat shakllanishi jarayoni bilan bog'laydi. Misol uchun birgina so'zning noto'g'ri qo'llanilishi butun nutqning muvaffaqiyatsiz ekanligini belgilamaydi.

Rus pedagog-psixolog olimi M.G.Saveleva o'zining ilmiy maqolalarida quyidagi fikrlarni bildiradi: "Kompetensiya rivojiga yo'naltirilgan ta'lim sharoitida o'quvchi o'z faoliyatidan ijodiy natija oladi va shu bilan birgalikda muvaffaqiyat qozonishning usullari, yo'llari, metodlari, yondashuvlari va uslublarini o'zlashtirib oladi"[8]. Ushbu yo'sinda erishilgan ijodiy natija o'quvchi bilan o'qituvchi hamkorligidagi ijodiy natija hisoblanadi. Nutq faoliyati turlarining uyg'unligini rivojlantirish, umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilari egalagan bilim ko'nikmalari integrativ yondashuv asosida muntazam mustahkamlab borishiga va umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilari kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishga yordam beradi. "Bugungi ta'lim tizimidagi modernizasiya bir tomondan ta'limning fundamental xususiyatlarini saqlashga, ikkinchi tomondan, uni amaliy jihatdan mustahkamlashga qaratilgan.

Shu munosabat bilan ko'plab metodist olimlar bilim, ko'nikma va qobiliyatlarni shakllantirish tizimini umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining intellektual qobiliyatlarini rivojlantirish vositasiga aylanishi kerak, deb hisoblaydilar[9]. Adabiyotlarda kompetensiya va kompetentlik tushunchalari to'g'risida olimlar turlicha fikr bildiradi. Uslubiy adabiyotlarda "kompetensiya" kompetentlikdan, shaxsiy ta'limdan, shuningdek, shaxsiy muvaffaqiyatli tajribaning bir qator o'ziga xos ko'rinishlaridan ko'ra murakkabroq deb; qaraladi"[10].

Umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining autentik vazifalarni hal qilishi uchun ularga mavzularga yo'naltirilgan xorijiy til mashq va vazifalarini bajarishi tavsiya qilinadi. Bu tadbirlar umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining kelgusida intellektual rivojlanishi, fikrlashi, o'zini o'zi anglashi, o'zini namoyish qilishini ta'minlaydi. Bu esa umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining aqliy qobiliyatlarini, ko'nikmalarini rivojlantirish, jumladan, intellektual salohiyatlari shakllanishi nuqtai nazaridan tavsiflanadi.

Kompetensiyalarni M.K.Kolkova kommunikativ jihatdan yetarlicha tavsiflagan[11]. Bir tomondan, umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilari bir qator kompetensiyalarni egallashlari umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilarining turli xil faoliyat turlarini amalga oshirish qobiliyatini shakllantirishga hissa qo'shadi. Boshqa tomondan, faoliyatni amalga oshirish jarayonida umumta'lim maktablari yuqori sinf o'quvchilari yangi kompetensiyalarni o'rganishlari kerak.

Kommunikativ kompetensiyagaga doir tushunchalarga O'zbekiston olimlari X.J.Xudoyqulov va A.E.Kenjaboyevlar[12] tomonidan grammatik qoidalar, ijtimoiy lingvistik qoidalar, distributiv suhbatlar, suhbatdoshlar bilan aloqa o'rnatish qoidalari va boshqalar bugungi talablar asosida yanada boyitildi.

Xulosa o'rnida shuni ta`kidlash kerakki, kasbiy faoliyatni tashkil etishda muhim ahamiyatga ega bo'lgan kompetentlik tushunchasi shu kungacha ko'p olimlar tomonidan o'rganilgan bo'lishiga qaramay, bu masala borasida hali ko'rib chiqilishi kerak bo'lgan bo'lgan muammolar mavjud. U nafaqat aniq bilim va ko'nikmalar, balki aniq strategiya, maqsad va vazifalar tizimini oz ichiga olgan amaliy masalalarni hal etish bilan bog'liq.

7 Jack C. Richards. Communacative Learning teaching today – Cambridge, 2006. – 131 p.

8 Савелева М.Г. Педагогичские кейсы констуирование и использовние в проссе обучении и оценки компетенции студентов. – Ижевск. 2013, – С. 12.

9 J.J.Jalolov.Chet til o'qitish metodikasi. – T: O'qituvchi, 2012. – B. 73.

10 J.J.Jalolov.Chet til o'qitish metodikasi. – T: O'qituvchi, 2012. – B. 33

11 Колкова. М.К. Модернизация процесса обучения иностранным языкам в рамках стратегии модернизации образовательного процесса в начальной, основной и старший школе// Обучение иностранным языкам. (отв. ред. М. К. Колкова). – КАРО: СПБ., 2003. – 320 с.

12 Xudoyqulov H., J. Kenjaboyev A.E. Pedagogika moduli o'qitishda innovasion ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. – Toshkent, 2018. – 36 b

# OLIY TA'LIM MUASSASALARIDA ILG'OR XORIJIY TAJRIBALAR ASOSIDA TA'LIM SIFATINI TAKOMILLASHTIRISH

*Javohir Ismoil o'g'li Abdullayev - tayanch doktorant, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Ushbu maqolada bugungi kundagi ta'lim jarayonining zamonaviy yondashuvlari hamda xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimining O'zbekiston Respublikasi ta'lim sohasidagi davlat siyosatiga bog'langan holda chuqur yondashganligi, shuningdek, Jahon tajribasi asosida barkamol shaxs va malakali mutaxassislar tayyorlashga yangicha yondashuvlarni o'z ichiga qamrab olgan. Shu bilan birgalikda ayrim xorijiy mamlakatlar ta'lim tizimini analogiya jihatdan tahlil qilib o'tilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье современные подходы к образовательному процессу на сегодняшний день и углубленный подход системы образования зарубежных стран в связи с государственной политикой в сфере образования Республики Узбекистан, а также новые подходы к обучению круглые лица и квалифицированные специалисты, основанные на мировом опыте. При этом по аналогии анализировалась система образования некоторых зарубежных стран.*

***Abstract:*** *In this article, modern approaches to the educational process today and the in-depth approach of the education system of foreign countries in connection with the state policy in the field of education of the Republic of Uzbekistan, as well as new approaches to training well-rounded individuals and qualified specialists based on world experience. included. At the same time, the educational system of some foreign countries was analyzed by analogy.*

***Kalit so'zlar:*** *Ta'lim sohasidagi davlat siyosati, ta'lim sifati, ta'limni boshqarish, ta'lim indikatorlari, attestatsiya, akkreditatsiya, ta'lim sohasidagi xorij tajribasi, oliy ta'lim muassasalari.*

***Ключевые слова:*** *Государственная политика в сфере образования, качество образования, управление образованием, показатели образования, сертификация, аккредитация, зарубежный опыт в сфере образования, высшие учебные заведения.*

***Keywords:*** *State policy in the field of education, quality of education, education management, education indicators, certification, accreditation, foreign experience in the field of education, higher education institutions.*

Jahonning yuksak darajada taraqqiy etgan davlatlarida ta'lim-tarbiya ishlarining yo'lga qo'yilishi, maktablarda amalga oshirilganini o'rganish orqali biz mustaqil respublikamiz milliy ta'lim tizimlarini yangitdan tashkil qilishda, ta'lim-tarbiyada, maktab ishini tashkil etishda eskirib, o'z dolzarbligini yuqotib borayotgan faoliyat shakllari va usullaridan tezroq halos bo'lish, uni munosib tarzda yangilashda qo'shimcha boy manbalarga xam ega bo'lamiz. Zotan, xozirgi zamon ta'limida davlat va jamiyat talabi hamda manfaatlari aks etib turishi kerak.

Ilmiy-texnika taraqqiyoti, yangi texnologik revolyutsiya sharoitida muvaffaqqiyatli faoliyat ko'rsata oladigan jamiyat azolarini yetishtirib berish, yosh avlodni kasb-hunarga yo'naltirish hamda o'rta ta'limning ko'p variantli uchinchi bosqichini joriy etish, ta'lim-tarbiya berishda eng ilg'or pedagogik vositalarni qo'llash, ta'limda tashabbuskorlik va ijodkorlikka keng yo'l ochish, uning eng maqbul tizimlarini yaratish kabi jahon tajribalarini o'rganish maqsadga muvofiqdir. Ma'lumki, ta'lim tizimi deb muayyan jamiyatda ijtimoiy-tarixiy jarayonda tarkib topgan, ma'lum tamoyillar asosida boshqariladigan hamda bir-biri bilan bog'langan barcha tipdagi o'quv-tarbiya muassasalari yig'indisiga aytiladi. O'zbekiston Respublikasi mustaqillikka erishganidan so'ng barcha sohalar qatori ta'lim tizimini rivojlantirish, uning sifatini oshirish, boshqarish, bu jarayonda rivojlangan xorijiy mamlakatlar tajribasini o'rganish masalalariga katta e'tibor qaratila boshlandi[1].

1 *O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yoshlarga oid davlat siyosati to'g'risidagi" qonuni. – Toshkent. 2016-yil. 24-avgust.*





Ta'lim sifati va uni boshqarish masalalariga ilmiy nuqtai-nazardan yondashish xorijda XX asrning 20-yillaridan boshlangan. Mazkur jarayonda ta'lim sifatini boshqarish samaradorligini oshirish usullarini izlash ishlari dastavval ijtimoiy boshqaruvning umumiy nazariyasi yutuqlari asosida amalga oshirilgan. Shuni ta'kidlash lozimki, ta'lim sifati va uni boshqarish muammolari aksariyat tadqiqotlarda oliy ta'lim tizimi va uni amalga oshiruvchi ta'lim muassasalari misolida tahlil qilingan. Mazkur tadqiqotlarda oliy ta'limdan keyingi ta'lim, xususan malaka oshirish ta'limining muammolari alohida qaralmagan yoki oliy ta'limning mantiqiy davomi sifatida mushtaraklikda o'rganilgan. Shuning uchun ham ko'pgina tadqiqotlarda malaka oshirish ta'limi ham oliy ta'lim muassasalari amalga oshiradigan faoliyat tarzida yoritilgan[2].

Ta'lim sifati muammolarini muhokama qilishda uning baholanishi, nazorati, monitoringi, sifatning ta'minlanishi va boshqalar haqida so'z yuritiladi. Bu atamalarning ishlatilishiga aniqlik kiritish uchun ularning ingliz tilidagi ma'nosi va o'zbek tilida ularga mos keluvchi so'zlarga qisqacha to'xtalib o'tamiz.

Ta'limni rivojlantirish va uni baholashning o'zaro tan olinadigan tizimlarini joriy etish orqali taqqoslash imkonini beruvchi ta'lim sifatini ta'minlash Yevropa mamlakatlari yagona ta'lim makonini shakllantirishning muhim shartlaridan biridir. Dunyoda mavjud ta'lim sifatini baholash tizimlarini shartli ravishda ikkita modelga bo'lish mumkin.

Birinchi model – oliy ta'lim muassasasining jamiyat va davlat oldidagi mas'uliyatini attestatsiya, akkreditatsiya va nazorat qilish vositasida tashqi baholashga asoslangan "fransuzcha" modeli. Bunday model Skandinaviya mamlakatlari, Chexiya, Latviya, Estoniya va boshqa mamlakatlarda qo'llaniladi. Ushbu mamlakatlarda davlat organlari tomonidan baholashning maqsadi shakllantiriladi, baholashning eng muhim jihatlari belgilanadi, ta'lim jarayonini tashkil etishga doir qarorlar qabul qilinadi. Ta'lim muassasasi tomonidan o'zini-o'zi baholashga yuzaki qaraladi, chunki asosiy e'tibor tashqi baholashni samarali o'tkazishga qaratiladi.

Oliy ta'lim sifatini baholashning ikkinchi – "inglizcha" modelining asosini ta'lim muassasasi tomonidan o'zini-o'zi baholash tashkil qiladi. Bu model Buyuk Britaniya, Germaniya, AQSH, Lotin Amerika mamlakatlarida qo'llaniladi.

Germaniya va Buyuk Britaniyada yaqin davrlargacha ta'lim sifatini ta'minlashdagi bosh rol o'quv muassasalari va bo'linmalarining rahbarlari va o'qituvchilar tarkibining kompetentligi[3] va mas'uliyatiga asoslangan ichki nazoratga ajratilgan edi. Germaniyaning oliy ta'lim muassasalarida ichki nazorat asosan fakultetlar, aniqrog'i ulardagi o'quv jarayoniga javob beruvchi maxsus komissiyalar tomonidan olib borilar edi. Yevropa oliy ta'limining baynalminallashuvi xalqaro miqyosda ta'lim jarayoni sifatini baholash tizimini yaratishning muhimligi va zaruriyatini belgilaydi. Shimoliy Yevropa mamlakatlari (Daniya, Norvegiya, Finlyandiya, Shvetsiya) institutlari va universitetlarida tashkil etilgan nazorat va sifat tizimi ham o'ziga xos xususiyatlarga ega[4].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 20-aprelda "Oliy ta'lim tizimini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qaroriga muvofiq har bir oliy ta'lim muassasasi jahonning yetakchi ilmiy-ta'lim muassasalari bilan yaqin hamkorlik aloqalari o'rnatish, o'quv jarayoniga xalqaro ta'lim standartlariga asoslangan ilg'or pedagogik texnologiyalar, o'quv dasturlari va o'quv-uslubiy materiallarini keng joriy qilish, o'quv-pedagogik faoliyatga, master-klasslar o'tkazishga, malaka oshirish kurslariga xorijiy hamkor ta'lim muassasalaridan yuqori malakali o'qituvchilar va olimlarni faol jalb qilish, ularning bazasida tizimli asosda respublikamiz oliy ta'lim muassasalari magistrant, yosh o'qituvchi va ilmiy xodimlarining stajirovka o'tashlarini, professor-o'qituvchilarni qayta tayyorlash va malakasini oshirishni tashkil qilish belgilangan.

Proffessor Azamat Shamsiyevning "Ta'lim isloxatlari uchun xalqaro standartlar"ning o'ziga xos jahon

2 *Каланова Ш.М Национальная оценка качества образования в Великобритании. // «Вестник Высшей школы Казахстана», 2002, № 4. -С. 134-141;*

3 *(lotincha: competo — erishyapman, munosibman, loyiqman) — 1) muayyan davlat organi (mahalliy o'zini o'zi boshqarish organi) yoki mansabdor shaxsning qonun, ustav yoki boshqa hujjat bilan belgilangan vakolatlari, huquq va burchlari doirasi; 2) u yo bu sohadagi bilimlar, tajriba.[1]*

4 *Wahlen S. Is there a Scandinavian model of evaluation of higher education? // Higher Education Management, November 1998, Vol. 10. No. 3. P. 27-42.*

tajribasining meyyoriy talablarini batafsil yoritishga harakat qilgan. Shuningdek olimlar Sh.S.Gulyamova, R.A.Zakirkhodjaev, G.S.Agzamova, F.M.Nuriddinova, A.A.Davlatova G.A.Djalilova, N.A.Rajabova, M.A.Odilovalarning interfaol ta'lim modelining rivojlangan mamlakatlardagi ahamiyati mavzularida ilmiy risolalari tahlil qilingan.

Agar biz boshqa rivojlangan malakatlardagi ta'lim tizimining ijobiy jihatlariga e'tibor qaratsak. Ularning o'ziga xos uslubi mamlakat ravnaqiga xizmat qilayotganini guvohi bo'lamiz. Amerika Qo'shma Shtatlarida bolalar 6 yoshdan 17 yoshgacha 12 yil o'qiydilar. Ta'lim tizimi quyidagicha tashkil etilgan:

1. 3 yoshdan 5 yoshgacha maktabgacha tarbiya muassasalarida.

2. Boshlang'ich maktab. Bu bosqich 1—5-sinflarni o'z ichiga oladi.

3. To'liq bo'lmagan o'rta maktab. Bu bosqich 6—8-sinflardan iborat.

4. Yuqori maktab. Bu bosqich 9—11-sinflar bo'ladi.

5. Oliy ta'lim. (17 yoshdan-yosh chegaralanmagan)

10 sinfdan tayyorgarlik boshlanadi. Asosiy e'tibor tabiiy fanlarga qaratiladi. Amerika ta'limi texnikaviy jihatdan yaxshi jihozlangan Sinflar kompyuterlashtirilgan. O'quvchilar uchun yagona, majburiy darsliklar, qo'llanmalar yo'q. Har bir maktabda o'quvchilarini tashiydigan maxsus avtobuslar bor. Maktablarining aksariyati davlat ixtiyorida bo'lib, davlat mablag'i bilan ta'minlanadi.

Germaniyaning zamonaviy ta'lim tizimini deyarli 30% bola asosiy maktabga o'tadi. 9 yoki 10 yillik o'qish tugatilgandan keyin kasbiy tayyorgarlikka o'tiladi. Real bilim yurtlari asosiy maktab va yuqori bosqich maktabi o'rtasida turadi. qoidaga ko'ra bu erda o'qish 6 yil davom etadi (5-10 sinfgacha) va to'la o'rta ma'lumot berish bilan tugallanadi. Bilim yurtini tugatganlar o'rta maxsus o'quv yurtiga yoki yuqori bosqichdagi hunar-texnika maktabiga kirib o'qish huquqiga ega bo'ladi Germaniya ta'lim tizimida hunar ta'limi muhim ahamiyatga ega, chunki yuqori malakali ishchilarga bo'lgan talab kuchlidir[5]. To'liqsiz o'rta maktabni bitiruvchilarning esa 20% hunar ta'limi tizimida bilim olishni davom ettiradilar. Aksariyat hollarda o'qish muddati 3—3,5 yilni tashkil etadi.

Oliy maktab o'z-o'zini boshqarish huquqiga ega. Oliy o'quv yurtini shtatdagi rektor yoki bir necha yilga saylangan Prezident boshqaradi. O'z-o'zini boshqarishda vazifalari aniq taqsimlab berilgan bir necha guruhlar bosqichma-bosqich ishtiroki prinsipiga amal qilinadi. Uning tarkibiga professor-o'qituvchilar, o'quvchilar, ilmiy xodimlar va boshqa xodimlar kiradi. Talabalar o'qishi erkin tashkil etilgan. Ko'p sonli o'quv bosqichlari bilan birga o'quv rejalari taklif etiladi. O'qishga haq to'lanmaydi. Agar talaba yoki ularning ota-onalari oziq-ovqat harajatlarini ko'tara olmasa o'qish uchun moliyaviy yordam ko'rsatish to'g'risidagi federal qonunga ko'ra ular moliya yordamida oladilar. Bu yordamning yarmi stipendiyaga qo'shib berilsa, ikkinchi yarimi qarz tariqasida beriladi.Mamlakatda ta'limning isloh qilish O'quv jarayonini qisqartirish taklif qilinmoqda. Germaniyada Xalq universitetlari mavjud bo'lib, ular partiya va dindan tashqari muassasa. Ularning ko'pchiligi kechki bo'lib, faqat 1989-yilda universitetlarda 400000 kurslar tashkil etilgan. Hozir universitetlarda talabalar 7 yil o'qiydi, bu kurslarda, 5,5 mln. tinglovchi malaka oshirgan Davlat malaka oshirganlarni rag'batlantiradi va bu uchun har yili 5,5 mln. marka mablag' ajratadi.

Malaka oshirish kurslarida o'qish davrida tinglovchilarga mablag' bilan moliyaviy yordam beradilar. Asosan ishsizlar o'z malakasini oshirish imkoniyatlaridan ko'proq foydalanadilar Yarim yil davomida malaka oshirgan ishchilarning 75% ish bilan ta'minlanadi. Evangel cherkovi o'zining 15 akademiyasida dolzarb mavzular bo'yicha konferensiyalar tashkil etadi Katoliklar malaka oshirishda nikoh, oila masalalariga, teologiya va madaniyat sohalariga katta ahamiyat beradilar.

Mamlakatimizda oliy ta'lim tizimini rivojlantirish haqida so'z yuritar ekanmiz, talabalarni yetuk kadr bo'lib tayyorlash bilan bog'liq bir qancha dolzarb masalalar mavjudligini ham qayd etish joiz. Jumladan, 2001-yilda qabul qilingan va 2015-yilda qayta ko'rib chiqilgan davlat ta'lim standartining oliy ta'lim yo'nalishlari, mutaxassisliklari

5 Sayitkhonov A. THE IMPORTANCE OF INNOVATIVE ACTIVITIES OF YOUTH TO ENTREPRENEURSHIP //Theoretical. (2021).





klassifikatorida tayyorlanayotgan ixtisosliklar darajasi va nomlari xalqaro standartlarga mos kelmaydi. 2022-yil so'ngigacha ularni o'zgartirish va yangilashga majbur bo'ldik. Vaholanki, xalqaro standartlar XX asrning 90-yillarigacha ishlab chiqalgan bo'lsa ham.

Yuqorida rivojlangan mamlakatlar ta'lim tizimidagi yutuqlariga nazar soladigan bo'lsak, Ta'lim sohasidagi bugungi kamchiliklarning bartaraf etilishi, xalqaro me'yor va qoidalarning tezroq qabul qilinishi hamda jahon standartlariga asoslangan milliy ta'lim klassifikatsiyasi standarti va milliy kasblar klassifikatsiyasi standarti yaratilishi yangi O'zbekistonning xalqaro ta'lim hamjamiyatiga integratsiyalashuviga va malakali kadrlar tayyorlash sifatini oshirishga olib keladi.

# INGLIZ VA O'ZBEK TILLARIDA LOVE/ MUHABBAT KONSEPTLI FRAZEOLOGIK BIRLIKLARNING PRAGMATIK MAZMUNI

***Mastura Fayzullaevna Tadjieva** - o'qituvchi, Termiz davlat universiteti*

***Annotatsiya:*** *Mazkur maqola ingliz va o'zbek tillarida love/muhabbat konseptli frazeologik birliklarning pragmatik mazmuni haqida yozilgan. Maqolada frazeologik birliklarning pragmatik munosabatni muvaffaqiyatli amalga oshirishda va so'zlovchining voqelikka, xabar mazmuniga, qabul qiluvchiga munosabatini aniqroq ifodalashda qo'shadigan hissasi haqida mulohaza yuritilgan.*

***Аннотация:*** *В данной статье написано о прагматическом содержании фразеологизмов с концептом любви в английском и узбекском языках. В статье рассматривается вклад фразеологических единиц в успешную реализацию прагматической установки и более точное выражение отношения говорящего к действительности, содержанию сообщения и адресату.*

***Abstract:*** *This article is written about the pragmatic content of phraseological units with the concept of love in the English and Uzbek languages. The article discusses the contribution of phraseological units to the successful implementation of a pragmatic attitude and a more accurate expression of the speaker's attitude to reality, the content of the message and the addressee.*

***Kalit so'zlar:*** *pragmatika, pragmatik salohiyat, frazeologik birliklar, ekspressiv, apellativ, fatik, estetik komponent.*

***Ключевые слова:*** *прагматика, прагматический потенциал, фразеологизмы, экспрессивный, апеллятивный, фатический, эстетический компонент.*

***Keywords:*** *pragmatics, pragmatic potential, phraseological units, expressive, appellative, phatic, aesthetic component.*

Pragmatika insonning ijtimoiy faoliyatini o'zida aks ettiruvchi nutqiy jarayon, nutq ishtirokchilariga xos kommunikativ niyat, nutqiy vaziyatning ta'siri, til belgilarining nutqdagi harakatini o'rganuvchi fan tarmog'idir. Lingvistik pragmatika tarkibiga so'zlovchi va tinglovchining nutq jarayonidagi o'zaro munosabatiga bog'liq masalalar majmui kiradi.

Tilshunoslikning nutqiy aktlar nazariyasi, til va nutqda ekspressivlik va emotsionallik mexanizmlarini tavsiflash, verbal va noverbal aloqa vositalarini o'rganish kabi sohalari lingvopragmatika bilan bog'liq bo'lib, pragmatik funktsiya "insonning ruhiyatiga ta'sir etishi va mavjudlikdagi voqelikka nutq subyektining xususiy munosabati undash, emotsional-baho, estetik ta'sir etish, o'zaro murojaat kabi turlicha ko'rinishlardan iborat vazifani bajarishi bilan xarakterlanadi"[1]

Pragmatik ma'no aniq ifodalanmagan bo'lsa munosabatlarni tahlil qilish bir qator qiyinchiliklarni keltirib chiqaradi, chunki insonning fikr va niyatlarini obyektiv va izchil

1 Ҳакимов. М. Ўзбек прагмалингвистикаси асослари / М.Ҳакимов; масъул муҳаррир А.Нурмонов. – Тошкент Akademnashr, 2013. – Б. 142.

tahlil qilish juda qiyin. Faqatgina adekvat semantik idrok etish va olingan ma'lumotni to'g'ri talqin qilish samarali og'zaki muloqotni ta'minlaydi va og'zaki o'zaro ta'sir jarayonida aloqa va munosabatlarni o'rnatishga yordam beradigan maxsus atmosferani yaratishga yordam beradi.

Pragmatika tilning kommunikativ funksiyasi bilan chambarchas bog'liqligini hisobga olsak, til birliklarini tanlash va axborotni uzatish usullari uni jo'natuvchining kommunikativ niyatiga bog'liq degan xulosaga kelish mumkin. Bizningcha, frazeologik birliklar pragmatik munosabatni muvaffaqiyatli amalga oshiradi va so'zlovchining voqelikka, xabar mazmuniga, qabul qiluvchiga munosabatini aniqroq ifodalaydi.

Frazeologizmlar dunyoning tilda muhrlangan yoki unda belgilangan va mustahkamlangan milliy qiyofasini aniq aks ettirganligi sababli, ular vositasida konseptlarning milliy madaniy xususiyatlarini ifodalash samarali hisoblanadi.

A.E.Mamatov ta'riflashicha, "frazeologik birliklar u yoki bu xalqning ma'naviy qadriyatlari, milliy tafakkuri, hayot tarzi hamda urf-odatlarini namoyon etadigan til hodisasidir"[2].

A.V.Kuninning ta'rifiga ko'ra "frazeologik birliklar butunlay yoki qisman ko'chma ma'noni ifodalagan barqaror birliklardir"[3].

Pragmatik nuqtayi nazardan A.Y.Gurevich lingvomadaniy konseptlarni falsafiy kategoriyalarga ajratadi, ularni madaniyatning universal kategoriyalari (vaqt, makon, aql, o'zgarish, harakat) va ijtimoiy ya'ni madaniy kategoriyalar (erkinlik, huquq, adolat, mehnat, boylik, mulk), deb ataydi[4].

Mahalliy va xorijiy tadqiqotchilarning ishlarida "pragmatik salohiyat" tushunchasini talqin qilishda ikkita yondashuv mavjud. Keng ma'noda bu muayyan matnning pragmatikasi, tor ma'noda bu til vositalarining pragmatikasi, ya'ni ma'lum til birliklarining pragmatik salohiyati. V.N.Komissarovning fikricha, matnning pragmatik salohiyatini yaratish uchun nutq subyekti (boshqacha aytganda, so'zlovchi yoki manba) xabar mazmunini va uni lingvistik ifodalashning muayyan usullarini tanlaydi. "Manba o'zining kommunikativ niyatiga ko'ra, zaruriy ma'noga ega bo'lgan, ham mavzu-mantiqiy, ham konnotativ ma'noga ega bo'lgan ma'lumotlarni uzatish uchun til birliklarini tanlaydi va ular o'rtasida zarur semantik aloqalarni o'rnatadigan tarzda ularni gapda tartibga soladi. Natijada yaratilgan matn ma'lum bir pragmatik potensialga, retseptorga qandaydir kommunikativ ta'sir ko'rsatish qobiliyatiga ega bo'ladi"[5].

Og'zaki va yozma nutqda boshqa til birliklari qatori frazeologik birliklar ham faol qo'llanilib, uni stilistik jihatdan boyitadi, hissiy va ekspressiv ma'no beradi. Bundan tashqari, har qanday tilning frazeologik birliklari dunyoqarashning o'ziga xos xususiyatlarini va milliy madaniyatning nozik tomonlarini aks ettiradi, bu esa lug'atning ushbu sohasiga qiziqishni yanada oshiradi.

Tilshunos olim B.Yo'ldoshevning ibora xususidagi qarashlari fikrimizni tasdiqlaydi. «Frazeologik birliklar so'zlardan farqli holda obyektiv reallikdagi muayyan voqea-hodisani nomlash uchun emas, balki unga nisbatan modal munosabatni ifodalash maqsadida yuzaga keladi. Tildagi frazeologik birlikning asosiy qismi ma'no jihatidan insonga qaratilgan: ular kishini biror fizik, ruhiy, axloqiy, intellektual xususiyatini, xatti-harakatini baholaydi. Shu sababli frazeologik birliklarning ma'no tarkibida ko'pincha konnotativ element ishtirok etadi. Bu element frazeologik birlikning denotativ ma'nosiga emotsional-ekspressivlik yuklaydi. Konnotativ struktura esa pragmalingvistika muammolari sirasiga mansubdir"[6]. Demak, frazeologik birliklarning ekspressiv, baholovchi va emotsional (emotiv) ma'nolarining uyg'unlashuvi ularning uslubiy xususiyatlari bilan bir qatorda ma'lum pragmatik effekt yaratadi.

Pragmatika nuqtayi nazaridan, ya'ni nutqda lisoniy belgilarning kommunikativ-shartli faoliyati nuqtayi nazaridan frazeologik birliklar katta rol o'ynaydi. Ularning asosiy maqsadi shunchaki voqelik elementini nomlash emas, balki birinchi navbatda

2 Маматов А. Ўзбек тили фразеологияси. – Тошкент, «Наврўз» нашриёти, 2019. – Б.11.

3 Кунин А.В. Курс фразеологии современного английского языка. – М., Высшая школа, 1986. – С.19.

4 Гуревич А.Я. Человек и культура. Индивидуальность в истории культуры / А. Я. Гуревич. – М.: Искусство, 1999. – С18.

5 Комиссаров В.Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990, – С. 96.

6 Йўлдошев Б. Ҳозирги ўзбек адабий тилида фразеологик бирликларнинг функционал-услубий хусусиятлари: Филол. фан. докт... дисс. авто- реф. - Тошкент, 1993. - Б.12.





axborotni qabul qiluvchiga ta'sir o'tkazish, unda o'ziga xos reaksiyani uyg'otishdir.

Tilshunos olima A.M.Emirovaning ta'biricha, "frazeologik birliklarning pragmatik ma'nosi murakkab mazmun birligi bo'lib, ekspressiv, apellyativ, fatik va estetik komponentlar orqali namoyon bo'ladi. Pragmatik ma'noning ekspressiv komponenti so'zlovchining his-tuyg'ulari va baholashi bilan bog'liq bo'lib, apellyativ komponent bilan birgalikda amalga oshadi. Apellyativ komponent tinglovchiga nisbatan aqliy, hissiy, xatti – harakatli ta'sir o'tkazish bilan bog'liq bo'lib, bu ta'sir lingvistik va paralingvistik vositalar yordamida o'tkaziladi. Pragmatik ma'noning fatik komponenti kommunikantlarning ijtimoiy-psixologik maqomi haqida ma'lumot berib, ular orasidagi aloqaning o'rnatilishi yoki to'xtatilishiga sabab bo'ladi, estetik komponenti esa so'zlovchilarning til xazinasidagi eng mazmunli til birliklarini tanlab, ijodiy o'zgartirib, baholash qobiliyatini nomoyon qilgan holda estetik zavqlanish tuyg'usini keltirib chiqaradi. Pragmatik ma'no komponentlari o'zaro bog'liq bo'lib, nutqda murakkab shaklda namoyon bo'ladi. Demak, frazeologik birliklarning ichki shakli va ularning stilistik tuslanishi yordamida frazeologik birliklarning pragmatik ma'nosining barcha komponentlarini bir vaqtda ifodalash mumkin"[7].

Masalan, so'zlovchi va tinglovchining ko'z o'ngida kuchukcha yoki buzoqchaning tasviri gavdalanishi ingliz tilidagi "puppy love", "calf love" frazeologik birliklaridagi yoshlik sevgisi tushunchasining jiddiy bo'lmagan, o'tkinchi muhabbat sifatida baho berishiga sabab bo'ladi. Bunday birlik nutqda qo'llanar ekan, tinglovchida nutq jarayoni mazmuniga mos bo'lgan hissiy va xatti-harakatli munosabatni keltirib chiqarishi mumkin.

Insonning ko'z qorachig'i ko'rish uchun zarur bo'lganligi sababli, u juda qimmatli narsa hisoblanadi. Shuning uchun, ingliz tilidagi "apple of one`s eye"(birovning ko'z qorachig'i ) va o'zbek tilidagi "ko'z qorachig'i"( ko'zining oqu qorasi, ko'zining qorachig'i) frazeologik birliklari biror kishi yoki narsaga ishlatilganda, so'zlovchi tinglovchiga hissiy ta'sir o'tkazib, juda qadrli kishi yoki narsa haqida ma'lumot berib, ijobiy baholanishiga sabab bo'ladi.

Ko'pincha, muhabbat paydo bo'lishining asosiy sababi hissiyot yo'naltirilgan obyektga, uning tashqi qiyofasiga, individual xususiyatlariga, boshqa odamlar orasida ajralib turadigan sifatiga ijobiy baho berishdir. Ehtimol, aynan mana shundan ingliz tilidagi "love at first sight; love at first glow", o'zbek tilidagi "bir boqishda muhabbat" kabi iboralari paydo bo'lgandir. Ingliz tilida "can`t take one's eyes off smb" va o'zbek tilida "ko'zini uzolmay qolish" iborasi insonning oshiqligidagi sezgi-jismoniy reaksiyasini bildirib, tashqi qiyofaga nisbatan tinglovchida kuchli kommunikativ ta'sirni paydo qiladi.

Frazeologik birliklar ma'nosini baholash so'zlovchining his-tuyg'ulari va tajribalarini yetkazish bilan bir qatorda, uning xabarga bo'lgan munosabatini ochib beradi. Masalan, "lovey-dovey" iborasi mehr-muhabbatini bir-birlariga ochiq ko'rsatadigan sevishganlarni hazil yoki biroz norozi tarzda tasvirlash uchun ishlatiladi, ya'ni so'zlovchi bunday xatti - harakatni ma'qullamasligini ifodalaydi.

Ma'lumki, sevgi ijobiy va salbiy tuyg'u sifatida ifodalanishi mumkin. Inson o'ziga salbiy ta'sir ko'rsatadigan sevgidan azob chekishni istamagan holda his qiladi. Bunday hollarda, iztirob sevgan kishisidan ko'ngli qolganidan yoki undan ajralganligi tufayli yuzaga kelishi mumkin, ammo asosiy sababi sevgi bo'ladi. Ingliz va o'zbek tilida ham sevgini salbiy tuyg'u sifatida tasvirlaydigan bir necha iboralar mavjud: (ing.) be in the throes of love, pangs of love, pains of love, break smb's heart (o'zb.) sevgi iztirobi, muhabbat azobi, yuragini parchalamoq/sindirmoq

Sh.Safarov ta'kidlaganidek, "turli kommunikativ harakatlarni farqlovchi narsa tanlangan ifoda vositasi va ifodalanayotgan mazmunning o'ziga xosligi, modallik belgilaridir. Masalan, bo'sa, qog'ozga qizil rangda chizilgan yurak ramzi va "Men seni sevaman" iboralari mazmunan qanchalik yaqin bo'lishmasin, ularning ekspressivlik, ta'sir kuchi turlichadir. Demak, muloqot aktlarini lisoniy tizim birliklari bajaradigan vazifalar nuqtayi nazaridan tasniflash ehtiyoji

7 Эмирова А.М. Избранные научные работы. К 75-летию со дня рождения и 52-летию научной, педагогической и общественной деятельности. — Симферополь: КРП «Издательство «Крымучпедгиз», 2008. — С.119.

mavjud”[8]. Baholash va his-tuyg‘ular bir-biri bilan chambarchas bog‘liq va nisbiy bo‘lib, aloqa o‘rnatish uchun muhimdir. Demak, frazeologik birliklar nafaqat ma’lumotni yetkazish, balki pragmatik funktsiyani, ya’ni ta’sir qilish funktsiyasini muvaffaqiyatli bajarash va kerakli kommunikativ ta’sirni yaratish qobiliyatiga ega.

Oshiq bo‘lish holatini tasvirlovchi have a soft spot for smb.( birovga nisbatan iliq his-tuyg‘uga ega bo‘lmoq), set one's heart on (upon) smb. (birovga qiziqish bildirmoq) kabi ingliz frazeologik birliklari, shuningdek o‘zbek tilidagi ko‘ngil qo‘ymoq, mehri tushmoq, yaxshi ko‘rmoq kabi iboralarning ko‘pchiligi ijobiy baholanadi. Biroq, oshiqlikning kuchli darajasini, qattiq sevgining namoyon bo‘lishini tasvirlovchi frazeologik birliklari kuchli ta’sir qilish qobiliyatiga ega bo‘lib, biroz salbiy baholanishga o‘tishini kuzatish mumkin: (ing.) be swept off one's feet; be struck/stricken on smb with love; to be fathoms deep in love; worship the very ground one walks on; (o‘zb.) devonalarday sevmoq, majnun bo‘lmoq, sevgidan es-hushini yo‘qotmoq.

Muhabbat uyg‘otish va sevgi munosabatlarni o‘rnatish uchun amalga oshirilgan harakatlarni tasvirlovchi o‘zbek tilidagi ko‘zini olaytirmoq, ko‘zini suzmoq, bo‘yniga osilmoq, boshini aylantirmoq kabi frazeologik birliklari salbiy, ko‘ngliga yo‘l topmoq, qalbini egallamoq, muhabbatini qozonmoq esa ijobiy konnotatsiyaga ega.

Odatda sevgi munosabatlarini tugatish harakatlarini tavsiflovchi iboralar salbiy baholanadi: (ing.) send smb. packing, break smb’s heart eat/tear one’s heart out; (o‘zb.) yuragini sindirmoq/chilparchin qilmoq,

Frazeologik birliklar orqali so‘zlovchining ijtimoiy holatlarga, jinsga, yoshga bo‘lgan munosabatini bilish mumkin. Juftliklar o‘rtasidagi katta yosh farqini tasvirlashda ishlatiladigan May-December iborasidan insonlarning sevgi va yoshga bo‘lgan munosabatini ko‘rish mumkin. Old flame – o‘tmishdagi muhabbat, bir vaqtlar sevgan kishisi ma’nosini anglatuvchi ushbu frazeologik birlik orqali esa sevgi har doim ham abadiy davom etavermasligini tushunish mumkin.

Muhabbat konseptli frazeologik birliklarning ko‘pchiligini har ikki jinsga tegishlilari tashkil qiladi: (ing.) fall in love, lose one's heart to smb, carry a torch for smb; (o‘zb.) muhabbat qo‘ymoq, yaxshi ko‘rmoq, ko‘ngil qo‘ymoq.

Xiyonatkor erkak qiyofasi qaroqchi yoki kalamush bilan taqqoslangan love pirate, love rat iboralari so‘zlovchining nutq obyektiga nisbatan salbiy baholash bilan birga nafrat, hurmatsizlik munosabatini bildiradi. Muhabbatni yorug‘lik bilan taqqoslagan bo‘lishiga qaramay, yengiltak ayol ma’nosini beruvchi “light-o'-love (light-of-love)” iborasi ham obyektga nisbatan ma’qullamaslik munosabatini ifodalaydi.

Pragmatika tilning kommunikativ funksiyasi bilan chambarchas bog‘liqligini hisobga olsak, til birliklarini tanlash va axborotni uzatish usullari uni jo‘natuvchining kommunikativ niyatiga bog‘liq degan xulosaga kelish mumkin.

Xulosa qilib aytganda, pragmatik nuqtayi nazaridan, ya’ni nutqda lisoniy belgilarning kommunikativ-shartli faoliyati nuqtai nazaridan frazeologik birliklar katta rol o‘ynaydi. Ularning asosiy maqsadi shunchaki voqelik elementini nomlash emas, balki birinchi navbatda axborotni qabul qiluvchiga ta’sir o‘tkazish, unda o‘ziga xos reaksiyani uyg‘otishdir.

8 Сафаров Ш. Прагмалингвистика. – Тошкент: ЎзМЭ Давлат илмий нашриёти, 2008. – Б.64.



# FAN OLIMPIADALARIGA TAYYORGARLIK JARAYONINING SAMARALI USULLARI

*Bozormurod Abduvahitov – tadqiqotchi, Jizzax davlat pedagogika universiteti*

***Annotatsiya:*** *Maqolada katta ma'lumotlar bazasini belgilangan vaqtda, kechikishlarsiz o‘zlashtirish bilan bog‘liq ma'lumotlar bayon qilingan. O‘quv jarayonlarida paydo bo‘ladigan turli antiproggres omillar va ularni yengish usullari keltirilgan. Vaqt taymerini to‘g‘ri boshqarish bilan bog‘liq tavsiyalar mavjud.*

***Аннотация:*** *В статье описана информация, связанная с освоением большой базы данных в срок, без задержек. В ней представлены различные антипрогрессивные факторы, возникающие в образовательных процессах, и пути их преодоления. Есть рекомендации по правильному управлению таймером.*

***Abstract:*** *The article describes information related to mastering a large database on time, without delays. In it presented various anti-progressive factors that appear in educational processes and ways to overcome them. There are recommendations regarding the proper management of the timer.*

***Kalit so‘zlar:*** *kechikish, kichik rejalar, SMART metodi, vaqt taymeri, odatlarni shakllantirish.*

***Ключевые слова:*** *прокрастинация, мелкие планы, метод SMART, таймер, формирование привычки*

***Keywords:*** *procrastination, small plans, SMART method, timer, habit formation.*

Iqtidorli o‘quvchilarning boshqa o‘quvchilardan ajralib turadigan tomoni shundaki, ular ma'lumotlarni juda oson o‘zlashtiradi va kuchli mantiqiy fikrlash qobiliyatga ega bo‘lishadi. Shuning uchun ham bunday o‘quvchilarning imkoniyatlaridan kelib chiqqan holda, maksimal miqdorda topshiriqlar berish va ulardan yuqori natijalarni kutish mumkin. Fan olimpiadalari iste'dodlilar bellashuvi hisoblanib, unda aniq rejalar asosida ko‘plab adabiyotlarni o‘zlashtirib, ularni integratsiya qila olgan o‘quvchilargina g‘oliblikni qo‘lga kiritishadi. Bu vaziyatdagi eng katta muammo o‘zlashtirish lozim bo‘lgan adabiyotlar hamda amaliy ko‘nikmalar ko‘p bo‘lsa-da, ajratilgan vaqtning juda ozligidir.

Muammo shundaki, biz hammamiz ishimizni kechiktiramiz. Har birimiz, deyarli har kuni. Insonlarning tabiati shundayki, o‘sha vaqtda asosiy ishimizni qoldirib, qalbimiz xohlagan ishimizni qilamiz. Chunki bu ish sizni yupatadi, jismoniy yoki ruhiy kuch talab qilmaydi. Nima uchun? Ehtimol javob odamlar va hayvonlar evolyutsiyasi bilan bo‘g‘liqdir. O‘ylaymizki, biologiya darslarida hayvonlar 3 ta narsa: ovqatlanish, uxlash va ko‘payish kabilarni qilishini o‘rganganszi. Rostdan ham, e’tibor beradigan bo‘lsak, och qolganingizda ovqat yeyishni yoki bo‘lmasa chanqaganingizda suv ichishni kechiktirganmisiz? Ammo gap biologiya darsligidagi Drosophila melanogaster genetikasini o‘qish yoki laboratoriyada Western blot tajribasini o‘tkazish haqida ketganda bular sizning yashab qolishingiz uchun muhim narsami? Albatta yo‘q! Biror ishni qilish ko‘p energiya talab qiladi, shuning uchun ham agar o‘lmaydigan bo‘lsangiz biron bir ishni qilish uchun evolyutsion sabab yo‘q. Nima uchun odamlar ATF ni yashab qolish uchun zarur bo‘lmagan ishlarga sarflashlari kerak!

Odatda odamlar juda ham raqobatlarga chidamli. Ko‘pincha biz sinfda yoki ish joyida tengdoshlarimizdan bir qadam oldinda bo‘lish uchun kurashamiz. Biz atrofimizdagi odamlarga aqlliroq, boyroq yoki biror narsada iste’dodli ekanligimizni ko‘rsatib qo‘yishga harakat qilamiz. Endi o‘ylab ko‘ring, sizning maqsadingiz biologiya olimpiadasida qatnashishmi yoki maktab topshirig‘ini yaxshi bajarishmi? Eng yomoni biologiya olimpiadasiga tayyorgarlik sizdan juda ko‘p harakatlar (ham jismonan, ham ruhan)ni talab qiladi, ehtimol, siz tonnalab kitoblarni o‘qishingiz, eski testlarni yechishingiz yoki laboratoriya ko‘nikmalariga ega bo‘lishingizni talab qiladi.

Endi siz boshqa fanlarning ham uy vazifalarini bajarish, qizg‘in hayotingiz va darsdan tashqari mashg‘ulotlaringizga ham

vaqt topishingiz kerak. Endi oʻylab koʻring, qilinishi kerak boʻlgan ishlaringiz qanchalik koʻp boʻlsa, katta ehtimol bilan bu ishlarni kechiktira boshlaysiz, oqibatda hech qaysi vazifalaringiz bajarilmaydi.

Biologiya olimpiadasida kechiktirishlarni yengish ham asosiy maqsadlardan biridir. Tayyorgarlik uchun sizga vaqt kerak, shunda siz kechiktirish haqida oʻylab ham koʻrmaysiz. Buning uchun siz nima qila olasiz? Quyida qoldirayotgan maslahatlar vaqtingizni yanada samaraliroq va tejamliroq qilishga yordam beradi.

Belgilangan muddatga ega boʻlga kichik maqsadlar qoʻying. Siz ham balki koʻpchilik kabi men Campbell darsligini 7 kun ichida oʻqiyman yoki bir kunda barcha biokimyo maʼlumotlarini koʻrib chiqaman deb, ulkan maqsadlarni qoʻygandirsiz. Bunday qilishni hoziroq toʻxtating! Bunday maqsadlarga erishish odatda amalga oshmaydi. Sizga bu maqsadlarga erishish psixologik jihatdan ham ogʻir koʻrinmayaptimi? Agar biron narsa qiyin yoki uzoq vaqt talab qiladiga boʻlsa, biz avtomatik ravishda bularni kechiktirish uchun millionlab bahonalar oʻylab topamiz. Biologiya bu biologiya darsliklarini qalinligi va takrorlash kerak boʻlgan maʼlumotlarning koʻpligi tufayli oʻquvchilar tomonidan eng koʻp chetga suriladigan soha hisoblanadi.

Qisqa vaqtda qilsa boʻladigan kichik maqsadlar qoʻying[1]. Kichik vazifa qoʻyishga, uni bajarishga odatlaning va keyin boshqasini bajarishga kirishing. Ochigʻini aytganda, bu kichik qadamlar bizning kechiktirishga qarshi kurashishdagi eng samarali usuldir. Marraga sekin borishingizni ahamiyati yoʻq, muhimi toʻxtab qolmasangiz boʻldi. Yaʼni butun darslikni bir haftada oʻqishdan koʻra har hafta 5 ta boʻlimni oʻqish ancha osonroq. Bundan tashqari vazifa qanchalik kichik boʻlsa, shunchalik kam xavotirlanasiz. Kichik vaqt esa sizni maqsadga oʻz vaqtida erishishingiz uchun, qoʻlingizdan kelganini qilishingizga undaydi. Albatta oʻz vaʼdasini bajarmaydigan magʻlub inson boʻlishni kim ham xohlardi...

Endi sizda maqsadlaringizga qanday erishish mumkinligini oʻrgatadigan baʼzi tushunchalar paydo boʻldi. Ushbu vaziyatda SMART[2] metodi qoʻl keladi. Ushbu strategiya sizga aniq maqsadlarni qoʻyish, ularni loyihalashtirish va oʻzingizni muvaffaqiyatsizlikka tayyorlab qoʻymasligingizni kafolatlaydi. U sizning maqsadlaringizni quyidagicha umumlashtiradi:

Specific (maxsus) – maqsadlaringizga erishish uchun aniq belgilangan harakat qilishingiz kerak. Bu sizning “nima”, “nima uchun” va “qanday qilib” kabi savollaringizga javob beradi.

Measurable (baholanadigan) – taraqqiyotingizni kuzatish va kerakli natijani baholash uchun sizda yoʻl bor. Rivojlanishingizni oʻlchash orqali maqsadingizga yetyapsizmi yoki yoʻqmi, buni bilib olasiz.

Attainnable (erishib boʻladigan) – haqiqatan ham maqsadingizga erishib boʻladimi? Unga erishish uchun maʼlum koʻnikma va bilimlarga ega bilimlarga egamisiz?

Real (haqiqiy) – maqsadlaringiz haqiqiymi? Vaqtingizga arziydimi?

Time-Bound (chegaralangan vaqt) – maqsadlaringizni maʼlum muddatlar bilan chegaralang. Natijada sizda shoshilinchlik hissi paydo boʻladi, kechiktirish esa hatto hayolingizga ham kelmaydi[3].

Keling unda bitta misolni koʻrib chiqaylik. Olimpiadada ishtirok etishni istagan deyarli barcha oʻquvchilar orasida “Men Campbellni toʻliq yodlamoqchiman” degan gaplar keng tarqalgan. Maqsad aniq (yaʼni darslikni yodlash), lekin oʻlchanmagan va aniq vaqt bilan ham bogʻlanmagan. Bundan tashqari, agar sizda muvaffaqiyatni baholash uchun belgilangan muddatlar va choralar boʻlmasa, bu haqiqatdan amalga oshishi mumkinmi? Maqsadingizga erishish uchun strategiya yoki reja tuzish haqida oʻylab koʻrdingizmi (boshqacha qilib aytganda bu maqsadingizga erishsa boʻladimi)? Agar oʻylab koʻrmagan boʻlsangiz unda siz allaqachon muvaffaqiyatga uchradingiz. Chunki maqsadingiz masʼuliyatga ega emas va juda ham noaniq.

Keling maqsadingizni SMART metodiga qoʻyib, qayta tahlil qilamiz.

*1 James, L.E. (2004) Meeting Mr. Farmer versus meeting a farmer: specific effects of aging on learning.*

*2 2https://www.google.com/search?q=maqsadlaringizga+smart+usulida+erishing&oq=maqsadlaringizga+smart+usulida+erishing&aqs=chrome..69i57.15092j0j15&sourceid=chrome&ie=UTF-82.*

*3 Martina Petrulyte and Coffee – How to prepare for the biology olympiad and science competitions.*



Natijada “Mening maqsadim Campbelldan har hafta 5 ta boʻlimni oʻrganish va uni 11 haftada 55 ta boʻlimni oʻqib tugatish” kabi tushuncha paydo boʻladi. Maqsadingiz aniq (Campbelldan hamma narsani oʻrganish), baholangan (oʻrganishingiz kerak boʻlgan 55 ta boʻlim bor), vaqt bilan bogʻlangan (sizda jami 11 hafta bor), real va erishish mumkin (siz oʻz ishingizni 5 ta boʻlakka ajratish orqali amalga oshirish mumkin boʻlgan rejaga ega boʻlasiz. Bu metodning bizga yoqadigan tomoni shundaki, uning yordamida siz maqsadlaringizni oʻlchashingiz mumkin boʻladi va bu sizni yanada oldinga siljitadi. Har haftaning boshida SMART metodiga tayanib maqsadlar qoʻying, haftaning soʻnggida muvaffaqiyatlaringizni tekshiring va yangi haftalar uchun yana yangi maqsadlar qoʻying.

Oʻzingizni motivatsion iqtiboslar orqali ragʻbatlantiring. Devoringizga motivatsion iqtiboslar yopishtirish sizga biologiya yoʻlida davom etishingiz va kechiktirishni yengishingizga yordam beradi. Har tong uygʻonganingizda yoki maktabdan qaytayotganingizda kimdir tomonidan aytilgan “Bugun eng yaxshisi emasdir, ammo kechagidan yaxshiroq” kabi iqtiboslarga duch kelganingizda oʻzingizni qanday his qilasiz? Siz uchun bu soʻzlar bemorga adrenalin yuborgandagi kabi moʻjizalar paydo qiladi.

Taslim boʻlishni xohlayotgan paytingiz, ruhiy holatingizni yaxshilash uchun motivatsion iqtiboslar toping. Masalan Uinston Cherchill qiyinchiliklar, kurashlar va orzularga intilish haqida juda koʻp yurakka taʼsir qiladigan iqtiboslar aytgan. Istagan narsangizga erishishmaganingizcha kurashishdan toʻxtamang. Xonaningizga “hamma narsani iloji bor” degan soʻzni ilib qoʻying.

Kelajagingiz haqida oʻylang. Agar siz ishingizni kechiktirishni yengish yoʻllarini izlayotgan boʻlsangiz, kelajagingiz haqida tasavvur qilishga urinib koʻring. Yakunda nimaga erishmoqchi ekanligingizni oʻzingizga aytishingiz sizga kifoya qiladi. Biologiya olimpiadasi sizga qanday yutuqlar olib kelishi haqida tasavvur qilib koʻring. Masalan, olimpiadadan keyin sizga koʻrsatiladigan hurmat, ega boʻlgan bilimlaringiz miqdori, hujjat topshirishingiz mumkin boʻlgan eng yaxshi universitetlar va ishtirok etishingiz mumkin boʻlgan eng yaxshi tadqiqot amaliyotlari... Koʻryapsizmi sizga qanchalik koʻp eshiklar ochilyapti! Yangi strategiya ham tayyor! Bu kichik motivatsiya sizni ancha vaqt ilhomlantirishi mumkin.

Shu bilan bir qatorda, kelajakda kim boʻlishni xohlayotganingizni oʻylab koʻring. Tez-tez oʻzingizni mohir olim, jarroh, tadbirkor yoki kelajakda boʻlishni xohlagan boshqa kasb egasi sifatida tasavvur qilib koʻring. Shuni yodda tuting: eng yuqori choʻqqiga chiqishingiz uchun barcha mashaqqatli yoʻllarni bosib oʻtishingiz kerak . Biologiya sayohatingizni kelajak haqida oʻylash bilan boshlang.

Sizni chalgʻitadigan ishlar sonini kamaytiring. Maqsadingiz aniq boʻlgan boʻlsa, boshqa mashgʻulotlarga sarflaydigan vaqtingizni kamaytiring . Tripletlarlar maʼlum bir aminokislotaga xos boʻlgani kabi, siz ham biologiyaga xos boʻlishingiz, yaʼni sizga foyda bermaydigan narsalardan xalos boʻlishingiz kerak. Shunday ekan, kompyuter va telefoningizni oʻchirib qoʻying, doʻstlaringiz va qarindoshlaringizdan uzoqroqda boʻlgan, oʻqish uchun qulay va sokin joy toping va boshqalarga hozir oʻqish bilan band ekanligingiz haqida xabar bering. Bularni amalga oshirishdan koʻra aytish ancha osonroq.

Tasavvur qilib koʻrganmisiz, sizning eng katta dushmaningiz nima? Ha, albatta topgan boʻlsangiz kerak! Doʻstlaringiz va hatto oila aʼzolaringiz ham sizni oʻqishdan chalgʻitishi mumkin, bu esa rivojlanishingizni sekinlashtirishi va oxir oqibat qilishingiz kerak boʻlgan ishlarni kechiktirishni boshlaysiz. Atrofingizdagi odamlar sizni biologiyaga koʻp vaqt ajratayotganingiz va ularga eʼtibor bermayotganligingiz uchun sizni ayblashlari tabiiy hol albatta. Ularni xatti-harakatlari sizni stressga ham solib qoʻyishi mumkin. Xoʻsh, bularni yengish uchun nima qila olasiz? Agar sizning doʻstlaringiz chindan ham rahm-shafqatli boʻlsa va sizga gʻamxoʻrlik qilsa, ular sizni ayblamasdan, biologiyaga boʻlgan mehringizni tushunishadi.

Yaxshi natijaga erishish uchun vaqti-vaqti bilan oʻqishdan chalgʻib turish kerak. Bu hatto tabiatda ham mavjud. Masalan, oraliq buzilish gipotezasi maʼlum bir muhitda turlarning xilma-xilligi atrof-muhit oʻzgarishining oraliq darajalarida eng yuqori

boʻlishini taʼkidlaydi[4]. Xoʻsh, kechiktirishni yengishning sehrli formulasi nima? Chalgʻitadigan narsalarni rejalashtiring va ularni haftalik oʻqish jadvalingizga kiriting. Bu sizni koʻproq ishlashga undaydigan juda kuchli motivator boʻlib xizmat qiladi. Nega? Chunki oxir-oqibat oʻzingizga munosib sovgʻa olishingizni, yaʼni oʻzingiz xohlagan ishingizni qilishingiz mumkinligini bilasiz.

Vaqt taymeridan foydalaning. Bu usul 1980-yillarning oxirida Francesco Cirillo tomonidan ishlab chiqilgan Pomodoro texnikasi sifatida tanilgan usul hisoblanadi[5]. Bu usul ishni qisqa tanaffuslarga ajratish uchun taymerdan foydalanishga asoslangan, yaʼni siz darslik oʻqiyotganingizda yoki biologiya varaqlarini bajarayotganingizda, taymerni maʼlum bir vaqt oraligʻiga, masalan, 60 daqiqaga oʻrnating. Bu vaqt ichida topshiriqni imkon qadar koʻproq bajaring. Ishingizni bajarayotganingizda, soatning tiqillashiga diqqat bilan quloq soling. Taymer jiringlaguncha iloji boricha koʻproq vazifa bajarishga oʻrganishingiz lozim. Sizda faqat bitta urunish bor. Shuning uchun, vazifani bajarish uchun qoʻlingizdan kelganini qiling, goʻyo bu sizning qoʻlingizdan kelganini koʻrsatish uchun yagona imkoniyatdir. Vaqt tugagach, oʻzingizga qisqa tanaffus bering (3-5 daqiqa) va oʻqish (poyga)ning boshqa bosqichiga oʻting.

Odatlarni shakllantirish[6]. Har kuni kamida uch soat biologiya olimpiadasiga tayyorlanishni odat qiling. 17:00 dan 20:00 gacha yoki 18:00 dan 21:00 gacha boʻladimi, shunchaki oʻqish vaqtini belgilang. Ushbu qolipga oʻrganing va tez orada bu vazifa miyangizda odat sifatida kodlanganligini koʻrasiz. Koʻryapsizmi, odatlarga iroda kerak emas, faqat takrorlash kerak. Bu esa sizni doimiy ravishda, yaʼni har kuni harakat qilishingizga undaydi. Aslida, hamma gap izchillikda, yaʼni siz allaqachon payqaganingizdek, olimpiadaga tayyorgarlik koʻrishdadir.

Yuqoridagi maʼlumotlardan koʻrinib turibdiki, fan olimpiadalariga tayyorgarlik shunchaki oddiy jarayon emas. Fan olimpiadasini hayotimizning mazmuni va hal qiluvchi omil sifatida koʻrmaganimizcha natijalarimizda siljish kuzatilmaydi. Biz ijtimoiy shaxs sifatida va jamiyatning bir boʻlagi sifatida yashar ekanmiz oldimizda koʻplab cheklovchi, bizni pessimum zonadan[7] ogʻishga majbur qiluvchi omillar duch keladi. Yuqorida keltirilgan metodlar orqali ularni chetlab oʻtishimiz yoki yengishimiz mumkin boʻladi. Oʻquv jarayonlarimizni aniq rejalashtirish va bunday usullarni tayyorgarlik jarayonlarida qoʻllash orqali samaradorlikni yanada oshirishimiz, hamda, vaqtni sezilarli darajada qisqartirishimiz mumkin boʻladi.

4 Rohrer, D., & Pashler, H. (2012) Learning styles: Where's the evidence? Medical Education, 46, 630-635..
5 Naka, M., Naoi, H. (1995) The effect of repeated writing on memory. Mem Cognit. 23(2):201-12..
6 Bui, D. C., Myerson, J., & Hale, S. (2013) Note-taking with computers: Exploring alternative strategies for improved recall. Journal of Educational Psychology, 105(2), 299-309. .
7 Pessimum zona – organizmning yashashi uchun noqulay muhit zonasi, chidamlilik chegarasidan ogʻgan hol..



**ЎЗБЕКИСТОН РЕСПУБЛИКАСИ ФАНЛАР АКАДЕМИЯСИ**
**ПОЛИМЕРЛАР КИМЁСИ ВА ФИЗИКАСИ ИНСТИТУТИ**
**"ЮҚОРИМОЛЕКУЛЯР БИРИКМАЛАР" МУАММОВИЙ КЕНГАШИ**



**« ПОЛИМЕРЛАР ВА УЛАРНИНГ ҚЎЛЛАНИЛИШИ ҲАҚИДАГИ ФАННИНГ ФУНДАМЕНТАЛ МУАММОЛАРИ»**

***Халқаро анжумани***

**Анжуман Ўзбекистон Республикаси Мустақиллигининг 32-йиллигига,**

**Ўзбекистон Республикаси Фанлар Академиясининг 80 йиллигига,**

**таниқли фан ва давлат арбоби, ЎзР ФА Полимерлар кимёси ва физикаси институти директори, академик Рашидова Сайёра Шарафовна таваллудининг 80 йиллигига бағишланади**

***2023 йил, 2-3 август***

Jurnalning xalqaro ISSN raqami : 2181-6131
Jurnalning Index raqami: 3535